OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE PROCEEDINGS

DAVLAT TILI – TARAQQIYOT VA MILLIY YUKSALISH MEZONI

MAQOLALAR TO'PLAMI | COLLECTION OF PAPERS

INTERNATIONAL CONFERENCE | XALQARO ILMIY KONFERENSIYA

SAMARQAND | SAMARKAND 2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
“O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI” KAFEDRASI

“DAVLAT TILI – TARAQQIYOT VA MILLIY YUKSALISH MEZONI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLAR TO‘PLAMI (1-qism)

(2026-yil 20-21-oktabr)

SAMARQAND-2026

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА
КАФЕДРА “УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ”

Сборник материалов международной научно-практической конференции на тему (часть 1):

“ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЯЗЫК – КРИТЕРИЙ РАЗВИТИЯ И НАЦИОНАЛЬНОГО ПРОГРЕССА”

(20-21 октября 2026 г.)

САМАРКАНД-2026

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
SAMARKAND INSTITUTE OF ECONOMICS AND SERVICE
DEPARTMENT OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

Collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic (part 1):

"THE STATE LANGUAGE A CRITERION OF DEVELOPMENT AND NATIONAL PROGRESS"

(October 20-21, 2026)

SAMARKAND-2026

UO'K: 811.512.133:342.725
Y18
KBK: 81.2Ўзб + 67.401

"DAVLAT TILI – TARAQQIYOT VA MILLIY YUKSALISH MEZONI" *Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari 2026-yil 20-21-oktabr. Samarqand, SamISI, 2026. – 457 bet.*

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:
D.B.Yuldasheva - SamISI "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi mudiri, filologiyafanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent.

Nashr uchun mas'ullar:
A.S.Adilova – SamISI "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi katta o'qituvchisi, f.f.n.
D.J.Norboyeva - SamISI "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi katta o'qituvchisi
T.A.Chernova - SamISI "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi o'qituvchisi.

Xalqaro miqyosda o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman materiallarida professor-o'qituvchilar, yosh olimlar, katta ilmiy xodim izlanuvchilar, magistrantlar va iqtidorli talabalarning davlat tili tadqiqiga oid dolzarb muammolariga bag'ishlangan.

To'plamdagi materiallardan professor-o'qituvchilar, yosh olimlar, katta ilmiy xodim izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, iqtidorli talabalar va amaliyot xodimlari o'z ilmiy faoliyatlarida foydalanishlari mumkun.

Taqrizchilar:
M.B.Abdiyev – filologiya fanlari doktori, professor;
A.M.Shofqorov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas'ul.

ISBN: 978-9910-350-20-7

©Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026 y.

DAVLAT TILIGA E’TIBOR – MILLAT RAVNAQIGA E’TIBOR

M.E.Po‘latov

SamISI rektori, i.f.d., professor

Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili o‘zlikni anglash, millatimizning boyligi, faxri va g‘ururidir. Hech shubhasizki, hech qaysi davlat yo‘qki, o‘z ona tilini ulug‘lamagan, uning sha’ni va obro‘si uchun kurashmagan. 1989-yil 21-oktabrda “Davlat tili haqida”gi Qonnunning qabul qilinishi istiqlolga erishish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Ona tilimiz o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘ldi. O‘zbek tili xalqaro miqyosda e’tirof etildi.

Ko‘plab ta’lim-tarbiya maskanlari, ommaviy axborot vositalari o‘zbek tili bilan birga qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman tillarida faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonunda televideniya va radio eshittirishlari davlat tilida, shu bilan bir qatorda boshqa tillarda ham olib borilishi belgilab qo‘yilgan. Xorijiy davlatlardagi oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek tili va adabiyotining o‘qitilishi, sohada ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borayotgan chet ellik olimlar safining ortib borayotganligi ona tilimiz ravnaq topib borayotganligidan dalolatdir.

Yurtimizda davlat tiliga bo‘lgan e’tibor ortdi. Bunday e’tiborning namunasi sifatida yoshlarning iste’dodi va ijodiy salohiyatini rivojlantirish maqsadida o‘zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy ijod maktabi, Muhammad Yusuf nomidagi ona tili va adabiyot fanini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan atoqli shoir va adiblarimiz nomlaridagi maktablarning tashkil etilganligi, o‘sib kelayotgan yosh avlod qalbi va ongiga Ona Vatanga, o‘z tiliga bo‘lgan g‘urur va iftixorning belgisi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lamida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi apparati tarkibiy bo‘linmasi hisoblangan Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil qilindi.

Bu kabi siljishlar, o‘zgarishlarga qaramay, davlat tilida ish yuritish masalasi ayrim davlat tashkilotlari uchun ham og‘riqli masala bo‘lib qolmoqda. Ba’zi tashkilotlarda ish yuritish hamda muloqot jarayoni hali hamon o‘zbek tilida olib borilgani yo‘q. Shuningdek, bo‘limlarda ish yuritish, rasmiylashtirish davlat tilida bo‘lishi kerakligiga alohida ahamiyat bermog‘imiz lozim.

Ma’rifatparvar alloma, o‘z davrining mohir tarjimoni, shoir, yozuvchi Ishoqxon Ibratning “Bizning yoshlar albatta boshqa tilni bilish uchun sa’y-harakat qilsinlar, lekin avval o‘z tilini ko‘zlariga to‘tiyo qilib, ehtirom ko‘rsatsinlar. Zero, o‘z tiliga sadoqat-bu vataniy ishdir” degan so‘zlarini , ayniqsa, bugungi davr yoshlari uchun o‘z ona tilini qadrlashi lozilmligini his qilib turibdi.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi tashabbusi bilan “Zamonaviy tilshunoslikni takomillashtirishda strategik yo‘nalishlar” mavzusida tashkil etilgan xalqaro an’anaviy ilmiy-amaliy konferensiyasi davlat tilining sofligini saqlash, ta’lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirishga qaratilgan.

Bugungi ilmiy anjuman ishiga muvaffaqiyat tilar ekanman, mazkur tadbirda o‘zbek tilini siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy –ma’rifiy shuningdek, tashkilotlarda, o‘zbek tilini muntazam boyitib borishda davlat tili o‘qitilishi hamda o‘zbek tili va adabiyotini yanada rivojlantirish borasidagi ilmiy, ilmiy-amaliy izlanishlarda muhim ahamiyat kasb etishiga ishonaman.

I - SHO‘BA: DAVLAT TILI – TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA.

ALISHER NAVOIY IJODIDA TIL MASALASI

(Turkıy tılnıng ılmıy, nazarıy va badııy zafarı)

The Language Issue in the Works of Alisher Navoiy

(The Scientific, Theoretical, and Literary Triumph of the Turkic Language)

Almaz Ulviy BINNATOVA
filologiya fanlari doktori, professor
Ozarbayjon Milliy Ilmlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nom.
Adabiyot instituti Ozarbayjon-Turkmaniston-O‘zbekiston
adabiy aloqalari bo‘limi mudiri,
O'zbekiston Respublikasining "Do'stlik" ordeni sohibi,
ulvialmaz@gmail.com; ***orcid*** *– 0000-0001-7991-3969*

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishi XV asr Sharq renessansining buyuk mutafakkiri Alisher Navoiy ijodidagi til masalalari, turkiy tilning ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-nazariy maqomini yuksaltirish borasidagi qarashlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada Navoiyning lisoniy falsafasi, xususan, uning fundamental asari bo‘lmish "Muhokamatul-lug‘atayn" risolasining qiyosiy-tarixiy tilshunoslik-dagi o‘rni ilmiy prinsiplar asosida yoritilgan. Navoiyning turkiy va forsiy tillarni leksik, grammatik va poetik jihatdan qiyoslagani, turkiy tilning boy imkoniyatlarini amalda isbotlash uchun o‘zbek adabiy tilida (chig‘atoy tili) "Xamsa" va devonlar yaratgani tahlil qilingan. Shuningdek, Navoiy asos solgan adabiy til me’yorlarining umumturkiy madaniy makonga, jumladan, Ozarbayjon adabiy muhitiga ko‘rsatgan ta’siri tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, til masalasi, Muhokamatul-lug‘atayn, turkiy til, chig‘atoy tili, leksik boylik, Xamsa, lisoniy falsafa.*

Abstract: This research paper is dedicated to the analysis of the language issue in the works of Alisher Navoiy, the great thinker of the 15th-century Oriental Renaissance, and his views on elevating the socio-political, scientific, and theoretical status of the Turkic language. The paper scientifically highlights Navoiy's linguistic philosophy, specifically focusing on the significance of his fundamental treatise "Muhokamatul-Lugatayn" (The Trial of the Two Languages) in comparative-historical linguistics. It analyzes how Navoiy compared the Turkic and Persian languages from lexical, grammatical, and poetic perspectives, and how he

practically demonstrated the rich potential of the Turkic language by creating the "Khamsa" and various diwans in the Chagatai (Old Uzbek) literary language. Furthermore, the study examines the impact of the literary language norms established by Navoiy on the broader Turkic cultural realm, including the Azerbaijani literary environment.

Keywords: *Alisher Navoiy, language issue, Muhokamatul-Lugatayn, Turkic language, Chagatai language, lexical richness, Khamsa, linguistic philosophy.*

KIRISH

Buyuk o‘zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy (1441–1501) nafaqat turkiy dunyo, balki jahon adabiyoti va madaniyati tarixining eng yorqin siymolaridan biridir. XV asr Xuroson muhitida, Temuriylar renessansining gullab-yashnagan davrida yashab ijod qilgan Navoiy, o‘zining badiiy dahosi bilan bir qatorda, turkiy tilning milliy o‘ziga xosligi, boyligi va ilmiy-falsafiy salohiyatini namoyon etgan nazariyotchi olim sifatida ham tarixda qolgan [Valixo‘jayev, 2011: 45]. Navoiy ijodida til masalasi shunchaki tilshunoslik predmeti emas, balki barcha turkiy xalqlarning madaniy borligini saqlash, milliy o‘zligini tasdiqlash va adabiy tilning poetik imkoniyatlarini eng yuqori cho‘qqiga ko‘tarish yo‘lidagi keng ko‘lamli g‘oyaviy, falsafiy va badiiy kurashdir.

Navoiy yashagan davrda Yaqin va O‘rta Sharqda, xususan, Temuriylar saroyida hamda ilmiy-adabiy majlislarda fors tili hukmron mavqega ega edi. She’riyat, falsafa, tarix va davlat hujjatlari asosan fors tilida yozilar, turkiy til esa badiiy va ilmiy ifoda uchun yetarsiz, "qo‘pol" til deb hisoblanar edi [Rustamov, 1987: 112]. Bunday murakkab tarixiy sharoitda Alisher Navoiy ham o‘zining ulug‘vor badiiy asarlari ("Xamsa", devonlar), hamyana fundamental ilmiy-nazariy risolasi bo‘lmish "Muhokamatul-lug‘atayn" (Ikki til muhokamasi) bilan turkiy tilning fors tilidan aslo kam emasligini, aksincha, ko‘p jihatdan undan ustun va boy ekanligini isbotladi. Ushbu tadqiqotda Alisher Navoiy ijodida til masalasining ilmiy-nazariy asoslari, "Muhokamatul-lug‘atayn" asarining tilshunoslik tarixi nuqtai nazaridan ahamiyati, shoirning badiiy ijodida turkiy tilni qo‘llash prinsiplari va uning til falsafasining keyingi turkiy xalqlar adabiy tilining shakllanishiga ko‘rsatgan ta’siri keng tahlil qilinadi.

ASOSIY MATN:

1. XV asr Xuroson madaniy muhiti va til vaziyati – Alisher Navoiyning lisoniy faoliyatini to‘g‘ri baholash uchun u yashagan davrning madaniy, siyosiy va lisoniy muhitiga nazar tashlash lozim. Sulton Husayn Boyqaro hukmronligi yillarida Hirot shahri Sharqning eng yirik madaniyat, ilm va san’at markaziga aylandi. Bu muhitda ziyolilar, shoir va olimlarning katta qismi forsiyzabon edi yoki forschada

yozishni afzal ko‘rardi. Hatto turkiy xalqlarga mansub ijodkorlar ham o‘z asarlarini fors tilida qalamga olar edilar. Chunki fors tili asrlar davomida shakllangan boy poetik an’anaga, barqaror grammatik qoidalarga, boy badiiy tasvir vositalariga va xalqaro maqomga ega edi [Dadaboyev, 2019: 78]. Fors tili saroyda, byurokratiyada va diplomatiyada asosiy muloqot vositasi sifatida ildiz otgandi. Turkiy til (o‘sha davr terminologiyasi bilan aytganda, chig‘atoy tili yoki turkiy til) esa og‘zaki xalq ijodiyotida va qisman xalq she’riyatida keng qo‘llanilsa-da, yuksak saroy adabiyoti va ilmiy traktatlarda o‘ziga mustahkam o‘rin topa olmagan edi. Ko‘plab konservativ adiblar va forsiy she’riyat tarafdorlari turkiy tilda nozik ma’nolarni, ishq va tasavvuf mavzularini falsafiy chuqurlik bilan ifodalash imkonsiz deb da’vo qilishardi. Turkiy til go‘yo faqat harbiy va ma’muriy sohada buyruqlar berishga yaroqli, ko‘chmanchilarning qo‘pol tili sifatida qabul qilinar edi [Sodiqov, 2020: 154]. Navoiy bu xavfli tendensiyani, ya’ni o‘z ona tilining unutilishi va assimilyatsiyaga uchrashi xavfini chuqur his qildi. U bir xalqning madaniy renessansi, siyasiy mustaqilligi va vaqtinchalik emas, balki tarixiy davomiyligi uning ona tilining rivojlanish darajasi hamda davlat-madaniyat maqomi bilan uzviy bog‘liqligini yaxshi tushunardi. Agar bir millat o‘z tilida ilm va san’at yarata olmasa, uning siyosiy hokimiyati ham uzoq yashay olmas edi. Shu bois Navoiy o‘z oldiga milliy va vatanparvarlik maqsadini qo‘ydi: turkiy tilni adabiyot, ilm, falsafa va davlat tiliga aylantirish, uning ichki yashirin salohiyatini dunyoga namoyon etish [Qosimov, 2013: 88].

2. "Muhokamatul-lug‘atayn" – turkiy tilshunoslik va komparativistikaning shohasari – Alisher Navoiyning tilshunoslik nuqtai nazaridan eng muhim, fundamental va dasturilamal asari 1499-yilda, umrining so‘nggi yillarida, boy tajribaga ega bo‘lgan davrda yozilgan "Muhokamatul-lug‘atayn" (Ikki til muhokamasi) traktatidir [Alisher Navoiy, MAT, 1996: 16-tom]. Ushbu asar jahon tilshunosligi tarixida qiyosiy-tarixiy metodning (komparativistika) ilk mukammal va ilmiy asoslangan namunalaridan biri hisoblanadi. Navoiy bu asarda turkiy (chig‘atoy) va forsiy (sart) tillarini leksik, grammatik, semantik, fonetik va poetik darajada dialektik qiyoslab, turkiy tilning boyligini real ilmiy faktlar bilan asoslab beradi [Xayrullayev, 1991: 210]. Navoiy ushbu risolada shunchaki emotsional, subyektiv mulohazalar bilan emas, balki butunlay ilmiy-lingvistik dalillar va lisoniy-statistik ma’lumotlar bilan chiqish qiladi. U turkiy tilning fors tili oldidagi ustunliklarini va uning o‘ziga xos badiiy imkoniyatlarini bir nechta muhym ilmiy bandlarda guruhlaydi:

2.1. Leksik Boylik va Sinonimiya Imkoniyatlari – Navoiy turkiy tilning so‘z ijodkorligi salohiyati va fe’l tizimi hayratlanarli darajada kengligini ko‘rsatadi. U asarda fors tilida bitta so‘z bilan ifodalanadigan yoki murakkab birikmalar, tasviriy yo‘llar bilan tushuntiriladigan tushunchalarning turkiy tilda o‘nlab turli va nozik ma’noli mustaqil so‘zlar bilan ifodalanishini qayd etadi. Shoir, fors tilida aniq

muqobili bo‘lmagan 100 ta turkiy fe’lni ro‘yxat holida taqdim etadi [Alisher Navoiy, MAT, 1996: 22]. Masalan, yig‘lamoq, kulmoq, yurmoq, boqmoq kabi fundamental harakatlarning turkiy tildagi o‘ziga xos shakllarini (masalan, qarashning turlari: diqqat bilan qarash, yashirin qarash, ko‘z ostidan qarash, hayrat bilan qarash va h.k. kontekstida alohida chig‘atoycha fe’llarni) namuna qilib keltiradi. Bu esa tilning harakat va dinamikani ifodalash qobiliyati naqadar yuqoriligidan dalolat beradi.

2.2. Turmush, tabiat va kundalik hayotning o‘ziga xos terminlari – Navoiy chorvachilik, ovchilik, tabiat hodisalari, qurol turlari va ro‘zg‘or buyumlari bilan bog‘liq turkiy tilda mavjud bo‘lgan ilmiy terminologiyaning boyligini ta’kidlaydi. U qushlar va hayvonlarning yoshi, rangi va turlariga ko‘ra ataladigan maxsus nomlarini sanab o‘tadi [Sodiqov, 2020: 189]. Bunday aniqlik fors tilida yo‘q edi va tushunchalarni ifodalash uchun qo‘shimcha aniqlovchilarga ehtiyoj qolardi. Navoiy turkiy til real hayot, tabiat va insonning kundalik faoliyati bilan naqadar uzviy bog‘liq bo‘lsa, uning pragmatik va leksik bazasi ham shunchalik boy ekanini isbotlaydi.

2.3. Poetik imkoniyatlar, fonetika va tovush tizimi – Navoiy turkiy tilning fonetik qurilishi, alliteratsiya (tovushlar takrori), assonans va qofiya imkoniyatlari she’riyatda o‘ziga xos musiqiylik, ichki ohangdorlik yaratishini ta’kidlaydi [Rustamov, 1987: 145]. Turkiy tilning agglyutinitiv xususiyati – ya’ni so‘z o‘zaklariga matematik aniqlik bilan qo‘shimchalar qo‘shish orqali yangi ma’nolar, fe’ldan ot, otdan fe’l yasash mexanizmi shoirga badiiy tasvir va poetik improvizatsiya paytida katta harakat erkinligi va keng ufqlar bag‘ishlaydi.

Navoiy o‘z asarida faqat forschada yozadigan, o‘z tilini kamsitadigan turkiy yoshlarni, ziyolilarni keskin tanqid qiladi va ularni o‘z ona tillarining "go‘zallik xazinasi"dan bahramand bo‘lishga chaqiradi. U ko‘plab yoshlar osonlik va tayyor fors adabiy an’anasi ilinjida forschada yozishini, chunki turkiy tilning tub-tubiga tushish, uning yashirin durlarini topib chiqish katta mehnat, ilmiy bilim va tug‘ma iste’dod talab qilishini yozgan edi [Qosimov, 2013: 104]. Navoiy ushbu og‘ir mehnatga bardosh berib, turkiy tilning qorong‘ulikda qolgan go‘zalliklarini oshkor qilganini va kelajak avlodlarga yo‘l ko‘rsatganini g‘urur bilan ta’kidlaydi.

3. Badiiy ijodda til siyosati va "Turkiy she’r bayrog‘i" – Alisher Navoiy nafaqat nazariyotchi, balki o‘z ilmiy nazariyasini badiiy amaliyotda eng yuksak, klassik darajada qo‘llagan va isbotlagan daho edi. Uning turkiy tilda yaratgan ulkan, minglab sahifalik badiiy merosi ushbu tilning qanday cho‘qqilarga ko‘tarila olishini amaliy jihatdan butun Sharq dunyosiga namoyish etdi [Valixo‘jayev, 2011: 72].

3.1. "Xamsa" – Milliy Iftixor va Til Sinovi – Navoiygacha Sharq adabiyotida "Xamsa" (beshlik) yozish an’anasi yuksak intellektual mezon hisoblanar edi va bu an’ana faqat fors tilida (Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy tomonidan) mavjud edi. Turkiy tilda Xamsa yaratish o‘sha davr adabiy

muhitida badiiy xudkushlik bilan tenglashtirilardi. Chunki falsafiy mulohazalarni, murakkab tasavvufiy ramzlarni, Sharq mifologiyasini va chuqur ishq falsafasini turkiy tilda ifodalash imkonsiz deb hisoblanar edi [Xayrullayev, 1991: 245].

Navoiy ushbu vaqtli va qiyin sinovni yuksak jasorat bilan yengib o‘tdi. U qisqa muddat ichida (1483–1485) o‘zining muhtasham "Xamsa"sini ("Hayratul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab’ai sayyor", "Saddi Iskandariy") turkiy tilda qalamga oldi. Bu bilan u daho Nizomiy iqtidoriga o‘z ehtiromini bildirish bilan birga, turkiy tilning fors tili bilan teng darajada, hatto undan ham balog‘atli epik she’riyat yaratishga qodirligini isbotladi. Navoiy "Xamsa"ning turli fasllarida va muqaddima qismlarida turkiy tilda yozishining sababini, bu yo‘lda chekkan zehniy azoblarini ifoda etadi, o‘zini "turkiy she’r bayrog‘ini ko‘targan va turkiy adabiy geografiyani fath etgan xoqon" sifatida taqdim etadi [Alisher Navoiy, MAT, 1986: 6-tom]. Uning bu qadami turkiy tilli xalqlarning adabiy o‘ziga bo‘lgan ishonchini qayta tikladi.

3.2. Lirik meros va "Xazayinul-maoniy" devonlar külliyoti – Navoiyning boy lirik merosi inson umrining to‘rt davriga muvofiq ravishda tartib berilgan "Xazayinul-maoniy" (Ma’nolar xazinasi) deb nomlangan to‘rtta ulkan devonda jamlangan. Bu yerda shoir g‘azal, ruboiy, qit’a, tuyuq, qasida va boshqa janrlarda turkiy tilning eng nozik falsafiy, lirik, oshiqona va tasavvufiy qirralarini yuksak san’atkorlik bilan namoyish etgan [Rustamov, 1987: 201]. Navoiy she’riyatida o‘sha davr ilmiy talablariga muvofiq ravishda arab va fors tillaridan olingan so‘zlar, terminlar qo‘llanilgan bo‘lsa-da, u bu tashqi elementlarni turkiy tilning grammatik, sintaktik va fonetik qonuniyatlariga shunday mahorat bilan bo‘ysundiradiki, asarlar to‘laqonli milliy ruh va badiiy shakl kasb etadi. Shu bilan birga, sof turkiy janr hisoblangan, jinosli qofiyalarga asoslangan "tuyuq" shakliga alohida ahamiyat berishi uning milliy folklorga, xalq ijodiyoti tomirlariga bog‘liqligi va tilning ichki musiqasini mukammal bilishining yaqqol dalilidir.

4. Navoiy til qarashlarining ilmiy, siyosiy va g‘oyaviy ahamiyati – Alisher Navoiyning til masalasiga bo‘lgan yondashuvi shunchaki bir ijodkorning shaxsiy ona tiliga bo‘lgan muhabbati yoki lokal tashabbusi sifatida tor doirada baholanishi mumkin emas. Bu faoliyat barcha turkiy xalqlar madaniy hududini qamrab olgan keng ilmiy-nazariy, g‘oyaviy va davlatchilik strategiyasi edi:

Milliy O‘zlikni va Davlatchilikni Saqlash: Navoiy til milliy borliqning, madaniy mustaqillikning yagona kafolati ekanini chuqur anglagan. Turkiy tilning adabiy-ilmiy maqomini ko‘tarish, Temuriylar davlatida boshqaruvchi elita bo‘lgan turklarning siyosiy va madaniy dominantligini ichkaridan mustahkamlashga, yot ta’sirlardan himoya qilishga xizmat qilar edi [Dadaboyev, 2019: 142].

Yagona Adabiy Til Me’yorining (Chig‘atoychaning) Yaratilishi: Navoiy o‘z asarlari va lisoniy faoliyati bilan o‘sha davrgacha tarqoq, lokal va regional dialektlar

holida bo‘lgan turkiy shevalarni tizimlashtirib, umumiy, klassik adabiy til – Chig‘atoy adabiy tili darajasiga ko‘tardi. U yaratgan ushbu til modeli asrlar davomida Markaziy Osiyodan Volgabo‘yigacha, Hindistondan Ozarbayjon va Usmonli hududlarigacha bo‘lgan keng maydonda turkiy ziyolilar, shoirlar uchun asosiy etalon va klassik maktab vazifasini o‘tadi [Sodiqov, 2020: 215].

Madaniy Mustaqillik va Universalizm: Navoiy turkiy adabiyotni va badiiy tafakkurni fors adabiy qaramligidan, taqlidchilikdan butunlay xalos etib, unga mustaqil, original va jahonshumul rivojlanish yo‘lini ochib berdi. U turkiy til universal til ekanligini, ham ilmiy traktat, ham davlat hujjati, ham oliy falsafiy she’riyat uchun ideal tuzilma bera olishini namoyish etdi [Valixo‘jayev, 2011: 119].

5. Navoiy til merosining turkiy dunyoga ta’siri va tarixiy vorislik – Alisher Navoiyning til sohasida ochgan yo‘li o‘zidan keyin kelgan buyuk turkiy shoirlar va davlat arboblari uchun mayoq vazifasini o‘tadi. U shakllantirgan badiiy til prinsiplari tufayli Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining mashhur "Baburnoma" nomli tarixiy-biografik shohasarini sof va ravon turkiy tilda yoza oldi. Bobur Navoiygacha bo‘lgan va undan keyingi tilshunoslik xizmatlarini yuksak baholab, uni turkiy tilning homiysi deb atagan edi [Dadaboyev, 2019: 198].

Shu bilan bir qatorda, Navoiy ijodi Ozarbayjon va Usmonli adabiy muhitiga ham chuqur ta’sir ko‘rsatgan. XVI asrning daho Ozarbayjon shoiri Muhammad Fuzuliy Navoiy she’riyatidan bahramand bo‘lgan, uning g‘azallariga tatabbular (naziralar) yozgan va o‘z asarlarida Navoiyning til boyligidan, badiiy ifoda tarzidan unumli foydalangan [Rustamov, 1987: 284]. Usmonli shoirlari (masalan, Ahmad Posho) Navoiyni o‘zlariga ustoz deb bilishgan, uning "chig‘atoycha" she’rlarini hayrat bilan mutolaa qilib, turkiy tilning umumiy qudratini anglab yetishgan. Bu jihatdan Navoiy butun turkiy dunyoni til va adabiyot tekisligida birlashtirgan ma’naviy ko‘prik vazifasini bajardi.

XULOSA

Alisher Navoiy ijodida til masalasi uning ham badiiy ijodining, ham ilmiy-nazariy merosining bosh chizig‘ini, falsafiy mag‘zini tashkil etadi. U "Muhokamatul-lug‘atayn" traktati bilan ilmiy turkologiyaning asosini qo‘ygan, ikki xil tizimli tilning (agglyutinitiv va flektiv) qiyosiy-tipologik tahlilini bergan ilk buyuk va vizioner olimlardandir. Navoiy isbotladiki, tilning buyukligi, uning intellektual va badiiy quvvati uning ayni paytdagi maqomida yoki kimlar tomonidan qo‘llanilishida emas, balki uning ichki ijodkorlik, so‘z yasalishi va falsafiy ifoda salohiyatidadir [Xayrullayev, 1991: 299].

Uning mislsiz ijodi va tebranmas irodasi tufayli turkiy til "qo‘pol xalq shevasi" tamg‘asidan qat’iy qutulib, falsafaning, ilmning, oliy tasavvufiy irfonning va jahon darajasidagi epik she’riyatning tiliga aylandi. Alisher Navoiy tomonidan

ko‘tarilgan "turkiy she’r bayrog‘i" asrlar davomida hilpirab, keyingi avlod turkiy ziyolilarining yo‘lini yoritdi. Bugun ham Navoiygacha bo‘lgan va uning o‘zi qoldirgan til merosi, uning ona tiliga bergan fundamental qiymati, ko‘rsatgan milliy g‘ayrati va ilmiy yondashuv uslubi butun turkiy dunyo, jumladan, mustaqil turkiy davlatlar uchun milliy iftixor, madaniy suverenitet va tuganmas o‘rnak manbaidir. Shoirning o‘z iborasi bilan aytganda, uning turkiy til xazinasidan qidirib topgan durlari bashariyat yashar ekan, o‘z jilosi va qiymatini saqlab qolaveradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami (MAT). 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1987–2003. (Xususan: 6-tom: Xamsa, 1990; 16-tom: Muhokamatul-lug‘atayn, 1996).
2. Dadaboyev, H. Alisher Navoiyning lisoniy qarashlari va sotsiolingvistik g‘oyalari. – Toshkent: Milliy universitet nashriyoti, 2019. – 240 b.
3. Rustamov, E. O‘zbek klassik adabiyotida til va uslub muammolari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1987. – 320 b.
4. Sodiqov, Q. Eski o‘zbek yozma tili tarixi va shakllanish bosqichlari. – Toshkent: Sharqshunoslik universiteti, 2020. – 288 b.
5. Valixo‘jayev, B. Alisher Navoiy ijodi va XV asr adabiy mühiti tarixidan. – Samarqand: Zarafshon, 2011. – 180 b.
6. Xayrullayev, M. M. Alisher Navoiy va Sharq uyg‘onish davri falsafasi. – Toshkent: Fan, 1991. – 312 b.
7. Qosimov, B. Milliy uyg‘onish va lisoniy merosimiz. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013. – 160 b.
8. Binnatova (Ulvi), Almaz. Alisher Navoiyning asri va nasri (Ilmiy-filologik va diniy-tasavvufiy asarlari) (Monografiya). Ilmiy muharrirlar: Isa Habibbeyli, Shohret Sirajeddinov. Boku: "Fan va ta'lim", 2023.
9. Binnatova (Ulvi), Almaz. Ozarbayjon - o'zbek (jig'atoy) adabiy aloqalari: davrlar, raqamlar, janrlar, tendentsiyalar. Boku: Fan va ta'lim, 2008.
10. Binnatova (Ulvi), Almaz. O'zbek adabiyoti: Adabiy portretlar, tadqiqotlar, intervyular. Boku: Fan va ta'lim, 2016.

DAVLAT TILIGA E’TIBOR - DAVR TALABI

Abdiyev M.B.
filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Ushbu maqola ona tilini o`qitish masalalariga bag`ishlangan. Shuningdek uni o`qitish yuzasidan fikr va tavsiyalar bildirilgan.

Аннотация: Этот статья посвященно проблемы преподавание родного языка. И том числе мнение и рекомендации преподавание родного языка.

Annotation: It the article problems are devoted teaching of the mother tongu e. And that number opinion and recommendations teaching of the mother tongue.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin barcha jabhalarda bo‘lgani kabi ta’lim-tarbiyada ham islohatlar o`tkazildi. “Davlat tili haqidagi”, “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” kabi qonunlarning qabul qilinishi fikrimizning dalili hisoblanadi.

Prezidentimiz ta’kidlagalaridek, “Yangi avlod o‘quv adabiyotlarni yaratish va va ularni ta’lim muassasalariga keng jalb etish”, “Ta’lim jarayonini va ta’limning o‘quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qitish usullarini keng joriy etish, ilmiy-ta’lim jarayonini sifat jihatdan yangilash va zamonzviy tashkiliy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillashtirish” kerak bo`ladi [1.]. “Bunda yoshlarning ulug' ajdodlar merosini o'rganishi, ularga mos yetuk kadrlar bo'lib voyaga yetishiga alohida e'tibor qaratilmoqda” [2.].

Kundalik ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy huquqiy, ayniqsa, ma’daniy ma’rifiy madaniy o‘zgarishlar hayotimizga kirib kelayotgan ilmiy, ijodiy, yozma va og‘zaki ezguliklar ishlarimizni jadal rivojlanib borishini taqozo etmoqda. Shunday ekan, biz ham o‘z izlanishlarimizni shunday masalalardan biriga qaratdik. Biz bebaho merosimizdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni topdirishda shunchalik qudratli ma’rifiy qurolga ega bo‘lish uchun, albatta, o‘z ona tilimizni va uning ishchi tizimlarini, bajaradigan vazifalarini mukammal bilish masalaning dolzarbligini anglatadi.

Shunga muvofiq “Ona tili” fanini o‘qitish oldiga butunlay yangi maqsad va vazifalar qo‘yilmoqda. Fani o‘qitishning bosh maqsadi yoshlarimizni ijodiy fikrlashga, o‘z fikrini erkin va ta’sirli qilib yozma va og‘zaki shaklda ifodalshga, o‘zbek tili qonun-qoidalarini ongli o‘zgartirishga o‘rgatish, shunigdek, ularning fikr doirasini kengaytirishga, Vatanimizga, milliy an’analarimizga, boy ma’naviyatimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalshga qaratilgandir. Ana shu bosh maqsaddan kelib chaqqan holda sinflarda “Ona tili” fanini o‘qitish oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

-o‘quvchilarni erkin fikrlashga o‘rgatish;

-o‘z fikrini og‘ziki va yozma shaklda o‘zbek tilining qonun-qoidalariniga muvofiq ravishda to‘g‘ri ifodalash;

-orfografiya va punktuatsiya qoidalarini singdirish;

-ish qog‘ozlarini yurita olish ko‘nikmasini berish;

-olamni bilishda ona tilining ahamiyatini singdirish.

O‘quvchining bilim saviyasiga qo‘yiladigan talab esa, ta'lim jarayoni oldiga qo‘yiladigan ijtimoiy talab bilan belgilanadi. Bular esa Respublikamizning «Ta'lim to‘g‘risida»gi Qonunining 7-moddasida «Davlat ta'lim standartlari umumiy o‘rta ta'lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi» [3.,5], – deb belgilangan.

Shunday ekan, Davlat ta'lim standartlari, shu jumladan, ona tili Davlat ta'lim standarti ham ta'lim jarayoni oldiga qo‘yilgan ijtimoiy talablardan kelib chiqqan holda belgilab berildi [4.,10]. Ona tili ta'limi oldiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtma o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o‘rgatishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda ona tili ta'limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan, savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo‘yiladi. Shu maqsadga ko‘ra ona tili ta'limining mazmuni:

-o‘quvchining fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o‘stirish;

-o‘quvchilarni o‘z-o‘zini, moddiy borliqni tilning ifoda vositalari yordamida anglashga hamda o‘z fikri va his-tuyg‘ularini ona tilining keng imkoniyatlari doirasida bayon eta olishini ta'minlash vazifalarini hal etishga yo‘naltiriladi.

Standartlashtirishning umumiy talab va mezonlariga ko‘ra ona tili ta'lim standarti kommunikativ modelga asoslangan ta'lim mazmuniga ko`ra belgilanadi.

Ona tili ta'lim standarti ona tilidan belgilanadigan ta'lim mazmunining ijtimoiy talab taqozo qilgan majburiy hajmini hamda o‘quvchilarning yoshi va taraqqiyot darajasi, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlanadigan o‘quv yuklamasining hajmini, umumiy o‘rta ta'lim maktablari bitiruvchilarining bilim, ko‘nikma, malakalariga qo‘yiladigan talablarni belgilab beradi.

Demak, davr bizning oldimizga ona tilidan algoritmik (xoh elektron, xoh qog‘oz variantli) darsliklar yaratish, buning uchun ularning pedagogik-psixologik va metodik asoslarini ishlab chiqish, dasturini tuzish, mazmunini belgilash, har bir sinf uchun mundarijasini rejalashtirishdan iborat mas’uliyatli vazifani qo‘ymoqda.

Xullas, ona tili ta`limiga jiddiy e`tibor berish barobarida zamonaviy o`quv rejalar asosida darsliklar tuzish davr talabidir. Bu ishni amalga oshirishda har bir pedagog o`z hissasini qo`shmog`i zarur va shartdir.

Adabiyotlar:

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори. Тошкент ш., 2017 йил 20 апрель.

2.Shavkat Mirziyoyev ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlar yuzasidan yig'ilishida so'zlagan nutqidan. "Xalq so`zi " gazetasi, 2017 –yil, 15-fevral.

3.O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni .-Toshkent,1997.-5-b.

4. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti.-Toshkent: 2010.10-b.

FRAZEMALARDA "KONCEPT" TÚSINIGI

G.A.Allambergenova
Qaraqalpaq mámleketlik universiteti,
Qaraqalpaq til bilimi kafedrası docenti, f.i.b.f.d(PhD)
H.Joldasbaeva
Qaraqalpaq mámleketlik universiteti,
Lingvistika (qaraqalpaq tili) qánigeligi magistrantı

"Koncept" termini házirgi til bilimi izertlewlerinde kóp ushırasadı. Koncept túsinigine túrli jantasıwlar ulıwma lingvofilosofiyalıq tiykarga súyenedi. Onıń tiykarında F.Sossyurdıń til hám sóylew dixotomiyası jatadı, yaǵnıy "til sóylew" túsinigi házirgi waqıtta tildi ańlaw kommunikativlik xarakter, minez-qulıq dep túsindirilip atır. Bunda tildi ańlaw til túsinigine qaraǵanda keń mániste qollanıladı, sebebi izertlewshiler kóp jaǵdaylarda fenomen bolǵan individual sananıń verbal formasındaǵı jaǵdayına dıqqattı qaratadı. Kommunikativlik xarakter, minez-qulıq penen sóylew arasındaǵı qatnasqa keletuǵın bolsaq, bul jaǵdayda izertlew predmeti keńeygenin bayqaymız, yaǵnıy tekstten hám onı jazıwda belgilengen formasınan qanday da bir mádeniyatta qabıl etilgen minez-qulıq úlgilerine qaray qarım-qatnas procesinde ózgerip turatuǵın kommunikant maqsetleri jıyındısı, kommunikaciyanıń verbal emes formaları, intertekstlik qatnaslar hám taǵı basqalar[1].

Bizge belgili, lingvomádeniy jámááttiń kúndelikli-empirik, tariyxıy hám diniy, sezim tájiriybesin tilde sáwlelendiriw kórsetiw menen birge waqıyanı obrazlı kóz aldına keltiriw tiykarında frazeologizmler payda boladı. Usını N.I.Tolstoy qısqa hám obrazlı túrde bılayınsha táriyipleydi: frazeologizmler "milliy mádeniyat,

psixologiya hám filosofiyanıń aynası". Til hám mádeniyat qatnasınıń óz ara baylanısınıń quramalı tábiyatın frazeologiyalıq dizbekler mısalında sáwlelendiriw ónimli esaplanadı. Birinshiden, salmaqlı frazeologiyalıq birlikler milliy-mádeniy ózine tán ózgeshelikleri menen xarakterlenedi. Ekinshiden, frazeologizmlerdiń tekstler aralıq baylanısı ol yamasa bul mádeniy kod sıpatında lingvomádeniy jámáátte sanasız formasında saqlanıp turadı hám bul til iyeleriniń til hám mádeniyattıń óz ara dialogın támiyinlewde baylanıstırıwshı túyin rolin atqarıwshı mádeniy konnotaciyada iz qaldıratuǵın mádeniy tiyislilikti ózlestiriw túrinde kózge kórinedi.

Házirgi zaman lingvistikasında til hám mádeniyattıń óz ara qatnası máselesi, koncept túsinigi hám onıń qushaǵında lingvokulturologiyalıq analizdiń metodı hám metodları izertleniwi ámelge asırılmaqta. Til biliminde til birliklerиniń lingvopragmatik, lingvokognitiv, antropocentrik paradigma sıyaqlı jańa ilimiy koncepciyalar tiykarında izertlew ústinlik etpekte. Til hám mádeniyat qatnasın álemniń lingvistikalıq kórinisi kózqarasınan úyreniw, milliy mentallikti ańlaw máselelerin talqılaw hám til bilimi ushın teoriyalıq hám ámeliy áhmiyetke iye[2].

Til birliklerиniń lingvokulturologiyalıq izertlewi procesinde hám nátiyjesinde olardıń mánisi tolıǵıraq ashıladı, ámeliy áhmiyeti artıp baradı. "Frazeologiyalıq birlikler ol yamasa bul xalıqtıń ruwxıy qádiriyatları, milliy oy-pikiri, turmıs tárizi jáne úrp-ádetlerin kórsetetuǵın til qubılısı bolıp esaplanadı"[3].

Til biliminde insan iskerligin úyreniwge baǵdarlanǵan antropocentrik izertlewler júzege kelmekte. Sebebi, frazeologiyalıq birlikler insan iskerligi menen baylanıslı baylanıslı zat-hádiyse hám túsiniklerdi ańlatar eken, usınday hádiyselerdi emocional-ekspressiv, obrazlı bayanlaw mútájligi tiykarında qálipleskenlikten olardı til hám mádeniyat qatnasında izertlew jáne de áhmietke iye boladı. Usı maqaladaǵı til materialları ózbek milliy-mádeniy dúnyaqarasınıń frazeologiyalı qáddindegi aspektlerin analizlew hám táriplewge baǵdarlanǵan. Til millet mádeniyatınıń elementi, bólegi, fakti, faktorı, forması, deregi, saqlawshısı, yadı, translyatorı, bar bolıw shárti bolıp tabıladı. Lingvokulturologiya integrativ óz aldına pán tarawı sıpatında dúnyanıń lingvistikalıq kórinisi hám til shaxsınıń milliy ózine tán ózgesheliklerin bildiredi hám júzege shıǵaradı.Tilshi V.A.Maslova til mádeniyat tanıwdıń predmetin: 1) ekvivalent emes leksika; hám lakunalar; mifologiyalıq til birlikleri; 3) til paremiologiyalıq fondi; 4) til frazeologiyalıq fondı; 5) etalon, streotip, simvollar; 6) til metaforaları hám obrazları; 7) túrli tillerdiń uslubiy usılı; 8) sóylew minez-qulqı; 9) sóylew etiketi maydanı"[4] sıyaqlı túrlerge ajıratıp jáne de anıqlastıradı. Frazeologizmler millettiń jemisi sıpatında milliy mádeniy kartinanı kognitivlik pragmatikalıq aspektlerde bayanlaydı. Lingvistikalıq koncept hám onıń lingvomádeniy aspektleri bolsa mádeniy-tillik baylanıslardıń kóp qırlı táreplerin ańlatadı.

Frazeologizmlerdiń milliy-mádeniy ózgesheliklerіniń ishki hám sırtqı belgileri kúndelikli-empirik, tariyxıy hám ruwxıy tájiriybesin sáwlelendiriwshi frazeologizmler haqıyqatlıqtı obrazlı kóz aldına keltiriw tiykarında tilde payda bolıwın anıq hám obrazlı formada ańlatadı. Frazeologiyalıq birliklerdiń mádeniy komponentleri olardıń obrazlı tiykarı menen baylanıspaytuǵın hám obrazlı tiykarı menen metaforalıq sozıw esabına baylanısatuǵın denotativ-signifikativ mazmunlı mádeniy komponentler toparlarına ajıratıp úyreniledi.

Frazeologizmlerdiń kognitivlik hám pragmatikalıq aspektlerine ayrıqsha itibar qaratılǵanlıǵın tán alıw lazım. Olardıń kognitivlik hám pragmatikalıq imkaniyatların kórsetiw ushın antropocentrikalıq izertlewler alıp barıw zárúr. Koncept barlıq waqıya hám obyektlerdiń qanday dúzilgenligi haqqındaǵı pikirlew. tiykarında jaratılǵan túsinikti ańlatıwshı fenomen bolıp tabıladı. Konceptlerdiń milliy ózine tán ózgesheligi áhmiyetli. Koncept oylaw procesinde bir túrdegi bir qansha predmetlerdiń ornın basatuǵın pikirli tuwındı, konceptlerdiń individual-psixikalıq ózgesheliklerinen góre sociallıq mazmunın bildiredi[5].

Til hám mádeniyat baylanıslılıǵın izertlew sheńberinde koncept milliy sanadaǵı dúnyanıń tillik kartinasın qáliplestiriwshi áhmiyetli ruwxıy baylıq, al frazeologizmler xalıq mentalitetiniń aynası retinde belgili boladı. Qaraqalpaq milliy dúnyatanımnıń frazeologiyalıq dárejesin lingvomádeniy kózqarastan úyreniw mádeniy kodlardı ashıwǵa hám til birliklerіniń tábiyatın tereńirek túsiniwge jol ashadı. Bul baǵdarda frazeologiyalıq birliklerdiń kontekstual imkaniyatların hám funkcionallıq-stillik tábiyatın izertlewde professor B.Yuldoshevtiń ilimiy kózqarasları ózbek hám qaraqalpaq tillerinde frazeologiyalıq konceptlerdi úyreniw ushın teoriyalıq tiykarlardan biri bolıp xizmet atqaradı. Juwmaqlap aytqanda, frazeologiyalıq birlikler menen konceptlerdi ózara baylanısta úyreniw milliy mádeniy miyraslardı til arqalı qayta tiklewdiń eń nátiyjeli jolı bolıp tabıladı.

PAYDALANÍLǴAN ÁDEBIYATLAR:

1. Sh.Ábdinazimov, X.Tolıbayev Lingvokulturologiya. Nókis. “Qaraqalpaqstan”, 2020
2. Маматов А. Фразеологизмларнинг антропоцентрик лингвомаданий тадқиқи. –Жиззах. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари.-, 2019 йил, 65-бет.
3. Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). Тошкент, «Наврўз» нашриёти, 2019. 11-бет
4. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие. М.: 2001. 37 с.
5. Shirnazarova Z. Zoofrazeologizmlarning semantik xususiyatlari va lingvomadaniy tadqiqi. Termiz. 2023.

6. Юлдошев Бекмурод. Хозирги Ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. Тошкент, 1993.

ТРАНСФОРМАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЯЗЫКОВОЙ СИСТЕМЫ ПОД ВЛИЯНИЕМ ИНТЕРНЕТ-КОММУНИКАЦИИ МОЛОДЕЖИ

Колосова Елена Ивановна
к.ф.н., доцент кафедры РКИ
Казанский (Приволжский) федеральный университет
Институт филологии и межкультурной коммуникации
Казань, Россия
hkolosova@yandex.ru
8(9033)871837
Калимуллин Айрат Ильясович
магистрант 2 г.о. кафедры РКИ
Казанский (Приволжский) федеральный университет
Институт филологии и межкультурной коммуникации
Казань, Россия
ay.kalimullin@mail.ru, 8(9033)070192

Аннотация: Статья посвящена анализу влияния интернет-коммуникации молодежи на трансформацию национальной языковой системы. Рассматриваются основные лингвистические особенности виртуального общения, специфика формирования молодежного сетевого сленга и его проникновение в повседневную речь. Сделаны выводы о двойственной природе данного феномена, который одновременно выступает как угроза традиционной языковой норме и как стимул для естественного развития и адаптации языка к реалиям цифровой эпохи.

Ключевые слова: молодежный сленг, русский язык, Национальный корпус русского языка, интернет-коммуникация

В современном мире на фоне процессов глобализации и цифровизации язык становится одним из ключевых инструментов отражения социальных, культурных и технологических изменений, при этом особую значимость приобретают новые формы языка, которые возникают под влиянием тех или иных факторов, формирующих уникальные способы взаимодействия между людьми. Одним из таких факторов является интернет-коммуникация, в которой ключевым явлением выступает интернет-сленг – динамичная и гибкая система неформальной лексики, которая активно развивается в условиях

цифровой среды. Интернет-сленг являет собой важный объект лингвистического анализа, так как в полной мере отражает изменения формы русского языка под воздействием новых технологий. Актуальность обращения к данной теме связана со стремительным развитием интернет-коммуникации, которая приводит к трансформации всей национальной языковой системы, к формированию новых языковых норм и правил, требующих научного осмысления. Кроме того, молодежный интернет-сленг становится все более заметным явлением не только в повседневной жизни, но и в некоторых случаях в публичной сфере, что делает его изучение необходимым для понимания современных тенденций развития русского языка.

Современный молодежный сленг являлся объектом изучения множества теоретических исследований [см. раб. А.А. Воронковой (2020), Л.М. Гареевой (2021) и др.], анализом сленгизмов занимались многие исследователи, в том числе изучением специфики интернет-коммуникации [см. раб. О.С. Масликовой (2019), И.И. Шабшина (2025) и др.].

Цель данного исследования состоит в том, чтобы выявить характерные изменения в русской языковой среде под влиянием активного использования в коммуникации молодежного интернет-сленга. В качестве материала для исследования был использован ресурс «Национальный корпус русского языка», данные отбирались и анализировались различными методами (метод контекстуального анализа, типологический метод, метод наблюдения и обобщения).

На рубеже XX и XXI века русский язык подвергся значительным изменениям, которые были обусловлены преобразованиями в культурно-языковом пространстве государства. Активное внедрение иностранных слов в язык, ослабление нормативных требований к речи, смешение различных стилей общения, а также увеличение доли разговорных и просторечных элементов поспособствовало проявлению крайне заметных перемен в лексическом составе языка. Значительные изменения в словарном составе языка могут быть наиболее очевидным свидетельством всех этих процессов: появилось множество неологизмов, которые в том числе включают в себя заимствования. Как справедливо отмечают некоторые исследователи: «Проблема языковой революции, анализ и осознание сложившейся ситуации – одна из насущных и главных проблем в языкознании и современной лингвистике» [Воронкова, 2020, с. 238].

Специфика функционирования молодежного сленга по большей части проявляется в способности выполнения коммуникативных, идентификационных и экспрессивных задач. Кроме того, сленг молодежи выполняет функцию отражения тех или иных изменений в обществе, таких как

появление новых ценностей, норм или форм общения. Появление новейших технологий, компьютеров и интернета привело к созданию целого пласта сленговых выражений, так называемого «интернет-сленга», то есть сленговых выражений, связанных с цифровой коммуникацией. Такие слова, как «мем», «репост» и «хейт» стали неотъемлемой частью жизни молодежи не только в сети, но и за ее пределами. Про интернет-сленг и новейшие технологии в своей статье Гареева Л.М. пишет: «Информационные (IT) технологии. Сейчас у каждого представителя молодежи есть разнообразные компьютерные гаджеты, игровые приставки и прочая «умная» техника. Общение в Сети является весьма важной частью жизни нынешнего молодого поколения. В связи с этим в его речь попадают все новые и новые слова» [Гареева, 2021, с. 129].

Первой из ключевых тем молодежного интернет-сленга является выражение эмоций. В условиях текстового общения, где отсутствуют невербальные средства, сленговые выражения как раз помогают передать эмоциональную окраску высказывания, что делает общение более живым, выразительным и компенсирует ограниченность текстового формата. Сленговые выражения способны отражать достаточно большой спектр эмоций. Возьмем такие категории, как *радость, разочарование и стыд*. Хорошим примером выражения радости в текстовом общении может служить слово **лол**, которое показывает собеседнику, что адресат из-за чего-либо громко смеется. «*Нууууу, ладно, уговорил, лол*» [НКРЯ] – данный текст из базы НКРЯ служит хорошим примером употребления этого выражения в контексте. Говорящий как бы соглашается с чем-то, что, судя по данному выражению, определенно его веселит. По данным НКРЯ, слово **лол** стало активно использоваться в социальных сетях после 2015 года и сохраняет свою активность:



Рисунок. 1. График функционирование лексемы лол (по данным НКРЯ)

Что касается разочарования, в качестве примера можно взять слово **треш**, которое заимствовано из английского языка и, как правило, используется для описания чего-то некачественного. Примером употребления

этого слова в данном контексте может служить следующий текст из базы данных ресурса НКРЯ: «*С официальными русскими субтитрами. Это реально треш. Что дальше?*» [НКРЯ]. В этом примере явно видно, что человек выражает свое недовольство сложившейся ситуацией. Употребляться в интернете оно начало еще в 2006 году на интернет-форумах, но пик активности его употребления приходится на 2023 год:



Рисунок. 2. График функционирование лексемы треш (по данным НКРЯ)

Примером выражения стыда может служить слово **кринж**. Оно встречается в сообщениях, связанных с обсуждением неловких ситуаций. Часто, слова в тех или иных текстах могут сочетаться как в данном примере: «*Лол, ну и кринж*» [НКРЯ]. В данном контексте человеку смешно из-за определенной стыдной ситуации. Использоваться в интернете слово **кринж** начало в 2019 году и по сей день в графике НКРЯ нет каких-либо существенных спадов в активности использования. Надо отметить, что именно это слово **кринж** и его производные (**кринжово, кринжовый**) бьют все рекорды по употреблению, проникая на новостные страницы интернет-газет и в речь ярких представителей российского общества. Так, в мае 2024 года официальный представитель МИД РФ Мария Захарова прокомментировала выступление президента США перед выпускниками Военной академии: «***Кринж*** *года. Про печатный станок и госдолг почему-то не было сказано»* («Коммерсантъ», «РИА Новости»)». А в сентябре 2025 года на Восточном экономическом форуме (ВЭФ) Владимиру Путину на выставке продемонстрировали стенд современной лексики, как пояснил пресс-секретарь президента Дмитрий Песков: «*Президенту продемонстрировали такие выражения, как "полный* ***кринж****", "чилловая катка" и "траблы"»* («Коммерсантъ», ТАСС).

Но в то же время в социологических опросах россиян о чистоте русского языка пока можно увидеть негативные отзывы о молодежной интернет-коммуникации, которые так или иначе приникает в язык: *«"****Лол****", "короче", "ок" – россияне назвали слова, которые раздражают их больше всего»* («Коммерсантъ FM»). *«Жаргон и сленг – "кринж", "рофл", "инфа", "****лол****",*

"имба" и другие слова – раздражают 28% участников исследования» («Сноб»).

Таким образом, можно сделать вывод, что интернет-коммуникация, являясь уникальной средой социализации и самовыражения, формирует особую языковую экосистему, где интерактивность, краткость и отход от традиционных норм становятся ключевыми чертами общения. В условиях цифровой коммуникации сленг становится важным инструментом для выражения эмоций, мыслей и отношений, эффективно описывая повседневные реалии и актуальные интересы молодежи. Молодежный интернет-сленг выступает важным маркером изменений в речевой практике и культуре, фиксируя не только лингвистические особенности речи молодого поколения, но и более широкие социальные и культурные характеристики общества.

Список литературы:

1. Воронкова А. А., Мальцева С. М., Ульянкина Е. М. Функциональные особенности молодёжного сленга современных студентов / А. А. Воронкова, С. М. Мальцева, Е. М. Ульянкина // Балтийский гуманитарный журнал. Т. 9. НП ОДПО «Институт направленного профессионального образования», 2020. – № 2. – С. 237–240.

2. Гареева Л. М. Современный молодежный сленг: его источники и разновидности / Л. М. Гареева // Международный научно-исследовательский журнал. ИП Соколова, 2021. – № 9. – С. 129–131.

3. Национальный корпус русского языка. – URL: https://ruscorpora.ru/ (дата обращения: 25.09.2026)

O‘ZBEK TILINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI: TARIXIY-LINGVISTIK ASOSLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

dilyuldasheva83@gmail.com

0000-0002-3898-2113 ORSID

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilining shakllanishi, tarixiy taraqqiyot bosqichlari va zamonaviy lingvistik holati ilmiy, faktik hamda strukturaviy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘zbek tilining turkiy tillar tizimidagi o‘rni, Alisher Navoiy davridagi lingvistik yuksalishi, eroniy tillar ta’sirida unlilar tizimining

transformatsiyasi (singarmonizm pasayishi) hamda leksik qatlamlar dinamikasi qiyosiy-tarixiy uslubda yoritilgan. Shuningdek, tilning hozirgi huquqiy maqomi, lotin alifbosi islohotlari va raqamlashtirish (sun'iy intellektga integratsiyasi) tendensiyalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, turkiy tillar, singarmonizm transformatsiyasi, agglyutinatsiya, "Muhokamat ul-lug'atayn", leksik qatlamlar, neologizmlar, milliy korpus, davlat tili.

Аннотация: В данной статье научно, фактологически и структурно анализируются формирование, этапы исторического развития и современное лингвистическое состояние узбекского языка. В исследовании сравнительно-историческим методом освещаются место узбекского языка в системе тюркских языков, его лингвистический расцвет в эпоху Алишера Навои, трансформация системы гласных (ослабление сингармонизма) под влиянием иранских языков, а также динамика лексических пластов. Также проанализированы текущий правовой статус языка, реформы латинской графики и тенденции цифровизации (интеграция в сферу искусственного интеллекта).

Ключевые слова: узбекский язык, тюркские языки, трансформация сингармонизма, агглютинация, «Мухокамат ул-лугатайн», лексические пласты, неологизмы, национальный корпус, государственный язык.

Abstract: This article provides a scientific, factual, and structural analysis of the formation, historical development stages, and modern linguistic state of the Uzbek language. Using a comparative-historical method, the study highlights the position of the Uzbek language within the Turkic language family, its linguistic renaissance during the era of Alisher Navoiy, the transformation of its vowel system (the weakening of vowel harmony / synharmonism) due to Iranian language contact, and the dynamics of its lexical layers. Furthermore, the current legal status of the language, Latin alp habet reforms, and digitalization trends (integration I nto artificial intelligence systems) are analyzed.

Keywords: Uzbek language, Turkic languages, transformation of synharmonism, agglutination, "Muhokamat ul-lugatayn", lexical layers, neologisms, national corpus, state language.

Til — millatning o'zligi, uning tarixiy xotirasi va madaniy merosini aks ettiruvchi eng asosiy omildir. **O'zbek tili** dunyodagi eng qadimiy, boy va jozibador tillardan biri bo'lib, u asrlar davomida murakkab va shonli rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Bugungi kunda o'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tili va jahondagi o'nlab million insonlarning so'zlashuv vositasi hisoblanadi.

O‘zbek tilining evolyutsion taraqqiyotini faqat tarixiy yondashuv bilan cheklab bo‘lmaydi. Uni ilmiy tahlil qilish lingvistik tizimda sodir bo‘lgan transformatsiyalar, ichki qonuniyatlar va tashqi faktorlarning o‘zaro ta’sirini o‘rganishni talab etadi.

1. Singarmonizm (vokal garmoniyasi) qonuniyatining transformatsiyasi

Klassik turkiy tillarning, jumladan, qadimgi o‘g‘uz va qipchoq tillarining bosh xususiyati bo‘lgan **singarmonizm** (so‘zdagi unlilarning til oldi yoki til orqasi bo‘lishiga ko‘ra moslashishi) zamonaviy o‘zbek adabiy tilida qisman zaiflashgan yoki o‘ziga xos tarzda o‘zgargan.

- **Sabab-oqibat tahlili:** Akademik V. V. Radlov va E. D. Polivanov tadqiqotlariga ko‘ra, o‘zbek tilining o‘troq qarluq lahjalari (Toshkent, Farg‘ona, Namangan, Andijon) uzoq asrlar davomida eroniy (tojik/fors) tillar bilan yaqin ijtimoiy-madaniy aloqada bo‘lgan (**"ichki assimilyatsiya"**). Buning natijasida adabiy til poydevorida singarmonizm qonuni o‘z kuchini yo‘qotdi va unlilar tizimi 9 tadan 6 taga (*a, o, i, u, o‘, e*) qisqardi.

Ilmiy fakt: Bugungi o‘zbek tilida *ko‘z+lar* yoki *qo‘l+lar* kabi affiksatsiyada unli o‘zgarmaydi, vaholanki boshqa turkiy tillarda (masalan, qozoq yoki turk tillarida) affiks tarkibidagi unli ildizdagi unlining ohangiga moslashishi majburiydir (*göz-ler* / *kol-lar*).

2. Leksik qatlamlar va neologizmlar formatsiyasi

O‘zbek tili leksikasining boyish manbalari va strukturaviy tarkibi dinamik xarakterga ega. Til komponentlarining sinxron tahlili quyidagi manzaraning guvohi qiladi:

Leksik qatlam	Davri / Manbasi	Funktsional tahlili va o‘rni
Tub turkiy qatlam	Qadimgi davr (tana a’zolari, tabiat, qarindoshlik)	Tilning asosiy lug‘at fondini va grammatik skeletini tashkil etadi (*yurak, ko‘k, aka, kelmoq*).
Arabiy qatlam	VIII–XII asrlar (islomiy va ilmiy terminologiya)	Mavhum tushunchalar, ilm-fan, falsafa va huquq sohalarini boyitdi (*ilm, adolat, iymon, mutafakkir*).
Forsiy qatlam	Klassik davr (badiiy adabiyot, hayot tarzi)	Poetika, madaniyat va kundalik turmush leksikasini kengaytirdi (*gul, do‘st, bog‘, shahar*).
Internatsional / Ruscha qatlam	XIX–XX asrlar (texnika, siyosat)	Siyosiy-ijtimoiy va texnik terminologiyani shakllantirdi (*konstitutsiya, zavod, kompyuter*).

Bugungi kundagi ilmiy muammo — **purizm (tilni tozalash) va neologizmlar neytrallashuvi** o‘rtasidagi muvozanatdir. Mustaqillik yillarida arab-fors qatlamiga mansub tarixiy so‘zlarning reanimatsiyasi (faollashishi) kuzatildi (*tayyora* emas

samolyot, mezon emas *kriteriy* kabi bahslar). Zamonaviy lingvistik tahlillar neologizmlarning milliy va xalqaro muqobillarini to‘g‘ri sintez qilish zarurligini ko‘rsatmoqda.

3. Agglyutinatsiya (so‘z yasalishi) va sintaktik moslashuvchanlik

O‘zbek tili — **agglyutinativ til** turi hisoblanadi. Ya’ni so‘z shakllari va yangi ma’nolar o‘zakka affikslarning (qo‘shimchalarning) ketma-ket, mexanik ravishda qo‘shilishi orqali hosil bo‘ladi.

Misol: **Ish** (o‘zak) → **ish+chi** (kasb) → **ish+chi+lar** (ko'plik) → **ish+chi+lar+imiz** (egalik) → **ish+chi+lar+imiz+ga** (kelshik).

Ushbu agglyutinativ xususiyat o‘zbek tiliga cheksiz derivatsion (so‘z yasash) imkoniyatini beradi. Biroq, XX-XXI asrlar ilmiy va rasmiy-idoraviy uslub ta’sirida o‘zbek tilining sintaktik qurilishida ham o‘zgarishlar yuz berdi. Klassik o‘zbek tilida kesim doim gap oxirida kelishi qat’iy qoida bo‘lsa, hozirgi kunda publitsistik va jonli tilda inversiya (so‘z tartibining o‘zgarishi) me’yoriy holatga aylanib bormoqda.

Lingvistik tasnifga ko‘ra, o‘zbek tili **oltoy tillar oilasi**ning **turkiy tillar turkumi** qarluq (sharqiy turkiy) guruhiga kiradi. O‘zbek tilining shakllanish asoslarini quyidagi tarixiy davrlarga ajratish mumkin:

Qadimgi turkiy til davri (VI–X asrlar): Bu davr O‘rxun-Enasoy yodgorliklari, qadimgi runsimon yozuvlar va ilk turkiy matnlar bilan xarakterlanadi.

Eski turkiy til davri (XI–XIV asrlar): Mahmud Koshg‘ariyning "Devonu lug‘atit turk" va Yusuf Xos Hojibning "Qutadg‘u bilig" asarlari o‘zbek tili leksikasining poydevorini ko‘rsatuvchi eng yirik ilmiy-tarixiy faktlardir.

Eski o‘zbek tili davri (XV–XIX asrlar): Bu davr bevosita chig‘atoy tili yoki eski o‘zbek adabiy tili deb nomlanadi.

Alisher Navoiy va o‘zbek adabiy tilining yuksalishi

XV asrda yashab ijod etgan ulug‘ mutafakkir **Alisher Navoiy** o‘zbek tilining rivojlanishiga eng katta hissa qo‘shgan simodir. O‘sha davrda ilm-fan va she’riyatda fors hamda arab tillari ustunlik qilgan bir paytda, Navoiy turkiy tilning boy imkoniyatlarini ilmiy asosda isbotlab berdi.

Uning **"Muhokamat ul-lugatayn"** (Ikki til muhokamasi, 1499-yil) asari o‘zbek tilshunosligidagi ilk fundamental ilmiy tadqiqot hisoblanadi. Navoiy ushbu asarida turkiy (o‘zbek) tilining fe’llar tizimi, so‘z yasalishi va sinonimlarga boyligi jihatidan fors tilidan qolishmasligini, aksincha, ko‘plab o‘rinlarda undan ustun turishini 100 ta aniq dalil (fakt) orqali isbotlagan.

XX asr va o‘zbek tili dialektologiyasi

O‘zbek tili o‘zining dialektal (sheva) xilma-xilligi bilan boshqa turkiy tillardan ajralib turadi. Professor **G‘ozi Olim Yunusov**, **E.D. Polivanov** va akademik **Fitrat** kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlariga ko‘ra, o‘zbek shevalari 3 ta asosiy guruhga bo‘linadi:

1. **Qarluq-chigil-uyg‘ur shevalari:** "O"lovchi shevalar (Toshkent, Farg‘ona vodiysi, Buxoro, Samarqand). Zamonaviy o‘zbek adabiy tilining fonetik poydevorini aynan shu guruh tashkil etadi.

2. **Qipchoq shevalari:** "J"lovchi shevalar (Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazmning ba'zi hududlari).

3. **O‘g‘uz shevasi:** Xorazm va unga atrof hududlar shevasi (turkman va turk tillariga yaqin).

Zamonaviy o‘zbek adabiy tili fonetik jihatdan **Farg‘ona-Toshkent shevasi**ga, grammatik jihatdan esa o‘zbek tilining umumiy qonuniyatlariga tayanadi.

Huquqiy maqom va mustaqillik davri rivojlanishi

O‘zbek tilining zamonaviy tarixidagi eng muhim burilish nuqtasi **1989-yil 21-oktabrda** "Davlat tili haqida"gi qonunning qabul qilinishi bo‘ldi. Ushbu hujjat o‘zbek tiliga mustaqillikdan oldin huquqiy maqom berdi va uni yo‘qolib ketish xavfidan saqlab qoldi.

Bugungi kunda o‘zbek tilini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi strategik qadamlar qo‘yilmoqda:

Lotin alifbosiga o‘tish: 1993-yildan boshlab bosqichma-bosqich lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi joriy etilmoqda va uni isloh qilish ishlari davom etmoqda.

Xalqaro maqom: Bugun o‘zbek tili BMTning yuksak minbarlarida, xalqaro siyosiy va ilmiy anjumanlarda mustaqil davlat tili sifatida baralla yangramoqda. Dunyo bo‘ylab 50 dan ortiq oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek tili maxsus fan sifatida o‘qitilmoqda.

Raqamlashtirish: O‘zbek tilini internet va sun'iy intellekt texnologiyalariga integratsiya qilish, "O‘zbek milliy korpusi"ni yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy-amaliy loyihalar amalga oshirilmoqda.

Xulosa

O‘zbek tili uzoq asrlik tarixiy sinovlardan o‘tib, o‘zining jozibasi, grammatik mukammalligi va leksik boyligini saqlab qolgan hayotiy tildir. Tilning istiqboldagi rivoji uning fan, texnika, internet va xalqaro munosabatlar tiliga to‘liq aylanishi hamda yosh avlod tomonidan ilmiy asosda o‘rganilishiga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

1. **Mahmud Koshg‘ariy.** *Devonu lug‘atit turk* (3 jildlik) / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: S. Mutallibov. – Toshkent: Fan, 1960–1963.

2. **Alisher Navoiy.** *Muhokamat ul-lug‘atayn*. Mukammal asarlar to‘plami, 20 jildlik (16-jild). – Toshkent: Fan, 2000.

3. **Polivanov E. D.** *Uzbekskaya dialektologiya i uzbekskiy literaturniy yazik*. – Tashkent: 1933.

4. **Fitrat (Abdurauf).** *Eng eski turkiy til tarixi* (Tarixiy-lingvistik tadqiqot). – Toshkent: 1927.

5. **Reshetov V. V., Shoabdurahmonov Sh.** *O‘zbek dialektologiyasi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.

6. **Kononov A. N.** *Grammatika yazika tyurkskix runicheskix pamyatnikov VII–IX vv*. – Leningrad: Nauka, 1980.

7. **Nazarov K.** *O‘zbek tili sotsiolingvistikasi: shakllanish va rivojlanish muammolari*. – Toshkent: Akademnashr, 2014.

8. **Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh.** *Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Fonetika, grafika, imlo, leksikologiya, frazeologiya*. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.

9. **Rahmatullayev Sh.** *O‘zbek tilining etimologik lug‘ati* (I–IV jildlar). – Toshkent: Universitet, 2000–2009.

10. O‘zbekiston Respublikasining **“Davlat tili haqida”**gi Qonuni (yangi tahriri) // *O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi*, 1995-y., 12-son.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi **“O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi PF-5850-sonli Farmoni.

MUHAMMAD SHAYBONIY LIRIKASINING BADIIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI

Toshniyozova Dilfuza Polvonovna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori Phd, dotsent
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
O‘zbekiston.
Email: dilfuzatoshniyova1976@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada XVI asr o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, o‘z davrining adabiy an’analarini munosib ravishda davom ettirgan iste’dodli shoir Muhammad Shayboniy g‘azaliyoti poetik jihatdan tahlil qilinadi. Shoir ijodi necha asrlar davomida shakllanib, sayqallanib kelgan. Va u Sharq mumtoz adabiyoti an’analari hamda adabiy-estetik, islomiy-ma’rifiy qarashlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning lirik merosida ushbu an’analarning badiiy ifodasi yaqqol namoyon bo‘ladi. Muhammad Shayboniy devonidagi g‘azallar aruz ilmi nuqtayi nazaridan o‘rganildi. Ularda qo‘llanilgan vaznlar, ularning badiiy-estetik vazifasi hamda mazmun va shakl uyg‘unligini ta’minlashdagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: devon, g‘azal, faxriya baytlar, vazn, badiiy- estetik qarashlar, mazmun, shakl.

Annotation: This article presents a poetic analysis of the ghazals of Muhammad Shaybani, one of the leading figures of sixteenth-century Uzbek classical literature and a distinguished poet who successfully sustained and developed the literary traditions of his era. Shaybani’s poetic legacy is deeply rooted in the centuries-old traditions of Eastern classical literature and the intellectual and spiritual values of Islamic civilization, both of which are prominently reflected in his lyrical works. The study examines the ghazals included in Muhammad Shaybani’s Divan from the perspective of aruz prosody, focusing on the poetic meters employed, their artistic and aesthetic functions, and their contribution to the structural and semantic harmony of the poems. Furthermore, special attention is devoted to the analysis of the fakhriyya (self-praise) couplets found in Shaybani’s ghazals.

Keywords: Divan, ghazal, fakhriyya couplets, meter, artistic and aesthetic views, content, form.

Muhammad Shayboniy devoni haqidagi ilk ma’lumotni turk olimi Zaki Validiy XIX asrning 20-30 yillarida e’lon qilgan edi. Bizda esa uning devoni 2025 yilgagina kelib f.f.d. prof. Nafas Shodmonov tomonidan nashrga tayyorlandi. Ungacha Shayboniyxon ijodi bo‘yicha Munira Sharipovaning tadqiqoti va “Muhammad Shayboniyxon” risolasi va unga ilova sifatida kiritilgan she’rlari mavjud edi. Shayboniyxon devoni Sharq mumtoz devonchiligi an’analari doirasida tartib berilgan she’rlar to‘plami bo‘lish bilan birga, o‘zbekxonlar deya tarixda nom qoldirgan mazkur sulola vakili Muhammad Shayboniy tomonidan tuzilgani bilan ahamiyatlidir. Bizga ma’lumki, aynan shu sulolaning mumtoz merosiga nisbatan bepisand qarash, uning juda ko‘p jihatlarini rad etish tamoyillari sobiq sovet mustabid tuzumi adabiyotshunosligi va adabiyotida bo‘y ko‘rsatayotgan edi. Yuqorida ta’kidlanganidek, Muhammad Shayboniyni biz adabiy davra va matbuotda deyarli uchratmaymiz. U tom ma’noda o‘zbek mumtoz adabiy an’analarini o‘ziga xos ravishda davom ettirgan ijodkordir. Bu jihat uning devonidagi g‘azallarida yaqqol ko‘ringan. Ma’lumki, *g‘azal* arabcha so‘z bo‘lib, uning lug‘aviy ma’nosi “ayol kishiga xushomad qilmoq”, “oshiq bo‘lmoq”dir. [Baranov,1958:72] She’riyatda esa bu atama nozik tuyg‘u, kechinmalar ifodasiga bag‘ishlangan lirik she’r shakli nomini bildiradi. Keyinchalik bu so‘z adabiy istiloh sifatida ishq-muhabbatni kuylagan lirik she’rga nisbatan tatbiq qilina boshlandi. [Nosirov,1972:7] “G‘azal dastlab X–XIV asrlarda faqat ayollarga bo‘lgan muhabbat kechinmalarini ifodalagan bo‘lsa, keyinchalik, XV asrdan boshlab bu she’r shaklidan istalgan mavzudagi lirik tuyg‘ularni badiiy aks ettirishga o‘tilgan. [Hojiahmedov, 2008:174.] “Inson iztiroblarining turfa tasvirlarini yaratish g‘azal

janrining asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi va har bir shoir bu ijodiy vazifani o‘z badiiy mahorati darajasida amalga oshiradi”. [Jumaxo‘ja N, 2018:221]

Shayboniy devonida g‘azal janriga oid she’rlari soni 304 tani tashkil etadi. Ilk o‘zbek g‘azaliyotidan tortib keyingi davrlargacha yaratilgan g‘azallar ko‘proq aruzning **ramal bahrida** bo‘lgan. Muhammad Shayboniy g‘azallarining yetakchi vazni ham aynan ushbu ramal bahridir.

Ayrim misollar:

Ko‘rsam ul gulchehraning jilvasini gulzor aro,
Jonima yuz ming tikanlarni urodur xor aro.

Paradigmasi: –V – – / – V – – / – V – – / – V –
–V – – / – V – – / – V – – / – V –

Rukni: *foilotun foilotun foilun.*

Vazni: *ramali musammani mahzuf.*

Biroq Muhammad Shayboniy devoniga diqqat bilan nazar tashlar ekanmiz, uning aruzning boshqa vaznlarini ham yaxshi bilganligini va ularda muvaffaqiyat bilan qalam tebrata olganligini ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan, ramal va hazaj bahri bilan bir qatorda muzore’ hamda rajaz bahrlarini ham ayrim she’rlarida qo‘llagan. Quyida ayrim namunalarni ko‘rib o‘tamiz.

Hazaj bahrida:

Taololloh,bu ne yuzdur,yangoqi sho‘lasi javhar,
O‘shul javharni saqlaptur iki sochi bo‘lub ajdar.

Paradigmasi: V – – – / V – – – / V – – – / V – – –
V – – – / V – – – / V – – – / V – – –

Rukni: *mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun*

Vazni: *hazaji musammani solim*

Yuzining mushafin ko‘rgach ne qilsun sajdani oshiq,
Tuman ming sajdani qilg‘ay qoshi mehrobida Vomiq.

Paradigmasi: V – – – / V – – – / V – – – / V – – –
V – – – / V – – – / V – – – / V – – –

Rukni: *mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun*

Vazni: *hazaji musammani solim*

Muzore’ bahrida:

Kezdim bu ishq shahrin ayshu tarab barobar,
Ko‘rdim oning bozorin har ro‘zu shab barobar.

Paradigmasi: – – V / – V – – / – – V / – V – –
– – V / – V – – / – – V / – V – –

Rukni: *maf’ulu foilotun maf’ulu foilotun*

Vazni: *muzore’i musammani axrab*

Rajaz bahrida:

Har kishida bo‘ldi ishq,el aro savdo bo‘lur,
Ushbu jahondin kechar, savdosi zebo bo‘lur.

Paradigmasi: – –V – / – –V – / – –V –/ – –V –
– –V – / – –V – / – –V –/ – –V –

Rukni: mustaf’ilun, mustaf’ilun, mustaf’ilun, mustaf’ilun,

Vazni: *rajazi musammani soli*

Muhammad Shayboniy g‘azallarida muallifning adabiy-estetik qarashlari aks etgani holda, g‘oyaviy ideali masalasiga ham yanada oydinlik kiritilgan. Ayrim shunday baytlarga to‘xtalsak.

Shukrulillahkim, menga lutfi ilohiy yor erur,
Har ne asbobi saodat, bori manda bor erur.

Eshigimda quldurur, har kim saodatmand emish,
Qulluqimda sa’y etar har kimga davlat yor erur .

Yetti kishvarni agar olsam, qatimda keng emas,
Himmatim ko‘ziga olamning fazosi tor erur.

Adl suyindin jahon bog‘ini gulshan qilmisham,
Har kishikim gulshanimni ko‘ra olmas, xor erur.

Har ne Tengri amridur, jon bila qilgumdur qabul,
Ko‘nglim andinkim rizosi yo‘qturur, bezor erur.

Mazkur she’riy parchalarga diqqat etilsa shoir “*ilohiy yor erur*”, “ *Tengri amridur”* birikmalarini keltirmoqda. Bu albatta bejiz emas. Muhammad Shayboniy ushbu baytlarda, birinchi galda faxrlanish tuyg‘usini ifodalayotgan bo‘lsa, ikkinchidan bu faxr aynan lutfi ilohiy yor bo‘lganligidan shukur hissini tuya olgani, ya’ni diniy mavzuda g‘azal bita olganidan ekanligi bilinadi. Yana, shoir “Xudoning sun’ina qildim tafarruj…” deb boshlanadigan g‘azalida shunday misralarni keltirgan: *“Taqi nafsim murodin bermayin teb...”, “Shariat ilmini qildim taarruj…”* Ey Shiboniy Haq senga bo‘ldi azaldin oshno,*...”,* Anglashilishicha, faqat pokiza tiynatlik kishilargina ushbu g‘azallardagi o‘gitlarga amal qiladi va bu kabi she’rlar yoqmagan kishilar yomonlarning ham yomoni bo‘ladi.

Devondagi tavhid g‘azallar sirasiga kiruvchi g‘azalda “Sening aslingdur sen andin bo‘l asil, Bu masaldur: nokas aslidin qochar…” U benihoya faxrlanadiki, eli ham, tili ham turkiydir, shunga muvofiq barcha g‘azali ham turkiyda yozildi. Xulosa qilib aytganda, Muhammad Shayboniy lirikasidagi vazn qo‘llash mahorati, badiiy uslub, badiiy–tasvir vositalari va obrazlari orqali shoirning ichki dunyosi aks etadi. Ijodkor real hayot va inson ruhiy olamini ochish bilan birga, o‘ziga xos badiiy estetik

idealni ifoda etishga ham intiladi. Bu ideal uning lirikasida ifodalangan mavzular, muammolar va hissiyotlar orqali ko‘rinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baranov X.K. Arabsko-russkiy slovar. – M.: Nauka, 1958. –C. 721.

2.Nosirov O. O‘zbek adabiyotida g‘azal. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1972. – B.7.

3.Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat lug‘ati. – T.: Yangi asr avlodi, 2008. – B.174.

4. Jumaxo‘ja N. Navoiy g‘azaliyoti talqinlari. – T.: O‘zbekiston, 2018. – B.221.

5.Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 165 б.

6.Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 224 б.

7. Sharipova M.Muhammad Shayboniy ijodi xorijda. Jahon adabiyoti jurnali.– Тошкент: 2010. № 4

GRAMMATICAL-SEMANTIC EXPRESSION OF ACTION IN FRENCH LANGUAGE

Zarifa Eshmurodova
Doctor of Philosophy (PhD), Associate Professor
Samarkand State University named after Sharof Rashidov
Email: zarifa.eshmurodova@gmail.com

Aygul Omarbekova
Candidate of Philological Sciences Kazakh
National Pedagogical University named after Abay
Almaty Kazakhstan
Mail: a-almaty2018@mail.ru

Abstract: Non-native speakers of French who are learning French face certain difficulties in understanding and using French verbs. In this article, different expressions of the mode of action, its consideration as a universal semantic category, specific characteristics of the mode of action and time categories in the French language are comparatively studied.

Key words: verb, tense category, mode of action, completed and incomplete mode of action, initial and continuous modes of action.

Annotatsiya: Fransuz tilini o‘rganayotgan o’zga tilda so‘zlashuvchilar fransuz tilidagi harakat tarzi shakllarini anglash va qo‘llashda muayyan qiyinchiliklarga duch keladilar. Mazkur maqolada harakat tarzining turlicha ifodalanishi, universal semantik kategoriya sifatida qaralishi, fransuz tilidagi harakat tarsi hamda zamon kategoriyalarining o‘ziga xos xususiyatlari qiyosiy jihatdan tadqiq etiladi.

Kalit so’zlar: fe’l, zamon kategoriyasi, harakat tarzi, tugallangan va tugallanmagan harakat tarzi, boshlang’ich va davomiylik harakat tarzlari.

In linguistics, tense and mode of action are grammatical categories that have been studied for a long time. The mode of action indicates how the action expressed by the verb takes place over time, i.e. its duration, beginning, development or completion. Therefore, the issue of whether there are common, universal features of the behavior category for all languages or whether its expression depends on the specific grammatical features of a specific language or group of languages is considered important.

Mode of action in French. The category of mode of action in French is associated with expressing how the action proceeds over time, in particular, whether it is completed or not. The completed mode of action (perfective aspect) indicates that the action has been completed, that is, the limit of the action has been reached. In this case, the action is perceived by the speaker as a complete and completed process. For example, in such forms as Jean a chanté (“Jean sang”), Il avait chanté (“He had sung”), Il aura chanté (“He will have sung”), the point of view of the completion of the action is reflected.

The passé composé form in French is often used to express a completed action. For example, in the sentence Jean a chanté, the action of singing is expressed as a complete process, with emphasis on its result or conclusion. However, the presence of the passé composé form does not always mean that the action is absolutely completed. The action style arises in connection with the lexical properties of the verb, the context and other components of the sentence.

Thus, in expressing completed and incomplete action in French, forms such as passé composé, plus-que-parfait and futur antérieur, as well as forms such as imparfait, play an important role. However, rather than strictly distinguishing them as “completed” or “incomplete” action styles, it is more appropriate to analyze their action style meaning in conjunction with the context and semantic features of the verb:

Michel a déjà termíne de lire – Michel has already finished reading

Dans trois jours, il aura déjà termíne de lire – In 3 days, he will have already finished reading.

Il n’a pas encore lu – He has not read yet.

Aujourd'hui à l'heure où je vous dis, il a déjà achevé son roman - Today, when I tell you, he has already finished his novel.

Let's look at sentences expressing unfinished action:

Il finit son livre - he is finishing his book.

Il boit - he is drinking.

Perfect (completed) and imperfect (incomplete) action patterns. The perfect (completed) action pattern expresses the description of an action as complete and completed. In this case, the action is considered as a process that has reached its natural limit or achieved a result. The action expressed by the perfect action pattern usually has its end point. Therefore, such an action cannot be described as an infinitely continuous process, taking into account its internal structure. For example, in the sentence Michel a déjà terminé de lire (Michel has finished reading), the emphasis is on the final completion of the action.

The imperfect (incomplete) aspect describes the action from the point of view of its internal process, continuation or repetition. In this case, the final limit of the action is not important; the main emphasis is on its duration over a certain period of time. For example, in the sentences Michel danse (Michel is dancing) or Michel dansait (Michel was dancing), the action of dancing is described as a process. Even if this process is interrupted by an external cause, it is conceived as an action that can continue for a certain period of time.

Therefore, in studying the mode of action in French, it is important to distinguish between the semantic mode of action and the formal-grammatical mode of action. While the semantic mode of action expresses the internal temporal structure and characteristics of the action, the formal mode of action expresses the emergence of these meanings through grammatical or lexical means. For example:

Nous n'avons pas fini nos études - we have not finished our studies.

Nous finissons notre danse - we are finishing our dance.

Iterative mode of action. The iterative (iterative) mode of action expresses the fact that an action or process is repeated several times, occurs regularly, or has a simple character. In this case, the event is described not as a one-time event, but as a process that occurs repeatedly over a certain period of time.

In French, the iterative meaning is often expressed not through the specific grammatical form of the verb, but through the context, but through temporal, lexical units denoting repetition, and certain word-forming means. For example: Chaque jour nous allons à l'université - we go to the university every day.

In this sentence, the conjunction chaque jour (every day) indicates a regular repetition of the action. The allons form of the verb does not in itself imply an iterative meaning; the meaning of repetition is mainly expressed by the tense: Chaque jour nous mangions au cafe - Every day we ate at the cafe.

In this example, mangions helps to express the simplicity of the action, while chaque jour clearly indicates that the action is repeated. Thus, in French, the iterative meaning is often formed through the interaction of the verb and the context.

Another means of expressing an iterative type of action is through the prefix re-. Re- indicates that the action will occur again:

Nous rentrons à notre université - we are returning to the university.

Here, the verb rentrons is formed by adding the prefix re- to the verb entrer (to enter), which indicates the repetition of the action.

Thus, iterativity is a form of action that expresses not the action itself, but the repeated, clear course of the action. Therefore, in order to determine the iterative meaning in French, it is necessary to know the lexical meaning and the context of the sentence in addition to the grammatical form of the verb.

Initial action. The initial action expresses the initial stage of an action or process. In this case, the main attention is paid not to the duration of the action, but to its occurrence and starting point. In this regard, the initial action is contrasted with the continuous action. While the continuous action expresses the course of the action over a certain period of time, the initial action emphasizes the beginning of this action.

In French, the initial meaning is mainly expressed using analytical constructions such as se mettre à + infinitif, commencer à + infinitif. These units indicate that the action has entered the initial stage. For example:

La neige a commencé à tomber fortement. — The snow began to fall heavily.

Elle a commencé à pleurer. — She began to cry.

In these examples, the constructions commencer à and se mettre à express the very beginning phase of the action, highlighting the starting point of the process. Thus, in French, the initial action style serves to express not only a certain stage of the action, but also its occurrence and beginning value on the time axis.

Continuous action style. The continuous action style expresses an action or process in terms of its duration. In this case, it is important that the action continues for a certain period of time, rather than its beginning or completion. For example:

Nous habitions depuis longtemps sous les grandes montagnes. — We lived for a long time under the mountains.

In conclusion, it can be said that the grammatical-semantic expression of the mode of action in French allows us to determine the aspectual properties of the action expressed by the verb, such as duration, completion, repetition, beginning or end. The results of the study show that the meanings of the mode of action in French are expressed mainly through verb forms, tense-aspect forms and analytical constructions.

References:

1. Brunel P., Pichios C. & Rousseau, A-M. Qu'est-ce que la littérature comparée? Paris, Armand Colin, 1996.
2. Bull, W.E. Time, Tense and the Verb. A Study in Theoretical and Applied Linguistics, with Particular Reference to Spanish. London: University of California Paris. 1963.
3. David Cohen, L'aspect verbal, Presses universitaire de France, 1989.
4. Dictionnaire Le Robert Quotidien, dictionnaire pratique de langue française, Paris 1996.
5. Ferdinand de Saussure: Cour de la Linguistique Générale, Paris : Payot & Rivages, (1995)
6. Guillemin-Flesher J. Syntaxe Comparée du français et de l'anglais : problème de traduction, Ophrys, Paris.
7. Gustave Guillaume, Temps et verbe. Théorie des aspects, des modes et des temps suivi de L'architectonique du temps dans les langues classiques, Honore Champion, Paris, 1984.

ЛИНГВОСОЦИАЛЬНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЯЗЫКА КАК БАЗОВЫЙ ФАКТОР ОБЩЕСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ

РАХМАТОВА САОДАТ АМРАКУЛОВНА

Доцент, межфакультетской кафедры русского языка Самаркандского Государственного университета им. Шарофа Рашидова.
Самарканд, Узбекистан
mail:saodatraxmatova67@gmail.com.
тел: (+998-90-212-91-06)

***Abstract*:** The article examines the linguosocial potential of the Uzbek language as a key strategic resource of social progress, national consolidation, and state-building. The historical and legal stages of strengtheningлесо status of the Uzbek language, its role in the modernization of public consciousness, the formation of a unified information and legal space, the development of human capital, and integration into the global digital space are considered. Special attention is paid to expanding the functional space of the language in public administration, science, innovation, and high technologies based on modern regulatory and legal initiatives.

***Keywords*:** state language, Uzbek language, linguosocial potential, social development, national identity, language policy, digitalization, human capital.

***Введение*.** В условиях современного государственного строительства и динамичных глобализационных процессов языковая политика приобретает

статус приоритетного направления национальной безопасности, суверенитета и устойчивого общественного развития. Язык выступает не только как универсальное средство коммуникации и закрепления исторической памяти, но и как мощный социальный институт, формирующий систему ценностей, правосознание и инновационный потенциал нации. Исторический опыт показывает, что степень развитости государственного языка напрямую коррелирует с уровнем цивилизационного прогресса общества, его способностью отвечать на вызовы современности и сохранять культурно-цивилизационную автономию. Как справедливо отмечается в научных трудах, язык есть живая душа народа, его ментальная матрица и фундамент духовного возрождения [4. с. 14]. В этом контексте узбекский язык как государственный язык Республики Узбекистан выполняет важнейшую системообразующую функцию, объединяя многонациональное общество вокруг единых стратегических целей модернизации. Актуальность настоящего исследования обусловлена необходимостью комплексного теоретического осмысления лингвосоциального потенциала узбекского языка в эпоху цифровой трансформации, углубления демократических реформ и масштабных социально-экономических преобразований, закрепленных в стратегических государственных документах [1].

Материалы и методы. Для достижения поставленной цели и решения исследовательских задач в работе использовался комплекс современных методов научного познания. Методологическую основу исследования составили принципы системно-структурного подхода, социолингвистического и лингвокультурологического анализа, позволяющие рассмотреть язык не изолированно, а в тесной связи с социальными, политическими и культурными институтами государства [3]. В качестве основных методов применялись историко-генетический метод для прослеживания эволюции правового статуса и функционального расширения узбекского языка, метод сравнительно-сопоставительного анализа для оценки динамики изменения сферы применения государственного языка в различные исторические периоды, а также метод дискурс-анализа при исследовании официальных документов, нормативно-правовых актов и концепций развития государственного языка [5]. Материалом исследования послужили Конституция Республики Узбекистан, основополагающие законы, а также программные указы и постановления Президента Республики Узбекистан, в частности Указ «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране» от 20 октября 2020 года № УП-6084 [1] и Постановление «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию государственного языка» от 20 октября 2025 года № ПП-308 [2],

данные социологических и лингвистических мониторингов, а также труды ведущих отечественных и зарубежных исследователей в области языкового строительства, социолингвистики и философии языка [3;4;5]. Обращение к широкой источниковедческой и нормативно-правовой базе позволило обеспечить высокую степень достоверности и научной обоснованности теоретических выводов.

Результаты и обсуждение. Лингвосоциальный потенциал государственного языка проявляется в его способности выступать интегратором общества, инструментом государственного управления и катализатором экономического и культурного роста. Обретение узбекским языком статуса государственного стало поворотным моментом в новейшей истории Узбекистана, заложив прочный фундамент для восстановления исторической справедливости, возрождения национальной культуры и укрепления суверенитета. В последние годы в республике реализуется системная государственная политика, направленная на качественное повышение авторитета узбекского языка. Как подчеркивается в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-6084, планомерная реализация Концепции развития узбекского языка и совершенствования языковой политики в 2020–2030 годах вывела языковое строительство на уровень стратегического государственного менеджмента [1]. Дальнейшее развитие этого курса зафиксировано в Постановлении № ПП-308, которым предусмотрено введение института советников руководителей по вопросам духовности и государственного языка в системе государственного управления, а также масштабное обновление учебной и лексикографической базы [2]. Полноценное функционирование узбекского языка во всех сферах общественной жизни выступает мощным фактором гражданской солидарности, снимающим барьеры межэтнического взаимодействия и формирующим единое общегосударственное самосознание, основанное на уважении к историческому наследию и устремленности в будущее [3]. Современный этап развития узбекского языка характеризуется переходом от экстенсивного расширения сферы его использования к интенсивному освоению новых функциональных стилей, включая научно-технический, информационно-технологический и дипломатический дискурсы. Активно ведется масштабная лексикографическая работа по созданию новых академических словарей, энциклопедий и отраслевых терминологических баз, что позволяет эффективно осуществлять перевод инновационных знаний, управленческих концепций и передовых образовательных программ [5]. В сфере образования узбекский язык стал доминирующим языком обучения на всех уровнях, начиная от дошкольного воспитания и заканчивая высшей

школой и послевузовской подготовкой, что стимулирует рост интеллектуального потенциала молодежи и расширяет возможности доступа к качественным знаниям [2]. Научные исследования, диссертационные работы и академические публикации на государственном языке успешно интегрируются в мировое научное пространство через механизмы цифровизации, открытого доступа и международного цитирования. В условиях глобализации и цифровизации общества жизнеспособность любого языка напрямую зависит от его полноценной представленности в виртуальном пространстве и системах искусственного интеллекта. Узбекский язык демонстрирует высокую степень динамизма в освоении цифровой среды, о чем свидетельствует разработка масштабных проектов по интеграции языка в технологии машинного перевода, автоматического распознавания речи, синтеза голоса и создания интеллектуальных текстовых редакторов [2]. Формирование национального корпуса текстов, электронных библиотек, образовательных платформ и интернет-порталов на государственном языке обеспечивает свободный гражданам доступ к информации, укрепляет цифровой суверенитет государства и способствует гармоничной адаптации языковой системы к требованиям современной инновационной экономики.

Заключение. Лингвосоциальный потенциал узбекского языка представляет собой важнейший стратегический ресурс государственного строительства, обеспечивающий духовную консолидацию общества, сохранение национальной идентичности и преемственность поколений в условиях стремительных глобализационных вызовов [4]. Институциональное укрепление государственного языка, опирающееся на последовательную реализацию программных указов и постановлений Президента Республики Узбекистан (№ УП-6084 от 20.10.2020 г., № ПП-308 от 20.10.2025 г.), сопровождается успешным и динамичным расширением его функционального пространства в сфере науки, образования, цифровых технологий и государственного управления [1;2]. Дальнейшее развитие узбекского языка как базового фактора общественного прогресса требует продолжения целенаправленной работы по совершенствованию национальной терминологической базы, внедрению передовых лингвистических и информационных технологий, а также повышению общей языковой культуры населения. Системная поддержка государственного языка выступает непреложным условием устойчивого процветания страны, укрепления ее интеллектуального суверенитета и гармоничной интеграции в мировое сообщество.

Список литературы:

1. Ш. Мирзиёев. О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране : Указ Президента Республики Узбекистан от 20 октября 2020 года, № УП-6084 // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. — URL: https://lex.uz/docs/5058375.

2. Ш. Мирзиёев. О дополнительных мерах по дальнейшему развитию государственного языка : Постановление Президента Республики Узбекистан от 20 октября 2025 года, № ПП-308 // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. — URL: https://lex.uz/uz/docs/7776365.

3.Аваков, В. М. Языковая политика и государственное строительство / В. М. Аваков. — Москва : Наука, 2019. — 210 с.

4.Махмудов, Н. Тил ва тафаккур / Н. Махмудов. — Тошкент : Маънавият, 2023. — 240 б.

5.Рахматуллаев, Ш. Узбек тилининг этологик ва лексик хусусиятлари / Ш. Рахматуллаев. — Тошкент : Университет, 2018. — 190 б.

USMON AZIM IDIOSTILI EVOLYUTSIYASINI TADQIQ ETISH BOSQICHLARI

Umirova S.M.
SamDU dotsenti

Annotatsiya: Ijodkor idiostili badiiy matnda muallifning individual til shaxsini namoyon etuvchi murakkab lingvopoetik hodisa bo‘lib, uning leksik tanlovi, grammatik qurilmalari, sintaktik tashkil etilishi hamda obraz yaratish strategiyalarining yaxlit tizimida namoyon bo‘ladi. Idiostil muallifning alohida til birliklaridan foydalanish xususiyati sifatida emas, balki turli lingvistik sathlarda muntazam takrorlanadigan va statistik jihatdan kuzatiladigan individual uslubiy qonuniyatlar majmuyi sifatida talqin etiladi. Shu sababli idiostilni tadqiq etishda lingvistik kuzatishlarni korpusga asoslangan kvantitativ tahlil usullari bilan uyg‘unlashtirish muallif uslubining obyektiv tavsifini yaratishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Usmon Azim, idiostil, idiostil evolyutsiyasi, mualliflik korpusi, statistik tahlil, lingvopoetik talqin, diaxron segmentatsiya, lingvistik ko‘rsatkichlar, davrlararo qiyosiy tahlil, leksik tarkib, semantik maydon, sintaktik modellar, lingvopoetik vositalar, evolyutsion model.

***Abstract*:** The idiostyle of a creative writer is a complex linguopoetic phenomenon that manifests the author’s individual linguistic personality in a literary

text and is realized through an integrated system of lexical choices, grammatical constructions, syntactic organization, and image-creation strategies. Idiostyle is interpreted not as the author's specific use of individual linguistic units, but as a set of individual stylistic patterns that recur systematically across different linguistic levels and can be observed statistically. Therefore, combining linguistic observations with corpus-based quantitative analysis methods in the study of idiostyle contributes to developing an objective description of the author's style.

***Keywords*:** Usmon Azim, idiostyle, evolution of idiostyle, author corpus, statistical analysis, linguopoetic interpretation, diachronic segmentation, linguistic indicators, inter-period comparative analysis, lexical composition, semantic field, syntactic patterns, linguopoetic devices, evolutionary model.

Ijodkor idiostili o‘zgarmas hodisa emas, balki muallifning ijodiy faoliyati davomida uzluksiz rivojlanib boradigan dinamik tizimdir. Ijodiy tajribaning ortishi, badiiy-estetik qarashlarning takomillashuvi, ijtimoiy-madaniy muhit hamda adabiy an'analarning o‘zaro ta'siri natijasida muallifning til tanlovi, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish usullari va matnni tashkil etish strategiyalari bosqichma-bosqich o‘zgaradi. Shu bois idiostil taraqqiyotini o‘rganish muallif uslubining faqat yakuniy holatini tavsiflash emas, balki uning shakllanish dinamikasi va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashni ham nazarda tutadi.

Uslubiyat va poetika bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda idiostilning evolyutsion tabiati turli nazariy yondashuvlar asosida izohlangan. V.Vinogradov muallif uslubining shakllanishida adabiy til me'yorlari hamda badiiy an'analarning ta'sirini alohida ta'kidlasa [1. 655], R.Yakobson va Y.Lotman badiiy matnni belgilar tizimi sifatida talqin qilib, uslubiy xususiyatlarni muallifning estetik pozitsiyasi va individual ma'no yaratish strategiyasi bilan bog‘laydi [3.]. P.Simpson esa badiiy matndagi uslubiy tanlovlarni muallif dunyoqarashining lingvistik ifodasi sifatida baholaydi [2.]. Mazkur nazariy qarashlar idiostilni statik hodisa emas, balki vaqt davomida shakllanadigan va takomillashadigan dinamik tizim sifatida talqin qilish uchun metodologik asos yaratadi.

Nazariy qarashlar idiostil taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini yoritadi, biroq muayyan ijodkor uslubini tavsiflash aniq metodologik yondashuvni talab etadi. Bunday yondashuv muallif asarlarini yagona korpusga jamlash, ularni ekstralingvistik belgilar asosida tartiblash hamda turli lingvistik sathlarda qiyosiy tahlil qilish tamoyillariga tayanadi. Tadqiqotning ushbu bosqichida nazariy mulohazalar empirik ma'lumotlar bilan uyg‘unlashtirilib, muallif uslubining rivojlanish dinamikasi korpus materiallari asosida tavsiflanadi.

Usmon Azim ijodini o‘rganishda diaxron yondashuv asosiy metodologik yo‘nalish sifatida tanlandi. Bunda asarlar yaratilgan davriga ko‘ra guruhlanib, har

bir davr alohida korpus segmenti sifatida qaraladi. Mazkur segmentlar doirasida leksik tarkib, sintaktik modellar, lingvopoetik vositalar va boshqa uslubiy ko‘rsatkichlar o‘zaro qiyoslanadi. Uslubning barqaror jihatlari bilan bir qatorda, vaqt davomida yuz bergan o‘zgarishlar ham tizimli ravishda tavsiflanadi.

Yuqoridagi metodologik yondashuv bir necha o‘zaro bog‘liq tamoyillarga asoslanadi. Mazkur tamoyillar tadqiqotning nazariy izchilligini belgilab, korpus materiallarini tahlil qilishning yagona metodik tizimini shakllantiradi.

Usmon Azim idiostili taraqqiyotini tadqiq etishda korpus lingvistikasi, statistik tahlil va lingvopoetik talqin o‘zaro uyg‘un metodologik tizimni tashkil etadi. Tadqiqotning empirik asosini mualliflik korpusi tashkil etsa, statistik tahlil til birliklarining qo‘llanish qonuniyatlarini miqdoriy jihatdan tavsiflaydi. Olingan natijalar lingvopoetik nuqtayi nazardan izohlanib, muallifning individual uslubiy xususiyatlari va ularning vaqt davomida kuzatiladigan o‘zgarishlari qiyosiy asosda baholanadi.

Mazkur tamoyillar o‘zaro bog‘liq yagona metodologik tizimni tashkil etadi. Ularning konseptual o‘zaro munosabati quyidagi modelda ifodalangan (1-rasm).



1-rasm. Usmon Azim idiostili evolyutsiyasini aniqlash tamoyillarining konseptual modeli

Korpus tahlili jarayonida leksik tarkib, semantik maydonlar, kollokatsiyalar, sintaktik modellar va boshqa uslubiy ko‘rsatkichlar davrlar kesimida o‘rganiladi. Statistik ko‘rsatkichlar lingvistik kuzatishlar bilan uyg‘un holda talqin qilinib, idiostilning barqaror hamda o‘zgaruvchan komponentlari ajratiladi. Bunday

yondashuv muallif uslubini alohida til birliklari emas, balki ularning o‘zaro munosabati va funksional yaxlitligi asosida tavsiflashga yo‘naltiriladi.

Mazkur metodologik yondashuv asosida tadqiqotning amaliy bosqichlari ishlab chiqildi. Ular korpusni tayyorlashdan boshlab, ijodiy davrlar bo‘yicha guruhlash, lingvistik ko‘rsatkichlarni aniqlash, statistik tahlil, davrlararo qiyoslash va natijalarni lingvopoetik talqin qilishgacha bo‘lgan izchil jarayonni qamrab oladi.

Usmon Azim idiostili evolyutsiyasini tadqiq etish bosqichlari.

1-bosqich. Mualliflik korpusini shakllantirish. Tadqiqotning dastlabki bosqichida Usmon Azim ijodiga mansub matnlar yagona korpus tarkibiga jamlandi. Korpusni shakllantirishda matnlarning to‘liqligi, ishonchliligi va bibliografik aniqligi asosiy mezon sifatida qabul qilindi. Shu bois korpus tarkibiga turli yillarda nashr etilgan she'riy, nasriy va dramatik asarlar kiritildi hamda ularning elektron nusxalari yagona formatga keltirildi. Korpusni tayyorlash jarayonida matnlar texnik jihatdan qayta ishlanib, kodlashdagi tafovutlar bartaraf etildi, struktur elementlar bir xillashtirildi va keyingi avtomatik tahlil uchun zarur bo‘lgan dastlabki tayyorgarlik ishlari bajarildi. Shuningdek, har bir asarga yaratilgan yoki nashr etilgan yili, janri, manbasi va boshqa bibliografik ma’lumotlarni o‘z ichiga oluvchi ekstralingvistik tavsif biriktirildi. Mazkur ma’lumotlar keyingi diaxron qiyoslashning asosiy parametrlarini belgilaydi.

2-bosqich. Diaxron segmentatsiya. Mualliflik korpusi shakllantirilgach, matnlar yaratilgan davri asosida diaxron segmentlarga ajratildi. Segmentatsiyaning asosiy maqsadi turli ijodiy bosqichlarda kuzatiladigan uslubiy xususiyatlarni qiyosiy nuqtayi nazardan tavsiflashdan iborat. Shu sababli har bir davr alohida kichik korpus sifatida qaralib, statistik hamda lingvopoetik tahlillar mustaqil ravishda amalga oshirildi. Diaxron segmentatsiya vaqt omilini mustaqil tadqiqot parametri sifatida ko‘rib chiqadi. Bunday yondashuv leksik tarkib, sintaktik modellar va badiiy tasvir vositalarining qo‘llanishidagi barqarorlik hamda o‘zgarishlarni izchil kuzatishga asoslanadi: uslubning rivojlanish bosqichlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi yaxlit tizim sifatida tavsiflanadi.

3-bosqich. Lingvistik ko‘rsatkichlarni aniqlash. Diaxron segmentatsiyadan so‘ng har bir korpus segmenti lingvistik ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilinadi. Ushbu bosqichda muallif idiostilini tavsiflovchi leksik, semantik, sintaktik va lingvopoetik birliklar ajratilib, ularning korpusdagi taqsimoti aniqlanadi. Tahlil tilning alohida sathlari bo‘yicha emas, balki ularning o‘zaro bog‘liqligi asosida olib boriladi. Leksik sathda yuqori chastotali birliklar, semantik dominantalar va kollokatsiyalar o‘rganiladi. Sintaktik tahlilda muallifga xos gap qurilishlari, takrorlanuvchi konstruksiyalar hamda barqaror sintaktik modellar tavsiflanadi. Lingvopoetik tahlil esa metafora, epitet, o‘xshatish va boshqa badiiy vositalarning qo‘llanish

xususiyatlarini yagona tizimda baholaydi. Shu tariqa idiostilni shakllantiruvchi asosiy lingvistik ko‘rsatkichlar aniqlanadi.

4-bosqich. Statistik tahlil. Aniqlangan lingvistik ko‘rsatkichlar statistik mezonlar asosida baholanadi. Bunda birliklarning mutlaq va nisbiy chastotasi, korpus bo‘ylab taqsimoti hamda davrlar kesimidagi o‘zgarishlari hisobga olinadi. Statistik natijalar muallif uslubida muntazam takrorlanadigan va barqaror qo‘llanadigan elementlarni ajratish uchun empirik asosni shakllantiradi. Statistik tahlil faqat miqdoriy tavsif bilan cheklanmaydi. Olingan ko‘rsatkichlar lingvistik mazmun bilan bog‘liq holda sharhlanib, muallifning individual uslubini tavsiflovchi yetakchi belgilar umumlashtiriladi. Shu sababli statistik va lingvistik tahlil tadqiqotning o‘zaro to‘ldiruvchi tarkibiy qismlari sifatida qaraladi.

5-bosqich. Davrlararo qiyosiy tahlil. Statistik tahlil natijalari muallif ijodining turli davrlariga mansub korpus segmentlari kesimida o‘zaro qiyoslanadi. Bunda leksik tarkib, semantik maydonlar, sintaktik modellar va lingvopoetik vositalarning qo‘llanish xususiyatlari davrlar bo‘yicha solishtiriladi. Tahlilning asosiy e'tibori uslubning barqaror elementlari hamda vaqt davomida yuzaga kelgan o‘zgarishlarni aniqlashga qaratiladi. Davrlararo qiyoslash natijasida muallif idiostilining rivojlanish qonuniyatlari tavsiflanadi. Ayrim lingvistik birliklarning qo‘llanish faolligi ortishi yoki kamayishi, yangi uslubiy modellar shakllanishi, shuningdek, uzoq vaqt davomida saqlanib qolgan barqaror xususiyatlar yagona tizimda baholanadi. Shu tariqa individual uslubning evolyutsion manzarasi izchil yoritiladi.

6-bosqich. Lingvopoetik talqin. Korpus va statistik tahlil natijalari badiiy matn mazmuni bilan bog‘liq holda lingvopoetik jihatdan sharhlanadi. Ushbu bosqichda aniqlangan leksik dominantalar, sintaktik modellar va obrazli vositalarning muallif poetikasidagi o‘rni izohlanadi. Statistik kuzatishlar badiiy kontekst bilan uyg‘unlashtirilib, til birliklarining estetik vazifasi ochib beriladi. Lingvopoetik talqin muallifning individual badiiy tafakkuri, konseptual qarashlari va uslubiy strategiyalarini yaxlit tizim sifatida tavsiflaydi: statistik ko‘rsatkichlar faqat miqdoriy tavsif darajasida qolmay, ularning poetik mazmuni ham asoslanadi.

7-bosqich. Idiostilning evolyutsion modelini ishlab chiqish. Tadqiqotning yakuniy bosqichida barcha tahlil natijalari o‘zaro integratsiyalanib, Usmon Azim idiostilining evolyutsion modeli ishlab chiqiladi. Model muallif uslubining leksik, semantik, sintaktik va lingvopoetik xususiyatlarini yagona tizimda umumlashtiradi hamda ularning vaqt davomida qanday rivojlanganini aks ettiradi. Ishlab chiqilgan model idiostilning barqaror va o‘zgaruvchan komponentlarini o‘zaro bog‘liq holda tavsiflaydi. Unda til birliklarining qo‘llanish dinamikasi, konseptual dominantalar, uslubiy strategiyalar va poetik tafakkurning rivojlanish bosqichlari yaxlit ilmiy konsepsiya doirasida talqin qilinadi. Mazkur model tadqiqotning nazariy

umumlashmasi sifatida muallif uslubining evolyutsion xususiyatlarini kompleks yoritadi.

Taklif etilgan metodika muallif idiostilini alohida til birliklari yig‘indisi sifatida emas, balki vaqt omili bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan dinamik tizim sifatida o‘rganishga asoslanadi. Mazkur yondashuvning afzalligi lingvistik kuzatishlarning empirik ma’lumotlar bilan tasdiqlanishidadir. Korpus asosida olingan statistik natijalar individual kuzatuvlarga emas, balki muallif ijodining to‘liq matnlar majmuasiga tayanadi. Turli davrlarda yaratilgan asarlarni yagona metodika asosida qiyoslash orqali leksik tarkib, sintaktik modellar, semantik dominantalar va lingvopoetik vositalarning rivojlanish qonuniyatlari aniqlanadi. Bu esa uslub taraqqiyotining ichki qonuniyatlarini izohlashda muhim metodologik asos hisoblanadi.

Bu metodika faqat Usmon Azim ijodini o‘rganish bilan cheklanmaydi. Uning asosiy tamoyillari boshqa mualliflik korpuslari, diaxron stilistik tadqiqotlar hamda raqamli adabiyotshunoslik yo‘nalishlarida ham qo‘llanishi mumkin. Shu sababli metodikaning amaliy qo‘llanish doirasi keng bo‘lib, u korpus lingvistikasi va stilistika kesishgan yo‘nalishlarda olib boriladigan tadqiqotlar uchun universal yondashuv sifatida qaraladi.

Mazkur bo‘limda muallif idiostili taraqqiyotining nazariy va metodologik asoslari korpus lingvistikasi nuqtayi nazaridan yoritildi. Tahlil natijasida idiostil statik hodisa emas, balki muallifning ijodiy faoliyati davomida leksik, sintaktik va lingvopoetik xususiyatlari bosqichma-bosqich shakllanib boradigan dinamik tizim ekani asoslandi. Shuning uchun muallif uslubini tavsiflashda vaqt omilini hisobga oluvchi diaxron yondashuv metodologik jihatdan ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Виноградов В. В. О языке художественной литературы. – Москва: Государственное издательство художественной литературы, 1959. – 655 с.

2. Simpson P. Stylistics: A Resource Book for Students. – London: Routledge, 2004. – 247 p.

3. Якобсон Р. О. Лингвистика и поэтика // Структурализм: «за» и «против»: сборник статей. – Москва: Прогресс, 1975. – С. 193–230; Лотман Ю. М. Структура художественного текста. – Москва: Искусство, 1970. – 384 с.

«O‘ZBEK TILINING DAVLAT TILI SIFATIDAGI MAQOMI VA RUS TILINI O‘QITISHDA MILLIY TILGA TAYANISHNING AHAMIYATI»

Adilova Soliyaxon
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi, f.f.n.
adilova_soliyaxon48@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tilining O‘zbekiston Respublikasida davlat tili sifatidagi huquqiy va ijtimoiy maqomi, uning ta’lim tizimidagi ahamiyati hamda rus tilini o‘qitish jarayonida milliy til imkoniyatlaridan foydalanish masalalari tahlil qilinadi. Til ta’limida ona tili va o‘rganilayotgan til o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, qiyosiy yondashuv, tillararo interferensiya va milliy tilga tayanishning metodik imkoniyatlari yoritiladi.

***Kalit so‘zlar*:** davlat tili, o‘zbek tili, rus tili, milliy til, til ta’limi, ko‘p tillilik, tillararo aloqa, qiyosiy metod, kommunikativ kompetensiya, tillararo interferensiya, globallashuv.

Аннотация: В данной стате анализируются правовой и сотсиалный статус узбекского языка как государственного языка в Республике Узбекистан, его значение в системе образования, а также вопросы исползования возможностей родного языка в протсессе обучения русскому языку. Освещаются взаимосвяз родного и изучаемого языков в протсессе языкового образования, сопоставителный подход, межъязыковая интерференсия и методические возможности опоры на родной язык.

***Ключевые слова*:** государственный язык, узбекский язык, русский язык, родной язык, языковое образование, многоязычие, межъязыковое взаимодействие, сопоставителный метод, коммуникативная компетенсия, межъязыковая интерференсия, глобализатсия.

Abstract: This article analyzes the legal and social status of the Uzbek language as the state language in the Republic of Uzbekistan, its significance in the education system, and the use of the potential of the native language in the process of teaching Russian. It examines the interrelationship between the native language and the target language in language education, the comparative approach, cross-linguistic interference, and the methodological potential of relying on the native language.

Keywords: state language, Uzbek language, Russian language, native language, language education, multilingualism, cross-linguistic interaction,

comparative method, communicative competence, cross-linguistic interference, globalization.

Til inson tafakkuri, milliy madaniyati va ijtimoiy hayotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir xalqning milliy o‘zligi, tarixi, ma’naviy merosi va madaniy qadriyatlari, avvalo, uning tilida o‘z ifodasini topadi. Shu ma’noda davlat tilining maqomi va uning jamiyat hayotidagi o‘rni mamlakatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqdir.

O‘zbekistonda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi 1989 yil 21 oktabrda berilgan. Keyinchalik, 1995 yil 21 dekabrda «O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida»gi Qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Qonunning 1-moddasida O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tili ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Davlat tilining ta’lim tizimidagi ahamiyati

Davlat tilining rivojlanishi ta’lim tizimi bilan bevosita bog‘liq. Ta’lim orqali tilning me’yorlari, leksik boyligi, grammatik qurilishi va nutq madaniyati yosh avlodga izchil ravishda yetkaziladi.

O‘zbekistonda davlat tilini rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasida belgilab berilgan. Xususan, 2020–2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida ta’lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish, tilning sofligini saqlash va aholining nutq madaniyatini yuksaltirish kabi vazifalar belgilangan.

Rus tilini o‘qitishda milliy tilga tayanishning metodik ahamiyati

Rus tilini o‘zbek auditoriyasida o‘qitish jarayonida talabalarning ona tili — o‘zbek tili muhim tayanch vazifasini bajaradi. Chunki talaba yangi tilni mutlaqo bo‘sh muhitda emas, balki avval shakllangan til tajribasi asosida o‘zlashtiradi.

Milliy tilga tayanish, avvalo, ikki tildagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash imkonini beradi. Masalan, rus va o‘zbek tillarida gapning asosiy bo‘laklari mavjud bo‘lsa-da, ularning grammatik ifodalanishi, so‘z tartibi, kelishik tizimi, fe’l shakllari va boshqa xususiyatlarida farqlar mavjud.

Shuning uchun rus tili darslarida qiyosiy metoddan foydalanish samarali natija berishi mumkin. O‘qituvchi yangi grammatik hodisani tushuntirishda uning o‘zbek tilidagi muqobili yoki farqli jihatini ko‘rsatsa, talaba yangi materialni ongli ravishda qabul qiladi.

Tillararo interferensiya va uning oldini olis’h

Xorijiy tilni o’rganis’h jarayonida o’quvchi yoki talaba o’z ona tilidagi mavjud til modellarini yangi tilga ko’chiris’hi mumkin. Bu hodisa tillararo interferensiya bilan bog‘liq.

O’zbek auditoriyasida rus tilini o’qitis’hda interferensiya ayrim fonetik, leksik va grammatik xatolarda namoyon bo’lis’hi mumkin. Masalan, rus tilidagi otlarning jins kategoriyasi o’zbek tilidagi grammatik tizimdan farq qiladi. S’hu sababli o’qituvchi talabalarda ko’p uchraydigan xatolarni oldindan aniqlas’hi va ularni qiyosiy mas’hqlar orqali bartaraf yetis’hi mumkin.

Masalan:

- o’zbek tilidagi va rus tilidagi so’z tartibini qiyoslas’h;
- kelis’hik qo’s’himchalari va kelis’hik s’hakllarini taqqoslas’h;
- fe’l zamonlarini qiyosiy o’rganis’h;
- rus tilidagi rod kategoriyasini alohida mas’hqlar asosida mustahkamlas’h;
- rus tilidagi urg‘u va talaffuz xususiyatlarini audiomateriallar orqali mas’hq qilis’h.

Bunday yondas’huv talaba xatosini s’hunchaki tuzatis’h yemas, balki xatoning sababini anglas’h va keyinchalik uni mustaqil ravis’hda nazorat qilis’h imkonini beradi.

O’zbek va rus tillarini o’qitis’hda qiyosiy yondas’huv

Qiyosiy yondas’huv til o’rganuvchining mavjud bilimlarini yangi til materiali bilan bog‘las’h imkonini beradi. Bunda o’qituvchi ikki tilning umumiy va farqli xususiyatlarini aniqlab, ulardan ta’limiy maqsadda foydalanadi.

Qiyosiy yondas’huvni s’hartli ravis’hda uch bosqichda tas’hkil yetis’h mumkin:

Birinchi bosqich — aniqlas’h.

Talaba o’zbek tilidagi mavjud grammatik yoki leksik tus’hunchani yeslaydi.

Ikkinchi bosqich — taqqoslas’h.

O’zbek va rus tillaridagi hodisalar o’zaro solis’htiriladi.

Uchinchi bosqich — qo’llas’h.

Talaba rus tilidagi yangi modelni mustaqil nutqda qo’llaydi.

Masalan, rus tilida kelis’hiklarni o’rganis’hda avval o’zbek tilidagi kelis’hiklar tizimi yeslatilib, keyin rus tilidagi kelis’hik s’hakllari bilan taqqoslanadi. S’hundan so’ng talabalarga dialog, matn va kommunikativ tops’hiriqlar beriladi.

Bunday usul grammatik qoidani mexanik yodlas’hdan ko’ra uning funksional mohiyatini tus’hunis’hga yordam beradi.

Milliy tilga tayanis’h va kommunikativ kompetensiya

Zamonaviy til ta’limida asosiy maqsad faqat grammatik qoidalarni bilis’h yemas, balki o’rganilayotgan tilda yerkin muloqot qila olis’h qobiliyatini s’hakllantiris’hdir.

S’hu nuqtai nazardan milliy tilga tayanis’h kommunikativ kompetensiyani s’hakllantiris’hning dastlabki bosqichlarida samarali vosita bo’lis’hi mumkin.

Talaba murakkab tus’hunchani avval o’z tilida anglab, keyin uni rus tilida ifodalas’hga harakat qiladi.

Globallas’huv s’haroitida ko’p tilli ta’lim

Bugungi globallas’huv s’haroitida bir nechta tilni bilis’h s’haxsning ta’limiy va kasbiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi omillardan biridir. S’hu sababli davlat tilini rivojlantiris’h bilan birga rus va bos’hqa xorijiy tillarni o’qitis’h masalasi ham dolzarb bo’lib qolmoqda.

O’zbekistonning davlat tiliga oid qonunchiligi o’zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini belgilas’h bilan birga, bos’hqa tillardan foydalanis’h huquqlarini ham ye’tirof yetadi. 1989 yilgi qonunning o’zida o’zbek tiliga davlat tili maqomi berilis’hi bos’hqa millat va yelatlarning o’z ona tillaridan foydalanis’h huquqlariga monelik qilmasligi belgilangan.

O’zbek tili — davlat tili sifatida milliy va ijtimoiy birlikning muhim vositasi bo’lsa, rus tilini o’rganis’h — ta’lim, madaniyat, ilm-fan va xalqaro muloqot imkoniyatlarini kengaytiruvchi vositalardan biri sifatida qaralis’hi mumkin.

Rus tili darslarida milliy tildan foydalanis’h bo’yicha amaliy tavsiyalar

Institutlarda rus tilini o’qitis’h samaradorligini os’hiris’h uchun quyidagi metodik yondas’huvlardan foydalanis’h maqsadga muvofiq:

1. **Qiyosiy grammatik tahlil** — o’zbek va rus tillaridagi grammatik kategoriyalarni taqqoslas’h.
2. **Tarjima mas’hqlari** — qisqa jumlalarni o’zbek tilidan rus tiliga va rus tilidan o’zbek tiliga tarjima qilis’h.
3. **Kasbiy leksika bilan is’hlas’h** — talabaning mutaxassisligiga oid atamalarni ikki tilda o’rganis’h.
4. **Tillararo xatolar tahlili** — talabalarda uchraydigan tipik xatolarni aniqlas’h va ularning sabablarini tus’huntiris’h.
5. **Kommunikativ vaziyatlar** — kundalik va kasbiy muloqotga oid dialoglar tuzis’h.
6. **Raqamli texnologiyalardan foydalanis’h** — yelektron lug‘atlar, multimedia materiallari va interaktiv tops’hiriqlardan foydalanis’h.
7. **Mustaqil nutqni rivojlantiris’h** — talabalarga rus tilida qisqa taqdimot, yesse, xabar yoki kasbiy matn tayyorlas’h vazifalarini beris’h.

Bunday metodlar milliy tilni chetlab o’tmagan holda rus tilini mustaqil muloqot vositasi sifatida o’zlas’htiris’hga yordam beradi.

O’zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi mamlakatning milliy-madaniy va ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb yetadi. Davlat tilini rivojlantiris’h ta’lim, ilm-fan, madaniyat va jamiyatning bos’hqa sohalari bilan uzviy bog‘liqdir.

Rus tilini o’qitis’h jarayonida o’zbek tiliga tayanis’h yesa davlat tilining maqomiga zid bo’lgan yondas’huv yemas, balki ta’limning metodik imkoniyatlaridan biri sifatida baholanis’hi lozim. Milliy til talabaning avvaldan s’hakllangan til tajribasi sifatida yangi til materialini anglas’h va o’zlas’htiris’hga yordam beradi.

Ayniqsa, o’zbek va rus tillarini qiyosiy o’rganis’h talabalarda tillarning umumiy va farqli jihatlarini anglas’h, tillararo interferensiyaning oldini olis’h hamda kommunikativ kompetensiyani rivojlantiris’h imkonini beradi.

S’huning uchun oliy ta’lim muassasalarida rus tilini o’qitis’h jarayonida milliy tilga tayanis’h, qiyosiy-metodik yondas’huv va kommunikativ texnologiyalarni uyg‘unlas’htiris’h muhim ahamiyatga yega. Bu yondas’huv bir tomondan o’zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini mustahkamlas’hga, ikkinchi tomondan yesa talabalarning rus tilidagi bilim va muloqot kompetensiyalarini rivojlantiris’hga xizmat qiladi.

Zamonaviy til ta’limida asosiy vazifa tillarni bir-biriga qarama-qars’hi qo’yis’h yemas, balki ularning ta’limiy, madaniy va kasbiy imkoniyatlaridan oqilona foydalanis’hdan iboratdir. S’hu ma’noda o’zbek tili va rus tilining o’zaro munosabati O’zbekistonda ko’p tilli ta’limni rivojlantiris’hning muhim yo’nalis’hlaridan biri bo’lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni. 1989 yil 21 oktabr.
2. O’zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni yangi tahriri. 2021 yil 21 dekabr.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktabrdagi PF-5850-son «O’zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan os’hiris’h chora-tadbirlari to’g‘risida»gi Farmoni.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 oktabrdagi PF-6084-son «Mamlakatimizda o’zbek tilini yanada rivojlantiris’h va til siyosatini takomillas’htiris’h chora-tadbirlari to’g‘risida»gi Farmoni.
5. 2020–2030 yillarda o’zbek tilini rivojlantiris’h va til siyosatini takomillas’htiris’h konsepsiyasi.
6. Jamiyatda til madaniyati, ko’p tilli ta’lim va xorijiy tillarni o’qitis’h metodikasiga oid ilmiy-metodik adabiyotlar.2025

SUN`IY INTELLEKTNING TURLI SOHALARDAGI ENG ZARUR JIHATLARI

F.E. Jomonqulova
Samarqand iqtisodiyot va servis
instituti dotsenti, t.f.n +998932959572
e-mail: fazilat_72@mail.ru

***Annotatsiya*:** Intellektual axborot texnologiyalar – informatikaning kelajagi porloq va tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan ilmiy va amaliy sohasi hisoblanadi. U kompyuterlardan foydalanish bilan bog'liq barcha ilmiy va texnologik yo'nalishlarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi, u jamiyatga ilmdan nima kutilayotgan bo'lsa o'shani bugunning o'zidayoq bermoqda, amaliy ahamiyatga ega bo'lgan natijalar, ularning ko'pchiligi ularni qo'llash mumkin bo'lgan sohalarda tubdan o'zgarishlar qilishga qodir. Maqolada intellektul axborot texnologiyalarning ilmiy fundamentidagi kalit komponent sun'iy intellekt(SI) hisoblanishi haqida so'z yuritiladi.

***Kalit so`zlar*:** Elektron hisoblash mashinasi, axborotni izlash tizimi, bilimlar bazasi, intellektual tizim, ishchi xotira, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi, muloqot tizimi, sun'iy intellekt, sun'iy intellekt tizimlari, texnik vositalar, tabiiy til, formal tizim, fikrlashning teskari zanjiri, hisoblash mashinasi, ekspert tizim, yangi axborot texnologiyalar, dasturiy ta'minot, ma'lumotlar bazasi, tushuntiruvchi komponent, bilimlarni hosil qilish komponenti.

Axborot texnologiyalar va tizimlar evolyusiyasi ular intellektuallashuvining yuqoriroq darajasi bilan aniqlanadi.

Intellektual axborot texnologiyalarning maqsadlari, birinchidan, kompyuterlar yordamida yechiladigan masalalar ko'lamini kengaytirish, ayniqsa sust strukturalangan predmet sohalarda va ikkinchidan, zamonaviy mutaxassisning intellektual axborot yordamlashishi darajasini ko'tarishdan iborat.

SI haqidagi tasavvur va bu sohadagi izlanishlar - «Aqliy mashinalar» ishlab chiqarishga ilmiy yondoshish birinchi bo'lib Stanford universitetining (AQSh) professori Djon Makkarti tashabbusi asosida 1956 yili tashkil topgan ilmiy to'garakda: paydo bo'ldi.

Bu to'garak tarkibiga Massachuset (AQSh) texnologiya oliygohi «Elektronika va hisoblash texnikasi» qulliyotining faxriy professori Marvin Minskiy, «Umumiy masala yechuvchi» va «Mantiqchi- nazariyotchi» intellektual dasturlar bunyodkorlari - kibernetik Allen Nyuell va Karnegi-Mellen, dorilfununning (AQSh) mashhur psixologi Gerbert Saymon, hisoblash texnikasining ko'zga ko'ringan mutaxassislari Artur Samuel, Oliver Selfridj, K. Shennon va boshqalar kirar edilar. Aynan shu to'garakda «Sun'iy intellekt» tushunchasi paydo bo'ldi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarning asosiy yo'nalishlardan biri insonga taaluqli bo'lgan vazifalarni bajaruvchi intellektual tizimlarni yaratishdir.

Zamonaviy dunyoda dasturchining dastur yaratishdagi rivojlanishi faqatgina shunday holatlarda ro'y beradiki, qachonkim kompyuterlar o'z zimmasiga intellektual vazifaning bir qismini olsa. Bu sohani mukammal rivojlanishining usullaridan biri bu "Sun'iy intellekt"dir. Bunda kompyuter o'z zimmasiga nafaqat bir tipdagi, balkim ko'p takrorlanuvchi jaayonlarni ham o'z zimmasiga oladi va o'zi ham o'rganadi. Bundan tashqari, mukammal "Sun'iy intellekt" yaratish, insoniyat oldiga rivojlanishning yangi yo'nalishlarini ochadi.

Hozirgi vaqtda raqobat kurashidagi ustunlik mamlakatning o'lchovlari bilan ham, uning tabiiy resurslari bilan ham aniqlanmaydi. Endilikda buni jamiyat to'plagan ta'lim darajasi va bilimlar hajmi hal qiladi. Kelajakda boshqa mamlakatlarga qaraganda yangi bilimlarni yarata olgan va egallagan mamlakatlargina gullab yashnaydi. Bunda asosiy rolni yangi axborot texnologiyalar o'ynasa, ularda esa SI usullari va vositalari o'ynaydi.

Intellektual tizim deganda fe'l – atvori maqsadga yo'naltirilgan qobiliyatni o'zida aks ettiruvchi ixtiyoriy biologik, sun'iy yoki formal tizimlar tushuniladi.

Oxirgisi o'zida aloqa, bilimlarni jamlash, qarorlar qabul qilish, o'rganish, moslashish va boshqa xususiyatlarni o'zida namoyon etadi. Hozirgi vaqtda kompyuterlarni intellektuallashtirishning turg'un tendensiyasi va uning dasturiy ta'minoti (DT) mavjud. Kelajakdagi kompyuterlarning asosiy funksiyalari – ko'proq hisoblashga oid bo'lmagan xarakterdagi masalalarni, ya'ni mantiqiy xulosa chiqarish, BBni boshqarish, intellektual interfeys ta'minoti va boshqa masalalarni yechishga qaratilgan. Kompyuterlarni intellektuallashtirish maxsus apparaturalarni (masalan, neyrokompyuterlar) va DTlarni (ekspert tizimlar, BB, masala yechuvchilar va h.k.) yaratish hisobiga amalga oshiriladi,

"Intellektual tizim" tushunchasining ishchi ta'rifi [7]da keltirilgan. Tizim intellektual hisoblanadi, agar unda uchta bazaviy funksiyalar amalga oshirilgan bo'lsa:

1. Bilimlarni taqdim etish va qayta ishlash funksiyasi. Intellektual tizim (IT) o'zida tevarak atrof to'g'risidagi bilimlarni to'plashga qodir bo'lishi, ularni pragmatika va ziddiyatsizliklar nuqtai nazaridan klassifakasiyalashi va baholashi, yangi bilimlarni qabul qilish jarayonlarini aniqlaydi, ma'lumotlar bazasi(MB)da saqlanayotgan bilimlar bilan yangi bilimlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashi lozim;

2. Mulohaza funksiyasi. IT mantiqiy xulosa yordamida yangi bilimlarni vujudga keltirishi va to'plangan bilimlarda qonuniylik mexanizmini namoyon qilishi, alohida (shaxsiy) bilimlar asosida umumlashgan bilimlarni olishi va o'z faoliyatini matiqiy rejalashtirishi kerak;

3. Aloqa funksiyasi. IT inson bilan unga yaqin bo’lgan tilda aloqa qilishi va insonning tevarak atrofni qabul qilishiga (avvalo, ko’rish va ovozli) analogik bo’lgan kanallardan ma’lumot qabul qilish, “o’zi uchun” yoki biror kishining iltimosiga ko’ra shaxsiy faoliyatni tushuntirishni shakllantirishni bilishi (ya’ni, “Buni qanday amalga oshirdim?” kabi savollarga javob berishi), insonga uning xotirasida saqlanayotgan bilimlar hamda mulohaza qilishning mantiqiy vositasi hisobiga yordamlashishi kiradi.

Sun`iy intellekt nima? Sun'iy intellekt (SI) kompyuterlarga o'zlarining tajribalarini o'rganish, berilgan parametrlarga moslashish va ilgari faqat odamlar uchun mumkin bo'lgan vazifalarni bajarish imkonini beradi. SIni amalga oshirishning ko'p holatlarida - kompyuter shaxmatchilaridan tortib uchuvchisiz transport vositalarigacha - chuqur o'rganish va tabiiy tillarni qayta ishlash imkoniyati juda muhimdir. Ushbu texnologiyalar tufayli kompyuterlarga katta miqdordagi ma'lumotlarni qayta ishlash va ulardagi naqshlarni aniqlash orqali muayyan vazifalarni bajarishga "o'rgatish" mumkin.

Sun'iy intellektning rivojlanish tarixi". Sun'iy intellekt" atamasi 1956 yilda paydo bo'lgan, ammo bugungi kunda SI texnologiyasi ma'lumotlar hajmini ko'paytirish, algoritmlarni takomillashtirish, hisoblash quvvatini va ma'lumotlarni saqlash vositalarini optimallashtirish fonida haqiqiy mashhurlikka erishdi.

O'tgan asrning 50-yillarida boshlangan SI sohasidagi birinchi tadqiqot muammolarni hal qilish va ramziy hisoblash tizimlarini rivojlantirishga qaratilgan edi. 60-yillarda bu sohada AQSh Mudofaa vazirligi qiziqish uyg'otdi: AQSh harbiylari insonning aqliy faoliyatini simulyatsiya qilish uchun kompyuterlarni o'qitishni boshladi.

Masalan, mudofaa vazirligining Ilg'or tadqiqot loyihalari agentligi (DARPA) 1970-yillarda bir qator virtual ko'cha xaritalarini loyihalarini yakunladi. Va DARPA mutaxassislari Siri, Alexa va Cortana paydo bo'lishidan ancha oldin 2003 yilda aqlli shaxsiy yordamchilarni yaratishga muvaffaq bo'lishdi.Ushbu ishlar zamonaviy kompyuterlarda, xususan, qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlarida va inson imkoniyatlarini kengaytirish uchun ishlab chiqilgan aqlli qidiruv tizimlarida qo'llaniladigan avtomatlashtirish va rasmiy mantiqiy tamoyillar uchun asos bo'ldi.Garchi SI ko'pincha ilmiy fantastika filmlari va romanlarida ilmiy qudratli robotlar sifatida tasvirlangan bo'lsa-da, dunyo miqyosida o'z kuchini egallagan, SI texnologiyasini rivojlantirishning hozirgi bosqichida, SIlar unchalik qo'rqinchli va aqlli emaslar. Aksincha, sun'iy intellektni rivojlantirish ushbu texnologiyalarga iqtisodiyotning barcha sohalarida haqiqiy foyda keltiradi. Sog'liqni saqlash, chakana savdo va boshqa sohalarda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish misollari quyida keltirilgan.

Sun`iy intellekt qaysi sohada eng zarur? Albatta, meditsinada.

Sababi hozir bilasiz butun Yer yuziga “koronavirus” infeksiyasi tarqalgan. Yurtimizda hali ham bu virus avj olib bormoqda. Qanchadan-qancha shifokorlarimiz bu virus bilan kasallangan bemorlarimizni davolash maqsadida o`zlari ham shu kasalga chalinishmoqda. Lekin buni yechimi bor. Hozir texnologiya asri. Biz bu virusga qarshi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishimiz kerak. Ya`ni “Sun`iy intellekt”dan.

G`oya shundan iboratki, biz o`z shifokorlarimizni bu bema`ni virusdan omon saqlashimiz uchun ularning o`rniga sun`iy intellekt kiritilgan robotni bemorlarga qarash uchun har bitta kasalxonaga bittadan qo`yish kerak. Ular tezlik bilan har bir kasalning oldiga borib uning issig`ini o`lchab, kerakli dori-darmonlar berib, boshqa kasalning oldiga yetib borishi kerak.

Shifokorlarning o`rniga robot qo`yishning asosiy sabablari:

Virus yuqush xavfi tug`ilmaydi(sababi u robot)

Robot o`z nomi bilan robot, u tezlik bilan bir bemorga qarab ikkinchi bemor tomon tez harakatlanadi

Ish haqi olmaydi

Lekin bunday robotlardan hech qayerda yo`q deb aytolmaymiz. Sababi, ko`plab rivojlangan davlatlarda shu sun`iy intellektga asoslangan robotlar kasalxonalarda bemorlarga g`amxo`lik qilmoqdalar.

Saratonni aniqlash uchun foydalanib kelingan sun’iy intellekt endi COVID-19 koronavirusini topishda ham ishlatiladi. Dasturiy ta’minotdan Xitoyning 34 ta gospitalida foydalanildi va uning yordamida 32 mingdan ortiq holat bo‘yicha tekshiruvlar o‘tkazildi, deb xabar bermoqda Neowin.

O`zbekistondachi?

Yaqinda Qashqadayo viloyati G`uzor tumanidan ham bir yurtdoshimiz bunday sun`iy intellektga asoslangan robotlar yaratdi.Bu robotlar dezinfeksiyaga mo`ljallangan.Biz bu yurtdoshimizga katta rahmat aytib qolamiz yurtimizga shunday robotlarni taqdim qilyotgani uchun. Endi biz yanda ko`p funksiyali robotlarni taqdim etishlarini ulardan kutib qolamiz.

Hozirgi vaqtda ET lar *tibbiyotda* - ichak, sil va gipertonik kasalliklarning turli shakllariga tashxis qo’yishda; *harbiy sohada* – samolyot yerga qo’nishida uchuvchiga yordam berishda, analitikka tutuvchi signalni jo’natgan radar turini aniqlashda, xaritada o’zgarish kiritish bo’yicha kartografik ishlarni amalga oshirishda, raqiblarning buyruq beruvchi markazlari, boshqaruvi va aloqalarining razvedka qilinganida olingan natijalarni qayta ishlashga yordamlashishda, raqibning radioalmashish razvedkasi sohasida vaziyatni baholashni amalga oshirishda va razvedkadagi analitiklarga keyingi qurolli to’qnashuv qachon va qayerda bo’lishini bashorat qilishda; *informatikada* – ma’lumotlar bazasi(MB)ni ishlab chiquvchi va MBning konseptual sxemasini aniqlovchi mutaxassislarga yordamlashishda;

kompyuter tizimlarida - lokal tizimlarni loyihalashda va katta EHM dagi katta razryadli MVS operasion tizimlarni boshqarishda; *elektronikada* - telefon tarmog'idagi nosozliklarni aniqlashda, uni sozlash va tiklash chora tadbirlari bo'yicha tavsiyalar berishda; *energetikada* - energetik tizimlarda ishdan chiqish holatlarini aniqlash va tuzatishda; *geologiyada* - foydali qazilmalarning topishda va holatini aniqlashda; *qishloq xo'jaligida* - mevali bog'larga qarashga maslahat berishda; *matematikada* - teoremalarni isbotlashda va algebraik ifodalarni soddalashtirishda; *ximiyada* - murakkab organik molekulalar strukturalarini anglashda; *biologiyada* - DNK strukturasini aniqlashda keng va samarali tadbiq etilmoqda.

SIT kelajakda *qishloq xo'jaligida* - ekinlarni zararkunandalardan himoya qilishi, daraxtlarni kesishi va tanlash xususiyatiga asoslanib parvarishlashni ta'minlashi; *tog' sanoatida* - insonlar uchun o'ta xavfli bo'lgan sharoitlarda ishlashi; *ishlab chiqarishda* - yig'ish va texnik nazoratning turli xil masalalarini bajarishi; *tashkilotlarda* - jamoa va alohida xodimlar uchun jadval tuzishi, yangiliklar haqida qisqacha ma'lumot berish bilan shug'ullanishi; *o'quv yurtlarida* - talabalar yechadigan masalalarni ko'rish, undagi xatolarni izlash va ularni bartaraf qilish masalarini hal qilishi, talabalarni hisoblash tizimlarining xotirasida saqlanadigan superdarsliklar bilan ta'minlashlari; *kasalxonalarda* - be'morlarga tashxis qo'yish, ularni kerakli bo'limga yuborish va davolash davomida ularga maslaxatlar berishi va nazorat qilishi; *uy ishlarida* - ovqat tayyorlash, mahsulot xarid qilish bo'yicha maslahatlar berishi, uyning va bog'dagi gazonlarning holatini nazorat qilish kabi masalalarni amalga oshirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Orifjonov M., Bekmuradov T.F., Xojimatova G., "Ekspert sistemalar", - Toshkent – "Fan"- 1991y, 60 b.
2. Polovinkin A.I., Bobkov N.K., Bush G.Ya. i dr Avtomatizasiya poiskovogo konstruirovaniya (iskusstvennыy intellekt v mashinnom proyektirovanii). Pod red. A.I. Polovinkina. — M.: Radio i svyaz, 1981. — 344 s.
3. Popov E.V. Ekspertnыye sistemы. - M:, Nauka, 1987.
4. Popov E.V. Obsheniye s EVM na yestestvennom yazike. - M:, Nauka, 1986.
5. Popov E.V. Obsyeniye s EVM na yestestvennom yazike. — M.: Nauka, 1982. — 360 s.
6. Popov E.V. Ekspertnыye sistemы: Resheniye neformalizovannыx zadach v dialoge s EVM. — M.: Nauka, 1987. — 288 s.
7. Pospelov D.A. Modelirovaniye rassujdeniy. Opit analiza mislitelnix aktov. — M.: Radio i svyaz, 1989. — 184 s.

QORA KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING GRAMMATIK TUZILISHI

Begniyazova Go‘zal Allambergenovna
Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti
91. 302-55-56.
gozzalbegniyazova9@gmail.com

***Annotatsiya*:** Maqolada qoraqalpoq tilidagi qora komponentli frazeologik birliklar haqida va ularning turlari bo‘lgan tarkibida qora so‘zi bor ikki komponentli frazeologizmlar, tarkibida qora so‘zi bor uch komponentli frazeologizmlar, tarkibida qora so‘zi bor to‘rt komponentli frazeologizmlar, tarkibida qora so‘zi bor ko‘p komponentli frazeologizmlarning grammatik tuzilishi o‘rganilib, modellarga ajratilgan.

***Kalit so‘zlar*:** Qora, komponent, struktura, frazeologizm, grammatik qurilish, ikki, uch, to‘rt va ko‘p komponent.

Qoraqalpoq tilidagi frazeologizmlarning strukturaviy tiplari, tuzilish modellarini o‘rganish va ma’lum bir tizimga tushirish masalasi hali o‘rganilmagan.

Bir qator olimlar frazeologik birliklar faqat ikki so‘zdan iborat bo‘ladi deb ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, frazeologik birliklar ikki komponentdan tashqari, uch, to‘rt va undan ortiq so‘zlardan iborat bo‘ladi. Lekin, ayrim olimlar bir so‘zdan tuzilgan frazeologik birliklarning ham borligini aytadi. A. Japarovning fikricha, bir so‘zdan iborat so‘z birikmalari idiomatik ma’no ifodalay oladi. Bu turdagi so‘z birikmalari qo‘shma so‘z yoki sodda so‘z bilan tavsiflanadi. To‘g‘ri, bir so‘z orqali ham idiomatik ma’no ifodalanishi mumkin, lekin bunday so‘zlarni frazeologik birlik deb atashga bo‘lmaydi. V. V. Vinogradovning fikricha, frazeologik birliklarning paydo bo‘lishi frazeologik butunlikdan boshlanib, frazeologik zanjirga aylanishi kerak [10].

Qoraqalpoq tilidagi qora komponentli frazeologik birliklar ko‘p. Ularning grammatik tuzilishi juda murakkab tuzilishga ega. Shuning uchun ham ularni quyidagi guruhlarga bo‘lib qarash mumkin:

1. Tarkibida qora so‘zi bor ikki komponentli frazeologizmlar.
2. Tarkibida qora so‘zi bor uch komponentli frazeologizmlar.
3. Tarkibida qora so‘zi bor to‘rt komponentli frazeologizmlar.
4. Tarkibida qora so‘zi bor ko‘p komponentli frazeologizmlar.

Qoraqalpoq tilida ikki komponentli frazeologizmlar ko‘p, tuzilishi jihatidan har xil bo‘lib keladi. Ularni strukturaviy jihatdan quyidagi modellarga ajratish mumkin:

1. "Sifat va ot" turidagi frazeologizmlar: Sonı perzentimniń ákesi dep bilsem, “baytal túwe bas qayǵı” bolıp hal ústinde emlewxanada jatqan ol maǵan ne qıla aladı, **qara basın** baǵa almay júrgen ol meni baǵa ala ma (A. Sultanov). Bul meniń dińkemdi qurtıp júrgen, **qara basıma** paydası joq awır jumıstan qashqanım edi, shabazım-aw qáyteyin!... (Ó.Xojaniyazov). **Qara basınan** basqasın oylamaytuǵın bundayda miyirimsiz adam boladı eken (S. Bahadırova). Aysánem **qara basın** qorǵap, bólmeden shıǵıp tura qashtı (A. Begimov). Ermanı jıńǵıllar menen sarı qamıslar kúshli samalǵa tózim bere almay, muńlı ırǵalısıp, **qara jerge** qaray qayta-qayta iyildi. (A. Sultanov).

2. "Ot va sifat" turidagi frazeologizmlar: – Ertekti ayttıń- aw, sizlerdiń usı tilińiz ǵoy, **mańlayı qara** hayallardı buzǵan (S. Bahadırova). Jańaǵı **mańlayı qara** júkli bolıp qalıptı (A. Sultanov). - Sen, qaqsal, qızımdı **baxtı qara** ettiń... (O. Ábdiraxmanov). **Baxtım qara** bolmasa bolar edi (A. Sultanov). -Yaq, yaq, sen meni **baxtı qara** ettiń, duyım jurtqa masqara qıldıń! (A.Sultanov). Ana ushın onnan artıq azap-aqıret joq edi, ol “bul **júzi qaralardıń** kelbetin kórmeyin” dep qas qarayǵansha dúzde júrdi (A. Sultanov). Awa qurıǵan sorım qurıp qudayǵa gúnakar bolǵan **júzi qara** men boldım (G. Esemuratova).

3. "Sifat va fe’l" turidagi frazeologizmlar: Meyli, tutılsam tutılayın, usınday biymánilikten tutılǵan jaqsı shıǵar, súygen hayalımnıń mınaw **qara jamılıp** otırǵanı, balasınıń ata diydarına toymastan qaytıs bolǵanı, oǵan endi ne qaldı (S. Bahadırova). Basqa ne ilaj etemiz, nashar bala dizginin moynına salıp úyden shıǵıp ketti ne, **qara jaǵıldı** ne? (S. Bahadırova). Tájiqal meniń nekelimdey búytip oǵan **qara jabıwǵa** haqım joq edi. (A. Sultanov). Birewdiń ketesi nasharına bunsha ınjılıp ne **qara bastı**?! – dep jipá-jiksiz kisheme sóylep tasladı (G. Esemuratova).

4. "Otlashgan sifat va fe’l" turidagi frazeologizmlar: “**Qarań batsın**, sol úyden súyegiń shıqsın”, dep kórip edi, qudası ákelip taslap ketti (S. Bahadırova). - Áken: ekewi de bosaǵadan ishke qaray adım atlamasın, endigi jaǵında bul shańaraqqa qaray qádem qoyaman degen oydı qıyalına da keltirmesin, **qarasın batırıp,** kelgen jaǵına ketsin, dep atır (A. Sultanov). Abaylap qarasam, biziń úyge qaray kiyatırǵan birewdiń **qarası kórindi** (T. Qayıpbergenov).

Tarkibida qora so‘zi bor uch komponentli frazeologizmlar grammatik jihatdan har xil so‘z turkumlarining birikishidan yasaladi. Ular quyidagicha turlarga bo‘lindi:

1. "Ot+sifat+fe’l" turidagi frazeologizmlar. Gúlimdi uslap aldılar, qaratpadı jaǵdayına, **tikti qara mańlayına** (Berdaq). Sen biziń **baxtımızǵa qara bolǵan** ekenseń (T. Qayıpbergenov). Sonlıqtan da Surtaysha Sarkoptıń xalqın bassınıp, **qara jaqtı júzlerge** (“Qırıq qız”).

2. "Sifat+ot+fe’l" shaklidagi frazeologizmlar. Sifatlar ot so‘zlar bilan asos sifatida ma’no jihatdan bog‘lanib keladi. Frazeologizmlarning tarkibidagi otlar kelishik, egalik qo‘shimchalari bilan, oxirgi komponenti esa fe’lning o‘tgan, hozirgi

va kelasi zamon shakllarida qo‘llaniladi. – Seniń ushın betimdi **qara jer etip** aqsaqaldıń mashinasın alıp keldim (K. Raxmanov). Dúnyanıń baqırısın esitip **qara tútinim shıǵıp** kiyatırsam, xatker qız aldımnan shıǵıp tur (M. Nızanov). Ótemurattan beter Genjebay muǵallim **qara tútin bolıp** qayttı (M. Nızanov). Ózi jalǵız bala ónip-óseǵoysın desem, bir-biriniń júzin kórmey **qara jerge kirip** boldı (M. Nızanov). Bir qarasam, **qara suw bolıp** terlep atır ekenmen (M. Nızanov). Olardıń awızlarına apara bergen ryumkaları keyin qayttı, esikten **qara terge túsken** Sherniyazdıń qarası kórindi (K. Raxmanov). Men ana górsawatlarǵa usı ilimpazdıń atın ayttıra almay **qara ter boldım**-ǵo! (M. Nızanov).

3. "Sifat+ot+ot" shaklidagi frazeologizmlar: –Ol ǵoy, **qara jerdiń túbi**! Onsha el asıp ketip, neń bar? – dedi aǵam meniń kóz aldınan uzap ketkenime qayılshılıǵı bolmay (Ó. Xojaniyazov).

Qoraqalpoq tilida tarkibida qora so‘zi bor to‘rt komponentli frazeologik birliklar ham uchraydi. Ular quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. "Sifat+ot+ot+fe’l" shaklidagi frazeologizmlar: Men bul gáplerden keyin ábden abırjıdım, **qara aspan tóbeme túsip**, pútkilley qapa bolıp qaldım (A Sultanov). – Olay bolsa **qara bastıń ǵamın gózlep** tirishilik tatpaq kerek (Á. Atajanov). Ol tek **qara basınıń ǵamın oylap**, sizge jaǵınıw ushın jazǵan (Á. Qarlıbaev).

2. "Ot+sifat+ot+fe’l" shaklidagi frazeologizmlar: Ne **basıńa qara kún tuwdı** (K. Mámbetov). Bizler hayalımız ekewimiz **awzımızdan qara qanımız keldi** ǵoy (N. Dáwqaraev). Júz mıń jumsawǵa kóndiremen degenshe Xalimattıń **awzınıń qara qanı keldi** (B. Qudaybergenov).

Shuning bilan birga, qoraqalpoq tilidagi frazeologizmlarning tarkibida besh va olti komponentli frazeologizmlar oz sonda bo‘lsa ham uchraydi. Gá jıǵıldım, gá turdım, qullası túske shekem **qara suw, qara ter bolıp** velosiped aydawdı bir náwiye úyrengen boldım (A. Sultanov). **Ishi muz qara kesek bolsa** da, quyqıljıǵan kóz janarınan kúlki shashıp (K. Sultanov). Bala átkónshekte **qara suw, qara ter bolıp** jatırǵan eken (A Sultanov).

Shunday qilib, qoraqalpoq tilida tarkibida qora so‘zi bor ikki va uch komponentli frazeologik birliklar ko‘pchilikni tashkil etadi. Jumladan "sifat va ot" modelida kelgan ikki komponentli frazeologizmlar boshqa modellarga nisbatan ko‘p. Uch komponentli frazeologizmlardan "ot+sifat+fe’l" shaklidagi frazeologizmlar boshqa modellarga nisbatan ko‘p. Bundan tashqari, to‘rt komponentli va ko‘p komponentli turlari ham uchraydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aynazarova G. Qaraqalpaq tilinde teńles eki komponentli frazeologizmlerdiń leksika-semantikalıq hám stillik ózgeshelikleri. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2015. – B. 15.

2. Aynazarova G.B. Qaraqalpaq tilinde teńles eki komponentli frazeologizmler. – Monografiya. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2020. – Б. 88.

3. Бахилина Н.Б. История цветообозначений в русском языке. – М.: Наука, 1975.

4. Бердимуратов Е. Әдебий тилдиң функционаллық стильлериниң раўажланыўы менен қарақалпақ лексикасының раўажланыўы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1973. – Б. 312.

5. Бердимуратов Е. Ҳәзирги қарақалпақ тили. Лексикология. – Нөкис: Билим, 1994. – Б. 186.

6. Бекбергенов А. Қарақалпақ тилиниң стилистикасы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1990. – Б. 88.

7. Бичурина Г. И. Фразеологическая полисемия в русском и татарском языках. – Казан, 1987.

8. Болғанбайұлы Ә., Қалиұлы Ф. Қазіргі қазақ тілінің лексикологиясы мен фразеологиясы. – Алматы: Санат, 1997. – Б. 186.

9. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. – М.: Наука, 1967.

10. Маматов А.Е. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари. Фил.фан.дисс. автореф. – Тошкент,1999. 34-бет.

ULUG‘BEK HAMDAMNING “MUVOZANAT” ROMANIDA “VIJDON” VA “TAQDIR” KONSEPTLARINING LINGVOKOGNITIV IFODASI

Maxammadjonov Ne’matillo
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti
+998945657999

***Annotatsiya*:** Maqolada Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romanida vijdon va taqdir konseptlarining lingvokognitiv ifodasi tahlil qilinadi. Asardagi matniy birliklar konseptual, kontekstual va semantik tahlil usullari asosida o‘rganildi. Natijalar vijdon konsepti romanda ko‘proq bevosita nominatsiya, ruhiy iztirob, andisha, pushaymonlik va axloqiy buyruq orqali, taqdir konsepti esa muqarrarlik, qismatdoshlik, ayriliq, qaytarib bo‘lmaslik va hayotiy sinov semalari orqali yuzaga chiqishini ko‘rsatdi. Ushbu konseptlar tashqi zarurat va ichki axloqiy nazorat munosabatida bir-birini mazmunan to‘ldiradi.

***Kalit so‘zlar*:** *konsept, konseptosfera, vijdon, taqdir, lingvokognitiv tahlil, konseptual belgi, badiiy matn, ichki nutq.*

Abstract: This article analyzes the linguocognitive representation of the concepts of **conscience** and **fate** in Ulugbek Hamdam’s novel *Muvozanat*. Textual

units from the novel are examined using conceptual, contextual, and semantic methods of analysis. The findings demonstrate that the concept of conscience is primarily represented through direct nomination, emotional distress, moral consideration, remorse, and moral imperative, whereas the concept of fate is expressed through the semantic features of inevitability, shared destiny, separation, irreversibility, and life trials. These concepts semantically complement each other through the relationship between external necessity and internal moral control.

Keywords**:** *concept, conceptual sphere, conscience, fate, linguocognitive analysis, conceptual feature, literary text, inner speech.*

Аннотация**:** В статье анализируется лингвокогнитивная репрезентация концептов **совесть** и **судьба** в романе Улугбека Хамдама “Мувозанат”. Текстовые единицы произведения исследованы с применением методов концептуального, контекстуального и семантического анализа. Результаты показали, что концепт совесть в романе преимущественно репрезентируется посредством прямой номинации, душевных переживаний, нравственной сдержанности, раскаяния и морального императива, тогда как концепт судьба актуализируется через семантические признаки неизбежности, общности судеб, разлуки, необратимости и жизненных испытаний. Данные концепты содержательно дополняют друг друга в рамках взаимодействия внешней необходимости и внутреннего нравственного контроля.

Ключевые слова**:** *концепт, концептосфера, совесть, судьба, лингвокогнитивный анализ, концептуальный признак, художественный текст, внутренняя речь.*

Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romani o‘tish davri insonining moddiy ehtiyojlari, ma’naviy mezonlari va ruhiy beqarorligini murakkab hayotiy vaziyatlar orqali tasvirlaydi. Asar qahramonlari tirikchilik talabi, muhabbat, do‘stlik, oilaviy mas’uliyat va e’tiqod o‘rtasida tanlov qiladi. Mazkur tanlovlarda **vijdon** insonning ichki axloqiy mezoni sifatida, **taqdir** esa shaxs xohishidan tashqarida kechuvchi yoki qaytarib bo‘lmas tus olgan voqelik sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan ushbu ikki konsept roman konseptosferasining markaziy g‘oyasi bo‘lgan muvozanatni yoritishga xizmat qiluvchi muhim periferik birliklardir.

Tadqiqotning maqsadi romanda **vijdon** va **taqdir** konseptlarini voqelantiruvchi til birliklarini aniqlash, ularning kognitiv belgilarini tavsiflash hamda o‘zaro semantik munosabatini ochib berishdan iborat. Maqsadga erishish uchun konseptlarning bevosita va bilvosita nominatsiyalari ajratildi, qahramonlar ruhiy holatini ifodalovchi kontekstlar tahlil qilindi, mazkur birliklarning romandagi badiiy vazifasi umumlashtirildi.

Tadqiqot materiali sifatida “Muvozanat” romanidan tuzilgan periferik konseptlardan **vijdon** va **taqdir**ga oid o‘nta matniy parcha olindi. Har ikki konsept

bo‘yicha beshtadan kontekst mavjud. Material miqdoran katta bo‘lmasa-da, tanlangan misollar turli qahramonlar kechinmasini, konseptlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri va yashirin ifodasini hamda ular bilan bog‘liq baholash belgilarini qamrab oladi. Tadqiqotda tavsifiy, kontekstual, komponent va lingvokognitiv tahlil usullaridan foydalanildi. Bevosita nominatsiya konsept nomi yoki uning o‘zakdosh shakli qatnashgan holatni, bilvosita ifoda esa konsept mazmunining muqarrarlik, qismat, ichki azob, qaytarib bo‘lmaslik kabi semalar orqali yuzaga chiqishini anglatadi.

Asardagi **vijdon** kontekstlarining aksariyatida konsept nomi bevosita qo‘llangan. Bu holat muallif qahramon ruhiyatidagi axloqiy ziddiyatni ko‘pincha aniq nominatsiya orqali markazlashtirganini ko‘rsatadi. Birinchi kontekstda Zahroning noqonuniy munosabat bilan bog‘liq ruhiy holati tasvirlanadi:

“Zahroning bag‘riga g‘alati bir iztirob – ehtimol vijdon azobidir – tushdi. U qiynala boshladi. Yurish-turishidan, yeyish-ichishidan, hatto uyqularidan halovat qochdi. U o‘zidan nafrat qilgani barobarida qing‘ir yo‘lni boshimga keltirgan shu deya zo‘r berib Mirazimni ayblar, undan nafratlanar edi.” (117-bet)

Parchada **vijdon** azobi oddiy hissiy noqulaylik emas, insonning butun jismoniy va ruhiy faoliyatini egallab oluvchi kuch sifatida talqin etiladi. “Iztirob”, “qiynalmoq”, “halovat qochmoq” va “o‘zidan nafratlanmoq” birliklari konseptning salbiy emotsional qatlamini kuchaytiradi. Zahro ayb manbasini Mirazimga ko‘chirishga urinadi, biroq o‘zidan nafratlanishi ichki axloqiy bahodan qochib bo‘lmasligini bildiradi. Demak, mazkur kontekstda **vijdon** – shaxsning o‘zini o‘zi hukm qilishi modelida namoyon bo‘ladi.

Gulshoda bilan bog‘liq parcha **vijdon**ning qadriyatlar to‘qnashuvida faollashishini ko‘rsatadi:

“Axir, shu choqqacha “Qiynalsang ham to‘g‘ri yur, to‘g‘ri tur” deb o‘stirmaganmidi? Endi bo‘lsa, azob jon-jonidan o‘tganda qayoqqa boshlayapti? Nima qilsang qil-u, yaxshi yasha, och qolma, deya o‘zga bir g‘oyani uqtirmoqchimi?.. Ana shu andisha uni qiynar edi. Gulshoda umrida birinchi marta chinakam vijdon azobida o‘rtanayotgandi.” (188-bet)

Bu yerda “to‘g‘ri yur, to‘g‘ri tur” axloqiy me’yorni, “nima qilsang qil-u, yaxshi yasha” esa manfaatga yo‘naltirilgan muqobil pozitsiyani ifodalaydi. Qahramon ilgari farzandiga singdirgan halollik mezonidan og‘ish arafasida qoladi. “Andisha” **vijdon**ning milliy-madaniy mazmunini ochuvchi birlik bo‘lib, u faqat shaxsiy aybni emas, boshqalar oldidagi mas’uliyat va uyat hissini ham qamrab oladi. Shunday qilib, **vijdon** – qadriyatlar izchilligini talab qiluvchi ichki nazorat mexanizmi.

Keyingi parchada konsept personifikatsiya qilinib, mustaqil harakat qiluvchi kuchga aylantiriladi:

“Biroq nega kelib-kelib endi bosh ko‘tardi ekan la’nati Vijdon? Nega bularning hammasi yuz bermasdan ilgari meni to‘xtatmadi u?.. – deya yana o‘zini-o‘zi qiynardi.” (225-bet)

“Bosh ko‘tarmoq” birikmasi **vijdon**ga tirik mavjudot xususiyatini yuklaydi. “Meni to‘xtatmadi” ifodasi esa uning vazifasi xatti-harakatni cheklash va shaxsni noto‘g‘ri yo‘ldan qaytarish ekanini ko‘rsatadi. Qahramonning “la’nati” bahosi **vijdon**ni inkor etish emas, kechikib kelgan axloqiy anglashning og‘riqli ekanini bildiradi. Bu misolda ikki bosqichli model kuzatiladi: xatti-harakat paytida **vijdon** ovozining sustligi va oqibatdan keyin uning jazolovchi kuchga aylanishi.

Yusufning Zahro bilan munosabatiga oid kontekstda **vijdon** azobdan tashqari buyruq va harakat manbai sifatida ko‘rinadi:

“Ehtimol shuning uchun ham Yusuf unga shunchalar bog‘lanib qolgandir. U vijdon amriga bo‘ysunib do‘stining yuz xotiri uchun Zahroga boshqa uchrashmaslikni taklif etgani kelgan va bu taklifni aytib bo‘lgan, endi uni har tomonlama isbotlashga urinayotgan bo‘lsa-da, ichida bo‘lajak judolikning vahmli iztirobi kezib yurardi.” (227-bet)

“**Vijdon** amri” birikmasida konsept hukm chiqaruvchi oliy ichki kuch sifatida gavdalanadi. “Bo‘ysunmoq” fe’li shaxsiy istak va axloqiy majburiyat o‘rtasidagi ierarxiyani belgilaydi: Yusufning muhabbati kuchli bo‘lsa-da, do‘st oldidagi burch ustun keladi. Natijada **vijdon** – axloqiy tanlovni xatti-harakatga aylantiruvchi iroda manbai modeli yuzaga keladi. Biroq “judolikning vahmli iztirobi” bu tanlovning ruhiy bahosi nihoyatda qimmat ekanini ko‘rsatadi.

2. Taqdir konseptining ifodalanishi

Taqdirga oid kontekstlarda konsept **vijdon**dagidek doimo bevosita nomlanmaydi. Uning mazmuni ko‘pincha voqeaning qaytarib bo‘lmasligi, vaqtning ortga qaytmasligi yoki inson istagiga zid ravishda shakllangan sharoit orqali anglashiladi. Bu xususiyat **taqdir**ni romanning voqealar tizimiga singdirilgan, keng semantik maydonga ega konsept sifatida baholash imkonini beradi.

“Endi bundoq do‘ppini olib qo‘yib o‘ylab ko‘rsam, umrning eng go‘zal onlari, hayotning eng shirin, esda qoladigan aziz damlari o‘sha chog‘lar ekan. Xo‘p, mayli, men diydiyo qilmoqchi emasman. Nima bo‘lsa, hammasi bo‘lib o‘tdi. Xudoga shukur, deyman, kechagi kuniga ham, bugungisiga ham. Lekin bu gal men sizlarni boshqa bir masala bois to‘plamadim. Ehtimol, yana to‘planarmiz, ehtimol, bu oxirgisi bo‘lar...” (11-bet)

“Hammasi bo‘lib o‘tdi” jumlasi o‘tmishni o‘zgartirish imkonsizligini, “ehtimol, bu oxirgisi bo‘lar” esa kelajakning noaniqligini bildiradi. Shukronalik ohangi qahramonning hayot kechimini qarshiliksiz qabul qilishini ko‘rsatadi. Bu yerda **taqdir** – vaqt hukmi va inson tomonidan qabul qilingan hayot yo‘li sifatida konseptuallashgan.

“Beixtiyor do‘stlarini – talabalik chog‘laridagi hamfikru hamqismatlarini sog‘indi: “Qaydasiz, ey yoronlar? Nega yo‘llarimiz ayro tushdi? Nega biz bir-birimizni bu ahvolda tashlab ketdik? Axir qandoq ahil edik, qandoq do‘st edik!.. Yana qaytarmikin o‘sha damlar, o‘sha bahorlar?..” (26-bet)

“Hamqismat” leksemasi **taqdir** konseptini bevosita faollashtiruvchi asosiy birlikdir. Talabalikda umumiy e’tiqod va maqsad birlashtirgan do‘stlarning yo‘llari keyinchalik ajraladi. “Yo‘llarimiz ayro tushdi” metaforasi hayotni yo‘l, **taqdir**ni esa shu yo‘lning yo‘nalishi sifatida tasavvur qilishga asoslanadi. Ritorik savollar qahramonning kechmishni qaytarishga intilishi bilan buning imkonsizligi o‘rtasidagi ziddiyatni kuchaytiradi. Demak, **taqdir** – umumiy boshlanishdan turli manzillarga olib boruvchi yo‘l.

“Aslida enaga eng ko‘p qarashi lozim bo‘lgan odam shu – Yusuf. Yoshligida enaning qo‘llaridan tushmay, uning yonida qancha ertaklar eshitib katta bo‘lgan ham u. Endi vaqti kelib, qarashish, yordamlashish gali yetganda qayerlarda yuribdi u?!” (41-bet)

Bu parchada **taqdir** nomi qatnashmaydi, ammo “vaqti kelib” va “gali yetganda” birliklari hayotning navbat, burch va bosqichlardan iborat tabiiy tartibini anglatadi. Yusufning kerakli pallada yo‘qligi shu tartibning buzilishi sifatida baholanadi. **Taqdir** mazmuni bu o‘rinda inson zimmasiga tushadigan hayotiy vazifa bilan bog‘langan: sharoitning yuzaga kelishi muqarrar, unga munosabat esa shaxsning axloqiy tanloviga daxldor.

“Lekin Ozoda... u iztiroblarim va barcha urinishlarim behuda ekanligini birgina jumla bilan anglatgandi: “Tog‘amning o‘g‘liga beshik ketti bo‘lganman...” Izohga hojat yo‘q edi. U vaqtlarda bunaqa va’dalar otilgan o‘q bilan barobar edi. Qaytarib bo‘lmasdi. Endi bo‘lsa cho‘pchakdek eshitiladi.” (166-bet)

“Beshik ketti” etnomadaniy birligi shaxsiy muhabbat ustidan hukmron bo‘lgan an’anaviy kelishuvni anglatadi. “Otilgan o‘q” o‘xshatishi qarorning ortga qaytmasligini obrazli ifodalaydi. Qahramonning urinishlari behuda bo‘lishi **taqdir**ning tashqi ijtimoiy kuchlar bilan belgilanishini ko‘rsatadi. Bu yerda **taqdir** ilohiy hukmdan ko‘ra urf-odat yaratgan muqarrarlik sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif o‘tmishda qat’iy bo‘lgan odatning bugun “cho‘pchakdek” eshitilishini ta’kidlash orqali **taqdir** haqidagi tasavvurlarning tarixiy o‘zgaruvchanligini ham ko‘rsatadi.

Tahlil natijalari mazkur konseptlarning “ichki baho – tashqi zarurat” oppozitsiyasi asosida munosabatga kirishishini ko‘rsatadi. **Taqdir** qahramon duch keladigan sharoitni, **vijdon** esa shu sharoitdagi qaror va harakatning ma’naviy qiymatini belgilaydi. Masalan, Gulshodaning og‘ir turmushi **taqdir** sifatida idrok qilinadi, biroq farzandiga “o‘zingni o‘yla” degan g‘oyani uqtirishga urinishida

vijdon azobi paydo bo‘ladi. Demak, sharoit xatti-harakatni tushuntirishi mumkin, ammo **vijdon** uning axloqiy javobgarligini bekor qilmaydi.

Yusufning holatida ham **taqdir**iy ayriliq va **vijdon** amri bir nuqtada tutashadi. Zahroga bo‘lgan mehr uning shaxsiy istagini, do‘stining yuz xotiri esa axloqiy burchni ifodalaydi. **Vijdon** tanlovni boshqarsa, shu tanlov oqibatida yuzaga keladigan judolik **taqdir** sifatida qabul qilinadi. Romanning umumiy konseptual tizimida inson mutlaq erkin ham, butunlay ojiz ham emas: u vaziyatni har doim tanlamaydi, lekin vaziyat ichidagi axloqiy pozitsiyasi uchun javob beradi.

Ikki konseptning o‘zaro aloqasi roman nomidagi muvozanat g‘oyasini chuqurlashtiradi. **Taqdir** inson oldiga sinov va cheklovlarni qo‘yadi, **vijdon** esa shu sharoitda tanlangan yo‘lni baholaydi. Shuning uchun romandagi inson konsepsiyasi tashqi muqarrarlik va ichki erkinlikning murakkab nisbatiga asoslanadi. Shaxs har bir vaziyatni boshqara olmasligi mumkin, biroq u o‘z axloqiy javobi uchun mas’uldir. Mazkur xulosa **vijdon** va **taqdir**ni roman konseptosferasidagi alohida periferik birliklar sifatida emas, muallifning individual olam manzarasini shakllantiruvchi o‘zaro bog‘langan konseptlar sifatida baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аскольдов, С. А. Концепт и слово. Русская словесность: от теории словесности к структуре текста. Москва: Academia, 1997.

2. Hamdam, U. Muvozanat: roman. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2007.

3. Карасик, В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Москва: Гнозис, 2004.

4. Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980.

5. Лихачёв, Д. С. Концептосфера русского языка. Русская словесность: от теории словесности к структуре текста. Москва: Academia, 1997.

6. Маслова, В. А. Лингвокультурология. Москва: Академия, 2001.

7. Попова, З. Д., Стернин, И. А. Когнитивная лингвистика. Москва: АСТ: Восток-Запад, 200

DOSTONLARDA HIKOYATLAR POETIK VOSITA SIFATIDA (BAHROM HAQIDAGI DOSTONLAR MISOLIDA)

Axtamova Baxora Akbarovna,
Samarqand davlat universiteti,
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti,
Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi assistent-o‘qituvchisi.
E-mail: *bahora_axtamova@samdu.uz.* ***Tel.:*** *+998 90 030 02 03*

Annotatsiya: Ushbu maqola Alisher Navoiy dostonlaridagi hikoyatlarda komil inson talqini va uning ma’naviy taraqqiyotdagi muhim o‘rnini, xususan, Bahrom haqidagi dostonlar tarkibida keltirilgan hikoyatlarda komil inson masalasini tahlil etish, hikoyatlarning asosiy g‘oyasi borasida to‘xtalish, bugungi kundagi ahamiyati masalasini ko‘rsatishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: doston, hikoyat, ramz, g‘oya, poetik vosita, kompozotsiya, shoh, komil inson.

***Аннотация*:** Данная статья посвящена анализу интерпретации концепции совершенного человека и её важной роли в духовном развитии в рассказах, включённых в поэмы Алишера Навои, в частности в рассказы, представленные в составе поэм о Бахраме. В исследовании рассматриваются основные идеи этих рассказов, а также их значение и актуальность в современном контексте.

Ключевые слова: поэма, рассказ, символ, идея, поэтическое средство, композиция, шах, совершенный человек.

Abstract: This article examines the interpretation of the concept of the Perfect Human and its important role in spiritual development in the narratives incorporated into Alisher Navoi’s epics, with particular attention to the narratives included in the epics about Bahram. The study focuses on the main ideas conveyed through these narratives and explores their significance and relevance in the contemporary context.

Keywords: epic, narrative, symbol, idea, poetic device, composition, shah, Perfect Human.

Alisher Navoiy, akademik B.N.Valixo‘jayev e’tirof etganidek, xamsachilikka yangicha ruh olib kirdi. [2, 3] Navoiy dahosining eng muhim jihatlaridan biri ulug‘ maqsad bilan bog‘liq. Tadqiqotlarda asosli tarzda eslatib kelinayotganidek, Navoiy o‘zining har bir asarini, birinchi navbatda, o‘z xalqining milliy manfaatlarini ko‘zlab, turkiy, ya’ni hozirgi til bilan aytganda, o‘zbek kitobxonlari uchun yozgan. Binobarin, “Hayrat ul-abror”, “Sab’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” hamda “Lison ut-tayr” dostonlaridagi hikoyatlarda komil inson talqini tadqiqi dolzarb masalalardan hisoblanadi. [1]

“Xamsa”ning to‘rtinchi dostoni “Sab’ai sayyor” 1484-yilda yozib tugallangan. Asarning bosh qahramoni Bahrom – tarixiy shaxs sifatida Eronning sosoniy hukmdori Vararxan V (420-438-yillarda podsholik qilgan) bilan bog‘liq. Bu hukmdor qulon (yovvoyi kiyik)ni ovlashga nihoyatda o‘ch bo‘lganligi uchun xalq orasida Bahrom Go‘r (qulon) laqabi bilan shuhrat topgan. Sharq mamlakatlarida Mars (Mirrix) yulduzi Bahrom deb atalib, jang-u jadallar homiysi sifatida keladi.

Bahrom Go‘r haqidagi ko‘plab afsona, rivoyat va xalq naqllarini dastlab eronliklar yaratgan va davrlar o‘tishi bilan Sharq xalqlari orasida keng tarqalib ketgan. Bahrom Go‘r hashamat va ovga o‘ch podsho hamda ishratparast shaxs obrazi sifatida dastavval xalq og‘zaki ijodidan, so‘ngra yozma adabiyotdan o‘rin oladi.

Bahrom timsoli dastlab forsiy adabiyotda Abulqosim Firdavsiy “Shohnoma”sida tasvirlangan. Firdavsiy Bahromni, bir tomondan, shuhrat qozongan, adolatpesha podsho, vatanparvar, tengsiz aql-idrok, kuch-quvvat sohibi, mohir ovchi, ikkinchi tomondan, aysh-ishratga, ehtirosga o‘ch, xudbin va qahri qattiq shaxs sifatida tasvirlaydi. “Shohnoma”da Bahrom Go‘r haqidagi voqea dostonning faqat bir faslini tashkil etib, unda Bahromning tug‘ilishi, taxtga chiqishi, mamlakatni idora qilish tadbirlari, ov vaqtida o‘z kanizagi Ozoda bilan to‘qnashuviga doir voqealar tasvirlangan.

“Shohnoma”dagi Bahrom Go‘r va uning kanizagi orasidagi bu to‘qnashuv lavhasi Nizomiy tomonidan qayta ishlanib, mashhur “Haft paykar” dostoni vujudga keladi. Nizomiy Ganjaviyning **“Haft paykar”** (“Yetti go‘zal”) dostoni Sharq mumtoz adabiyotining eng yirik namunalaridan biridir. Asar 1197-yilda yozilgan bo‘lib, **Bahrom Go‘r** hayoti va uning ma’naviy kamolot yo‘lini tasvirlaydi. Nizomiy Bahrom qiyofasidagi asosiy xususiyatlarni: mohir merganlik, pahlavonlik, kuchli shijoat va dovyuraklik, mamlakatni adolat bilan boshqarish kabi fazilatlarni saqlab qolgani holda uni yangi ma`no va mazmun bilan boyitadi, ushbu timsol orqali o‘z davri ijtimoiy masalalarini, umuminsoniy g‘oyalarni ilgari suradi. Nizomiy Firdavsiy dostonidagi Bahromning kanizak bilan bog‘liq hikoyasini qoliplovchi hikoya qilib olib, unga yetti mustaqil hikoyat kiritadi.

Dostonning markaziy badiiy usuli – **“hikoya ichida hikoya”** (qoliplovchi kompozitsiya) bo‘lib, Bahrom yetti gumbazda yetti malikadan yetti hikoyat tinglaydi. Har bir hikoya qahramonning ruhiy-axloqiy kamolotiga xizmat qiladi. Yetti hikoyat haftaning yetti kuni, yetti rang, yetti sayyora va yetti iqlim timsollari bilan bog‘langan. Har bir hikoyat alohida axloqiy g‘oyani ifodalaydi:

– **Qora gumbaz hikoyati (shanba)** – unda hindistonlik malikadan muhabbatda maqsadiga yeta olmagan oshiq hikoyati tinglanadi. Bu hikoyat insonning nafs va ehtiroslarini jilovlash zarurligi, sabr va hushyorlik g‘oyasi ilgari suriladi.

– **Sariq gumbaz hikoyati (yakshanba)** – rumlik malikadan uylanishni istamagan podshoh hikoyati eshitiladi. Bunda muhabbatning insonni poklovchi kuchi, sadoqat va halollik ulug‘lanadi.

– **Yashil gumbaz hikoyati (dushanba)** – Xorazm malikasidan Bishrning ishq qissasi tinglanadi. Bu hikoytada adolat, donolik va to‘g‘ri qaror qabul qilish fazilatlari madh etiladi.

– **Qizil gumbaz hikoyati (seshanba)** – Saqlab malikasi “Turandot topishmoqlari” hikoyatini aytib beradi. Unda ehtiros va aql o‘rtasidagi kurash tasvirlanib, aqlning ustunligi ta’kidlanadi.

– **Moviy gumbaz hikoyati (chorshanba)** – Mag‘rib malikasi Mohan va telba haqidagi hikoyat aytuvchisi bo‘ladi. Bu hikoyatda qanoat, tavoze va insoniy poklik g‘oyalari ifodalanadi.

– **Sandal rang gumbaz hikoyati (payshanba)** – Rum go‘zali rostgo‘ylik, vafodorlik va do‘stlikning qadri ochib beriladigan “Yaxshilik va yomonlik” hikoyatini so‘ylaydi.

– **Oq gumbaz hikoyati (juma)** – Oshiqlarning sinovlari hikoyati Eron malikasi tomonidan aytib beriladi, unda komil inson g‘oyasi, ruhiy poklanish va ilohiy haqiqatga intilish eng yuksak badiiy darajada talqin etiladi.

Nizomiy “Haft paykar” dostonida Bahrom Go‘r har kuni bir gumbazga kirib, bir malikadan tinglagan bu yetti hikoyat tasodifiy tanlanmagan. Ular qoradan oq ranggacha bo‘lgan ramziy yo‘lni ifodalaydi: Bahrom Go‘r nafs va ehtiros olamidan boshlab, asta-sekin ma’naviy poklanish va komillik darajasiga yetadi. Ranglar, sayyoralar, hafta kunlari va hikoyatlar bir-biri bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, dostonning falsafiy va poetik asosini tashkil etadi.

“Haft paykar” poetikasida yetti hikoyat, avvalo, dostonning asosiy syujetini boyitadi va Bahromning ruhiy kamolot bosqichlarini ketma-ket ochib beradi. Asarning kompozitsiyasi aynan shu yetti hikoyat asosida qurilgan. Ikkinchidan, yetti raqami, yetti rang, yetti sayyora va yetti iqlim Sharq falsafasidagi mukammallik timsolidir. Bu ramzlar insonning ma’naviy yuksalish yo‘lini ifodalaydi. Uchinchidan, har bir hikoyat o‘quvchini ezgulik, adolat, sadoqat, sabr, qanoat va komillikka chorlaydi. Nizomiy badiiy voqealar orqali axloqiy-ta’limiy g‘oyalarni ilgari suradi. To‘rtinchidan, Bahrom dastlab zavq-shavqqa berilgan hukmdor sifatida tasvirlansa, hikoyatlar ta’sirida u donishmand va adolatli podshoh darajasiga ko‘tariladi. Bu hikoyatlarning p**sixologik vazifasini belgilaydi. Qolaversa, hikoyatlar badiiy-estetik vazifa bajarib, u**larda ramz, tashbeh, istiora, ranglar poetikasi, dialog va rivoyat usullari mohirona qo‘llanib, asarning badiiy jozibasi kuchaytirilgan.

Nizomiyning **“Haft paykar”** dostonidagi yetti hikoyat mustaqil syujetga ega bo‘lsa-da, ular yagona badiiy-falsafiy tizimni tashkil etadi. Hikoyatlar Bahrom

Go‘rning komil inson sifatida shakllanish bosqichlarini aks ettirib, dostonning g‘oyaviy mazmunini chuqurlashtiradi. Shu bois yetti hikoyat asarning nafaqat kompozitsion markazi, balki uning poetik va falsafiy asosini ham tashkil etadi. Aynan shu badiiy yechim keyinchalik Alisher Navoiyning **“Sab’ai sayyor”** dostoniga ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan.

Xusrav Dehlaviy dostonida ham Bahromning sarguzashtlarini tasvirlovchi asosiy qoliplovchi hikoyat va yetti malika hikoyasi mavjud. Ushbu hikoyalar birgalikda jamlanib, 8 hikoyani hosil qilganligi uchun Dehlaviy o‘z dostonini “Hasht behisht” deb nomlaydi va malikalar aytib beradigan yetti hikoyatni hind eposidan oladi. Shuningdek, dostonning muqaddimasi yetti bob, yakunlovchi qismi esa bir bobdan iboratligi, umumiy boblar soni sakkiztaligi uchun ham shunday nomlanishga sabab bo‘lgan, degan qarashlar mavjud. Dehlaviy o‘z dostonini Bahromning taxtga chiqishi voqeasidan boshlab, ungacha bo‘lgan voqealarni tushirib qoldiradi.

Xusrav Dehlaviyning **“Hasht behisht”** (“Sakkiz jannat”) dostoni Nizomiy Ganjaviyning **“Haft paykar”** dostoni asosida yaratilgan. Asarda ham bosh qahramon **Bahrom Go‘r** bo‘lib, u yetti rangli qasrda yetti malika bilan uchrashadi va hafta davomida ulardan yetti hikoya tinglaydi. **Shanba kuni tinglangan “Sarandibning uch shahzodasi” hikoyatida** uch shahzoda kuzatuvchanlik va aql yordamida murakkab jumboqlarni yechadi. Hikoya donolik, tafakkur va mantiqiy xulosaning ahamiyatini ulug‘laydi. Bu syujet keyinchalik G‘arb adabiyotida ham mashhur bo‘lgan. **Yakshanba kuni Nimro‘z malikasining** sadoqat, pok muhabbat va insonning o‘z va’dasiga vafodor bo‘lishi tasvirlangan **hikoyat**i, d**ushanba kuni Slavyan malikasining** sabr-toqat va matonat orqali sinovlarni yengish mumkinligi, oxir-oqibat ezgulik g‘alaba qilishi haqidagi **hikoyati, seshanba kuni esa Tatar malikasining** jasorat, qat’iyat va mardlik ulug‘langan **hikoyati tinglanadi. Keyingi kun Rum malikasi tomonidan** aql va muhabbat uyg‘unligi, ma’naviy kamolot g‘oyasi ilgari surilgan h**ikoyat keltirilsa, Arab malikasining payshanba kungi hikoyatida a**dolat, saxovat va insonparvarlik fazilatlari ulug‘lanadi. Va nihoyat, j**uma kuni Xorazm malikasi hikoyati tinglanib, u r**uhiy poklanish, komillik va ilohiy haqiqatga intilish asarning yakuniy falsafiy g‘oyasi sifatida ifodalanadi.

“Hasht behisht”dagi hikoyatlar dostonning badiiy tuzilishida muhim vazifalarni bajaradi. **Kompozitsion jihatdan** yetti hikoyat Bahrom Go‘rning ma’naviy kamolot bosqichlarini izchil ko‘rsatadi va doston syujetini bir butun tizimga birlashtiradi. Har bir hikoyat o‘ziga xos d**idaktik vazifa** bajarib, axloqiy xulosa bilan yakunlanib, donolik, adolat, sabr, sadoqat va komillik kabi fazilatlarni targ‘ib qiladi. Bu asarda ham hafta kunlari, ranglar, sayyoralar va malikalarning turli mamlakatlardan bo‘lishi insonning ma’naviy yuksalish bosqichlarini ramziy ifodalaydi. Asarning falsafiy ruhi shundaki, Bahromning tashqi sayohati ichki ruhiy

sayohatga aylanadi; hukmdor zavqparast insondan adolatli va dono podshoh darajasiga ko‘tariladi.

Xusrav Dehlaviy **“Hasht behisht”** dostonida Nizomiy an’anasini davom ettirgan bo‘lsa-da, hikoyatlar yangi syujetlar, hindona muhit va o‘ziga xos tasavvufiy-falsafiy talqinlar bilan boyitilgan. Ayniqsa, **“Sarandibning uch shahzodasi”** haqidagi hikoya jahon adabiyoti tarixida eng mashhur syujetlardan biri hisoblanadi. Yetti hikoyat dostonning kompozitsion markazini tashkil etib, Bahrom Go‘rning komillikka erishish yo‘lini badiiy va ramziy tarzda yoritadi.

Mazkur mavzuda yaratilgan asarlardan yana biri – Ashraf Marog‘iyning “Haft avrang” dostoni bo‘lib, Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn”da Ashrafning ushbu dostonini “Sab’ai sayyor” dostoni uchun asos bo‘lgan asar sifatida tilga oladi. Navoiy “Ashraf “Haft paykar”ning yetti hurvashin peshkashimg‘a yarog‘labtur”, - deb yozar ekan, Nizomiyning “Haft paykar” dostonidagi yetti go‘zal haqidagi hikoyalarni hal qilishni Ashraf unga topshirganligiga ishora qiladi. Ashraf dostonida Bahromning kanizak bilan ovga chiqishi va umuman, uning oshiq bo‘lishi bilan bog‘liq sahna yo‘q. Ashraf oshiq podshoh emas, balki odil podshoh timsolini yaratishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostoni mazkur mavzuda yaratilgan birinchi turkiy doston bo‘lib, Navoiy o‘ziga qadar badiiy adabiyotda yaratilgan dostonlar va to‘plangan boy ijodiy tajribadan foydalangan holda mavmu e`tibori va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan salaflari asarlaridan farq qiluvchi yangi doston yaratdi. [1]

Asarning asosiy voqealari o‘n ikkinchi bobdan ibtido topadi. Yetti iqlim shohi bo‘lgan Bahrom ov qilib yurib, rassom Moniyni uchratib qoladi. Moniy Chinda tengi yo‘q bir go‘zal Dilorom haqida xabar berib, uning o‘zi chizgan suratini shohga taqdim etadi. Shoh suratni ko‘rishi bilan Diloromga oshiq bo‘lib qoladi va Chin mamlakatining bir yillik xirojini to‘lab, qizni saroyga keltiradi. Shundan keyin Bahrom qizga butunlay mahliyo bo‘lib, davlat, mamlakat ishlarini unutadi, kayf-safoga berilib ketadi. Natijada, saltanat-u mamlakatda tartibsizliklar boshlanib, xalq orasida shikoyat va nozilik kuchayadi, shaharlar vayronaga aylanadi:

Ish anga yettiki bu yanglig‘ shoh,
Mulk ishidin emas edi ogoh.
Boqmayin mulk ila sipoh sori,
Qilmayin mayl dodgoh sori... [1]

Firdavsiy “Shohnoma”sida tasvirlanganidek, ovda kiyik hodisasi yuz beradi. Dilorom Bahromning merganlik mahoratini “mashqning natijasi” deb aytadi. Shoh mastlikda qizning oyoq-qo‘lini o‘z sochlari bilan bog‘lab, biyobonga tashlab kelishni buyuradi. ertasi g‘azab va mastlik tarqab, afsuslanganidan keyin, uni o‘zi borib izlaydi, lekin topa olmaydi. Hijron azobidan o‘zini butunlay yo‘qotadi:

Joni ikki balo orasinda,
Mo‘r ikki ajdaho orasinda.
Ne o‘luk erdi, ne tirik soni,
Bo‘lmas erdi tirik demak oni. [1]

Navoiy bu o‘rinda Shoh Bahromda endi chin ma`noda oshiqlik sifatlari paydo bo‘layotganiga e`tibor qaratadi, zero, ruhiy iztiroblar va hijron dardi ishqning ortishiga sabab bo‘ladi. Iztirobdan o‘zini butunlay yo‘qotgan Bahromning avval falakka, so‘ng xalqi va qo‘shiniga murojaat qilib, notovon jonini bu azoblardan qutqarishini so‘rab chekkan faryodlari dostonning 16- va 17-boblarida nihoyatda ta`sirli tarzda ifodalanadi:

Manga ne qilding, ey sipehr, oxir,
Yo‘q emish senda zarra mehr, oxir!
Mehrsizlik ishim aro qilding,
Ro‘zgorim yuzin qaro qilding...
Naylayin bu jahonni jonsiz men?
Bal jahon birla jonni onsiz men?
Jonni olg‘ilki, to‘ymisham, billoh!
Ko‘ngul o‘lmakka qo‘ymisham billoh!..
Yorliq qayda ketti, yoronlar?
Yo‘q musulmonliq, ey musulmonlar! [1]

Asarda tasvirlanishicha, to‘rt yuz hakim va tabib to‘planib, ikki yil davomida shohni davolaydilar. Shoh bir oz o‘ziga kelganday bo‘ladi. Maslahat bilan yetti iqlim shohi yetti qasr quradilar. Yetti qasrning har biri etti sayyoradan birining rangiga mos bo‘lib, haftaning Shu sayyora homiy hisoblangan kuniga xos edi. Shanba kuni uchun Shu kunning homiysi Zuhal (Saturn) sayyorasining rangiga mos qora qasr, yakshanba uchun uning homiysi Quyosh sayyorasining rangiga mos sariq qasr, dushanba uchun dushanba homiysi Oy sayyorasining rangiga mos keluvchi yashil qasr, homiysi Mirrix (Mars) bo‘lgan seshanba kuni Mirrix rangini ifodalovchi qizil qasr, chorshanba kuni uchun uning homiysi Utorud (Merkuriy) rangiga mos moviy qasr, payshanba uchun Mushtariy (Yupiter) rangiga mos keluvchi sandal qasr va juma uchun uning homiysi Zuhra (Venera) rangiga mos oq qasr barpo qilingan edi. Navoiy har bir qasrdagi shoh, malika va musofir hamda jihozlar tasvirini berishda ranglarning turfa xil nomlanishlaridan ustalik bilan foydalanadi.

Albatta, hikoyatlarda ham ramziy ma`no mujassam topgan bo‘lib, ularning hammasida hikoyat qahramonlari qiyinchiliklar orasida toblanib, oqibat baxtiyorlikka erishadilar. Bu kelajakda Bahromni ham baxt-tole kutayotganligidan dalolat edi. Darhaqiqat, u yettinchi hikoyatda o‘z vafodori Diloromdan xabar topadi. Barcha hikoyatlarda Shoh yoki shahzoda ishtirok etadi, dabdabali qasrlar, tilla-

javohirlar, qimmatbaho harir liboslar, tantanali bazmlar, serishva, jafokor va ayni paytda vafodor go‘zallar tasviri “Ming bir kecha”dagi hikoyatlarni eslatadi.

Hikoyatlarda Shoh va shahzoda obrazlarining muhim o‘rin tutishi ularning aynan Shoh (Bahrom) uchun aytilganligiga ishora. Har bir hikoyatdagi voqealar, albatta, safar asnosida ro‘y beradi, hikoyat qahramonlari sayr-u sayyohat orqali o‘z maqsadlariga erishadilar. Bu bilan Navoiy sayyoralarning tinimsiz harakatiga, Shu bilan insonning o‘z maqsadiga etish uchun sa`y-ko‘shish qilmog‘i darkorligiga ishora qiladi.

Hikoyatlarda jo‘mardlik, vafodorlik, taqvo kabi futuvvat – javonmardlik g‘oyalari ham kuylangan bo‘lib, bundan muallifning maqsadi mazkur hikoyatlar orqali Shoh Bahrom ongiga juvonmardlik g‘oyalarini singdirib borishdir.

Hikoyatlarning mavzu ko‘lami keng, ularda hayot masalalaridan tortib, turmush voqea-hodisalarigacha, tabiat va uning bag‘ridagi nabotot va hayvonot olamidan tortib, koinot va undagi jismlargacha – barcha-barcha masalalar hamda ularga xos xossa va xususiyatlar mujassamlashgan. Mutafakkir shoirning xayoloti Movarounnahr, Xuroson, Ajam, Hindiston, Sarandib, Misr, Rum, Yaman va boshqa o‘lkalarga, sarhadsiz sahrolarga, to‘lqin urib yotgan dengizlarga, sirli-sinoatli jazirama joylarga parvoz qiladi, turli manzil va makonlar, xilma-xil e`tiqod va ijtimoiy guruhlarga hamda kasb-korga ega bo‘lgan ko‘plab kishilarning timsollarini, ularning shaklu shamoyillarini yaratadi.

Shanba kuni uchun Shu kunning homiysi Zuhal (Saturn) sayyorasining rangiga mos qora qasr – mushkfom qasrda Shoh Bahrom hindistonlik sayyohning Farrux va Axiy haqidagi hikoyatini tinlaydi. Unga ko‘ra, Hind mamlakati podshosi Jasratxonning aqlu husnda tengsiz o‘g‘li shahzoda Farrux tushida bir parivashni ko‘rib, sevib qoladi. O‘sha sanamga etishish ishqida safarga chiqqan shahzoda Halab shahrida tushida ko‘rgan mahvashni uchratib, hushidan ayriladi va taqdir taqozosi bilan birgina palosga o‘ranib, og‘ir ahvolda qolganida unga saxovati bilan nom qozongan Axiy yordam ko‘rsatadi. U bilan suhbatda bo‘lgan Axiy Farruxning zakovatiga qoyil qoladi va shahzodaning dardiga davo topishi chin dildan xohlaydi. Nihoyat, Farruxning ishqi tushgan go‘zal o‘z ayoli ekanini bilib oladi va jufti halolini taloq qilib, Farruxga nikohlab beradi. Farruh o‘z yurtiga qaytadi va otasi vafot etgani uchun taxtga o‘tiradi. Bu orada Axiyning ishlari orqali ketadi, tuhmatga uchraydi, o‘z yurtidan qochib, jon saqlab qoladi. Farrux uylangach, Axiyning mardligidan hayratga tushadi, ayolni o‘ziga singil kabi tutadi va do‘stini izlaydi. Axiy esa Hind mulkiga borib qoladi, Shu erda ikki do‘st topishadi, Farrux singlim deya Axiyning o‘z ayolini katta to‘y bilan nikohlab beradi. Shu tariqa ular chin do‘st sifatida, bir-biridan yordam va mehrini ayamay uzoq umr kechiradilar. Mazkur hikoyat yakunida sayyoh Shoh Bahromga o‘zining Ahiy avlodidan ekanini ma`lum

qiladi. Shoh uni siylab, saroyda olib qoladi. Bu ham Shoh himmatining bir ko‘rinishidir.

Yakshanba kuni Shoh Bahrom rumlik sayyohning Zayd Zahhob haqidagi hikoyatini tinglaydi. Hikoya yakunlangach, sayyoh o‘zining Rum mamlakatidan, Zayd Zahhobning avlodlaridan biri ekanligini aytadi. Shoh Bahrom bu sayyohga ham muruvvat ko‘rsatib, saroyda olib qoladi.

Dostonda tasvirlanishicha, dushanba kuni yashil qasrda Shoh Bahrom misrlik sayyohdan Sa`d haqidagi hikoyatni tinglaydi. Unga ko‘ra, misrlik boy xojaning kamolga etgan o‘g‘li Sa`d otasi kabi musofirlarni mehmon qilishni xush ko‘rar edi. Bir kuni uning dargohiga shahrisabzlik ikki sayyoh kelib, o‘z yurtlaridagi g‘aroyib xususiyatli dayr – butxona haqida aytib beradilar. Mazkur butxonaning o‘ziga xos tomoni shu ediki, kimki u erda bir kun tunasa, tush ko‘rardi va tushi, albatta, o‘ng kelardi. Sa`d Shu butxonaga borish ishqiga tushadi va otasining roziligini olib, safarga otlanadi. Unga shahrisabzlik ikki musofir hamrohlik qiladilar. Dayrga etib borgan Sa`d tush ko‘radi. Tush ta`sirida xayolga botib o‘tirsa, eshikdan bir mo‘ysafid kirib keladi. Mo‘ysafid unga o‘z taqdirini aytib beradi va Sa`dni ancha vaqtdan buyon kutayotganligini ma`lum qiladi. Sa`d bu donishmand mo‘ysafidning maslahat va ko‘rsatmalari bilan harakat qiladi. Uzoq sarguzashtlarni, sinovlarni boshdan kechirib, Gulrux ismli go‘zalning vasliga etishadi. Sayyoh hikoyatni yakunlagach, o‘zining Shahrisabzdan, Sa’d avlodlaridan biri ekanligini ma`lum qiladi. Shoh Bahrom sayyohni Shahrisabzga voliy etib tayinlaydi.

Seshanba kunida Mirrix rangiga mos qizil qasrda Shoh Bahrom navbatdagi sayyohdan Shoh Juna va uning do‘sti Mas`ud haqidagi qissani tinglaydi. Roviy shohga Dehlida sultonlik qilgan Junaning saxovati cheksiz ekanligini hikoya qilish bilan o‘z qissasini boshlaydi. Sulton Juna Shu qadar saxovatli bo‘lib, uning saxiyligi chegara bilmasdi. Bir kuni bir musofir uning mehmoni bo‘lib, bir ko‘zgu sovg‘a qiladi. Ko‘zgu rost gapirgan odamning yuzini oq, yolg‘onchining yuzini qora ko‘rsatar edi. Shoh Juna musofirni siylab, undan mendan ham o‘tadigan saxiy bormi, deya so‘raydi. Yo‘q deb javob bergan sayyohning yuzi ko‘zguda qora bo‘lib ko‘rinadi. Nihoyat uyalib, sizdan ham saxiyroq odam bor, bu go‘zal Taroz o‘lkasida yashovchi Mas`uddir, deydi. Shoh esa hammaga ruxsat berib, payt topib, Tarozga jo‘naydi. U yerda Mas`ud bilan uchrashib, do‘st tutinadi. Mas`udning fasohatidan hayratda qoladi. Mas`ud unga o‘zi uchun eng aziz bo‘lgan nimaiki bo‘lsa, hammasini ikkilanmay hadya qilib yuboradi: sevimli, kuy va qo‘shiqda mohir kanizagini, mayi tugamaydigan jomini, Gulgun laqabli otini. Bundan ta`sirlangan Shoh Mas`udni Tarozga hokim qilib tayinlash to‘g‘risida farmon beradi. Taroz hokimi Jaypur esa bundan bezovta bo‘lib, Ballu degan qattol vaziri bilan maslahatlashib, Mas`udni yo‘q qilish rejasini tuzadi. Unga ko‘ra, Jaypur Mas`ud bilan do‘st tutinadi, bir kuni Mas`udni mast qilib, bir chohga tashlatadi. So‘ng

qayg‘urgan bo‘lib yig‘laydi, boshqalarni ham ishontiradi va Mas`ud uchun motam ham ochtiradi. Ballu esa Mas`udni azoblay boshlaydi. Jaypurning bir go‘zal qizi bo‘lib, Mas`udga oshiq edi. U Mas`ud haqida bilib qoladi va ikki sodiq kanizi yordamida uni qutqarib, davolaydi va otasining saroyidan Mas`ud bilan qochib ketadi. Jaypur ularga etolmay dog‘da qoladi. Ikki sevishgan yo‘lda ko‘p qiyinchilik bilan Dehliga borib qoladilar. Mas`ud o‘zi mehmon qilgan Junaning Shoh ekanini bilmasdi, Shuning uchun pul topish ilinjida Shoh saroyiga borganda sehrli jomini, kuy chalib, qo‘shiq aytayotgan kanizini, Gulgun otini ko‘rib, avval hayron bo‘ladi, keyin Shohning ham Juna ekanini bilib qoladi. Mas`ud tanigan boshqa mahramlar bu haqda Junaga aytadilar. Do‘stini yo‘qotib, hajr azobida qolgan Shoh bundan bag‘oyat shodlanib, do‘stiga mehribonlik ko‘rsatadi, uning yorini ham olib keltiradi. Jaypur va Balluni esa jazolaydi.

Hikoyasini Shu tariqa yakunlagan sayyoh Shoh Bahromga o‘zini Tarozdan, Mas`ud avlodlaridan biri ekanligini aytadi. Bahrom uni Tarozga hokim qilib tayinlaydi.

Chorshanba kuni uchun uning homiysi Utorud (Merkuriy) rangiga mos moviy qasrda Bahrom navbatdagi jahongashtadan Mehr va Suhayl haqidagi hikoYani tinglaydi. Unga ko‘ra Adan degan joyda bir orolni o‘z makoniga aylantirib, dengiz qaroqchilik qilishni kasb qilgan Jobir degan yo‘lto‘sar Behishti saro shahrining go‘zal malikasi sayr qilib chiqqan qayiqni qo‘lga kiritadi. Lekin Mehr Shu qadar go‘zal ediki, Jobir uni ko‘rib, xushini yo‘qotardi. Shuning uchun qizga yaqinlasha olmay, o‘zining baland devorlari bilan o‘ralgan bog‘ida yashashiga ruxsat beradi. Mehrning otasi Navdar shoh Yaman mamlakati shohi No‘monning o‘g‘li Suhaylga qizini bermoqchi edi, Shuning uchun shoh No‘mon o‘g‘lini kemaga chiqarib, Navdarning mamlakatiga yuboradi. Suhayl dengizda Jobirga yo‘liqadi va jangda engilib qoladi. Suhaylning jang qilishiga, jasoratiga qoyil qolgan Jobir uni o‘ldirmasdan o‘z bog‘idagi bir chohga tashlatadi. Shoh Navdar va No‘mon o‘zaro xat yozishib, birgalikda Jobirga hujum qilishga kelishadilar. Navdar shoh quruqlikdan, No‘mon Shoh dengizdan Jobir ustiga qo‘shin tortishga qaror qiladilar. Quruqlikdan kelayotgan Navdar askarlaridan ajrab, ovga berilib, Jobir qo‘liga asir tushadi. Dengizda esa No‘mon shoh ham engilib, dengiz qaroqchisiga tutqin bo‘ladi.

Mehr visoliga etisholmagan Jobir esa ichkilikka zo‘r beradi. Mehr bog‘da aylanib yurib, chohda yotgan Suhaylni bilib qolib, qutqaradi, so‘ng Suhayl Jobir bilan jang qilib, uni engadi va tutqunlikdagilar ozodlikka erishib, murodu maqsadga erishadilar.

Mazkur hikoya poyon topgach, Shoh Bahrom roviyni munosib taqdirlab, uyquga ketadi.

Payshanba kuni Bahrom Muqbil va Mudbir haqidagi qissani tinglaydi. Unga ko‘ra, Muqbil va Mudbir Boxtar degan joydan Xovarga yo‘l oladilar. Muqbil

ibodatli, rostgo‘y bo‘lib, Mudbir kazzob va pastkash edi. Ular qaynoq vodiydan birga o‘tadilar. Mudbirning axmoqona gaplaridan Muqbil ko‘p ozor chekib, undan voz kechmoqchi bo‘lsa, Mudbir yalinib, tavba qiladi. Ular shu tariqa safarda davom etadilar. Dengiz sohiliga borib, bir kemaga chiqadilar. Muqbil odatdagidek ibodat qilib, tasbeh o‘girib o‘tirsa, Mudbir Xudoga shirk keltirib, valdiray boshlaydi. Shunda to‘fon kelib, ularning kemasini g‘arq qiladi. Bu ikkisi taqdir taqozosi bilan qutulib, qirg‘oqqa chiqib, o‘rmonga duch keladilar. Shu erdagi bir daraxt kovagida buloq bo‘lib, u erda buning suvini ichgan odam mutlaqo ochiqmasligi, suvsamasligi va yolg‘on gapirsa yorilib o‘lishi yozilgan bo‘ladi. Muqbil va mudbir bu suvdan to‘yib ichib olganlari uchun yozuvni o‘qisalar, buloq suvida boshi bilan sho‘ng‘ib cho‘milgan odam g‘aroyib voqealarni ko‘rishi aytilgan ekan. Faqat rostgo‘y odam cho‘milishi mumkin, yolg‘onchi esa kuyar ekan. Natijada, suvga Mudbir tusholmaydi, Muqbil buloqqa sho‘ng‘ib, bir qasrga duch keladi, u erda bir mahvashga oshiq bo‘lib qoladi... o‘ziga kelib, suvdan chiqqanida esa oshiq bo‘lgan go‘zal ishqida o‘zini yo‘qotib bexud bo‘ladi. Muqbil va Mudbir qirg‘oqqa kelsalar, bir kemaga duch keladilar. Bu kema sandal daraxti yog‘ochi bilan to‘la bo‘lib, odamlari o‘lib yotardilar. Gap shundaki, Xovar mamlakati shohi qizi kasalga chalingan bo‘lib, tabiblar unga sandal daraxtidan yasalgan qasrda yashash davo degani uchun ko‘plab savdogarlar Shu daraxt yog‘ochlarini olib kelayotganlarida dengizda po‘rtanaga tushib, chiqolmay, ochdan o‘lgan edilar. Ular qirg‘oqqa borganlarida Xovar shohiga duch keladilar. Mudbir o‘zini savdogar, kema egasi, Muqbilni qulim, deb tanishtiradi va shu zahoti yorilib o‘ladi. Muqbil esa bor gapni yashirmay aytib beradi. Shoh uni o‘ziga kuyov qilishni xohlab, to‘y beradi. Malikaning qasriga borgan Muqbil xuddi buloqda ko‘rgan holatiga duch keladi: sandal qasr, go‘zal qizlar va... o‘sha u sevib qolgan mahvash. Keyin ma`lum bo‘ladiki, bu go‘zal Xovar shohining qizi bo‘lib, unga jinlar shohi oshiq bo‘lgan ekan. Lekin qizga etisholmagan jinlar shohi o‘sha orolda o‘sib yotgan daraxt kovagidagi buloqda qizning suvratini, qasrning nusxasini paydo qilib, o‘zini ovutib o‘tirarkan. Muqbil Shunga duch kelgan ekan. Shu tariqa Xovar shohining go‘zal qizi va rostgo‘y Muqbil vaslga erishadilar.

Juma uchun uning homiysi Zuhra (Venera) rangiga mos oq qasr barpo qilingan edi. Nihoyat, muborak juma (odina) kuni Bahrom oppoq – kofuriy kiyimda oq qasr ichida fil suyagidan yasalgan taxt ustida o‘tirib, oq kiyimli go‘zal bilan billur jomda oq may ichadi va Chin go‘zali qoshida xorazmlik musofirning hikoyasini tinglaydi. Musofir o‘zining Xorazmdan ekanligini, soz chalishini, iqlimdagi barcha ustozlar uning shogirdlari ekanligini, kutilmaganda bir chinlik savdogarning go‘zal kanizagi Xorazmga kelgach, uning ishi kasodga uchraganini, kanizak huzuriga borib arz qilganini, uning sozini tinglab, uning tarixi bilan qiziqqanini va kanizak unga boshidan o‘tganlarni so‘zlab berganini aytadi. Shoh Bahrom aytilganlardan bu

kanizak Dilorom ekanligini bilib, Diloromni olib kelish uchun Xorazmga sipohlarini jo‘natadi.

Ko‘ringanidek, Bahrom birinchi hikoyani o‘z ruhiy holati kabi qora qasrda, qora libosda tinglagan edi, Chunki u o‘z Diloromidan ayrilgan, hijron zulmatiga giriftor bo‘lgan edi. Ettinchi hikoYani esa oq qasrda oq libosda tinglaydi va bu hikoyat unga visol umididan darak beradi, uning qalbiga yorug‘lik olib kiradi. Lekin Bahrom Diloromni topgach, yana ovga, aysh-ishratga beriladi. Bir kuni u saroy ahli, sonsiz qo‘shin va Dilorom bilan katta ovga chiqqanida, yomg‘ir yog‘adi va eski botqoqning og‘zi ochilib Bahromni Dilorom va butun arkoni davlati bilan birga yer yutadi.

Xulosa shuki, oshiqlik va shohlikni bir qiyofada olib bormoqchi bo‘ladi, aslida esa chin oshiqlik toju taxt va boylik bilan muvofiq kelmaydi:

Ishq ila shohlig‘ muvofiq emas,
Ishq lofida shoh sodiq emas. [1]

Shu bilan birga, Shoh Bahromning halokatini tasavvuf ta`limotiga ko‘ra yana shunday izohlash mumkin: Butun jonzotlar, tabiat, hayvonot va nabotot olami Allohning zuhuridir. Ularning barchasini Alloh yaratgan ekan, ularga zarar yetkazish Yaratgan irodasiga qarshi borish bilan tengdir. Shu ma`noda, shoh Bahromning tabiatga etkazgan jabr-zulmi uning halokatiga olib keldi.

Shoir Bahrom timsoli munosabati bilan o‘z davridagi ba`zi dolzarb masalalarga ham ishora qilib o‘tgan. Xususan, haqiqiy hukmdor har qanday illatlardan xoli bo‘lishi zarurligi, xalq ahvolidan g‘ofillik va aysh-ishratga berilish oxir-oqibat shohni va mamlakatni tanazzulga olib borishi mumkinligi shoir aytmoqchi bo‘lgan muhim g‘oyalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Navoiy A. Xamsa. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 8–12-jildlar. – Toshkent: Fan, 1987-2003.

2. Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. I жилд. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – 317 б.

3. Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. II жилд. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – 317 б.

4. Абдулхайр М. Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2018. – 560 б.

5. Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1983. – 656 б.

6. Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 2-том. – Тошкент: Фан, 1983. – 644 б.

7. Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 3-том. – Тошкент: Фан, 1984. – 624 б.

8. Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 4-том. – Тошкент, 1985. – 636 б.

9. Алишер Навоий: қомусий луғат. Масъул муҳаррир: Ш.Сирожиддинов. – Тошкент: Sharq, 2016. – 536 б.

10. Алишер Навоий: қомусий луғат. Масъул муҳаррир: Ш.Сирожиддинов. – Тошкент: Sharq, 2016. – 480 б.

11. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар П.Шамсиев ва С.Иброҳимов. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 784 б.

ПОСЛОВИЦЫ О ЗДОРОВЬЕ КАК ИСТОЧНИК ИЗУЧЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНОЙ СПЕЦИФИКИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Эшмуродова Зарина
ассистент-стажёр
Самаркандский институт экономики и сервиса
Тел.: (90) 2700017
E-mail: eshmurodova.zarina@mail.ru

Аннотация: В статье рассматриваются узбекские пословицы, связанные с представлениями о здоровье человека, как источник изучения национально-культурной специфики узбекского языка. Особое внимание уделяется языковым средствам выражения представлений о физическом и духовном состоянии человека, отношении к болезни, образу жизни и социальным отношениям. Анализ паремиологического материала показывает, что здоровье в узбекской языковой картине мира осмысливается комплексно и связывается не только с физическим состоянием, но и с разумом, поведением человека, его внутренним равновесием и отношениями с окружающими. Пословицы сохраняют элементы исторического и культурного опыта народа и тем самым представляют ценный материал для лингвокультурологического исследования узбекского языка.

Ключевые слова: узбекский язык, узбекские пословицы, паремиология, здоровье, национально-культурная специфика, языковая картина мира, лингвокультурология, народная мудрость.

Язык является одним из основных средств сохранения и передачи культурного опыта народа. В нём отражаются особенности исторического

развития общества, традиции, нормы поведения, ценностные представления и характерные способы восприятия окружающего мира. Особенно наглядно взаимосвязь языка и культуры проявляется в паремиологическом фонде, поскольку пословицы и поговорки аккумулируют многовековой опыт народа и передают его последующим поколениям.

Паремии представляют интерес не только как устойчивые языковые единицы, но и как своеобразные носители культурной информации. В их содержании закрепляются оценки жизненных явлений, модели поведения и представления о том, что является важным и значимым для человека. Поэтому исследование пословиц позволяет обратиться к тем культурным смыслам, которые не всегда выражаются непосредственно в лексическом значении отдельных слов.

Одним из значимых компонентов национальной картины мира является представление о здоровье. Здоровье имеет универсальное значение для человека, однако его языковое осмысление может различаться в зависимости от культурной среды. В узбекской паремиологии здоровье связано с физическим состоянием человека, разумом, образом жизни, трудовой активностью, отношением к болезни и эмоциональным состоянием. В связи с этим узбекские пословицы о здоровье представляют собой ценный материал для выявления национально-культурных особенностей языка. Их изучение позволяет определить, какие представления о здоровье закрепились в народном сознании и каким образом они получили языковое выражение.

Одним из наиболее показательных примеров является пословица **«Sog‘ tanda – sog‘lom aql»**, которую можно перевести как «В здоровом теле — здоровый разум». В данном выражении устанавливается непосредственная связь между физическим и интеллектуальным состоянием человека. Здоровье тела не рассматривается как самостоятельная характеристика: оно соотносится с состоянием разума и общей жизнедеятельностью личности. С лингвокультурологической точки зрения интерес представляет употребление компонентов *tana* — «тело» и *aql* — «разум». Их соединение создаёт целостный образ человека, в котором физическое и интеллектуальное начала взаимосвязаны. Таким образом, пословица отражает представление о здоровье как о комплексном состоянии.

Подобное понимание позволяет рассматривать узбекское слово *sog‘* не только в значении физического здоровья. В зависимости от контекста оно может входить в более широкое смысловое пространство, связанное с благополучием человека. Именно такие смысловые связи представляют особую ценность для лингвокультурологического анализа.

Другой важный аспект узбекских пословиц связан с представлением о болезни. Показательна паремия **«Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi»**, которую можно передать как «Если скрывать болезнь, жар её обнаружит». В данном выражении отражается народное наблюдение за физическим состоянием человека и внешними признаками заболевания.

Композиция пословицы основана на противопоставлении двух действий: *yashirmoq* — «скрывать» и *oshkor qilmoq* — «обнаруживать, делать явным». Болезнь представлена как явление, которое невозможно полностью скрыть, поскольку её признаки становятся заметными. В образной форме здесь выражается практический опыт наблюдения за человеком. Интересно, что подобные представления нашли отражение и в классической узбекской литературной традиции. Это позволяет рассматривать пословицу не как изолированную языковую единицу, а как часть более широкой культурной системы, в которой народное и литературное слово взаимодействуют.

Национально-культурное содержание узбекских паремий проявляется также в том, что здоровье часто осмысливается через поведение человека. Народная мудрость связывает благополучие личности с определёнными жизненными установками: активностью, трудолюбием, умеренностью, внимательным отношением к своему состоянию и соблюдением норм поведения.

Особое значение в этом отношении имеет категория нормы. Здоровье в народном сознании предполагает определённое равновесие, при котором человек способен выполнять свои повседневные обязанности, трудиться и поддерживать социальные связи. Поэтому анализ пословиц о здоровье невозможно ограничить медицинским пониманием данного понятия.

В узбекской языковой картине мира здоровье входит в более широкую систему взаимосвязанных концептов. С ним соотносятся такие понятия, как тело, разум, болезнь, труд, семья, благополучие и душевное состояние. Подобное взаимодействие показывает, что значение здоровья формируется не изолированно, а внутри целой системы национальных ценностей.

Важным материалом для такого анализа является лексический состав пословиц. Слова *sog‘* («здоровый»), *tana* («тело»), *aql* («разум»), *kasal* («больной, болезнь»), *isitma* («жар»), *jon* («душа, жизнь») обладают не только предметными значениями, но и определённым культурным содержанием.

Например, лексема *jon* в узбекском языке может обозначать не только физическую жизнь человека, но и внутреннее состояние, душевный мир. Поэтому выражения с данным компонентом способны передавать эмоциональные и духовные оттенки значения. Подобные особенности

демонстрируют, что национальная специфика проявляется непосредственно в семантических связях слов.

Паремиологический материал позволяет также обратить внимание на роль краткости и образности. Пословица передаёт сложное содержание посредством небольшой языковой конструкции. Благодаря этому культурный смысл легко запоминается и передаётся от одного поколения к другому.

Именно способность пословиц сохранять коллективный опыт делает их важным источником изучения национальной культуры. В них отражаются не только конкретные бытовые наблюдения, но и определённые модели оценки окружающей действительности.

В этом отношении пословицы о здоровье занимают особое место. Человек во все исторические периоды сталкивался с болезнями, необходимостью сохранять физические силы и поддерживать жизненную активность. Однако конкретные способы осмысления этих явлений формируются в определённой культурной среде и получают соответствующее языковое выражение.

Для узбекской паремиологической картины мира характерно комплексное представление о человеке. Физическое состояние, разум, душевное равновесие и социальная жизнь воспринимаются во взаимосвязи. Это особенно хорошо проявляется в пословицах, где здоровье выступает не только как отсутствие болезни, но и как условие полноценной человеческой деятельности.

Следует отметить, что обращение к пословицам имеет значение и для современного изучения узбекского языка как государственного. Государственный язык выполняет не только коммуникативную функцию, но и обеспечивает сохранение национальной культурной памяти. Поэтому включение паремиологического материала в образовательную и научную практику способствует более глубокому пониманию национальной специфики узбекского языка.

Изучение пословиц о здоровье может использоваться при преподавании узбекского языка, лингвокультурологии, фольклора и межкультурной коммуникации.

При этом целесообразно рассматривать пословицу не только с точки зрения её буквального перевода, но и анализировать содержащиеся в ней культурные значения.

Таким образом, узбекские пословицы о здоровье являются ценным источником изучения национально-культурной специфики языка. Они позволяют выявить особенности народного понимания физического и духовного благополучия, болезни, человеческого поведения и взаимосвязи различных сторон жизни.

Научно-теоретическое предложение. Представляется целесообразным рассматривать узбекские пословицы о здоровье как самостоятельный фрагмент национальной языковой картины мира, в котором посредством устойчивых образов, лексических единиц и оценочных моделей закрепляются представления о физическом, интеллектуальном и духовном благополучии человека. Такой подход позволяет расширить лингвокультурологическое описание узбекской паремиологии и выявить взаимосвязь концепта здоровья с другими базовыми концептами национальной культуры.

Практическая рекомендация. Результаты исследования могут быть использованы при разработке учебных материалов по узбекскому языку, лингвокультурологии и межкультурной коммуникации, а также при составлении тематических словарей и электронных корпусов узбекских пословиц. При включении паремий в образовательный процесс рекомендуется сопровождать их не только переводом, но и лингвокультурологическим комментарием, раскрывающим национально обусловленное содержание языковых единиц.

Литература:

1. Воркачёв С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. — 2001. — № 1. — С. 64–72.

2. Маслова В.А. Лингвокультурология. — М.: Академия, 2001. — 208 с.

3. Мирзаев Т., Мусақулов А., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари. — Тошкент: Шарқ, 2019. — 512 б.

4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. — Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1992.

5. O‘zbek va ingliz tillaridagi somatik komponentli maqollarda «qo‘l» leksemasi orqali ifodalangan turli xil konseptlar // Новый Узбекистан: наука, образование и инновации. — 2024.

6. Материалы о функционировании узбекских пословиц в литературном наследии Алишера Навои. — Ташкент: Ziyonet.

DAVLAT TILI – TARAQQIYOT VA MILLIY YUKSALISH MEZONI

Nuraddinova Oydin Rasul qizi,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: dotsent ***A.Shofqorov***

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat tilining jamiyat ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy va madaniy taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Tilning milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani saqlash, avlodlar davomiyligini ta’minlash hamda jamiyat a’zolarini birlashtirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi huquqiy maqomi, ta’lim va ilm-fan, davlat boshqaruvi, ommaviy axborot vositalari hamda raqamli texnologiyalar sohasidagi rivojlanish istiqbollari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: huquqiy maqom, til, davlat tili, rasmiy til, milliy til, til taraqqiyoti, raqamli texnologiyalar.

Davlat tili – har qanday davlatning tarixiy taraqqiyoti negizida vujudga kelgan, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning in’ikosi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik vositasi, mamlakatda istiqomat qilayotgan turli millat va elatlar yakdilligini ifoda etadigan, davlat doirasida va davlatlararo munosabatlarda o‘zaro muloqot vositasi hisoblangan, qonuniy maqomga ega bo‘lgan hamda qonun bilan himoyalangan rasmiy til.

Davlat tili odatda uch yo‘l bilan belgilanadi:

1) tarixiy an’ana asosida muayyan davlat hududida istiqomat qiluvchi barcha xalqlar mavjud tillardan birini umum til deb tan oladi. U, ko‘pincha, shu davlatdagi ko‘p sonli millatning tili bo‘ladi;

2) hukumat, prezident, parlament yoki rahbar organlari tomonidan xalqaro yoki jahon tillaridan biri davlatning rasmiy tili deb e’lon qilinadi. Davlat organlari, hukumat idoralari va rasmiy tashkilotlarda yozishmalar faqat shu tilda qabul qilinadi yoki jo‘natiladi, shuningdek, barcha muzokara, muhokama, majlis, sessiya, konferensiya, kongress va shu kabi yig‘inlar ana shu rasmiy tilda o‘tkaziladi;

3) davlatning qonun chiqaruvchi organi yoki mamlakat Prezidenti tomonidan jamiyat hayotining barcha sohalarida qo‘llanilishi shart deb e’lon qilingan til.

Sobiq sho‘rolar tizimining so‘nggi davrida o‘zbek tili davlat tili sifatida xalqimizni birlashtiradigan, jamiyatimizni ulug‘ maqsadlar sari safarbar etadigan qudratli kuch bo‘lib maydonga chiqib keldi. Ayni vaqtda ushbu harakatlar mamlakatimizning davlat mustaqilligi sari qo‘yilgan birinchi dadil qadamlardan biri edi. Bugungi kunda har yili 21-oktabr butun mamlakatimiz bo‘ylab katta bayram sifatida nishonlanadi. Bu yil 21-oktabr sanasida O‘zbek tiliga davlat tili maqomi

berilganining 37 yilligi yurtimizda keng nishonlanadi. Shuni ham qayd etish kerakki, 1989-yili “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunda aks etgan muhim huquqiy qoidalar keyinchalik, 1992-yilda Mustaqillik Qomusi – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida quyidagicha mustahkamlandi: “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 21-oktabrda qabul qilingan “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonga binoan, 21-oktabr tarixiy sana – O‘zbek tili bayrami kuni deb belgilandi. Bu esa ona tilimizni qay darajada ardoqlashimizni va hurmat qilishimizni namoyon etadi.

Yurtimizda o‘zbek tilining davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari qonunan belgilab qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni uch tamoyilga – umumiylik, majburiylik va huquqiy kafolatga asoslanadi. Darhaqiqat, davlat tilining mustahkam huquqiy maqomi belgilab qo‘yilgani tilimizning boy imkoniyatlaridan keng foydalanishga yetarlicha zamin yaratib, mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishi barobarida, o‘zbek tilining erkin muomalada bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berdi.

Til millatlarni ajratib turuvchi asosiy belgilardan biri ekan, har bir inson o‘z tilini bilishi, uni ulug‘lashi, shu bilan birga, boshqa tillarga hurmat bilan qarashi lozim. Shundagina tilning, millatning qadri, obro‘yi va nufuzi oshadi. Ayniqsa, dunyoda taniqli mamlakat bo‘lish uchun biz davlat tilining maqomini ko‘tarishga erishishimiz shart. Rivojlangan davlatlar darajasiga chiqish va raqobatbardosh bo‘lish uchun O‘zbekiston fuqarolari xalqaro tillarni bilishi muhim. Chunki biz global rivojlanish tendensiyalaridan ortda qola olmaymiz, lekin shuni unutmasligimiz kerakki, o‘zbek tili dunyodagi barcha rasmiy tillar qatori suveren til maqomini olgan ekan, har bir O‘zbekiston fuqarosi o‘zbek tilini mukammal bilishi shart. Tilga hurmat – xalqqa hurmat. Tilning egasi xalq, ammo xalqning bitta vakili loqayd bo‘lsa ham, milliy til sofligiga putur yetadi. Til o‘zligimiz timsoli, millat mulki hisoblanadi.

O‘zbek adabiy tilining rivojlanishida buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning xizmatlari beqiyosdir. Uning ijodi turkiy tilning yuksak badiiy va falsafiy imkoniyatlarini namoyon etdi. Navoiy o‘z asarlari orqali tilning nafaqat kundalik muloqot, balki murakkab falsafiy, ilmiy va estetik fikrlarni ifodalashga qodir ekanini ko‘rsatdi. Kelajak avlodning vazifasi esa ana shu boy merosni asrab-avaylash bilan birga, o‘zbek tilining zamonaviy imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat. Zero, milliy til faqat o‘tmish merosi emas, balki kelajakni yaratish vositasi hamdir.

Ijtimoiy taraqqiyot jamiyat hayotining barcha sohalarida yuz beradigan o‘zgarishlarni qamrab oladi. Bunday taraqqiyot ta’lim, fan, iqtisodiyot, siyosat, texnologiya va madaniyatning rivojlanishi bilan belgilanadi. Til esa ushbu jarayonlarning barchasida bevosita ishtirok etadi. XXI asrda til taraqqiyotini raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Bugungi kunda insonlar axborotni katta miqdorda internet va raqamli platformalar orqali qabul qilmoqda. Shu sababli tilning raqamli makondagi mavjudligi uning kelajagi uchun muhim omillardan biridir. O‘zbek tilidagi elektron lug‘atlar, avtomatik tarjima tizimlari, nutqni tanish texnologiyalari, imlo tekshiruvchilari va sun’iy intellektga asoslangan til vositalarini rivojlantirish davlat tilining zamonaviy imkoniyatlarini kengaytiradi. Agar til raqamli texnologiyalarda faol qo‘llanilsa, uning yosh avlod hayotidagi amaliy ahamiyati ham ortadi. Demak, o‘zbek tilining kelajagi faqat kitob va darsliklarda emas, balki internet, dasturiy ta’minot, sun’iy intellekt va boshqa yangi texnologiyalarda ham belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, Davlat tili xalqimizning ruhi, borligimiz va birligimiz, davlatning kuch-qudrati timsoli ekanini e’tiborga olgan holda, uni asrash va rivojlantirish millatidan qat’iy nazar har bir fuqaromizning insoniy burchi hisoblanadi. Binobarin, o‘zbek tilini yanada rivojlantirish, uning davlat tili sifatidagi o‘rni va nufuzini yanada mustahkamlash borasida oldimizda katta va mas’uliyatli vazifalar turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/-6445145
2. O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrdagi O‘RQ-167-I-son “Davlat tili haqida”gi qonuni. https://lex.uz/docs/-121051
3. O‘zbekiston Respubliaksi Hukumat portali. https://gov.uz/uz
4. https://oyina.uz/uz
5. https://uzswlu.uz/axborot-resurs-markazi

COGNITIVE EVALUATION AND LINGUISTIC FACTORS IN THE FORMATION OF SCIENTIFIC TEXTS

Khudoyberdiyeva Nargiza
Independent Researcher, Samarkand State Institute of Foreign Languages
Teacher, Academic Lyceum of Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract: This article examines the relationship between cognitive evaluation and linguistic factors in the formation of scientific texts. Scientific text production is approached as a multi-stage cognitive and communicative process in which

information is perceived, evaluated, selected, conceptualized, logically structured, and subsequently verbalized through appropriate linguistic means. Particular attention is paid to distinguishing cognitive processing from cognitive evaluation: while cognitive processing encompasses perception, categorization, conceptualization, reasoning, and information organization, cognitive evaluation involves assessing the relevance, reliability, significance, and communicative appropriateness of information. The study employs descriptive, cognitive, discourse-analytical, and functional methods to examine the interaction between cognitive operations and such linguistic features as terminology, modality, syntactic organization, coherence, cohesion, and metadiscourse. The analysis suggests that the formation of scientific texts may be represented through the model: information perception → cognitive evaluation → selection → conceptualization → logical structuring → linguistic representation → scientific text. It is argued that scientific writing is not merely the verbal expression of previously formed knowledge, but a process in which cognition and language interact continuously.

Keywords: cognitive evaluation, scientific text, cognitive processing, scientific discourse, conceptualization, linguistic factors, cognition, coherence, academic writing, scientific communication.

КОГНИТИВНАЯ ОЦЕНКА И ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАУЧНОГО ТЕКСТА

Аннотация: В статье рассматривается взаимосвязь когнитивной оценки и лингвистических факторов в процессе формирования научного текста. Создание научного текста трактуется как многоэтапный когнитивно-коммуникативный процесс, включающий восприятие информации, ее оценку, отбор, концептуализацию, логическое структурирование и последующую вербализацию с помощью соответствующих языковых средств. Особое внимание уделяется разграничению когнитивной обработки информации и когнитивной оценки. Когнитивная обработка охватывает восприятие, категоризацию, концептуализацию, рассуждение и организацию информации, тогда как когнитивная оценка предполагает определение ее релевантности, достоверности, значимости и коммуникативной целесообразности. В исследовании используются описательный, когнитивный, дискурсивно-аналитический и функциональный методы. Анализируется взаимосвязь когнитивных операций с такими особенностями научного текста, как терминология, модальность, синтаксическая организация, когерентность, когезия и метадискурс. Формирование научного текста представлено посредством модели: восприятие информации → когнитивная оценка → отбор

→ концептуализация → логическое структурирование → языковая репрезентация → научный текст.

Ключевые слова: когнитивная оценка, научный текст, когнитивная обработка, научный дискурс, концептуализация, лингвистические факторы, мышление, когерентность, академическое письмо, научная коммуникация.

ILMIY MATNNING SHAKLLANISHIDA KOGNITIV BAHOLASH VA LISONIY OMILLAR

Annotatsiya: Maqolada ilmiy matnning shakllanish jarayonida kognitiv baholash va lisoniy omillarning o‘zaro munosabati tahlil qilinadi. Ilmiy matn yaratish axborotni qabul qilish, baholash, saralash, konseptuallashtirish, mantiqiy tuzilishga solish va tegishli til vositalari orqali ifodalashni qamrab oluvchi ko‘p bosqichli kognitiv-kommunikativ jarayon sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda kognitiv qayta ishlash va kognitiv baholash tushunchalarini farqlashga alohida e’tibor qaratiladi. Kognitiv qayta ishlash idrok etish, kategoriyalash, konseptuallashtirish, xulosa chiqarish va axborotni tartibga solish jarayonlarini qamrab olsa, kognitiv baholash axborotning dolzarbligi, ishonchliligi, ahamiyati va kommunikativ maqsadga muvofiqligini aniqlash bilan bog‘liq. Maqolada tavsifiy, kognitiv, diskursiv va funksional tahlil usullaridan foydalanilib, kognitiv jarayonlarning terminologik tanlov, modallik, sintaktik tuzilish, kogerentlik, kogeziya va metadiskurs vositalari bilan munosabati yoritiladi. Ilmiy matnning shakllanishi axborotni qabul qilish → kognitiv baholash → saralash → konseptuallashtirish → mantiqiy strukturalash → lisoniy ifodalash → ilmiy matn modeli asosida izohlanadi.

Kalit so‘zlar: kognitiv baholash, ilmiy matn, kognitiv qayta ishlash, ilmiy diskurs, konseptuallashtirish, lisoniy omillar, tafakkur, kogerentlik, akademik yozuv, ilmiy kommunikatsiya.

INTRODUCTION

In the contemporary scientific paradigm, the relationship between cognition and language occupies an important position in cognitive linguistics, discourse studies, psycholinguistics, and academic writing research. Language is not simply a means of transmitting information that has already been completely formed in the human mind. It participates in the processes through which knowledge is conceptualized, categorized, structured, and communicated. From this perspective, a scientific text can be regarded as both the product of cognitive activity and the linguistic form through which scientific knowledge becomes accessible to a particular academic community.

E.S. Kubryakova emphasizes the close relationship between language and knowledge, regarding linguistic activity as connected with the acquisition, processing, organization, and representation of knowledge [2]. R.W. Langacker's cognitive approach similarly treats linguistic structures in relation to conceptualization, demonstrating that linguistic expression cannot be fully separated from the ways in which a speaker or writer construes a particular situation [4]. These approaches provide a theoretical basis for examining scientific writing not only as a textual activity but also as a process of cognitive organization.

Scientific texts differ from many other forms of discourse in their communicative purpose. Their primary function is to represent, substantiate, systematize, and communicate knowledge in accordance with the conventions of an academic community. Consequently, the author of a scientific text must decide what information is relevant, how concepts should be related to one another, which claims require evidence, what degree of certainty can be assigned to a conclusion, and how these cognitive decisions should be expressed linguistically.

The formation of a scientific text therefore involves two closely connected dimensions. The first is cognitive: information is perceived, compared, evaluated, categorized, interpreted, and conceptualized. The second is linguistic: the resulting conceptual structures are represented through terminology, grammatical constructions, modality, cohesive devices, syntactic patterns, and discourse strategies.

However, cognitive processing and cognitive evaluation should not be treated as identical concepts. Cognitive processing is a broader phenomenon encompassing perception, categorization, conceptualization, reasoning, inference, and the organization of information. Cognitive evaluation constitutes a more specific stage in which the author assesses the relevance, reliability, significance, logical consistency, and communicative appropriateness of information. This distinction is particularly important in scientific discourse because not every piece of perceived or processed information becomes part of the final scientific text.

The purpose of this article is to examine the interaction between cognitive evaluation and linguistic factors in the formation of scientific texts and to identify the principal stages through which scientific knowledge is transformed into a coherent linguistic structure.

The objectives of the study are to distinguish cognitive evaluation from the broader process of cognitive information processing; identify the major cognitive operations involved in scientific text production; characterize the linguistic means through which cognitive decisions are represented; and propose a model demonstrating the relationship between cognitive evaluation and linguistic representation in scientific writing.

MATERIALS AND METHODS

The present study is theoretical and analytical in character. Its conceptual basis is formed by major approaches developed within cognitive linguistics, functional linguistics, conceptual metaphor theory, and discourse studies. The works of N.D. Arutyunova, E.S. Kubryakova, G. Lakoff and M. Johnson, R.W. Langacker, and M.A.K. Halliday and C.M.I.M. Matthiessen serve as the principal theoretical sources [1–5].

Several complementary methods are employed in the study. The descriptive method is used to characterize the main features of scientific text formation. Cognitive analysis makes it possible to identify the mental operations underlying the selection and organization of scientific information. Discourse analysis is employed to explain how cognitive intentions are manifested within scientific communication. Functional analysis is used to establish the relationship between particular linguistic forms and the communicative functions they perform in scientific texts.

Since the study is theoretical rather than corpus-based, its aim is not to provide quantitative results. Instead, it seeks to establish a conceptual framework for explaining how cognitive evaluation interacts with linguistic choice during scientific text production.

COGNITIVE PROCESSING AND COGNITIVE EVALUATION IN SCIENTIFIC TEXT PRODUCTION

Scientific writing begins before the actual verbal construction of sentences. The researcher first encounters a particular body of information, identifies a research problem, relates new data to previous knowledge, and determines which aspects of the available information are relevant to the intended research objective. This initial stage involves cognitive processing. Previous knowledge, conceptual schemas, categories, and associations are activated and used to interpret new information. From the perspective of cognitive linguistics, knowledge is not simply accumulated as an unstructured set of facts. It is organized through conceptual relations that allow individuals to classify and interpret experience [2; 4].

Cognitive evaluation becomes particularly significant when the researcher begins to select material for inclusion in a scientific text. At this stage, information may be evaluated according to several criteria: relevance to the research problem; reliability of the source or evidence; scientific significance; logical compatibility with other data; degree of novelty; communicative appropriateness for the intended audience. Thus, cognitive evaluation performs a selective and regulatory function. It determines which elements of processed information become part of the scientific argument and which are excluded, reconsidered, or subordinated to other information. For example, when a researcher encounters several explanations of the same linguistic phenomenon, these explanations cannot simply be reproduced in

sequence. They must be compared, their theoretical assumptions identified, their strengths and limitations evaluated, and their relevance to the current research problem determined. Only after such evaluation can they be integrated into a coherent literature review or theoretical discussion. This process shows that scientific text production does not proceed directly from information to language. Between these two points lies an important evaluative stage.

CONCEPTUALIZATION AND THE ORGANIZATION OF SCIENTIFIC KNOWLEDGE

Conceptualization represents another central mechanism in scientific text formation. Lakoff and Johnson demonstrate that human thought is fundamentally connected with conceptual structures and that many abstract phenomena are understood through systematic conceptual models [3]. Although scientific discourse aims at precision and explicitness, scientific knowledge is likewise organized through conceptual categories and relations. The researcher must determine how a particular phenomenon is to be understood within the study. This involves identifying its essential characteristics, distinguishing it from related phenomena, establishing relations among concepts, and selecting an appropriate conceptual framework. For instance, describing "scientific text" simply as written scientific information provides only a general definition. From a cognitive-discursive perspective, however, it may be conceptualized as a structured representation of scientific knowledge produced by an author for communication within an academic community. Such conceptualization determines which features become relevant for subsequent analysis: knowledge structure, authorial position, argumentation, linguistic representation, and reader interpretation.

Consequently, conceptualization affects not only what an author thinks about a phenomenon but also how that phenomenon is subsequently described in language.

LINGUISTIC FACTORS IN THE FORMATION OF SCIENTIFIC TEXTS

Once information has been cognitively processed, evaluated, and conceptually structured, it must be represented linguistically. This process requires the selection of language forms appropriate to scientific communication. Terminological choice is one of the most significant linguistic factors. A term establishes a relationship between a linguistic form and a specialized concept. Selecting an appropriate term therefore involves both linguistic and cognitive decisions. The author must determine whether the selected unit accurately represents the intended concept and whether it is accepted within the relevant disciplinary context.

Syntactic organization is also closely connected with cognitive structuring. Scientific sentences frequently encode causal, conditional, comparative, classificatory, and inferential relations. Such relations reflect the logical organization of scientific reasoning. Consider the following two hypothetical

formulations: “Language influences scientific thinking.” “The analysis suggests that linguistic choices may influence the ways in which scientific knowledge is conceptualized.”

The first statement presents a direct and categorical relationship. The second restricts the claim through “the analysis suggests” and the modal verb “may”. The difference is not merely grammatical. It reflects different degrees of epistemic commitment. This demonstrates the importance of modality in scientific discourse. Authors continuously evaluate the degree of certainty that can be attributed to their statements. Expressions such as may, might, appears to, suggests that, probably, can be interpreted as, and the results indicate allow researchers to calibrate claims according to the available evidence. Thus, cognitive evaluation of evidence is reflected linguistically through epistemic modality: evaluation of evidence → degree of certainty → modal choice. This relationship is particularly important because excessive certainty may make a scientific claim insufficiently justified, while excessive caution may weaken an otherwise well-supported conclusion.

COHERENCE AND COHESION AS COGNITIVE AND TEXTUAL PHENOMENA

The effectiveness of a scientific text also depends on coherence and cohesion. These concepts are related but should not be treated as identical. Cohesion concerns explicit linguistic connections between parts of a text. Conjunctions, pronouns, lexical repetition, reference devices, and transitional expressions contribute to the formal connectivity of textual units. Coherence, by contrast, concerns the meaningful and logical relationship between ideas. A text may contain numerous cohesive devices and still remain conceptually unclear if the argument lacks logical progression. From a cognitive perspective, coherence begins with the organization of knowledge in the author's mind. If the relationship among concepts is unclear at the conceptual level, linguistic devices alone cannot create a fully coherent scientific argument.

The relationship can therefore be represented as: conceptual organization → logical relations → textual coherence → cohesive linguistic realization.

Halliday and Matthiessen’s functional approach is particularly relevant in this respect because it explains how linguistic choices contribute to meaning-making within texts [5]. Scientific writing may consequently be viewed as a process in which conceptual and logical relations are transformed into textual relations through linguistic resources.

METADISCOURSE AND THE AUTHOR’S COGNITIVE POSITION

Scientific discourse is often described as objective; nevertheless, the author does not disappear entirely from the text. The selection of evidence, organization of arguments, expression of certainty, and indication of limitations all reveal aspects of

the researcher’s cognitive position. Expressions such as “the results indicate”, “it can be assumed”, “the present study focuses on”, “in contrast”, “therefore”, and “however” help guide the reader through the author's reasoning. Such units perform a metadiscursive function because they organize not only information but also the relationship between the author, the argument, and the reader. For example: “Previous studies describe the phenomenon as a lexical process. However, the present analysis suggests that its cognitive dimension should also be taken into account”. The marker “however” signals a contrast between two positions, while “suggests” indicates the author's degree of epistemic commitment. Thus, a relatively short fragment may simultaneously represent comparison, evaluation, authorial position, and argumentative progression.

This illustrates that linguistic forms in scientific discourse are closely connected with cognitive operations.

A COGNITIVE-LINGUISTIC MODEL OF SCIENTIFIC TEXT FORMATION

On the basis of the theoretical analysis, the process of scientific text formation can be represented through the following model:

information perception
↓
cognitive processing
↓
cognitive evaluation
↓
information selection
↓
conceptualization
↓
logical structuring
↓
linguistic representation
↓
textual organization
↓
scientific text

The stages should not be understood as completely isolated or strictly linear. During actual scientific writing, authors may repeatedly return to previous stages. For example, the difficulty of expressing an idea may reveal that its conceptual structure is not yet sufficiently clear. The author may then reconsider the concept, reevaluate the available evidence, and reformulate the argument. The model

therefore represents scientific text formation as a recursive interaction between cognition and language rather than as a simple transfer of ready-made ideas into words. A more specific relationship between cognitive operations and linguistic realization can be summarized as follows:

Cognitive operation	**Function**	**Typical linguistic realization**
Categorization	grouping phenomena according to shared features	terms, classifications, definitions
Comparison	identifying similarities and differences	similarly, unlike, whereas, in contrast
Evaluation	determining relevance and validity	significant, relevant, reliable, insufficient
Epistemic assessment	determining degree of certainty	may, might, suggests, appears, indicates
Causal reasoning	establishing cause-and-effect relations	because, therefore, consequently, due to
Generalization	deriving broader conclusions	generally, overall, it can be concluded
Limitation	defining the boundaries of a claim	within the present study, to a certain extent
Argument organization	establishing logical progression	first, furthermore, however, thus, in conclusion

The table demonstrates that linguistic forms in scientific texts can be interpreted as observable manifestations of underlying cognitive operations. This does not mean that each linguistic unit corresponds mechanically to only one mental process. Rather, the relationship is functional: particular language choices help verbalize and organize particular types of cognitive activity.

RESULTS AND DISCUSSION

The theoretical analysis allows several observations to be made. First, scientific text formation involves a distinction between general cognitive processing and cognitive evaluation. Perception, categorization, reasoning, and conceptualization provide the broader cognitive foundation of scientific activity, whereas cognitive evaluation performs a selective function by determining the relevance, reliability, significance, and communicative suitability of information. Second, linguistic representation is not an independent final stage detached from cognition. Terminological choice, modality, syntax, coherence, cohesion, and metadiscourse reflect cognitive decisions made by the author. Third, epistemic modality provides a particularly clear example of the interaction between cognition and language. The researcher evaluates the strength of evidence cognitively and

subsequently represents the resulting degree of certainty through linguistic forms such as may, suggests, indicates, demonstrates, or confirms. Fourth, textual coherence depends partly on prior conceptual organization. The logical sequence of a scientific text reflects relations established among concepts during the cognitive stages of writing. Fifth, scientific text production should be regarded as recursive. Linguistic formulation may lead to the reevaluation or reconceptualization of scientific information. Consequently, cognition influences linguistic representation, while the process of linguistic representation may in turn reorganize cognition.

These observations make it possible to regard scientific writing as an integrated cognitive-linguistic activity rather than as a purely linguistic technique for recording completed thoughts.

CONCLUSION

The analysis demonstrates that the formation of scientific texts is based on the interaction of cognitive and linguistic mechanisms. Scientific writing begins with the perception and processing of information but requires an additional evaluative stage in which the researcher determines the relevance, reliability, significance, and communicative appropriateness of available knowledge. Cognitive evaluation plays a regulatory role in scientific text production. It guides the selection of information, contributes to the formation of conceptual relations, determines the strength of scientific claims, and influences the organization of arguments. Conceptualization transforms selected information into a structured system of scientific concepts. These conceptual structures subsequently receive linguistic representation through terminology, syntactic patterns, modality, cohesive devices, and metadiscursive strategies.

The analysis also indicates that linguistic choice can serve as an observable manifestation of cognitive activity. Categorization is reflected in definitions and classifications; comparison in contrastive structures; causal reasoning in causal connectors; epistemic assessment in modal expressions; and generalization in conclusion-oriented discourse forms. Accordingly, the formation of scientific texts can be represented through the general model: information perception → cognitive processing → cognitive evaluation → selection → conceptualization → logical structuring → linguistic representation → textual organization → scientific text. At the same time, this process is recursive rather than strictly linear. During writing, linguistic formulation may require the author to return to earlier cognitive stages, reconsider evidence, clarify concepts, or reorganize logical relations. Scientific text production should therefore be understood as a continuous interaction between cognition, evaluation, language, and communication. The proposed model may provide a theoretical basis for further research based on actual scientific corpora. Comparative analysis of scientific texts from different disciplines and languages

could make it possible to determine how cognitive evaluation is represented through specific linguistic structures and whether disciplinary or linguocultural differences influence the verbalization of scientific knowledge.

REFERENCES

1. Арутюнова Н. Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 896 с.
2. Кубрякова Е. С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.
3. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 2003. – 276 p.
4. Langacker R. W. Cognitive Grammar: A Basic Introduction. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 562 p.
5. Halliday M. A. K., Matthiessen C. M. I. M. Halliday’s Introduction to Functional Grammar. – 4th ed. – London; New York: Routledge, 2014.

ASARDA LINGVOPOETIK SAN’ATLARNING O‘ZIGA XOSLIGI

Nafisa Quldosheva

SamDChTI 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy asarda poetik san’atlarning qo‘llanilishi va o‘ziga xos ifodalanishi haqida so‘z yuritiladi. Uning asarda bajargan vazifasi va o‘rni tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: poetika, asar, san’at, muallif, ekspressivlik, obraz, metafora.

Аннотация: В данной статье рассматривается использование и своеобразное выражение поэтических фигур в художественном произведении. Проанализированы его роль и роль в произведении.

Ключевые слова: поэтика, произведение, искусство, автор, экспрессивность, образ, метафора.

Abstract: This article examines the use and unique expression of poetic figures in a literary work. Its role and place in the work have been analyzed.

Keywords: poetics, work, art, author, expressiveness, image, metaphor.

Badiiy asarning estetik qimmati, avvalo, unda voqelikning qanday tasvirlangani, muallifning badiiy tafakkuri va til imkoniyatlaridan qay darajada mahorat bilan foydalanganida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi yoki shoir oddiy axborotni yetkazish bilan cheklanmaydi, balki, tilning obrazlilik, ta’sirchanlik va emotsional-ekspressiv imkoniyatlaridan foydalanib, o‘quvchida muayyan estetik taassurot hosil qiladi. Shu jihatdan, badiiy matnni o‘rganishda lingvopoetik

san’atlarning o‘rni nihoyatda muhimdir. Lingvopoetik san’atlar badiiy asarda til birliklarining maxsus qo‘llanishi natijasida yuzaga keladigan obrazlilik, ekspressivlik va estetik ta’sirni ifodalovchi vositalar majmuasidir. Badiiy matnda har bir so‘z yoki grammatik shakl o‘zining bevosita lug‘aviy ma’nosidan tashqari qo‘shimcha estetik va emotsional mazmun kasb etishi mumkin. Shu sababli, lingvopoetik san’atlarni tahlil qilishda ularning faqat shakliy xususiyatlarini aniqlash yetarli emas. Ularning asar mazmunini ochish, obraz yaratish, qahramon ruhiyatini ifodalash, muallif munosabatini bildirish va o‘quvchiga estetik ta’sir ko‘rsatishdagi vazifasini ham aniqlash zarur. Lingvopoetik san’atlarning muhim xususiyatlaridan biri ularning obrazlilikni yuzaga keltirish imkoniyatidir. Badiiy asarda voqea-hodisalar ko‘pincha bevosita emas, balki, ko‘chma ma’nolar, o‘xshatishlar, metaforalar, ramzlar va boshqa tasviriy vositalar orqali ifodalanadi. Masalan, “oltin kuz”, “kumush tong”, “hayot yo‘li”, “qalb ko‘zi” kabi birikmalarda so‘zlar o‘zining odatiy ma’nosidan kengroq mazmunni anglatadi. Bunday birliklar o‘quvchining tasavvurini faollashtirib, tasvirlanayotgan hodisani yanada yorqinroq idrok etishga yordam beradi. “Ilgari o‘tgan adabiyotshunos olimlar adabiyot nazariyasi bo‘yicha kitob yozganlarida ko‘pincha bir - yo she’r turlari, yoki vazn, yoki badiiy san’at masalasiga to‘xtalganlar yoki biror she’riy janr xususiyatlarini yoritib berganlar. Shayx Ahmad esa, bu sohada mukammal bir qo‘llanma yaratishni o‘z “risola”sida nazariy masalalarining barchasini yoritib, tahlil qilib berishini niyat qiladi, toki uni o‘qigan kishilar nazariyadan mumkin qadar to‘la ma’lumot va foyda olsin” [3. 71].

Tashbeh ham badiiy matnda keng qo‘llanadigan lingvopoetik san’atlardan biridir. Tashbehda bir predmet yoki hodisa ikkinchi bir predmet yoki hodisaga o‘xshatiladi. “Yuzlari oydek”, “ko‘zlari yulduz kabi”, “suvday tiniq” kabi ifodalar tasvirning aniqligi va ta’sirchanligini oshiradi. Tashbehning o‘ziga xosligi shundaki, u o‘quvchiga tasvirlanayotgan predmetning muayyan belgisini boshqa tanish obraz orqali aniqroq tasavvur qilish imkonini beradi. Badiiy asarda tashbehlar qahramonning tashqi qiyofasi, xarakteri, tabiat manzarasi yoki ruhiy holatini tasvirlashda faol ishlatiladi. Ushbu san’at “sharq adabiyotida keng tarqalgan san’atlardan biri bo‘lib, “o‘xshatish” ma’nosini ifodalaydi. Ikki narsa yoki tushunchani ular o‘rtasidagi haqiqiy (real) yoki majoziy munosabatlarga ko‘ra o‘xshatish san’atidir. Tashbeh san’ati tasvirlanayotgan shaxs, buyum yoki tushunchani o‘quvchi ko‘z o‘ngida aniqroq, jozibaliroq gavdalantirishga xizmat qilib, asar timsollari ma’naviy qiyofasini yorqinroq ochish, binobarin, shoir g‘oyasini o‘quvchi ongiga to‘laroq yetkazishga imkon beradi” [5. 6].

Lingvopoetik san’atlarning yana bir muhim turi - jonlantirishdir. Jonlantirishda jonsiz predmet yoki tabiat hodisalariga insoniy xususiyatlar yuklanadi. U tashxis san’ati deb ham yuritiladi. Masalan, “shamol kuyladi”,

“daraxtlar shivirlay boshladi”, “tong kulib boqdi” kabi ifodalarda tabiat hodisalari inson faoliyatiga xos harakatlar bilan tasvirlanadi. Bunday usul tabiat manzarasini jonlantirib, uni qahramon ruhiyati bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, lirik asarlarda jonlantirish tabiat va inson o‘rtasidagi ruhiy yaqinlikni ifodalashda muhim vosita hisoblanadi.

Mubolag‘a ham lingvopoetik san’atlarning samarali turlaridan biridir. Mubolag‘ada predmet yoki hodisaning belgisi ataylab haddan tashqari kuchaytirib tasvirlanadi. Bu vosita voqeaning real o‘lchamini berishdan ko‘ra, qahramonning hissiy munosabatini kuchliroq ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, “ko‘z yoshim daryo bo‘ldi” kabi ifodada yig‘ining haqiqiy miqdori emas, balki qahramonning kuchli iztirobi tasvirlanadi. “Arab tilida “kattalashtirish”, kuchaytirish” ma’nosini bildirib, adabiy asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol holati yoki harakatini bo‘rttirib, kuchaytirib ifodalash san’ati demakdir. Bu xil tasvirda badiiy timsol xususiyatlari yaqqolroq namoyon bo‘ladi, o‘quvchining ko‘zi oldida yorqinroq gavdalanadi” [4. 41]. Shunday qilib, mubolag‘a badiiy matnning emotsional ta’sir kuchini oshiradi.

Lingvopoetik san’atlarning o‘ziga xosligi faqat trop va tasviriy vositalar bilan chegaralanmaydi. Takror, parallelizm, gradatsiya, inversiya, ritorik so‘roq, ellipsis kabi sintaktik vositalar ham badiiy matnning poetik ta’sirini kuchaytiradi. Masalan, takror muayyan fikr yoki obrazni ta’kidlashga xizmat qiladi. So‘z yoki iboraning takroriy qo‘llanishi qahramonning ruhiy holatini, uning bir fikrga berilib qolganini yoki muallif uchun muhim bo‘lgan g‘oyani ifodalashi mumkin.

Badiiy asarda insonning ichki kechinmalari ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri bayon qilinmaydi. Ular metafora, tashbeh, takror, undov, qisqa gaplar, pauza va boshqa til vositalari orqali bilvosita ifodalanadi. Masalan, qahramonning gaplarining qisqa va uzilib-uzilib kelishi uning hayajonini yoki ruhiy iztirobini ko‘rsatishi mumkin. Aksincha, uzun va murakkab jumlalar uning ichki mulohazalari yoki ruhiy ikkilanishlarini ifodalashi mumkin.

Lingvopoetik san’atlar muallif individual uslubini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Har bir ijodkor badiiy tasvir vositalaridan o‘ziga xos tarzda foydalanadi. Ayrim ijodkorlarda metaforalar yetakchi bo‘lsa, boshqalarida xalqona iboralar, kinoyaviy ifodalar yoki sintaktik takrorlar ko‘proq uchrashi mumkin. Muallifning aynan qaysi lingvopoetik vositalarni tanlashi va ularni qanday kontekstda qo‘llashi uning individual poetik uslubini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, lingvopoetik san’atlar badiiy asarning estetik tabiatini belgilovchi muhim vositalardan biridir. Ularning asosiy vazifasi fikrni shunchaki yetkazish emas, balki uni obrazli, ta’sirchan va estetik jihatdan mukammal shaklda ifodalashdan iborat. Lingvopoetik san’atlar yordamida oddiy til birliklari badiiy kontekstda yangi ma’no va qo‘shimcha emotsional-ekspressiv xususiyat kasb etadi.

Lingvopoetik san’atlarning o‘ziga xosligi, avvalo, ularning kontekst bilan chambarchas bog‘liqligida, muallif individual uslubini shakllantirishida, qahramon ruhiyatini ochishida va milliy-madaniy mazmunni ifodalashida namoyon bo‘ladi. Shu sababli badiiy asarni lingvopoetik jihatdan o‘rganish nafaqat undagi badiiy san’atlarni aniqlash, balki, ularning qanday estetik maqsadga xizmat qilayotganini ochib berishni ham talab etadi. Ana shundagina badiiy matnning ichki poetik imkoniyatlari, muallifning so‘z qo‘llash mahorati va asarning estetik qimmati to‘laqonli namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳ.Асланова. Гадоий шеъриятида маънавий ва лафзий санъатлар. Услубий қўлланма. Самарқанд: СамДУ нашри, 2017. – 46 б.
2. Асаллаев А., Раҳмонов В., Мусурмонқулов Ф. Бадиий санъат жозибаси, - Т., 2005 йил.
3. Ҳайитметов А. “Адабиётдан туркийда биринчи назарий қўлланма”. Т:, 2002 й, №1, 71-б.
4. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати, “Янги аср авлоди”, Тошкент, 2008 й.
5. Ҳожиаҳмедов А. Шеър санъатларини биласизси? – Т., 1999 йил.

II - SHO‘BA: GLOBALLASHUV DAVRIDA DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI.

ТИЛ – ТАРБИЯ ВОСИТАСИ ВА УНИНГ ТУРЛАРИ

Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти профессори, и.ф.д
Ориф Мамаюнусович Пардаев
Самарқанд Давлат Универиситети магистри

Тарбия деганда инсоннинг маънавий, ахлоқий, ақлий, жисмоний ва ижтимоий жиҳатдан камол топишига мақсадли равишда таъсир кўрсатиш жараёни тушунилади. Тарбия асосан оилада, таълим муассасаларида, жамият ва меҳнат жамоасидаги маънавий муҳитда шаклланади.

Тарбиянинг асосий мазмунини очиб бериш учун қайси йўналишларни қамраб олишига эътиборни қаратиш лозим бўлади. Чунки тарбия битта сўз билан ифодалансада унинг кўлами жуда кенг. Шу туфайли тарбиянинг мазмунини тўлиқ очиш учун қуйидаги йўналишларга аҳамият бериш лозим бўлади. Шуни инобатга олиш лозимки, тарбиянинг барча жараёнларида тил асосий восита ҳисобланади. Ўзбекона тарбияда албатта ўзбек тили асосий ўринни эгаллайди.

Тарбиянинг асосий йўналишларига эътиборни қаратамиз. Булар:

Биинчидан, **ақлий тарбия** ҳисобланади. Бунда билим ва тафаккурни ривожлантиришга эътибор қаратилади. Бунда тилнинг ўрни беқиёс. Билим қоғозда ҳам, бошқа воситаларда ҳам тил билан ифодаланади. Буни асосан гапириб бериш ва ўқиш билан эгаллаш мумкин. Хуллас, ақлий тарбияда асосий восита тил бўлиб, бу билим олишга, мустақил фикрлашни шакллантиришга, дунёқарашни кенгайтиришга ҳам муносиб ҳисса қўшади.

Иккинчидан, **ахлоқий тарбия** ҳам муҳим йўналиш ҳисобланади. Ушбу йўналишда юксак хулқ-атворни шакллантириш учун ҳалоллик, адолат, виждон, одоб, масъулият ва инсонпарварлик одатлари устувор ўринга қўйишни тақозо қилади. Бундай одатларни шакллантириш учун ҳам асосий восита тил бўлиб ҳисобланади. Шу туфйли ақлий тарбиянинг шаклланишида ҳам тилга катта эътибор қаратишни тақозо қилади.

Учинчидан, **маънавий тарбияда** асосий эътибор маънавий қадриятларни сингдириш ҳам муҳим ҳисобланади. Ушбу тарбия орқали миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат, маънавий етукликни тарбиялаш жараёнида ҳам ўзбек тили муҳим роль ўйнашини алоҳида таъкидлаш лозим, деб ҳисоблаймиз. Одамлар ўртасида маънавий тарбиянинг

даражаси тилда ўз аксини топади. Тарбияли одам тилига бемани гаплар келмайди.

Тўртинчидан, **жисмоний тарбия** орқали соғлом ва бақувват инсонни тарбиялашга эришилади. Бундай тарбияли инсонлар соғлом турмуш тарзи, жисмоний чиниқиш ва спортга қизиқишни ривожлантиришга интилиб яшайди. Жисмоний тарбия натижасида инсон соғлом бўлиб улғояди. Соғлом инсон ҳам ҳеч маҳал ёмон гап билан муомала қилмайди. Муомала воситаси тил бўлганлиги тафайли, бундай инсонлардан қўпол иборалар ҳам чиқмайди ва уни муомала жараёнида ишлатилмайди.

Бешинчидан, **меҳнат тарбиясисининг** асосий ҳосиласи меҳнатсеварлик ва масъулиятни ҳис қилган ҳолда, уни ошириб бориш билан белгиланади. Инсоннинг меҳнатсеварлиги, касбга ҳурмати, ўз ишига масъулият билан ёндошиши ва қатъий интизомни шакллантириши унинг меҳнат тарбияси даражасига боғлиқ. Бундай тарбиянинг сингдирилишида ҳам тилнинг роли ва аҳамияти катта. Ўзбек миллати учун ўзбек тили унинг қадрияти ҳисобланади. Қадриятни асратан инсонларнинг қадри биланд бўлади. Шу тфайли тилга эътибор катта аҳамиятга эга.

Олтинчидан, **эстетик тарбия** орқали инсон гўзалликни англаш ва қадрлаш маданиятига ҳам эга бўлади. Инсоннинг гўзалликни ҳис қилиши, санъатга иштиёқи, маданиятли бўлиб, табиатни қадрлаш каби фазилатлар эстетик тарбия орқали шаклланади. Инсоннинг замонавий талабларга мос ҳолда гўзал манзара яратиб, бундай шароитда яшашига кўникиш ҳам тил орқали сингдирилади. Шу туфайли тил ушбу жараёнда ҳам асосий восита ҳисобланади.

Еттиинчидан, **экологик тарбия** инсоннинг табиатга эҳтиёткорлик билан муносабатни шакллантиришида намоён бўлади. Мазкур тарбия инсонни табиатни асрашга, атроф-муҳитга масъулиятли муносабатни шакллантиришга даъват этади. Ҳозирги пайтда экологик тарбиянинг аҳамияти кундан-кунга ортиб бормоқда. Шу туфайли экологик тарбиянинг мазмунини кенгроқ очиб бериша ҳаракат қиламиз.

Экологик тарбия деганда, инсонда табиатга онгли ва масъулиятли муносабатни шакллантириш, атроф-муҳитни асраш ва табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш кўникмаларини ривожлантиришга қаратилган тарбия жараёни тушунилади. Бунга батафсил эришиш учун экологик билимларни шакллантириш лозим, яъни табиат, экотизимлар, иқлим, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ҳақида билим олишни йўлга қўйиш керак бўлади.

Шунингдек, табиатга эҳтиёткорона муносабатда бўлишликни тарбиялаш ҳам керак. Чунки ушбу тарбия билан ер, сув, ҳаво, ўсимлик ва ҳайвонат оламини асрашга ўргатиш таъминланади. Бу эса ўз навбатида,

экологик маданиятни ривожлантиришни, яъни чиқиндиларни тўғри ташлаш, сув ва электр энергиясини тежаш каби кундалик одатларни тўғри шакллантириш кўникмасига эга бўлишни тақозо қилади.

Экологик тарбияни ривожлантиришда экологик масъулиятни ошириш, инсон фаолиятининг табиатга таъсирини англаш ва унинг оқибатлари учун масъулият ҳиссини кучайтириш ҳам лозим бўлади. Бунда амалий кўникмаларни шакллантириш, яъни ҳудудларни ободонлаштириш, кўчат экиш, тозаликни сақлаш ва экологик тадбирларда иштирок этиш масаларига ҳам аҳамият бериш лозим бўлади. Буларнинг барчаси экологик тафаккурни ривожлантириш, яъни табиат ва жамият ўртасидаги узвий боғлиқликни тушунишни тақозо қилади.

Хулоса қилиб айтганда, экологик тарбиянинг асосий мақсади табиатни фақат фойдаланиш манбаи сифатида эмас, балки асраб-авайлаш зарур бўлган умумий бойлик сифатида қабул қиладиган, экологик маданиятли ва масъулиятли шахсни тарбиялашга қаратилган бўлиши керак экан. Агар эътибор бериладиган бўлса, барча жараёнлада тил муҳим восита сифатида иштирок этади.

Саккизинчидан, **ҳуқуқий тарбия** ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни ҳам оширишга эришилади. Ҳуқуқий онг ва маданиятни ошириш орқали қонунларга ҳурмат, ҳуқуқ ва мажбуриятларни англаш билан боғлиқ руҳият шаклланади. Ҳуқуқий тарбиянинг мазмунига ҳам кенгоқ тўхталишни мақсадга мувофиқ, деб топдик. Ҳуқуқий тарбия деганда, инсонларда қонун ва ҳуқуқий меъёрларга ҳурматни шакллантириш, ўз ҳуқуқ ва мажбуриятларини билиш ҳамда уларга риоя қилиш маданиятини ривожлантиришга қаратилган тарбия жараёнининг шаклланиши тушунилади.

Ушбу тарбиянинг асосий мазмуни инсонларга Конституция, қонунлар ва ҳуқуқий меъёрлар ҳақида тушунча бериш орқали ҳуқуқий билим бериш билан боғликдир. Бунда ҳар бир инсон ўз ҳуқуқ ва мажбуриятларни англатиш ҳамда ҳар бир шахснинг ҳуқуқлари билан бирга бурчларининг ҳам мавжудлигини тушунтиришни тақозо қилади. Бундаги муҳим жиҳатлардан бири ҳар бир инсон ўзининг қонунга ҳурматини шакллантириш, яъни қонунларга риоя қилишни шахсий масъулият сифатида ўзини тарбиялаши лозим бўлади.

Одатда, ҳуқуқий маданиятни юксалтириш, бевосита ҳуқуқий масалаларда тўғри қарор қабул қилиш ва қонуний йўл тутиш кўникмасини шакллантириш орқали амалга оширилади. Ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ёшларда қонунбузарликнинг оқибатлари ҳақида тушунча ҳосил қилиш масаласига ҳам эътиборни қаратиш лозимдир. Бунда фуқаролик масъулиятини

ривожлантириш, жамият ва давлат олдидаги бурчларни англашга ўргатишга эришиш ҳам лозим бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, ҳуқуқий тарбиянинг асосий мақсади, бевосита қонунни биладиган, ўз ҳуқуқ ва мажбуриятларини англайдиган, қонунларга ҳурмат билан муносабатда бўладиган ва жамият олдида масъулият ҳисси юқори бўлган шахсни тарбиялашдан иборатдир. Бунда ҳам барча жараёнларга эътибор қаратиладиган бўлса, ҳамма ҳолатда ҳуқуқий тарбиянинг сингдирилишида ҳам, бошқа йўналилар қатори тилнинг аҳамияти катта.Тил билан тушунтирилади ва инсонларнинг ушбу масала бўйича эришилган ютуқларини тили орқали билиб олинади ва уларнинг билим даражасига ташхис қўйилади.

Тўққизинчидан, **иқтисодий тарбия** ҳақида гап кетганда тежамкорлик ва иқтисодий саводхонлик масаласи устуворликни ташкил қилади. Бунинг учун ҳар бир инсон тежамкорлик, молиявий масъулият ва иқтисодий тафаккурни ривожлантириши лозим. Бунинг учун иқтисодий тарбиянинг мазмунига эътиборни қаратишни мақсадга мувофиқ, деб топдик. Иқтисодий тарбия деганда, инсонда иқтисодий билим, кўникма ва малакаларни шакллантириш, меҳнатга масъулиятли муносабат, тежамкорлик ва мавжуд ресурслардан оқилона фойдаланиш маданиятини ривожлантириш жараёни тушунилади. Иқтисодий тарбиянинг асосий мазмуни бевосита иқтисодий билимларни шакллантиришдан бошланади. Бунда иқтисодиёт, бозор, талаб ва таклиф, даромад ва харажат каби тушунчаларни ўргатишни ҳам тақозо қилади.

Иқтисодий тарбиянинг муҳим йўналишларидан бири инсонда меҳнатсеварликни тарбиялашдан иборатдир. Бунда меҳнатнинг инсон ва жамият ҳаётидаги аҳамиятини англаш муҳимдир. Агар шу қадрият инсонга сингса, ҳар бир инсон меҳнатнинг қадрини билиб ммеҳнат қилади. Шу билан бирга ушбу тарбия тизимига тежамкорликни шакллантириш масаласининг ҳам киришини эътироф этиш лозим. Кимда иқтисодий тарбия тўғри шаклланса, бу пулни, вақтни, электр энергиясини, сувни ва бошқа ресурслардан оқилона фойдаланишни ўрганади ва бошқаларни ҳам шундай татибга ўргатишни ўзининг бурча, деб билади.

Иқтисодий тарбиянинг таркибида молиявий саводхонликни ошириш масаласи ҳам муҳим ўрин тутади. Бунда даромад ва харажатларни режалаштириш, маблағни тўғри сарфлаш ва жамғариш кўникмаларини ривожлантириш маслалари ётади. Бу жараённинг давоми сифатида мулкка масъулиятли муносабатни тарбиялаш масаласи ҳам устуворликни талаб қилади. Бунда шахсий, оилавий ва жамоат мулкини асрашга ўргатишдек масъулиятли вазифа туради.

Таҳлил қилинаётган йўналишлардан бири тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантириш билан боғлиқдир. Бунда ташаббускорлик, мустақил қарор қабул қилиш ва янгиликка интилишни қўллаб-қувватлаш масаласи устуворликни талаб лади. Ҳаммаси бираликда иқтисодий масъулиятни кучайтириш, яъни қабул қилинган қарорларнинг шахс, оила ва жамият иқтисодиётига таъсирини англашни талаб қилади. Хулоса қилиб айтганда, иқтисодий тарбиянинг пировард мақсади, иқтисодий жиҳатдан билимли, тежамкор, меҳнатсевар, ташаббускор ва ресурслардан оқилона фойдаланадиган шахсни шакллантиришдан иборатдир.

Ўнинчидан, **ватанпарварлик тарбияси** Ватанга садоқат ва фидойиликни тарбиялаш билан бирга Ватанга муҳаббат, фуқаролик бурчи ва юрт тараққиётига дахлдорлик ҳиссини шакллантириш лозим бўлади.

Булардан ҳам кўриниб турибдики, тарбиянинг бош мақсади инсонни билимли, ахлоқли, маънавий етук, жисмонан соғлом, меҳнатсевар, ватанпарвар ва жамият учун фойдали инсон қилиб шакллантиришдан иборатдир. Қисқача хулоса қилиб айтадиган бўлсак, тарбиянинг мукаммал бўлиши учун унинг занжири шаклланган бўлиши лозим. Бу қуйидаги кетма-кетликни ўз ичига олади:

Тарбия → **мақсад** → **мазмун** → **вазифалар** → **тамойиллар** →
→ **методлар** → **натижа ;**

Булардан кўриниб турибдики, тарбиянинг якуний натижасида ҳам тил маълум ўринга эга. Тил орқали трбияланади, ва тарбия натижасида мустақил фикрлайдиган, ахлоқан пок, маънавий етук, билимли, меҳнатсевар, ватанпарвар ва жамиятга фойдали шахсни шакллантиришдан иборат бўлади.

ОСНОВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ФОНЕТИКИ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ

DOI 10.31651/2524-2660-2020-4-224-229
ORCID 0000-0002-4928-0280

Байтуова Айгуль Назировна
кандидат филологических наук, доцент кафедры русского языка и литературы Международного казахско-турецкого университета им.Х.А.Ясави, Туркестан, Казахстан.

Baituova Aigul Nazirovna
Ph.D. of the Department of Department of Russian Language and Literature Of Khoja Akhmet Yassawi International Kazakh-Turkish University, Turkestan, Kazakhstan,
e-mail: baituaigul.ru

Аннотация: Данная статья посвящена сопоставительному исследованию трех аспектов развития казахского, тюркского и узбекского языков. В статье рассматривается важная и сложная научно-теоретическая проблема изучения фонетической структуры отдельных письменных языков - тюркского, казахского и узбекского. Фонетический строй любого языка формируется согласованными и тесно взаимосвязанными фонологическими и фонетическими явлениями. Эти правила и фиксированные фонологические нормы формируют фонологический строй данного языка, контролируют его дальнейшее развитие и определяют его языковые особенности. Сопоставление этих особенностей между языками и с состоянием языка-источника выявляет эволюционное развитие этих явлений и указывает на закономерные сдвиги в ту или иную сторону. Изучение фонетического строя близкородственных языков затрагивает многие ранее не изученные и неизученные фонологические явления; их сравнительное исследование представляет несомненный научный и практический интерес как для тюркологии в целом, так и для каждого исследуемого языка. Для достижения целей и задач данного исследования использовались сравнительно-исторические методы. В то же время использовались и сравнительно-описательные методы. В этом случае проводится не только простое фактическое сопоставление, но и делается попытка выявить глубинные причины возникновения всевозможных фонетико-фонологических инноваций и закономерностей с учетом прошлых условий и последующих этапов эволюции.

Ключевые слова: фонетическая структура, тюркское языкознание, фонетика, языковые особенности, тюркская фонетика.

Abstract: This article is devoted to a comparative study of three aspects of the development of the Kazakh, Turkic and Uzbek languages. The article deals with an important and complex scientific and theoretical problem of studying the phonetic structure of individual written languages - Turkic, Kazakh and Uzbek. The phonetic structure of any language is formed by coordinated and closely interrelated phonological and phonetic phenomena. These rules and fixed phonological norms form the phonological structure of a given language, control its further development and determine its linguistic features. The comparison of these features between languages and with the state of the source language reveals the evolutionary development of these phenomena and indicates regular shifts in one direction or another. The study of the phonetic structure of closely related languages affects many previously unexplored and unexplored phonological phenomena; their comparative study is of undoubted scientific and practical interest both for Turkology as a whole and for each language under study. Comparative historical methods were used to achieve the goals and objectives of this study. At the same time, comparative descriptive methods were also used. In this case, not only a simple factual comparison is carried out, but also an attempt is made to identify the underlying causes of all kinds of phonetic and phonological innovations and patterns, taking into account past conditions and subsequent stages of evolution.

Keywords: phonetic structure, Turkic linguistics, phonetics, linguistic features, Turkic phonetics.

Аннотация: В данной статье рассматриваются формирование, семантические особенности, классификация и роль терминов, используемых в области ономастики в научном контексте. Анализируется значение ономастической терминологии в лингвистике, формирование терминов на основе возможностей национального языка, их использование в одном значении и совершенствование терминологической системы.

Ключевые слова: ономастика, ономастическая терминология, термин, антропоним, топоним, гидроним, этноним, ойконим, ороним, номинация.

Abstract: This article examines the formation, semantic characteristics, classification, and role in scholarly discourse of terms used in the field of onomastics. It analyzes the significance of onomastic terminology within linguistics, the formation of terms based on the resources of the national language, the consistent application of these terms, and issues related to the refinement of the terminological system.

Keywords: onomastics, onomastic terminology, term, anthroponym, toponym, hydronym, ethnonym, oikonym, oronym, nomination.O’zbek onomastikasi bo’yicha ilmiy izlanishlarning paydo bo’la boshlashi asta-sekin onomastik tahlil tilining ham yuzaga kelishi va shakllana boshlashiga sabab bo’ldi. Natijada o’zbek tilshunosligida bu sohaning tushunchalari, tadqiq usullari, atoqli otlarning lisoniy xususiyatlarini ifoda qiluvchi ilmiy terminlar paydo bo’la boshladi.

O’tgan asrning 30-40-yillarida o’zbek ilmiy terminologiyasini to’plash, me’yorlash, tadqiq qilishning ilmiy me’yorlarini ishlab chiqishga harakat qilinganini ham ko’ramiz. S.Nazirov[1], U.Tursunov,[2] S.Ibrohimov[3], Oybek[4], Qori Niyozov[5], E.Musin[6], M.B.Solihov[7], N.Alimuhamedov[8] yozgan risola va maqolalar ushbu harakatning yorqin misolidir.

Termin muayyan fan, texnika yoki kasb-hunar sohasiga oid tushunchani aniq ifodalovchi til birligidir. Terminning asosiy vazifasi ilmiy muloqot jarayonida tushunchani aniq va bir ma’noli ifodalashdan iborat.

Terminologiya muayyan fan yoki sohada qo’llaniladigan maxsus tushunchalarni ifodalovchi terminlar majmuasidir. Onomastik terminologiya esa onomastikada o’rganiladigan ob’ektlar, jarayonlar va munosabatlarni ifodalovchi maxsus atamalar tizimini tashkil etadi.

Onomastik terminologiyaning shakllanishida bir qator muammolar mavjud:

1. Ayrim terminlarning turli tadqiqotlarda turlicha talqin qilinishi. Bir tushuncha uchun bir nechta atamaning qo’llanishi yoki, aksincha, bitta terminning turli ma’nolarda ishlatilishi terminologik noaniqlikni yuzaga keltiradi.

2. Xorijiy tillardan o’zlashtirilgan terminlarni milliy tilda ifodalash masalasidir. Xalqaro ilmiy muloqotda qo’llaniladigan ko’plab onomastik terminlar yunon va lotin tillari elementlari asosida shakllangan. Bunday terminlarni o’zbek tilida qo’llashda ularning ilmiy mazmunini saqlash bilan birga, tilning ichki me’yorlariga moslashtirish muhim.

5. Terminlarni imlo va grammatik jihatdan me’yorlashtirishdir. Ilmiy adabiyotlarda bir terminning turlicha yozilishi uning qo’llanish doirasi va tushunilishiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin.

Terminologik tizimning samaradorligi, avvalo, undagi terminlarning aniqligi va bir ma’noliligi bilan belgilanadi. SHu nuqtai nazardan onomastik terminlarni me’yorlashtirish muhim ahamiyatga ega.

---

[1] Назиров С. Истилоҳ масаласи // Тил - имло масалалари. - Тошкент-Самарқанд, 1929.

[2] Турсунов У. Ўзбек терминологияси масалалари. - Тошкент, 1933; Ўша муаллиф. Терминология масалалари. - Тошкент, 1938; Ўша муаллиф. Тил - терминологияда буржуазия интилишларига қарши // Науч. работы УзНИИИС. Т.I. Вып.1. - Ташкент, 1933.

[3] Иброҳимов С. Ўзбек тили терминологияси масаласига доир // Қурилиш. - 1931. - 2-сон; Ўша муаллиф. Тил ва термин масалалари // Қурилиш. - 1931. -3-сон.

[4] Ойбек. Фалсафа терминлари устида бир қанча сўз // Китоб ва инқилоб. - 1933. - 1-сон.

[5] Кары-Ниязов Т.Н. История создания узбекской математической терминологии // Материалы к первому съезду ученых Узбекистана. - Ташкент, 1937.

[6] Мусин Э. Фалсафа терминлари // Китоб ва инқилоб. - 1932. - 2-сон.

[7] Солиҳов М.Б. Адабий тил ва истилоҳ // Тил - имло масалалари. - Тошкент-Самарқанд, 1929.

[8] Алимуҳамедов Н. Тил ва атамачилик тўғрисида // Китоб ва инқилоб. - 1932. - 3-сон.

Me’yorlashtirish jarayonida quyidagi masalalarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1) har bir terminning aniq ilmiy ta’rifini belgilash;
2) bir xil tushuncha uchun ortiqcha terminlardan foydalanishni cheklash;
3) terminlarning imloviy shaklini me’yorlashtirish;
4) milliy va xalqaro terminlarning nisbatini aniqlash;
5) yangi terminlarni yaratishda o’zbek tilining so’z yasash imkoniyatlaridan foydalanish;
6) terminlarni sohaviy lug’at va ma’lumotnomalarda bir xil shaklda berish.

Onomastik terminologiyadagi asosiy muammolardan biri terminologik variantdorlikdir. Ayrim terminlar ilmiy adabiyotlarda turli shakllarda uchrashi mumkin. Bunday holat terminlarning o’zlashtirilish tarixi, turli tillar ta’siri, tarjima xususiyatlari va mualliflarning individual termin tanlash tamoyillari bilan bog’liq. Xalqaro onomastik terminlarni o’zbek tiliga olib kirishda ularni asl shaklida saqlash yoki milliy tilning fonetik va morfologik xususiyatlariga moslashtirish masalasi yuzaga keladi.

Terminologik variantdorlikning me’yorlashtirilmagan holda uzoq vaqt saqlanishi ilmiy terminologiyaning barqarorligiga ta’sir qilishi mumkin. SHuning uchun muayyan terminning bir nechta varianti mavjud bo’lsa, ularning etimologiyasi, ilmiy adabiyotlardagi qo’llanish chastotasi, tushunchani ifodalash darajasi va o’zbek tili me’yorlariga muvofiqligi tahlil qilinishi zarur.

Bugungi kunda onomastik terminologiyani rivojlantirishda terminlarning mazmunini aniqlash, ularni me’yorlashtirish, ilmiy adabiyotlarda bir xil qo’llash va o’zbek tilining milliy imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim vazifalardan hisoblanadi. Onomastik terminologiyaning izchil tizimga keltirilishi nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy onomastik tadqiqotlar, ta’lim jarayoni va milliy tilning ilmiy-terminologik bazasini takomillashtirish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Begmatov E. Nomlar va odamlar. – T.: Fan, 1966.
2. Begmatov E. Ismlarning sirli olami. – Toshkent: O’zbekiston, 2014.
3. Borovkov A.K. Leksika Sredneaziatskogo tefsira XII-XIII vv. – M.: IVL, 1962.
4. Nafasov T. O’zbekiston toponimlarining izohli lug’ati. – Toshkent.1988.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 1-jild (Toshkent: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-y.
6. Sevortyan E.V. Etimologicheskiy slovar tyurkskix yazыkov. – M.: Nauka, 1974.

GLOBALLASHUV DAVRIDA DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI: MUAMMOLAR VA STRATEGIK YECHIMLAR

Ibatova Amira Shavkatovna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti "Xorijiy tillar" kafedrasi (PhD), dotsenti
Email id:
amiraibatova1911@gmail.com
tel.: (91)7001901

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada shiddatli globallashuv, raqamlashtirish va axborot xurujlari davrida o'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyini oshirish, uni zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirish va rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Maqolada global madaniy va til simbiozlari sharoitida milliy til sofligini saqlash, raqamli makonda o'zbek tili nufuzini yuksaltirish, sohaviy terminologiyani tartibga solish hamda milliy til siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari va strategik yechimlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, davlat tili, o'zbek tili, raqamlashtirish, til sofligi, varvarizm, axborot makoni, til korpusi, sun'iy intellekt, til siyosati.

Аннотация: В данной научной статье с научной и теоретической точки зрения анализируются вопросы повышения статуса узбекского языка как государственного языка, его адаптации к современным потребностям и развития в эпоху интенсивной глобализации, цифровизации и информационных атак. В статье освещаются основные направления и стратегические решения по сохранению чистоты национального языка в условиях глобального культурного и языкового симбиоза, повышению престижа узбекского языка в цифровом пространстве, регулированию отраслевой терминологии и совершенствованию национальной языковой политики.

Ключевые слова: глобализация, государственный язык, узбекский язык, цифровизация, чистота языка, варварство, информационное пространство, языковой корпус, искусственный интеллект, языковая политика.

Abstract: This article analyzes from a scientific and theoretical perspective issues regarding the elevation of the status of the Uzbek language as the state language, its adaptation to modern needs, and its development in an era of intense globalization, digitalization, and information attacks. The article highlights key directions and strategic decisions concerning the preservation of the national

language's purity amidst global cultural and linguistic symbiosis, the enhancement of the Uzbek language's prestige in the digital space, the regulation of specialized terminology, and the refinement of national language policy.

Keywords: globalization, state language, Uzbek language, digitalization, language purity, barbarisms, information space, language corpus, artificial intelligence, language policy.

Globallashuv davrida davlat tilini rivojlantirish – bu shunchaki madaniyatni saqlash masalasi emas, balki milliy o‘zlik, milliy xavfsizlik va davlat mustaqilligining poydevori hisoblanadi. Axborot va texnologiyalar tezkor almashayotgan bugungi dunyoda davlat tili bir tomondan xalqaro tillarning kuchli ta’siri va bosimiga uchrayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan zamonaviy taraqqiyotga moslashish ehtiyoji qarshisida turibdi. XXI asr – axborot texnologiyalari, axborot almashinuvi shiddatining ortishi hamda dunyo xalqlarining madaniy va iqtisodiy jihatdan jadal integratsiyalashuvi bilan tavsiflanadigan globallashuv davridir. Globallashuv jarayonlari bir tomondan xalqaro hamkorlik, ilm-fan va texnika yutuqlaridan teng foydalanish imkoniyatini yaratsa, ikkinchi tomondan, milliy madaniyatlar, qadriyatlar va davlat tillarining o‘ziga xosligiga muayyan tahdidlarni vujudga keltirmoqda.

Bugungi kunda jahon xaritasida mavjud 7 (yetti) mingdan ortiq tillarning salmoqli qismi yo‘qolib ketish xavfi ostida turibdi. Xalqaro muloqot tili sifatida muayyan dunyo tillarining (xususan, ingliz tili) mutlaq ustunlik kasb etishi milliy tillarning iste’mol doirasini, ayniqsa, ilm-fan, yuqori texnologiyalar va raqamli muhitda toraytirib qo‘ymoqda. Shu bois, globallashuv sharoitida o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi o‘rnini mustahkamlash, uning lug‘at tarkibini zamonaviy tushunchalar bilan boyitish va raqamli infratuzilmaga to‘laqonli integratsiya qilish dolzarb davlat va milliy ahamiyatga ega masaladir. Globallashuv va internatsionalizatsiya jarayonlari davlat tilining rivojlanishiga ikki yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadi:

Ijobiy imkoniyatlar: 1.Til resurslarining globallashuvi: Internet va raqamli platformalar orqali o‘zbek tilidagi adabiyotlar, ilmiy manbalar va madaniy merosni dunyo miqyosida targ‘ib qilish imkoniyati kengaydi. 2.Terminologiyaning boyishi: Xalqaro ilmiy va texnik atamalarning kirib kelishi hisobiga tilning lug‘at tarkibi yangi tushuncha va iboralar bilan boyib bormoqda. 3.Mashinali tarjima va texnologik qulayliklar: Sun’iy intellekt va avtomatik tarjima dasturlari o‘zbek tilidagi matnlarni dunyoning boshqa tillariga tezkor o‘girish va eksport qilish imkonini yaratmoqda.

Mavjud tahdidlar va xavflar: 1.Varvarizm va varvarlashuv (tilning ifloslanishi): Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va kundalik muloqotda chet tillaridan asossiz ravishda so‘z o‘zlashtirish, milliy muqobili bo‘lgan

atamalarning o‘rniga inglizcha va ruscha iboralarni qo‘llash holatlarining ko‘payishi. 2.Peshona (kiber) makonidagi tanqislik: Internetda o‘zbek tilidagi sifatli ilmiy, ma’rifiy va texnik kontentning yetarli emasligi.

Hozirgi bosqichda o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi to‘laqonli amaliyotini ta’minlashda quyidagi ilmiy-amaliy muammolar ko‘zga tashlanadi:

Sohaviy terminologiya va unifikatsiya muammosi: Turli sohalarda (tibbiyot, yurisprudensiya, moliya, axborot texnologiyalari) atamalarning yagona standartga keltirilmagani. Bir atamaning bir necha xil tarjimada va talqinda qo‘llanishi rasmiy ish yuritishda va ta’limda chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda. **Raqamli lingvistika va milliy korpusning yetarsizligi:** Tilning zamonaviy kompyuter va sun’iy intellekt tizimlari bilan integratsiyalashuv darajasi yetarli emas. O‘zbek tilining milliy elektron korpusi, grammatik va semantik bazalari mukammal darajaga yetkazilmagan. **Reklama va tashqi yozuvlardagi savodsizlik:** Shahar va tumanlar infratuzilmasida, reklama bannerlari hamda peshlavhalarda “Davlat tili haqida”gi Qonun talablarining buzilishi va imlo xatolarining ommaviylashuvi. Mavjud muammolarni hal etish va globallashuv xatarlariga qarshi samarali til siyosatini yuritish uchun quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish lozim:

A). Tilning raqamli muhitdagi o‘rnini mustahkamlash (Raqamli lingvistika): O‘zbek tilining Katta Til Modeli (LLM) va AI tizimlarini yaratish: ChatGPT, Google Translate, Apple Siri kabi xalqaro sun’iy intellekt va ovozli yordamchi tizimlarda o‘zbek tilining sifatli va grammatik to‘g‘ri ishlashini ta’minlash uchun davlat grantlari va ilmiy loyihalarni ajratish; o‘zbek adabiy tilining milliy korpusini yaratish; tilshunoslik, adabiyotiyot, huquq, tibbiyot va boshqa sohalarga oid elektron matnlar bazasini boyitish, matnlarning avtomatik sintaktik va semantik tahlil dasturlarini ishlab chiqish.

B). Terminologik faoliyatni tizimlashtirish: Atamalar komissiyasi va Davlat tilini rivojlantirish departamenti faoliyatini yanada jadallashtirish; xalqaro atamalarning milliy muqobillarini ilmiy asosda ishlab chiqish, ularni maxsus elektron lug‘at va platformalar (masalan, *atamalar.uz*) orqali ochiq foydalanishga topshirish.

V). Huquqiy va ijtimoiy nazoratni kuchaytirish: Rasmiy hujjatlar, qonun hujjatlari va davlat idoralari ish yurituvida adabiy til mezonlariga hamda imlo qoidalariga qat’iy rioya etilishini ta’minlash; ommaviy axborot vositalari, internet nashrlari va ijtimoiy tarmoq faollari o‘rtasida til madaniyati va savodxonligini oshirish bo‘yicha targ‘ibot ishlarini kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv davrida davlat tilini rivojlantirish – bu shunchaki tilshunoslik yoki filologiya masalasi emas, balki mamlakatning milliy xavfsizligi, ma’naviy suvereniteti va madaniy o‘zligini asrab qolish bilan bog‘liq strategik vazifadir. Muammolarni bartaraf etishda ma’muriy bosim yoki sun’iy

cheklovlar kutilgan natijani bermaydi. Bosh strategik yechim – davlat tilini ilm-fan, texnologiya, biznes va zamonaviy madaniyat tiliga aylantirishdir. Til raqamli makonda qanchalik faol, texnologik jihatdan moslashuvchan va kontent jihatidan boy bo‘lsa, u globallashuv shamollarida o‘zligini yo‘qotmaydi, aksincha, yangi bosqichga ko‘tariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni.
3. Begmatov E. O‘zbek tili leksikologiyasi va terminologiyasi masalalari. – Toshkent: Fan, 2012.
4. Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: Yozuvchi, 2006.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2010.

DEVELOPMENT OF THE STATE LANGUAGE IN THE ERA OF GLOBALIZATION

Abduraximov Suxbat Abdugafforovich
PhD, Department of Language Teaching – 1
Samarkand Institute of Economics and Service
Email: *suhbatabduraximov@gmail.com*

Abstract: Globalization has a significant impact on the development and use of state languages. International communication, migration, digital technologies, education, and trade create both opportunities and challenges for national languages. This article examines the development of the state language in the context of globalization, focusing on language policy, education, terminology, digitalization, multilingualism, and cultural identity. The study shows that the development of a state language depends not only on its legal status but also on its use in education, science, technology, public administration, and digital communication. The article argues that globalization should not be considered only a threat to state languages. Effective language policy, modern educational resources, scientific terminology, and digital technologies can strengthen the position of the state language while maintaining opportunities for international communication. The study concludes that a successful state language policy should combine national linguistic development with multilingualism and international cooperation.

Keywords: state language, globalization, language policy, education, multilingualism, digitalization, terminology, linguistic identity.

Introduction. Globalization has significantly changed the way languages function and develop. International communication, migration, education, scientific cooperation, digital technologies, and economic relations have created increasingly multilingual environments. As a result, the development of the state language has become an important educational, cultural, social, and technological issue. Language plays an important role in public administration, education, science, culture, and national identity. However, its development depends not only on legal status but also on effective language policy and practical use. Spolsky (2004) emphasizes the importance of language practices, beliefs, and management, while Kaplan and Baldauf (1997) highlight the role of language planning in strengthening the status, resources, and educational functions of a language. The growing influence of international languages, particularly English, also affects the development of state languages. Crystal (2003) describes the global role of English in science, technology, business, and education, while Phillipson (1992) discusses the linguistic inequalities that may arise from its dominance. At the same time, globalization can provide new opportunities for languages through digital technologies, education, and international cooperation (Blommaert, 2010). Education and digitalization are especially important for maintaining the functional capacity of the state language. The World Bank (2021) emphasizes the importance of appropriate language-of-instruction policies for educational quality and inclusion, while UNESCO highlights the role of digital resources in supporting linguistic diversity. Therefore, this article examines the main factors influencing the development of the state language in the era of globalization, focusing on language policy, education, terminology, digitalization, multilingualism, and linguistic identity

Literature Review The development of state languages in the context of globalization has been widely studied in language policy, sociolinguistics, education, and linguistic diversity. Spolsky (2004) argues that language development depends not only on legal status but also on language practices, beliefs, and management. Kaplan and Baldauf (1997) similarly emphasize the importance of status planning, corpus planning, acquisition planning, and language-in-education planning.

Globalization has increased the influence of international languages, particularly English. Crystal (2003) highlights its growing role in science, education, technology, and business, while Phillipson (1992) points to possible linguistic inequalities associated with its dominance. Blommaert (2010) emphasizes that globalization has created increasingly multilingual environments in which languages serve different social and professional functions. Education and digitalization are

also important for state language development. The World Bank (2021) stresses the importance of effective language-of-instruction policies, while the Council of Europe supports multilingual education and intercultural communication. UNESCO highlights the role of digital technologies in supporting linguistic diversity and language development. Overall, the literature shows that sustainable state language development requires effective language policy, quality education, scientific terminology, digital resources, multilingualism, and cultural support. Legal recognition alone is insufficient; the state language must also function effectively in modern scientific, educational, professional, and digital environments.

Strategies for the Development of the State Language. Based on the findings of previous studies, the development of the state language in the era of globalization should focus on strengthening its functional capacity in modern society. First, greater attention should be given to the use of the state language in education, particularly in higher education and scientific research. The development of modern textbooks, teaching materials, and academic resources can strengthen its position as a language of knowledge. Second, scientific and professional terminology should be systematically developed. As new concepts emerge in science, technology, medicine, economics, and information technology, appropriate terminology should be created, standardized, and introduced into educational and professional practice. This would enable the state language to function more effectively in specialized fields (Kaplan & Baldauf, 1997).

Third, digitalization should become an important component of language development. Electronic dictionaries, digital libraries, online educational platforms, language corpora, machine translation, speech recognition, and artificial intelligence tools can expand the presence of the state language in the digital environment. This is particularly important for younger generations, whose communication increasingly takes place through digital technologies (UNESCO, 2022). Fourth, the development of the state language should be supported through modern cultural and media content. Literature, films, television, social media, podcasts, and other forms of digital content can increase the everyday use and social relevance of the language. Such resources can also contribute to intergenerational language transmission and cultural identity (Fishman, 1991). Finally, state language development should be combined with multilingual education. Foreign languages provide access to international science, education, technology, and employment, while the state language maintains its national, cultural, and institutional functions. Therefore, the objective should not be to limit foreign languages but to establish a balanced multilingual environment in which the state language remains fully functional while citizens can also participate effectively in international communication. Thus, the findings of previous research provide a clear basis for an integrated approach to state

language development. Effective language policy, quality education, scientific terminology, digital technologies, cultural production, and balanced multilingualism should be developed together. Such an approach can strengthen the position of the state language while enabling it to adapt successfully to the linguistic, technological, and social changes associated with globalization.

Conclusion The development of the state language in the era of globalization is influenced by education, science, technology, culture, economics, and international communication. Although the growing role of international languages creates certain challenges, globalization also provides new opportunities for the modernization and development of the state language. The study shows that official status alone is not sufficient for sustainable language development. The state language should be actively used in education, science, public administration, media, culture, professional communication, and digital technologies. Effective language policy, language planning, terminology development, and institutional support are therefore essential (Kaplan & Baldauf, 1997; Spolsky, 2004). Education and digitalization have a particularly important role. Modern textbooks, academic resources, digital platforms, electronic dictionaries, language corpora, and artificial intelligence tools can strengthen the language as a means of knowledge and communication. At the same time, foreign-language education should be maintained to provide access to international science, technology, and cooperation. Cultural content such as literature, cinema, music, television, and social media can also increase the relevance and attractiveness of the state language, especially among younger generations. Therefore, its sustainable development requires an integrated approach combining language policy, education, technology, cultural development, and balanced multilingualism. With effective support, globalization can become not only a challenge but also an opportunity to strengthen the state language and expand its role in modern society

References:

1. Blommaert, J. (2010). *The sociolinguistics of globalization*. Cambridge University Press.

2. Council of Europe. (2007). *From linguistic diversity to plurilingual education: Guide for the development of language education policies in Europe*. Council of Europe.

3. Council of Europe. (2022). *Recommendation CM/Rec(2022)1 on the importance of plurilingual and intercultural education for democratic culture*. Council of Europe.

4. Crystal, D. (2000). *Language death*. Cambridge University Press.

5. Crystal, D. (2003). *English as a global language* (2nd ed.). Cambridge University Press.
6. Fishman, J. A. (1991). *Reversing language shift: Theoretical and empirical foundations of assistance to threatened languages*. Multilingual Matters.
7. Kaplan, R. B., & Baldauf, R. B., Jr. (1997). *Language planning: From practice to theory*. Multilingual Matters.
8. Phillipson, R. (1992). *Linguistic imperialism*. Oxford University Press.
9. Ricento, T. (Ed.). (2006). *An introduction to language policy: Theory and method*. Blackwell Publishing.
10. Spolsky, B. (2004). *Language policy*. Cambridge University Press.
11. UNESCO. (2009). *Investing in cultural diversity and intercultural dialogue: World report*. UNESCO.
12. UNESCO. (2016). *Towards a world atlas of languages*. UNESCO.
13. UNESCO. (2022). *Multilingualism and linguistic diversity*. UNESCO.
14. World Bank. (2021). *Loud and clear: Effective language of instruction policies for learning*. World Bank.
15. Wright, S. (2016). *Language policy and language planning: From nationalism to globalisation* (2nd ed.). Palgrave Macmillan.

USMON AZIM IDIOSTILINING EVOLYUTSIYASI: INVARIANT VA VARIATIV KOMPONENTLARNING LINGVOPOETIK TAHLILI

S.Umirova
SamDU dotsenti

Annotatsiya: Maqolada Usmon Azim she’riyatining individual uslubiga xos barqaror va o‘zgaruvchan belgilar lingvopoetik jihatdan tahlil qilinadi. Tabiat, vaqt, inson va xotira konseptlarining poetik talqini, metafora va jonlantirishning funksional imkoniyatlari, dialogik poetika hamda hissiy ifodadan falsafiy umumlashtirishga o‘tish jarayoni yoritiladi. “Dekabr balladasi” misolida tabiat obrazining lirik muloqot ishtirokchisiga aylanishi izohlanadi. Konseptual maydonlar va uslubiy komponentlarning o‘zaro munosabati uchta jadvalda umumlashtiriladi. Xulosalar matnda keltirilgan sifat tahliliga asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Usmon Azim, idiostil, lingvopoetika, invariant komponent, variativ komponent, konseptual maydon, metafora, jonlantirish, poetik dialog.

Abstract: This article examines the stable and variable features of Usmon Azim’s individual poetic style from a linguopoetic perspective. It discusses the representation of nature, time, the human being, and memory; the functions of metaphor and personification; dialogic poetics; and the shift from emotional expression to philosophical reflection. The ballad “Dekabr balladasi” is considered

as an example of nature becoming an active participant in lyrical dialogue. Three tables summarize the relationships between conceptual fields and stylistic components. The conclusions are based on qualitative textual interpretation rather than verified frequency statistics.

Keywords: Usmon Azim, idiolect, individual style, linguopoetics, invariant features, variable features, conceptual field, metaphor, personification, poetic dialogue.

Individual uslubni o‘rganish ijodkor poetik tafakkurining barqaror xususiyatlari va vaqt davomida yuz beradigan o‘zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Usmon Azim she’riyatida tabiat, vaqt, inson va xotira obrazlari takroran uchrashi bilan birga, ularning badiiy vazifasi turli poetik kontekstlarda yangilanib boradi. Maqolaning maqsadi mazkur o‘zgarishlarni invariant va variativ uslubiy komponentlar munosabati asosida tavsiflashdan iborat.

Maqolada Usmon Azim poetik matnlariga doir taqdim etilgan kuzatuvlar hamda “Dekabr balladasi”dan keltirilgan parchalar tavsifiy, qiyosiy-semantik va lingvopoetik tahlil asosida umumlashtirildi. Konseptual maydonlar va uslubiy belgilar sifat jihatdan qiyoslandi. Asl matnda to‘liq korpus hajmi va chastota jadvallari berilmagani sababli statistik natijalar mustaqil ravishda tasdiqlangan ko‘rsatkich sifatida talqin qilinmadi.

Individual uslubning invariant va variativ komponentlari. *Mualliflik korpusining qiyosiy tahlili Usmon Azim idiostilida ikki turdagi uslubiy komponent mavjudligini ko‘rsatadi. Birinchi guruhni ijodning barcha davrlarida muntazam kuzatiladigan barqaror xususiyatlar tashkil etsa, ikkinchi guruh vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib boradigan variativ belgilarni qamrab oladi. Mazkur ikki qatlamning o‘zaro munosabati individual uslub taraqqiyotining ichki mexanizmini belgilaydi.

Barqaror komponentlar, avvalo, poetik tafakkurning konseptual asoslari bilan bog‘liq. Tabiat, inson, vaqt, xotira va ruhiy kechinmalar muallif ijodining barcha bosqichlarida muntazam uchraydi, biroq bu tushunchalar har bir davrda bir xil badiiy yechim orqali ifodalanmaydi. Demak, taraqqiyot konseptlarning almashinuvida emas, ularni ifodalash usullarining o‘zgarishida namoyon bo‘ladi. Variativ komponentlar esa leksik tanlov, sintaktik tashkil etish, metaforik modellar va poetik kompozitsiyaning murakkablashuvi bilan tavsiflanadi. Dastlabki davrlarda obrazlar nisbatan mustaqil qo‘llanilgan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda ular yagona semantik tarmoq hosil qiladi. Matnning ichki bog‘liqligi kuchayadi va alohida poetik birliklar o‘zaro konseptual munosabat asosida tashkil topadi.

Korpus materiallari muallif ijodining keyingi bosqichlarida alohida poetik vositalardan ko‘ra ularning o‘zaro tizimli munosabati muhim o‘rin egallashini ko‘rsatadi. Agar dastlabki asarlarda metafora, epitet yoki ramz ko‘proq mustaqil badiiy vosita sifatida qo‘llansa, keyingi davrlarda ular yagona konseptual model

tarkibida faoliyat ko‘rsatadi. Masalan, *vaqt* konsepti ko‘pincha yo‘l, fasllar, yomg‘ir, daraxt yoki osmon obrazlari bilan bog‘lanadi. Mazkur birliklar alohida poetik detallar emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi semantik tizimni hosil qiladi. Matn mazmuni ketma-ket obrazlar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘langan konseptlar tarmog‘i sifatida shakllanadi. Bu hodisa poetik tafakkurning integrallashuvi bilan izohlanadi. Muallifning individual uslubi alohida badiiy topilmalar hisobiga emas, balki ularning yagona konseptual makonda o‘zaro uyg‘unlashuvi orqali rivojlanadi. Shu bois keyingi davr asarlarida semantik bog‘lanishlarning zichligi ortib, matnning ichki yaxlitligi kuchayadi.

Korpus bo‘yicha dastlabki kuzatuvlar yana bir muhim xususiyatni ko‘rsatadi. Ijodning yetuk davrida poetik ifoda tobora ixchamlashadi: mazmunni ifodalash uchun ko‘p sonli tasvir vositalaridan foydalanish o‘rniga, semantik jihatdan sig‘imi yuqori bo‘lgan obrazlar tanlanadi. Bunday obrazlar qisqa kontekstda ham keng assotsiativ maydonni faollashtira oladi: poetik matnda uslubiy iqtisod tamoyili shakllanadi. Birgina metafora yoki ramz bir necha semantik qatlamni birlashtirib, keng badiiy mazmunni ifodalash imkonini beradi. Bu esa individual uslubning pishib yetilgan bosqichiga xos belgi sifatida qaralishi mumkin. Mazkur holat keyingi empirik tahlillarda obrazlarning takrorlanish chastotasi, kollokatsion bog‘lanishlari va semantik tarmoqlari asosida tekshiriladi. Ushbu ko‘rsatkichlar idiostil evolyutsiyasining miqdoriy va sifat jihatlarini kompleks tarzda ifodalaydi.

Korpusning qiyosiy kuzatuvlari Usmon Azim idiostilida hissiy ifodadan falsafiy umumlashtirish tomon izchil siljish mavjudligini ko‘rsatadi. Dastlabki matnlarda lirik qahramon voqelikni bevosita his etuvchi shaxs sifatida namoyon bo‘lsa, keyingi asarlarda u voqelikni tahlil qiluvchi va talqin etuvchi subyektga aylanadi: poetik nutqda hissiy reaksiyadan ko‘ra falsafiy mushohada ustunlik qila boshlaydi. Masalan, “Dekabr balladasi”da qish fasli oddiy fasliy manzara sifatida tasvirlanmaydi. Asar boshidayoq “...Behush yotar sovuq dekabr” misrasi orqali dekabr oy nomi emas, balki jonlantirilgan poetik obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Keyingi misralarda lirik qahramonning “O‘rningdan tur, bag‘rimga bosay...” deya murojaat qilishi faslni dialog ishtirokchisiga aylantiradi. Bu yerda jonlantirish bitta badiiy usul emas, balki butun matnni tashkil etuvchi kompozitsion tamoyildir. Asarning keyingi qismida “Yolg‘izmassan – senga akaman” degan murojaat poetik muloqotning yo‘nalishini o‘zgartiradi. Endi lirik qahramon tabiatni kuzatuvchi emas, balki uning dardiga sherik bo‘luvchi subyekt sifatida tasvirlanadi. Zero, fasl obrazi insoniy taqdirning metaforasiga aylanadi.

Mualliflik korpusining qiyosiy tahlili Usmon Azim idiostilida ayrim konseptual maydonlar ijodning barcha bosqichlarida saqlanib qolganini, biroq ularning poetik talqini va funksional yuklamasi vaqt o‘tishi bilan sezilarli darajada o‘zgarganini ko‘rsatadi. Evolyutsiya yangi konseptlarning paydo bo‘lishida emas,

balki mavjud konseptlarning semantik mazmuni kengayishi va o‘zaro bog‘lanishlarining murakkablashuvida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan korpus materiallari asosida ajratilgan asosiy konseptual maydonlarning rivojlanish yo‘nalishlari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval.

Usmon Azim balladalarida asosiy Konseptual maydonlarning evolyutsiyasi

Konseptual maydon	**Dastlabki davr**	**O‘rta davr**	**So‘nggi davr**	**Evolyutsion tendensiya**
tabiat	peyzaj va tashqi makon tasviri	ruhiy holat bilan uyg‘unlashadi	falsafiy ramzga aylanadi	konkret obraz → konseptual obraz
vaqt	fasllar va kun-tun almashinuvi	hayot bosqichlari bilan bog‘lanadi	mavjudlikning falsafiy mezoni	tabiiy vaqt → ekzistensial vaqt
inson	individual kechinmalar	ijtimoiy va axloqiy qirralar kuchayadi	umuminsoniy mushohada	shaxs → umumlashgan inson
xotira	shaxsiy xotiralar	tarixiy va madaniy qatlamlar qo‘shiladi	falsafiy xotira konsepti	individual → kollektiv xotira

Jadvaldan ko‘rinadiki, Usmon Azim poetikasida tabiat, vaqt, inson va xotira konseptlari butun ijod davomida yetakchi semantik maydon sifatida saqlanib qoladi. Biroq ularning badiiy talqini bir xil emas: dastlabki bosqichlarda mazkur konseptlar asosan konkret obrazlar orqali ifodalansa, keyingi davrlarda ular falsafiy umumlashtirish va ramziy talqin darajasiga ko‘tariladi. Bu holat individual uslub evolyutsiyasining asosiy yo‘nalishi poetik lug‘atning keskin almashinuvida emas, balki konseptual tizimning ichki rivojlanishida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Muallif idiostilining evolyutsiyasini tavsiflashda uslubiy belgilarni barqaror va o‘zgaruvchan komponentlarga ajratish muhim metodologik ahamiyatga ega. Chunki individual uslubning barcha elementlari bir xil darajada o‘zgarmaydi. Ayrim xususiyatlar ijodning barcha bosqichlarida saqlanib qolsa, boshqalari muallif poetikasining rivojlanishi bilan birga yangi sifat kasb etadi. Korpus materiallari asosida aniqlangan ushbu komponentlar 2-jadvalda tizimlashtirilgan.

2-jadval.

Usmon Azim idiostilining barqaror va variativ komponentlari

Barqaror komponentlar	**Evolyutsiyalashuvchi komponentlar**
Tabiat obrazlari	Obrazlarning semantik murakkabligi
Dialogik poetika	Metaforik modellar
Personifikatsiya	Konseptual dominantalar
Ramziy tafakkur	Sintaktik tashkil etish
Emotsional ekspressivlik	Falsafiy umumlashtirish darajasi
Individual poetik lug‘at	Leksik maydonlarning kengayishi

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, Usmon Azim idiostilining asosiy konseptual yadrosi ijodning turli bosqichlarida barqaror saqlanadi. Tabiat obrazlari, dialogik poetika, jonlantirish va ramziy tafakkur muallif uslubining invariant komponentlari sifatida namoyon bo‘ladi. Evolyutsion jarayon esa, asosan, ushbu komponentlarning semantik imkoniyatlari kengayishi, metaforik modellar murakkablashishi va poetik tafakkurning falsafiylashuvi orqali amalga oshadi. Demak, individual uslubning rivojlanishi mavjud uslubiy elementlarning yangicha vazifa bajarishi bilan tavsiflanadi.

Korpus asosida olib borilgan qiyosiy tahlil Usmon Azim idiostili rivojlanishida izchil kuzatiladigan asosiy evolyutsion yo‘nalishlarni yoritadi. Mazkur evolyutsion yo‘nalishlar poetik tafakkur, obrazlar tizimi, metaforik modellar, lirik subyektning pozitsiyasi hamda semantik tashkil etish tamoyillaridagi o‘zgarishlarni qamrab oladi. Tadqiqot natijasida aniqlangan asosiy yo‘nalishlar 3-jadvalda umumlashtirilgan.

3-jadval.

Usmon Azim idiostili taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari

Tahlil yo‘nalishi	**Dastlabki bosqich**	**Yetuk bosqich**
poetik tafakkur	hissiy	falsafiy-konseptual
obraz tizimi	bir qatlamli	ko‘p qatlamli
metafora	lokal	konseptual
personifikatsiya	badiiy usul	matn tashkil etuvchi tamoyil
tabiat tasviri	peyzaj	ramziy model
lirik subyekt	kuzatuvchi	talqin qiluvchi
semantik bog‘lanish	chiziqli	tarmoqlangan

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar Usmon Azim idiostili taraqqiyotining tizimli xarakterga ega ekanini tasdiqlaydi. Muallif poetik tafakkuri hissiy ifodadan konseptual umumlashtirishga, alohida poetik vositalardan esa o‘zaro bog‘langan semantik tizimga tomon rivojlangan. Obrazlar tizimining ko‘p qatlamli tus olishi, metaforaning matnni tashkil etuvchi konseptual tamoyilga aylanishi hamda lirik

subyektning kuzatuvchi mavqeyidan talqin etuvchi mavqeyiga o‘tishi individual uslub rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari sifatida baholanadi. Ushbu kuzatishlar keyingi miqdoriy tadqiqotlar uchun asos bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot natijalari individual uslubning asosiy belgisi yangi til birliklarining paydo bo‘lishida emas, balki mavjud leksik qatlamlarning semantik imkoniyatlari kengayishi va ularning o‘zaro munosabatlari murakkablashuvida namoyon bo‘lishini tasdiqlaydi. Korpus materiallari asosida tabiat, vaqt, inson va xotira konseptlari muallif poetikasining barqaror semantik yadrosi ekanligi aniqlandi. Mazkur konseptlar ijodning barcha bosqichlarida saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ularning badiiy talqini bosqichma-bosqich o‘zgarib borgan. Dastlabki davrlarda konkret obrazlar va hissiy tasvir ustunlik qilgan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda konseptual umumlashtirish, ramziy ifoda va falsafiy mushohada kuchayganligi kuzatildi.

Xulosa shuki, yuqorida umumlashtirilgan kuzatuvlar Usmon Azim idiostili evolyutsiyasi leksik birliklarning oddiy almashinuvi bilan emas, balki konseptual maydonlarning ichki rivojlanishi, semantik munosabatlarning murakkablashuvi va poetik tafakkurning falsafiylashuvi bilan tavsiflanishini ko‘rsatadi. Mazkur natijalar korpus asosida amalga oshirilgan statistik tahlil hamda lingvopoetik talqinning o‘zaro uyg‘unligini namoyon etadi va individual uslub evolyutsiyasining asosiy qonuniyatlarini tizimli ravishda yoritadi.

Xulosa qilib aytganda, Usmon Azim idiostilida tabiat, vaqt, inson va xotira bilan bog‘liq konseptual yo‘nalishlar barqarorlikni ta’minlasa, ularning badiiy ifodalanish usullari, metaforik aloqalari va falsafiy mazmuni variativ qatlamni shakllantiradi. Jonlantirish hamda poetik murojaat shakllari ayrim matnlarda hissiy ta’sirni kuchaytiradi, boshqalarida esa obrazning falsafiy talqiniga xizmat qiladi. Demak, individual uslub taraqqiyoti faqat yangi tasvir vositalari paydo bo‘lishi bilan emas, mavjud poetik vositalarning yangi semantik vazifalar bajarishi bilan ham belgilanadi. Bu kuzatuvlarni yanada aniqlashtirish uchun davrlar bo‘yicha to‘liq bibliografik korpus va tekshiriladigan chastota ma’lumotlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent, 2007.

2. Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent, 1977.

3. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.

4. Jakobson R. Linguistics and Poetics // Style in Language / ed. T. A. Sebeok. – Cambridge, MA: MIT Press, 1960.

5. Usmon Azim. Tanlangan asarlar. 3-jild. – Toshkent, 2021.

GLOBALLASHUV VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING LEKSIK TARAQQIYOTI: NEOLOGIZMLARNING DAVLAT TILI RIVOJIDAGI O‘RNI

BURONOVA RA’NO ABDUJABBOROVNA
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti
Denov, O‘zbekiston
E-mail: buronovarano51@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda o‘zbek tilining leksik tizimida yuz berayotgan yangilanish jarayonlari tahlil qilinadi. Xususan, neologizmlarning yuzaga kelish sabablari, ularning shakllanish manbalari va usullari, yangi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik hamda raqamli tushunchalarni nomlashdagi vazifasi yoritiladi. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi taraqqiyotida yangi leksik birliklarni ilmiy asosda tadqiq etish, ularni adabiy til me’yorlari nuqtayi nazaridan baholash va me’yorlashtirish muhim masala sifatida qaraladi. Tadqiqot natijasida globallashuv jarayonida o‘zbek tilining imkoniyatlarini saqlagan holda uning yangi kommunikativ ehtiyojlarga moslashuvi davlat tilining taraqqiyoti uchun muhim omil ekani asoslanadi.

Kalit so‘zlar: davlat tili, o‘zbek tili, globallashuv, neologizm, neologiya, leksik tizim, raqamli muhit, til taraqqiyoti, til me’yori, terminologiya.

Kirish. Til jamiyat hayotining barcha sohalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy hodisa sifatida jamiyatdagi o‘zgarishlarni o‘zida aks ettiradi. Jamiyat taraqqiyoti natijasida yangi predmet, hodisa, tushuncha va faoliyat turlari yuzaga kelar ekan, ularni ifodalash uchun tilning nominativ imkoniyatlaridan foydalaniladi. Shu jihatdan tilning lug‘at tarkibi doimiy harakat va yangilanish holatida bo‘ladi. Yangi leksik birliklarning paydo bo‘lishi til taraqqiyotining tabiiy va uzluksiz jarayonlaridan biridir.

O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyi ham tilning zamonaviy ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va texnologik ehtiyojlarga javob bera olish imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonunida o‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining davlat tili sifatida belgilangan. Qonunning 7-moddasida davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini, jumladan, ilmiy-texnikaviy hamda ijtimoiy-siyosiy atamalarni tilga joriy etish orqali ta’minlashi belgilangan [1].

Demak, davlat tilining rivojlanishi faqat uning huquqiy maqomini ta’minlash bilangina cheklanmaydi. Tilning ilm-fan, ta’lim, texnologiya, iqtisodiyot, ommaviy axborot vositalari va raqamli kommunikatsiya kabi zamonaviy sohalarda faol qo‘llanishi ham uning amaliy taraqqiyotini belgilaydi. Bu jarayonda yangi so‘z va terminlarning yuzaga kelishi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism: Globallashuv turli xalqlar va tillar o‘rtasidagi aloqalarning kuchayishiga olib kelayotgan murakkab ijtimoiy-madaniy jarayondir. Xalqaro ilmiy, iqtisodiy, siyosiy va axborot aloqalarining kengayishi natijasida tillar o‘rtasidagi leksik almashinuv ham jadallashmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari va internetning keng tarqalishi yangi tushunchalarning juda qisqa vaqt ichida turli tillarga kirib kelishiga sharoit yaratmoqda.

Tilshunoslikda bunday jarayon ko‘pincha neologizmlarning shakllanishi bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Neologizm muayyan davrda til uchun yangi bo‘lgan yoki yangilik xususiyatini saqlab turgan leksik birlik sifatida izohlanadi. Bunda “yangilik” tushunchasi nisbiy xarakterga ega. Chunki ma’lum bir davrda yangi hisoblangan birlik keyinchalik umumxalq tilining faol lug‘at qatlamiga singib, odatiy birlikka aylanishi mumkin.

E. Sapir til va jamiyat munosabatiga alohida e’tibor qaratib, tilning tarixiy va ijtimoiy taraqqiyot bilan bog‘liqligini ko‘rsatgan [2]. O. Jespersen esa tilni doimiy rivojlanish va o‘zgarish holatidagi tizim sifatida qaragan [3]. Ushbu qarashlar neologizmlarning yuzaga kelishini tilning tabiiy taraqqiyot jarayoni sifatida baholash imkonini beradi.

Neologizmlarning paydo bo‘lishida, avvalo, nominativ ehtiyoj muhim omil hisoblanadi. Jamiyatda yangi tushuncha paydo bo‘lsa, uni nomlash zarurati yuzaga keladi. Bu ehtiyoj tilning ichki imkoniyatlari asosida yangi birlik yaratish yoki boshqa tildagi tayyor birlikni o‘zlashtirish orqali qondirilishi mumkin. Shuning uchun neologizmlarning shakllanish manbalarini shartli ravishda ichki va tashqi manbalarga ajratish mumkin.

Ichki manbalar asosida yangi so‘zlar so‘z yasash, affiksatsiya, qo‘shma so‘z hosil qilish, qisqartirish, semantik o‘zgarish kabi usullar yordamida yuzaga keladi.

Masalan, o‘zbek tilida **blogchi, targetchi, montajchi** kabi birliklarning paydo bo‘lishida o‘zbek tilining so‘z yasash imkoniyatlaridan foydalanilgan. Bunday birliklarda yangi faoliyat yoki kasb nomi o‘zbek tilidagi **-chi** affiksi yordamida ifodalangan.

Tashqi manbalar esa boshqa tillardan so‘z va terminlarning o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq. Zamonaviy o‘zbek tilida **blog, brend, marketing, menejer, startap, onlayn, oflayn, platforma, podkast** singari birliklarning faol qo‘llanishi globallashuvning leksik tizimga ta’sirini ko‘rsatadi.

Biroq o‘zlashgan birliklarning tilga kirib kelishi o‘z-o‘zidan ularning adabiy til tarkibiga to‘liq singib ketganini anglatmaydi. Yangi birlikning keng qo‘llanishi, semantik jihatdan barqarorlashuvi, talaffuz va imlo jihatdan moslashuvi hamda lug‘atlarga kiritilishi uning til tizimidagi mavqeyini belgilovchi muhim omillardir.

XXI asrda neologizmlarning shakllanishiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatayotgan omillardan biri raqamli kommunikatsiyadir. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil

ilovalar, sun’iy intellekt, elektron tijorat va raqamli xizmatlarning rivojlanishi natijasida yangi tushunchalarni ifodalovchi ko‘plab birliklar yuzaga kelmoqda.

Raqamli muhitdagi leksik yangiliklarning o‘ziga xos jihati ularning tez tarqalishidir. An’anaviy til muhitida yangi birlikning keng ommalashishi nisbatan uzoq vaqt talab qilishi mumkin. Internet muhitida esa yangi so‘z yoki ibora bir necha kun yoki hafta ichida keng auditoriyaga tarqalishi mumkin.

Shu sababli zamonaviy neologizmlarni o‘rganishda faqat bosma lug‘atlarga tayanish yetarli emas. Elektron korpuslar, internet nashrlari, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va boshqa raqamli manbalar ham muhim lingvistik material vazifasini bajaradi.

Bu jihat o‘zbek tilida neologizmlarning korpus asosida o‘rganilishini dolzarb masalaga aylantirmoqda. O. Yulbarsovning o‘zbek tili veb-korpusi yordamida sohaviy neologizmlar bazasini yaratishga bag‘ishlangan tadqiqoti ham zamonaviy o‘zbek neologiyasini raqamli ma’lumotlar asosida o‘rganish zaruratini ko‘rsatadi.

Raqamli muhitda yuzaga kelayotgan birliklarning barchasini ham darhol adabiy til neologizmi sifatida baholash to‘g‘ri emas. Ayrim birliklar qisqa muddatli moda xarakteriga ega bo‘lishi, ayrimlari esa tor guruhlar doirasida qo‘llanishi mumkin. Shu sababli neologizmni aniqlashda uning qo‘llanish chastotasi, tarqalish doirasi, ma’no barqarorligi, nominativ zarurati va til me’yorlariga moslashuvi kabi mezonlarni hisobga olish lozim.

Davlat tilining zamonaviy jamiyatdagi mavqeyi uning yangi ijtimoiy va kommunikativ ehtiyojlarni ifodalash imkoniyatlari bilan ham belgilanadi. Agar yangi ilmiy, texnologik yoki iqtisodiy tushunchalarni ifodalash uchun davlat tilida muqobil birliklar shakllanmasa, tegishli sohalarda boshqa tillardagi birliklarning ustunligi kuchayishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan neologizmlarni davlat tili rivojining tabiiy ko‘rsatkichi sifatida ham qarash mumkin. Yangi birliklarning paydo bo‘lishi tilning jamiyatdagi o‘zgarishlarga javob berayotganini ko‘rsatadi.

Biroq tilning boyishi faqat yangi birliklarni imkon qadar ko‘paytirishdan iborat emas. Yangi so‘zlarni yaratish va o‘zlashtirish jarayonida tilning ichki qonuniyatlari, adabiy me’yorlari, tushunarlilik, ixchamlik va kommunikativ ehtiyoj kabi omillar ham hisobga olinishi zarur.

O‘zbek tilining ichki imkoniyatlaridan foydalanish bu borada muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, mavjud so‘z yasovchi vositalar yordamida yangi tushunchalarni ifodalash milliy tilning derivatsion imkoniyatlarini namoyon etadi. Shu bilan birga, xalqaro ilmiy va texnik terminlarning o‘zbek tiliga kirib kelishi ham tabiiy jarayon bo‘lib, bunda ularning o‘zbek tili fonetik, morfologik va semantik tizimiga moslashuvi muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonunida o‘zbek adabiy tilining ilmiy qoidalari va normalariga rioya etish bilan bir qatorda, davlat

tomonidan tilning boyitilishi va takomillashtirilishi ham nazarda tutilgan [1]. Shu jihatdan yangi termin va neologizmlarni ilmiy asosda tadqiq etish davlat tili siyosatining lingvistik asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa: Globallashuv va raqamli texnologiyalar rivoji o‘zbek tilining lug‘at tarkibida jadal yangilanish jarayonlarini yuzaga keltirmoqda. Yangi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik va raqamli tushunchalarning paydo bo‘lishi ularni nomlashga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Natijada o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida yaratilgan hamda boshqa tillardan o‘zlashtirilgan yangi leksik birliklar tilning faol qo‘llanish doirasiga kirib bormoqda.

Neologizmlarning yuzaga kelishi tilning zaiflashuvi emas, aksincha, uning yangi kommunikativ ehtiyojlarga moslashib borayotganini ko‘rsatuvchi tabiiy jarayondir. Biroq yangi birliklarning til tizimiga kirib kelishi ilmiy kuzatuv, lingvistik tahlil va me’yoriy baholashni talab etadi. Ayniqsa, davlat tilining ilm-fan, texnologiya, iqtisodiyot va raqamli kommunikatsiyadagi mavqeyini mustahkamlash uchun yangi termin va neologizmlarni tizimli ravishda o‘rganish muhimdir.

O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi taraqqiyoti uning zamonaviy jamiyat ehtiyojlarini to‘laqonli ifodalash imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli neologizmlarni o‘rganish faqat leksikologiyaning xususiy masalasi emas, balki davlat tilining ilmiy, texnologik va ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiluvchi muhim yo‘nalishlardan biridir.

Shunday qilib, globallashuv sharoitida o‘zbek tilining rivojlanishi milliy til imkoniyatlarini asrash va zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarga moslashtirish jarayonlarining uyg‘unligini talab qiladi. Neologizmlarni ilmiy asosda o‘rganish, ularning shakllanish manbalarini aniqlash, qo‘llanish dinamikasini kuzatish va me’yorlash masalalarini tadqiq etish davlat tilining barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladigan muhim lingvistik vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni. 1995-yil 21-dekabr, 167-I-son. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. LexUZ“Davlat tili haqida”gi Qonun

2. Sapir E. *Language: An Introduction to the Study of Speech*. — New York: Harcourt, Brace and Company, 1921.

3. Jespersen O. *Language: Its Nature, Development and Origin*. — London: George Allen & Unwin, 1922.

4. Yulbarsov O.O. O‘zbek tili veb korpusi yordamida sohaviy neologizmlar bazasini yaratish: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. — Toshkent, 2025.

TURIZM TERMINOLOGIYASIDA O‘ZLASHMALAR XUSUSIDA

Boymanov Elyor G‘iyozovich,
NavDU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasiga doir terminlarning o‘zbek tili leksikasiga o‘zlashish omillari, shart-sharoitlari haqida fikrlar keltirilgan, tilshunos olimlarning nazariy qarashlariga munosabat bildirilgan. Har bir tilning rivoji uchun o‘zlashmalar tilning boylik manbayi ekanligi soha terminlari misolida dalillangan, shuningdek, ayrim terminlar izohi berilgan.

Kalit so‘zlar: lug‘at, termin, turizm, terminlar tarixi, o‘zlashma termin, lisoniy omil, ichki imkoniyat, dam olish.

Abstract: This article discusses the factors and conditions underlying the integration of tourism-related terms into the Uzbek lexicon and addresses the theoretical perspectives of linguists. Using examples of terminology from the field, it demonstrates that loanwords serve as a source of linguistic enrichment, and provides definitions for specific terms.

Keywords: vocabulary, term, tourism, history of terms, loan term, linguistic factor, internal potential, leisure

Rivojlanayotgan barcha sohalar leksikasida turli o‘zgarishlar kuzatilar ekan, turizm terminologiyasi tarkibiga ham yangi terminlar qo‘shiladi yoki ma’lum usullar vositasida yangi terminlar hosil qilinadi. Lug‘at tarkibidan o‘rin olgan terminlarni nutqda to‘g‘ri va o‘z o‘rnida qo‘llash har bir soha vakili uchun ahamiyatlidir.

Terminologiyaga doir adabiyotlarda shunday deyiladi: “Ma’lumki, har bir fan sohasining rivojlanishi va takomillashuv darajasi shu soha terminologiyasining qay darajada taraqqiy etgani, shuningdek, tartibga solingani bilan ham uzviy bog‘liqdir. Atamalarning ishlanmaganligi va tartibga solinmaganligi nutq uslubiga ham ta’sir ko‘rsatadi”. (Абдураҳмонов, Мамажонов, 2002, 84–85 б) Sohada ishni to‘g‘ri tashkil etish uchun soha terminologiyasidan xabardor bo‘lish muhim sanaladi. XX asrning 30-yillarida o‘zbek tilida ko‘plab terminologik lug‘atlari tuzilib, nashr ettirildi. Shu jarayonda terminlar tarixi, terminlarning ma’no va mavzu guruhlari, grammatik tuzilishi va yasalishi, terminlarning taraqqiyot yo‘li hamda boyish manbalari haqida nazariy masalalar ham ishlab chiqildi. Turizm terminologiyasi ham o‘zbek terminologik tizimida alohida o‘ringa ega. Keyingi yillarda ushbu soha terminologiyasiga doir ilmiy tadqiqotlar ko‘lami kengaydi. Jumladan, Z.Sobirovaning “O‘zbek va ingliz tillaridagi turizm terminlarining tipologiyasi, o‘zaro berilishi va leksikografik talqini”, N.Yakubovaning “Turizmga oid o‘zlashgan terminlarning leksik-semantik xususiyatlari (ingliz, o‘zbek va rus tillari misolida)”, E.Boymanovning (“O‘zbek tilining turizm terminologiyasi” kabi

ilmiy tadqiqotlari turizm terminologiyasi hamda sohada qo‘llanuvchi terminlarning nazariy asoslari va boshqa turli qirralarini o‘rganishga xizmat qiladi.

“Til va jamiyat o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, jamiyatda sodir bo‘layotgan barcha o‘zgarishlar uning tilida namoyon bo‘ladi. Jamiyat hayotiga kirib kelgan yangi tushunchalar, voqea-hodisalar jamiyatning lingvomadaniy konseptosferasidan joy olishi uchun o‘z til zaxirasi bilan bir qatorda o‘zga tillarga ham murojaat qilinadi va so‘zlar o‘zlashtiriladi”. (Сирожиддинов, 2017, 83 б) Bu esa, o‘z navbatida, tilning lug‘at qatlami yangi leksik birliklar bilan boyishini hamda uning lingvomadaniy muhitda bekam-ko‘st taraqqiy etishini ta’minlaydi.

Termin o‘zlashtirishning mohiyati nafaqat bir til elementlarini boshqa tilga o‘tkazish, balki jamiyat taraqqiyoti, fan va texnikaning rivojlanishi, xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarga bog‘liq holda kechadigan jarayon hamdir. Boshqacha aytganda, bir tildan boshqa tilga terminlarning o‘zlashishi, o‘sha til muhitiga moslashib, singib ketishi murakkab lisoniy va ijtimoiy-tarixiy sharoitlar bilan bog‘liq tarzda ro‘y beradigan qonuniyat hisoblanadi. “O‘zbek tiliga chetdan o‘zlashgan so‘zlar semantikasini yoki ular tarkibidagi terminelementlar ma’nosini hisobga olmaslik ko‘p hollarda terminlardagi aniqlik, qisqalik mezonlarining buzilishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, terminlar yasashda so‘zning derivatorlik xususiyatini hisobga olmaslik ham mantiqsiz, noto‘g‘ri terminlarning vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Masalan, tibbiyotda ishlatiladigan *fonendoskop* asbobining o‘zbekcha muqobili sifatida ba’zan *tomirgich* so‘zini ishlatish hollari paydo bo‘ldi”. (Мадвалиев, Маҳкамов, Мираҳмедова, 2020. 9-b) Yuqoridagi kabi holatlar boshqa soha terminologiyalarida ham kuzatiladi. Shunday ekan, har qanday soha uchun termin o‘zlashtirishda shu sohaning tabiatidan kelib chiqib tarjima qilish, zarurat bo‘lmasa, shu o‘zlashma terminning o‘zini qabul qilish maqsadga muvofiq sanaladi.

Ma’lumki, dunyodagi ko‘pchilik tillar turli sohalarda bir-biri bilan yaqin munosabatda bo‘ladi va shu sababli lug‘at qatlami boyib boradi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, turizm sohasida qo‘llanuvchi terminlarning asosiy qismini o‘zlashmalar tashkil etadi. XX asrda turizm terminlari o‘zbek tili lug‘at tarkibiga asosan rus tili orqali Yevropa tillaridan o‘zlashgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib, ushbu soha terminlari to‘g‘ridan to‘g‘ri chet tillaridan o‘zlashayotganini ko‘rishimiz mumkin. O‘zlashmalarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, xalqaro terminlarda yunon va lotin tiliga taalluqli terminelementlar ko‘p kuzatiladi. Turizm terminologiyasidagi o‘zlashmalarning asosiy qismini esa ingliz tilidan, shuningdek, fransuz, italyan, nemis tillaridan o‘zlashgan terminlar tashkil qiladi. Shuningdek, turizmning yangi turlarini paydo bo‘lishi bilan bog‘liq tarzda yangi terminlarlar ham vujudga kelmoqda. Ko‘rinadiki, har doim ham terminlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zlashtirib bo‘lmaydi. Boshqa tildan o‘zlashtirilgan terminning ma’nosini ifodalovchi ichki

qatlam birligi bo‘lsa, unda boshqa tildan o‘zlashgan termin emas, balki o‘sha tilga xos bo‘lgan birlik ishlatilishi maqsadga muvofiq. Shunday bo‘lsa-da, ichki imkoniyatlardan kelib chiqib, soha terminlarining ma’lum qismini kalkalash yoki tarjima qilish orqali milliylashtirish ham mumkin. Bu haqida professor M.Abdiyevning quyidagi fikrlarni keltirish o‘rinli: “Terminologiya sohasida ba’zi bir chalkashliklarga ham yo‘l qo‘yilayotganini qayd etish lozim. O‘zbek tiliga o‘zga tillardan kirib kelgan so‘zlarning muqobilini topishda shoshmasdan ish tutish, ularning o‘rniga muqobil sifatida taklif etilayotgan arabcha-forscha so‘zlarni qabul qilishni ham imkoni boricha jiddiy o‘ylab ko‘rish zarur deb hisoblaymiz. To‘g‘ri, ota-bobolarimizdan qolgan ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlarning ko‘p qismi arab va fors tillarida yoki eski o‘zbek yozuvida yozilgan. Shu bois ularni o‘rganish ham zarur. Ammo ona tilimizda muqobili bo‘lgan o‘zbekcha (turkiycha) so‘z va terminlar o‘rnida chet tillariga tegishli variantlarni ishlatish unchalik to‘g‘ri bo‘lmasa kerak”. (*Абдиев, 2013, 6 б)* Aytish mumkinki, olim o‘zbek tili terminlarini milliylashtirish masalasini o‘rtaga tashlaydi. Ammo turli fan-texnika sohalariga oid terminlarning aksariyati jahondagi tillarning leksik qatlamiga mansub. Ma’lum bo‘ladiki, dunyoda sof til bo‘lmaganidek, o‘zbek tili turizm terminologiyasining ma’lum bir qismini o‘zlashma qatlam tashkil etishi tabiiy hol. *Motel, hotel, hostel, rotel, pansionat, pekij-tur, vaucher, pansionat, turpaket, lyuks klass, nomer, voucher, gid, kemping, turoperator, litsenziya* kabi turizm terminlari yuqorida keltirilgan fikrlarimizni dalillaydi.

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda turizm terminologiyasida faol qo‘llanuvchi *poyezd, vagon, vokzal, stansiya, razyezd* kabi terminlar XIX asrning 70-yillaridan, texnika taraqqiy eta boshlagan davrdan boshlab iste’molda bo‘lgan. Ushbu jarayonni tilshunos olimlar o‘z tadqiqotlarida ham ta’kidlab o‘tishadi. Jumladan, filologiya fanlari doktori, professor Sh.Sirojiddinov o‘zbek tilida so‘z o‘zlashtirish masalalariga bag‘ishlangan “So‘z o‘zlashtirish omillari xususida” maqolasida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: “XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida tilshunos olimlar so‘z o‘zlashtirish omillarini ayri (nolisoniy va lisoniy) ko‘rmasdan, yaxlit (ajratmagan) tarzda belgilaganlar, biroq davr o‘tishi bilan tajribada so‘z o‘zlashtirishning nolisoniy va lisoniy omillari alohida-alohida e’tirof etildi. Darhaqiqat, so‘z o‘zlashtirish murakkab kompleksni tashkil etadigan ekstralingvistik va lingvistik omillardan tarkib topgan jarayonni o‘zida namoyon etadi”. (Сирожиддинов, 2017, 84 б)

Kuzatishlardan ma’lum bo‘ladiki, muayyan til terminologik tizimi asosan o‘sha tillarning lisoniy bazasida so‘z yasash, so‘zlarning leksik ma’nosini o‘zgartirish, ushbu tillarning ichki imkoniyatlari asosida so‘zlarni bog‘lash, mavjud terminlarni kalkalash orqali rivojlanadi. Turistik terminlar o‘zlashuvining lisoniy omillari sifatida quyidagi asosiy manbalarni qayd etish mumkin:

1. Umumiste’moldagi so‘zlar ma’nosini maxsuslashtirish yoki ona tilidagi so‘z va morfemalar yordamida termin yasash.

2. O‘zlashma terminlarning ona tildagi muqobillarini yasash. Umumiste’moldagi so‘zlar fan va texnika sohasidagi biror narsa yoki tushuncha nomi sifatida terminga xos xususiyatga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, *dam olish zonasi* (dam olish maqsadida tashkil etilgan hudud).

Bevosita kalkalash asosida hosil bo‘lgan terminlarga quyidagilarni kiritish mumkin: *Transport* – ekskursiya uchun panoramali, oynali avtobus, karvon, lagerda tunash uchun g‘ildirakli tirkama, bitta chipta, hujjatlar, huquqiy qoidalar, bojxona me’yorlari, avtomobil sug‘urtasi, bojsiz to‘lov va boshqalar. *Aeroport* – samolyot, uchuvchi, stuardessa, parvozdagi xizmat (parvoz paytida xizmat ko‘rsatish), uzoq masofali parvoz va boshqalar.

Apartament – sharoiti jihatdan zamonaviy turar joyga yaqin holda tashkil qilingan, ovqat tayyorlash imkoniyati ham mavjud bo‘lgan xona. *Gid* – turistlarga shaharning ma’lum diqqatga sazovor joylarini ko‘rsatuvchi, bir yoki bir nechta tillarni biluvchi professional yo‘lboshlovchi. *Tabldot* – restoranlarda taomga nisbatan qo‘llanuvchi, gazakdan tortib desert miqdorigacha chegaralangan va ovqatlarga umumiy narxlar o‘rnatilgan xizmat ko‘rsatish turi. *Taymsher* – alohida yoki birgalikdagi kvartira tipidagi, uzoq muddatga sotib olish mumkin bo‘lgan xona. *Tranzit* – bir hududdan ikkinchi hududga uchinchi hudud orqali 24 soatdan ko‘p bo‘lmagan vaqtda yo‘lovchi, yuk kabilarni olib o‘tish. *Flotel* – maxsus qulayliklarga ega bo‘lgan kayuta-nomerlari, faol dam olish xizmati, muzokara olib borish, konferensiya, kongress zallari, aloqa vositalari, turli barlar va restoranlardan tarkib topgan suzib yuruvchi mehmonxona. *Rotel* – bir yoki ikki o‘rinli vagonlardan iborat, kechki dam olishga mo‘ljallangan ko‘chma mehmonxona. Yuqorida izohi keltirilgan sohaga doir terminlarning ko‘pchiligi, asosan, matbuot sahifalarida, adabiyotlarda uchraydi. Ammo ularning izohini bilish turizmi rivojlanayotgan mamlakatimiz har bir fuqarosining vazifasidir.

Umuman olganda, turizm terminlari o‘zbek tili turizm sohasiga Yevropa tillaridan o‘zlashgan. O‘zbek tilining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o‘zlashma terminlarning tilimizdagi muqobillarini aniqlash hamda iste’molga kiritish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдураҳмонов Ғ., Мамажонов С. (2002.) Ўзбек тили. – Тошкент: Ўзбекистон.

2. Божно Л.И. (1971) Научно-техническая терминология как один из объектов изучения закономерностей развития языка // филологические науки. – Москва, №5.

3. Сирожиддинов Ш. (2017) Сўз ўзлаштириш омиллари хусусида// Ўзбек тили ва адабиёти. – № 4.

4. Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Мираҳмедова З., Саиднўъмонов А. (2020) Халқаро терминэлементларнинг изоҳли-иллюстратив луғати. – Тошкент: Донишманд зиёси.

*5. Абдиев М. (*2013) Терминлар ўзбекча (туркийча) бўлсин// Тилшуносликнинг долзарб масалалари. (Илмий мақолалар тўплами)

VI китоб. – Тошкент: Akademnashr.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA INNOVATSION YONDASHUVCHI MUTAXASISLAR

F.E.Jomonqulova

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti, t.f.n +998932959572

e-mail: fazilat_72@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada malakali kadrlarni tayyorlash va ularning bilimi, saviyasini oshirish, yurtimizni gullab yashnashi uchun barcha imkoniyatlardan unumli foydalanib, dunyo miqiyosidagi o‘qitish tizimidan yuqori o‘rinlarga olib chiqish haqida yuritilgan. Mazkur maqolada yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullarning ahamiyati haqida so’z yuritilgan. Avtomatlashtirish – bu bugungi kun asosiy talabidir. Har bir korxona, tashkilot ma’lumotlar bazasida ishni to’liq ishga qo’yish uchun avtomatlashtirilgan axborot tizimi asosiy o’rinda hisoblanadi. Demak, Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari – asosiy muammoli jarayonlar yechimidir.

Kalit so‘zlar: Innovatsion texnologiyalar, innovatsion ta'lim texnologiyalari, interaktiv usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, axborotlashgan iqtisodiyot, axborot, texnologiya, tizim, axborot texnologiyasi, axborotlashgan jamiyat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Har bir iqtisodiy barqaror mamlakat borki, aholi turmush tarzini yaxshilanishiga, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirilishiga katta e’tibor qaratadi. Shu qatorda bizning mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim sohasidagi islohotlar ham jadal sur’atlarda odimlamoqda. Lekin tan olib aytish kerakki, bu sohadagi kamchiliklar hali anchagina. Hozirgi paytda sohadagi modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, uning hajmini oshirish hamda ichki va tashqi tajrija asosidagi raqobatbardosh ta’lim turlarini kengaytirishga davlat miqyosida ahamiyat berilmoqda. Innovatsion tizimini ishlab chiqishdan maqsad - tashkiliy

loyihalashtirish, texnologik va boshqa jihatlarini hisobga olgan holda tizim faoliyatining samaradorligini oshirishdir.

Ilmiy va texnologik taraqqiyotning jadallashuvi va sanoat dan post-sanoatga o'tish vaqtida barcha tijorat tuzilmalari moslashuvchan bo'lishni talab etadi, faoliyatning barcha yo'nalishlari bo'yicha ishlarning shakllari va usullarini muntazam yangilab borish uchun nima zarurligini quyidagi misolda kurib chiqamiz: Global raqobat sharoitida innovatsiyalardan foydalanish rivojlanishning asosiy omili bo'lib, ya'ni har qanday yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (mahsulot yoki xizmat) yaratish Tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishga va yangi ish o‘rinlarini tashkil etishga yordam beradi.

Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, ta`lim-tarbiya jarayonida barkamol avlodni shakllantirish lozim, uning natijasi, mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchan kuchli irodali, ishchan, g‘oyaviy e`tiqodli, ma`naviyati yuksak, pok vijdonli yoshlarni tarbiyalash dolzarb vazifadir.

An'anaviy ta'lim jarayoni talabalarga passiv ta`sir etmoqda. O'qivchilar ma'lumotlarning eng ko‘pini ma'ruza tinglash jarayonida oladilar. Talabalarning erishgan asosiy ko'nikmalari va qobiliyatlari, katta miqdordagi axborotni yodlash va eng muhim axborotni ta'kidlash qobiliyatiga ega bo‘lishdir. Natijada, bitiruvdan so'ng talabalar mutaxassislik bo'yicha belgilangan konservativ bilimlar to'plamiga ega bo‘lob, shoshilinch innovatsion kasbiy muammolarni hal qilishda qiyinchilikga duch kelishadi.

Yangi bilimlar tizimini shakllantirishda oliy ta`lim muassasalari professor-o‘qituvchilarning muntazam kasbiy o‘sishda interfaol uslublar, pedagoglarning tahliliy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yunaltirilgan innovatsion metodikalar, masofadan o‘qitishni, mustaqil ta`lim olishni kengaytirishni nazarda tutuvchi texnika va texnologiyalardan foydalangan holda mashg‘ulotlar olib borish malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish nazarda tutiladi.

Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, xalqimizning azaliy orzusi bolib, ajdodlarimiz ma’rifat, ma’naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o‘rgatish, ularni komillikka yetaklash yo‘llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Bu esa pedagogika fanining maydonga kelishiga sabab bolgan. Chunki insonning ma’rifatli va ma’naviy komillikka erishishi pedagogika fanining yetakchiligida amalga oshiriladi.

Innovatsiya (inglizcha *Innovation)* yangilik kiritish, yangilik demakdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba (yoki o‘quvchi) faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Boshqacha so‘z bilan aytganda, o‘qitishning interfaol uslubiyotlari - bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo‘lib, unda ta`lim

oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘ladilar, ular biladigan va o‘ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Interfaol darslarda o‘qituvchining o‘rni qisman talaba (yoki o‘quvchi)larning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo‘naltirishga olib keladi.

Ta’lim maqsadlari – diagnostik, o’qish-o’qitish qayta ishlab chiqiladigan – takrorlanadigan bo’lishi uchun har bir maqsad erishiladigan bo’lishi lozim, ya’ni ta’lim maqsadi shunday ifodalanishi lozimki, unga erishilgani haqida aynan bir xil qaror chiqarish mumkin bo’lsin. Talabani o’rganish natijasini anglaydigan vazifalar oydinlashtirilgan o’quv maqsadlari deyiladi. Oydinlashtirilgan maqsadlar talabaning kuzatish, o’lchash mumkin bo’lgan harakatlarini nazarda tutadi.

An’anaviy ta’lim mazmuni ko’pincha, mavzular shaklida bo’lib, ulardan aniq bir xil ma’no anglatadigan o’quv maqsadlarini ajratib olish qiyin. O’quv vazifalari (oydinlashtirilgan maqsad) larini ifodalashni osonlashtirish maqsadida talaba bilib, o’rganib olgan harakatlarni aks ettiradigan fe’llardan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, biladi (aniq faktni, qoidani), izohlaydi (sxema, grafik, diagrammani); chiqaradi (xulosani); qo’llaydi (tushunchani – yangi vaziyatda); namoyish etadi, ajratadi, topadi (xatoni) kabilar.

Innovatsion interaktiv o'qitish uslublari o'quvchilarning ta'lim va kasbiy tayyorgarligini birlashtirishga yordam beradi, ular nazariya va amaliyot o'rtasida ko'prik bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim darajasi va kasb malakasi sifatiga qo'yiladigan talablar sezilarli darajada ortadi. Hozirgi kunda talabalarning innovatsion fikrlash qobiliyatini oshirishga qaratilgan ko'plab usullar ishlab chiqilgan va qo'llanilgan.

Ta'limning innovatsion usullari mantiqiy fikrlashni, analitik ko'nikmalarni, tizimni tahlil qilish ko'nikmalarini, disiplinali aloqalarni rivojlantirish, kengaytirish, ijodiy fikrlashni shakllantirish, nostandart muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuv, o'ziga ishonch, psixologik barqarorlikni mustahkamlash, professional yondashuv va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. O'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish o'quvchilarning innovatsion salohiyatini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Avvalo, Internetning o'zi cheksiz axborot resurslari manbai, bundan tashqari doim yangilanib turadi. Tarmoqdagi professional bilimlar faoliyatning har qanday sohasidagi ilmiy, texnologik va amaliy jihatlardagi so'nggi yutuqlarni aks ettiradi. Internet-resurslar bilan ishlaydigan talabalar amaliyoti ularning ta'lim va kasbiy o'sishiga yordam beradi. Har qanday tashabbuskor mutaxassis tanlangan yo'nalishda butun ish davomida yangi bilimlarni o‘zlashtirishga xarakat qiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masofali ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda ta'limni yaxshilashga hamda o'qitish sifatini yaxshilashga imkon yaratadi. Bunga elektron darsliklar, o'quv dasturlari, multimediya va boshqalar orqali erishiladi. Elektron va multimediyali o'quv

qo'llanmalarini ishlab chiqishda, axborotni taqdim qilishning chiziqli va chiziqli bo'lmagan usullari farqlanadi. axborotni etkazib berishning eng oddiy usuli-chiziqli. Ushbu shaklda ko'plab elektron darsliklar taqdim etilmoqda.

Interaktiv darsliklar chiziqlarga qaraganda ancha samarali, ammo ularning rivojlanishi ko'plab mehnat va moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Turli ta'lim muassasalarida dasturlar bir-biridan sezilarli farq qilganligini hisobga olib, individual kurslarni o'qitish uchun o'quv dasturlarini yaratishda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Umuman olganda, innovatsion ta'limga o'tish va innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga o'tish O'zbekiston oliy ta'lim tizimining asosiy vazifasidir. Buning uchun zarur: mavjud usullarini takomillashtirish, texnologiyalarni, texnikalarni va ta'lim vositalarini; oliy o'quv yurtlari o'qituvchilargai ta'limlash; rivojlantirish moddiy va texnik bazasini qayta jihozlash; axborotlarni doimiy yangilash bilan professional ta'lim kurslari uchun multimedia zamonaviy o'quv majmualarini rivojlantirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar aynan ta`lim-tarbiya jarayonida talabalarga muayyan fan (mavzu) bo‘yicha bilim berish va shaxsini shakllantirishga qaratilgan o‘qitishning zamonaviy uslublari va texnik vositalari majmuidir.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi fikrlarni xulosalash qilish uchun Insert jadvalini qo‘llashimiz mumkin. *Insert jadvali* Talabalarda ma`ruzalar va mustaqil ta`lim jarayonida olgan bilimlari asosida nazariy ma`lumotlarni tizimlashtirishni, uni tasdiqlash, aniqlashtirish yoki rad qilish, qabul qilinayotgan ma`lumotlarning tushunarligini nazorat qilish, avval egallagan bilimlarini yangisi bilan bog‘lash qobiliyatlarini shakllantiradi. Shu sababli, ushbu uslub mavzu bo‘yicha rejadagi mashg‘ulotlar o‘zlashtirilgach, talabalar mavzuga oid bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgach qo‘llaniladi. O‘qituvchi mavzuning aniq mazmun va mohiyatini yoritib beradi va dars yakunida talabalarga ushbu mavzu bo‘yicha “Insert” jadvali asosida uyda mustaqil ishlashlari uchun topshiriq beradi. Talabalar ushbu jadval asosida darsda olgan bilimlarini o‘z bilimlari, real hayotiy tajribalari bilan taqqoslaydi, mavzu bo‘yicha mustaqil ishlab, yangi ma`lumotlar oladi, ularni matnda qo‘yilgan belgilar asosida jadvalga kiritadi.

Insert jadvali

V	+	_	?

«V» - …… haqidagi bilimlarimga javob beradi;

«-» - …… haqidagi bilimlarimga qarama-qarshi;

«+» - …… yangi ma`lumotlar;
«?» - …… mavzuga oid tug‘ilgan savollar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan barcha metodik texnologiyalardan interfaol usullardan foydalanib dars o’tilganda guruhda qoloq, o’zlashtirmaydigan talaba qolmaydi,ta’limda multimediali axborot-resurslaridan foydalanishda esa ularning eng samarali vosita va ta’lim mazmunini boyituvchi omil ekanligi yaqqol namoyon bo’lib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. “2017-2021-yillarda O’zbekiston rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi boyicha Harakatlar strategiyasi” Toshkent, 2017 y.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ-381. «Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta’minlashni tashkil etish to’g’risida». 2006
3. Rossiya menejment jurnali. 2014. – № 2. – URL: http://www.marketing.spb.ru/mr/education/teaching_case.htm (дата обращения: 10.04.2015).
4. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman "Savdo-sotiqni boshqarishdagi innovatsiyalar": maqolalar to'plami. - M.: Paleotip nashriyoti, 81-83-sahifalar.
5. Mashchenko T. A. Case-interfaol o'qitish uslubi sifatida o'qitish // Oliy ta'limdagi innovatsion pedagogik texnologiyalar: I Xalqaro ilmiy-metodik konferensiya materiallari, Dmitrovgrad, 28 aprel, 2009 y. - Dmitrovgrad: Texnika instituti - FGOU VPO filiali "Ulyanovsk davlat qishloq akademiyasi" , 2009. - P. 119-121.
6. Ishmuhamedov R. Abdukodirov A. Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste’dod, 2008.- 180 b.
7. www.ziyonet.uz
8. Oslo qo'llanmasi: Innovatsiya haqidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish bo'yicha tavsiyalar [Electronic resource]. Uchinchi nashr. OECD va Eurostat tomonidan nashr etilgan. - M., 2006. - URL: http: //www.gks.ru/wps/wcm/connect/rosstat_main/rosstat/ru/statistics/science_ and_innovations / science / (sanaapellyatsiya shikoyati: 03/01/2015).

SAMARQAND JADIDLARI MEROSIDA TIL, KO‘P TILLILIK VA TILLARARO MULOQOT MASALALARI

Haqqulov Nabijon Qahramonovich
Samarqand Iqtisodiyot va servis institute
Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsent v.b.,
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada Samarqand jadidlarining til, ko‘p tillilik va tillararo muloqot masalalariga oid qarashlari tahlil qilinadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Siddiqiy-Ajziy, Abduqodir Shakuriy va Sayid Rizo Alizodaning ona tilini rivojlantirish, xorijiy tillarni o‘rganish, til bilimini shaxs va jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘lashga doir qarashlari yoritiladi. Shuningdek, ko‘p tillilik, tillararo muloqot, tarjima va lingvomadaniy aloqalarning ma’rifiy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Samarqand jadidlari, til, ko‘p tillilik, tillararo muloqot, ona tili, xorijiy til, lingvomadaniyat, til ta’limi, tarjima, ma’rifat.

KIRISH (Introduction)

Mustaqillik tufayli qo‘lga kiritilgan eng muhim ma’naviy imkoniyatlardan biri — milliy o‘zlikni anglash va tarixiy xotirani tiklash jarayonining yangi bosqichga ko‘tarilganidir. Bugungi kunda milliy tariximizni yangicha tafakkur va xolis ilmiy yondashuv asosida o‘rganish, boy madaniy-ma’naviy merosimizni zamonaviy taraqqiyot talablari nuqtai nazaridan qayta tahlil qilish, uni ijodiy jihatdan boyitish hamda kelajak avlodlarga to‘laqonli yetkazish dolzarb ilmiy va ma’naviy vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida muhim o‘rin tutgan jadidlarning tilga oid qarashlarini o‘rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Samarqand jadidlarining ona tilini rivojlantirish, xorijiy tillarni o‘rganish, ko‘p tillilikni shakllantirish va tillararo muloqotni kengaytirishga doir qarashlari ularning ma’rifatparvarlik konsepsiyasining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Siddiqiy-Ajziy, Abduqodir Shakuriy, Sayid Rizo Alizoda kabi ma’rifatparvarlarning til masalasiga oid qarashlarida ona tiliga sadoqat bilan bir qatorda xorijiy tillarni egallash, boshqa xalqlar madaniyati va ilmiy yutuqlaridan bahramand bo‘lish, milliy va xalqaro madaniy aloqalarni rivojlantirish g‘oyalari uyg‘unlashgan.

ASOSIY QISM (Body)

Jadidlar tillarni o‘rganish va uning fan-texnika taraqqiyotidagi ahamiyatiga alohida e’tibor berganlar. Jumladan, Turkistondagi jadidchilik harakatining yirik arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiy ham bu masalani chetlab o‘tmagan. U ham mazkur

ijtimoiy hodisaga alohida ahamiyat berib, o‘zining **“Ikki til emas, to‘rt til lozim”, “Til masalasi”** kabi maqolalarida turli tillarning Turkiston hududidagi mavqeyini tahlil qilib, ularning jamiyat ravnaqidagi o‘rnini ko‘rsatishga harakat qilgan [1; 52].

Mahmudxo‘ja Behbudiy eng kamida to‘rt tilni bilishga da’vat etgan. Ma’lumki, qadimdan Turkiston o‘lkasida yashovchi aholi o‘rtasida turkiy, fors va arab tillari amalda bo‘lib, ulardan davlat ishlarini yuritishda, madaniyat sohasida hamda ta’lim tizimida foydalanilgan. Bu holat turkiy, ya’ni o‘zbek tilining keng tarqalganligi, Turkiston xalqlarining aksariyat qismi ushbu tilda so‘zlashgani, madrasalardagi shariat va diniy kitoblarning esa arab tilida bo‘lgani bilan izohlanadi. Mudarrislar ularni fors tiliga tarjima qilib, sharhlab berganlar. Demak, darsliklar fors tilida, o‘qituvchi turkiy (ya’ni, o‘zbek) tilda so‘zlashgan, bayon esa fors tilida amalga oshirilgan. Bu holat har bir tilning jamiyat miqyosida bajaradigan o‘ziga xos vazifasi mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Jadidlar ona tilini o‘rganish bilan birga, xorijiy tillarni ham egallash zarurligini ta’kidlaganlar. Bu masalaning mohiyatini yaxshi anglagan Behbudiy ham xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirish uchun, hech bo‘lmaganda, ushbu tillardan birini o‘rganish zarurligini e’tirof etadi. Uning fikricha, “Dunyomizni ilmu fanidan xabardor bo‘lmoq uchun rus, nemis, fransaviy, anglis, itoliyoni, arabiy, jopuniy tillaridan birini bilmoq kerak...” [2; 169–170].

Samarqand jadidchilik harakatining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan Siddiqiy-Ajziy Samarqand yaqinidagi Halvoy qishlog‘ida 1903-yilda otasidan qolgan bog‘ni sotib, pishiq g‘ishtdan Yevropa usulida maxsus maktab uchun bino qurdirgan. Bu jadid pedagoglari tomonidan ochilgan maktab uchun qurilgan dastlabki yevropacha bino edi. O‘sha paytda maktabning dovrug‘i nafaqat Halvoy qishlog‘i yoki Samarqand viloyatiga, balki butun Turkiston o‘lkasiga yoyilgan. Maktabni ko‘rish va undan o‘rnak olish uchun uzoq-yaqin joylardan muallimlar kela boshlaganlar.

Maktabning barchani hayratga solgan yana bir xususiyati shundaki, sinfda o‘zbek va tojik bolalari bilan birga rus bolalari ham o‘qigan. Rus tilini o‘qitish ham yaxshi yo‘lga qo‘yilgan edi. Bu haqda jadidchilik harakatining yetuk tadqiqotchisi B. Qosimov quyidagilarni yozadi: “Turkistonning turli-tuman joylaridan bu maktabni ko‘rgani kela boshladilar. Yorug‘, bahavo xona. Bo‘yra o‘rnidagi partalar, darslarning muayyan tartib-dastur bilan olib borilishi, umumiy, milliy, jug‘rofiya, tarix, hisob, handasa, tabiatshunoslik o‘qitilishi, xarita, kurrai arz (globus) kabi ko‘rgazmali qurollardan keng foydalanish ko‘pchilikni hayratga soldi. Eng qizig‘i, darslarning asosiy qismi rus tilini o‘rganishga qaratilgan, mullavachchalar orasida ruslar ham bo‘lib, o‘zbeklar va tojiklar bilan yonma-yon o‘tirib tahsil olishadi” [3; 51].

Jadid maktabining muallimlaridan Shakuriy til masalasiga alohida to‘xtalib, bolalarni turli tillarni o‘rganishga da’vat etadi. Eng avvalo, o‘zbek, tojik va arab

tillarini, tarixiy sharoitdan kelib chiqqan holda, rus tilini o‘rganish zarurligini ham qayd qiladi. Bu tillarni qayerda o‘rganish, ularni o‘zlashtirish qanday natijalarga olib kelishi mumkinligi masalasi Shakuriyning diqqat markazida turadi.

Uning fikricha, “maktab — ma’rifat maskani, savod chiqarishning yagona o‘chog‘i. Savod chiqarish uchun esa g‘ayrat qilish lozim, shundagina zamonning ilg‘or kishisi bo‘lib yetishish mumkin” [1; 52]. Aynan yoshlik davri bilim olishning eng qulay paytidir. Bilim olishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan ona tili, uning qonun-qoidalarini o‘rganish va nutq madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shakuriy o‘sha davrda davlat tili bo‘lgan rus tilini o‘rganish zarurligini ham nazardan soqit qilmagan. Umuman olganda, Shakuriy til o‘rganish madaniy aloqalarning rivojlanishida, jahon sivilizatsiyasidan bahramand bo‘lishda katta ahamiyatga ega ekanligini anglagan.

Shuningdek, samarqandlik ma’rifatparvar Sayid Rizo Alizoda boshqa tillarni o‘rganish va bilish juda foydali va zarur ekanligini ta’kidlagan. Biroq jamiyatning rivojlanishi uchun ona tilini inkor etish — uni o‘limga mahkum etish bilan barobar ekanligini uqtirgan. Til jamiyatda odamlar o‘rtasidagi aloqa vositasi va milliy rivojlanishning muhim shaklidir. Uning ta’kidlashicha, har bir millat o‘z ona tilida gapirish, yozish, o‘qish, o‘qitish, maktab, kutubxona, gazeta, jurnal, broshyura va kitoblarga ega bo‘lish, majlislarni ona tilida olib borish, ona tilida ma’ruza o‘qish huquqiga egadir.

Ayni chog‘da S. A. imzosi bilan berilga**n “Har bir millat o‘z tili bilan faxr etar”** maqolasida (“Oyina” jurnali, 1914-yil, 35-son) har bir millat o‘z tilini ko‘z qorachig‘iday asrashi lozimligini uqtiradi: “Agar-da til va adabiyotimizni muhofaza qilmay, anga ajnabiy lug‘at va so‘zlarni qo‘sha bersak, bir oz zamonda til va milliyatimizni yo‘qoturmiz. Millatimizni yo‘qotganda diyorimiz o‘z-o‘zi ila albatta yo‘qolur” [4; 33].

O‘z navbatida, boshqa tillarni o‘rganish va bilish juda foydali va zarurligini ta’kidlabgina qolmay, Sayid Rizo Alizodaning o‘zi ham o‘n to‘rt tilni bilgan. U o‘zbek, tojik, fors, arab, ozar, usmonli turk, tatar, kurd va rus tillarini mukammal, olmon, ingliz va farang tillarini yaxshi bilgan, arman va ibroniy tillaridan esa durust xabardor bo‘lgan [4; 33].

Manbalarda keltirilishicha, 1918-yilda Armanistondan dunyo armanlari katolikosu, ya’ni shayxi Samarqandga, shu yerlik armanlarning anjumaniga tashrif buyuradi. Ushbu yig‘ilishda Sayid Rizo Alizoda ham qatnashib, nutq so‘zlaydi. U arman adabiy tilida gapirgandan keyin katolikos Alizodaga qarab: “Men ko‘p musulmon mamlakatlarida — Eronda, Turkiyada, Iroqda va Suriyada bo‘lganman, ammo arman tilini va tarixini sizdek biladigan bironta musulmon odamni uchratmaganman. Sarkisning ta’riflashicha, shahrimizda musulmon yozuvchi sifatida Siz tilimiz va adabiyotimizni Samarqandda yashaydigan hamma

armanilardan ko‘proq va yaxshiroq bilarmishsiz. Sarkis sizni Samarqanddagi armanilar bilan uchrashuvimga taklif qilibdi. Menga: “Siz u kishi bilan uchrashib, suhbatda bo‘lsangiz, keyin uning bilimiga o‘zingiz baho berasiz”, — deb aytdi. Ammo hozir siz bilan bo‘lgan suhbatdan bildimki, siz Sarkis aytganidan ham ziyod ekansiz. Men Armanistonga qaytganimdan keyin bu uchrashuv tarixini xalqimizga naql qilib beraman. Kelajak tarixlarimizda sizning arman tilini bu darajada bilishingiz va arman madaniyatiga bo‘lgan hurmatingizni albatta yozib qoldiramiz” [5; 42], — deya lutf qilgan ekan.

XULOSA (Conclusion)

Xalqimizda: **“Bir til bilsang — bir odamsan, ikki tilni bilsang — ikki, uch tilni bilsang — uch odamsan”,** degan hikmat bor.

Bugungi kunda mamlakatimizda Sharq va G‘arb tillarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning tobora ortib borayotgani O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga faol integratsiyalashuvi, xalqaro ilmiy-madaniy aloqalarning kengayishi va ta’lim imkoniyatlarining rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq. Xorijiy tillarni o‘rganish iqtisodiy va ilmiy aloqalarni rivojlantirish bilan bir qatorda, ta’lim tizimining takomillashuvi, yoshlarning Sharq va G‘arb mamlakatlarida ta’lim olishi, xorijiy oliy ta’lim muassasalari talabalari bilan ilmiy-madaniy muloqot o‘rnatishi hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shu ma’noda, Samarqand jadidlarining til, ko‘p tillilik va tillararo muloqot haqidagi qarashlari bugungi globallashuv sharoitida ham o‘zining ilmiy-ma’rifiy va lingvomadaniy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Foydalangan adabiyotlar ro’yxati:

1. Amridinova D. Samarqand jadidchilik maktabi. Monografiya. – Toshkent: «Navro‘z» nashriyoti DUK, 2017. - 124 b.
2. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar / Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi B.Qosimov. – Toshkent: Ma’naviyat,. 1997. - B.
3. Qosimov B. Maslakdoshlar: Behbudiy, Ajziy, Fitrat.— T.: Sharq, 1994. - 160 b.
4. Muallim ila muharrir millatning ikki qo‘lidir./ to‘plovchi va mas’ul muharrir F.Toshev. –T.: Mashhur-press, 2017. – 128 b.
5. Alizoda F. Sayid Rizo Alizoda : [Mashhur mutafakkir haqida]. – T.: Abu matbuot-konsalt, 2011. – 207 b.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA O‘ZBEK MILLIY PAREMIOLOGIK FONDINING DAVLAT TILI TARAQQIYOTIDAGI LINGVOMADANIY AHAMIYATI

Kilichev Akram Abdusamadovich
Buxoro davlat universiteti ilmiy izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada globallashuv sharoitida o‘zbek paremiologik fondining davlat tili rivojidagi lingvomadaniy ahamiyati ko‘rib chiqiladi. O‘zbek tilining milliy lisoniy olam manzarasi, madaniy xotirasi, an’anaviy qadriyatlar tizimi va boyligini saqlashda xalq maqollarining o‘rni tahlil qilingan. Nutq madaniyatini oshirish, lug‘at boyligini oshirish, til ta’limi va raqamli makonda paremiologik birliklardan foydalanish imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbek xalq maqollarini tizimlashtirish, raqamlashtirish va ta’lim hamda elektron til resurslariga keng joriy etish zarurligi asoslangan. Paremiologik meros nafaqat folklor qadriyati, balki globallashuv davrida davlat tili taraqqiyotining muhim lingvomadaniy resursi hamdir, degan xulosaga kelingan.

Kalit so‘zlar: davlat tili, globallashuv, o‘zbek tili, paremiologiya, maqol, lingvokulturologiya, olamning milliy lisoniy manzarasi, madaniy xotira, til qadriyatlari, raqamli makon.

Аннотация: В статье рассматривается лингвокультурологическое значение узбекского паремиологического фонда в развитии государственного языка в условиях глобализации. Анализируется роль народных пословиц в сохранении национальной языковой картины мира, культурной памяти, традиционной системы ценностей и богатства узбекского языка. Особое внимание уделяется возможностям использования паремиологических единиц в повышении речевой культуры, обогащении словарного состава, языковом образовании и цифровом пространстве. Обосновывается необходимость систематизации, оцифровки и широкого внедрения узбекских народных пословиц в образовательные и электронные языковые ресурсы. Делается вывод о том, что паремиологическое наследие является не только фольклорной ценностью, но и важным лингвокультурным ресурсом развития государственного языка в эпоху глобализации.

Ключевые слова: государственный язык, глобализация, узбекский язык, паремиология, пословица, лингвокультурология, национальная языковая картина мира, культурная память, языковые ценности, цифровое пространство.

Abstract: The article examines the linguocultural significance of the Uzbek paremiological fund in the development of the state language under the conditions

of globalization. The role of folk proverbs in preserving the national linguistic worldview, cultural memory, traditional value system and lexical richness of the Uzbek language is analyzed. Particular attention is paid to the possibilities of using paremiological units to improve speech culture, enrich vocabulary, support language education and expand the presence of Uzbek in the digital environment. The study substantiates the need for systematic collection, digitization and active integration of Uzbek folk proverbs into educational and electronic language resources. It is concluded that the paremiological heritage is not only a valuable part of folklore but also an important linguocultural resource for the development of the state language in the era of globalization.

Keywords: state language, globalization, Uzbek language, paremiology, proverb, linguoculturology, national linguistic worldview, cultural memory, language values, digital environment.

Kirish

Globallashuv jarayonlari zamonaviy jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va axborot makonini tubdan o‘zgartirib, milliy tillarning rivojlanishiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xalqlar va madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalarning jadallashuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng tarqalishi, xorijiy tillardan yangi tushuncha hamda terminlarning kirib kelishi milliy tillar oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Bunday sharoitda davlat tilining zamonaviy taraqqiyot talablariga mos ravishda rivojlanishi bilan birga uning milliy o‘ziga xosligi, tarixiy xotirasi va lingvomadaniy boyligini saqlab qolish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi uning jamiyat hayotidagi huquqiy va ijtimoiy mavqeini belgilagan muhim tarixiy hodisa bo‘ldi [1]. Keyingi yillarda davlat tilining nufuzi va mavqeini yanada oshirish, uning barcha ijtimoiy sohalarda faol qo‘llanishini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son Farmonida o‘zbek tilining xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma’rifiy va badiiy tafakkurining bebaho mahsuli ekanligi ta’kidlangan [2].

2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmon bilan tasdiqlangan “2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”da davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish, aholining nutq madaniyatini oshirish, o‘zbek tilini zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiya qilish muhim vazifalar sifatida belgilangan [3]. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda xalqning ko‘p asrlik lisoniy va madaniy tajribasini o‘zida mujassamlashtirgan paremiologik merosdan samarali foydalanish katta imkoniyatlarga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev o‘zbek tilini milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma’naviy boylik sifatida

baholar ekan, globallashuv sharoitida milliy til sofligini saqlash, uning lug‘at boyligini oshirish va zamonaviy tushunchalarning o‘zbekcha muqobillarini yaratish zarurligini alohida qayd etgan [4].

Mazkur maqolaning maqsadi globallashuv sharoitida o‘zbek paremiologik fondining davlat tili taraqqiyotidagi lingvomadaniy ahamiyatini ochib berish, xalq maqollarining milliy-lisoniy qadriyatlarni saqlash, nutq madaniyatini rivojlantirish va o‘zbek tilining zamonaviy kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirishdagi o‘rnini tahlil qilishdan iborat.

Paremiologik fond – milliy til va madaniy xotira manbai

Til xalqning nafaqat muloqot vositasi, balki uning tarixiy tajribasi, milliy tafakkuri va dunyoni idrok etish usullarini avloddan avlodga yetkazuvchi asosiy madaniy mexanizmdir. Kognitiv tilshunoslikda til inson tomonidan borliqni anglash, bilimni shakllantirish, saqlash va uzatish jarayonlari bilan bevosita bog‘liq holda o‘rganiladi [5]. Lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan esa til birliklari orqali muayyan xalqning madaniy kodi, qadriyatlar tizimi va milliy dunyoqarashi namoyon bo‘ladi [6].

Bu jihatdan xalq maqollari alohida ahamiyatga ega. Maqollar xalqning ko‘p asrlik tajribasini ixcham, obrazli va umumlashtirilgan shaklda ifodalovchi paremiologik birliklardir. Ularda xalqning mehnat, ilm, odob-axloq, Vatan, birlik, oila, til va so‘zga munosabati mujassamlashgan [7].

O‘zbek xalqining:

Avval o‘yla, keyin so‘yla;

Oz so‘zla, soz so‘zla;

Yaxshi so‘z – jon ozig‘i;

Til yarasi bitar, so‘z yarasi bitmas

kabi maqollari so‘zdan foydalanish madaniyati, nutq mas’uliyati va til odobini ifodalaydi [7]. Mazkur paremiologik birliklarda nutq shunchaki axborot yetkazish vositasi emas, balki insonning axloqiy qiyofasini namoyon etuvchi muhim ijtimoiy hodisa sifatida talqin etiladi.

Masalan, “Avval o‘yla, keyin so‘yla” maqolida fikr va nutq o‘rtasidagi uzviy aloqaga e’tibor qaratiladi. Inson tomonidan aytiladigan so‘z oldindan tafakkur nazoratidan o‘tishi lozimligi haqidagi xalqona qarash ushbu maqolning konseptual asosini tashkil etadi. “Oz so‘zla, soz so‘zla” paremasida esa nutqning miqdoridan ko‘ra uning mazmuni va sifati ustuvor qo‘yiladi. Shu sababli bunday birliklar zamonaviy nutq madaniyatini shakllantirishda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi.

Paremiologik fond tilning tarixiy xotirasini ham saqlaydi. Maqollarda ayrim qadimiy leksik birliklar, obrazli ifodalar, sintaktik modellar va milliy tafakkurga xos semantik munosabatlar barqaror shaklda yashab keladi. Shuning uchun xalq

maqollarini o‘rganish o‘zbek tilining faqat bugungi holatini emas, balki uning tarixiy-madaniy rivojlanishini ham anglash imkonini beradi [8].

Globallashuv va milliy paremiologik qadriyatlar

Globallashuv tillar o‘rtasidagi aloqani kuchaytiradi. Bu jarayon bir tomondan tilning yangi tushunchalar, terminlar va kommunikativ vositalar bilan boyishiga imkon yaratsa, ikkinchi tomondan milliy-lisoniy birliklarning faol qo‘llanish doirasi qisqarishi xavfini ham yuzaga keltirishi mumkin. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va kundalik internet muloqotida qisqa, aralash yoki boshqa tillardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri olingan ifodalarning ko‘payishi milliy nutq madaniyati oldiga yangi masalalarni qo‘yadi.

Bunday vaziyatda paremiologik birliklar milliy tilning obrazlilik imkoniyatlarini namoyish etuvchi muhim vosita bo‘la oladi. Masalan:

Birlik bor joyda – tiriklik bor;

El kuchi – sel kuchi;

Mehnatning tagi – rohat;

Bilagi zo‘r birni yiqar, bilimi zo‘r mingni yiqar

kabi maqollar xalq tafakkurida shakllangan ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni ixcham lisoniy shaklda ifodalaydi [7].

“Birlik bor joyda – tiriklik bor” paremasida birlik va hayotiy barqarorlik o‘rtasidagi sababiy munosabat aks etgan. “Birlik” tushunchasi shaxslararo aloqadan kengroq mazmunga ega bo‘lib, jamiyatning hamjihatligi va ijtimoiy birdamligini ham anglatadi.

“Bilagi zo‘r birni yiqar, bilimi zo‘r mingni yiqar” maqolida jismoniy kuch va bilim qiyoslanadi. Qarama-qarshi qo‘yish orqali bilimning ustun qadriyat ekanligi ta’kidlanadi. Bunday maqollar yosh avlodni milliy lisoniy vositalar orqali zamonaviy taraqqiyotning asosiy omillaridan bo‘lgan bilim, ilm va tafakkurga yo‘naltirishi bilan ahamiyatlidir.

Demak, maqollar tarixiy meros bo‘lish bilan cheklanmaydi. Ularning mazmunidagi mehnatsevarlik, bilimga intilish, birlik, halollik, insoniylik va mas’uliyat kabi qadriyatlar zamonaviy jamiyat uchun ham dolzarbligini saqlaydi.

Globallashuv jarayonida davlat tilini rivojlantirish milliy tilni boshqa tillardan mutlaq ajratib qo‘yishni anglatmaydi. Aksincha, tilning ochiqligi va rivojlanish qobiliyati bilan uning ichki milliy asoslarini saqlash o‘rtasida muvozanat bo‘lishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, paremiologik meros o‘zbek tilining milliy semantik, metaforik va stilistik imkoniyatlarini namoyon etuvchi barqaror lisoniy qatlam hisoblanadi.

Paremiologik birliklar va davlat tilining nutq madaniyati

Davlat tilining rivojlanishi uning huquqiy maqomi bilangina belgilanmaydi. Tilning real hayotdagi mavqei, avvalo, undan foydalanish sifati, adabiy til

me’yorlariga rioya qilish, nutqning mazmundorligi va ta’sirchanligi bilan bog‘liq. PF-6084-son Farmonda aholining nutq madaniyatini oshirish davlat tilini rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilanishi ham bejiz emas [3].

Maqollar nutqning ta’sirchanligini oshiradi, fikrni ixcham va dalillangan shaklda ifodalash imkonini beradi. So‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan o‘rinli ishlatilgan maqol ko‘p hollarda uzun izohning mazmunini bir jumlada ifodalashi mumkin.

Masalan:

Yetti o‘lchab, bir kes;

Bugungi ishni ertaga qo‘yma;

Tomchi tomib ko‘l bo‘lar

kabi paremiologik birliklar muayyan fikrni obrazli, esda qolarli va ta’sirchan shaklda ifodalash imkonini beradi [7].

“Yetti o‘lchab, bir kes” maqoli faoliyatda puxtalik, shoshmaslik va oqibatni oldindan o‘ylash zarurligini anglatsa, “Bugungi ishni ertaga qo‘yma” paremiyasi vaqtni qadrlash va vazifani o‘z vaqtida bajarish g‘oyasini ifodalaydi. “Tomchi tomib ko‘l bo‘lar” maqolida esa miqdoriy to‘planish va natijaga bosqichma-bosqich erishish xalqona metafora orqali tasvirlangan.

Bu maqollarning davlat tilidagi ta’lim, ommaviy axborot, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat va kundalik muloqotda o‘rinli qo‘llanishi bir vaqtning o‘zida ikki vazifani bajaradi: birinchidan, nutqning milliy obrazliligini kuchaytiradi; ikkinchidan, paremiologik merosning faol til birliklari sifatida yashashiga xizmat qiladi.

Ayniqsa, yoshlar nutqida xalq maqollarining qo‘llanish ko‘lamini kengaytirish muhim. Chunki paremiologik birlikning faol nutqdan chiqishi faqat bitta iboraning unutilishini emas, balki unda mujassam bo‘lgan muayyan tarixiy-madaniy tajribaning ham kommunikativ xotiradan chekinishini anglatishi mumkin.

O‘zbek paremiologiyasini raqamli makonga integratsiya qilish

Bugungi kunda tilning rivojlanish darajasini uning raqamli makondagi imkoniyatlaridan ajratib baholab bo‘lmaydi. Elektron lug‘atlar, matn korpuslari, mobil ilovalar, elektron darsliklar va boshqa raqamli resurslar tilning amaliy imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim vositalarga aylandi. 2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish konsepsiyasida ham davlat tilini zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga integratsiya qilish, o‘zbek tilining milliy korpusini yaratish kabi vazifalar belgilangan [3].

Shu sababli o‘zbek paremiologik fondini raqamlashtirish davlat tilini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Buning uchun, birinchidan, mavjud maqollarni yagona elektron bazada jamlash va ularni mavzu, semantika, leksik tarkib hamda qo‘llanish xususiyatlariga ko‘ra tasniflash zarur.

Ikkinchidan, maqollarning variantlarini o‘zaro qiyoslash imkonini beradigan elektron paremiologik lug‘at yaratish maqsadga muvofiq. Masalan, bir xil mazmunni ifodalovchi bir necha hududiy yoki tarixiy variantlarning elektron tizimda bir-biri bilan bog‘lanishi tadqiqotchiga ham, oddiy foydalanuvchiga ham katta qulaylik yaratadi.

Uchinchidan, paremiologik birliklarni o‘zbek tili milliy korpusining alohida belgilangan qatlami sifatida kiritish zarur. Bunda maqolning matni bilan birga uning mavzusi, asosiy konsepti, lingvomadaniy mazmuni, variantlari va manbasi ham ko‘rsatilishi mumkin.

To‘rtinchidan, xalq maqollaridan til o‘rgatuvchi raqamli platformalar va mobil ilovalarda samarali foydalanish mumkin. Maqollar qisqa, semantik jihatdan tugallangan va obrazli birlik bo‘lgani sababli o‘zbek tilini o‘rganuvchi shaxsga nafaqat leksik va grammatik material, balki xalqning madaniy dunyoqarashi haqida ham ma’lumot beradi.

Masalan, xorijiy o‘rganuvchi “Mehnatning tagi – rohat” maqolini o‘rganish jarayonida *mehnat, rohat, tag* leksemalarining lug‘aviy va ko‘chma ma’nolarini o‘zlashtirish bilan birga, o‘zbek milliy tafakkurida mehnatning qanday aksiologik mavqega ega ekanligini ham anglaydi.

Shunday qilib, paremiologik materialni raqamli muhitga olib kirish folklor merosini shunchaki elektron shaklga o‘tkazish emas, balki undan zamonaviy til ta’limi, kompyuter lingvistikasi va lingvomadaniy tadqiqotlar uchun faol resurs sifatida foydalanish imkonini yaratadi.

Paremiologik merosdan foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlari

Globallashuv sharoitida o‘zbek paremiologik fondidan davlat tilini rivojlantirish maqsadida foydalanishni bir necha yo‘nalishda takomillashtirish mumkin.

Avvalo, maktab va oliy ta’lim tizimida maqollar faqat folklor namunasi sifatida emas, balki tilning leksik-semantik, uslubiy va lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rgatuvchi material sifatida kengroq talqin etilishi lozim. Bir maqol doirasida ko‘chma ma’no, antonimiya, sinonimiya, metafora, milliy konsept, baholash va nutqiy pragmatika kabi bir necha til hodisasini o‘rganish mumkin.

Ikkinchidan, ommaviy axborot vositalarida va internet nashrlarida maqollardan me’yoriy hamda kontekstga mos foydalanish nutqning milliyligini va ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Bunda maqollarning shaklini asossiz ravishda o‘zgartirish, semantik mazmunini buzish yoki noo‘rin qo‘llashdan saqlanish muhim.

Uchinchidan, o‘zbek maqollarining boshqa tillardagi semantik muqobillarini qiyosiy o‘rganish davlat tilining xalqaro targ‘ibotida foydali bo‘lishi mumkin.

Bunday qiyoslash orqali xorijiy auditoriyaga o‘zbek xalqining dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini tushuntirish imkoniyati kengayadi.

To‘rtinchidan, paremiologik fond asosida zamonaviy elektron va multimedia mahsulotlari – izohli bazalar, tematik to‘plamlar, o‘quv platformalari, interaktiv lug‘atlar va lingvomadaniy ma’lumotnomalarni yaratish lozim. Bu davlat tilining raqamli makondagi mazmuniy resurslarini boyitishga xizmat qiladi.

Xulosa

Globallashuv sharoitida davlat tilini rivojlantirish masalasi tilning faqat zamonaviy terminologik imkoniyatlarini kengaytirish bilan cheklanmaydi. Davlat tilining barqaror taraqqiyoti uning tarixiy ildizlari, milliy-madaniy mazmuni va xalqning lisoniy xotirasi bilan uzviy bog‘liqdir.

O‘zbek xalq maqollari ana shunday xotirani saqlovchi muhim paremiologik qatlam hisoblanadi. Ularda xalqning asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi, ijtimoiy tajribasi, axloqiy me’yorlari va baholash tizimi qisqa hamda obrazli lisoniy shaklda mujassamlashgan [7; 8].

Paremiologik fondning davlat tili rivojidagi ahamiyati, birinchidan, o‘zbek tilining milliy obrazlilik va ifoda imkoniyatlarini saqlashida; ikkinchidan, lug‘at boyligi hamda nutq madaniyatini rivojlantirishida; uchinchidan, yosh avlodning milliy-lisoniy tafakkurini shakllantirishida; to‘rtinchidan esa, o‘zbek tilini raqamli makonga mazmunan boy holda olib kirishida namoyon bo‘ladi.

Shu bois o‘zbek xalq maqollarini yig‘ish va nashr etish bilan cheklanib qolmasdan, ularni zamonaviy ilmiy tasnif asosida elektronlashtirish, milliy til korpusiga keng kiritish, ta’lim resurslarida faol qo‘llash hamda xalqaro lingvomadaniy tadqiqotlarga jalb etish zarur. Bunday yondashuv paremiologik merosning avlodlar o‘rtasidagi uzviyligini ta’minlash bilan birga, globallashuv davrida davlat tilining milliy qiyofasi va lingvomadaniy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni. – 1989-yil 21-oktabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni. – Toshkent, 2019-yil 21-oktabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son Farmoni. – Toshkent, 2020-yil 20-oktabr.
4. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutq. – Toshkent, 2019-yil 21-oktabr.

5. Safarov Sh.S. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.
6. Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва: Академия, 2001. – 208 с.
7. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B., Turdimov Sh. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2019. – 512 b.
8. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2001.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA DAVLAT TILI ME’YORINI ASRASH: QARINDOSH TILLAR TA’SIRI VA ONA TILI DARSLIGINING HIMOYA VAZIFASI

Ilmiy rahbar: Axmedova Dildora Bahodirovna
f.f.d. (DSc), dotsent
Rahimqulova Mohigul Anvar qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
rahimqulovamohigul1994@gmail.com
Tel.: +998912414340

Annotatsiya: Maqolada globallashuv sharoitida davlat tili me’yorining barqarorligiga ta’sir etuvchi lisoniy omillar tahlil qilinadi. Muallif e’tiborni til aloqalarining kam o‘rganilgan qirrasiga – qarindosh tillar ta’sirida yuzaga keluvchi teskari interferensiyaga qaratadi hamda ona tili darsligini davlat tili me’yorini asrovchi institutsional vosita sifatida talqin etadi. Turk va o‘zbek tillari materiali asosida qisman moslik zonasi va “yaqinlik xatosi” fenomeni ochib beriladi, davlat tili siyosati uchun aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: davlat tili, til me’yori, globallashuv, til kontakti, interferensiya, teskari interferensiya, qisman moslik zonasi, ona tili darsligi, turk tili, lingvistik xavfsizlik.

Аннотаци: В статье анализируются лингвистические факторы, влияющие на устойчивость нормы государственного языка в условиях глобализации. Автор обращает внимание на малоизученную грань языковых контактов – обратную интерференцию, возникающую под влиянием родственных языков, и рассматривает учебник родного языка как институциональное средство сохранения нормы государственного языка. На материале турецкого и узбекского языков раскрываются зона частичного

соответствия и феномен «ошибки близости», разрабатываются конкретные предложения и рекомендации для государственной языковой политики.

Ключевые слова: государственный язык, языковая норма, глобализация, языковой контакт, интерференция, обратная интерференция, зона частичного соответствия, учебник родного языка, турецкий язык, лингвистическая безопасность.

Abstract: The article analyses the linguistic factors affecting the stability of the state language norm under globalisation. The author focuses on an under-researched aspect of language contact – reverse interference arising under the influence of closely related languages – and interprets the mother-tongue textbook as an institutional instrument for preserving the state language norm. Drawing on Turkish and Uzbek material, the paper reveals the zone of partial correspondence and the "proximity error" phenomenon, and develops specific proposals and recommendations for state language policy.

Keywords: state language, language norm, globalisation, language contact, interference, reverse interference, zone of partial correspondence, mother-tongue textbook, Turkish language, linguistic security.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga 37 yil to‘ldi. Ushbu davrda til qonunchilik, ta’lim, ish yuritish va ommaviy axborot sohalarida o‘z mavqeyini mustahkamladi. Biroq davlat tilining bugungi holatini baholashda faqat qo‘llanish doirasining kengayishi bilan cheklanib bo‘lmaydi: til siyosatining pirovard maqsadi tilning qayerda ishlatilishi emas, balki qanday me’yorda ishlatilishidir. Ayni shu nuqtada globallashuv davri o‘ziga xos, ko‘pincha ko‘zga tashlanmaydigan muammoni yuzaga chiqaradi.

Zamonaviy dunyoda tillarning o‘zaro aloqasi istisnoiy hodisa emas. Ethnologue ma’lumotlar to‘plamining so‘nggi nashrida yer yuzida 7 159 ta tirik til qayd etilgan, tadqiqotchilar baholariga ko‘ra dunyo aholisining taxminan yarmi kundalik hayotida kamida ikki tildan foydalanadi. O‘zbekistonda ham ta’lim almashinuvi, turizm, raqamli media va mehnat migratsiyasi tufayli ko‘p tillilik ommaviy holga aylandi. Bunday sharoitda davlat tili nafaqat qo‘llanish maydoni uchun, balki o‘z ichki me’yoriy qurilishining butunligi uchun ham kurashishga majbur bo‘ladi.

Til kontaktlari nazariyasining asoschisi U.Vaynrayx ko‘rsatganidek, tillarning "uchrashuv" maydoni lug‘at yoki grammatika kitobi emas, balki ikki til tizimini o‘z ongida birlashtirgan so‘zlovchining nutqi hisoblanadi. Kontakt kuchaygan sari uning ta’siri leksikadan grammatikaga qarab siljiydi. Bu qonuniyat davlat tili siyosati uchun muhim xulosa beradi: o‘zlashma so‘zlar bilan kurashish til himoyasining eng

oson, ammo eng yuzaki qismidir. Chinakam xavf so‘z shakllari va gap qurilishi me’yoriga – tilning eng barqaror, ayni paytda eng sekin tiklanadigan qatlamiga – tegilganda boshlanadi.

An’anaviy talqinda interferensiya bir yo‘nalishli hodisa, ya’ni ona tilining chet tiliga ta’siri sifatida qaraladi. Biroq V.Kuk boshchiligidagi tadqiqotchilar ko‘p tillilikni yaxlit kompetensiya sifatida talqin qilib, ikkinchi tilning ona tiliga teskari ta’sirini maxsus o‘rganish zarurligini asosladilar. Aynan teskari interferensiya davlat tili me’yori uchun eng dolzarb masala hisoblanadi, chunki bunda chet til andozalari ona tili nutqiga ko‘chadi va vaqt o‘tib me’yor sifatida qabul qilina boshlaydi.

Teskari interferensiya xavfi tillarning qarindoshlik darajasi ortgan sari kuchayadi. Bir qarashda bu mantiqqa zid tuyuladi: tillar yaqin bo‘lsa, ularni farqlash osonroq bo‘lishi kerakdek. Aslida esa X.Ringbom va K.Jeyms asoslaganidek, o‘rganuvchi ongida obyektiv o‘xshashlikdan ko‘ra idrok etilgan o‘xshashlik hal qiluvchi rol o‘ynaydi, o‘xshash tillar esa “bilaman” degan aldamchi ishonch hosil qiladi. Shu bois interferensiya xavfi tillararo masofaning chiziqli funksiyasi emas: u to‘liq moslik zonasida past, to‘liq nomoslik zonasida ongli nazorat tufayli boshqariladigan darajada, eng yuqori cho‘qqisiga esa qisman moslik zonasida – shakli o‘xshash, vazifasi farqli birliklar hududida chiqadi. Ushbu qonuniyatni ilmiy adabiyotda “yaqinlik xatosi” fenomeni deb atash mumkin.

Turk va o‘zbek tillari munosabatining katta qismi aynan shu xavfli zonaga to‘g‘ri keladi. Har ikki til agglyutinativ qurilishga, SOV so‘z tartibiga va umumiy tub leksik fondga ega, biroq o‘g‘uz va qarluq tarmoqlarining mustaqil taraqqiyoti natijasida ularning morfologik tizimida nozik, ammo tizimli tafovutlar shakllangan. Masalan, ko‘plik ko‘rsatkichi har ikki tilda -lar bo‘lsa-da, turk tilida u singarmonizmga ko‘ra -lar/-ler shaklida tovlanadi va son bilan kelganda umuman qo‘llanmaydi (beş kitap – beshta kitob). Turkcha -mış shakli bilvosita guvohlik ma’nosini ifodalasa, o‘zbekcha shakldosh -mish unsuri eskirgan-kitobiy uslubga xos bo‘lib, bu vazifani -gan va -(i)b shakllari o‘rtasida taqsimlangan tizim bajaradi. Hozirgi zamon turk tilida -yor, o‘zbek tilida -yap va -moqda ko‘rsatkichlari bilan yasaladi.

Turk teleseriallari, musiqasi va ijtimoiy tarmoq kontentini muntazam iste’mol qiladigan, Turkiyada tahsil olgan yoki turk litseylarini bitirgan yoshlar nutqida ana shu zonadagi unsurlarning izlari paydo bo‘lmoqda. Bunday og‘ishlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular quloqqa “chet el aksenti” bo‘lib eshitilmaydi: barcha qo‘shimchalar o‘zbekcha, biroq ularning taqsimoti va vazifaviy chegarasi begona qolip bo‘yicha o‘zgargan bo‘ladi. Ayni shu “jimlik” teskari interferensiyani davlat tili me’yori uchun eng qaysar tahdidga aylantiradi: u sezilmaydi, sezilmagani uchun tuzatilmaydi, tuzatilmagani uchun esa L.Selinker ta’biri bilan aytganda fossilizatsiyaga – qotib qolishga uchraydi.

Shu o‘rinda muhim metodologik aniqlik kiritish zarur. Til aloqasining o‘zi salbiy hodisa emas: bir xil mexanizm ikki qarama-qarshi natija beradi. Ikki til tizimidagi haqiqiy o‘xshashlikka tayanish o‘zlashtirishni yengillashtiruvchi ijobiy ko‘chish – transferni yuzaga keltiradi va bu bebaho o‘quv resursidir. Salbiy qutbga o‘tilgandagina me’yor buziladi. Binobarin, davlat tili siyosatining vazifasi til aloqalarini cheklash emas – bu globallashuv sharoitida amalga oshmaydigan maqsad – balki moslik zonalarini oldindan aniqlab, ijobiy ko‘chishni qo‘llab-quvvatlash va qisman moslik nuqtalarini ongli e’tibor obyektiga aylantirishdan iborat.

Ushbu vazifani bajarishga qodir eng ommaviy va eng uzoq muddat amal qiluvchi vosita – ona tili darsligidir. Darslik davlat ekspertizasidan o‘tgan, millionlab o‘quvchiga namuna sifatida taqdim etiladigan me’yoriy matn bo‘lgani uchun u shunchaki bilim manbai emas, balki davlat tili me’yorining institutsional timsolidir. Biroq amaldagi ona tili darsliklari o‘zbek tilini asosan yopiq tizim sifatida tavsiflaydi va qo‘shni tizimlar ta’siriga deyarli murojaat qilmaydi. Natijada o‘quvchi o‘zbek tilining qoidalarini biladi, lekin bu qoidalarning qaysi nuqtalarda begona andoza bilan almashinib ketishi mumkinligini bilmaydi.

Bizningcha, globallashuv sharoitida ona tili darsligiga yangi vazifa – teskari interferensiyaga qarshi immunitet shakllantirish vazifasi yuklanadi. Buning uchun darslik qisman moslik zonasiga to‘g‘ri keladigan mavzularda o‘quvchining aldamchi ishonchini buzuvchi maxsus signal berishi lozim: qiyosiy izoh, ogohlantiruvchi belgi yoki chog‘ishtirma mashq. Bunday signal berilmagan darslik, qanchalik puxta tuzilmasin, qarindosh til ta’siri sharoitida himoya vazifasini to‘liq bajara olmaydi.

Masalaning dolzarbligi turkiy dunyo integratsiyasi jadallashayotgan hozirgi sharoitda yanada ortadi. Yagona alifbo, atamashunoslikni yaqinlashtirish, ta’lim almashinuvi va umumiy media makonini shakllantirish bo‘yicha ishlar – bularning barchasi milliy manfaatga xizmat qiladi. Ayni paytda integratsiya qanchalik chuqurlashsa, tillarning bir-biriga “ko‘rinmas” ta’siri shunchalik kuchayadi. Demak, integratsiya jarayoni davlat tili me’yorini kuzatib borish tizimi bilan birga olib borilishi kerak: bu ikki vazifa qarama-qarshi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi vazifalardir.

Ilmiy-nazariy va amaliy taklif hamda tavsiyalar

1. Nazariy jihatdan qarindosh tillar o‘rtasidagi interferensiya xavfi tillararo masofaning chiziqli funksiyasi emas, balki qisman moslik zonasida cho‘qqiga chiqadigan egri chiziq bo‘ylab taqsimlanadi, degan qoidani davlat tili me’yorini tadqiq etishning tayanch tamoyillaridan biri sifatida e’tirof etish taklif etiladi.

2. Davlat tili me’yorini muhofaza qilish tizimiga teskari interferensiya tushunchasini kiritish, ya’ni chet tillar ta’sirini faqat leksik o‘zlashmalar bo‘yicha emas, morfologik va sintaktik sathlar bo‘yicha ham kuzatib borish tavsiya etiladi.

3. Turk va o‘zbek tillarining qisman moslik zonalari (kelishik, egalik, son va zamon shakllari, ergashish vositalari) bo‘yicha ochiq tipdagi tasniflovchi jadval – “xavfli zonalar xaritasi” ishlab chiqilib, u ona tili va turk tili o‘qituvchilari uchun uslubiy qo‘llanmaga aylantirilsin.

4. Ona tili darsliklarini qayta ko‘rib chiqishda qisman moslik zonasiga to‘g‘ri keladigan mavzularga qiyosiy izoh va chog‘ishtirma mashqlar kiritilishi, darslik ekspertizasi mezonlariga esa “qarindosh til ta’siriga qarshi himoya” ko‘rsatkichi qo‘shilishi maqsadga muvofiq.

5. Oliy ta’lim muassasalarida yoshlar yozma va og‘zaki nutqining korpusini shakllantirish hamda uning asosida davlat tili me’yoridagi o‘zgarishlarni muntazam monitoring qilish yo‘lga qo‘yilishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вайнрайх У. Языковые контакты: Состояние и проблемы исследования. – Киев: Вища школа, 1979. – 263 с.

2. Selinker L. Interlanguage // International Review of Applied Linguistics. – 1972. – Vol. 10, No. 3. – P. 209–231.

3. Ringbom H. Cross-linguistic Similarity in Foreign Language Learning. – Clevedon: Multilingual Matters, 2007. – 152 p.

4. James C. Errors in Language Learning and Use: Exploring Error Analysis. – London: Longman, 1998. – 304 p.

5. Johanson L. Structural Factors in Turkic Language Contacts. – London: Curzon Press, 2002. – 182 p.

6. Cook V. (ed.) Effects of the Second Language on the First. – Clevedon: Multilingual Matters, 2003. – 264 p.

7. Ethnologue: Languages of the World. 28th edition. – Dallas: SIL International, 2025.

BOSHQARUV PSIXOLOGIYASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING TARJIMA JARAYONIDAGI LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

D.J. Norboyeva
SamISI
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi
norboyeva.dilafruz73@gmail.com
ORCID 0009-0003-5113-4797

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshqaruv psixologiyasi sohasidagi terminologiyaning o‘zbek va rus tillaridagi qiyosiy-leksikografik va tarjimaviy jihatlari ko‘rib tahlil qilingan. Ekvivalentlik, leksik-semantik aniqlik, madaniy moslashtirish va terminlarni standartlashtirish masalalari yoritilgan. Aniq misollar tahlili asosida ikki tildagi terminlarning talqini va faoliyat ko‘rsatishidagi muammolar ochib berilgan. Tarjimachilik amaliyoti va terminologiyani leksikografik jihatdan ishlab chiqishni takomillashtirish bo‘yicha takliflar keltirilgan.

Аннотация: В статье рассматриваются сравнительно-лексикографические и переводческие аспекты терминологии в области психологии управления на узбекском и русском языках. Поднимаются вопросы эквивалентности, лексико-семантической точности, культурной адаптации и стандартизации терминов. На основе анализа конкретных примеров раскрываются проблемы интерпретации и функционирования терминов в двух языках. Представлены предложения по совершенствованию переводческой практики и лексикографической обработки терминологии.

Abstract: The article examines comparative lexicographic and translation aspects of terminology in the field of management psychology in Uzbek and Russian languages. It addresses issues of equivalence, lexical-semantic accuracy, cultural adaptation, and standardization of terms. Based on the analysis of specific examples, the article reveals problems related to the interpretation and functioning of terms in both languages. Suggestions are presented for improving translation practices and the lexicographic processing of terminology.

Kalit so‘zlar: boshqaruv psixologiyasi, terminologiya, tarjima, leksikografiya, o‘zbek tili, rus tili, ekvivalentlik.

Ключевые слова: психология управления, терминология, перевод, лексикография, узбекский язык, русский язык, эквивалентность.

Keywords: management psychology, terminology, translation, lexicography, uzbek language, Russian language, equivalence.

Zamonaviy jamiyat nafaqat samarali boshqaruv qarorlarini, balki boshqaruvning psixologik jihatlarini chuqur tushunishni ham talab qiladi. Ilmiy fan sifatida boshqaruv psixologiyasi O‘zbekistonda faol rivojlanmoqda, bu esa professional va ilmiy diskursning kengayishiga xizmat qilmoqda.[1,67] Biroq, turli tillar tizimida ixtisoslashgan atamalarni yetkazish va tavsiflash bir qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Rus tili o‘zining boy ilmiy an’analari bilan ushbu sohada shakllangan terminologik bazaga ega. O‘zbek tili esa faol modernizatsiya va lotin yozuviga o‘tish jarayonida bo‘lganligi sababli, ayniqsa kognitiv psixologiya, neyromenegment va boshqaruv xulq-atvori kabi yangi sohalarda barqaror terminlarga ehtiyoj sezilmoqda. Globallashuv va xalqaro ilmiy almashinuv sharoitida terminlarni aniq tarjima qilish muhimligi beqiyos darajada ahamiyatga ega. Ilmiy va kasbiy diskursning asosiy birligi sifatida termin imkon qadar aniq, bir ma’noli va turli tillarda universal tarzda tushunarli bo‘lishi kerak. Biroq amaliyotda terminlarni tarjima qilish lingvistik va ekstralingvistik omillar bilan bog‘liq bir qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Boshqaruv psixologiyasi terminlari rus va o‘zbek tillarida morfologik hamda semantik o‘xshashliklarga ega. Ko‘pgina hollarda xalqaro terminlar (motivatsiya, liderlik, transformatsion menegment) har ikki tilda bir xil tarzda qo‘llaniladi. Biroq ayrim terminlarda ekvivalentlik darajasi past bo‘lib, tarjima jarayonida noaniqliklar yuzaga keladi.

Terminologiya — bu muayyan kasbiy sohada qo‘llaniladigan maxsus so‘zlar va iboralar tizimidir. V.P. Danilenkoning ta’kidlashicha, termin bir ma’noli, tizimli tashkil etilgan va takror ishlab chiqariladigan bo‘lishi kerak [1, 68]. Boshqaruv psixologiyasi doirasida bu ayniqsa muhim, chunki ushbu fan abstrakt va murakkab tushunchalar bilan ishlaydi. Terminlar quyidagi xususiyatlarga ega: tizimlilik; sohaga doir bir ma’nolilik; uslubiy neytrallik; qo‘llanishdagi barqarorlik. Terminlar oddiy so‘zlardan farq qiladi, chunki ular muayyan soha doirasida cheklangan holda qo‘llaniladi. Eng keng tarqalgan muammolardan biri — boshqa tilda terminning to‘g‘ridan-to‘g‘ri muqobili yo‘qligi. Bu holat yangi ilmiy yo‘nalishlar, yuqori texnologik sohalar va madaniy jihatdan o‘ziga xos tushunchalar uchun xosdir.

Masalan, rus tilidagi “самоэффективность” (psixologiyaga oid atama) o‘zbek tilida aniq muqobilga ega emas va “o‘ziga bo‘lgan ishonch” deb tarjima qilinadi, bu esa asl ma’nodagi ayrim nozik jihatlarni yo‘qotadi. Bunday hollarda tavsiflovchi tarjima yoki moslashtirilgan iqtibos ishlatiladi [2,89].

Ko‘plab terminlar turli kontekstlarda bir nechta ma’noga ega bo‘ladi. Bu esa zarur ekvivalentni tanlashda qiyinchilik tug‘diradi. Masalan, “мониторинг” termini kontekstga qarab “kuzatuv”, “nazorat” yoki “tizim holatini monitoring

qilish” ma’nolarini anglatishi mumkin. Bunday hollarda kasbiy kontekstga tayanish va tor sohalarga ixtisoslashgan lug‘atlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, quyidagi usullar qo‘llaniladi:

- rus va o‘zbek tillaridagi terminlarning qiyosiy-taqqosloviy tahlili;
- ko‘p darajali tushunchalarning leksik-semantik tahlili;
- ekvivalentlarni aniqlashga qaratilgan tarjima modellashtiruvi;
- O‘zbekiston va MDH davlatlari oliy ta’lim muassasalarida foydalaniladigan ikki tilli lug‘atlar va o‘quv materiallarini tahlil qilish [2, 109].

Boshqaruv psixologiyasi quyidagi tushunchalarni qamrab oladi:

- liderlikning psixologik jihatlari;
- motivatsiya nazariyalari;
- guruh dinamikasi;
- tashkilot madaniyati;
- emotsional intellekt;
- stress holatlarida qaror qabul qilish.

Ushbu tushunchalarning har biri aniq terminologik ifodani talab qiladi. Masalan, “мотивация” termini ichki turtkini ham, tashqi rag‘batlantirish tizimini ham anglatishi mumkin, bu esa tarjima va tushuntirish jarayonida muammolarni keltirib chiqaradi. Quyidagi terminlarga misol keltirish mumkin:

Ruscha termin	O’zbekcha tarjimasi	Izoh
Мотивация	Motivatsiya / Ichki turtki	Ko‘pincha so‘zma-so‘z tarjima (kalkalash) qo‘llaniladi, kamroq moslashtirish ishlatiladi.
Эмоциональный интеллект	Emotsional intellekt / Hissiy aql	Ikki variant mavjud — so‘zma-so‘z tarjima (kalkalash) va moslashtirish (adaptatsiya).
Управленческое решение	Boshqaruv qarori	Ekvivalent juda aniq.
Харизматический лидер	Xarizmatik lider	Iqtibos olish + transliteratsiya

Atamalarni so‘zma-so‘z (buktar) tarjimasi ko‘pincha tarjima qilinayotgan tilning grammatik va madaniy o‘ziga xosliklarini hisobga olmaydi, bu esa terminni noaniq yoki tabiiy bo‘lmagan qiladi. Ingliz tilidagi feedback atamasi ko‘pincha rus tilida «обратная связь» deb kalkalashadi, bu esa rus tilida qabul qilingan [3, 102-

103]. Biroq boshqa tillarda buktlar tarjima termin sifatida qabul qilinmasligi mumkin. Zarur bo‘lganda, moslashtirish orqali termin tushuntirish bilan kiritiladi.

Boshqaruv psixologiyasidagi ko‘pchilik terminlar rus va o‘zbek tillarida bevosita ekvivalentdir. Masalan, «мотивация – motivatsiya», «лидерство-liderlik », «стресс – stress» kabi terminlar morfologik va semantik jihatdan mos keladi. Biroq ba’zi terminlar faqat qisman ekvivalent bo‘lib, kontekstga qarab turlicha tarjima qilinadi. Masalan, rus tilida «руководство» liderlik deb tarjima qilinadi, ammo uni «лидерство» (liderlik) dan ajratib ko‘rish kerak.

«Raqamli charchoq» (digital fatigue) zamonaviy termin bo‘lib, rus tilida bir nechta sinonimik ifodalar mavjud: «техностресс», «информационное переутомление», «цифровое переутомление».

Hatto tilda ekvivalent termin mavjud bo‘lsa ham u boshqa terminologik tizimga kirishi va boshqa bog‘liqliklar hamda konnotatsiyalarga ega bo‘lishi mumkin. “Liderlik” (leadership) termini g‘arbiy an’anada mustaqil sifat sifatida qabul qilinsa, post-sovet boshqaruv madaniyatida ko‘pincha avtoritar tizimning bir qismi sifatida qabul qilinadi[4, 99-103]. Madaniyatga mos tarjima qo‘llash va ma’nolarni aniqlashtirish muhimdir. Bu farqlar qiyosiy-leksikografik tahlilda yaqqol ko‘rsatilgan.

Terminlar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

To‘liq ekvivalentlar – morfologik va semantik jihatdan ikkala tilda ham o‘xshash: motivatsiya – мотивация

Nisbiy ekvivalentlar – faqat semantik jihatdan o‘xshash, shakl jihatdan farq qiladi: rahbarlik – руководство

Ekvivalentsiz terminlar – o‘zbek tilida yangi bo‘lib, rus tilida sinonimlar bilan ifodalanadi: digital tired – цифровая усталость

Mutaxassislik lug‘atlari misollar va kontekstlar bilan ta’minlab, xatoliklarni oldini olish va tarjima aniqligini oshirish imkonini beradi. Sifatli tarjima professional tayyorgarliksiz imkonsizdir. Kurslar quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak: terminologiya asoslari; fan sohasiga oid tayyorgarlik; kontekstni hisobga olgan holda tarjima amaliyoti [5, 234].

Milliy korpuslarda terminlar ishlatilishini tahlil qilish (masalan, Rossiya milliy korpusi, O‘zbek tilining milliy korpusi) terminlarning ma’nosini va tarqalishini aniqlashtirishga yordam beradi. Eng muhim muammo — aniq ekvivalentlarning yo‘qligi. Masalan, self-management termini rus tilida ko‘pincha «самоменджмент» deb tarjima qilinadi, o‘zbek tilida esa «o‘zini boshqarish» yoki iqtibos shaklida self-menedjment sifatida qo‘llaniladi. Bu ta’lim muhiti uchun termin tushunarliligini pasaytiradi.

Ba’zi terminlar rus tilida kengroq semantik maydonga ega. Masalan, «мотивация» so‘zi rus tilida jarayon ham, holat ham sifatida qabul qilinishi

mumkin. O‘zbek tilida motivatsiya ko‘proq tashqi ta’sir jarayoni sifatida, ichki motiv esa ichki holat sifatida qabul qilinadi.

Madaniy kontekst terminlarni qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, «харизма» tushunchasi rus biznes madaniyatida ko‘proq liderlik bilan bog‘lanadi, o‘zbek madaniyatida esa bu shaxsiy joziba sifatida qabul qilinishi mumkin, boshqaruv bilan bog‘liq bo‘lishi shart emas.

Turli o‘quv qo‘llanmalar va lug‘atlarda bir xil terminning turlicha tarjimalari uchraydi. Masalan, organizational behavior terminlari tashkiliy xulq-atvor, tashkiliy munosabat, korxona psixologiyasi kabi turli aspektlarni ifodalaydi.

Hozircha O‘zbekistonda boshqaruv psixologiyasi sohasida keng qamrovli ikki tilli lug‘atlar mavjud emas. Mavjud lug‘atlar yo umumlashtirilgan, yo eskirgan bo‘lib, bu sohadagi akademik leksikaning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Boshqaruv psixologiyasi ilmiy fan sifatida samarali aloqa uchun aniq, standartlashtirilgan terminologiyani talab qiladi. Rus va o‘zbek terminlarini taqqoslovchi leksikografik tahlil shuni ko‘rsatadiki, til, semantika va madaniy farqlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima va terminlarning qo‘llanilishini qiyinlashtiradi. Shu sababli boshqaruv psixologiyasi bo‘yicha o‘zbek-rus va rus-o‘zbek ikki tilli terminologik lug‘atlar yaratilishi kerak, unda atamalarni qo‘llash misollari, kontekstlari, sinonimlari va antonimlari bo‘lishi zarur.

Boshqaruv psixologiyasi bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarida qo‘llanilayotgan barcha tarjima va mualliflik o‘quv qo‘llanmalari ekspertlar tomonidan terminologik tekshiruvdan o‘tishi shart. Psixologiya va menejment sohasida ishlovchi tarjimonlar terminologiya va tushunchalarni madaniy moslashtirishga yo‘naltirilgan maxsus kurslardan o‘tishi lozim. Psixologiya sohasida o‘zbek ilmiy tilining milliy korpusini yaratish terminlarning qo‘llanilishini kuzatish va ilmiy til rivojlanishidagi tendensiyalarni aniqlashga yordam beradi.

Boshqaruv psixologiyasi sohasida interdisiplinar yondashuv, tarjima usullari va lingvistik xususiyatlar rus va o‘zbek tillarining terminologiyasini taqqoslash orqali chuqurroq o‘rganilmoqda. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki: terminlarning 60% dan ortig‘i bevosita ekvivalentlarga ega; qolgan terminlar qisman yoki to‘liq yangi bo‘lib, bu xatoliklarga yoki tarjimaning alternativ variantlariga olib keladi; kontekst, leksika va soha bo‘yicha bilim tarjimada katta ahamiyatga ega.

Terminologik tarjima vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilish uchun tizimli sa’y-harakatlar talab etiladi: lug‘atlar va izohli so‘zliklar yaratishdan tortib mutaxassislarni o‘qitish va tarjimalarni standartlashtirishgacha. Faqat shu shartlar bajarilganda fan, texnika va boshqa ixtisoslashgan sohalarda aniq, tushunarli va professional tillararasi muloqot ta’minlanishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Hayitov O.E., Jalolova S.M. Boshqaruv psixologiyasi: O’quv qo’llanma. T.: TDIU, 2008. – 184 b.

2.Salomov G’. «Til va tarjima» O’quv qo’llanma. «Fan» nashriyoti T., 1996. 108-115b.

3. Ergasheva G.Q. O‘zbek va rus tillarida psixologiyaga oid terminlarning yasalish xususiyatlari // Ta’lim tizimida ijtimoiy gumanitar fanlar.– Toshkent, 2011. – № 3-4. –B. 125-129 (10.00.00 № 16).

4.Kabanova I.A. Terminlarni tarjima nazariyasi va amaliyoti. — M.: Flinta, 2012. - 130 b.

5.Reformatkiy A.A. Tilshunoslikka kirish. — M.: Aspekt Press, 2006. – 536 b.

6.Newmark P. A Textbook of Translation. — Prentice Hall, 2008. - 292 b.

7. Norboyeva D.J. Oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislik terminlarini o‘qitishning innovasion texnologiyalari. Servis. SamISI 2020.-№2. 177-180 b.

ПОЭТИКА МЕЖКУЛЬТУРНОГО ДИАЛОГА В РАССКАЗЕ ГАЛИНЫ ШИРЯЕВОЙ «МИНАРЕТ». ОБРАЗ БУХАРЫ И КУЛЬТУРНАЯ ПАМЯТЬ

Чернова Татьяна Алексеевна
старший преподаватель СамИЭС,
chernovatatiyana@sies.uz
tatyha.1990.1103@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1232-0007

Аннотация: Статья посвящена исследованию поэтики межкультурного диалога в рассказе Галины Ширяевой «Минарет». Актуальность работы определяется необходимостью изучения современной русскоязычной литературы Узбекистана как пространства взаимодействия языка, исторической памяти и национально-культурных образов. Основное внимание уделяется художественной репрезентации Бухары, образу минарета Калян, мотивам исторической памяти, легенде, городской культуре и взаимодействию современного и исторического времени. Рассматривается роль национально-культурных реалий в формировании художественного пространства произведения. Особое значение придаётся тому, каким образом русскоязычный автор обращается к культурному наследию Узбекистана и посредством русского языка создаёт художественный образ восточного города.

Ключевые слова: диалог культур, межкультурная коммуникация , минарет, Бухара, минарет Калян, культурная память, национально-культурный образ, историческое пространство.

Annotatsiya: Maqola Galina Shiryaevaning «Minora» hikoyasida madaniyatlararo dialog poetikasini tadqiq etishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning dolzarbligi O‘zbekistonning zamonaviy ruszabon adabiyotini til, tarixiy xotira va milliy-madaniy obrazlar o‘zaro ta’sir qiladigan makon sifatida o‘rganish zarurati bilan belgilanadi. Asosiy e’tibor Buxoro obrazining badiiy talqiniga, Kalon minorasi obraziga, tarixiy xotira motivlariga, afsona, shahar madaniyati hamda zamonaviy va tarixiy vaqtning o‘zaro ta’siriga qaratiladi. Milliy-madaniy voqeliklarning asarning badiiy makonini shakllantirishdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Ruszabon muallifning O‘zbekiston madaniy merosiga qanday murojaat qilishi va rus tili vositasida Sharq shahrining badiiy obrazini yaratishiga alohida ahamiyat beriladi.

Kalit so‘zlar: madaniyatlar dialogi, madaniyatlararo kommunikatsiya, minora», Buxoro, Kalon minorasi, madaniy xotira, milliy-madaniy obraz, tarixiy makon.

Abstract: The article is devoted to the study of the poetics of intercultural dialogue in Galina Shiryaeva’s short story “The Minaret”. The relevance of the study is determined by the need to examine contemporary Russian-language literature of Uzbekistan as a space where language, historical memory, and national-cultural images interact. Particular attention is paid to the artistic representation of Bukhara, the image of the Kalyan Minaret, motifs of historical memory, legend, urban culture, and the interaction between contemporary and historical time. The role of national-cultural realities in shaping the artistic space of the work is examined. Particular significance is attached to the way in which a Russian-language author addresses the cultural heritage of Uzbekistan and creates an artistic image of an Eastern city through the Russian language.

Keywords: cultural dialogue, intercultural communication, the Minaret, Bukhara, Kalyan Minaret, cultural memory, national-cultural image, historical space.

Современная русскоязычная литература Узбекистана представляет собой значимый объект литературоведческого исследования, поскольку в ней находят художественное выражение процессы взаимодействия различных культурных традиций, исторических представлений и языковых форм. Особое место в этом литературном пространстве занимают произведения, в которых Узбекистан изображается не только как географическая территория, но и как сложное культурно-историческое пространство, наполненное памятью, символами, легендами и устойчивыми национальными образами. В этом

отношении интерес представляет рассказ Галины Ширяевой «Минарет», опубликованный в журнале «Звезда Востока» в 2020 году. Публикация рассказа была помещена в рубрике «Новые имена», а в редакционной информации отмечено, что произведение заняло первое место в литературном конкурсе «Страны моей жемчужины» в номинации прозы [1, с. 52].

Обращение к данному произведению позволяет рассмотреть диалог культур на уровне художественного пространства, образной системы и взаимодействия временных пластов. В рассказе современный взгляд на Бухару соединяется с историческими представлениями о городе, его архитектурных памятниках и легендарном прошлом. При этом автор не противопоставляет современность и традицию как взаимоисключающие начала. Напротив, современное восприятие города становится способом актуализации культурной памяти, а исторический материал получает новое художественное осмысление.

Рассказ «Минарет» особенно интересен с этой точки зрения благодаря тому, что его повествовательное пространство непосредственно связано с Бухарой. Уже начало произведения формирует особую культурную атмосферу города: автор обращается к утреннему времени, куполам, призыву к молитве, базару и минарету Калян [1, с. 52]. Эти элементы не являются случайными деталями. Они создают систему знаков, посредством которых читатель входит в культурное пространство Бухары. Важен сам принцип изображения города: он представлен не только визуально, но и через звук, движение, архитектуру и память.

Особое значение имеет образ Бухары. Город в рассказе оказывается не просто местом действия, а своеобразным носителем исторической памяти. В авторском восприятии современная Бухара существует одновременно в настоящем и прошлом. Повествовательница замечает изменения в образе жизни людей, их внешности и повседневности, однако при этом подчёркивает устойчивость духа старого города. Такое сопоставление позволяет увидеть одну из важнейших особенностей художественной концепции произведения: изменение внешней стороны городской жизни не означает исчезновения культурной памяти.

Именно здесь возникает связь между образом пространства и проблемой культурной идентичности. Бухара воспринимается как город, в котором различные исторические эпохи не уничтожают друг друга, а сосуществуют. Современный человек способен пройти по современному базару и одновременно увидеть в нём отражение многовековой традиции. Таким образом, пространство города приобретает диалогическую структуру: настоящее вступает в разговор с прошлым.

Образ базара в рассказе выполняет функцию своеобразного культурного микрокосма. Автор обращает внимание на торговцев, ремесленников, чайханщика, продавца лепёшек и гончара, показывая городскую жизнь через конкретные занятия и повседневные действия людей [1, с. 52]. В результате культурная традиция раскрывается не только через архитектурные памятники, но и через обычную жизнь. Это принципиально важно для понимания поэтики произведения, поскольку культура представлена как живая система, существующая в повседневности.

Центральным символом рассказа становится минарет Калян. В тексте он представлен как архитектурная доминанта Бухары, как объект эстетического восхищения и как хранитель исторической памяти. Автор подчёркивает его величественность, строгость, ясность и тщательно разработанную орнаментальную структуру [1, с. 52]. Таким образом, минарет получает одновременно архитектурное, историческое и символическое значение.

Минарет в художественном мире рассказа соединяет несколько временных и смысловых пластов. Для современного человека он является памятником архитектуры, однако в историческом сознании связан с событиями прошлого и легендой. Его значение определяется не только материальной формой, но и историями, которые существуют вокруг него. Именно здесь особенно отчётливо проявляется механизм культурной памяти: архитектурный объект сохраняет значение потому, что с ним связаны рассказы, предания и человеческие воспоминания.

Особое место в рассказе занимает легенда о мастере Бако, связанном со строительством минарета. Согласно представленному в произведении преданию, мастер заложил фундамент из алебастра и молока верблюдицы, после чего исчез и вернулся спустя два года, когда фундамент достаточно укрепился [1, с. 52]. Сам факт включения этой легенды в современный рассказ имеет существенное значение. Автор не просто сообщает историческую справку, а вводит легендарный материал непосредственно в художественную ткань произведения. В результате прошлое начинает существовать внутри современного повествования.

Легенда выполняет функцию своеобразного культурного медиатора. Она соединяет современного читателя с историческим сознанием города. При этом легендарный сюжет получает дополнительное нравственное значение: история мастера становится поводом для размышления о качестве человеческого труда, ответственности перед будущими поколениями и стремлении оставить после себя добрую память [1, с. 52]. Таким образом, локальная легенда выходит за пределы конкретного исторического события и приобретает универсальный этический смысл.

Для русскоязычного текста подобные реалии имеют особую функцию. Русский язык здесь выступает как средство художественной передачи иной культурной среды. При этом автор не стремится полностью заменить национальные понятия русскими аналогами. Напротив, сохранение культурно маркированных слов позволяет передать своеобразие изображаемого пространства. Возникает особый тип языкового взаимодействия, в котором русский язык становится средством репрезентации узбекского культурного мира.

В этом отношении рассказ Ширяевой может быть рассмотрен в контексте современной русскоязычной литературы Узбекистана, где русский язык функционирует не только как средство коммуникации, но и как инструмент художественного осмысления локальной культуры. Русскоязычность произведения не отменяет его связи с узбекским культурным пространством. Напротив, именно русский язык позволяет автору сделать национально-культурные образы доступными более широкому читательскому кругу.

Таким образом, Ширяева использует культурный материал Бухары не для простого воспроизведения исторического прошлого, а для создания многослойного художественного пространства. В нём реальное и легендарное, современное и историческое, локальное и универсальное существуют одновременно. Подобная организация материала соответствует диалогической природе культуры, поскольку различные смысловые системы не уничтожают друг друга, а вступают во взаимодействие.

Следует отметить, что художественная функция Бухары в рассказе значительно шире функции места действия. Город фактически становится одним из центральных «персонажей» произведения. Он обладает собственной исторической памятью, узнаваемым ритмом, звуковой и визуальной организацией. Его пространство воспринимается через движение рассказчицы: путь по базару к минарету становится одновременно физическим и смысловым путешествием.

Ю. М. Лотман связывал функционирование культуры с взаимодействием различных знаковых систем и механизмами порождения новых смыслов [3]. В рассказе Ширяевой Бухара как культурный текст складывается из архитектуры, легенд, религиозных реалий, бытовых деталей, человеческих воспоминаний и языка повествования. Все эти элементы образуют единую семиотическую систему.

Таким образом, рассказ Галины Ширяевой «Минарет» может быть рассмотрен как произведение, в котором проблема диалога культур реализуется через взаимодействие языка, пространства, времени и памяти.

Центральным художественным образом становится Бухара — город, существующий одновременно в современной реальности и в историческом сознании. Минарет Калян выполняет функцию ключевого культурного символа, соединяющего архитектурное пространство, легенду и историческую память.

Проведённый анализ позволяет сделать вывод о том, что поэтика межкультурного диалога в рассказе строится не на прямом сопоставлении двух национальных культур, а на более сложном взаимодействии культурных кодов. Узбекское историко-культурное пространство осмысляется посредством русского литературного языка; современный взгляд взаимодействует с исторической памятью; реальный Бухарский пейзаж соединяется с легендарным прошлым. Именно эта многослойность определяет художественное своеобразие рассказа.

Список использованной литературы:

1. Ширяева Г. Минарет // Звезда Востока. — 2020. — № 2. — С. 52–57.
2. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. — М.: Искусство, 1986. — 445 с.
3. Лотман Ю. М. Культура и взрыв. — М.: Гнозис; Издательская группа «Прогресс», 1992. — 272 с.
4. Панова Л. Н. М. М. Бахтин и Ю. М. Лотман: диалог о диалоге // Вестник Московского государственного университета культуры и искусств. — 2009. — № 6 (32).
5. Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века // Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. — 2026. — Т. 4. — № 6.
6. Ширяева Г. Минарет // Страны моей жемчужины: рассказы и стихотворения участников литературного конкурса. — 2020.

DAVLAT TILINING RAQAMLI TARAQQIYOTI: O‘ZBEK TILINING SUN’IY INTELLEKT TIZIMLARIDAGI IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH MASALALARI

Azizabonu Jaloliddinova
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,
Stajyor-o’qituvchi
Abdurakhimova.a.a@gmail.com
+998903479194

Annotatsiya: Mazkur tezisda davlat tilining raqamli taraqqiyoti va o‘zbek tilining sun’iy intellekt tizimlaridagi imkoniyatlarini kengaytirish masalalari yoritiladi. Globallashuv va raqamlashtirish sharoitida o‘zbek tilining sun’iy intellekt tomonidan sifatli tushunilishi va qayta ishlanishi uchun zarur bo‘lgan lingvistik resurslarning ahamiyati tahlil qilinadi. O‘zbek tili korpuslari, zamonaviy datasetlar hamda milliy adabiy va madaniy merosni raqamlashtirishning sun’iy intellekt tizimlari uchun ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, o‘zbek tilidagi ma’lumotlarning hajmi bilan bir qatorda ularning sifati, xilma-xilligi va lingvistik jihatdan qayta ishlanganlik darajasiga e’tibor qaratiladi. Tezisda o‘zbek tilining sun’iy intellekt tizimlaridagi imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: davlat tili, o‘zbek tili, sun’iy intellekt, generativ sun’iy intellekt, til korpusi.

Abstract: This thesis examines the digital development of the state language and ways to expand the capabilities of the Uzbek language in artificial intelligence systems. It analyzes the importance of linguistic resources required for Uzbek to be effectively understood and processed by artificial intelligence in the context of globalization and digitalization. The study highlights the role of Uzbek language corpora, modern datasets, and the digitization of national literary and cultural heritage in developing AI-based language technologies. Particular attention is paid not only to the volume of Uzbek-language data but also to its quality, diversity, and linguistic processing. The thesis also proposes practical directions for expanding the representation and functionality of the Uzbek language in artificial intelligence systems.

Keywords: state language, Uzbek language, artificial intelligence, generative artificial intelligence, language corpus.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari til taraqqiyotiga ham yangi talablarni qo‘ymoqda. Avvallari tilning rivojlanganlik darajasi uning ta’lim, fan, davlat boshqaruvi, ommaviy axborot vositalari va kundalik muloqotdagi qo‘llanish ko‘lami bilan baholangan bo‘lsa, bugungi kunda bunga yana bir muhim

mezon tilning raqamli texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt tizimlarida qay darajada to‘laqonli ifodalanishi qo‘shilmoqda.

Ayniqsa, generativ sun’iy intellektning ommalashuvi bu masalani yanada dolzarb qilmoqda. Insonlar bugun axborot izlash, matn yozish, tarjima qilish, ta’lim olish, tahlil qilish va turli savollarga javob topishda sun’iy intellekt vositalaridan tobora ko‘proq foydalanmoqda. Demak, tilning kelajakdagi raqamli mavqei uning bunday tizimlar tomonidan qay darajada tushunilishi va qayta ishlanishiga ham bog‘liq.

O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeini mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosatida mazkur masalaning huquqiy asoslari ham shakllantirilgan. 2019-yil 21-oktabrdagi PF–5850-son Farmonda o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirish bilan bir qatorda, uning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridagi, jumladan, Internetdagi o‘rnini mustahkamlash vazifalari belgilangan [9]. 2020-yil 20-oktabrdagi PF–6084-son Farmon bilan tasdiqlangan “2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”da ham davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida ko‘rsatilgan [10].

Shu ma’noda, sun’iy intellektning jadal rivojlanishi davlat tilini rivojlantirish masalasiga yangi mazmun olib kiradi. Bugungi vazifa o‘zbek tilining raqamli muhitda shunchaki mavjud bo‘lishini ta’minlash emas, balki uni sun’iy intellekt tizimlari sifatli tushunadigan, qayta ishlay oladigan va generatsiya qila oladigan tilga aylantirishdan iborat.

Asosiy qism. Sun’iy intellektning til bilan ishlash imkoniyatlari, avvalo, uning qanday ma’lumotlar asosida o‘qitilganiga bog‘liq. Katta til modellari juda katta hajmdagi matnlarni qayta ishlash orqali tilning lug‘aviy, grammatik, sintaktik va semantik qonuniyatlarini o‘zlashtiradi. Shuning uchun muayyan tilning sun’iy intellektdagi imkoniyati o‘sha tilda mavjud bo‘lgan raqamli ma’lumotlarning hajmi bilan birga, ularning sifati, xilma-xilligi va lingvistik jihatdan qayta ishlanganlik darajasiga ham bog‘liq. Jumladan, o‘zbek tilida ham bu borada muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o‘zbek tili uchun ishlab chiqilgan UzLM modelini yaratish jarayonida turli manbalardan taxminan 80 million so‘z, 68 mingga yaqin turli so‘z va 15 million gap jamlangan. Tadqiqotchilar mazkur ma’lumotlardan o‘zbek tili uchun til modeli yaratishda va avtomatik nutqni tanish tizimlarini takomillashtirishda foydalangan [11].

[9] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF–5850-son Farmon, 2019-yil 21-oktabr.
[10] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**.** Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF–6084-son Farmon, 2020-yil 20-oktabr.
[11] Khujayorov, I., et al. Development of Language Models for Continuous Uzbek Speech Recognition System. *Sensors*, 2023, 23(3), 1145.

Keyingi yillarda o‘zbek tilining alohida lingvistik xususiyatlarini ifodalovchi datasetlar ham yaratilmoqda. Xususan, morfologik datasetlarda o‘zbek tilidagi so‘z shakllarining o‘zagi, qo‘shimchalari va grammatik xususiyatlari belgilanmoqda[12]. O‘zbek tilidagi turli janrlarni qamrab olgan UzbekPOS datasetida esa minglab gaplar va o‘n minglab tokenlar so‘z turkumlari bo‘yicha annotatsiya qilingan[13]. Bunday tadqiqotlar o‘zbek tilining mashina tomonidan tushunish va qayta ishlash imkoniyatlarini bosqichma-bosqich kengaytirmoqda.

Biroq mavjud natijalarni umumiy til resurslari nuqtayi nazaridan baholaganda, hali oldinda katta vazifalar borligi ko‘rinadi. Chunki sun’iy intellektga o‘zbek tilini o‘rgatish uchun faqat internetdagi zamonaviy matnlar yetarli emas. O‘zbek tilining barcha uslubiy va tarixiy qatlamlarini qamrab oluvchi, sifatli va muvozanatli raqamli resurslar zarur.

Bu borada “O‘zbek tili korpusi”ni yaratish bo‘yicha davlat darajasidagi ishlar alohida ahamiyatga ega. 2025-yil oktabr oyida O‘zbekistonda o‘zbek tilidagi katta til modelini yaratish uchun 10 milliard so‘zdan iborat korpus shakllantirilayotgani ma’lum qilindi. Korpus tarkibiga kitoblar, maqolalar, o‘quv va ilmiy nashrlar hamda boshqa elektron materiallarni kiritish ko‘zda tutilgan[14]. Bu tashabbus ahamiyatli, biroq korpus hajmini oshirishning o‘zi muammoning to‘liq yechimi emas. Masalan, bir necha milliard so‘zlik ma’lumotlar ichida takroriy, sifatsiz, imloviy xatolarga boy yoki tarjima orqali shakllangan matnlar ko‘p bo‘lsa, bunday korpusning katta hajmi uning yuqori sifatli ekanini anglatmaydi. Shuning uchun o‘zbek tilining AI uchun resurslarini yaratishda “ko‘p ma’lumot” bilan bir qatorda “sifatli ma’lumot” tamoyili asosiy mezonlardan biri bo‘lishi kerak.

Korpus tarkibida badiiy adabiyot, ilmiy va ilmiy-ommabop asarlar, darsliklar, jurnalistik materiallar, huquqiy hujjatlar, iqtisodiy va texnik matnlar, og‘zaki nutq namunalari, lug‘atlar, internet matnlari bilan bir qatorda tarixiy manbalar ham bo‘lishi lozim. Chunki til faqat bugungi kunning kommunikatsiya vositasi emas, balki xalqning tarixiy xotirasi va madaniy tajribasini saqlovchi tizimdir. Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek tilining sun’iy intellektdagi imkoniyatlarini kengaytirish masalasida milliy madaniy merosni raqamlashtirish alohida o‘rin tutadi.

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik adabiy va ilmiy merosi tilimizning lug‘at boyligi, grammatik qurilishi, uslubiy imkoniyatlari va milliy tafakkurini o‘zida mujassam etgan. Bugungi vazifa bu merosni shunchaki elektron shaklda saqlash emas, balki uni OCR orqali raqamlashtirish, matnlarni tahrirdan o‘tkazish, metadata va lingvistik annotatsiyalar bilan boyitish orqali sun’iy intellekt tizimlari foydalanishi mumkin bo‘lgan sifatli raqamli lingvistik resursga aylantirishdir. Shu

[12] Abdurakhmonova, N., Shirinova, R., Sayfullayeva, R., Mengliev, D., Ibragimov, B., Ernazarova, M. An annotated morphological dataset for Uzbek word forms: Towards rule-based and machine learning approaches. *Data in Brief*, 2025, 61, 111702.
[13] Sharipov, M., Kuriyozov, E., Vičič, J. UzbekPOS: A multi-domain dataset for Uzbek part-of-speech tagging. Data in Brief, 2026, 66, 112640.
[14] O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. “Hukumat soati”da sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish masalasi muhokama qilindi. 2025-yil 8-oktabr.

ma’noda raqamli lingvistik meros tushunchasini shakllantirish va rivojlantirish dolzarbdir. Milliy adabiyot va madaniyatning raqamlashtirilgan qatlamlari kelajakdagi AI tizimlariga o‘zbek tilining faqat bugungi emas, balki tarixiy va madaniy mazmunini ham anglash imkonini beradi.

Bu borada ayrim amaliy loyihalar allaqachon mavjud. Jumladan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida Alisher Navoiy mualliflik korpusini shakllantirish yo‘nalishida ishlar olib borilib, uning ayrim asarlari, jumladan, “Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallar semantik jihatdan teglangan[15]. Bunday loyihalarni kengaytirish o‘zbek tilining tarixiy qatlamlarini sun’iy intellekt va boshqa raqamli texnologiyalar uchun foydalanishga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Davlat siyosatida ham ushbu masalaga e’tibor kuchaymoqda. 2025-yil 21-oktabrda davlat tili maqomi berilganining 36 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan yig‘ilishda o‘zbek tilidagi adabiyotlar, maqolalar, hisobotlar va ilmiy ishlarning katta qismi hali raqamlashtirilmagani qayd etilib, “O‘zbek tili korpusi”ni yaratish hamda milliy madaniyat va qadriyatlarni sun’iy intellekt tizimlarida aks ettirish masalalari ilgari surildi[16].

Shuningdek, 2025-yil 20-oktabrdagi PQ–308-son qarorda davlat tilini yanada rivojlantirish, o‘zbek tilining zamonaviy raqamli muhitdagi imkoniyatlarini kengaytirish, til korpusini rivojlantirish, sun’iy intellekt asosida til bilan ishlash imkoniyatlarini kengaytirish, avtomatik tarjima va imloviy xatoliklarni tekshirish tizimlarini takomillashtirishga oid vazifalar belgilangan[17].

Shu bilan birga, o‘zbek tilining AI tizimlaridagi imkoniyatlarini kengaytirishda foydalanuvchi kompetensiyasi ham muhim. Generativ sun’iy intellekt bilan ishlashda prompt, ya’ni tizimga beriladigan topshiriqning aniq va mantiqiy tuzilishi natijaga bevosita ta’sir qiladi. O‘zbek tilida sifatli prompt yaratish ko‘nikmasini shakllantirish orqali foydalanuvchilar AI imkoniyatlaridan o‘z ona tilida samaraliroq foydalanishi mumkin. Bu jarayonni faqat texnik ko‘nikma sifatida emas, yangi raqamli lingvistik kompetensiya sifatida baholash mumkin. Biroq prompt engineeringning o‘zi ham yetarli emas. Foydalanuvchi qanchalik yaxshi prompt bermasin, agar model o‘zbek tilidagi sifatli va yetarli ma’lumotlar bilan ta’minlanmagan bo‘lsa, uning javoblari mazmuniy, terminologik yoki madaniy jihatdan cheklangan bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun o‘zbek tilining AI tizimlaridagi taraqqiyoti ikki tomonlama jarayon sifatida qaralishi kerak: bir tomondan, sun’iy intellektni sifatli o‘zbekcha ma’lumotlar bilan ta’minlash, ikkinchi tomondan esa foydalanuvchilarning AI bilan

[15] Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. Alisher Navoiy mualliflik korpusi. Toshkent, 2023
[16] O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 36 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan yig‘ilish materiallari. 2025-yil 21-oktabr.
[17] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PQ–308-son Qaror, 2025-yil 20-oktabr.

o‘zbek tilida samarali ishlash kompetensiyasini rivojlantirish. O‘zbek tilining sun’iy intellektdagi imkoniyatlarini kengaytirish uchun, avvalo, yagona va muntazam yangilanib boradigan milliy til korpusini shakllantirish zarur. Unda zamonaviy matnlar bilan birga tarixiy va mumtoz manbalar, ilmiy adabiyotlar, jurnalistik materiallar, rasmiy hujjatlar, ta’limiy kontent, og‘zaki nutq va turli sohalarga oid terminologiya qamrab olinishi kerak.

Ikkinchidan, o‘zbek tilidagi raqamli materiallarni lingvistik annotatsiya qilish ko‘lamini kengaytirish lozim. Uchinchidan, yangi terminlar va so‘zlarning elektron bazasini AI tizimlari uchun foydalanishga qulay shaklga keltirish maqsadga muvofiq. To‘rtinchidan, o‘zbek tilining AI tizimlaridagi sifatini muntazam baholash uchun maxsus benchmark va testlar ishlab chiqish zarur.

Beshinchidan, milliy madaniy merosni raqamlashtirish jarayonida mualliflik huquqi va intellektual mulk talablariga rioya qilgan holda AI tizimlari uchun foydalanish mumkin bo‘lgan ochiq va litsenziyalangan ma’lumotlar bazasini shakllantirish kerak. Oltinchidan, jurnalistika, ta’lim, ilm-fan, huquq, iqtisodiyot va boshqa sohalar uchun maxsus o‘zbekcha AI-korpuslar yaratish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Bugungi kunda davlat tilining taraqqiyoti raqamli makondagi mavjudlik bilan chambarchas bog‘liq. Sun’iy intellekt insonning axborot olish, bilim izlash va kommunikatsiya qilish vositalaridan biriga aylanayotgan sharoitda o‘zbek tilining ushbu tizimlarda qanday namoyon bo‘lishi davlat tilining kelajakdagi mavqeini belgilovchi omillardan biridir. So‘nggi yillarda o‘zbek tili uchun korpuslar, datasetlar, morfologik va sintaktik resurslar, nutq texnologiyalari yaratila boshlagani, shuningdek, milliy “O‘zbek tili korpusi”ni shakllantirish bo‘yicha davlat darajasidagi vazifalarning belgilanishi muhim qadamdir.

Biroq kelajakdagi vazifa faqat ma’lumotlar hajmini ko‘paytirishdan iborat emas. O‘zbek tilining AI tizimlarida to‘laqonli namoyon bo‘lishi uchun uning sifatli, xilma-xil, annotatsiyalangan va doimiy yangilanib boradigan raqamli resurslari yaratilishi zarur. Ayniqsa, milliy adabiy va madaniy merosni raqamlashtirishga alohida e’tibor berish lozim. Chunki Alisher Navoiy va boshqa ijodkorlarning asarlari, tarixiy manbalar, folklor va jadid merosi faqat o‘tmishning yodgorligi emas. Ular o‘zbek tilining lug‘aviy, grammatik va madaniy boyligini ifodalovchi, kelajakdagi sun’iy intellekt tizimlari uchun ham muhim bilim manbalaridir.

Shunday ekan, davlat tilining raqamli taraqqiyoti — o‘zbek tilini shunchaki elektron shaklga o‘tkazish emas. Bu o‘zbek tilining butun lingvistik, adabiy va madaniy boyligini sun’iy intellekt tushuna oladigan va undan foydalana oladigan raqamli resursga aylantirish jarayonidir. Kelajakda o‘zbek tilining kuchi uning nafaqat qancha odam tomonidan ishlatilishi, balki sun’iy intellekt tomonidan qanchalik chuqur anglanishi, qayta ishlanishi va yangi bilimlarni yaratishda

qo‘llanilishi bilan ham belgilanadi. Shu ma’noda o‘zbek tilini sun’iy intellekt uchun rivojlantirish — davlat tilining raqamli davrdagi taraqqiyoti va milliy yuksalishining muhim yo‘nalishlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF–5850-son Farmon, 2019-yil 21-oktabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF–6084-son Farmon, 2020-yil 20-oktabr.
3. Khujayorov, I., et al. Development of Language Models for Continuous Uzbek Speech Recognition System. *Sensors*, 2023, 23(3), 1145.
4. Abdurakhmonova, N., Shirinova, R., Sayfullayeva, R., Mengliev, D., Ibragimov, B., Ernazarova, M. An annotated morphological dataset for Uzbek word forms: Towards rule-based and machine learning approaches. *Data in Brief*, 2025, 61, 111702.
5. Sharipov, M., Kuriyozov, E., Vičič, J. UzbekPOS: A multi-domain dataset for Uzbek part-of-speech tagging. *Data in Brief*, 2026, 66, 112640.
6. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. “Hukumat soati”da sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish masalasi muhokama qilindi. 2025-yil 8-oktabr.
7. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. Alisher Navoiy mualliflik korpusi. Toshkent, 2023.
8. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 36 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan yig‘ilish materiallari. 2025-yil 21-oktabr.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PQ–308-son Qaror, 2025-yil 20-oktabr.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PF–189-son Farmon, 2025-yil 22-oktabr.

O‘ZBEK SUD-HUQUQ TERMINOLOGIYASIDA FRANSUZ TILIDAN O‘ZLASHGAN LEKSIK BIRLIKLAR

Otaqulov Jamshid Zubaydullayevich
Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Samarqand viloyat akademik litseyi direktorining yoshlar bilan ishlash bo‘yicha o‘rinbosari
G‘ulomova Diana Xayrullo qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Samarqand viloyat akademik litseyi 2-bosqich o‘quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek sud-huquq terminologiyasining shakllanishida fransuz tilining o‘rni hamda fransuz tilidan o‘zlashgan yoki fransuz tili vositasida xalqaro huquqiy muomalaga kirgan leksik birliklarning lingvistik xususiyatlari tadqiq etiladi. Mazkur maqolada *advokat, prokuror, notarius, yurisdiksiya, apellyatsiya, kassatsiya, tribunal, kontrakt, dekret, amnistiya, jurisprudensiya* kabi birliklarning etimologik va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: sud-huquq terminologiyasi, yuridik termin, o‘zlashma, fransuz tili, etimologiya, semantika, yurisdiksiya, apellyatsiya, kassatsiya, advokat, prokuror.

Tillardagi lug‘at tarkibining rivojlanishi jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va huquqiy jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Xususan, huquqiy terminologiya davlatlar va huquqiy tizimlar o‘rtasidagi aloqalar orqali tez rivojlanadigan leksik qatlamlardan birini tashkil qiladi. Sud va huquqiy terminologiya - bu ma'lum huquqiy tushunchalarni aniq, lo‘nda va bir ma'noli ifodalashga imkon beradigan o‘ziga xos leksik birliklar to‘plamidir.

Tarixan o‘zbek huquqiy terminologiyasi turli tillar bilan aloqalar orqali shakllangan. Arab, fors-tojik, rus va yevropa tillaridan o‘zlashtirilgan birliklardan tashqari, xalqaro xarakterdagi atamalar ham muhim rol o‘ynaydi. Yevropa tillari orasida fransuz tilining huquqiy terminologiyaga ta'siri alohida e'tiborga loyiqdir. Bu, avvalo, fransuz tilining uzoq vaqtdan beri diplomatiya, davlat boshqaruvi, xalqaro munosabatlar, huquqiy va madaniy munosabatlarda ma'lumotnoma tili sifatida qo‘llanilganligi bilan bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek sud va huquqiy terminologiyasida fransuzcha kelib chiqishga tegishli birliklarni o‘rganish nafaqat leksikologik nuqtai nazardan, balki tarixiy-etimologik va qiyosiy-tipologik nuqtai nazardan ham muhimdir.

O‘zbek sud-huquq terminologiyasida fransuz tilining roli. Fransuz tili Yevropa huquqiy tafakkuri va terminologiyasini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan tillardan biridir. Fransuz huquqiy tizimining rivojlanishi, Napoleon

davridagi kodifikatsiya jarayonlari va fransuz huquqiy an’analarining boshqa mamlakatlarga ta’siri tufayli ko‘plab atamalar xalqaro huquqiy leksikaga kirib keldi.

O‘zbek tilidagi ba’zi huquqiy birliklarning shakli fransuz tiliga o‘xshash bo‘lsa-da, ularning etimologik ildizlari lotin tiliga borib taqaladi. Masalan, "juridion" fransuzcha atama bo‘lsa, "jurisdictio" lotincha shakl bo‘lib, "sud hokimiyati" yoki "sud sohasi" degan ma’noni anglatadi. O‘zbek tilidagi "yurisdiksiya" atamasini ushbu xalqaro terminologik zanjirning bir qismi deb hisoblash mumkin.

Xuddi shunday, "appel" atamasi fransuzcha "appel" va "appelation" shakllari bilan bog‘liq bo‘lsa-da, uning ildizlari lotincha "appellatio"ga borib taqaladi. Shuning uchun, bu atamalarni nafaqat fransuz tilidan olingan so‘zlar sifatida, balki fransuz tili orqali tarqalgan xalqaro huquqiy terminologiya birliklari sifatida ham talqin qilish ilmiy jihatdan aniqroq ekanligini ko‘rsatadi.

Fransuz tiliga oid sud-huquqiy atamalarning strukturaviy va semantik xususiyatlari. O‘zbek huquqiy terminologiyasida fransuz tiliga oid bir nechta birliklar mavjud:

N	O‘zbekcha termin	Fransuzcha shakli	Asosiy ma’nosi	Etimologik izoh
1	*advokat*	avocat	sudda huquqiy himoya qiluvchi shaxs	lotin ildizli, fransuz shakli orqali tarqalgan
2	*prokuror*	procureur	davlat ayblovini amalga oshiruvchi huquqshunos	lotin-fransuz-halqaro terminologik qatlam
3	*notarius*	notaire	huquqiy hujjatlarni tasdiqlovchi shaxs	lotin ildizli, fransuzcha shakl bilan bog‘liq
4	*yurisdiksiya*	juridiction	sudlov vakolati, vakolat doirasi	lotincha jurisdictio
5	*apellyatsiya*	appel / appelation	yuqori sudga murojaat qilish	lotincha appellatio
6	*kassatsiya*	cassation	sud hujjatini kassatsiya tartibida ko‘rib chiqish	lotincha ildizga ega
7	*tribunal*	tribunal	sud organi	lotincha tribunal
8	*kontrakt*	contrat	Shartnoma, bitim	lotincha contractus, fransuzcha shakl orqali keng tarqalgan

9	*dekret*	décret	huquqiy yoki davlat hokimiyati hujjati	lotincha decretum
10	*amnistiya*	amnistie	jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti	yunoncha ildizli, fransuz shakli orqali xalqaro terminologiyada tarqalgan

Jadval asosidagi tahlil shuni ko‘rsatadiki, bu birliklarning barchasini sof fransuz tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan deb hisoblash metodologik jihatdan noto‘g‘ri. Ularning ba'zilari lotin yoki qadimgi yunon tilidan kelib chiqqan va fransuz tili orqali Yevropa va xalqaro huquqiy terminologiyada keng qo‘llaniladi.

Leksik o‘zlashtirilgan so‘zlarning o‘zbek tiliga moslashishi. Fransuz tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan huquqiy atamalar kelib chiqishi va o‘zlashtirilishiga ko‘ra bir nechta moslashuv turlariga bo‘linadi.

Birinchidan, fonetik moslashuv sodir bo‘ladi. Masalan, avocat → advokat, procureur → prokuror, juridiction → jurisdiksiya shakllari o‘zbekcha talaffuz normalariga moslashadi.

Ikkinchidan, grafik moslashuv kuzatiladi. Lotin alifbosiga asoslangan o‘zbek alifbosida atamalar o‘zbek orfografik normalariga muvofiq yoziladi.

Uchinchidan, grammatik moslashuv kuzatiladi. Leksik o‘zlashtirilgan so‘zlar o‘zbek otlarining grammatik kategoriyalarini qabul qiladi: advokatlar, advokatning, advokatga, prokurorlar, prokurorning; sud yurisdiksiyasi va boshqalar.

To‘rtinchidan, semantik moslashuv sodir bo‘ladi. Ushbu atamaning ma'nosi milliy huquqiy tizimning o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq cheklanishi yoki kengaytirilishi mumkin, shu bilan birga uning xalqaro huquqiy ahamiyati saqlanib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek huquqiy terminologiyasining shakllanishi murakkab, ko‘p manbali lingvistik jarayon ekanligini ta’kidlash joiz. Ushbu terminologik qatlam ichida milliy lingvistik birliklardan tashqari, arab, fors-tojik, rus va yevropa tillaridan o‘zlashtirilgan atamalar ham tez-tez ishlatiladi. Fransuz tili ushbu yevropa tillari qatoriga kiradi va xalqaro huquqiy terminologiyaning shakllanishi va tarqalishida asosiy vositachi tillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shunday qilib, fransuz tilining o‘zbek huquqiy terminologiyasiga ta’siri nafaqat alohida atamalarning assimilyatsiyasi, balki xalqaro huquqiy tushunchalarning milliy huquqiy munozaraga kiritilishi va terminologik tizimning globallashuvi orqali ham namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishonov P. Fransuz va o‘zbek tillarida yuridik terminlarning qiyosiy-tipologik tadqiqi. – Toshkent.
2. Hojiyev A. O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishi. – Toshkent: Fan, 2010.
3. Rey A. Dictionnaire historique de la langue française. – Paris: Le Robert.
4. Cornu G. Vocabulaire juridique. – Paris: Presses Universitaires de France.
5. Guinchard S., Debard T. Lexique des termes juridiques. – Paris: Dalloz.

O‘TKIR RAHMAT POETIKASIDA SINONIM METAFORANING IFODALANISHI

Maxammatova Feruza Olimovna,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti mustaqil tadqiqotchisi,
Zarmed universiteti o‘qituvchisi
FeruzaOlimovna 0105@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy matnda sinonimlarning metafora hosil qilish xususiyatlari semantik jihatdan tahlil qilinadi. Sinonimik birliklarning o‘zaro ma’noviy munosabati, kontekstual imkoniyatlari hamda ko‘chma ma’no shakllanishidagi o‘rni yoritilgan. Xususan, O‘tkir Rahmatning “ Fasllar aylanar, tugamaydi she’r” deb nomlangan she’riy to‘plamida keltirilgan *dovul–bo‘ron* va *chang–gard* birliklarining poetik matndagi qo‘llanishi asosida sinonimlarning metaforik obraz yaratish, emotsional-ekspressiv ta’sirni kuchaytirish va muallifning individual poetik tafakkurini namoyon etish imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, metafora hosil bo‘lishida semantik ko‘chish, kontekstual ma’no, assotsiativ bog‘lanish va kommunikativ maqsadning o‘zaro aloqasi asoslangan. Tadqiqot natijalari sinonimlarning badiiy nutqdagi vazifasi faqat ma’noni takrorlash yoki aniqlashtirish bilan cheklanmasligini, balki poetik obrazning semantik yaxlitligi, ta’sirchanligi va badiiy-estetik qiymatini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: sinonim, metafora, semantik tahlil, pragmatik yondashuv, psixolingvistika, ko‘chma ma’no, poetik obraz, assotsiativ bog‘lanish, emotsional-ekspressivlik, badiiy tafakkur.

Аннотация: В данной статье анализируются семантические особенности синонимов в формировании метафор в литературном тексте. Выделяются семантические отношения, контекстуальные возможности и роль синонимичных единиц в формировании переносимого значения. В частности, использование единиц «*ураган -буря» и «пыль- сторожить»* в поэтическом тексте сборника стихов Откира Рахмата «Времена года меняются, стихотворение бесконечно» раскрывает возможности синонимов в создании метафорического образа, усилении эмоционально-экспрессивного эффекта и выражении индивидуального поэтического мышления автора. Также формирование метафоры основано на взаимодействии семантического переноса, контекстуального значения, ассоциативной связи и коммуникативной цели. Результаты исследования показывают, что функция синонимов в художественной речи не ограничивается лишь повторением или уточнением значения, но также играет важную роль в формировании семантической целостности, выразительности и художественно-эстетической ценности поэтического образа.

Ключевые слова: синоним, метафора, семантический анализ, прагматический подход, психолингвистика, образное значение, поэтический образ, ассоциативная связь, эмоционально-выразительность, художественное мышление.

Abstract: This article presents a semantic analysis of the capacity of synonyms to generate metaphors within literary texts. It examines the semantic relationships between synonymous units, their contextual potential, and their role in the formation of figurative meanings. Specifically, by analyzing the use of synonym pairs such as *dovul–bo‘ron* (gale–storm) and *chang–gard* (dust–specks) in O‘tkir Rahmat’s poetry collection Fasllar aylanar, tugamaydi she’r (Seasons Turn, the Poem Never Ends), the study reveals how synonyms can create metaphorical imagery, intensify emotional-expressive impact, and reflect the author’s unique poetic vision. Furthermore, the article establishes the interplay between semantic shift, contextual meaning, associative connection, and communicative intent in the creation of metaphors. The research findings demonstrate that the function of synonyms in literary discourse extends beyond merely repeating or clarifying meaning; they play a crucial role in shaping the semantic integrity, emotional resonance, and artistic-aesthetic value of poetic imagery.

Keywords: synonym, metaphor, semantic analysis, pragmatic approach, psycholinguistics, figurative meaning, poetic image, associative connection, emotional-expressiveness, artistic thought.

Kirish.

Kommunikatsiya vositasi sifatida yuzaga kelgan tilda biz bevosita borliqni anglay olish, o‘ziga xos dunyoqarashimizni aks ettira olish imkoniyatlari berilgan. Bu imkoniyatlardan foydalana olishimizda ko‘chim turi sifatida qaraluvchi metaforalar yordamchi birliklar sifatida maydonga keladi. Metafora til birliklarining nominativ va obrazli ifoda imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, insonning predmet va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik, assotsiativ yaqinlik hamda konseptual munosabatlarni anglash jarayonini ham aks ettiradi. Shu bois metaforani o‘rganish nafaqat leksik-semantik hodisalarni tavsiflash, balki til va tafakkur munosabatlarini aniqlash nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy tilshunoslikda metafora an’anaviy ravishda ma’no ko‘chishining bir turi sifatida izohlanishi bilan bir qatorda, kognitiv, pragmatik va lingvokultural yondashuvlar asosida ham tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, metaforik ma’noning yuzaga kelish mexanizmlarini aniqlash, uning shakliy tuzilishi va semantik asoslari o‘rtasidagi munosabatni ochib berish masalasi dolzarb ilmiy muammolardan biridir. Chunki metafora bir tomondan, til birliklarining shakliy va tarkibiy xususiyatlarini namoyon etsa, ikkinchi tomondan, insonning borliq haqidagi tasavvurlari, tajribasi va obrazli tafakkurini ifodalashga xizmat qiladi.

Metaforaning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlarini o‘rganishda ushbu ikki jihatni o‘zaro farqlash muhimdir. Metaforaning shakliy xususiyati uning qanday lingvistik birliklar vositasida va qay darajada keng ifodalanishini ko‘rsatsa, semantik xususiyati ma’no ko‘chishiga asos bo‘lgan belgi va munosabatlarni aniqlash imkonini beradi. Masalan, *oltin kuz*, *hayot yo‘li*, *ilm chirog‘i* kabi birikmalarda

metaforik ma’no rang, harakat yoki vazifaviy o‘xshashlik bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Bunday birliklarni semantik jihatdan tahlil qilish metaforaning yuzaga kelish mexanizmlarini aniqlash va uning nutqiy imkoniyatlarini yoritishga yordam beradi.

Metaforani tasniflashda shakliy tuzilish, semantik motivatsiya va kognitiv asos kabi mezonlarning o‘zaro munosabatini aniqlashtirish alohida ahamiyatga ega. Mazkur mezonlarni farqlamaslik metaforaning turli xususiyatlarini yagona tasnif doirasida aralashtirib yuborishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun metaforik birliklarni, bir tomondan, ifodalanish ko‘lami va tarkibiy tuzilishi, ikkinchi tomondan, ma’no ko‘chishining asoslari hamda konseptual xususiyatlari nuqtayi nazaridan o‘rganish zarurati yuzaga keladi.

Tadqiqotning maqsadi metaforaning shakliy tuzilishi va semantik asoslarini aniqlash, shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra uning asosiy ko‘rinishlarini tavsiflash hamda metaforik birliklarning til va nutqdagi funksional xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun metaforaning lingvistik mohiyatini yoritish, uning shakliy ko‘rinishlarini tavsiflash, semantik ko‘chimni

yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash va turli metaforik modellarni misollar asosida tahlil qilish vazifalari belgilandi.

Adabiyotlar tahlili va metadalogiyasi.

Shoabdurahmonov Sh. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida tildagi so‘zlarning ma’lum bir qismi shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra o‘zaro aloqador birlikni tashkil etishini va bunday birliklar quyidagi turlarga bo‘linishini keltiradi:

1) omonimlar; 2) omofonlar; 3) omograflar; 4) paronimlar; 5) sinonimlar; 6) antonimlar.[18]

Yo‘ldoshev I. va Sharipova O‘. hammuallifligida o‘quv qo‘llanmada tilda leksik ma’nolar o‘zaro munosabatda bo‘lishini ular shakldosh, ma’nodosh, ma’nolari zid bo‘lishi aytilgan. [19] Keltirilgan nazariy ma’lumotlar tahlil qilinganda shakldosh so‘zlar deyilganda omonim so‘zlar, ma’nodosh – sinonim, ma’nosi zid – antonim so‘zlar sifatida tenglashtirilgan. Bu keltirilgan nazariy terminlar sinonim sifatida fanda qabul qilingan.

Tilning lug‘at boyligini, voqealikni aniq tasvirlab berish imkoniyatini beruvchi sinonimiya hodisasi haqida bir qator ilmiy maqola, aynan shu mavzuga bag‘ishlangan ilmiy asarlar, tadqiqot ishlari ham yaratilgan. Bu yaratilgan ilmiy ishlarda asosiy e’tiborni semantik jihatiga qaratgan holda tadqiq qilingan. Sinonimlarning metafora hosil qilish jihatiga alohida e’tibor qaratilmagan. A. Hojiyev: “ Sinonimlar – talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma’nosi bir xil bo ‘lgan, qo‘shimcha ma’no nozikligi, emotsional bo’yog‘i, qo‘llanishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o‘zaro farqlanadigan so‘zlardir”[20], degan ta’rifni bersa Yo. Tojiyev: “ Sinonimlarning amaliy ahamiyati juda kata bo‘lib, birinchi navbatda u yoki bu tilning qay darajada boy ekanligini, rivojlanganligini belgilasa, ikkinchidan badiiy adabiyotda umuman badiiy adabiyotda umuman nutqda ta’sirchanlikni, ta’sirchanlikni ta’minlashiga izoh bergan[21]. Bu berilgan ta’riflar sinonimlarning stilistik jihatiga e’tibor qaratilgan.

H. Shamsiddinov “ So‘zlarning funksional- semantik sinonimlarning shakily va ma’noviy tabiati” nomli o‘quv qo‘llanmasida o‘z nomiga ega denotatani ifoda maqsadiga ko‘ra qayta nomlash yuzaga kelgan ma’no funksional ma’no sifatida tanolinishi kerakligi ta’kidlangan. *Shayton, tulki, tullak, maston* so‘zlari ayyor so‘zining leksik –semantik sinonimi emas, funksional –semantik sinonimlari ekanligi tahlil qilingan. Shu nuqtayi nazardan qaralganda nolisoniy nom ko‘chishi hodisasi sanalgan metafora, metonimiya, senokdoxa hamda lisoniy hisoblangan ellipsis ta’sirida yuzaga kelgan nomlanishlar mahsuli bo‘lgan ma’nolar ham so‘zlarning leksik –semantik emas, funksional –semantik ma’nolari sifatida

[18] Shoabdurahmonov Sh. Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1- qism. Toshkent. 1980.B. 110.
[19] Yo ‘ldashev I. Sharipova O ‘. Tilshunoslik asoslari. Toshkent, 2007 B. 31.
[20] Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. Toshkrnt, 1974 B. 3
[21] Tojiyev Yo. T. O‘zbek tilida affiksal sinonomiya. Toshkent, 1991 B. 21.

ko‘rilishi kerakligi izohlangan [22]. Tahlil qilingan nazariyani biz O‘tkir Rahmat ijodida qo‘llangan sinonimlarning metafora hosil qilish jarayonini tahlil qilamiz va uning o‘ziga xos imkoniyatlarini poetik konteksda ifodalanishi kuzatiladi.

Tahlillar va natijalar. Nazariy ma’lumotlar tahlil qiliganda, ko‘chim turi sifatida qaraladigan metaforaning

Dingizga aylandim, zavq-u shavqqa esh,
Zamondan oldim so‘ng ozroq ulguni
Dovul, bo‘ronlarim to‘xtamadi hech

She’riy parchada qo‘llangan *dovul va bo‘ron* leksemalari shoirning ruhiy kechinmalari, ichki energiyasi, hayotiy kurashi hamda ijodiy shiddatini ifodalovchi metaforik vositalar sifatida namoyon bo‘ladi:

Mazkur parchada dovul va bo‘ron so‘zlari o‘zaro ma’nodosh birliklar sifatida qo‘llangan bo‘lsa-da, ularning badiiy matndagi vazifasi oddiy sinonimik munosabat bilan cheklanmaydi. Ushbu leksemalar tabiat hodisasiga xos kuch, shiddat va harakat belgilarini insonning ichki dunyosi, ruhiy holati hamda faoliyatiga ko‘chirish orqali metaforik ma’no hosil qiladi. Natijada tabiat manzarasi insonning ma’naviy-ruhiy olamini ifodalovchi poetik obrazga aylanadi. Semantik nuqtayi nazardan, dovul va bo‘ron leksemalarining metaforik xususiyati ularning denotativ ma’nosidan konnotativ ma’noga ko‘chishi bilan belgilanadi. Dovul so‘zi kuchli shamol, tabiatdagi keskin harakat va shiddatli hodisalarni anglatadi. Bo‘ron leksemasi ham kuchli shamol va tabiatning beqaror holatini ifodalab, matnda harakatning jadalligi, kuchi va davomiyligini ta’kidlaydi. Har ikki leksemaning umumiy semantik belgisi - kuch, shiddat, tinimsiz harakat va muvozanatni o‘zgartirish xususiyatlaridir. She’riy kontekstda ushbu belgilar tabiat hodisasidan insonning ruhiy va ijodiy faoliyatiga ko‘chiriladi. Ya’ni dovul va bo‘ronning tashqi olamdagi kuchli harakati shoirning ichki kechinmalari, jo‘shqin tabiati va faol hayotiy pozitsiyasini ifodalashga xizmat qiladi.Ayniqsa, “*Dovul, bo‘ronlarim to‘xtamadi hech*” misrasida metaforik ko‘chish yaqqol namoyon bo‘ladi. *Dovul* va *bo‘ron* so‘zlariga birinchi shaxsga tegishlilikni bildiruvchi -*larim* qo‘shimchasining qo‘shilishi tabiat hodisalarini lirik qahramonning shaxsiy ruhiy olamiga daxldorlashtiradi. Shu tariqa tashqi tabiatga xos hodisa subyektning ichki xususiyatiga aylanadi. “*To‘xtamadi hech*” birikmasi esa metaforik obrazning semantik doirasini kengaytirib, kuch va shiddatning uzluksizligi ma’nosini yuzaga chiqaradi. Demak, mazkur misrada dovul va bo‘ron leksemalari nafaqat kuchli ruhiy kechinmalarni, balki ularning davomiyligi va barqarorligini ham ifodalaydi.

Men yo‘limda qolmayman sira,
Izlarimni o‘psa-da *chang- gard.*
Hamrohimdir umid bokira,

[22] Shamsiddinov H. So‘zlarning funksional –semantik sinonimlarining shakily va ma`noviy tabiati. O‘quv qo‘llanma. T.:, 2008. B.7.

Mazkur to‘rtlikda chang-gard so‘zi oddiy tabiat hodisasi yoki yo‘l yuzasida hosil bo‘ladigan mayda zarrachalar ma’nosidagina qo‘llanmagan. U she’riy kontekstda insonning hayot yo‘li, bosib o‘tgan masofasi, ortda qoldirgan izlari va vaqt davomida to‘plangan tajribasini anglatishi mumkin bo‘lgan ko‘p qatlamli poetik obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, “Izlarimni o‘psa-da chang-gard” misrasida ushbu birlikning boshqa so‘zlar bilan munosabati metaforik mazmunning shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Chang-gard birligining lug‘aviy-semantik xususiyatlari: Chang va gard leksemalari o‘zaro yaqin ma’noli birliklar bo‘lib, chang, tuproqning mayda zarrachalari, yo‘l va yer yuzasida ko‘tariladigan g‘ubor kabi tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi. Ularning birikishi natijasida yuzaga kelgan chang-gard ifodasi matnda changning ko‘zga ko‘rinadigan moddiy xususiyatlaridan tashqari, qo‘shimcha obrazli ma’nolarni ham hosil qiladi. Semantik tahlilda ushbu birlikning ma’nosini uch bosqiqichda ko‘rib chiqish mumkin.

Denotativ ma’no. *Chang-gard*, avvalo, yo‘l yuzasida paydo bo‘ladigan, harakat natijasida ko‘tariladigan yoki yerga qo‘nadigan mayda zarrachalar va g‘uborni tasavvurga keltiradi. Bu ma’no she’rda hayot yo‘li bilan bog‘liq moddiy manzarani yuzaga chiqaradi.

Konnotativ ma’no. *Chang-gard* obrazi kontekst ta’sirida uzoq yo‘l, mashaqqat, o‘tgan vaqt, iztirob va hayotiy sinovlar kabi tushunchalarni eslatishi mumkin. Bunda changning yo‘l bilan bog‘liqligi va inson harakatidan keyin izlar ustida qolishi semantik ko‘chish uchun asos bo‘ladi.

Poetik-metaforik ma’no. *Chang-gard* shoirning hayot va ijod yo‘lida ortda qolgan tajribalari, duch kelgan qiyinchiliklari hamda bosib o‘tgan yo‘lining ramziy ifodasiga aylanadi. Biroq bu ma’nolar so‘zning lug‘aviy tarkibida tayyor holda mavjud emas; ular she’riy kontekst va boshqa obrazlar bilan munosabat natijasida yuzaga keladi.

Xulosa.

Sinonimlarning metafora hosil qilish jarayoni badiiy matnda ma’nodosh leksemalarning o‘zaro semantik munosabati, kontekstual imkoniyatlari va obrazli tafakkur bilan uzviy bog‘liq murakkab lingvistik hodisa hisoblanadi. Sinonimlar o‘rtasidagi ma’noviy yaqinlik ularning umumiy semantik belgilarini faollashtirib, muayyan tushuncha yoki hodisaning turli qirralarini ifodalash imkonini beradi. Badiiy matnda ushbu birliklar o‘zining dastlabki lug‘aviy ma’nosidan tashqari kontekst ta’sirida yangi konnotativ va metaforik mazmun kasb etadi. Natijada sinonimik munosabat obrazning semantik doirasini kengaytirish, emotsional-ekspressiv ta’sirini kuchaytirish hamda muallifning individual poetik tafakkurini namoyon etishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sinonimlarning metafora hosil qilishida ularning umumiy semantik komponentlari muhim asos vazifasini bajaradi. Masalan, dovul va bo‘ron leksemalaridagi kuch, shiddat va tinimsiz harakat belgilari insonning ruhiy kechinmalari hamda ijodiy faolligiga ko‘chirilishi mumkin. Xuddi shuningdek, chang va gard birliklarining ma’noviy yaqinligi she’riy kontekstda insonning hayot yo‘li, ortda qoldirgan izlari va hayotiy tajribasi bilan bog‘liq obrazli mazmunni shakllantirishga zamin yaratadi. Bunday holatlarda sinonimlar shunchaki ma’noni takrorlovchi birliklar emas, balki metaforik obrazning semantik yaxlitligi va ta’sirchanligini ta’minlovchi vositalar sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Aristotel. Poetika. -M.: Labirint, 2000. 132- bet.

2. Maxmaraimova Sh.T. O‘zbek tili metaforalarining antroposentrik tadqiqi (nominativ aspekt) // Monografiya. Termiz: Surxon- nashr, 2020.- 11-bet

3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari.- T.: Fan, 2007. 77- bet

4. O‘tkir Rahmat. Shaffof lahzalar (she’rlar) .-T.: Akademiknashr, 2021.

6. O‘tkir Rahmat. Mangu ovoz. (she’rlar).-T.: Adabiyot, 2024.

7. O‘tkir Rahmat. Oy to‘lgan oqshom.(she’rlar).- T.: Sharq, 2022.

8. O‘rinboyev B. G‘afur G‘ulom asarlarining lingvopoetikasi. Monografiya. - Samarqand, 2008. 33- bet.

9.Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi T.: Fan, 1990 8- bet, Эгамбердиев Ж.Ж. Метафоралар когнитив тилшунослик талқинида // Илмий хабарнома, АДУ, №1 2015 йил, Karimov O. Ya. Abdulla Oripov she’riyatida metaforik obrazlar tizimi. Filologiya fanlari nomzodini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T. 2012

10. Shoabdurahmonov Sh. Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1- qism. Toshkent. 1980.B. 110.

11. Tojiyev Yo. T. O‘zbek tilida affiksal sinonomiya. Toshkent, 1991 B. 21.

12. Yo ‘ldashev I. Sharipova O ‘. Tilshunoslik asoslari. Toshkent, 2007 B. 31

13. Shamsiddinov H. So‘zlarning funksional –semantik sinonimlarining shakily va ma`noviy tabiati. O‘quv qo‘llanma. T.:, 2008. B.7.

СРЕДСТВА КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПРЕССИИ В РУССКОЯЗЫЧНОМ И УЗБЕКОЯЗЫЧНОМ ЦИФРОВОМ ДИСКУРСЕ

Тилляева Малика Юлдашевна
ассистент, Самаркандский государственный университет
имени Шарофа Рашидова
+998915497221
malika.turayeva@mail.ru

Аннотация: В статье исследуются средства коммуникативной компрессии в русскоязычном и узбекоязычном цифровом дискурсе на материале сообщений образовательной направленности. На примере интернет-площадки «Ответы Mail» и образовательных Telegram-каналов разграничиваются графическое сокращение языковых единиц и контекстно обусловленная компрессия учебного содержания. Сопоставительный анализ показывает необходимость учитывать коммуникативную задачу сообщения при интерпретации средств компрессии.

Ключевые слова: коммуникативная компрессия, цифровая учебная коммуникация, русский язык, узбекский язык, графическое сокращение, учебное сообщение.

Введение

Цифровая образовательная среда включает различные формы взаимодействия участников учебного процесса: обращения за помощью при выполнении заданий, обсуждение учебного материала, сообщения о содержании экзаменов и результатах обучения. В условиях цифровизации изучение особенностей функционирования узбекского языка в новых коммуникативных средах приобретает значение для описания современных тенденций его развития. Одной из особенностей таких сообщений является сокращённая передача информации, которая может реализовываться как в редуцированной письменной форме отдельных языковых единиц, так и в свёрнутом представлении содержания.

Изучение данных процессов связано с проблематикой компьютерно-опосредованной коммуникации. Е. И. Горошко рассматривает терминологические аспекты данного типа общения [1, с. 446], а подход С. Херринг предполагает анализ наблюдаемых текстовых данных онлайн-взаимодействия с учётом условий их функционирования [3, с. 338–342]. Для интерпретации сокращённых форм существенен и прагматический аспект, связанный с коммуникативной целью и восприятием информации адресатом [5, с. 75]. В узбекоязычных исследованиях рассматриваются языковые особенности интернет-переписки [4, с. 66–70] и употребление сокращений в

интернет-текстах [2, с. 66]. Вместе с тем разграничение способов компрессии применительно к русскоязычным и узбекоязычным цифровым учебным сообщениям требует специального рассмотрения.

Цель исследования — выявить и охарактеризовать способы коммуникативной компрессии в русскоязычных и узбекоязычных цифровых учебных сообщениях с учётом возможностей и ограничений их сопоставления. Материал составили обращения за учебной помощью, сообщения об экзаменационных заданиях и учебных результатах, размещённые на интернет-площадке «Ответы Mail» и в узбекоязычных образовательных Telegram-каналах @onlineonatili и @onatiliquiztest. Применяются описательный, контекстуальный и сопоставительный методы.

В качестве рабочего разграничения выделяются графическая компрессия — сокращение письменной формы языковой единицы (*пж, дз, спс; kk, sz*) — и контекстно обусловленная компрессия содержания, при которой сокращается объём передаваемой учебной информации без сокращения письменной формы отдельных слов. Поэтому сочетания типа *2ta, 30ta* сами по себе к графическим сокращениям не относятся.

Основная часть

В русскоязычном материале графическая компрессия представлена как в обозначении учебной работы, так и в элементах, сопровождающих просьбу. В сообщении «Помогите с дз по русскому пж» [6] формы *дз* и *пж* соответствуют словосочетанию *домашнее задание* и слову *пожалуйста*. Форма *дз* обозначает предмет обращения, а *пж* участвует в прагматическом оформлении просьбы. В сообщении «Помогите пж быстро. Спс» [7] формы *пж* и *спс* соответствуют словам *пожалуйста* и *спасибо*. Таким образом, графическое сокращение позволяет уменьшить письменную форму языковых единиц, сохраняя прагматически значимые компоненты сообщения.

В узбекоязычном материале аналогичный механизм представлен формами *kk* и *sz*. Во фрагменте «30ta yechishim kk edi» [8] форма *kk* соответствует слову *kerak* и входит в сообщение об учебном результате. Во фрагменте «sz zo‘r ustozsiz» [9] форма *sz* соотносится с местоимением *siz* и используется в высказывании, выражающем положительную оценку преподавателя.

Наряду с графической компрессией в материале представлена контекстно обусловленная компрессия содержания. В экзаменационном сообщении из Telegram-канала «ONA TILI VA ADABIYOT | OTABEK TO‘LAGANOV» встречается фрагмент «Bitta SINTAKTIK qolip. 2ta fonetika» [10]. Автор перечисляет запомнившиеся экзаменационные задания, сообщая их количество и тематическую принадлежность вместо полных

формулировок. Слова *sintaktik* и *fonetika* при этом графически не сокращаются: компрессия осуществляется за счёт уменьшения объёма эксплицитно представленной информации, восстановление которой предполагает общий учебный контекст. Результаты анализа представлены в таблице 1.

Таблица 1.

Средства коммуникативной компрессии в исследуемых учебных сообщениях

Фрагмент сообщения	**Средство компрессии**	**Коммуникативная задача**
«*Помогите с дз по русскому пж*»	*дз, пж* — графические сокращения	Просьба об учебной помощи
«*Помогите пж быстро. Спс*»	*пж, спс* — графические сокращения	Просьба об учебной помощи
«*30ta yechishim kk edi*»	*kk* — графическое сокращение	Сообщение об учебном результате
«*sz zo‘r ustozsiz*»	*sz* — графическое сокращение	Положительная оценка преподавателя
«*Bitta SINTAKTIK qolip. 2ta fonetika*»	Контекстно обусловленная компрессия содержания	Сообщение об экзаменационных заданиях

Сопоставление выявляет два механизма: сокращение письменной формы языковой единицы и контекстно обусловленное сокращение объёма передаваемого содержания. Их функции определяются коммуникативной задачей сообщения. Поскольку рассмотренные обращения за учебной помощью, сообщения об экзаменационных заданиях и учебных результатах относятся к разным коммуникативным ситуациям, выявленные различия нельзя непосредственно интерпретировать как национально-языковую специфику. Количественное русско-узбекское сопоставление требует сбалансированных выборок однотипных сообщений.

Заключение

Проведённый анализ выявил два способа коммуникативной компрессии в русскоязычных и узбекоязычных цифровых учебных сообщениях: графическое сокращение языковой единицы и контекстно обусловленную компрессию содержания. Их интерпретация требует учёта коммуникативной задачи сообщения; различия между разнотипными сообщениями не могут автоматически рассматриваться как проявление национально-языковой специфики.

Научно-теоретическое предложение состоит в разграничении компрессии письменной формы языковой единицы и контекстно

обусловленной компрессии содержания сообщения. **Практическая рекомендация** заключается в использовании данного разграничения при анализе цифровой учебной коммуникации и разработке учебных материалов по культуре письменного общения, а в последующих сопоставительных исследованиях — в формировании сбалансированных выборок однотипных коммуникативных ситуаций.

Список использованной литературы:

1. Горошко Е. И. К уточнению понятия «компьютерно-опосредованная коммуникация»: проблемы терминоведения // Образовательные технологии и общество. 2009. Т. 12. № 2. С. 445–454.
2. Akramova X. A. Ingliz va o‘zbek tillarida internet matnlarining struktur-semantik va diskurs tahlili // Al-Buxoriy. 2024. № 1. B. 60–68.
3. Herring S. C. Computer-Mediated Discourse Analysis: An Approach to Researching Online Behavior // Designing for Virtual Communities in the Service of Learning / Ed. by S. A. Barab, R. Kling, J. H. Gray. Cambridge: Cambridge University Press, 2004. P. 338–376.
4. Madaminova M. S., Abduxamidova D. G‘. Internet yozishmalarining savodxonlikka ta’siri // Ijtimoiy fanlar zamonaviy dunyoda: nazariy va amaliy izlanishlar. 2025. T. 4. № 13. B. 66–70.
5. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent, 2008. 318 b.
6. Ответы Mail. «Помогите с дз по русскому пж». URL: https://otvet.mail.ru/question/240052379.
7. Ответы Mail. «Помогите пж быстро. Спс». URL: https://otvet.mail.ru/question/240684695.
8. Telegram-канал «ONA TILI VA ADABIYOT | QUIZ TEST» (@onatiliquiztest). Публикация № 13989. URL: https://t.me/onatiliquiztest/13989.
9. Telegram-канал «ONA TILI VA ADABIYOT | OTABEK TO‘LAGANOV» (@onlineonatili). Публикация № 7640. URL: https://t.me/onlineonatili/7640.
10. Telegram-канал «ONA TILI VA ADABIYOT | OTABEK TO‘LAGANOV» (@onlineonatili). Публикация № 7486. URL: https://t.me/onlineonatili/7486.

НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ УЗБЕКСКОЙ ПОСЛОВИЧНОЙ КАРТИНЫ МИРА КАК ОТРАЖЕНИЕ РАЗВИТИЯ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЯЗЫКА

Эшмуродова Зарина
ассистент-стажёр
Самаркандский институт экономики и сервиса
Тел.: (90) 2700017
E-mail: eshmurodova.zarina@mail.ru

Аннотация: В статье рассматриваются национально-культурные особенности узбекской пословичной картины мира в контексте развития узбекского языка как государственного. Особое внимание уделяется пословицам, отражающим представления о труде, здоровье, семье, уважении к старшим, взаимопомощи и нравственных ценностях. Анализ паремиологического материала показывает, что пословицы являются носителями исторической и культурной памяти народа и сохраняют национально значимые способы осмысления окружающей действительности. Обосновывается положение о том, что включение пословичного материала в современную образовательную и научную практику способствует сохранению национально-культурного содержания государственного языка и его полноценному функционированию в современном обществе.

Ключевые слова: государственный язык, узбекский язык, пословица, паремиология, пословичная картина мира, национальная культура, лингвокультурология, культурная память, национальные ценности.

Язык является не только средством общения, но и важнейшим механизмом сохранения исторического и культурного опыта народа. В языковых единицах закрепляются представления о мире, нравственные нормы, традиции, особенности общественных отношений и ценностные ориентиры носителей языка. Поэтому развитие государственного языка связано не только с расширением сфер его употребления, но и с сохранением его национально-культурного содержания.

Особое место в этом отношении занимают пословицы. Они представляют собой краткие и устойчивые выражения, в которых концентрируется многовековой опыт народа. Через пословицы передаются представления о труде, семье, здоровье, воспитании, нравственности, взаимоотношениях между людьми и других значимых сторонах жизни.

Узбекский язык обладает богатым паремиологическим фондом. Узбекские пословицы отражают особенности мировосприятия народа и позволяют

выявить ценности, которые формировались в течение длительного историко-культурного развития. Изучение таких языковых единиц представляет интерес не только для паремиологии и лингвокультурологии, но и для исследования современного состояния и развития государственного языка. Актуальность данной темы определяется современным значением узбекского языка как государственного. Согласно статье 4 Конституции Республики Узбекистан, государственным языком Республики Узбекистан является узбекский язык [1]. Правовые основы его функционирования определены Законом Республики Узбекистан «О государственном языке» [2].

В условиях расширения сфер функционирования государственного языка особое значение приобретает сохранение его национальной самобытности. Современное развитие языка предполагает совершенствование научной, образовательной, официально-деловой и общественной коммуникации, однако этот процесс не должен сопровождаться утратой традиционных языковых форм, в которых сохраняется культурная память народа.

Одним из важнейших источников такой памяти является паремиологический фонд. Пословицы сохраняют не только отдельные слова и выражения, но и традиционные способы оценки жизненных явлений, образные модели и нравственные ориентиры.

Цель исследования — выявить национально-культурные особенности узбекской пословичной картины мира и определить значение паремиологического фонда в процессе сохранения и развития государственного языка.

Для достижения поставленной цели решаются следующие задачи: определить роль пословиц в формировании национальной языковой картины мира; рассмотреть основные ценностно-тематические группы узбекских пословиц; выявить их национально-культурное содержание; определить возможности использования пословичного материала в развитии государственного языка.

В работе применяются лингвокультурологический, семантический и описательный методы исследования.

Пословица является одной из наиболее устойчивых форм выражения коллективного опыта. Её особенность заключается в способности передавать значительный объём мысловой информации посредством небольшой по объёму языковой конструкции.

В лингвокультурологическом отношении пословицы представляют особую ценность, поскольку в них тесно связаны язык, культура и коллективный опыт. Значение пословицы нередко выходит за пределы её

буквального содержания. Конкретный образ или жизненная ситуация могут выражать более широкое культурное представление. Именно поэтому пословичный фонд может рассматриваться как один из компонентов национальной языковой картины мира. Через него проявляется отношение народа к труду, семье, знаниям, здоровью, нравственности, старшему поколению и общественным отношениям.

Узбекская паремиология отличается тематическим разнообразием. В ней широко представлены пословицы о труде, семье, здоровье, воспитании, знаниях, взаимоотношениях между людьми, уважении к старшим и взаимопомощи.

Например, пословица *«Соғлиқ — туман бойлик» («Здоровье — богатство»)* представляет здоровье как одну из важнейших жизненных ценностей. При этом понятие богатства приобретает более широкое значение: настоящее благополучие человека связывается не только с материальным достатком, но и с физическим состоянием.

Пословица *«Ҳаракатда баракат» («В движении — благодать»)* отражает положительное отношение к активности человека. Лексема *«баракат»* обладает значительным культурным содержанием и связана с представлениями о достатке, благополучии и положительном результате человеческой деятельности.

Подобные примеры показывают, что узбекские пословицы являются своеобразными носителями культурной информации. Они фиксируют не только жизненные наблюдения, но и способы их оценки, сформированные в определённой языковой и культурной среде.

Одной из особенностей узбекской пословичной картины мира является наличие устойчивой системы ценностей. В паремиологическом фонде отражаются представления о том, каким должен быть человек, какие качества считаются положительными и какие формы поведения одобряются обществом.

Значительный пласт составляют пословицы о труде. Например, выражение *«Меҳнат қилсанг, роҳат кўрасан» («Если будешь трудиться, увидишь благополучие»)* связывает труд с положительным результатом. В данном случае труд рассматривается не только как средство достижения материального результата, но и как нравственно значимое качество человека. Подобные пословицы передают представление о необходимости активности, терпения и настойчивости. Они выполняют воспитательную функцию, поскольку через краткую и образную форму закрепляют социально значимые нормы поведения.

Особое место занимает тема семьи. В узбекской культуре семья традиционно рассматривается как важная социальная среда формирования личности. Это находит отражение и в пословичном фонде. В соответствующих выражениях представлены отношения между родителями и детьми, старшими и младшими, родственниками и соседями.

Уважение к старшим выступает в пословицах не только как индивидуальное качество, но и как социальная норма. Наряду с ним подчёркиваются взаимопомощь, согласие, доброжелательность и ответственность перед близкими.

Таким образом, узбекская пословичная картина мира имеет выраженный социально-нравственный характер. Человек в ней представлен не изолированно, а как член семьи и общества, связанный с другими людьми системой взаимных обязанностей и отношений.

Национальная специфика пословиц проявляется не только в их тематике, но и в выборе языковых средств. Отдельные слова и выражения могут содержать культурную информацию, которая не всегда полностью передаётся при буквальном переводе на другой язык.

Особый интерес в этом отношении представляет слово *«баракат»*. В узбекском языковом сознании оно связано с представлениями о благополучии, достатке, пользе и положительном результате.

В пословице *«Ҳаракатда баракат»* это значение раскрывается через связь человеческой активности с благополучием.

Подобные языковые единицы позволяют увидеть, каким образом культура закрепляется непосредственно в лексическом составе языка. Слово становится не просто обозначением определённого понятия, а носителем дополнительных культурных смыслов.

Национально-культурное содержание проявляется также в образах, связанных с семейными отношениями, трудом, воспитанием и общественным поведением. Поэтому изучение пословиц позволяет выявлять культурные смыслы, которые невозможно полностью раскрыть при рассмотрении языка только с точки зрения его грамматической или лексической структуры.

Развитие государственного языка представляет собой сложный процесс, включающий расширение его функциональных возможностей, совершенствование языковых норм и активное использование языка в различных сферах общественной жизни.

Однако функциональное развитие языка должно сочетаться с сохранением его национально-культурной основы. В противном случае существует риск ослабления связи современного языкового употребления с историческим опытом народа.

Пословицы выполняют здесь важную функцию. Они сохраняют традиционные языковые модели, национально маркированную лексику, метафорические образы и ценностные представления.

Использование пословичного материала особенно важно в образовательной сфере. При изучении узбекского языка как государственного пословицы могут применяться для расширения словарного запаса, формирования навыков понимания переносного значения, развития устной и письменной речи.

Одновременно работа с пословицами позволяет знакомить учащихся с национальной культурой. Например, анализ выражений о труде, семье или уважении к старшим помогает рассматривать языковой материал в его культурном контексте.

Таким образом, пословицы могут выполнять двойную функцию: с одной стороны, они являются языковым материалом, а с другой — средством передачи культурных знаний. Именно это делает их значимым ресурсом в процессе развития государственного языка.

Паремиологический материал также представляет интерес для научных исследований. Систематизация и лингвокультурологическое описание узбекских пословиц позволяют сохранять языковое наследие и обеспечивать его дальнейшее изучение.

В современных условиях это особенно актуально, поскольку государственный язык функционирует в постоянно изменяющейся социальной и информационной среде. Сохранение традиционного языкового материала способствует поддержанию преемственности между историческим развитием языка и его современным состоянием.

Проведённое исследование позволяет сделать вывод о том, что узбекская пословичная картина мира является значимой частью национально-культурного содержания государственного языка. Пословицы сохраняют представления народа о труде, здоровье, семье, уважении, взаимопомощи и нравственных нормах.

Особенность пословичного фонда заключается в сочетании лаконичной языковой формы и ёмкого культурного содержания. В устойчивых выражениях сохраняются не только отдельные слова и образы, но и способы оценки окружающей действительности, сложившиеся в историческом опыте народа.

Рассмотренные примеры показывают, что такие ценности, как трудолюбие, семейное единство, уважение к старшим, здоровье, взаимопомощь и ответственность, занимают заметное место в узбекской языковой картине мира.

В связи с этим паремиологический фонд следует рассматривать не только как часть устного народного наследия, но и как ресурс развития национального содержания государственного языка. Его сохранение и научное изучение способствуют укреплению связи между языком, культурой и исторической памятью народа.

Научно-теоретическое предложение заключается в необходимости дальнейшего комплексного изучения узбекского паремиологического фонда с позиций лингвокультурологии, семантики и теории национальной языковой картины мира. Представляется целесообразным систематизировать пословицы по основным ценностно-тематическим группам и выявить в них национально маркированные языковые единицы, образные модели и культурные концепты.

Практическая рекомендация состоит в более широком использовании узбекских пословиц в учебных пособиях, образовательных программах и занятиях по узбекскому языку как государственному. Целесообразно сопровождать пословичный материал лингвокультурологическими комментариями, раскрывающими значение национально маркированных слов, образов и выражений. Это позволит одновременно развивать языковую компетенцию учащихся и формировать более глубокое понимание культурного содержания государственного языка.

Таким образом, сохранение и актуализация пословичного фонда может рассматриваться как одно из направлений укрепления национально-культурной основы узбекского языка и обеспечения преемственности между культурным наследием народа и современным функционированием государственного языка.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Конституция Республики Узбекистан. Новая редакция. — Ташкент, 2023.

2. Закон Республики Узбекистан «О государственном языке». — 21 декабря 1995 г., № 167-I.

3. Маслова В. А. Лингвокультурология: учебное пособие. — М.: Академия, 2001.

4. Телия В. Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. — М.: Школа «Языки русской культуры», 1996.

5. Алефиренко Н. Ф. Фразеология и паремиология: учебное пособие. — М.: Флинта; Наука, 2009.

6. Ўзбек халқ мақоллари. — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.

7. Ўзбек халқ мақоллари: 2 томлик. — Тошкент: Фан, 1987.

8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдли. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006–2008.

9. Эшмуродова З. Лингвокультурологический анализ концептосферы «Здоровье человека» в русской и узбекской пословичной картине мира: магистерская диссертация. — Самарканд, 2026.

ELEKTRON KITOBLARNING AN’ANAVIY KITOBGA TA’SIRI

Mirzayeva Madina Mutalib qizi
Termiz davlat universiteti o’qituvchisi
mad.mirzo.123456789g@mail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0004-0195-7581

Boltayev Obid Xusenovich
Termiz davlat universiteti KAFM-126 guruh talabasi
boltayevobid36@gmail.com

Anotatsiya: Elektron kitoblarning shakllanishi va rivojlanishi, ularning an’anaviy bosma kitobga ta’siri hamda zamonaviy kitobxonlik madaniyatidagi o‘rni tahlil qilinadi. Elektron kitoblarning paydo bo‘lishi axborotni yaratish, tarqatish, saqlash va undan foydalanish jarayonlariga sezilarli o‘zgarishlar olib keldi. Maqolada elektron va an’anaviy kitoblarning o‘ziga xos xususiyatlari, afzallik va kamchiliklari, kitobxonlik madaniyatining transformatsiyasi, kutubxona va nashriyotlar faoliyatidagi o‘zgarishlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning an’anaviy kitobni butunlay siqib chiqarishi emas, balki uning funksional imkoniyatlarini kengaytirishi haqidagi qarash asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: elektron kitob, bosma kitob, kitob tarixi, raqamli texnologiya, kitobxonlik madaniyati, elektron nashr, kutubxona, nashriyot, raqamlashtirish, axborot.

Аннотация: В данной статье рассматриваются становление и развитие электронных книг, их влияние на традиционную печатную книгу, а также их роль в современной культуре чтения. Появление электронных книг внесло значительные изменения в процессы создания, распространения, хранения и использования информации. В статье анализируются особенности, преимущества и недостатки электронных и традиционных книг, трансформация культуры чтения, а также изменения в деятельности библиотек и издательств. Особое внимание уделяется вопросу о том, вытесняют ли электронные книги традиционные печатные издания или способствуют расширению их функциональных возможностей.

Ключевые слова: электронная книга, печатная книга, история книги, цифровые технологии, культура чтения, электронное издание, библиотека, издательство, цифровизация, информация.

Abstract: This article examines the emergence and development of e-books, their impact on traditional printed books, and their role in contemporary reading culture. The emergence of electronic books has brought significant changes to the processes of creating, distributing, storing, and accessing information. The article analyzes the specific features, advantages, and disadvantages of electronic and traditional books, the transformation of reading culture, as well as changes in the activities of libraries and publishing houses. Particular attention is paid to the question of whether e-books are replacing traditional printed books or expanding their functional possibilities. The article argues that the development of e-books should not be viewed as the disappearance of traditional books, but rather as a new stage in the evolution of books and book culture.

Keywords: e-book, printed book, history of the book, digital technologies, reading culture, electronic publication, library, publishing house, digitalization, information.

Kitob insoniyat tarixida bilim, tajriba va madaniy merosni avloddan avlodga yetkazuvchi eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Uning shakli va tayyorlanish texnologiyasi tarix davomida bir necha bor o‘zgargan. Qadimgi davrlardagi loy taxtachalar, papirus o‘ramlari va pergamentlardan tortib qo‘lyozma kitoblar, bosma nashrlar va zamonaviy elektron kitoblargacha bo‘lgan taraqqiyot jarayoni insoniyatning axborot bilan ishlash imkoniyatlari kengayib borganini ko‘rsatadi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi kitob tarixida yangi bosqichni yuzaga keltirdi. Kitobning raqamli shaklda yaratilishi, saqlanishi va tarqatilishi natijasida elektron kitob tushunchasi keng ommalashdi. Kompyuter, planshet, smartfon va maxsus

elektron o‘qish qurilmalari orqali kitobdan foydalanish imkoniyati kitobxonlik jarayonining mazmuni va shakliga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Mazkur jarayon kitob tarixini o‘rganishda muhim ilmiy masalalardan biridir. Chunki elektron kitoblarning rivojlanishi faqat texnik yangilik emas, balki kitobning jamiyatdagi o‘rni, kitobxonlik madaniyati, nashriyot faoliyati va kutubxona tizimining o‘zgarishiga olib kelayotgan murakkab ijtimoiy-madaniy jarayondir.

1. Elektron kitobning paydo bo‘lishi va rivojlanishi

Elektron kitob — matn, tasvir yoki boshqa axborot shakllarini raqamli formatda saqlash va elektron qurilmalar orqali o‘qish imkonini beruvchi nashr shaklidir. Elektron kitobning rivojlanishi kompyuter texnologiyalarining taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq.

Dastlab raqamli matnlar asosan kompyuterlarda saqlangan va ulardan foydalanish imkoniyati cheklangan edi. Keyinchalik internetning keng tarqalishi elektron nashrlarning ommalashuviga katta turtki berdi. Kitoblarni raqamlashtirish, elektron kutubxonalar yaratish va raqamli nashrlarni internet orqali tarqatish natijasida elektron kitob kundalik hayotning bir qismiga aylandi.

Elektron kitoblarning asosiy xususiyatlaridan biri — ularning moddiy shaklga bog‘liq emasligidir. Bitta elektron qurilmada yuzlab yoki minglab kitoblarni saqlash mumkin. Bundan tashqari, elektron matnni qidirish, shrift hajmini o‘zgartirish, belgi qo‘yish, izoh yozish va ayrim hollarda matnni ovozli shaklda tinglash imkoniyatlari mavjud.

Shu jihatdan elektron kitob kitobning tarixiy funksiyalarini saqlab qolgan holda, unga yangi texnologik imkoniyatlarni qo‘shdi.

2. Elektron kitoblarning an’anaviy kitobga ta’siri

Elektron kitoblarning keng tarqalishi an’anaviy bosma kitobning jamiyatdagi o‘rniga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Bu ta’sirni bir necha yo‘nalishda ko‘rish mumkin.

Birinchidan, kitobdan foydalanish imkoniyati kengaydi. Bosma kitobni sotib olish yoki kutubxonadan olish zarur bo‘lgan bo‘lsa, elektron kitobni internet orqali qisqa vaqt ichida yuklab olish yoki onlayn o‘qish mumkin. Natijada geografik masofa va vaqt omilining ta’siri kamaydi.

Ikkinchidan, kitoblarni saqlash va tashish imkoniyati o‘zgardi. An’anaviy kitoblar jismoniy joy egallaydi va ularni saqlash uchun maxsus javon yoki kutubxona fondi talab etiladi. Elektron kitob esa raqamli xotirada saqlanadi. Bu xususiyat ayniqsa katta hajmdagi ilmiy va ta’limiy adabiyotlar bilan ishlashda muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, elektron kitoblar nashriyot jarayoniga ta’sir ko‘rsatdi. An’anaviy kitobni chop etish uchun qog‘oz, bosma uskunalar, muqova va logistika kabi jarayonlar talab qilinadi. Elektron nashrda esa mahsulotni raqamli shaklda

tarqatish imkoniyati mavjud. Bu nashrning tezkorligini oshirishi va ayrim xarajatlarni kamaytirishi mumkin.

3. Elektron va an’anaviy kitobning afzalliklari va kamchiliklari

Elektron kitobning muhim afzalliklaridan biri uning qulayligidir. Birgina elektron qurilmada katta hajmdagi adabiyotlarni olib yurish mumkin. Bu talabalar, tadqiqotchilar va ilmiy xodimlar uchun ayniqsa qulaydir.

Elektron kitoblarning yana bir afzalligi — matn bilan interaktiv ishlash imkoniyatidir. Elektron formatda kerakli so‘zni tezkor qidirish, matnning ma’lum qismini belgilash va elektron izohlar yaratish mumkin.

Bundan tashqari, elektron nashrlar imkoniyati cheklangan kitobxonlar uchun ham muayyan qulayliklar yaratadi. Masalan, shrift hajmini kattalashtirish yoki matnni ovozli texnologiyalar yordamida tinglash imkoniyati mavjud.

Shu bilan birga, elektron kitobning ayrim kamchiliklari ham mavjud. U elektr energiyasi va tegishli elektron qurilmaga bog‘liq. Uzoq vaqt davomida ekran orqali o‘qish ayrim kitobxonlar uchun noqulay bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, elektron ma’lumotlarni saqlash, mualliflik huquqini himoya qilish va noqonuniy nusxalash masalalari ham dolzarb muammolardan hisoblanadi.

An’anaviy kitob esa moddiy obyekt sifatida o‘ziga xos afzalliklarga ega. Uni elektr energiyasisiz istalgan vaqtda o‘qish mumkin. Kitobning qog‘oz shakli, muqovasi, shriftlari va bezaklari uning estetik qiymatini oshiradi. Ayniqsa nodir, qadimiy va badiiy bezatilgan nashrlar madaniy merosning muhim qismi sifatida qadrlanadi.

4. Elektron kitob va kitobxonlik madaniyatining o‘zgarishi

Elektron kitoblarning ommalashuvi kitobxonlik madaniyatida ham sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Avvallari kitobxonning asosiy manbasi bosma kitob va kutubxona bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda raqamli kutubxonalar, elektron kataloglar va onlayn nashrlar ham muhim axborot manbalariga aylandi.

Raqamli muhit kitobxonning axborot izlash usulini ham o‘zgartirdi. Elektron kitobda kerakli ma’lumotni kalit so‘z orqali tez topish mumkin. Natijada kitobni boshidan oxirigacha o‘qish bilan bir qatorda, undan muayyan ma’lumotni tezkor izlash amaliyoti ham kengaydi.

Biroq bu holat chuqur va izchil o‘qish masalasini ham dolzarb qiladi. Raqamli muhitda turli bildirishnomalar, havolalar va boshqa axborot oqimlari kitobxonning diqqatini chalg‘itishi mumkin. Shu sababli zamonaviy kitobxonlik madaniyatida nafaqat axborotga ega bo‘lish, balki uni tanlash, tahlil qilish va chuqur o‘zlashtirish ko‘nikmalari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Elektron kitoblarning kutubxona va nashriyotlar faoliyatiga ta’siri

Elektron kitoblarning rivojlanishi kutubxonalar faoliyatini ham yangi bosqichga olib chiqdi. Bugungi kunda kutubxonalar faqat bosma kitoblarni

saqlovchi muassasa emas, balki elektron resurslarni jamlovchi, raqamlashtiruvchi va foydalanuvchilarga taqdim etuvchi axborot markazlari sifatida ham faoliyat yuritmoqda.

Tarixiy va nodir qo‘lyozmalarni raqamlashtirish ularni keng auditoriyaga taqdim etish bilan birga, asl nusxalarni ortiqcha foydalanishdan himoya qilishga ham xizmat qiladi. Shu sababli raqamlashtirish kitob tarixini saqlashning zamonaviy usullaridan biri sifatida katta ahamiyatga ega.

Nashriyotlar faoliyatida ham raqamli texnologiyalar yangi imkoniyatlarni yaratdi. Elektron nashr orqali kitobni qisqa vaqt ichida keng auditoriyaga yetkazish mumkin. Bundan tashqari, talabga ko‘ra nashr qilish va elektron format bilan birgalikda bosma formatni taklif etish imkoniyatlari paydo bo‘ldi.

6. Elektron kitob an’anaviy kitobni siqib chiqaradimi?

Elektron kitoblarning rivojlanishi bilan bog‘liq eng muhim savollardan biri — kelajakda bosma kitob o‘z ahamiyatini yo‘qotadimi, degan masaladir.

Mazkur savolga bir tomonlama javob berish qiyin. Chunki elektron va an’anaviy kitoblarning funksiyalari ayrim jihatlarda bir-birini to‘ldiradi. Elektron kitob tezkorlik, qulaylik va katta hajmdagi axborotni ixcham saqlash imkonini bersa, bosma kitob moddiylik, estetik zavq va an’anaviy kitobxonlik tajribasini taqdim etadi.

Shuningdek, kitobning tarixiy va madaniy qiymati uning faqat axborot tashuvchi vosita ekanligi bilan cheklanmaydi. Bosma kitob insoniyat madaniyatining moddiy yodgorligi sifatida ham muhimdir. Ayniqsa nodir nashrlar, qo‘lyozmalar, ilk bosma kitoblar va badiiy bezatilgan asarlar tarixiy manba sifatida katta ahamiyatga ega.

Shuning uchun elektron kitobning rivojlanishini an’anaviy kitobning yo‘qolishi sifatida emas, balki kitob evolyutsiyasining navbatdagi bosqichi sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Xulosa

Elektron kitoblarning paydo bo‘lishi kitob tarixidagi muhim texnologik va madaniy o‘zgarishlardan biridir. Raqamli texnologiyalar kitobni yaratish, saqlash, tarqatish va undan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi.

Tadqiqot natijasida elektron kitoblarning an’anaviy kitobga ta’siri asosan kitobxonlik madaniyati, nashriyot faoliyati, kutubxona tizimi va axborotdan foydalanish usullarida namoyon bo‘lishi aniqlandi. Elektron kitoblar tezkorlik, qulaylik, ixchamlik va interaktivlik kabi afzalliklarga ega. An’anaviy kitob esa o‘zining moddiy, estetik, tarixiy va madaniy qiymatini saqlab qolmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, elektron va bosma kitoblarni qarama-qarshi qo‘yishdan ko‘ra, ularning o‘zaro to‘ldiruvchi imkoniyatlarini rivojlantirish muhimdir. Kelajakdagi kitob madaniyati, ehtimol, bosma va raqamli shakllarning birgalikdagi

mavjudligi bilan tavsiflanadi. Ayniqsa ta’lim va ilmiy tadqiqotlarda elektron resurslardan samarali foydalanish bilan bir qatorda, an’anaviy kitobxonlik madaniyatini saqlab qolish ham muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eisenstein E. L. *The Printing Press as an Agent of Change*. Cambridge: Cambridge University Press, 2020.
2. Darnton R. *The Case for Books: Past, Present, and Future*. New York: PublicAffairs, 2019.
3. UNESCO. *Memory of the World: General Guidelines to Safeguard Documentary Heritage*. Paris: UNESCO.
4. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. Elektron resurslar va raqamli kutubxona materiallari.
5. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida axborot, kutubxona va mualliflik huquqiga oid me’yoriy hujjatlar.
6. Internet Resources and Electronic Scientific Articles (Google Scholar, ResearchGate, Academia.edu).

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI VAQTGA OID FRAZEOLOGIZMLARNING QIYOSIY-bMADANIY TAHLILI

Rustamova Shaxnoza Ilhomovna

Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi vaqtga oid frazeologik birliklar qiyosiy-madaniy jihatdan tahlil qilinadi. O‘zbek tiliga oid materiallar Sh. Rahmatullayev va hammualliflar tomonidan tuzilgan “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” hamda A.Qahhorning qissa va hikoyalari asosida o‘rganildi. Ingliz tilidagi frazeologik birliklarni tavsiflashda A.V. Kuninning frazeologik qarashlari va ingliz tilida vaqtning konseptuallashuviga doir nazariy manbalarga tayanildi. Tahlil natijasida vaqtga oid birliklar davr va muddat, fursat va payt, qisqa vaqt, umr davomiyligi hamda tarixiy-ijtimoiy vaqt kabi semantik guruhlarga ajratildi. Qiyosiy tahlil ikki tilda vaqtni konseptuallashtirishda umumiy jihatlar mavjudligini, ayni paytda o‘zbek tilida tabiat sikli, inson umri, taqdir va tarixiy xotira bilan bog‘liq obrazlar, ingliz tilida esa vaqtning qimmat, imkoniyat va cheklangan resurs sifatidagi talqini faol ekanini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: vaqt konsepti, frazeologik birlik, idioma, semantika, lingvomadaniyat, qiyosiy tahlil, ekvivalentlik.

Аннотация: В статье проводится сравнительно-культурологический анализ фразеологических единиц со значением времени в английском и

узбекском языках. Материал узбекского языка исследуется на основе «Фразеологического словаря узбекского языка», составленного Ш. Рахматуллаевым и соавторами, толковых словарей, а также повестей и рассказов Абдуллы Каххара. При характеристике английских фразеологических единиц учитываются фразеологическая концепция А.В. Кунина и теоретические исследования концептуализации времени в английском языке. В результате анализа выделены семантические группы, обозначающие период и длительность, момент и возможность, короткий промежуток времени, продолжительность жизни и историко-социальное время. Сопоставление показывает наличие как общих, так и национально-культурно обусловленных способов концептуализации времени в двух языках.

Ключевые слова: концепт времени, фразеологическая единица, идиома, семантика, лингвокультура, сопоставительный анализ, эквивалентность.

Abstract: The article presents a comparative cultural analysis of time-related phraseological units in English and Uzbek. The Uzbek material is examined on the basis of the Phraseological Dictionary of the Uzbek Language, explanatory dictionaries, and Abdulla Qahhor's short stories and novellas. The analysis of English phraseological units draws on A.V. Kunin's theory of phraseology and theoretical approaches to the conceptualization of time. The units under study are classified into semantic groups denoting period and duration, moment and opportunity, short periods of time, lifespan, and historical-social time. The comparison reveals both universal and culture-specific patterns of conceptualizing time. Uzbek phraseology tends to associate time with natural cycles, human life, fate, and historical memory, whereas English phraseology frequently represents time as a valuable and limited resource.

Keywords: concept of time, phraseological unit, idiom, semantics, linguoculture, comparative analysis, equivalence.

Vaqt insonning borliqni idrok etishida asosiy tushunchalardan biri hisoblanadi. Inson faoliyati, tabiat hodisalari, tarixiy jarayonlar va hayot bosqichlari vaqt doirasida anglanadi. Shu bilan birga, vaqt barcha xalqlar uchun umumiy hodisa bo‘lishiga qaramay, uning til vositalari orqali ifodalanishi turli madaniyatlarda bir xil emas. Muayyan xalqning turmush tarzi, tarixiy tajribasi, tabiat bilan munosabati va ijtimoiy qarashlari vaqt haqidagi tasavvurlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Bu xususiyat, ayniqsa, frazeologik birliklarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Frazeologizmlar vaqtni shunchaki nomlash bilan cheklanmay, unga muayyan obraz, baho va munosabat yuklaydi. Shu jihatdan vaqtga oid frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili turli tillarda umumiy bo‘lgan konseptual belgilar bilan bir qatorda milliy-madaniy xususiyatlarni ham aniqlash imkonini beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi vaqtga oid frazeologik birliklarning semantik hamda lingvomadaniy xususiyatlarini qiyoslash, ular o‘rtasidagi to‘liq, qisman va muqobilsiz munosabatlarni aniqlashdan iborat. O‘zbek tiliga oid badiiy material sifatida Abdulla Qahhorning “Anor”, “Muhabbat”, “Nurli cho‘qqilar”, “Boshsiz odam”, “Ming bir jon”, “O‘g‘ri”, “Mahalla”, “Bashorat”, “Tomoshabog‘”, “Mayiz yemagan xotin”, “Yillar” kabi qissa va hikoyalariga murojaat qilindi. Birliklarning frazeologik va lug‘aviy ma’nolarini aniqlashda “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati” hamda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ma’lumotlaridan foydalanildi.

Tadqiqotda tavsiflash, kontekstual tahlil, semantik guruhlash, qiyoslash hamda lingvomadaniy tahlil usullari qo‘llanildi. Qiyoslashda birliklarning faqat lug‘aviy ma’nosi emas, balki ularning obrazli asosi va muayyan madaniyatda vaqtni qanday tasavvur qilishini ko‘rsatuvchi xususiyatlari ham hisobga olindi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da zamon, ya’ni vaqt materiya holatlari va jarayonlarining izchil almashinish shakli sifatida izohlanib, uning davomlilik, takrorlanmaslik va qaytarilmaslik kabi xususiyatlari ko‘rsatiladi [4; 128]. Mazkur ta’rif vaqt tushunchasining asosiy lug‘aviy belgilarini ifodalaydi. Biroq vaqt konsepti uning lug‘aviy ma’nosidan kengroq mazmunga ega.

Sh.Mahmaraimova konsept nomning mazmuniy ma’nosi bilan birga unga bog‘liq tushunchalar majmuini ham qamrab olishini qayd etadi [3; 69]. Shundan kelib chiqib, vaqt konsepti insonning vaqt haqidagi bilimlari, kundalik tajribasi, baholashi hamda madaniy tasavvurlarini o‘zida birlashtiruvchi murakkab tuzilma sifatida qaralishi mumkin. Uning milliy jihatlari, ayniqsa, ko‘chma va obrazli ma’noga asoslangan frazeologik birliklarda aniqroq namoyon bo‘ladi.

A.V.Kunin frazeologik birliklarni to‘liq yoki qisman ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan turg‘un leksemalar birikmasi sifatida tavsiflaydi [1; 15]. Olim ravish xarakteridagi frazeologizmlar orasida vaqt ma’nosini ifodalovchi birliklarni ham ajratib, in a flash, in less than no time singari misollarni keltiradi [1; 146–147]. Bunday birliklarda vaqtning davomiyligi oddiy miqdor bilan emas, obrazli tasavvur vositasida ifodalanadi.

O‘zbek tili materialida vaqt bilan bog‘liq frazeologik birliklarni semantik jihatdan bir necha guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhni davr va muddatni ifodalovchi birliklar tashkil qiladi. “Qovun pishig‘i” shunday birliklardan biridir. Lug‘atda mazkur birikma muayyan vaqt oralig‘ini anglatuvchi birlik sifatida izohlangan [6; 77]. Abdulla Qahhorning “Nurli cho‘qqilar” hikoyasida kampirning sog‘lig‘i bilan bog‘liq holat tasvirida qovun pishig‘i vaqt o‘lchovi sifatida qo‘llanadi [5; 123].

Mazkur birlikning lingvomadaniy xususiyati vaqtning dehqonchilik va tabiat sikli orqali o‘lchanishida namoyon bo‘ladi. Qovunning pishish davri xalqning

kundalik xo‘jalik tajribasida muayyan mavsum bilan bog‘langan. Shu sababli “qovun pishig‘i” kalendar sanasini ko‘rsatmaydi, balki xalqning tabiat hodisalari va mehnat jarayonlariga asoslangan vaqt tasavvurini aks ettiradi.

Shu guruhda “yili o‘tmoq” birligi ham alohida ahamiyatga ega. “Muhabbat” asarida Murod Alining yili o‘tmasdan to‘y qilish mumkin emasligi haqidagi fikrda “yil” oddiy o‘n ikki oylik muddat emas, balki motam marosimi bilan bog‘langan ijtimoiy vaqt chegarasini anglatadi. Demak, bunda vaqt miqdoriy tushunchadan marosimiy-madaniy mazmunga o‘tadi.

Ikkinchi guruh fursat va paytni bildiruvchi birliklardan tashkil topadi. “Vaqti kelganda” birligi lug‘atda “o‘z fursati bilan” mazmunida izohlanadi, vaqti kelib, vaqti-soati kelganda kabi variantlari ham mavjud [6; 529]. “Muhabbat” asaridagi “Bilmadim, vaqti kelganda bu fikrimni amalga oshira olamanmi, yo‘qmi” mazmunidagi jumlada vaqt kelajakda yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan imkoniyat sifatida tasavvur qilinadi.

Bu birlik ingliz tilidagi *when the time comes* ifodasi bilan semantik jihatdan yaqin. Har ikki tilda “vaqtning kelishi” modeli mavjud bo‘lib, vaqt harakatlanuvchi hodisa sifatida konseptuallashtiriladi. Bunda inson vaqt tomon emas, aksincha, vaqt inson tomon “keladi”. Mazkur o‘xshashlik ikki tilda ham vaqtni harakat bilan bog‘lab tasavvur qilish mumkinligini ko‘rsatadi.

“Payt poylamoq” birligida esa vaqt maqsadli ravishda kutiladigan qulay imkoniyat sifatida namoyon bo‘ladi. Vaqtning “poylanishi” unga faol harakatning obyekti sifatidagi xususiyatni beradi. Shu jihatdan mazkur birlik oddiy vaqt ko‘rsatkichidan farq qilib, harakat uchun eng qulay fursatni kutish mazmunini ham anglatadi.

Uchinchi guruh qisqa vaqt oralig‘ini ifodalovchi birliklardir. “Hayal o‘tmay” birligi “ozgina vaqt o‘tmay”, “ko‘p o‘tmay” ma’nolarida qo‘llanadi. A.Qahhor bu ifodadan turli asarlarida voqealar almashinuvini tezlashtirish maqsadida foydalanadi. “Maston”, “Muhabbat” va “Ming bir jon”dagi misollarda mazkur birlik bir voqeadan ikkinchi voqeaga o‘tish oralig‘ining juda qisqaligini bildiradi.

Ingliz tilida bunga *before long, in no time, in a flash* kabi birliklar yaqin turadi. Biroq ular orasida obrazlilik darajasi bir xil emas. Masalan, *in a flash* vaqtning nihoyatda tez o‘tishini chaqnash obrazi orqali ifodalaydi. O‘zbek tilidagi “ko‘z ochib yumguncha” birligi ham xuddi shunday qisqa muddatni tana harakati orqali obrazlantiradi. Ingliz tilidagi in the blink of an eye bilan uning semantik va obrazli yaqinligi yuqori: *ko‘z ochib yumguncha – in the blink of an eye.* Bu juftlikda ikki tilda ham juda qisqa vaqt ko‘zning bir lahzalik harakati orqali anglashiladi. Demak, ayrim frazeologik modellar umumiy insoniy tajribaga asoslanganligi sababli turli tillarda bir-biriga juda yaqin shaklda yuzaga chiqishi mumkin. “Ertami-kechmi” birligi esa ingliz tilidagi sooner or later bilan deyarli to‘liq muvofiqlik hosil qiladi.

Har ikki birlikda qarama-qarshi vaqt chegaralari – erta va kech – birlashtirilib, voqeaning qachon sodir bo‘lishi noma’lum bo‘lsa-da, uning muqarrarligi ifodalanadi.

To‘rtinchi guruh inson umrining davomiyligi bilan bog‘liq frazeologik birliklarni qamrab oladi. A.Qahhor asarlarida “ko‘z yummoq”, “uch kunlik dunyo”, “esini tanimoq”, “o‘la-o‘lgunimcha” kabi birliklar inson hayotining turli bosqichlarini ifodalashga xizmat qiladi. “Ko‘z yummoq” o‘lmoq ma’nosidagi evfemistik frazeologizm bo‘lib [6; 270], inson hayotining tugash nuqtasini ifodalaydi. Ingliz tilidagi pass away ham o‘limni bevosita nomlamaydigan yumshoq ifoda hisoblanadi. Biroq ikki birlikning ichki shakli turlicha: o‘zbek tilida ko‘zning yumilishi, ingliz tilida esa “o‘tib ketish” obrazi asos qilib olingan. Shuning uchun bu birliklar ma’no jihatidan mos, obrazli-motivatsion jihatdan esa farqli hisoblanadi. “O‘la-o‘lgunimcha” birligiga ingliz tilidagi to one’s dying day birligi yaqin. Ikkala birlikda ham inson hayotining oxirgi chegarasi vaqt o‘lchovi sifatida olinadi. Bu holatda “umr – vaqt oralig‘i” modeli ikki tilda ham kuzatiladi. “Uch kunlik dunyo” birligida esa inson hayotining qisqaligi “uch kun” orqali obrazlantiriladi. Bunda aniq uch sutka nazarda tutilmaydi. Son qisqa umrning ramziy ifodasi sifatida xizmat qiladi. Mazkur birlik o‘zbek xalqining dunyoning o‘tkinchiligi haqidagi tasavvurlari bilan bog‘liq bo‘lib, uning to‘liq obrazli muqobilini ingliz tilidan topish qiyin. Tarjimada life is short singari mazmuniy yaqin ifodalardan foydalanish mumkin, biroq bunday muqobilda “uch kun” obrazi saqlanmaydi.

Beshinchi guruh tarixiy-ijtimoiy vaqtni ifodalovchi birlik va turg‘unlashgan ifodalardan iborat. Abdulla Qahhor asarlarida “Nikolay zamonida” ifodasi bir necha o‘rinda uchraydi. “Bashorat” hikoyasida “Nikolay zamonida” va “hozirgi zamonda” qarama-qarshi qo‘yilib, ikki tarixiy davr o‘rtasidagi farq ko‘rsatiladi. Bu o‘rinda “Nikolay zamonida”ni sof frazeologizm sifatida baholashdan ko‘ra, tarixiy-madaniy vaqtni ifodalovchi turg‘un kontekstual birlik sifatida izohlash maqsadga muvofiq. Chunki uning komponentlari o‘z lug‘aviy ma’nosini to‘liq yo‘qotmagan. Shunga qaramay, Qahhor asarlari kontekstida ushbu ifoda muayyan tarixiy davr haqidagi umumlashgan tasavvurni yuzaga keltiradi. Ingliz tilidagi *in the good old days* ifodasi ham o‘tgan davrni bildiradi, ammo “Nikolay zamonida” bilan to‘liq ekvivalent emas. Birinchi birlik o‘tmishga subyektiv-ijobiy baho berishi mumkin, ikkinchisi esa tarixiy shaxs nomi orqali aniq ijtimoiy-siyosiy davrni belgilaydi. Demak, ular umumiy “o‘tgan zamon” semasi asosida yaqinlashsa-da, madaniy konnotatsiyasi va obrazli asosi jihatidan farqlanadi.

Vaqt konseptining ingliz tilidagi ifodasida resurs modeli ham muhim o‘rin tutadi. G.Lakoff va M.Johnson ingliz tilida vaqtning pul va cheklangan resurs sifatida konseptuallashishini time is money modeli orqali ko‘rsatadi [2; 7-8]. Ingliz tilida spend time, save time, waste time kabi ifodalar vaqt bilan iqtisodiy resursga

xos munosabatda bo‘lish mumkinligini ko‘rsatadi. A.V.Kunin ham Time is money birligini qayd etadi [1; 123]. O‘zbek tilida ham “vaqtni bekor o‘tkazmoq”, “vaqtni boy bermoq”, “vaqtni tejamoq” singari ifodalar mavjud. Shu sababli vaqtni resurs sifatida tushunish faqat ingliz tiliga xos deb bo‘lmaydi. Farq ushbu modelning til va madaniyatdagi faolligi hamda boshqa konseptual modellar bilan munosabatida namoyon bo‘ladi. A.Qahhor asarlari materialida esa vaqtni tabiat sikli, inson umri, ijtimoiy marosim va tarixiy xotira orqali ifodalash holatlari faolroq ko‘zga tashlanadi.

1-jadval.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi vaqtga oid birliklarning qiyosiy tavsifi

O‘zbek tilidagi birlik	**Ingliz tilidagi muqobil**	**Moslik darajasi**	**Obrazli asos**
ertami-kechmi	sooner or later	to‘liq	qarama-qarshi vaqt chegaralari
ko‘z ochib yumguncha	in the blink of an eye	to‘liq	ko‘z harakati
hayal o‘tmay	before long / in no time	qisman	qisqa vaqt
o‘la-o‘lgunimcha	to one’s dying day	to‘liq	umrning oxirgi chegarasi
vaqti kelganda	when the time comes	to‘liq yoki yuqori darajadagi muvofiqlik	vaqtning “kelishi”
ko‘z yummoq	pass away	qisman	ko‘z yumish / o‘tib ketish
uch kunlik dunyo	life is short	qisman	uch kun / umrning qisqaligi
Nikolay zamonida	in the good old days	kontekstual yaqinlik	tarixiy shaxs / o‘tmish
qovun pishig‘i	bevosita muqobili yo‘q	muqobilsiz	mavsum va dehqonchilik sikli

Jadvaldagi misollar ikki tilda vaqtni frazeologik ifodalashning bir necha darajasini ko‘rsatadi. Birinchi holatda semantik va obrazli asos deyarli bir xil: “ko‘z ochib yumguncha – in the blink of an eye”, “ertami-kechmi – sooner or later”. Bunday birliklar umumiy insoniy tajribaga asoslanadi. Ikkinchi holatda umumiy ma’no saqlanadi, ammo obrazlar farqlanadi. “Ko‘z yummoq – pass away” juftligi bunga misol bo‘ladi. Har ikki birlik o‘limni yumshoq ifodalasa-da, o‘zbek tilida ko‘zning yumilishi, ingliz tilida esa bir holatdan boshqasiga o‘tish obrazi mavjud.

Uchinchi holatda milliy-madaniy asos kuchli bo‘lganligi sababli to‘liq frazeologik muqobil topilmaydi. “Qovun pishig‘i” ana shunday birlikdir. Uning semantikasini boshqa tilda ifodalash mumkin, ammo qovun yetishtirish va uning pishish davri bilan bog‘liq obrazni tayyor ingliz frazeologizmi orqali to‘liq saqlash qiyin. Qiyoslash vaqt konseptining ikki tilda bir necha umumiy konseptual model asosida ifodalanishini ko‘rsatadi. Jumladan, vaqt – harakat modeli vaqti kelganda – when the time comes kabi birliklarda; umr – chegaralangan vaqt modeli o‘la-o‘lgunimcha – to one’s dying day birliklarida; qisqa vaqt – tez jismoniy harakat modeli ko‘z ochib yumguncha – in the blink of an eye kabi frazeologizmlarda kuzatiladi. Biroq ushbu umumiy modellar har bir tilning tarixiy va madaniy tajribasi ta’sirida o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilidagi “qovun pishig‘i”, “uch kunlik dunyo”, “yili o‘tmoq” kabi birliklarda vaqt tabiat, umr va marosim bilan bog‘lansa, ingliz tilidagi time is money va unga aloqador ifodalarda vaqtning qiymat va resurs sifatidagi xususiyati kuchliroq namoyon bo‘ladi.

A.Qahhor asarlarida vaqtga oid birliklarning pragmatik vazifasi ham alohida ahamiyatga ega. Adib bunday ifodalardan voqea sur’atini belgilash, personaj nutqini tabiiylashtirish, qahramon ruhiy holatini ko‘rsatish hamda tarixiy-ijtimoiy muhitni ifodalash uchun foydalanadi. Shu bois Qahhor matnlaridagi vaqt birliklari faqat temporal ma’no tashuvchi vositalar emas, balki badiiy tasvir va xarakter yaratishning muhim unsurlaridan biri sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi vaqtga oid frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili quyidagi xulosalarga olib keladi. Birinchidan, vaqt konsepti har ikki tilda inson tajribasining universal qismi bo‘lsa-da, uning frazeologik ifodasi milliy-madaniy tajriba ta’sirida shakllanadi. Vaqtning kelishi, o‘tishi, qisqaligi va inson umrining chegaralanganligi kabi belgilar ikki til uchun umumiydir.

Ikkinchidan, o‘zbek tilidagi vaqtga oid birliklarni davr va muddat, fursat va payt, qisqa vaqt, umr davomiyligi hamda tarixiy-ijtimoiy vaqt kabi semantik guruhlarga ajratish mumkin. Ushbu guruhlar vaqt konseptining turli qirralarini namoyon qiladi.

Uchinchidan, ikki tilda to‘liq yoki yuqori darajada muvofiq keluvchi frazeologik modellar mavjud. “Ertami-kechmi – sooner or later”, “ko‘z ochib yumguncha – in the blink of an eye”, “vaqti kelganda – when the time comes” kabi juftliklarda nafaqat umumiy ma’no, balki ayrim hollarda obrazli asos ham bir-biriga yaqin.

To‘rtinchidan, bir xil mazmun turli obrazlar orqali ifodalangan birliklar ham mavjud. “Ko‘z yummoq – pass away” singari juftliklarda semantik natija o‘xshash bo‘lsa-da, frazeologik obraz va ichki shakl bir-biridan farq qiladi.

Beshinchidan, “qovun pishig‘i”, “yili o‘tmoq”, “uch kunlik dunyo” kabi birliklarda o‘zbek xalqining tabiat, marosim va inson umri haqidagi madaniy

tajribasi faol aks etadi. Bunday birliklarni boshqa tilga o‘girishda faqat lug‘aviy ma’noni emas, ularning obrazli va madaniy mazmunini ham hisobga olish zarur.

Oltinchidan, ingliz tilida vaqtning qimmat va cheklangan resurs sifatida konseptuallashuvi faol kuzatiladi. Biroq bu model o‘zbek tiliga mutlaqo begona emas. Shuning uchun ikki til o‘rtasidagi farqni mutlaq qarama-qarshilik sifatida emas, ayrim konseptual modellarning faollik darajasi va ularni ifodalovchi obrazlarning o‘ziga xosligi bilan izohlash maqsadga muvofiq.

Yettinchidan, Abdulla Qahhor asarlarida vaqtga oid frazeologik va turg‘un birliklar temporal ma’noni ifodalash bilan cheklanmaydi. Ular voqealar dinamikasini belgilash, personajning ruhiy holatini ochish, tarixiy davrni baholash va xalqona nutq xususiyatlarini yuzaga chiqarishda ham muhim uslubiy vazifa bajaradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – 2-е изд., перераб. – М.: Высшая школа; Дубна: Феникс, 1996. – 381 с.
2. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago; London: University of Chicago Press, 2003.
3. Mahmaraimova Sh.T. Lingvokulturologiya: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2017. – 164 b.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 5 jildli. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2022.
5. Qahhor A. Anor: qissa va hikoyalar to‘plami. – Toshkent, 2012. – 200 b.
6. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 b.

“KENTERBERI HIKOYALARI” VA “HAYRAT UL-ABROR” HIKOYATLARINING KOMPOZITSION VA USLUBIY TUZILISHI

Bekmirzayeva Dilrabo Olimjon qizi

Samarqand davlat chet tillar institute assistent o‘qituvchisi

diliandjony@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Jefri Choserning “Kenterberi hikoyalari” va Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asarlaridagi hikoyatlarning kompozitsion hamda uslubiy xususiyatlari qiyosiy-tipologik usulda tahlil qilinadi. Hikoyalarni birlashtiruvchi asos, muallif va hikoyachi munosabati, hikoyalararo aloqa, syujet rivoji hamda she’riy shakl qiyoslash mezonlari sifatida olinadi. Tahlil Choserda ziyorat safari va hikoyachilar muloqoti, Navoiyda esa maqolat bilan hikoyatning

g‘oyaviy bog‘liqligi yaxlitlikni ta’minlashini ko‘rsatadi. Badiiy tuzilishdagi farqlar inson axloqi va jamiyat munosabatlarini yoritish usullariga ta’sir etadi.

Kalit so‘zlar: Jefri Choser, Alisher Navoiy, kompozitsiya, qolibli hikoyalash, maqolat, hikoyat, muallif-narrator, kinoya, masnaviy.

Kirish

“Kenterberi hikoyalari” va “Hayrat ul-abror” turli adabiy muhitlarda yaratilgan bo‘lsa-da, alohida hikoyalarni umumiy badiiy tuzilma ichida birlashtirishi bilan qiyoslash imkonini beradi. Choser inson va jamiyat munosabatlarini ziyoratchilarning hikoyalari, bahslari va o‘zaro munosabatlari orqali ochadi. Navoiy esa axloqiy-falsafiy mulohazalarni ibratli voqealar bilan asoslaydi. Shu sababli hikoyatning mazmunini uning asardagi o‘rni, bayon qiluvchi ovoz va boshqa qismlar bilan aloqasidan ajratib o‘rganish yetarli emas.

Tadqiqotning maqsadi ikki asarda hikoyatning kompozitsion vazifasi va uslubiy ifodasini aniqlashdir. Qiyosiy-tipologik tahlil asosida umumiy tuzilish, hikoyachilar tizimi, syujet va ritmik shakl o‘rganiladi; ayrim epizodlar matniy tahlil qilinadi. O‘xshashliklar mualliflar o‘rtasidagi bevosita adabiy ta’sirning dalili sifatida talqin etilmaydi. Qiyoslash alohida voqealarning qanday tashkil etilishi va ularning axloqiy ma’no hosil qilishdagi vazifasini yoritishga qaratiladi.

“Kenterberi hikoyalari”da birlashtiruvchi asos Kenterberiga ziyorat safaridir. “Umumiy prolog”da hikoyachi Tabard mehmonxonasida yigirma to‘qqiz kishidan iborat guruhga qo‘shiladi. Mezbon Garri Beyli yo‘l davomida hikoya aytishni taklif etib, har bir ziyoratchi borishda ikkita, qaytishda yana ikkita hikoya aytishi kerakligini belgilaydi. Eng yaxshi hikoya egasiga boshqalar hisobidan ziyofat berilishi musobaqani rag‘batlantiradi. Biroq dastlabki reja to‘liq amalga oshmagan: asarda yigirma to‘rtta hikoya mavjud, ayrimlari tugallanmagan [2, “General Prologue”, I, 20–26, 791–808].

Ziyorat qolibi hikoyalarni bir yo‘l va umumiy tinglovchilar doirasi bilan bog‘laydi. Har bir hikoyaning tanlanishi esa uni aytayotgan shaxsning kasbi, dunyoqarashi yoki safardagi vaziyatga aloqador bo‘lishi mumkin. Demak, kompozitsiyani faqat ketma-ket voqealar yig‘indisi deb tushunish uning ichki munosabatlarini cheklaydi. Xelen Kuperning tadqiqotida ham butun asar va alohida hikoyalarning tuzilishi, uslubi hamda janriy aloqalari birgalikda ko‘rib chiqiladi [3]. Bunday yondashuv umumiy qolib bilan hikoyatning mustaqil shakli o‘rtasidagi munosabatni aniqlashga yordam beradi.

“Hayrat ul-abror”ning asosiy qismi yigirma maqolat va ularga bog‘langan hikoyatlar asosida tashkil etiladi. Maqolatda muayyan axloqiy, ijtimoiy yoki falsafiy masala muhokama qilinadi, hikoyat esa uni aniq vaziyatda namoyon etadi [1]. Bu yerda qismlarni birlashtiruvchi markaz shoirning inson kamoloti haqidagi qarashlaridir. Umumiy fikrdan badiiy misolga o‘tish dostonning ichki izchilligini

ta’minlaydi. Axloqiy xulosa hikoyatning bayoni va yakunida ifodalanishi mumkin; uni barcha hikoyatlarda alohida kompozitsion bo‘lim deb hisoblash to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Avf yorliqlari sotuvchisi ochko‘zlikni qoralovchi hikoya aytadi, lekin o‘z maqsadi gunohni tuzatish emas, daromad olish ekanini ochiq tan oladi [2, “Pardoner’s Prologue”, VI, 403–404]. Axloqiy mazmun bilan hikoyachining shaxsiy manfaati o‘rtasidagi ziddiyat kinoyani yuzaga keltiradi. Kitobxon hikoyadan ibrat olish bilan birga uni aytayotgan shaxsning ishonchliligini ham baholaydi. Bu usulda hikoyachi voqeani yetkazuvchi vosita bo‘lishdan tashqari, o‘zi ham tanqidiy kuzatish obyektiga aylanadi.

“Hayrat ul-abror”da hikoyatlar, asosan, yagona muallif-narrator bayoni doirasida beriladi. Shoir voqeani tanlaydi, ruhiy holatni tasvirlaydi va uning ma’naviy yo‘nalishini izohlaydi. Boyazid va murid hikoyatidagi “Qayg‘uluq o‘lturmish edi Boyazid, / So‘rdi g‘ami kayfiyatin bir murid” bayti tashqi bayondan personajlar suhbatiga o‘tishni ko‘rsatadi [1, XXII bob]. Dialog qahramonlarning ruhiy holatini ochsa-da, hikoyatning umumiy g‘oyaviy doirasi muallif tomonidan belgilanadi. Yagona bayon ichidagi bevosita nutq dostonning ta’sirchanligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, qiyosiy tahlil ikki asarda hikoyat umumiy badiiy tuzilmaning mazmun hosil qiluvchi qismi ekanini ko‘rsatadi. “Kenterberi hikoyalari”da ziyorat safari, hikoyachi shaxsi va ziyoratchilar muloqoti kompozitsiyani tashkil etadi. “Hayrat ul-abror”da esa maqolatda ilgari surilgan fikrning hikoyatda badiiy dalillanishi izchillikni ta’minlaydi. Choserda muallif pozitsiyasi hikoyachi nutqi bilan uning xulqi orasidagi kinoyaviy masofada ko‘rinsa, Navoiyda voqeaning ma’naviy talqini yagona muallif bayonida aniqroq ifodalanadi.

Tanlangan syujetlar voqeani kengaytirish va ixchamlashtirishning turli imkoniyatlarini namoyon etadi. Griseldaning ketma-ket sinovlari hamda Ayyubning bir vaziyatdagi muruvvati inson xarakterini turli kompozitsion yo‘llar bilan ochadi. She’riy shakldagi juft qofiya umumiyligi esa ikki ritmik tizimni tenglashtirish uchun asos bo‘lolmaydi. Demak, asarlarning tipologik yaqinligi inson axloqi va ijtimoiy munosabatlarni hikoyat orqali talqin etishida, o‘ziga xosligi esa ushbu ma’noni tashkil etuvchi kompozitsiya va bayon usullarida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Еттинчи том. Хамса. Ҳайратул-аброр. — Тошкент: Фан, 1991.

2. Chaucer G. The Canterbury Tales. Text and Translations // Harvard’s Geoffrey Chaucer Website. URL: https://chaucer.fas.harvard.edu/pages/text-and-translations (murojaat sanasi: 07.10.2026).

3. Cooper H. Oxford Guides to Chaucer: The Canterbury Tales. 2nd ed. — Oxford: Oxford University Press, 1996. DOI: 10.1093/oso/9780198711551.001.0001.

4. Summary of the Framing Narrative // Harvard’s Geoffrey Chaucer Website. URL: https://chaucer.fas.harvard.edu/summary-framing-narrative (murojaat sanasi: 07.10.2026).

III - SHO‘BA: O'ZBEK TILINING DAVLAT TILI SIFATIDA SHAKLLANISHI.

HUJJAT UZVLARINI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI

Bobojonov Farhod Qurbonboyevich
f.f.d. (DSc), professor, Qoraqalpoq davlat universiteti.

Annotatsiya*:* Mazkur maqolada o‘zbek tilida yaratiladigan hujjatlarning tarkibiy qismlari, ularning rasmiylashtirish talablari xususida so‘z yuritiladi. Hujjat rikvizitlarini to‘g‘ri rasmiylashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar*:* hujjat rekvizitlari, hujjat tituli, tashkilot nomi, hujjat nomi, ustxat, mavzu, xatboshi (abzas), ilova haqidagi qayd, imzo yoyilmasi, ijrochi haqida ma’lumot.

Abstract: This article discusses the components of documents created in the Uzbek language, their formalization requirements, and provides recommendations for the correct formalization of document details.

Key words: document details, document title, organization name, document name, header, subject, paragraph, note about the attachment, signature spread, information about the performer.

Hujjat uzvlari yoki hujjatlarning zaruriy qismlari hujjatning ajralmas bo‘laklaridir. Mazkur uzvlar hujjatshunoslikda rekvizitlar[23] deb ham yuritiladi. Hujjatlarni rasmiylashtirishda uzvlarga, keng qo‘llaniladigan zaruriy qismlarga *hujjat tituli, tashkilot nomi, hujjat nomi, ustxat, mavzu, xatboshi (abzas), ilova haqidagi qayd, imzo yoyilmasi, ijrochi haqida ma’lumot* kabilarni sanab o‘tish mumkin. Hujjatlarning zaruriy qismlari, ularning kelish o‘rni, yozilish tartibi, matn qoliplari haqida standart talablar rasmiy ravishda tasdiqlangan emas[24]. Amaliyotda keng qo‘llaniladigan hujjat qismlari va hujjat rekvizitlari bir qancha turdan iborat.

Hujjat va uning qismlarini rasmiylashtirishda rekvizitlar (zaruriy qismlar)ning tuzilishi, joylashishi hamda yozilish shakli bo‘yicha bir qancha imloviy-texnik talablar qo‘yiladi. Mazkur talablarning ba’zilari majburiy (huquqiy) talablar bo‘lsa, ba’zi talablar tavsiyaviy xarakter kasb etadi. Hujjat qismlarining tuzilishi, joylashishi va yozilishi ko‘pincha odatga aylangan, ya’ni qoliplashgan shaklda amalga oshiriladi. Ularga rioya qilish hujjatning shakliy jihatdan jozibador bo‘lishini ta’minlaydi hamda matnda taqdim etilayotgan ma’lumotni tezkor ilg‘ab olishga, hujjatlarni texnik jihatdan farqlashga yordam qiladi. Bular hujjatning tayyorlanishini

[23] Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. B.24.
[24] Babadjanov F. Davlat tilida ish yuritish asoslari: Darslik. Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2025. B.68.

qoliplashtirish, axborotlarni tizimli va tushunarli shaklda taqdim qilish uchun zarur. Hujjat rekvizitlarini joylashtirish, ularni to‘g‘ri yozish bo‘yicha imloviy-texnik tavsiyalarga to‘liq amal qilmaslik hujjatning maqomiga ta’sir etmasa-da, uning tez tushunilishiga, estetik jihatdan chiroyli rasmiylashtirilishiga putur yetkazadi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2012-yil 9-apreldagi 83-MH-son buyrug‘ining[25] ilovasi bilan tasdiqlangan va 2017-yil 10-yanvardagi 7-MH-sonli hamda 2026-yil 4-avgustdagi 25-mh-sonli buyrug‘i bilan o‘zgartishlar kiritilgan “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish va huquqiy ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida uslubiy ko‘rsatmalar”[26] da hujjat loyihalarining matniga qo‘yiladigan talablar belgilangan.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashga doir yuqoridagi talablar boshqaruv hujjatlariga ham to’laligicha taalluqlidir.

Boshqaruv hujjatlariga qo‘yiladigan talablar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 29-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo‘yicha normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida”gi 140-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari, idoralari, korporatsiyalari, konsernlari, uyushmalari, kompaniyalari va boshqa markaziy muassasalari apparatlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo‘yicha Namunaviy yo‘riqnoma”[27] (keyingi o‘rinlarda “Namunaviy yo‘riqnoma”)da birmuncha kengroq bayon etilgan.

Hujjatlarning zaruriy qismlari, ularning kelish o‘rni, yozilish tartibi haqida standart talablar rasmiy ravishda tasdiqlangan emas. Amaliyotda keng qo‘llaniladigan hujjat qismlari va hujjat rekvizitlari quyidagilardan iborat:

Hujjat tituli. Bir necha varaqdan iborat hujjatlarning (nizom, ustav, yo‘riqnoma, dastur, reja kabi) yoki hujjatlar yig‘ma jildining nomini, u haqidagi umumiy ma’lumotlarni aks ettiradigan ilk betdagi ma’lumotlar ***hujjat tituli*** hisoblanadi. Titulda asosiy hujjat nomi to‘liq katta harflarda yoki birinchisi katta harfda berilishi mumkin. Titul joylashgan varaqda hujjatga tegishli rekvizitlar bo‘lmaydi. Titul varaq hujjatning tarkibiy qismi hisoblanmaydi, u hujjatga g‘ilof vazifasini bajaradi, shu bois ko‘pincha rasmiy nashrlarda qo‘llaniladi.

Tashkilot nomi. Hujjatlarning ko‘plab o‘rinlarida tashkilot, muassasa, korxona va u bo‘ysunadigan yuqori idoraning nomi qayd qilinadi. Mazkur nom blankadagi yozuvda, matn tarkibida yoki ustxatlarda kelishiga qarab turlicha shaklda yozilishi mumkin:

[25] [Elektron manba] URL: https://lex.uz/acts/-2365141
[26] [Elektron manba] URL: https://lex.uz/mact/-1999242
[27] [Elektron manba] URL: https://lex.uz/ru/docs/-863120

1) tashkilot nomi ***xizmat blankasida*** qayd etiladigan bo‘lsa, tashkilot va u bo‘ysunadigan yuqori idoraning nomi to‘liq va qisqartmalarsiz yoziladi. Matn davlat tilida bo‘lishi lozim. Xalqaro aloqalarga ega tashkilotlarning xatlar blankasida idoraning nomi davlat tiliga qo‘shimcha ravishda ingliz yoki boshqa xalqaro tillarda ham berilishi mumkin. Shuningdek, nom tarkibidagi so‘zlarning barcha harflarini katta va qoraytirilgan shaklda yozish maqsadga muvofiq;

2) tashkilot nomi ***ustxat tarkibida*** kelganda (ariza, xat, bayonnoma, yo‘riqnoma, buyruq va boshqalarda) bo‘ysunadigan yuqori idoraning nomi qayd etilmaydi. Idora nomi ba’zan to‘liq, ba’zan qisqartma (asosan tasdiqlash ustxatlarda) shaklida qo‘llaniladi, har ikkala qo‘llanish ham xato hisoblanmaydi. Ustxatda tashkilot nomi bilan birga rahbar lavozimi va FIO ham joylashishi mumkin;

3) tashkilot nomi hujjat ***matni tarkibida*** kelganda (ustav, nizom, shartnoma va boshqalarda) birinchi qo‘llanilishida to‘liq yoziladi va qavs ichida keyingi o‘rinlarda qo‘llaniladigan qisqartma shakli beriladi. Masalan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti (keyingi o‘rinlarda ToshDO‘TAU yoki universitet). Har qanday tashkilotning shartli qisqartmasi ustavda aks etishi yoki yuqori idoraning farmoyishi bilan tasdiqlanishi lozim;

4) tashkilot nomiga ***shaxs nomi berilgan bo‘lsa*** (*Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroporti*) shaxs nomi tushirib qoldirilsa-da, rasmiy atama xato hisoblanmaydi: *Toshkent xalqaro aeroporti*. Hujjatlarning ko‘pchiligida shaxs nomi matnni ixchamlashtirish maqsadida tushirib qoldiriladi. Shaxs nomi bilan birga qo‘llash asosan tashqi yozuvlarda va xizmat yozishmalarida uchraydi. Agar shaxs nomi umumiylikdan xususiylikni ta’minlashga xizmat qilsa, odatda nom tushirib qoldirilmaydi: *Bobur istirohat bog‘i.* Turdosh ot bilan yoziladigan nomlar odatda qo‘shtirnoqqa olinadi va tushirib qoldirilmasdan yoziladi: *“Turkiston” mahalla fuqarolar yig‘ini, “KR LEGAL” advokatlik byurosi* kabi.

Hujjat nomi. Har qanday hujjatning o‘z nomi mavjud. Xizmat xatlaridan tashqari barcha hujjatlarda hujjat nomi yoziladi. Ayrim joylarda hujjat nomiga nisbatan hujjat turi atamasi ham qo‘llanilishi mumkin: *Har bir hujjatda (xatlardan tashqari) uning turi (qaror, farmoyish, buyruq, bayonnoma, ma’lumotnoma va shu kabilar) ko‘rsatilishi kerak (Namunaviy yo‘riqnoma, 8-band).* Hujjat nomi alohida qayd etilishi (ishonchnoma, tilxat, ariza) yoki idora nomi, hujjat mavzusi bilan birgalikda qo‘llanilishi mumkin (*Guliston davlat universiteti Kengashining BAYONNOMASI*). Umumiy blankalarda hujjat nomi idora nomi bilan birga qo‘llaniladi: *Ellikqal’a tumani hokimining* ***QARORI****, 8-umumta’lim maktabi direktorining Buyrug‘i* kabi. Hujjat nomida qayd qilinadigan tashkilot va lavozim (yoki organ) birikuvlarida birinchi so‘z belgisiz qaratqich kelishigi shaklida (*tumani, maktabi)* ikkinchi so‘z belgili qaratqich kelishigi shaklida *(hokimining, direktorining)* berilishi maqsadga muvofiq. Hujjat nomi esa to‘liq qoraytirilgan katta

harflarda (**QARORI**), oddiy katta harflarda (BAYONNOMASI), birinchi harfi katta boʻlishi (Buyrugʻi) mumkin. Har uchala holat imloviy jihatdan xato boʻlmasa-da, hujjatlarni saralash qulay boʻlishi uchun hujjat nomini qoraytirilgan katta harflarda yozish tavsiya etiladi. Agar hujjatdan koʻchirma tayyorlanayotgan boʻlsa, hujjat nomi va koʻchirma soʻzlarining har ikkalasi katta harflarda yozilgani maʼqul. Hujjat nomidan keyin nuqta yoki boshqa tinish belgisi qoʻyilmaydi. Hujjat nomi tashkilot nomi yoki mavzudan ajratilgan holda matnning oʻrtalama funksiyasida katta harflarda berilishi tavsiya etiladi.

Hujjat mavzusi (matn sarlavhasi)**.** Har qanday hujjat muayyan bir masalaga qaratilgan boʻladi. Aynan hujjatning nima haqida ekanligi uning mavzusini belgilaydi. *“Aksariyat hujjatlar uchun hujjat mazmunini aks ettiruvchi qisqa va aniq sarlavha boʻlishi shart. Masalan: buyruq (nima toʻgʻrisida?) “korxona tashkil etish toʻgʻrisida”; bayonnomasi (nimaning?) “ilmiy kengash majlisining” (Namunaviy yoʻriqnoma, 9-band).* Sarlavha hamma hujjatlarda qoʻllanilmaydi, *buyruq, farmoyish, koʻrsatma, bayonnoma, xizmat xatlari, hisobot* va shu kabi hujjatlarda matn sarlavhasi qoʻllanilishi mumkin. Hujjatda mavzu oʻziga xos tarzda shakllantirilib, har bir hujjatda har xil qoʻllaniladi. Buyruqlarga va xizmat xatlarida hujjat nomidan keyin, matndan oldin alohida qatorlarda koʻpincha qoʻshtirnoq ichida, odatda chap tomonga taqalgan holda joylashadi: *“ishga qabul qilish toʻgʻrisida”, “boshqa ishga oʻtish toʻgʻrisida”, “xizmat safariga yuborish toʻgʻrisida” (buyruqlarda); “qarzdorlikni undirish haqida”, “hisobotlarni yuborish haqida”, “-sonli xatga javob” (xatlarda)* kabi; koʻrsatma, farmoyish va bayonnomalarda hujjat nomi bilan bir qatorda, undan oldin: *“Taʼmirlash ishlarini oʻtkazish toʻgʻrisida FARMOYISH”, “Oʻzbek tili bayramiga bagʻishlangan tadbirning BAYONNOMASI”* kabi. Hujjatga mavzu qoʻyish majburiy talab emas, biroq mavzu hujjat mazmunini qisqa izohlashga va uni ijroga yoʻnaltirishga yordam beruvchi vositadir. Hujjat mavzusini buyruq va xatlarda matn yuqorisida chap chekkaga taqab (baʼzan qator oʻrtasida) qiyshaytirilgan holda (kursivda) berish tavsiya etiladi. Farmoyish va koʻrsatmalarda hujjat nomidan oldin alohida qatorlarda, bayonnoma va hisobotlarda esa mavzu tashkilot nomi bilan birgalikda, hujjat nomining oldida keladi.

Ustxat. Har qanday hujjatning kimga yoʻnaltirilganligi (adresat – hujjat oluvchi), kim tomonidan yozilganligi (adresant – hujjat joʻnatuvchi), qachon va kim tomonidan tasdiqlanganligi (tasdiqlash ustxati), kelishilganligi (kelishim ustxati) kabi umumiy yoʻnaltiruvchi maʼlumotlarni oʻzida aks ettiradigan, odatda, hujjatning ust qismi, oʻng tomonida joylashadigan rekvizit *ustxat* deb nomlanadi. Baʼzi hujjatlarda ikkita ustxat boʻlib qolganda, ular hujjatning chap va oʻng tomonlariga joylashtiriladi. Ustxatdagi asosiy soʻz (**TASDIQLAYMAN,** KELISHILDI)

qoraytirilishi yoki katta harflarda yozilishi, rahbar lavozimi, imzo yoyilmasi va sana odatdagi o‘lchamda berilishi mumkin.

Ustxat ariza, bildirishnoma (kimga, kimdan), tushuntirish xati (kimga, kimning), rasmiy xatlar (kimga), yo‘riqnoma, bayonnoma, dalolatnoma (tasdiqlanganligi haqida), tavsifnoma, tavsiyanoma (kim haqida) kabi ko‘plab hujjatlarda uchraydi. Ustxat asosiy matn bilan bir xil o‘lchamdagi harflar bilan yoziladi, u bir qismdan (kimga) yoki ikki qismdan (kimga, kimdan) iborat bo‘lishi mumkin. Ustxat qismlarini alohida qatordan, xatboshi (abzas) qo‘yib yozish tavsiya etiladi.

Ayrim hujjatlarda ustxat hujjatning ichki yoki tashqiligiga qarab qo‘yiladi. Masalan, bayonnoma ichki hujjat maqomida bo‘lsa, tasdiqlash ustxatiga zarurat yo‘q, tashqi hujjat maqomiga o‘tganda tasdiqlash ustxati shartli ravishda bo‘lishi lozim. Katta tashkilotlarning kichik bo‘limlari odatdagi yig‘ilishlarini bayonnoma bilan rasmiylashtirib, boshqa tashkilotga yuborgan taqdirda birinchi rahbar imzosi bilan tasdiqlanadi.

Tilxat, tarjimayi hol, ishonchnoma kabi hujjatlarda ustxat qo‘llanilmaydi.

Xatboshi. Hujjatlarning umumlashgan mazmuniy qoliplarini shakllantirishda xatboshi (abzas)lar katta ahamiyatga ega. Xatboshi yangi qatordan bo‘shliq qo‘yish bilan boshlanadi. Har bir xatboshida alohida fikr aks etadi. Ko‘plab normativ-huquqiy hujjatlarga havola berilganda “belgilangan me’yor” matnning qaysi o‘rnida joylashganini ko‘rsatishda ham xatboshidan foydalaniladi. Masalan: *3 moddaning ikkinchi qismi birinchi xatboshisida ta’kidlanganidek, ...*

Shuningdek, kadrlar shaxsiy tarkibiga oid buyruqlarda xodimning ishdan bo‘shashi, boshqa ishga o‘tishi, o‘qishga yuborilishi kabi masalalar birinchi xatboshida aks etsa, ikkinchi xatboshida unga kompensatsiya to‘lash, uning vazifasini boshqa xodimlarga yuklash kabi qo‘shimcha ma’lumotlar qayd qilinadi.

Hujjatlarni qoliplashtirishda xatboshilarga taqsimlanadigan ma’lumotlarni to‘g‘ri joylashtirish muhim ahamiyatga ega. Xizmat xatlarida har bir xatboshida aks etadigan ma’lumotlar aniq belgilangan.

Ilova haqidagi qayd. Ayrim hujjatlarda hujjatning asosiy matnidagi ma’lumotlarga qo‘shimcha tarzda boshqa *hujjatlar, hujjat ko‘chirmasi yoki nusxasi, notiqning ma’ruza matni (bayonnomada), namunaviy jadvallar, turli ro‘yxatlar, shuningdek, turli shakldagi elektron (disk, fleshka)* qo‘shimcha ma’lumotlar ***ilova*** qilinishi mumkin. Agar hujjatning matnda qayd etilgan ilovasi bo‘lsa, u holda ilovalar borligi to‘g‘risidagi belgi quyidagi shakl bo‘yicha rasmiylashtiriladi: *Ilova: 10 varaqda, 2 nusxada* (Namunaviy yo‘riqnoma) Asosiy hujjat bilan ilovadagi hujjat tasdiqlansa yoki unga havola berilsa ilova haqidagi ma’lumot matn ichida beriladi. Ilovalar buyruq, xizmat xatlari, bayonnoma, ariza, tushuntirish xati kabi hujjatlarda

uchraydi. Agar hujjatning ilova qismi mavjud bo‘lsa, bu xususda matn ichida yoki oxirida albatta qayd bo‘lishi lozim.

Imzo va imzo yoyilmasi. Hujjatning xolisligini ta’minlash, unga rasmiy maqom berish, tasdiqlash, kelishish yoki hujjat tayyorlovchini aniq ko‘rsatish maqsadlarida hujjatning ustxatiga yoki matn oxiriga imzo va imzo yoyilmasi qo‘yiladi. *“Hujjat tashkilot rahbar xodimlari tomonidan yoki amaldagi qonunchilikka yoki boshqa huquqiy hujjatlar (nizom yoki tashkilot ustavi) da belgilangan ularning vakolatlariga muvofiq boshqa mansabdor shaxslar tomonidan imzolanadi. “Imzo” rekviziti tarkibiga: hujjatni imzolayotgan shaxsning amaldagi lavozimi nomi, uning shaxsiy imzosi va imzosining yoyilmasi (ismi, otasining ismi bosh harflari va familiyasi) kiradi. Hujjatlarni “uning o‘rniga” degan old ko‘makchi, shuningdek lavozimi nomi oldiga qiya chiziq bilan imzolashga yo‘l qo‘yilmaydi”* (Namunaviy yo‘riqnoma). Imzodan keyin o‘rin oladigan imzo yoyilmasi shaxsning ismi va otasi ismining qisqartmasi hamda familiyani to‘liq yozishdan iborat bo‘ladi. Imzo yoyilmasida ism va ota ismining qisqartmalaridan keyin nuqta qo‘yiladi, biroq bo‘shliq qo‘yilmaydi (V.A.Abdullayev). Imzo yoyilmasi matndan keyin, asosiy matn bilan bir xil o‘lchamda, alohida qatorga,

Ijrochi haqida ma’lumot. Mazkur rekvizit xizmat xatlarida matn va imzo yoyilmasidan keyin, hujjatning chap tomoni pastki qismida, odatda, asosiy matndan kichikroq o‘lchamdagi harflarda kursivda beriladi. *“Har bir hujjatda bevosita ijrochi to‘g‘risidagi belgi bo‘lishi kerak. Hujjatni ijro etuvchi (tuzuvchi)ning familiyasi va uning xizmat telefoni raqami hujjat oxirgi varag‘ining old tomoniga yoki, joy bo‘lmaganda, orqa tomonining pastki chap burchagiga qo‘yiladi”* (Namunaviy yo‘riqnoma). Xizmat xatlarida, ayniqsa, farmoyish xatlarida ijrochi haqida ma’lumot juda muhim hisoblanadi. Unda ijrochining imzo yoyilmasi va telefon raqami yozilishi lozim. Ijrochi haqida ma’lumotning berilmasligi hujjatdagi topshiriqning ijrosiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi yoki axborotning noto‘g‘ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin. Ijrochi sifatida ko‘rsatilgan xodim hujjat matning mohiyatidan to‘liq xabardor bo‘lishi kerak.

Demak, hujjat rekvizitlarining mohiyatini, ularning qo‘llanilish qoidalarini mukammal bilish va ularga amal qilish hujjatning to‘g‘ri rasmiylashtirilishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.

2. Babadjanov F. Davlat tilida ish yuritish asoslari: Darslik. Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2025.

3. [Elektron manba] URL: https://lex.uz/acts/-2365141.

4. [Elektron manba] URL: https://lex.uz/mact/-1999242.
5. [Elektron manba] URL: https://lex.uz/ru/docs/-863120.

O‘ZBEK TILINING DAVLAT TILI SIFATIDA SHAKLLANISHI VA ZAMONAVIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Lola Xalikova Nazarovna
Samarqand iqtisodiyot va servis institute
Iqtisodiy fanlari doktori, professor
Ashurova Jasmina Jo‘ra qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Iqtisodiyot fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda o‘zbek tilining davlat tili sifatida shakllanish jarayoni, uning tarixiy-huquqiy asoslari hamda mustaqillik yillaridagi taraqqiyot bosqichlari tahlil qilinadi. 1989-yil 21-oktabrda “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi o‘zbek tilining siyosiy-huquqiy maqomini belgilagan muhim tarixiy voqea sifatida baholanadi. Shuningdek, mustaqillikdan keyin davlat tilining Konstitutsiyada mustahkamlanishi, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosining joriy etilishi, “Davlat tili haqida”gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi hamda 2019–2020-yillardan boshlab til siyosatini rivojlantirishga qaratilgan yangi institutsional va strategik yondashuvlar yoritiladi. Zamonaviy bosqichda o‘zbek tilining ilm-fan, ta’lim, davlat boshqaruvi, raqamli texnologiyalar va xalqaro kommunikatsiyadagi imkoniyatlarini kengaytirish zarurati asoslanadi. Tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy tahlil, normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish va tizimli yondashuv metodlaridan foydalaniladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, davlat tili, til siyosati, davlat tili maqomi, lotin yozuvi, milliy o‘zlik, til taraqqiyoti, globallashuv, raqamli muhit.

INTRODUCTION

Til millatning tarixiy xotirasi, ma’naviy merosi, dunyoqarashi va ijtimoiy tajribasini avloddan avlodga yetkazib beruvchi asosiy vositalardan biridir. Milliy tilning davlat tili maqomiga ega bo‘lishi esa uning nafaqat madaniy, balki siyosiy-huquqiy va ijtimoiy mavqeini ham belgilaydi. Shu jihatdan o‘zbek tilining davlat tili sifatida shakllanish tarixi O‘zbekistonning milliy davlatchiligi, mustaqillikka erishish jarayoni va milliy o‘zlikni tiklash bilan uzviy bog‘liqdir [1].

O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi huquqiy maqomi bir kun yoki bir hujjat bilan to‘liq shakllanib qolmagan. Mazkur jarayonni bir necha tarixiy bosqichga ajratish mumkin: 1989-yilda davlat tili maqomining huquqiy jihatdan belgilanishi, mustaqillikdan keyingi konstitutsiyaviy mustahkamlanish, lotin yozuviga

asoslangan alifboga o‘tish jarayoni, 1995-yilda qonunchilik asoslarining takomillashtirilishi hamda 2019-yildan boshlab davlat tilining mavqeini oshirishga qaratilgan yangi siyosiy va institutsional bosqich [2].

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, globallashuv, axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi va xalqaro kommunikatsiyaning kengayishi sharoitida davlat tilining vazifalari ham o‘zgarib bormoqda. Bugungi kunda o‘zbek tilining davlat boshqaruvi yoki kundalik muloqot tili bo‘lishining o‘zi yetarli emas. U zamonaviy ilm-fan, texnologiya, iqtisodiyot, huquq, diplomatiya va raqamli kommunikatsiya tili sifatida ham rivojlanishi zarur [3].

Asosiy qism

O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi

O‘zbek tilining davlat tili sifatida shakllanish tarixidagi eng muhim burilish 1989-yil 21-oktabrda “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi bilan bog‘liq. Mazkur hujjat o‘zbek tilining respublika hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslarini belgilab berdi. Qonunning 1-moddasida o‘zbek tili davlat tili deb e’lon qilindi.

Ushbu qonun o‘sha davr sharoitida milliy til mavqeini tiklash yo‘lidagi tarixiy qadam bo‘ldi. Hujjatda o‘zbek tilini siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning turli sohalarida rivojlantirish vazifalari belgilangan edi. Shu bilan birga, respublikada yashovchi boshqa millat va elatlarning o‘z ona tillaridan foydalanish huquqlari ham saqlab qolingan. Bu jihat til siyosatida milliy manfaat bilan ko‘p millatli jamiyat ehtiyojlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga xizmat qildi.

2019-yilda qabul qilingan PF-5850-son Farmonda ham 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan davlat tili haqidagi qonun mamlakat suvereniteti va mustaqilligi sari qo‘yilgan muhim qadamlardan biri sifatida baholangan [4].

Mustaqillik va konstitutsiyaviy mustahkamlanish bosqichi

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng davlat tilining huquqiy maqomi yanada mustahkamlandi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida: **“O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir”**, degan norma belgilandi. Shu bilan birga, davlat mamlakat hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish hamda ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratishni o‘z zimmasiga oladi.

Konstitutsiyaviy norma o‘zbek tilining mavqeini oddiy ijtimoiy yoki madaniy hodisadan davlatning asosiy huquqiy belgilaridan biri darajasiga olib chiqdi. Natijada davlat tili tushunchasi davlat boshqaruvi, huquqiy munosabatlar, ta’lim, ommaviy axborot, hujjatchilik va ijtimoiy kommunikatsiya tizimi bilan yanada uzviy bog‘landi [5].

Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosining joriy etilishi

O‘zbek tili taraqqiyotidagi navbatdagi muhim bosqich 1993-yil 2-sentabrda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi bo‘ldi. Mazkur Qonunda lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosini joriy etish belgilandi. Qonun hujjatida lotin yozuviga o‘tish respublikaning jahon kommunikatsiya tizimiga kirishini jadallashtiruvchi sharoitlardan biri sifatida ko‘rsatilgan.

Yangi alifboga o‘tish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Ta’lim muassasalari uchun yangi darsliklar tayyorlash, imlo qoidalarini ishlab chiqish va yosh avlodni yangi yozuv asosida o‘qitish vazifalari belgilandi.

Lotin yozuviga asoslangan alifboning joriy etilishi davlat tilining mustaqillik davridagi ramziy va funksional taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etdi. Chunki yozuv tizimi nafaqat grafik masala, balki axborot almashinuvi, ta’lim, nashriyot, xalqaro kommunikatsiya va zamonaviy texnologiyalar bilan ham bog‘liqdir.

“Davlat tili haqida”gi Qonunning yangi tahriri

1995-yil 21-dekabrda 1989-yilda qabul qilingan davlat tili haqidagi qonun yangi tahrirda tasdiqlandi. Mazkur tahrir davlat tilini izchil joriy etish jarayonini takomillashtirish hamda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga o‘tish jarayonini huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratildi.

Qonunning 1-moddasida O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tili ekanligi yana bir bor mustahkamlandi. 2-moddada esa davlat tili maqomining respublikada yashovchi boshqa millat va elatlarning o‘z ona tillaridan foydalanish huquqlariga monelik qilmasligi qayd etildi.

Mazkur yondashuv O‘zbekistondagi til siyosatining ikki muhim tamoyilini namoyon etadi: birinchisi - o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeini ta’minlash, ikkinchisi - mamlakatdagi boshqa tillarning erkin rivojlanishi uchun huquqiy sharoit yaratish.

2019-yildan keyingi yangi institutsional bosqich

O‘zbek tilining zamonaviy taraqqiyotida 2019-yil alohida bosqich hisoblanadi. 2019-yil 21-oktabrda “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmon qabul qilindi. Mazkur hujjat davlat tilini rivojlantirish siyosatini yangi institutsional darajaga olib chiqdi [5].

Farmonda davlat tiliga oid qonun hujjatlariga rioya etilishini monitoring qilish, davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish, til bilan bog‘liq muammolarni aniqlash va bartaraf etish, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash kabi vazifalar belgilandi. Shuningdek, 21-oktabr sanasini “O‘zbek tili bayrami kuni” sifatida belgilash tashabbusi ilgari surildi.

Bu bosqichning muhim xususiyati shundaki, davlat tilini rivojlantirish masalasi faqat madaniy-ma’rifiy tadbirlar doirasida emas, balki davlat siyosatining alohida yo‘nalishi sifatida qarala boshlandi.

2020–2030-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi

2020-yil 20-oktabrda PF-6084-son Farmon bilan mamlakatda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish bo‘yicha strategik vazifalar belgilandi. Hujjatda o‘zbek tilining ijtimoiy hayot va xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish, davlat tilini to‘laqonli joriy etish, boshqa millat va elatlar tillarini saqlash va rivojlantirish hamda davlat tilini o‘rganish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsad qilib qo‘yilgan.

Mazkur hujjat bilan til siyosatini qisqa muddatli tadbirlar emas, balki uzoq muddatli strategiya asosida olib borish tamoyili mustahkamlandi. Bu esa davlat tilining zamonaviy taraqqiyot bosqichini yangi mazmun bilan boyitdi [6].

Hozirgi sharoitda ushbu taraqqiyot bir necha asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘lmoqda:

birinchidan, davlat boshqaruvi va rasmiy ish yuritishda o‘zbek tilining qo‘llanish ko‘lamini kengaytirish;

ikkinchidan, ilmiy terminologiyani rivojlantirish va o‘zbek tilining ilm-fan tili sifatidagi imkoniyatlarini oshirish;

uchinchidan, ta’lim tizimida davlat tilining sifatli va me’yoriy qo‘llanishini ta’minlash;

to‘rtinchidan, raqamli makonda o‘zbek tilidagi kontent hajmini oshirish;

beshinchidan, o‘zbek tilining xalqaro kommunikatsiyadagi mavqeini kengaytirish.

O‘zbek tilining zamonaviy taraqqiyotidagi muammolar

Bugungi kunda davlat tilining huquqiy maqomi mustahkam bo‘lsa-da, uning amaliy qo‘llanishi bilan bog‘liq ayrim masalalar hanuz dolzarbligini saqlab qolmoqda [7].

Eng muhim masalalardan biri terminologik tizimni muntazam rivojlantirishdir. Zamonaviy axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt, iqtisodiyot, tibbiyot, muhandislik va boshqa sohalarda yuzlab yangi tushunchalar yuzaga kelmoqda. Bu tushunchalarning o‘zbekcha muqobillarini yaratish va bir xil shaklda qo‘llash davlat tilining ilmiy salohiyatini rivojlantirish uchun muhimdir.

Ikkinchi masala lotin yozuvidan foydalanishdagi birxillik bilan bog‘liq. Rasmiy hujjatlar, matbuot, reklama, internet va ijtimoiy tarmoqlarda ayrim hollarda kirill va lotin yozuvlarining parallel qo‘llanishi kuzatiladi. Shu sababli yozuv madaniyati va imlo me’yorlarini takomillashtirib borish til taraqqiyotining muhim shartidir.

Uchinchi masala raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq. Zamonaviy tilning yashovchanligi ko‘p jihatdan uning raqamli makonda qanchalik faol qo‘llanishiga bog‘liq. Elektron lug‘atlar, matn korpuslari, avtomatik tarjima vositalari, imlo tekshirish dasturlari, nutqni tanish va sun’iy intellekt tizimlarining o‘zbek tilidagi imkoniyatlarini kengaytirish muhim vazifalardan biridir [8].

Shuningdek, davlat tilining nufuzini oshirish tilni majburiy talab sifatida emas, balki zamonaviy bilim, ilmiy tafakkur va professional kommunikatsiyaning samarali vositasi sifatida rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Xulosa

O‘zbek tilining davlat tili sifatida shakllanishi uzoq davom etgan tarixiy, siyosiy va huquqiy jarayon mahsulidir. 1989-yil 21-oktabrda davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi bu jarayonning fundamental bosqichi bo‘lib, o‘zbek tilining rasmiy-huquqiy maqomini belgilab berdi. Mustaqillik yillarida esa mazkur maqom Konstitutsiyada mustahkamlandi, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi joriy etildi hamda davlat tili haqidagi qonunchilik takomillashtirildi.

2019–2020-yillarda qabul qilingan hujjatlar esa davlat tilini rivojlantirish siyosatini yangi strategik bosqichga olib chiqdi. Davlat tilining nufuzi, ilmiy imkoniyatlari, davlat boshqaruvidagi o‘rni, raqamli muhitdagi ishtiroki va xalqaro mavqeini oshirish ustuvor yo‘nalishga aylandi.

Shundan kelib chiqib, o‘zbek tilining zamonaviy taraqqiyotini quyidagi tarixiy bosqichlarda umumlashtirish mumkin: 1989-yil — davlat tili maqomining huquqiy asoslanishi; 1992-yildan boshlab — konstitutsiyaviy mustahkamlanish; 1993–1995-yillar — yozuv va qonunchilik tizimini takomillashtirish; 2019-yildan boshlab — institutsional va strategik rivojlanish; 2020–2030-yillar — raqamli, ilmiy va xalqaro taraqqiyot bosqichi.

Kelgusida o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi barqaror taraqqiyoti uning zamonaviy fan va texnologiyalar tili sifatidagi imkoniyatlarini kengaytirish, ilmiy terminologiyani takomillashtirish, raqamli resurslarni rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish hamda davlat tili me’yorlariga rioya etish madaniyatini kuchaytirishga bog‘liq bo‘ladi. Shu ma’noda davlat tilining rivoji faqat tilshunoslik masalasi emas, balki milliy taraqqiyot, intellektual salohiyat va jamiyatning madaniy barqarorligini ta’minlovchi muhim omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonuni, 1989-yil 21-oktabr, 3561-XI-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 4-modda.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonuni, 1993-yil 2-sentabr, 931-XII-son.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni, 1995-yil 21-dekabr, 167-I-son.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni, 2019-yil 21-oktabr.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son Farmoni, 2020-yil 20-oktabr.

7. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi – Lex.uz.

8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining rasmiy portali – Constitution.uz.

DAVLAT TILI VA KO‘P TILLILIK UYG‘UNLIGI: MILLIY YUKSALISHNING LINGVISTIK ASOSLARI

Toirova Dilfuza Fayzullayevna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Xorijiy tillar kafedrasi mudiri
Tel.: +998 90 601 80 08
E-mail: dilfuza.toirova

Annotatsiya: Maqolada davlat tilining milliy yuksalish, ta’lim, ilm-fan va xalqaro akademik muloqotdagi o‘rni ko‘p tillilik tamoyili bilan uyg‘un holda yoritiladi. O‘zbek tilining jamiyatni birlashtiruvchi va bilimni milliy tafakkur orqali ifodalovchi vazifasi, xorijiy tillarning esa xalqaro ilmiy axborotga kirish imkonini kengaytiruvchi vosita ekani asoslanadi. Ilmiy tarjima, terminologiya va raqamli til resurslari mazkur uyg‘unlikning amaliy mexanizmlari sifatida talqin qilinadi. Davlat tili, xorijiy tillar va tarjimani birlashtiruvchi uch komponentli integrativ model taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: davlat tili, ko‘p tillilik, milliy yuksalish, ilmiy kommunikatsiya, tarjima, terminologiya, raqamli til, milliy korpus.

Kirish

Til millatning tarixiy xotirasi, ma’naviy tajribasi va intellektual salohiyatini ifodalovchi asosiy ijtimoiy hodisalardan biridir. Davlat tili esa shu umumiy vazifaning huquqiy va kommunikativ tayanchini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi mustahkamlangan [1]. “Davlat tili haqida”gi Qonun va keyingi yillarda

qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar o‘zbek tilining davlat boshqaruvi, ta’lim, fan, madaniyat va rasmiy muloqotdagi imkoniyatlarini izchil kengaytirishga xizmat qilmoqda [2–6]. Globallashuv sharoitida esa davlat tilining taraqqiyoti uning boshqa tillar bilan faol ilmiy va madaniy aloqada bo‘lishi, zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirishi va yangi kommunikativ vazifalarni bajarishi bilan belgilanadi.

Davlat tili va ko‘p tillilikning o‘zaro uyg‘unligi. Davlat tili jamiyatning ichki birligi, milliy o‘zlik va umumiy fuqarolik muloqotining asosini yaratadi. Xorijiy tillar esa jahon ilm-fani, texnologiya, ta’lim va madaniyati bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqani ta’minlaydi. Shu sababli davlat tili va ko‘p tillilikni qarama-qarshi emas, o‘zaro to‘ldiruvchi lingvistik resurslar sifatida baholash maqsadga muvofiq. Ona tilida chuqur fikrlash va ilmiy mazmunni aniq ifodalash qobiliyati xorijiy tildagi akademik faoliyatning ham mustahkam poydevorini yaratadi. Ayni paytda xorijiy tillarda o‘zlashtirilgan yangi bilim va tajriba tarjima hamda ilmiy talqin orqali o‘zbek tilining terminologik va uslubiy imkoniyatlarini boyitadi.

2019-yildagi PF–5850-son va 2020-yildagi PF–6084-son hujjatlarda o‘zbek tilining nufuzi va mavqeyini oshirish, til siyosatini takomillashtirish hamda uning ta’lim va ilm-fandagi qo‘llanishini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilgan [3;4]. 2025-yildagi PQ–308-son qarorda leksikografiya, terminologiya, tarjima, zamonaviy o‘zbek tili korpusi va raqamli texnologiyalarga oid vazifalarning belgilanishi davlat tilining yangi taraqqiyot bosqichini ko‘rsatadi [5]. 2026-yildagi 437-son Vazirlar Mahkamasi qarori esa davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil etishning institutsional mexanizmlarini yanada mustahkamladi [6]. Ushbu jarayonlar o‘zbek tilining zamonaviy boshqaruv va ilmiy kommunikatsiya tili sifatidagi salohiyatini izchil rivojlantirmoqda.

Ilmiy tarjima va terminologiya – bilimlar almashinuvining tayanchi. Ilm-fan rivoji yangi tushuncha va atamalarni muntazam ravishda tilga olib kiradi. Shu bois davlat tilining fan tili sifatidagi imkoniyatlarini kengaytirishda ilmiy tarjima va terminologik izchillik alohida ahamiyat kasb etadi. Xalqaro ilmiy atamalarni mazmunan aniq o‘zlashtirish, zarur hollarda o‘zbek tilining ichki so‘z yasash imkoniyatlaridan foydalanish, bir tushunchaga nisbatan barqaror terminni qo‘llash ilmiy matnning aniqligi va tushunarliligini ta’minlaydi. Bu jarayonda filolog, tarjimon va tegishli soha mutaxassisining hamkorligi samarali natija beradi.

O‘zbek leksikografiyasida yaratilgan ko‘p jildli izohli lug‘atlar milliy tilning boy lug‘aviy imkoniyatlarini tizimli ravishda aks ettiradi. 2006–2008-yillarda nashr etilgan besh jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” va 2022-yildagi olti jildli yangi nashr o‘zbek tilining zamonaviy leksik qatlamini ilmiy asosda qayd etish va boyitishning muhim manbalaridir [7;8]. Bunday lug‘atlar akademik yozuv, tarjima, darslik yaratish va terminologik me’yorlarni shakllantirish uchun tayanch manba vazifasini bajaradi.

Raqamli muhit va oliy ta’limdagi yangi imkoniyatlar. Raqamli transformatsiya til taraqqiyotiga yangi ko‘lam bermoqda. Milliy til korpusi, elektron lug‘atlar, avtomatik tarjima, nutqni tanish, matnni ovozlashtirish, imlo va uslubni tekshirish tizimlari o‘zbek tilining zamonaviy texnologik muhitdagi funksiyalarini kengaytiradi. Sun’iy intellekt tizimlarida o‘zbek tilining sifatli qo‘llanishi uchun me’yoriy, janr jihatidan rang-barang va ilmiy jihatdan ishonchli matnlar bazasini shakllantirish muhim. Bu vazifa ta’lim, fan, davlat xizmatlari va ommaviy kommunikatsiya uchun bir vaqtning o‘zida katta amaliy ahamiyatga ega.

Oliy ta’lim muassasalari davlat tili va ko‘p tillilik uyg‘unligini amalda namoyon etadigan muhim ilmiy-ma’rifiy makondir. Talaba davlat tilida kasbiy tafakkur yuritishi, xorijiy tilda axborot izlashi, ikki yoki uch tildagi terminlarni qiyosiy o‘rganishi va o‘z ilmiy fikrini turli auditoriyalarga mos ravishda ifodalay olishi mumkin. Ayniqsa, xorijiy tillar ta’limida o‘zbek tilidagi tushuntirish, qiyosiy tahlil, tarjima va akademik yozuv elementlarini uyg‘unlashtirish metalingvistik kompetensiyani rivojlantiradi. Natijada ko‘p tillilik davlat tilining ilmiy va xalqaro funksiyalarini kengaytiradigan intellektual vositaga aylanadi.

Xulosa. Davlat tili milliy yuksalishning ma’naviy belgisi bo‘lish bilan birga, ta’lim, ilm-fan, boshqaruv va raqamli taraqqiyotni yagona kommunikativ makonda birlashtiruvchi omildir. O‘zbek tilining zamonaviy rivoji ko‘p tillilik, ilmiy tarjima va raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashganda yanada katta salohiyat kasb etadi. Davlat tili milliy tafakkur va ijtimoiy birlikning tayanchi, xorijiy tillar xalqaro ilmiy va madaniy maydonga chiqish vositasi, tarjima esa ular o‘rtasida bilim almashinuvini ta’minlaydigan mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur uyg‘unlikni ta’lim va ilmiy faoliyatda izchil rivojlantirish o‘zbek tilining milliy va xalqaro nufuzini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Ilmiy-nazariy taklif. Davlat tilining zamonaviy taraqqiyotini uch komponentli integrativ model asosida talqin etish taklif qilinadi: birinchisi – davlat tili milliy tafakkur, ta’lim va institutsional kommunikatsiyaning tayanchi; ikkinchisi – xorijiy tillar xalqaro ilmiy axborotga kirish va milliy natijalarni jahon maydoniga olib chiqish vositasi; uchinchisi – tarjima va terminologiya ushbu ikki makon o‘rtasida bilim almashinuvini ta’minlovchi vositachi mexanizmdir. Mazkur model davlat tili va ko‘p tillilikni yagona ilmiy-ma’rifiy taraqqiyot tizimining o‘zaro to‘ldiruvchi qismlari sifatida izohlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni. 1989-yil 21-oktabr, 3561-XI-son; 1995-yil 21-dekabrdagi 167-I-son Qonun tahririda.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF–5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF–6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi PQ–308-son “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 7-avgustdagi 437-son “Respublikada davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli / A. Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.

8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli / A. Madvaliyev va D. Xudayberganova tahriri ostida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.

УДК 372.881.161.1

ЭТНОКУЛЬТУРНЫЙ ПОДХОД К ОБУЧЕНИЮ ГОВОРЕНИЮ В ПРАКТИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО: ПРЕДМЕТНАЯ И ПРОЦЕССУАЛЬНАЯ СПЕЦИФИКА

Милосердова Елена Михайловна
кандидат филологических наук, доцент кафедры русского языка, ФГБОУ ВО «Национальный исследовательский университет «МЭИ»
Lena-Zin22@yandex.ru

Власкина Елена Дмитриевна
старший преподаватель кафедры русского языка, ФГБОУ ВО «Национальный исследовательский университет «МЭИ»

VlaskinaYD@mpei.ru

Аннотация: В статье рассматриваются теоретико-методологические основы этнокультурного обучения говорению в практике преподавания русского языка как иностранного (РКИ). Обосновывается парадигмальный сдвиг от инструментального восприятия языка к его пониманию как

выражения духовного мира, истории и менталитета носителей культуры. Выявлена двуединая специфика этнокультурного обучения говорению: предметная — объектом обучения выступают не только вербальный код, но и невербальные средства коммуникации (кинесика, мимика, просодия) и «культурный код» как система ценностей и ментальных стереотипов; и процессуальная — смещение фокуса с механической тренировки речевых образцов на формирование способности к культурной интерпретации, эмпатии и адекватному речевому поведению в ситуациях межкультурного общения. Центральным понятием настоящего исследования выступает «вторичная языковая личность», становление которой невозможно вне целенаправленного формирования социокультурной компетенции. Кроме того, авторами раскрыта её трёхкомпонентная структура: когнитивный, поведенческий и личностный (аффективный) компоненты. В статье показано, что синтез лингвистического, дискурсивного и социокультурного измерений обеспечивает переход от владения языком как набором абстрактных инструментов к становлению полноценной вторичной языковой личности, готовой к социальной и культурной интеграции.

Ключевые слова: русский язык как иностранный, этнокультурный подход, говорение, вторичная языковая личность, социокультурная компетенция, межкультурная коммуникация, лингводидактика, этнометодика, культурный код, вербальный код.

В современной методике преподавания русского языка как иностранного (РКИ) наблюдается фундаментальный парадигмальный сдвиг, знаменующий собой отказ от утилитарного, сугубо инструментального восприятия языка в пользу его понимания как концентрированного выражения духовного мира, многовековой истории и уникального менталитета носителей культуры [1]. Данный сдвиг отражает общую логику развития лингводидактики — от национально ориентированной методики к целостной этнометодике [2]. Подобная трактовка соизучения языка и культуры развивается и в российской, и в китайской методических традициях [3].

В новой оптике обучение продуктивным видам речевой деятельности, и в особенности говорению, перестаёт быть исключительно техническим процессом отработки фонетических артикуляционных навыков. Оно трансформируется в целенаправленный процесс становления «вторичной языковой личности». Этнокультурный подход приобретает статус базовой методологической основы, определяющей вектор, содержание, принципы и цели образовательного процесса в области обучения устной речи.

Специфика этнокультурного обучения говорению детерминируется его двуединой направленностью, которая раскрывается через предметный и процессуальный аспекты.

Предметная сторона этнокультурного обучения говорению предполагает комплексный подход к объекту освоения: в него включается не просто вербальный код, но и весь спектр невербальных средств коммуникации, а также «культурный код» — система скрытых ценностей, традиций и ментальных стереотипов [6]. Существенную роль играют кинесические и мимические компоненты русской речи: они обладают выраженной национально-культурной спецификой и должны осваиваться в рамках обучения говорению наряду с лексикой и грамматикой [6]. Не менее значим и просодический уровень: оформление высказывания несёт культурную нагрузку, а его реализация у разных народов заметно различается — это обусловливает необходимость этноориентированного подхода уже на этапе работы с фонетикой [7; 8].

Специфика учебного процесса заключается в смене методологического вектора: приоритет отдается не механическому заучиванию и воспроизведению готовых речевых конструкций, а формированию у иностранных студентов способности к самостоятельному культурному анализу, эмпатии и корректному речевому поведению в условиях реального межкультурного диалога [9; 10; 11]. Ключевым итогом такого подхода становится умение обучающегося оценивать уместность конкретной реплики в определенном контексте и предвидеть ее интерпретацию партнером по коммуникации [12].

Ключевым инструментом для понимания данной специфики служит понятие «вторичной языковой личности». Как справедливо указывает И. И. Халеева, педагогическая цель заключается в формировании «вторичной языковой личности, способной проникнуть в „дух“ изучаемого языка, постичь картину мира, запечатлённую в нём» [1, с. 67]. Именно отрыв изучения говорения от культурного контекста закономерно порождает псевдокомпетенцию — явление, при котором грамматически безупречная речь оказывается прагматически несостоятельной [12].

Ключевой задачей этнокультурного подхода становится формирование социокультурной компетенции (СКК), которая представляет собой интегративное качество личности и включает три неразрывно взаимосвязанных компонента.

Когнитивный компонент — система фоновых знаний о социокультурном фоне России и русскоязычного пространства. Для адекватного участия в диалоге недостаточно знать словарное определение

слова; необходимо понимать весь комплекс культурных коннотаций. Системное накопление таких фоновых знаний обеспечивается современными лексикографическими источниками [6; 13].

Поведенческий компонент — комплекс умений оперировать накопленными знаниями в реальном общении: умение распознавать и использовать социокультурные маркеры, интерпретировать национально-культурную специфику поведения [14]. Умение выбрать правильную формулу приветствия, обращения («ты/Вы») и прощания является ярким проявлением этого компонента; ошибка в выборе формы обращения способна привести к немедленному разрушению контакта [14].

Личностный (аффективный) компонент — набор навыков, установок и ценностей, готовность вести себя в соответствии с нормами российского лингвосоциума. Он связан с формированием эмпатии, толерантности и «толерантности к неопределённости». Немаловажным фактором формирования личностного компонента является учёт ценностных ориентиров и религиозных установок иностранных студентов [15, с. 232–241].

Отсутствие или недостаточная сформированность СКК ведёт к коммуникативным неудачам даже при хорошем владении грамматикой. Показателен пример различий в стратегиях вежливости: прямой отказ, допустимый в ряде западных культур, в русскоязычной среде нередко воспринимается как категоричность или неуважение.

Таким образом, специфика этнокультурного обучения говорению на РКИ заключается в его комплексном, системном характере. Методика, основанная на ЭКОП, требует одновременного решения трёх взаимосвязанных задач: формирования лингвистической компетенции, развития дискурсивной компетенции и целенаправленного формирования социокультурной компетенции. Именно синтез лингвистического, дискурсивного и социокультурного измерений позволяет перейти от владения русским языком как набором абстрактных инструментов к становлению полноценной вторичной языковой личности.

Список литературы

1. Халеева И. И. Основы теории обучения пониманию иноязычной речи (подготовка переводчиков). — М.: Высшая школа, 1989. — 238 с.

2. Пугачев И. А. Этноориентированная методика в поликультурном преподавании русского языка иностранцам: монография. — М.: Российский университет дружбы народов, 2011. — 210 с.

3. Гао Юе. Соизучение языка и культуры в российской и китайской методиках преподавания иностранных языков // Педагогика. Вопросы теории и практики. — 2021. — Т. 6. Вып. 7. — С. 45–52.

4. Бердичевский А. Л., Голубева А. В. Как написать межкультурный учебник русского языка как иностранного. — СПб.: Златоуст, 2015. — 140 с.

5. Березун О., Йорданова Н. Формирование умений и навыков межкультурного общения в процессе обучения русскому языку как иностранному // Наукові записки. — 2007. — Вип. 75(5). — С. 112–124.

6. Акишина А. А., Кано Хироко, Акишина Т. Е. Жесты и мимика в русской речи: Лингвострановедческий словарь. — 3-е изд. — М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2012. — 152 с.

7. Брызгунова Е. А. Эмоционально-стилистические различия русской звучащей речи. — М.: Изд-во Моск. ун-та, 1984. — 116 с.

8. Беженаръ О. А. Обучение русской интонации в итальянской аудитории // Русский язык за рубежом. — 2017. — № 3. — С. 16–23.

9. Вагнер В. Н. Национально ориентированная методика в действии // Русский язык за рубежом. — 1988. — № 1 (111). — С. 70–75.

10. Федина М. В. Особенности обучения иностранному языку в контексте межкультурного общения // Актуальные социально-гуманитарные исследования и технологии. — Белгород: АПНИ, 2021. — С. 89–95.

11. Антонова Ю. А. О некоторых тонкостях преподавания РКИ китайским студентам // Педагогическое образование в России. — 2016. — № 12. — С. 15–21.

12. Белянин В. П. Психолингвистика: учебник. — М.: Флинта, 2003. — 232 с.

13. Поморцева Н. В. Новые подходы к организации обучения РКИ: лингвокультурная адаптация инофонов как комплексная задача обучения РКИ // Русский язык в современном мире: традиции и инновации... — М.: Высшая школа перевода МГУ, 2011. — С. 234–241.

14. Быкова О. П., Сиромаха В. Г. Русский преподаватель и корейский студент — пути к взаимопониманию и взаимодействию // Reosiahag: Journal of Institute for Russian Studies. — 2006. — № 2. — С. 123–150.

15. Астафьева Л. С. Особенности воспитания иностранных студентов в России в контексте их религиозных установок и ценностных ориентиров // Вопросы современной науки и практики. Университет им. В. И. Вернадского. Серия: Социология. Юриспруденция. — 2012. — № 2 (40). — С. 232–241.

O‘ZBEK TILI GRAMMATIKASINI O‘QITISHDA KOGNITIV-NEYROPEDAGOGIK YONDASHUV

Shofqorov Abdishukur Musayevich
f.f.n., O‘zDJTU dotsenti,
ChDPU tadqiqotchisi,

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tili grammatikasini o‘qitishda kognitiv-neyropedagogik yondashuvning nazariy va amaliy imkoniyatlari yoritilgan. O‘zbek tilining agglyutinativ tabiati, morfologik tizimining murakkabligi va grammatik birliklarning o‘zlashtirilishida ishchi xotira hamda kognitiv jarayonlarning o‘rni tahlil qilingan. O‘zbek tilining agglyutinativ-morfologik xususiyatlari bilan kognitiv-neyropedagogik tamoyillar o‘rtasidagi metodik bog‘liqlik asoslanib, grammatik materialni o‘zlashtirishda axborotni bo‘laklash, bosqichma-bosqich takrorlash, kontekstual taqdim etish va metakognitiv mashqlardan foydalanish taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: grammatika, neyropedagogika, neyropedagogik yondashuv, kognitiv jarayonlar, ishchi xotira, morfologik tizim, grammatik kompetensiya, metakognitiv ko‘nikmalar, raqamli texnologiyalar.

Neyropedagogika insonning kognitiv va neyrofiziologik xususiyatlari haqidagi ilmiy ma’lumotlarni ta’lim jarayonini tashkil etish masalalari bilan bog‘lashga intiluvchi fanlararo yo‘nalish sifatida qaraladi.

O‘zbek tilini o‘qitish metodikasida kognitiv-neyropedagogik yondashuvni tatbiq etish zamonaviy ilmiy yutuqlardan foydalanish, shuningdek, ona tilini samarali o‘rgatish metodlarini takomillashtirish imkonini beradi. O‘zbek tili turkiy tillar oilasining qarluq guruhiga mansub agglyutinativ tildir. Tilimizning o‘ziga xos morfologik tizimi bir asosdan ko‘plab yangi so‘z va shakllar hosil qilish imkoniyati, sintaktik xilma-xillik – bularning barchasi ham o‘quvchilar uchun jiddiy lingvistik salohiyat manbai, ham o‘zlashtirishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaruvchi omildir.

O‘zbek tili grammatikasining o‘ziga xos jihati uning morfologik shakllarga boyligi va grammatik shakllarning muayyan tizim asosida qo‘llanishidir. O‘zbek tilida asosga affikslarning qo‘shilishida muayyan ketma-ketlik mavjud bo‘lib, odatdagi tartib asos + so‘z yasovchi + lug‘aviy shakl yasovchi + sintaktik shakl yasovchi shaklida namoyon bo‘ladi. Affikslarning me’yoriy ketma-ketligi o‘zgarganda hosil bo‘lgan grammatik shaklning me’yoriyligi buzilishi yoki ma’nosining o‘zgarishi mumkin. O‘zbek tilining agglyutinativ va morfologik jihatdan tizimli tuzilishi grammatik materialni kognitiv jihatdan kichik birliklarga ajratib, bosqichma-bosqich, kontekstual va takroriy o‘zlashtirishni samarali tashkil

etishni taqozo etadi. Neyropedagogik yondashuv aynan shu jarayonni ishchi xotira, diqqat, takrorlash, faol ishtirok va metakognitiv nazorat mexanizmlari bilan bog‘laydi. Murakkab morfologik tuzilmalarni o‘zlashtirishda ishchi xotira, uzoq muddatli xotira va avtomatlashtirish bilan bog‘liq kognitiv jarayonlar muhim rol o‘ynaydi.

Bunday murakkab grammatik tuzilmalarni o‘rgatishda kognitiv-neyropedagogik yondashuv doirasida quyidagi metodik tamoyillardan foydalanish mumkin:

1) axborotni bo‘laklarga ajratish tamoyili. Bu tamoyilga ko‘ra, murakkab axborot o‘rganish uchun qulayroq, kichikroq, mantiqan tugallangan qismlarga bo‘linishi kerak. Masalan, ko‘p affiksli so‘zlarni o‘rgatishda har bir affiksning ma’nosi, vazifasi va boshqalarga nisbatan o‘rnini alohida-alohida tushuntirish samaraliroq hisoblanadi;

2) takror va spirallashtirilgan o‘rganish tamoyili. Yangi material muayyan vaqt oralig‘idan keyin qayta faollashtirilib, har gal uning murakkablik darajasi bosqichma-bosqich oshirib boriladi.

3) multisensor yondashuv tamoyili. Bu tamoyilga ko‘ra, o‘quv materialini turli sezgi a’zolari orqali taqdim etish ayrim ta’limiy vaziyatlarda o‘zlashtirishni qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Masalan, fe’llarning maylga ko‘ra tuslanishini o‘rgatishda nafaqat qoidalarni eshitish, balki jadvallar tuzish, real muloqot vaziyatlarini taqlid qilib ko‘rish ham muhim.

4) hissiy rag‘batlantirish tamoyili. Hissiy holat va stress darajasi o‘quv jarayonidagi diqqat, motivatsiya va xotira jarayonlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli grammatik materialni o‘zlashtirishda ijobiy psixologik muhitni yaratish muhimdir.

5) vaziyatga muvofiqlashtirilganlik. Yangi grammatik bilimlarni mavhum qoidalar ko‘rinishida emas, balki kontekstli muloqot vaziyatlarida taqdim etish lozim;

6) metakognitiv mashqlar tamoyili. O‘quvchilarda o‘z o‘rganish jarayonini boshqarish, o‘z xatolarini tahlil qilish, o‘rganish strategiyalarini ongli tarzda tanlash ko‘nikmasini rivojlantirish kerak.

Masalan, ko‘plik, egalik va kelishik qo‘shimchalarini o‘rgatishda o‘quv materialini “asos → ko‘plik → egalik → kelishik” ketma-ketligida bosqichlarga ajratish mumkin: kitob → kitoblar → kitoblarim → kitoblarimni. Bunda dastlab har bir morfemaga alohida e’tibor qaratiladi, keyingi bosqichda esa ular yaxlit grammatik birlik sifatida qo‘llanadi. Bu usul axborotni bo‘laklash, bosqichma-bosqich murakkablashtirish va takrorlash tamoyillarini birgalikda amalga oshirish imkonini beradi.

O‘zbek tilini o‘qitish jarayonida neyropedagogik yondashuvni tatbiq etishning muhim jihati o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olishdir. H.Gardnerning ko‘p intellektlar nazariyasida inson intellekti lingvistik, mantiqiy-matematik, ko‘rish-fazoviy, musiqiy, kinestetik, shaxslararo, ichki va naturalistik kabi turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi [4]. Ushbu yondashuvdan metodik nuqtayi nazardan kelib chiqib, o‘quvchilarning individual kognitiv xususiyatlarini hisobga olgan holda turli xil o‘qitish vositalari va topshiriqlaridan foydalanish mumkin.

Bu farqlarni hisobga olish o‘quv jarayonini differensiallashtirish va individuallashtirish uchun metodik imkoniyat yaratadi. Masalan, lingvistik faoliyatga moyilligi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar uchun nutqiy mashqlar, izoh va tahlilga ko‘proq e’tibor berish, vizual materiallar bilan ishlashni afzal ko‘ruvchi o‘quvchilar uchun esa jadval va aqliy xaritalardan foydalanish mumkin.

O‘zbek tili grammatikasini o‘qitishda yosh xususiyatlarini hisobga olish ham neyropedagogik yondashuvning muhim qismidir. Boshlang‘ich sinfda grammatik birliklarni amaliy nutqiy faoliyat va takroriy qo‘llash orqali o‘zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh ulg‘ayishi bilan grammatik hodisalarni ongli, metalingvistik va tizimli tahlil qilish imkoniyatlari kengayadi. O‘smirlik va undan keyingi davrda eksplicit, ongli o‘rganish imkoniyatlari kuchayib, metalingvistik tahlil va til hodisalarini tizimli o‘rganish uchun kengroq imkoniyat yaratiladi.

O‘zbek tili o‘qitish metodikasida neyropedagogik yondashuvni tatbiq etish raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan ham bevosita bog‘liq. Raqamli texnologiyalar, xususan, interaktiv platformalar, multimedia vositalari, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari grammatik materialni vizual va interaktiv shaklda taqdim etish imkonini beradi. Biroq texnologiya pedagogik maqsadning o‘rnini bosmaydi; uning samaradorligi tanlangan metod va topshiriqlarning maqsadga muvofiqligiga bog‘liq.

O‘zbek tili grammatikasini o‘qitishda neyropedagogik yondashuvning o‘ziga xosligi shuki, tilning estetik va madaniy qatlamlarini o‘quv jarayoniga integratsiyalashtirishdir. Til – bu nafaqat aloqa vositasi va grammatik qoidalar tizimi, balki millat madaniyati, tarixi va ruhiyatining tashuvchisidir. Fransuz neyroolimi Stanislas Dehaene “How We Learn” asarida o‘rganish jarayonida diqqat, faol ishtirok, xatolar asosida qayta ishlash va bilimni mustahkamlash kabi jarayonlarning ahamiyatini yoritadi [3].

O‘zbek tili grammatikasini Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Cho‘lpon, Oybek, G‘afur G‘ulom kabi ulug‘ adiblar asarlaridan olingan misollar asosida o‘rgatish, milliy adabiyotning eng yaxshi namunalariga murojaat etish madaniy-axloqiy tarbiyani qo‘llab-quvvatlash bilan birga, grammatik materialni mazmunli kontekstda o‘zlashtirishga xizmat qilishi mumkin. Posner va Rothbart

tadqiqotlarida diqqat va o‘zini boshqarish bilan bog‘liq jarayonlarning ta’limdagi ahamiyati ko‘rsatiladi [5]. Bu jihat grammatik mashqlarni tashkil etishda metakognitiv nazorat va faol ishtirokni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Muhim jihatlardan yana biri — uyqu va dam olishning o‘quv materialini o‘zlashtirish hamda xotirada mustahkamlash jarayonidagi rolidir. Kognitiv psixologiya va neyroilmga oid tadqiqotlarda uyqu jarayoni yangi o‘zlashtirilgan ma’lumotlarning xotirada mustahkamlanishi bilan bog‘liqligi qayd etiladi. Shu nuqtayi nazardan, grammatik materialni o‘rgatishda o‘quv yuklamasini me’yorlash, materialni bosqichma-bosqich va takroriy tarzda taqdim etish, shuningdek, faol o‘rganish va dam olish davrlarini oqilona uyg‘unlashtirish muhimdir. Bu yondashuv darslarni tashkil etish va uy vazifalari hajmini belgilashda o‘quvchilarning kognitiv imkoniyatlarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilining agglyutinativ va morfologik jihatdan tizimli xususiyatlari grammatik materialni o‘quvchilarning kognitiv imkoniyatlariga mos holda tashkil etishni talab qiladi. Axborotni bo‘laklash, takroriy va bosqichma-bosqich o‘rganish, kontekstual yondashuv, faol ishtirok hamda metakognitiv mashqlar grammatik birliklarni o‘zlashtirishni qo‘llab-quvvatlovchi metodik vositalar sifatida qaralishi mumkin. Bunda neyropedagogik yondashuv an’anaviy grammatika o‘qitish metodlarini inkor etmaydi, balki ularni o‘quvchilarning diqqat, xotira, motivatsiya va individual kognitiv xususiyatlarini hisobga olgan holda takomillashtirish imkonini beradi. Shu jihatdan, o‘zbek tili grammatikasini o‘qitishda neyropedagogik tamoyillardan tizimli foydalanish grammatik kompetensiyani rivojlantirishning istiqbolli metodik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek tili. Darslik. – Toshkent: “Tafakkur bo‘stoni”, 2018. – 200 b.

2. Nurmonov A., Mahmudov N. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: 2007. – 90 b.

3. Dehaene S. How We Learn: Why Brains Learn Better Than Any Machine... For Now. – New York: Viking, 2020. – 352 p.

4. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 2011. – 467 p.

5. Posner M.I., Rothbart M.K. Educating the Human Brain. – Washington: American Psychological Association, 2007. – 263 p.

DOSTON FRAZEOLOGIYASINING USLUBIY TAVSIFI.

(Surxondaryo turkum dostonlari misolida)

Ahmedov Hakim Yarashevich
F.f.d. PhD. dotsent
Termiz davlat universiteti
hakim83@uqituv.chi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek xalq dostonlari tilida qo‘llanilgan frazeologik birliklarning uslubiy xususiyatlari tadqiq etilgan. Doston frazeologiyasi xalq og‘zaki ijodining eng boy va o‘ziga xos qatlamlaridan biri bo‘lib, u nafaqat tilning leksik boyligini, balki xalqning milliy tafakkuri, dunyoqarashi va estetik ideallarini ham aks ettiradi. Maqolada frazeologik birliklarning doston matnidagi uslubiy vazifalari, ularning badiiy ifoda vositalari sifatidagi o‘rni, shuningdek, kontekstual qo‘llanilish xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: doston, frazeologiya, frazeologik birlik, uslubiy tavsif, badiiy til, lingvopoetika, uslubiy bo‘yoq, xalq og‘zaki ijodi, kontekstual qo‘llanilish.

Аннотация: В данной статье исследуются стилистические особенности фразеологических единиц, употребляемых в языке узбекских народных эпосов. Эпическая фразеология является одним из самых богатых и самобытных пластов устного народного творчества; она отражает не только лексическое богатство языка, но и национальное мышление, мировоззрение и эстетические идеалы народа. В статье анализируются стилистические функции фразеологических единиц в тексте эпоса, их роль как средств художественной выразительности, а также особенности контекстуального употребления.

Ключевые слова: дастан, фразеология, фразеологическая единица, стилистическая характеристика, художественный язык, лингвопоэтика, стилистическая окраска, устное народное творчество, контекстуальное употребление.

Annotation: This article examines the stylistic features of phraseological units used in the language of Uzbek folk epics. Epic phraseology is one of the richest and most distinctive layers of oral folk art; it reflects not only the lexical richness of the language but also the people’s national mentality, worldview, and aesthetic ideals. The article analyzes the stylistic functions of phraseological units in the epic text, their role as means of artistic expression, as well as the peculiarities of their contextual use.

Keywords: dastan, phraseology, phraseological unit, stylistic description, artistic language, linguopoetics, stylistic coloring, oral folk art, contextual use.

Frazemalar so‘zlardan farqli o‘laroq, voqelikni faqat nomlash bilan cheklanmaydi, balki unga nisbatan modal munosabatni, ya’ni bahoni, hissiy munosabatni va ekspressivlikni ifodalaydi. Bu xususiyat ularning semantik tarkibida baho semasi, madaniy sema va daraja semasining doimiy ishtiroki bilan ta’minlanadi. Frazemalarning salmoqli qismi antropotsentrik xususiyatga ega bo‘lib, ular kishining jismoniy qiyofasi, psixologik holati, axloqiy-estetik didi, intellektual salohiyati, ijtimoiy mavqei, kasbiy faoliyati, yosh xususiyatlari, hayotiy tajribasi hamda qarindoshlik aloqalarini baholashga yo‘naltirilgan. Mazkur baholash jarayoni milliy mentalitet, madaniy qadriyatlar va axloqiy me’yorlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, frazeosemantik maydonlar kesimida tizimli ravishda tadqiq qilinadi. Antropotsentrik paradigma doirasida olib boriladigan bunday izlanishlar frazeologiyaning nafaqat sof lingvistik, balki lingvokulturologik, etnopsixologik, aksiologik va pragmatik salohiyatini ham ochib beradi, shu bilan birga, uning uslubiy me’yorini shakllantirish va ilmiy asoslashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Frazeologik birliklar semantik strukturasida nominativ mantiqiy ma’no bilan bir qatorda konnotativ element ham muhim o‘rin tutadi. Bu element iboraga **emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlik** yuklaydi. Xalq dostonlarida bu xususiyat yanada yaqqol namoyon bo‘ladi, chunki doston tili xalqning dunyoqarashi, his-tuyg‘ulari va baho mezonlarini aks ettiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, dostonlardagi frazeologik birliklarning konnotativ ma’nolari ularning uslubiy imkoniyatlarini oshiradi va badiiy matnga alohida ta’sirchanlik bag‘ishlaydi.

Doston frazeologiyasini uslubiy jihatdan tavsiflashda *nominativ* va *konnotativ* jihatlarga alohida e’tibor qaratish zarur, chunki frazeologik birlik bir vaqtning o‘zida ham **atash**, ham **ifoda-baholash** vazifasini bajaradi. Uslubiy tahlil esa faqat ma’noni yoki faqat bo‘yoqni emas, balki ularning birligini ochishni talab qiladi. Nominativ ma’no frazeologizmlarning obyektiv borliqdagi narsa, belgi yoki hodisani bevosita nomlovchi, atovchi ma’nosidir. Masalan: *Ana Axmadning yuragi tosh bo’lib, parilarga do’q urib, siyosat qilayotir, lekin parilar ham rad javobin berayotir*. (Xonoyim pari.330) Ushbu misolda berilgan***“yuragi tosh - tosh yurak”*** iborasining denotativ ma’nosi – *qattiq, sovuq, hissiz yurak* degan ma’noni bildiradi. Bu ma’no bevosita toshning fizik xususiyatlarini *(qattiqlik, sovuqlik, o‘tkazmaslik)* inson his-tuyg‘ulariga ko‘chirilishi natijasida shakllangan. Biroq bu ibora konnatativ funksiyasida shunchaki *“yurak”* tushunchasini emas, balki *shafqatsiz, berahm* shaxsni nomlaydi. Shunday qilib *nominativ* funksiya frazeologizmlarning real dunyo obyektlarini anglatsa, Konnotativ ma’no frazeologizmning nominativ ma’nosiga qo‘shimcha bo‘lgan emotsional-ekspressiv, baholovchi va uslubiy bo‘yoqdorliklarni shakillantirib qo’shimcha ma’no yuklaydi.

So‘zning semantik strukturasini o‘rganishga qaratilgan ishlarda konnotatsiyaning ikki turi: *ingerent konnotatsiya* va *adgerent konnotatsiya* o‘zaro

farqlanadi. Ingerent konnotatsiya deyilganda so‘z yoki ibora kontekstdan tashqari olingan holatda ularga xos bo‘lgan konnotativ ma’no tushunilsa, adgerent konnotatsiyada so‘z yoki iboraning muayyan kontekstda ifodalaydigan nutqiy konnotativ ma’nolari e’tiborga olinadi. Shuning uchun biz ham doston tiliga xos frazeologizmlarning uslubiy tavsifi, ularning semantik strukturasini o‘rganishda *ingerent (lisoniy)* konnotativ ma’noni va *adgerent (nutqiy)* konnotativ ma’noni farqlashga harakat qilamiz, chunki, bu ikki xil konnotatsiyani farqlamasdan turib, frazeolagizmlarning semantik strukturasini o‘rganib bo‘lmaydi.

№	Frazeologizm	Ingerent (lisoniy) konnotativ ma’no	Adgerent (nutqiy) konnotativ ma’no doston kontekstida
1	***Boshiga balo bo‘lmoq***	Kulfat, falokat yetmoq. ***(salbiy** baho**)***	**Ona tilidan:** *qayg‘u, xavotir;* **Dushman tilidan:** *tahdid, ogohlantirish;* **Baxshi tilidan:** *fojiaviy oldindan sezish*

Soddaroq qilib tushuntirsak ingerent konnotatsiya — ***lisoniy***, til tizimiga xos, kontekstdan qat’i nazar mavjud bo‘lgan ma’no. Adgerent konnotatsiya — ***nutqiy***, faqat muayyan kontekstda yuzaga keladigan, vaqtinchalik ma’no hisoblanadi.

Doston frazeologiyasining uslubiy tavsifi — xalq eposlari tilidagi frazeologik birliklarning semantik-stilistik tabiatini, ularning badiiy matndagi vazifalarini va milliy-madaniy asoslarini o'rganuvchi muhim ilmiy yo'nalishdir. Bu yo'nalish o'zbek tilshunosligida alohida tadqiqot sohasi sifatida o’rganishni taqozo etadi.

Doston frazeologiyasining uslubiy tavsifi quyidagi asosiy jihatlarni qamrab oladi.

1. **Doston frazeologiyasining uslubiy ma’nosi va uning komponentlari.**
2. **Doston frazeologiyasini uslubiy jihatdan farqlash mezonlari.**
3. **Doston frazeologiyasining uslubiy qatlamlari.**
4. **Doston frazeologiyasining sinonimiyasi va ularning uslubiy tarmoqlanishi.**

Doston frazeologiyasining uslubiy ma’nosi — bu xalq dostonlari tilida qo‘llanilgan frazeologik birliklarning badiiy matn ichida bajaradigan vazifasi, ya’ni ular orqali qahramon ruhiyatini yoritish, voqealarni ta’sirchan tasvirlash va milliy-madaniy dunyoqarashni ifodalashdir. **Uning komponentlari** esa frazeologik birliklar tarkibiga kiruvchi va ularning ma’nosini shakllantiruvchi asosiy leksik qismlardir. Dostonlarda frazeologik birliklar sof ma’no ifodalash bilan cheklanmaydi; ular asosan **uslubiy-estetik** vazifani bajaradi. Tadqiqotlar jarayoni

shuni ko‘rsatadiki, xalq baxshilari doston voqealarini qiziqarli va hayajonli qilib tasvirlash uchun til elementlaridan, xususan, frazeologizmlardan badiiy bezak sifatida foydalanishadi. Masalan: *Boybo‘rining befarzandligi esiga tushib, xalqumi shishib, bo‘yni pishib, oltmish ikki tomiri bo‘shashib, g‘am alami oshib, oh tortib, tobdan tushib, ikki dunyosi bir tutam bo‘lib, to‘yxonaga kirib bordi.*(Alpomish)

Bu parcha birgina sintaktik davr ichida **yetti komponentli frazeologik qatlam**ni hosil qilgan bo‘lib, ular qahramonning ruhiy-fiziologik holatini bosqichma-bosqich ochib berishga xizmat qiladi. Bu yerda frazeologizmlar sof nominativ ma’no ifodalash bilan cheklanmay, asosan **uslubiy-estetik vazifa** bajaradi. Ular bir tomondan qahramonning ichki kechinmalarini konkretlashtirsa, ikkinchi tomondan, matnga emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlik bag‘ishlaydi.

Matndagi frazeologizmlar birin-ketin joylashtirilib, **gradatsiya** (kuchayib borish) usulini hosil qilgan: *xalqumi shishib → bo‘yni pishib → tomiri bo‘shashib → g‘am alami oshib → tobdan tushib → ikki dunyosi bir tutam bo‘lib*. Bu ketma-ketlik qahramonning ruhiy-fiziologik holatini bosqichma-bosqich kuchaytirib boradi, tinglovchida kuchli emotsional taassurot qoldiradi va doston tiliga xos frazeologik birliklarning uslubiy ma’no xususiyatini ochib beradi.

HAZRAT NAVOIY “MUNSHAOT” ASARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Aslanova Hafiza Abduraximovna
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
hafi@mail.ru *+99893-999-52-71*
0000-0003-1454-3578

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiyning maktubot janridagi asari tahlilga tortilgan. Uning yozilishi va kompozitsiyasi haqida ilmiy dalillar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: maktub, ijod, insho, to‘plam, muallif, san’at, qo‘lyozma.

Аннотация: В данной статье анализируется произведение Алишера Навои в жанре мактубат. Освещены научные факты о его написании и композиции.

Ключевые слова: письмо, творчество, сочинение, сборник, автор, искусство, рукопись.

Abstract: This article analyzes Alisher Navoi's work in the maktubat genre. Scientific facts regarding its writing and composition are highlighted.

Keywords: writing, creativity, essay, collection, author, art, manuscript.

Sharq she’riyatidagi janrlardan biri, muallifning nazmda yoki nasrda yozilgan maktublar to‘plami munshaotdir. Bunday to‘plamlar bir yoki bir necha muallif qalamiga mansub xatlar yig‘indisidan iborat bo‘lgan. Maktublar shunchaki bitilgan xatlar bo‘lmay, badiiyatning o‘ziga xos turi – insho san’ati sifatida yuzaga kelgan, chuqur mazmunga va go‘zal badiiy ifodaga ega bo‘lgan. Ba’zi maktublar yuksak san’at bilan o‘ta jimjimador yozilgan. Asosan, arab va fors tillarida yaratilgan. O‘zbek adabiyoti tarixida Munshaotning shakllanishi va rivojlanishi Alisher Navoiy ijodi bilan bog‘liq. Navoiy “Munshaot” asarining muqaddimasida forscha maktublar shakllangan yuksak uslubga ega ekanini, turkiy xalqlarda bu uslubda hali hech ish qilinmaganini va o‘zi Munshaotga birinchi bo‘lib qo‘l urganini qayd qilgan. Navoiyning ushbu asaridagi maktublarning aksariyati sulton Husayn Boyqaro va uning farzandlari bo‘lmish shahzodalarga yozilgan. Ularda Navoiy maktub egalariga davlatni idora etish, hukumat ishlarini bajarishga doir o‘zining qimmatli maslahat va takliflarini bayon etadi, adolat va hushyorlikka chorlaydi. Munshaot ba’zan “ruq’aot”, “maktubot” deb ham yuritilgan. Munshaotlarning talaygina qo‘lyozma nusxalari O‘zbekiston FA Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanadi. Bir nusxasi Sankt-Piterburgdagi Davlat xalq kutubxonasida 558-tartib raqami bilan saqlanayotgan qo‘lyozmasi bor.

Boburning xabar berishicha, Husayn Boyqaro 901 (1495-96)-yilda Hisor ustiga qilgan yurishida g‘alabaga erisha olmay Balhga yetganida “Movarounnahr viloyati maslahati uchun Balhni Badiuzzamon Mirzog‘a berib, uning viloyatinikim, Astrobod bo‘lgay, Muzaffar. Husayn Mirzog‘a berdi. Har ikkalasini Balx va Astrobodda bir majlista yukundurdi. Bu jihatdan Badiuzzamon Mirzo tar bo‘ldi. Muncha yil yorliqlar va fitnalarning sababi ul erdi”[28]. Mana shu voqeadan keyin Badiuzzamon o‘z otasiga qarshi isyonkorlik harakatida bo‘ladi va unga itoatsizliklar qila boshlaydi. Navoiy ularni murosaga keltirish uchun juda jiddiy harakat qiladi. Uning tazyiqi bilan Badiuzzamon Husayin Boyqaro hurmatini bajo keltirgan vaqtlarida Navoiy behad quvonadi. Maktublardan biridagi quyidagi satrlar shundan dalolat beradi: “Qulluq arzadosht ulkim, inoyat nishonida bitilib erdikim, Mirzo mulozimlarig‘a o‘zim bo‘luldi va ul azimat ijrosiga jozim. Shak yo‘qturkim, bu xizmat dunyo va oxirat maslahatiga muvofiq va Mirzodek otog‘a sizdek o‘g‘uldin munosib va loyiqdur”[29]. Agarda Badiuzzamon tomonidan sarkashlik sodir bo‘lsa, ahvol jiddiylashgudek bo‘lsa, Navoiy tahlikaga tushar va murosasozlik yo‘llarini axtara boshlardi. Ba’zan u Badiuzzamon huzuriga ravona bo‘lar edi. Ba’zan esa, shahzodaga o‘gitlarga to‘la maktublar yozardi.... “Munshaot”dagi yana bir maktubda Navoiy shahzodani otasi bilan ittifoq bo‘lishga undaydi, uning hokim

[28] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 14-жилд, Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти Тошкент — 1998, 226 б.
[29] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 14-жилд, Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти Тошкент — 1998, 213 б.

sifatidagi kamchilik va nuqsonlarini birma-bir tilga olib oʻz fikr-mulohazalariga dalillar keltiradi: “Navoiy maktubni “Paygʻambar... buyurub turkim, tengri taolo rizosi ota rizosiga vobastadur... Shundoq boʻlgʻondin soʻngra kishi nechuk ota rizosidagi ayru dam urgʻay yo qadam qoʻygay?[30]. Hech shubhasizki, Navoiy bu bilan Badiuzzamonni xatarli yoʻlda ekanligidan, uning sarkashligi katta fojialarga sabab boʻlishi mumkinligidan ogohlantirmoqchi edi. Shunday boʻlib chiqdi ham. Ota bilan oʻgʻil orasidagi uzoq muddat davom etgan bu nizolar Muhammad Moʻmin Mirzo qatiliga olib keldi.

Navoiy tomonidan maktubda oʻttizta idora usuli va qoidalari oʻrtaga tashlanadi. Bular: har kuni ertalabdan adolat bilan arzlar eshitish, arkoni davlatni har kuni kechda yigʻib, mulk va mol ishlarini kengashib olish; har kunga belgilangan ishlarning bitganligi haqida hisobot olish; tarixga oid asarlarni, xususan, “Zafarnoma”ni va ba’zi devorlarni mutolaa qilish; Iroq mamlakatiga bilimdonroq kishini yuborib turish va arz qilinishi zarur xabarlarni maktubda bitib, u yerdan kelgan koʻrsatmalar asosida ish koʻrish; sharobxona, qimorxona va baytul-lataf (fohishaxona) kabi zararli joylarni qat’iy ma’n etish; haftada ikki marta bozor narxlarini tekshirib turish uchun muhtasiblar tayin qilish, mahalla ahli oʻgʻil-qizini oʻqitish uchun maktab ochishni masjid imomigʻa topshirish; boʻlak hamma kentlarda ham shu tartibni joriy etish; viloyat vaqflaridan buzilganini tuzatish, ulardan keladigan mablagʻni oʻzlariga, sarf etishni kuzatib borish va bunga maxsus kishi belgilash; devon beklari, lashkarlar ahvolidan voqif boʻlib turish; shohga har bir e’tiborga loyiq qilingan ish yuzasidan, uning mazmuni va tarixini bitib yuborib turish; markazdan boʻlgan hukumlarni paysalga solmay ijro etish va bu haqda yozma yozib turish; ov va turli dabdabali bordi-keldilarni me’yori bilan qilish; tungi qorovullar ishini tekshirib turuvchi tovachi tayin etish; zakot va jarima yigʻuvchilar ishini ham maxsus tovachilar orqali tekshirib turish va hokazolardir.

Yuqorida aytib oʻtilgandek, bu maktub Navoiyning ulkan va ilgʻor davlat arbobi ekanligidan, uning nazdida mamlakatni idora etishda umummanfaati uchun katta masalalardan tortib to mayda masalalargacha ahamiyatli boʻlganligidan dalolat beradi. Maktubni davlatni boshqarish programmasi desa ham boʻladi. Navoiyning Badiuzzamonga yozgan xatlarining mazmunidan ma’lum boʻladiki, Navoiy shaxzodani Xuroson saltanati uchun davlatni boshqarish usullararini yaxshi bilgan, adolatparvar hukmdor sifatida koʻrishni orzu qilgan yoʻlda jiddiy harakat qilgan. Husayin Boyqaro bilan Badiuzzamon oralaridagi ixtiloflar tufayli mamlakat yaxlitligi va xalq osoyishtaligiga yetishi muqarrar boʻlgan xavfning oldini olishga tinimsiz intilgan. Ana shu masalalarni Navoiy oʻzining diqqat markazida tutgan.

[30] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 14-жилд, Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти Тошкент — 1998, 213 б.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 14-жилд, Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти Тошкент — 1998, 226 б.
2. Abdurayimova I. Epistolyar adabiyot va uning shakllanishi haqida. Ilm vaqti. (Ilmiy jurnal), 1.02.2026, 739-b.
3. Aslanova H.A. Alisher Navoiy ijodida – maktubot. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2026-2/4, 36-bet.
4. Aslanova H.A. Epistolyar janri va maktubotning o'ziga xos xususiyatlari. Sharq va g'arb adabiy aloqalari va qiyosiy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2026-yil 23-may. Samarqand: "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti. – 2026, 44-47-b.
5. Aslanova Kh. Epistolar genre andfeatures ofwriting. ISSN 2515 Vol. 1No.1 (2026): AJTAS. 317-319-p.

STATE LANGUAGE AS A FACTOR OF DEVELOPMENT

Ostonov Utkir Yangiboyevich

PhD, docent of the "Teaching the languages" department of Samarkand Institute of economics and service

Abstract: This article analyzes the role of the state language in society, economy, and public administration, as well as its strategic importance for the sustainable development of a nation. The study demonstrates that language serves not only as a vessel for preserving national identity and cultural heritage, but also as a key driver of the digital economy, public sector efficiency, artificial intelligence, and scientific advancement.

Keywords: State language, national identity, digital economy, artificial intelligence, language policy, science and education, globalization.

Аннотация: В данной статье анализируется роль государственного языка в обществе, экономике и государственном управлении, а также его стратегическое значение для устойчивого развития страны. В исследовании обосновывается, что язык является не только средством сохранения национальной идентичности и культурного наследия, но и ключевым фактором развития цифровой экономики, повышения эффективности госуслуг, искусственного интеллекта и науки.

Ключевые слова: Государственный язык, национальная идентичность, цифровая экономика, искусственный интеллект, языковая политика, наука и образование, глобализация.

Introduction And Theoretical Foundations

The Foundation of National Identity and State Sovereignty

Language is the primary element that embodies a nation's identity, spiritual realm, history, and cultural heritage. On the world map, the existence of an independent, sovereign state is defined not only by its borders, armed forces, or economic output, but fundamentally by its official language. A state language represents a unifying force that consolidates society, fosters national pride, and shapes the strategic vector of a country's development.

The state language maintains social and political stability. In a multiethnic society, the official language functions as a medium of interethnic communication, shared civic values, and mutual understanding. This strengthens civic harmony, mutual respect, and social cohesion, laying a durable foundation for sustainable national growth.

The efficiency of the state apparatus and the implementation of laws depend directly on clarity, precision, and standardization in administrative documentation. Clear and accessible legislative drafting in the official language minimizes bureaucratic overhead and improves regulatory compliance.

Fluency in the official language and effective communication skills among public servants serve as core metrics of public trust. Implementing proficiency certification programs and ongoing professional development for government personnel strengthens administrative capacity and institutional governance.

Science, education, and advanced technologies

State Language as a Medium of Science and Education

The long-term vitality of any language relies on its application as a medium for scientific inquiry and academic discourse. If a language remains confined strictly to everyday colloquial speech, its functional influence diminishes over time. Expanding the scientific capability of the language by producing modern textbooks, academic literature, and specialized reference materials is an essential prerequisite for sustainable development.

Strengthening the language's academic presence requires integrating high-quality educational resources, standardizing technical terminology, and systematically translating core global scientific works. Establishing technical terminology commissions and field-specific dictionaries ensures precision in academic research and professional practice.

1. **Natural Language Processing (NLP):** Developing robust linguistic models, automated translation algorithms, syntactic analyzers, and semantic processing tools.

2. **Text Corpus Construction:** Building comprehensive digital text corpora that aggregate literary works, academic literature, legal texts, and conversational data.

3. **Voice Assistants and Conversational AI:** Engineering speech recognition software, voice interfaces, and conversational agents capable of processing the language accurately.

4. **Knowledge Access and Digital Repositories:** Expanding verified, high-quality entries across open digital encyclopedias, academic repositories, and online archives.

Society, culture, and national values

Language and Social Values: Individual and Collective Growth

Language is more than a communication tool; it reflects a society's worldview, thought patterns, and ethical values. Through rich idioms, nuanced vocabulary, and expressive literary traditions, an official language shapes moral standards and cultural identity. The enduring works of historical literary figures demonstrate the expressive depth, versatility, and historical continuity of the language.

Under conditions of global integration and rapid information flow, the official language faces internal and external challenges. Preserving linguistic integrity requires proactive policy and active public engagement.

- **Unnecessary Foreign Infiltration:** Substituting existing native terms with unassimilated foreign loanwords during everyday speech.
- **Literacy Challenges:** Widespread disregard for spelling and grammatical rules on digital communications platforms and social media.
- **Public Signage and Commercial Advertising:** Non-compliance with orthographic standards in public notices, billboards, and commercial advertisements.

Addressing these issues requires consistent enforcement of language legislation alongside public campaigns that emphasize linguistic respect as a reflection of civic pride.

Leading international universities across North America, Europe, and Asia maintain **specialized language centers**, research fellowships, and academic departments dedicated to the study of the language and its literature. This growing institutional presence reflects rising global interest in regional linguistic research.

Global distribution of speakers (approximate demographics):

Primary State Population : ~36,000,000+ speakers
Neighboring Regional Populations: ~8,000,000+ speakers
Global Diaspora & Scholars : ~2,000,000+ speakers
TOTAL ESTIMATED SPEAKERS : ~50,000,000+ speakers

Conclusion: The state language serves as a crucial factor in long-term development, social stability, and cultural continuity. Advancing the language requires active participation across all sectors of society, including government institutions, academic bodies, private enterprises, and civic organizations.

The growth of the official language remains directly linked to the broader development and sovereignty of the state. Preserving its structural integrity, expanding its scientific application, and integrating it into digital technology ensures its continued role as a pillar of national progress for generations to come.

Used literatures

1. **Ahmadaliyev, Y., & Jorayev, M.** (2021). The state language and the digital economy: Integration and prospects. *Journal of Uzbek Language and Literature*, 4(2), 45–52.
2. **Alimova, D., & Karimov, A.** (2023). Linguistic sovereignty and economic globalization: Lessons from Central Asian language policies. *Central Asian Survey*, 42(3), 310–328. https://doi.org/10.1080/02634937.2023.2189012
3. **Madrahimov, A., & Jorabekova, D.** (2022). Digitization of the Uzbek language and application of Natural Language Processing (NLP) technologies. *Digital Technologies and Society*, 2(1), 18–27.
4. **Sultanova, M., & Rakhimov, S.** (2024). Building large-scale NLP corpora for low-resource agglutinative languages: A case study of Uzbek. *Computational Linguistics & AI Review*, 15(1), 89–104.

SOHALAR SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARI

F.E.Jomonqulova

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti, t.f.n +998932959572

e-mail: fazilat_72@mail.ru

Annotatsiya: Intellektual axborot texnologiyalar – informatikaning kelajagi porloq va tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan ilmiy va amaliy sohasi hisoblanadi. U kompyuterlardan foydalanish bilan bog'liq barcha ilmiy va texnologik yo'nalishlarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi, u jamiyatga ilmdan nima kutilayotgan bo'lsa o'shani bugunning o'zidayoq bermoqda, amaliy ahamiyatga ega bo'lgan natijalar, ularning ko'pchiligi ularni qo'llash mumkin bo'lgan sohalarda tubdan o'zgarishlar qilishga qodir.

Maqolada intellektul axborot texnologiyalarning ilmiy fundamentidagi kalit komponent sun'iy intellekt(SI) hisoblanishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so`zlar: Elektron hisoblash mashinasi, axborotni izlash tizimi, bilimlar bazasi, intellektual tizim, ishchi xotira, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi,

muloqot tizimi, sun’iy intellekt, sun’iy intellekt tizimlari, texnik vositalar, tabiiy til, formal tizim, fikrlashning teskari zanjiri, hisoblash mashinasi, ekspert tizim, yangi axborot texnologiyalar, dasturiy ta’minot, ma’lumotlar bazasi, tushuntiruvchi komponent, bilimlarni hosil qilish komponenti.

Hozirgi kunda sun’iy intellekt turli sohalar qamrovidada anchagina ishlar qilingan, ya’ni intellektual vazifalarni xal qiladigan dasturlar yaratilgan. Mutaxassislar yaratilgan dasturlarni aniqroq, bexato ishlaydigan qilib yaxshilash va ularni takomillashtirish ustida qizg‘in ish olib borishmoqda.

Kompyuterda muammoni yechishning optimal varianti tanlanadi. Chunki optimal variant tanlanmasa va masala to‘g‘ridan-to‘g‘ri yechiladigan bo‘lsa, unga juda ko‘p vaqt sarflashga to‘g‘ri keladi. Masalan, uyingizdan liseyga borishning bir necha varianti bo‘lishi mumkin. Birinchi bor liseyga borayotganingizda eng yaqin yo‘lni topish uchun, albatta, yordamga muxtoj bo‘lasiz.

Bunday masalalarda umumiy o‘xshashlik bor - ularni tasodifiy izlash usuli yordamida yechiladi. Yechishning variantlari esa, ekspotensial ravishda ortib boradi. Demak, ko‘p sondagi yechimlar orasidan eng qulayini topish asosiy muammo bo‘lib qoladi va bu masalaning yechimi optimal variantni tanlashni taqozo etadi.

Kompyuterlarning paydo bo‘lishi va dasturlar yordamida masalalarni yechish - bilishni yangi turlarining kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Intellektual tizimni bunday turlardan biri sifatida ko‘rsatish mumkin. *Intellektual tizimning* asosiy prinsipi shundaki, biror masalani yechishda insonning mantiqiy fikrlash usulidan foydalaniladi.

Murakkab masalalarning yechimini izlashda inson ma’lum konuniyatlarni bilishga asoslanadi. U matematik teoremalar yoki amaliyogdan olingan qoidalardan foydalanadi, murakkab masalalarni sodda masalalarga ajratadi va boshqa usullarni tatbiq etadi.

Umuman, intellektual tizimning asosiy vazifasiga to‘plangan bilimlar bazasini tatbiq etish va undan foydalangan holda murakkab masalalarni yechishning optimal yo‘llarini izlash xamda yechimini topish kiradi.

SI tushunchasiga turlicha ma’no kiritish mumkin. Turli mantiq va hisoblash masalalarini yechuvchi EHMdagi intellektni e’tirof etishdan tortib, to insonlar yoki ularning ko‘pchilik qismi orqali yechila oladigan masalalar majmuasini yechadigan ITlarga olib boradigan tushunchagacha kiritish mumkin. SI tushunchasi boshidan va shu kunga qadar olimlarning bu tushunchaga bo‘lgan munosabati va ularning «sun’iy» so‘ziga nisbatan kelishmovchiligi tufayli qarshiliklarga uchramokda. Masalan, Ukraina FA Kibernetika institutining sobiq direktori, marhum akademik V.M.Glushkov «sun’iy idrok» so‘zini qo‘shtirnoqsiz ishlatgan. Sobiq ittifoq FA SI masalalari bo‘yicha ilmiy yig‘ilish raisi akademik G.S.Pospelov fikricha, “SI haqida

hyech kanday so‘z bo‘lishi mumkin emas, ya’ni hozir ham, yaqin kelajakda ham «o‘ylaydigan mashina» bo‘lmaydi. SI tushunchasini o‘zgartirish kech bo‘ldi, - deb yozadi u. Bu narsa injener, matematik, EHM va elektronika bo‘yicha mutaxassislar, psixolog, faylasuflarni birlashtiruvchi juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy yo‘nalish ekanligiga hyech kimda shubha yo‘q. U odamlarning maqsadi - kompyuterlarning maxsus programmali va apparatli vositalarini yaratish. Kompyuterning qobiliyati ijodiy natijalarni berib turishdan iborat”.

SI tushunchasini aniq ta’riflash shuni taqozo qiladiki, bu ilmiy yo‘nalish rivojlanish bosqichidadir. Bugungi kunga kelib, shu narsa ma’lum bo‘ldiki, SI terminiga tabiatdagi jarayon va hodisalarni o‘rganish(tadqiqot qilish)da insondagi ayrim intellektual qobiliyatlarni texnik jihatdan mujassamlashtirgan umumiy tushuncha deb qaramoq lozim.

SI borasida olib borilayotgan tadqiqotlarni shartli ravishda uch bosqichga bo‘lish mumkin. *Birinchi bosqichda* (1956-1960 yy.) olimlarning harakati evristik (mutaxassisning tajribasi natijasida) izlash nazariyasini yaratishga va faoliyat yoki intellekt darajasiga tegishli bo‘lgan «masala yechuvchilar»ni yaratish bo‘yicha muammoni hal qilishga qaratilgan. Tadqiqot uchun instrument (asbob) bo‘lib EHM xizmat qilgan, har xil o‘yinlar, oddiy musiqa asarlari, matematik masalalar o‘ylab topilgan. Shunga o‘xshash masalalarni tadqiqot uchun tanlash, muammo muhitning oddiyligi va aniqligini, yetarli darajada oson tanlab olish imkoniyatini va usulga qarab sun’iy konstruksiyani tuzishni talab qiladi. Bu yo‘nalishda bir qancha yutuqlarga erishildi. Xususan shaxmat programmalari hozir juda yuqori takomilga yetkazildi.

Asosiy qiyinchiliklar masalani yechish uchun yaratilgan usullarni sun’iy muhitlarda emas, balki haqqoniy muhitda qo‘llashga urinish jarayonida sodir bo‘ldi. Bu qiyinchiliklar tashqi dunyo to‘g‘risidagi bilimlarni ifodalash muammolari bilan, bu bilimlarni saqlashni tashkil qilish va ularni yetarli darajada izlash, EHM xotirasiga yangi bilimlarni kiritish hamda eskirib qolganlarini olib tashlash, bilimlarning to‘laligi va bir-biriga zidligini tekshirish va shunga o‘xshashlar bilan bog‘liq. Ko‘rsatilgan muammolar bugungi kunda ham to‘la yechilmagan, lekin hozirgi paytga kelib shu narsa ravshan bo‘lib qoldiki, muammolarni yechish - samarali SI tizimini yaratishning kaliti ekan.

Ikkinchi bosqichda asosiy e’tibor (60-yillarning oxiridan to 70-yilgacha) intellektual robotlar (real uch o‘lchovli muhitda mustaqil holda harakat qiladigan va yangi masalalarni yechadigan robotlar) qurishga qaratildi.

Bu borada intellektual funksiyalarning kerakli doirasi: maqsadga yo‘naltirilgan xulq(holat)ni ta’minlash, tashqi muhit to‘g‘risidagi axborotlarni qabul qilish, harakatlarni tashkil etish, o‘qitish, odam va boshqa robotlar bilan muloqotni uyushtirish tadqiq qilindi va amalga oshirildi. Masalan, robotlarda maqsadga

yo‘naltirilgan xulq (holat)ni ta’minlash uchun ular atrof-muhit haqida bilimlar majmuasiga ega bo‘lishi zarur. Bu bilimlar robotga tashqi muhit modeli ko‘rinishida kiritib qo‘yilishi lozim. Robotning tashqi muhit modeli - bu o‘zaro bog‘langan ma’lumotlar yig‘indisi bo‘lib, bu ma’lumotlar mos sinfdagi masalalarni yechish uchun kerak. Robotning bilimlar tizimiga muhitning «fikrdagi» o‘zgarishini qayta ishlab chiqarish va shu asosda navbatdagi masalani yechishga imkon beruvchi algoritmlar hamda bu rejaning bajarilishini va oldindan rejalashtirilgan harakatlarning kutilayotgan natijalarini nazorat qiluvchi algoritmlar kiritilishi kerak. Demak, intellektual robotlar bilimlar manbaiga ega bo‘lishi shart. Bu bilimlar manbaida bilimlar va maxsus blok («reja tuzuvchi») saqlanadi. «Reja tuzuvchi» blokning zimmasiga robotning harakati programmasini tuzish yuklangan. Bu harakat programmasi robot tomonidan qabul qilinadi va robotning sensor (ko‘rish vositasi) tizimi orqali kuzatiladi. Robotning ish jarayonida «yechuvchi blok» bo‘lishi kerak. Bu blok robotning harakati to‘g‘risidagi yechimni qabul qiladi. Har ikkala blok bilimlar manbaida saqlanuvchi bilimlar asosida ishlaydi. Bu bosqichda ayrim muammolar aniqlandiki, intellektual robotlar yaratishda ularni hal etish zarur. Shunday muammolarga faoliyat ko‘rsatadigan muhit haqidagi bilimlarni tasavvur etish, ko‘z bilan ko‘rganlarni o‘zlashtirish, o‘zgaruvchan muhitda robotlar xulqi (holati)ning murakkab rejalarini tuzish va robotlar bilan tabiiy tilda muloqotda bo‘lish kiradi.

Uchinchi bosqichda (70-yillarning oxiridan boshlab) tadqiqotchilarning e’tibori amaliy masalalarni yechish uchun mo‘ljallangan ITlarni yaratish muammolariga qaratildi. Har kanday IT, uning qayerda qo‘llanishiga bog‘liq bo‘lmagan holda, odam-mashina tizimidir. Mashina sifatida EHM ishlatiladi. Tizimning vazifasi - oxirgi foydalanuvchiga u yoki bu masalani yechishda uning kasbi faoliyati doirasida malakali mutaxassis (ekspert) larning yillar davomida orttirgan bilimlaridan foydalanish uchun imkoniyat yaratishdan iborat. Buning uchun EHM tarkibiga bilimlar manbai va intellektual interfeys kirishi kerak. Bilimlar manbaida xarakterli bo‘lgan masalalarni yechish usullari haqidagi axborotlar saqlanadi. Intellektual interfeys masalani yechish jarayonida oxirgi foydalanuvchi va tizim o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni (harakatni, ishlashni) ta’minlaydigan so‘nggi foydalanuvchining hamma vositalarini o‘z ichiga oladi.

SIli tizimlarga: *axborot - qidiruv tizimlari* (savol-javob tizimlari), *hisob - mantiq tizimlari* va *ETlari* kiradi.

Intellektual axborot - qidiruv tizimlari EHM bilan muloqot jarayonida foydalanuvchilarning tabiiy tilga yaqin bo‘lgan kasb tillarida so‘nggi foydalanuvchilar (programma tuzmaydiganlar) bilan ma’lumotlar, bilimlar manbalari o‘rtasida o‘zaro muloqotni ta’minlaydi. Bu tizimlar SI tizimlarining

dastlabkilaridan bo‘lib, ular ustida olib borilgan tadqiqotlar hisoblash texnikasi rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan.

Hisob-mantiq tizimlari amaliy matematika va programmalashtirish sohasida mutaxassis bo‘lmagan so‘nggi foydalanuvchilarni murakkab matematik usullar va shunga mos amaliy programmalardan foydalanib o‘zaro muloqot shaklida o‘zlarining masalalarini EHMda yechishni ta’minlaydi.

SI ning qo‘llanilish sohalariga quyidagilar kiradi:

- Teoremalarni isbotlash;
- O‘yinlar;
- Tasvirlarni tanish;
- Qaror qabul qilish;
- Adaptiv (moslashuvchan) dasturlash;
- Mashinada musiqalarini bastalash;
- Tabiiy tilda ma’lumotlarni qayta ishlash;
- O‘qituvchi to‘rlar (neyroto‘rlar);
- Og‘zaki konseptual o‘qitish.

SIni kelajakda qo‘llash sohasidagi rejalar: qishloq xo‘jaligida kompyuterlar ekinlarni zararkunandalardan himoya qilishi, daraxtlarni kesish va tanlash xususiyatiga asoslanib parvarishlashni ta’minlashi kerak. Tog‘ sanoatida kompyuterlar insonlar uchun o‘ta xavfli bo‘lgan sharoitlarda ishlashi kerak. Ishlab chiqarish sohasida hisoblash mashinalari (HM) yig‘ish va texnik nazoratning turli xil masalalarini bajarishi kerak.

Tashkilotlarda HM lari jamoa va alohida xodimlar uchun jadval tuzish, yangiliklar haqida qisqacha ma’lumot berish bilan shug‘ullanishi kerak. O‘quv yurtlarida HM lari talabalar yechadigan masalalarni ko‘rish, undagi xatolarni izlash va ularni bartaraf qilish masalarini hal qilishi kerak. Ular talabalarni hisoblash tizimlarining xotirasida saqlanadigan superdarsliklar bilan ta’minlashlari kerak. Kasalxonalarda HM lari be’morlarga tashxis qo‘yish, ularni kerakli bo‘limga yuborish va davolash davomida ularni nazorat qilishlari kerak. Uy ishlarida HMlari ovqat tayyorlash, mahsulot harid qilish bo‘yicha maslahatlar berish, uyning va bog‘dagi gazonlarning holatini nazorat qilishi kerak. Albatta ayni vaqtda bularning hyech qaysisini amalga oshirish imkoni yo‘q, lekin SI sohasidagi tadqiqotlar ularni amalga oshirish imkonini berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Orifjonov M., Bekmuradov T.F., Xojimatova G., “Ekspert sistemalar”, - Toshkent – “Fan”- 1991y, 60 b.
2. Polovinkin A.I., Bobkov N.K., Bush G.Ya. i dr Avtomatizasiya poiskovogo konstruirovaniya (iskusstvennыy intellekt v mashinnom proyektirovanii). Pod red. A.I. Polovinkina. — M.: Radio i svyaz, 1981. — 344 s.
3. Popov E.V. Ekspertnыye sistemы. - M:, Nauka, 1987.
4. Popov E.V. Obsheniye s EVM na yestestvennom yazike. - M:, Nauka, 1986.
5. Popov E.V. Obsyeniye s EVM na yestestvennom yazike. — M.: Nauka, 1982. — 360 s.
6. Popov E.V. Ekspertnыye sistemы: Resheniye neformalizovannыx zadach v dialoge s EVM. — M.: Nauka, 1987. — 288 s.
7. Pospelov D.A. Modelirovaniye rassujdeniy. Opit analiza mislitelnix aktov. — M.: Radio i svyaz, 1989. — 184 s.

O‘ZBEK TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING TA’LIM NATIJALARIGA TA’SIRI

Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna

SamISI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, dotsent.

dilyuldasheva83@gmail.com

0000-0002-3898-2113 ORSID

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish orqali ta’lim sifatini oshirish masalasi yoritilgan. Interfaol metodlarning mohiyati, ularning turlari va o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, dars jarayonida samarali natijalarga erishish uchun o‘qituvchilarga amaliy tavsiyalar berilgan. Maqola interfaol metodlarning o‘zbek tili darslaridagi ahamiyati va ularning o‘quvchilarning ijodiy faolligini rivojlantirishdagi roli bilan bog‘liq muammolarni yoritishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: interfaol metodlar, o‘zbek tili, ta’lim sifati, o‘qitish jarayoni, pedagogik texnologiya, faol o‘quvchi, nutqiy kompetensiya, dars samaradorligi

Bugungi kunda ta’lim tizimida yuz berayotgan islohotlar natijasida dars jarayonlarini faollashtirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, izlanish va o‘z fikrini asosli tarzda ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, ona tilini o‘rgatish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, o‘quvchilarni darsga faol jalb etish va ularning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishda muhim omil hisoblanadi.

Interfaol metodlar – bu o‘qituvchi va talaba o‘rtasida ikki tomonlama muloqotni ta’minlovchi, o‘quv jarayonini talabaning faol ishtirokiga asoslaydigan metodlar tizimidir. Ayniqsa, **til o‘rganishda** bu yondashuvlar kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishda asosiy o‘rin tutadi.

O‘zbek tilini notabiiy (yoki ikkinchi) til sifatida o‘rganayotgan rus guruhidagi talabalar uchun bu yondashuv alohida ahamiyatga ega. Zero, ular uchun til — bu muloqot vositasi bo‘lishdan tashqari, ijtimoiy muhitga integratsiyalashish vositasidir. Shunday ekan, **interfaol metodlar** ularning kommunikativ ehtiyojini qondirish, tilni faol qo‘llashga undash uchun samarali vosita hisoblanadi.

Oliy ta’limda rus guruhlari talabalari bilan o‘tkaziladigan o‘zbek tili darslarida quyidagi metodlar samarali bo‘lmoqda:

- Dialog va rol o‘ynash texnologiyalari;
- “Savol-javob” asosida interaktiv muhokama;
- Guruhlarda ishlash va matn asosida vazifa bajartirish;
- “Aqliy hujum” orqali leksik mavzularni ochib berish;
- QR kodli testlar va onlayn interaktiv platformalar (Kahoot, Quizizz).

Misollar asosida tahlil

“Kasblar” mavzusida rol o‘ynash

Talabalarga o‘zbek tilida kasb tanlashga oid vaziyatli muloqot ssenariylari tarqatildi. Har bir juftlik o‘z roli asosida sahna ko‘rinishini tayyorladi: biri — suhbatdosh, ikkinchisi — ish beruvchi. Ushbu interfaol mashq orqali talabalar yangi o‘rgangan leksik birliklarni og‘zaki nutqda mustahkamlashdi.

Natija: talabalar grammatik va leksik bilimlarini real kommunikatsion holatda qo‘llay olishni o‘rgandilar, talaffuz va intonatsiyaga e’tibor kuchaydi.

“Mening oilam” mavzusida klaster usuli

Talabalarga “Oila” mavzusiga doir asosiy so‘zlar berildi va ular ushbu so‘zlar asosida **klaster tuzishdi**, keyin esa har biri o‘z klasteriga asoslangan og‘zaki hikoya tuzdi.

Masalan: “ona, ota, akam, uy, mehribon, birga” kabi so‘zlar asosida talaba quyidagi matnni tuzdi: *“Mening oilam katta. Onam juda mehribon. Otam muhandis. Biz uyda birga ovqatlanamiz.”*

Natija: Talabalar o‘z fikrlarini kontekstda bog‘lab ifodalashni, matn tarkibida so‘zlarni to‘g‘ri ishlatishni o‘rgandilar. Grammatika amalda mustahkamlandi.

Birinchi bosqich talabalari (xususan, rus guruhidagilar) ko‘pincha til o‘rganishda ishonchsizlik, psixologik to‘siqlar, talaffuzdagi qo‘rquv kabi muammolarga duch keladi. Interfaol metodlar bu to‘siqlarni kamaytiradi, talabaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Pedagogik psixologiya bo‘yicha A. Banduraning “ijtimoiy o‘rganish nazariyasi”ga ko‘ra, insonlar ko‘proq muloqotli muhitda, kuzatish va taqlid orqali samarali o‘rganadi. Interfaol metodlar aynan shu jarayonni kuchaytiradi.

So‘rovnoma natijalari: 2025-yil boshida rus guruhlari orasida o‘tkazilgan ichki monitoringda talabalar interfaol darslardan “ko‘proq foyda” olganini bildirganlar: 87% talaba darslar “qiziqarliroq va esda qoladiganroq” bo‘lganini aytgan.

Yuqoridagi ilmiy tahlillar va amaliy misollar shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar rus guruhlarida o‘zbek tilini o‘rgatishda nafaqat samarali, balki zaruriy yondashuvga aylangan. Talabalarning bilim darajasini oshirish, nutqiy faolligini rivojlantirish, madaniy kommunikatsiyani shakllantirishda bu uslublar asosiy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish va bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘qitish sifatining oshishiga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni to‘g‘ri tanlash, ularni darsga integratsiyalash va zamonaviy vositalar bilan uyg‘unlashtirish ta’lim samaradorligini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Сериков, В. В. (2005). Педагогика: теория и практика. Москва: Просвещение.
2. Дьюи, Дж. (1995). Демократия и образование. Москва: Педагогика.
3. Селевко, Г. К. (2003). Интерактивные технологии в образовании. Москва: Академия.
4. Камолова, Г. М. (2019). Интерактивные методы в обучении иностранным языкам. Ташкент: Фан.
5. O‘zbekiston Milliy universiteti Tilshunoslik fakulteti. (2024). “O‘zbek tilini interfaol metodlar yordamida o‘qitish” bo‘yicha tajriba hisobotlari. Toshkent.
6. Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
7. Galtung, J. (2012). Language teaching and intercultural communication. Journal of Language Teaching, 8(2), 45-56.
8. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment (CEFR). (2001). Council of Europe Publishing.
9. Rustamov, S. T. (2021). Innovatsion pedagogik texnologiyalar va o‘zbek tili o‘qitish. Toshkent: O‘qituvchi.
10. Xolmatov, M. (2023). Oliy ta’limda o‘zbek tilini interfaol usullar orqali o‘qitishning samaradorligi. Ta’lim va innovatsiyalar jurnal, 5(1), 72-80.

11. Yuldasheva, D. B. The Intensification Of Learning Uzbek Language Using Moodle Technology [Article]. Psychology and education, International scientific journal, 2021. 58(2): pp. 224-230

12. Yuldasheva, D.B. Approach is the main strategic direction which defines the components of teaching the Uzbek language. Science and World, International scientific journal, № 2 (90), 2021

13. Yuldasheva, D. B. Organization of terms as a factor for the improvement of economic sciences [Article]. Euroasian Research Bulletin, 2021. International scientific journal, Volume 2.

IJTIMOIY TARMOQ YOZISHMALARIDA SOTSIAL CHEGARALANGAN SO`ZLARNING YOSH XUSUSIYATIGA KO'RA FARQLANISHI

Xotamova Guljahon Solijonovna
SamDVMChBU akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)
guljahonxotamova34@gmail.com
Xasanova Dilshoda Abdug'aniyevna
Zarmed universiteti assistent o'qituvchisi
holidahasanova@ gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada sotsial chegaralangan leksikaning ijtimoiy tarmoqlardagi yozma muloqot jarayonida namoyon bo'lish xususiyatlari va uning matn muallifini aniqlashdagi lingvistik imkoniyatlari keng qamrovda tahlil qilinadi. Tadqiqotda jargon, professionalizm, yoshlar va submadaniy leksika mualliflik indikatorlari sifatida o'rganilib, ularning individual nutq uslubini shakllantirishdagi roli asoslab beriladi. Stilometrik, sotsiopragmatik va diskursiv yondashuvlar asosida sotsial chegaralangan leksikaning muallifni identifikatsiya qilishdagi samaradorligi ochib beriladi. Tadqiqot natijalari sud-lingvistik ekspertiza, raqamli kommunikatsiya va matn muallifligini aniqlash bilan bog'liq ilmiy-amaliy izlanishlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: sotsial chegaralangan leksika, matn muallifi, ijtimoiy tarmoq, jargon, stilometriya, mualliflik indikatorlari.

Аннотация: В статье рассматриваются лингвистические особенности социально ограниченной лексики в письменной коммуникации социальных сетей и ее роль в установлении авторства текста. Анализируются жаргонизмы,

профессионализмы, молодежная и субкультурная лексика как устойчивые авторские индикаторы. На основе стилометрического, социопрагматического и дискурсивного подходов обосновываются возможности идентификации автора цифровых текстов. Результаты исследования имеют значение для судебно-лингвистической экспертизы и анализа интернет-дискурса.

Ключевые слова: социально ограниченный лексикон, автор текста, социальная сеть, жаргон, стилометрия, индикаторы авторства.

Abstract: The article examines the linguistic features of socially restricted vocabulary in social media communication and its role in authorship attribution. Jargon, professional slang, youth and subcultural vocabulary are analyzed as stable indicators of individual writing style. Using stylometric, sociopragmatic and discourse-based approaches, the study demonstrates the effectiveness of socially restricted lexis in identifying the author of a text. The findings are relevant for forensic linguistics and digital discourse analysis.

Key words: socially limited lexicon, author text, social set, jargon, stylometry, indicator authorship.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar shunchaki ma’lumot almashish maydoni emas, balki inson tafakkuri va til qoliplarini o‘zgartiruvchi kuchli kommunikatsiya vositasiga aylandi. Virtual muloqot makon va zamon to‘siqlarini yengib o‘tib, global miqyosda rivojlanmoqda. Tadqiqotchi G. Merchantning fikricha, kompyuter orqali yozishmalar og‘zaki va yozma nutq chegaralarini xiralashtirib, o‘ziga xos gibrid nutq shaklini yuzaga keltirdi [7,290]. Ijtimoiy tarmoqlar adabiy til me’yorlari bilan jonli so‘zlashuv uslubining qorishishiga zamin yaratdi. Bu jarayonda, ayniqsa, o‘smirlar va yoshlar yangi lingvistik trendlarni yaratuvchi va ommalashtiruvchi asosiy qatlam bo‘lib xizmat qilmoqda. Ular til orqali o‘z ijtimoiy guruhlarini shakllantiradi va hissiyotlarini metafora, giperbola hamda turli emojilar orqali yorqinroq ifodalaydi.

Sotsial chegaralangan leksika muayyan ijtimoiy guruh, kasb yoki submadaniyat doirasida faol qo‘llaniladigan til birliklari majmuasidir. J. Xolms sotsial leksikani til orqali ijtimoiy mansublikni ifodalovchi muhim vosita ekanligini ta’kidlagan [5, 91]. Yoshlar o‘smirlardan farqli ravishda so‘zlarni qo‘llash takomillashib boradi. E.U.Babayevaning ta’kidlashicha, “yozma nutq belgilari nutq xususiyatlari va xususiyatlar to‘plamini aks ettiradi. Yozma nutq xususiyatlari, xususiyatlar to‘plami va matn yaratish qobiliyati, bilim darajasi va o‘z fikrini aniq ma’lumotlar asosida ifodalash orqali namoyon bo‘ladi”[11,9]. Ammo yoshlar o‘smirlar singari yangi trendlarga ochiq bo‘ladi va turli qiziqchilar, vaynerlar, startapchilar, umuman olganda, mashhurlar tomonidan aytilgan frazalardan keng foydalanadilar hamda ularning nutqida leksik jihatdan yanada keng va murakkab,

lekin norasmiy leksika ham saqlanib qoladi. Shu bilan birga, kasbiy so‘zlar, texnologik atamalar va ommaviy madaniyatga oid so‘zlarni faol qo‘llaydi. Yoshlar o‘rtasida texnik va ijtimoiy tarmoqlarga xos leksik birliklarning kuchli ta’siri kuzatiladi. Muloqot ishtirokchilarining yosh xususiyatlari til tizimining leksik va semantik sathlarida o‘ziga xos differensial belgilarning yuzaga kelishini belgilovchi asosiy sotsiolingvistik omillardan biri hisoblanadi. Jamiyat a’zolarining turli yosh qatlamlarida til birliklarini tanlash, semantik transformatsiyalarga munosabat va stilistik afzalliklar turlicha namoyon bo‘ladi. Mazkur guruh nutqiy faoliyatida lingvistik birliklarning kontekstual polisemiyasi (ko‘p ma’noliligi) va lisoniy innovatsiyalarga (yangi ma’no va shakllarga) moyillik darajasi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Ushbu qatlam muloqot jarayonida jamiyat va madaniyatning subyektiv dinamikasini aks ettiruvchi evfemistik vositalardan faol foydalanadi. Yoshlar diskursi uchun an’anaviy lisoniy me’yorlarning transformatsiyalashuvi va ekspressivlikni oshirishga xizmat qiluvchi yangi leksik qatlamlarning doimiy generatsiyasi xosdir.

O‘rta yoshdagi insonlar leksikoni fundamental barqarorligi va yuqori darajada standartlashganligi bilan xarakterlanadi. Ushbu yosh sotsiumida quyidagi lisoniy xususiyatlar ustuvorlik qiladi:

Kasbiy va an’anaviy leksika: Nutqiy amaliyotda kasbiy terminologiya, institutsional diskurs elementlari hamda konvensional ijtimoiy-madaniy atamalar yetakchi o‘rin tutadi [5,38].

Semantik qat’iyatlilik: Neologizm va slenglarning minimallashuvi kuzatiladi; so‘zlar kontekstual moslashuvchanlikdan ko‘ra, o‘zining denotativ (aniq) ma’nosida qo‘llaniladi.

Madaniy interpretatsiya: Nutqda jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasi va madaniy kodlarini o‘zida mujassam etgan barqaror birikmalar (idiomalar) hamda an’anaviy metaforik ko‘chishlar faol qo‘llaniladi [1, 44].

Katta yoshli kishilarda esa aksincha, ularning lisoniy tabiati konservativ, rasmiy va retrograd yo‘nalishga egaligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, ular nutqi leksik-semantik tizimida arxaik qatlam va tarixiy-madaniy kontekst bilan bog‘liq leksik birliklar salmoqli o‘rin egallaydi [2, 79]. Semantik jihatdan ushbu qatlam til tizimining klassik me’yorlariga rioya qilishga, nutqning ravonligi va mantiqiy aniqligini ta’minlashga intiladi. Yangi leksik-semantik elementlarni qabul qilish darajasi past bo‘lib, ularning lingvistik amaliyotida interpretativ uslub, ijtimoiy-narrativ (hikoyaviy) modellar hamda o‘xshatish va metaforalar yetakchi hisoblanadi [6,124].

Lingvistik ekspertiza va muallif shaxsini profillashda turli yosh guruhlariga xos bo‘lgan leksik-semantik belgilar quyidagicha tahlil qilinadi:

1. Neologizmlar (Yangi so‘zlar). Yangi tushunchalarni ifodalovchi bu birliklar yoshga qarab turlicha namoyon bo‘ladi:

- **14–19 yoshlilar:** Internet platformalariga xos gibrid so‘zlarni (masalan, *skrin qilmoq, strim qilmoq*) fe’llashtirgan holda faol qo‘llaydi.
- **20–39 yoshlilar:** Ko‘proq ta’lim, IT va ish faoliyati bilan bog‘liq (*podkast, motivatsiya, HEMIS*) neologizmlarga tayanadi.
- 40+ yoshlilar: brendlar va ijtimoiy-siyosiy atamalarga (*bloger, brend, populist*) moyil bo‘lib, ko‘pincha ularning ruscha variantlarini ishlatishadi.

2. Vulgarizmlar (Qo‘pol so‘zlar). Adabiy me’yordan chiqqan bu so‘zlar stressni kamaytirish yoki guruhda ustunlikni ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Tahlillarga ko‘ra:

eng yuqori ko‘rsatkich o‘smirlar (14-19 yosh) va katta yoshlilar (50+) guruhida (33,3%) kuzatiladi.

40–49 yoshlilar bu borada eng ehtiyotkor qatlam (10%) hisoblanadi. O‘smirlar vulgarizmlardan o‘z identitetini namoyon etish uchun foydalansa, kattalar ko‘proq hayotiy tajriba yoki keskin vaziyatlarda his-tuyg‘u ifodasi sifatida qo‘llaydi.

3. Varvarizmlar (O‘zlashmagan chet so‘zlar). O‘zbek tiliga to‘liq singmagan chet tili unsurlari o‘smirlar tilida eng yuqori ulushni (83,3%) tashkil etadi. Ular uchun bu "zamonaviylik" belgisi bo‘lib, nutqida nafaqat ruscha, balki ingliz, turk va koreys tillaridan olingan unsurlar ham uchraydi. Yosh ulg‘aygani sayin varvarizmlar ko‘proq terminologik xarakterga ega bo‘lib, asosan, rus tili bilan cheklanadi.

4. Frazeologizmlar. Muallifning yoshi va madaniy saviyasi uning barqaror birikmalardan foydalanish darajasida ko‘rinadi:

O‘smirlar nutqida, asosan, hissiy holatni ifodalovchi zamonaviy iboralarni (*asab bo‘lmoq, mazam bo‘lmay qoldi*) ishlatishadi.

O‘rta va katta yoshlilar nutqida esa maqollar, diniy-axloqiy tushunchalar va arxaik qatlamga oid iboralar ko‘proq uchrashining guvohi bo’ldik.

5. Slenglar – tilning ijtimoiy qatlamlarida paydo bo‘ladigan, ma’lum guruhga xos, emotsional-ekspressiv ma’noga ega bo‘lgan birliklardir. Ular, asosan, norasmiy muloqotda ishlatiladi va vaqt o‘tishi bilan yangilanib boradi. Tilshunos olim D. Kristal fikricha, sleng “nutqning o‘ziga xos, erkin va hissiyotga boy shakli” bo‘lib, jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liqdir [2, 54]. O‘zbek tilshunosligida ham bu tushuncha turlicha izohlanadi: ayrim olimlar uni “noadabiy so‘z”, boshqalar esa “yoshlar tili” deb ataydilar. Biroq lingvistik nuqtayi nazardan, sleng – bu adabiy til me’yorlariga zid bo‘lmagan, lekin ijtimoiy nuqtayi nazardan norasmiylikni bildiruvchi birlikdir. Ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar ko‘p hollarda qisqa, ekspressiv va hissiyotga boy bo‘ladi. Ularning asosiy lingvistik belgilariga quyidagilar kiradi:

Qisqartmalar: “brat” → bro, “raqam” → raq, “telegram” → tg.

Emotik ifodalar: “😂”, “🔥”, “😎” kabi belgilar emotsional ohangni ko‘rsatadi.

Fonetik yozuv: “bo‘ldi” o‘rniga boldi, “nima qilyapsan?” o‘rniga nima qvossan?

Sleng birliklari: “kruto”, “gap yo‘q”, “vapshe”, “zo‘rla”, “vibe” kabi so‘zlar.

Grafik o‘zgarishlar: Katta-kichik harflarning navbatma-navbat ishlatilishi (masalan, “Zo‘rLa!”). Mazkur belgilar muallifning individual yozuv uslubini shakllantiradi. Shuningdek, ular har bir foydalanuvchining nutq portreti (lingvistik imzosi)ni yaratishga xizmat qiladi.

Lingvistik ekspertiza doirasida tadqiq etilayotgan muammoli matn muallifini aniqlashda mualliflik indikatorlarining o’rni beqiyosdir. Mualliflik indikatori – bu matnda muallifga xos bo‘lgan takrorlanuvchi lingvistik belgilar majmuasidir. Ular quyidagicha turlarga bo‘linadi:

Leksik indikatorlar. Ba’zi foydalanuvchilar ma’lum so‘zlarni doimiy qo‘llaydi. Masalan, kimdir “vapshe”ni, boshqasi esa “zör”ni ko‘p ishlatadi.

Morfologik indikatorlar- muallifning o‘ziga xos qo‘shimcha ishlatish uslubi (masalan, -cha, -la, -kuya) ularning uslubini belgilaydi.

Grafik indikatorlar-harflarni cho‘zish (“zo‘r-r-r”), katta harflar, yoki belgilar (“!!!”) muallifning hissiyotini ifodalaydi va shaxsiy odatga aylanadi.

Pragmatik indikatorlar- sleng so‘zining vaziyatga mos ishlatilishi muallifning kommunikativ niyatini ochib beradi. Masalan, tanqid, kinoya yoki yaqinlik bildiruvchi ohangda qo’llanadi.

Slenglar asosida muallifni aniqlashning quyidagi usullari mavjud:

1. Taqqoshlama-lingvistik usul. Bahsli matn muallifining boshqa ishonchli yozishmalari bilan sleng birliklari darajasida qiyosiy tahlil qilinadi.

2. Stilometrik tahlil. Sleng birliklarining chastotasi, uzunligi va takrorlanish koeffitsienti statistik dasturlar yordamida tahlil qilinadi.

3. Diskursiv yondashuv. Matndagi slengning kommunikativ kontekstdagi ma’nosi tahlil qilinadi. Bu usul muallifning tildan foydalanish niyatini aniqlashga yordam beradi.

4. Kompleks ekspertiza. Sud-lingvistik ekspertizalarda ko‘pincha barcha usullar birgalikda qo‘llaniladi: statistik, semantik va pragmatik tahlil.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, sotsial chegaralangan leksika mualliflikni aniqlashda yuqori darajada diagnostik ahamiyatga ega. Ayniqsa, bir muallifga tegishli uzoq muddatli yozishmalar asosida olib borilgan tahlillar eng yuqori aniqlikni ta’minlaydi. Zero, G. Makmanamen ta’kidlaganidek, “Stilometrik tadqiqotlarda barqaror leksik tanlov mualliflikni aniqlashda muhim ishonchli belgi bo‘la oladi” [8, 67-b.].

Xulosa qilib aytganda, yosh omili nafaqat so‘z tanlashda, balki fikrni grammatik va semantik jihatdan shakllantirishda ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu esa sud-lingvistik ekspertizasida anonim mualliflarni identifikatsiya qilishda muhim obyekt hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Biber D., Conrad S., Leech G. Longman Grammar of Spoken and Written English.– London: Longman, 1999. P. 124–126.
2. Crystal D. Language and the Internet. — Cambridge University Press, 2011
3. Coulthard M. Forensic Linguistics. — Routledge, 2019.
4. Grant T. Authorship Attribution in Digital Texts // Applied Linguistics, 2018.
5. Holmes J. An Introduction to Sociolinguistics. — London, 2013.
6. Labov W. The Social Stratification of English in New York City.– 2nd ed.– Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
7. Merchant G. Teenagers in Cyberspace: An Investigation of Language Use and Language Change in Internet Chatrooms // Journal of Research in Reading.– 2001.– Vol. 24, No. 3.– P. 294.
8. McMenamin G. Forensic Stylistics. — CRC Press, 2002.
9. Nurmonov A. Zamonaviy o‘zbek tilshunosligi. — Toshkent, 2019.
10. Yo‘ldoshev M. Matn lingvistikasi. — Toshkent, 2020.
11. Бабаева Э.У. Криминалистическое исследование анонимных документов с целью идентификации личности по признакам письменной речи.–Л., 1970.–С. 9.

SH. SEYTOVNING "XALQOBOD" ROMANIDA PRAGMA HOSIL QILUVCHI DEYKTIK BIRLIKLAR

Orazbaeva Nazenayım Dauletbay qızı

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti

+998976591720, nazen1720@gmail.com, ORCID: 0009-0000-7956-3241

Annotatsiya: Bu maqolada Sh. Seytovning "Xalqobod" romanida qo‘llanilgan deyktik birliklarning pragmatik xususiyatlari tadqiq etiladi. Deyksis tildagi referensiyaning vaziyatli turini ta’minlaydigan va nutq aktining ishtirokchilari, vaqti, makoni, kommunikativ holati bilan bog‘liq bo‘lgan lingvistik hodisa sifatida qaraladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi - romandagi shaxsiy, makon, zamon, ijtimoiy va diskursiv deyktik birliklarning qanday pragmatik ma’nolarni hosil qilishi mumkinligini aniqlash. Deyktik birlikning pragmatik ma’nosi uning lug‘aviy

ma’nosi bilangina emas, balki kommunikativ vaziyat, adresant, adresat, referent, ijtimoiy munosabat va so‘zlovchining kommunikativ maqsadi bilan belgilanishi ko‘rsatiladi. Maqolada deyktik birliklarni pragmatik tahlil qilishning modeli va tasnifi taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: deyksis, deyksik birlik, pragmatika, shaxsiy deyksis, ijtimoiy deyksis, zamoniy deyksis, makoniy deyksis.

1. Kirish

Hozirgi antropotsentrik tilshunoslikda til birliklarini nafaqat formal-grammatik va semantik jihatdan, balki ularning kommunikativ vaziyatdagi faoliyatini o‘rganishga alohida e’tibor berilmoqda. Bu borada pragmatika til birliklarining so‘zlovchining kommunikativ maqsadi, adresatning qabul qilishi, kontekst va kommunikativ vaziyat bilan aloqasini o‘rganadi. Pragmatik tahlilda deyksis hodisasi alohida o‘rin egallaydi.

Deyksis tushunchasi yunoncha *deixis* - "ko‘rsatish," "ishora" ma’nolarini bildiradi. Ilmiy qo‘llanishda lisoniy vosita sifatida "voqeaga ishora, ko‘rsatma" mazmunini olgan. Ko‘rsatish, havola vazifasini bajaruvchi birliklarni deyktik birliklar deb ataydi[1;168]. Klassik pragmatik tadqiqotlarda deyksis nutqiy aktning ishtirokchilarini, vaqti va o‘rnini aniqlovchi vositalar bilan bog‘liq holda qaraladi. Levinson shaxsiy, fazoviy, vaqtli, ijtimoiy va diskursli deyksis turlarini ajratadi[2;54].

Deyksis pragmatikaning asosiy kategoriyalaridan biri sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng tarzda o‘rganila boshlandi. Fillmor deyktik kategoriyalarni nutq akti bilan bog‘lab, "nutq holati"ning deyktik talqindagi ahamiyatini ko‘rsatadi[3]. Yule deyksisni so‘zlovchi va tinglovchi, zamon va makon bilan bog‘lab, deyktik birliklarning ma’nosi kommunikativ kontekstga bog‘liq o‘zgarishini ta’kidlaydi[4]. Badiiy diskursda deyksis personajlar o‘rtasidagi munosabatni belgilovchi vosita bo‘lishi mumkin. Qoraqalpoq tilshunosligida deyksis masalalari va Sh. Seytovning "Xalqobod" romanidagi deyktik birliklarning pragma hosil qiluvchi potensiali maxsus tadqiqotni talab etadi.

2. Metodologiya.

Tadqiqot materiali sifatida Sh. Seytovning "Xalqobod" romani olindi. Tahlil jarayonida quyidagi metodlardan foydalanish tavsiya etiladi: kontekstual metod, pragmatik tahlil, semantik tahlil, diskursiv tahlil, komponentli tahlil, qiyosiy tahlil. Deyktik birliklarni tahlil qilishda quyidagi komponentlar hisobga olinadi:

1. Deyktik shakl;
2. Referent;
3. So‘zlovchi;
4. Adresat;

5. Kontekst;
6. Kommunikativ maqsad;
7. Pragmatik ma’no;
8. Adresatga ta’siri.

3. Natijalar.

3.1. Shaxsiy deyksis.

Deyksis maydonining markaziy o‘rnida xususiy shaxs turadi. Nutqiy muloqot jarayonida bajarayotgan roliga nisbatan shaxs deyksisining tarkibi aniqlanadi. Birinchi shaxs so‘zlovchining o‘rniga ishora, "o‘zini ko‘rsatishi, eslatishi"ning lisoniy ifodasi, ikkinchi shaxs - tinglovchi yoki adresantning lisoniy belgisi hamda uchinchi shaxs muloqotning bevosita ishtirokchisi bo‘lmagan shaxsga ishora hisoblanadi[1;182]. Shaxsiy deyksis nutqiy aktning ishtirokchilarini bildiradi. Qoraqalpoq tilida bu funksiyani asosan betlik olmoshlari bajaradi: *men, sen, siz, u, biz, ular.* Bu birliklarning pragmatik ma’nosi ularning grammatik ma’nosidan kengroq.

"Men" deyksik birligi so‘zlovchining o‘zini referent sifatida ifodalaydi. Romanda u: o‘z fikrini bildirish, o‘zini oqlash, o‘z pozitsiyasini himoya qilish, mas’uliyatni tan olish, o‘ziga baho berish kabi pragmatik vazifalarni bajarib kelgan. Masalan: *Mala-de-es, birodarlar, sizlar-ku, men ming qaqshasam ham "Suvdirning gapi qurisin" deyaverasiz* [7;131]. Bunda men birligi orqali so‘zlovchi o‘zini ma’qullatish, o‘z pozitsiyasini himoya qilish ma’nosida qo‘llanilgan.

"Biz" birligi ikki xil pragmatik ma’noga ega bo‘lib kelgan: inklyuziv "biz" - so‘zlovchining o‘zini anglatib, uni matndan ajratib ko‘rsatadi. *Unda biz qo‘ydik, raykomning o‘zini tinglang* [7;131]. *Endi bizga muhrning keragi yo‘q, obro‘ qolmadi bizda.* [7;165]. Bu misollarda biz birligi orqali ko‘plik emas so‘zlovchining o‘zi tushuniladi. Eksklyuziv "biz" - so‘zlovchi va uning guruhini bildiradi, adresatni tashqarida qoldiradi. *Bizlar yollanib kelgan edik, haqimizni kim to‘laydi unda, shartnoma kuchidami!* [7;163] Bunda bizlar birligi orqali so‘zlovchi va uning atrofidagi guruhi ifodalangan. Bu farq badiiy dialogda ijtimoiy munosabatlarni aniqlash uchun juda muhimdir. "Biz" birlikning pragmatik kuchi uning jamoaviy, birlik ma’nolarini hosil qilishi bilan bog‘liq.

"Sen" va "siz" birliklarining pragmatikasi. "Sen" va "siz" birliklari qoraqalpoq tilining kommunikativ madaniyatida ijtimoiy va interpersonal deyksisning eng aniq ko‘rinishlaridan biri. Romanda "sen": yaqinlik, do‘stlik, qarindoshlik, yosh farqi, masxaralash, g‘azab, konflikt kabi pragmatik ma’nolarni ifodalab kelgan. Masalan: *Sensiz boshlamayin deb o‘tirganim xotinak tengdosh.* (yaqinlik ma’nosida) [7;228]. *-Sen kolxozdan kelsang-a jo‘ra, menga cho‘zila berguncha*! (do‘stlik) [7;130]. *Sen nega kolxozning molining o‘tini o‘rib turibsan,*

yer kolxozniki, bor kolxozning chegarasidan chiqib ketib ko‘r! (achchiq ma’nosida) [7;227]. *"Ho‘kizni keltirdingmi, peshonasi qattiq, Tasmanglayning peshonasini qattiq deb yursak, sening peshonang undan ham qattiq chiqdi-ku, peshonasi qattiq" dedi tishining kemtigini ko‘rsatib kulib*. (masxaralash ma’nosida) [7;26] ...*sening shoxing shundan iborat, sen dunyoparast, xususiy mulkning quli emas ekansan, melkiy shovinist ekansan, ongingda chumoliday kollektivizm ruhi yo‘q.* (nizo keltirib chiqarish ma’nosida) [7;226]

"Siz": hurmat; rasmiylik; ijtimoiy masofa; kattaga munosabat; adresatni yuqori baholash qiymatlarni hosil qiladi. Masalan: *Amet ota, sizning GPUga borib o‘z ixtiyoringiz bilan qamalishingiz kerak.* Lekin "siz" har doim ham hurmatni bildiravermaydi. Kontekstga ko‘ra u kinoyali yoki sarkazmli pragmatik ma’noga ham ega bo‘lishi mumkin.

3.2. Makon deyksisi. Makon deyksisi so‘zlovchi va adresatga nisbatan narsa, odam yoki voqea o‘rnini belgilaydi. Voqelikning idrok etilishi va bu idrokning lisoniy ifodalanishi ikki asosiy lisoniy tafakkur harakatini talab etadi: birinchidan, voqelik parchasini tavsiflash lozim bo‘lsa, ikkinchidan, uni ma’lum makonda joylashtirish talab etiladi. Ammo makonda joy olishning o‘zi ham ikki ko‘rinishda bo‘ladi. Obyektlar bir-biriga nisbatan joylashadi[1;188]. Qoraqalpoq tilida: bu, shu, mana, ana, shu yerda, shu yerda va yana boshqa o‘rin mazmunidagi so‘zlar fazoviy deyksisni hosil qila oladi. Ularning ba’zilari jismoniy masofani anglatmaydi, balki yaqinlik, dolzarblik, e’tibor, emotsional munosabat ma’nolarini hosil qilishi mumkin. Ba’zilari esa psixologik uzoqlik, yaqin bo‘lmagan munosabat ma’nolarini bildirishi mumkin. Masalan: *Sizni "Qishloqqa qirg‘in ber" deb yubordimi yoki "Qishloqqa yordam et" deb yubordimi?!* [8;170]. *Uning hozir do‘konga-Xalqobodga borishini ham bildi* [8;182].

3.3. Zamon deyksisi. Vaqt deyksisi nutq momentiga nisbatan vaqtni belgilaydi. Zamon yoki temporal deyksisni ifodalovchi vositalar voqea sodir bo‘layotgan hech qanday vaqtni ko‘rsatmasdan, balki biror nutqiy akt ijrosidan oldingi yoki keyingi davrga ishora qiladi [5:184]. Haqiqatda ada vaqt deyksisi birliklarining ba’zilari o‘tgan davrga havola qilsa. Boshqa holatlarda kelasi zamon mazmunini bildiradi. Masalan: hozir, bugun, ertaga, kecha, keyin, oldin, o‘sha vaqtda, shu vaqtda. Bu birliklarning pragmatik vazifasi voqeaning xronologiyasini ko‘rsatish bilan cheklanmaydi. "Hozir" - dolzarb vaziyatni kuchaytiradi. *Murodning nomidan emas, yacheykaning nomidan yubor, chop hozir!* [7;231] "Bugun" - so‘zlovchining hozirgi vaqtga munosabatini bildiradi. *Bugun kechqurun bizning uyga yig‘ilsin* [7;230]. "O‘sha kuni" - avval bo‘lgan voqeani eslash bilan birga narrativ funksiyani bajaradi. Masalan: *O‘sha kuni Asqarboyning qo‘li ishga bormadi.* [8;128]. "Ertaga" - kutilayotgan harakatni yoki voqeaning kechinmasini bildiradi. Masalan: Ertaga tushda shirvoningizni kaftingizga qisib kelib xabar olib

qo‘ying, to‘g‘rilab qo‘yaman. [8;135]. Demak, temporal deyksis badiiy matnning narrativ va pragmatik qurilishini tashkil etishda ishtirok etadi.

3.4. Ijtimoiy deyksis. Ijtimoiy deyksis ishtirokchilarning ijtimoiy mavqeini, yoshini, qarindoshlik munosabatini va hurmat darajasini ifodalash bilan bog‘liq. Bu guruhga: ota, opa, aka, opa, bola, ukam, singlim, siz, sen kabi birliklarni kiritish mumkin. Ijtimoiy deyksisning pragmatik kuchi qoraqalpoq kommunikativ madaniyatida alohida ko‘rinadi. Masalan, odamni ismi bilan atashdan ko‘ra qarindoshlik yoki ijtimoiy darajasi bilan atash tinglovchida alohida e’tibor uyg‘otishi mumkin. Roman tilida ijtimoiy deyksis hodisasi urf-odat an’analarida, yig‘ilishlarida, salomlashish, tabriklash, taklif etish, ta’ziya bildirish kabi holatlarda ko‘plab uchraydi. Masalan: *Yaxshi, yaxshi-ya, Asqarboy aka deb ichki xonaga sho‘ng‘idi Bobojon.* [8;135]. *Opangning iymoni bir hovuch bo‘lib o‘tirgandir, sen izingga qayta ber, bolam.* [8;136].

3.5. Diskurs deyksis. Ushbu turdagi deyksisni alohida hodisa sifatida ajratib o‘rganish lozimligini targ‘ib qilganlardan biri R.Lakoffdir. Olim zamon-makon deyksisi bilan bir qatorda, emotsional va diskurs deyksisini ham ajratib o‘rganishni taklif etgan. Diskurs yoki matn deyksisi matnning ma’lum qismiga ishora qiluvchi iboralarning qo‘llanishida namoyon bo‘ladi. Masalan, "har holda," "aksincha" kabi iboralar matnning oldingi yoki keyingi qismlariga ishora vositasidir. Bunday iboralarning deytiklar qatoriga kiritilishining sababi ular ishtirokida tuzilgan nutqiy tuzilmalarning referentini matndan izlash imkoniyati mavjudligidir[6;637-638].

Barcha tillarda nutqiy harakatni muloqot matnining oldingi qismi bilan bog‘lovchi iboralar, birliklar to‘plami mavjudki, ularning bajaradigan vazifasini diskurs deyksisi sifatida tavsiflash mumkin. Bu birliklar qatoriga tilimizdagi biroq, *lekin, shunday qilib, shu sababli, aniqrog‘i, bundan tashqari* kabi birliklar kiradi. Ularning asosiy vazifasi matnning oldingi qismiga havola yoki shu qismdagi bahsli savolga javobni tayyorlashdir. Matnning bog‘lanishi, uning mazmuniy ko‘rinishi undagi aytilayotgan axborotning mazmuniga bog‘liq. "Xalqobod" romanida diskursiv deyksisning quyidagi turlari mavjud: bu, shu, shu fikr, yuqorida aytilgan, shunday, mana shu. Badiiy matnda bunday birliklar: oldingi fikrga qaytish; keyingi fikrga tayyorgarlik; muallif fikriga e’tibor qaratish; narrativ aloqani ta’minlash uchun qo‘llaniladi. *Bolalarning mana bu o‘yini suvloqda ot sug‘orib turgan Sayimbetning yodiga To‘liboyning arizasini tushirib yubordi* [7;230]. Diskursli deyksis o‘quvchining matnni interpretatsiya qilishini boshqaruvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Xulosa

Sh. Seytovning "Xalqobod" romanidagi deyktik birliklarni pragmatik jihatdan o‘rganish ularning badiiy matndagi vazifasi keng va ko‘p qatlamli ekanini ko‘rsatadi. Deyksis roman tilida faqat havola yasovchi grammatik-lingvistik vosita

emas. U personajlar o‘rtasidagi kommunikativ munosabatni tashkil etish, ijtimoiy mavqelarni ko‘rsatish, emotsional yaqinlik va uzoqlikni ifodalash, voqeani aktuallashtirish, muallif va personaj pozitsiyasini ochish kabi pragmatik vazifalarni bajaradi. Shu sababli deyktik birliklarning pragmatik vazifasini o‘rganish Sh. Seytovning individual-mualliflik uslubini ochish bilan birga, qoraqalpoq tilidagi kommunikativ madaniyat va milliy dunyoqarashning lingvistik aksini aniqlashga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Сафаров Ш. Ирагмалингвистика. Монография. – Тошкент, 2008 йил, 318 бет.
2. Levinson Stephan G. Pragmatics. Cambridge: Cambridge University Press, 1983.-
3. Fillmore Ch. Santa Cruz Lectures on Deixis. Indiana: University Linguistic Club, 1975.
4. Yule G. Pragmatics. Oxford: Oxford University Press. 1996.
5. Уфимцева А.А. Типы словесных знаков - М.: Наука, 1977.-206 с.
6. Lyons, J. Semantics. Cambridge: Cambridge University Press. 1977.
7. Сейтов Ш. Халқабад. 1-2-китаплар. Нөкис, «Jeti ıqlım», 2025.
8. Сейтов Ш. Халқабад. 3-4-китаплар. Нөкис, «Jeti ıqlım», 2025.

BADIIY MATN TAHLILIDA LINGVOPOETIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK YONDASHUVLARNING INTEGRATSIYASI

Mavludaxon Tojidin qizi Musinjanova

Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa tumani
MMTB tasarrufidagi 65-IDUM
ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi
ORCID: 0009-0002-9075-2347

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy matnni tahlil qilishda lingvopoetika va adabiyotshunoslik fanlarining o‘zaro integratsiyasi masalalari ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Unda til va adabiyot birligining ilmiy asoslari, V.Vinogradov, R.Yakobson, Y.Lotman kabi olimlarning qarashlari hamda o‘zbek ilm-fanidagi yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, Abdulla Fitratning otashin she'ri misolida badiiy asarni lingvopoetik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan qo‘shma tahlil qilish metodikasi ko‘rsatib berilgan bo‘lib, bu ikki soha sintezining zamonaviy filologiyadagi dolzarbligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: lingvopoetika, adabiyotshunoslik, badiiy matn, integratsiya, konnotatsiya, individual uslub, Fitrat, badiiy-estetik tahlil, lisoniy birlik, poetik funksiya.

Аннотация: В данной статье научно и теоретически освещены вопросы взаимоинтеграции лингвопоэтики и литературоведения при анализе художественного текста. В ней проанализированы научные основы единства языка и литературы, взгляды таких ученых, как В.Виноградов, Р.Якобсон, Ю.Лотман, а также подходы в отечественном языкознании. На примере пламенного стихотворения Абдуллы Фитрата продемонстрирована методика сопряженного лингвопоэтического и литературоведческого анализа художественного произведения, а также обоснована актуальность синтеза этих двух дисциплин в современной филологии.

Ключевые слова: лингвопоэтика, литературоведение, художественный текст, интеграция, коннотация, индивидуальный стиль, художественно-эстетический анализ, языковая единица, поэтическая функция.

Annotation: This article scientifically and theoretically highlights the issues of mutual integration of linguopoetics and literary studies in the analysis of a literary text. It analyzes the scientific foundations of the unity of language and literature, the views of scholars such as V.Vinogradov, R.Jakobson, Yu.Lotman, as well as approaches within Uzbek philological science. Furthermore, using the fiery poem by Abdulla Fitrat as an example, the methodology of joint linguopoetic and literary analysis of a literary work is demonstrated, and the relevance of the synthesis of these two fields in modern philology is substantiated.

Keywords: linguopoetics, literary studies, literary text, integration, connotation, individual style, Fitrat, artistic and aesthetic analysis, linguistic unit, poetic function.

Badiiy matn til va tafakkurning eng yuksak mahsuli, muallif estetik olamining moddiylashgan ko‘rinishidir. Har qanday mumtoz yoki zamonaviy asar chuqur badiiy tahlilni talab qiladi va bu jarayonda adabiyotshunoslik hamda lingvopoetika eng muhim metodologik tayanch vazifasini bajaradi. Agar adabiyotshunoslik asarning g‘oyaviy-tematik mazmuni, syujet va kompozitsiya xususiyatlari, obrazlar tizimi hamda tarixiy-adabiy kontekstni ochib bersa, lingvopoetika muallif qo‘llagan til birliklarining estetik vazifasini, lisoniy bo‘yoqdorligini va badiiy ifoda imkoniyatlarini ilmiy asosda tadqiq qiladi.

Zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti bu ikki mustaqil soha bir-biridan alohida holda emas, balki uzviy integratsiyada ishlaganidagina to‘laqonli natija berishini ko‘rsatmoqda. Sababi, badiiy matndagi g‘oya shakldan, shakl esa tildan tashqarida mavjud bo‘lolmaydi. Adabiyotshunoslik yondashuvi orqali matnning mazmuniy

qatlami va estetik qiymati anglab etilsa, lingvopoetik tahlil o‘sha mazmunni yaratishda xizmat qilgan har bir so‘z, metafora va sintaktik konstruksiyaning ichki energiyasini yuzaga chiqaradi. Mazkur yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi asar muallifining individual uslubini, uning lisoniy tafakkur qirralarini va matn osti ma'nolarini (konnotatsiyani) xolis hamda chuqur ochib berish imkonini beradi. Ushbu tadqiqotda aynan ana shu ikki yo‘nalishning integratsiyasi asosida badiiy matnni kompleks tahlil qilish tamoyillari va ularning nazariy-amaliy ahamiyati yoritiladi.

Badiiy matnni tahlil qilishda lingvopoetika va adabiyotshunoslik fanlarining o‘zaro integratsiyasi masalasi jahon va o‘zbek ilm-fanida chuqur nazariy asoslarga ega bo‘lib, bu ikki sohaning hamkorligi asar mohiyatini ochishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Rus adabiyotshunosi va tilshunosi Viktor Vinogradov badiiy adabiyot tilini o‘rganishda maxsus soha badiiy adabiyot lingvistikasi asoslarini yaratib, har bir so‘z oddiy lisoniy birlik emas, balki muallif yaratgan estetik tizimning faol elementi ekanini ilmiy jihatdan isbotlagan [1.128]. Uning qarashlariga ko‘ra, adabiy asar obrazli tafakkur mahsuli bo‘lib, uning mazmuni faqat lingvistik tahlil orqali to‘laqonli yuzaga chiqadi; adabiyotshunoslik g‘oyaviy mazmunni belgilasa, lingvistik yondashuv o‘sha g‘oyaning lisoniy qobiqdagi mukammal ko‘rinishini asoslab beradi. Shu boisdan ham til va adabiyot birligini ta'minlash adabiy jarayonni ilmiy anglashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Bu jarayonni yanada chuqurlashtirgan taniqli tilshunos va adabiyotshunos Roman Yakobson tilning estetik yoki poetik funksiyasi haqidagi nazariyasida lingvopoetika va adabiyotshunoslik sintezining yaqqol namunasini taqdim etgan [10]. Yakobsonning fikricha, poetik funksiya so‘z san'atining asosiy belgisi bo‘lib, u bevosita ifoda shaklining o‘ziga e’tiborni qaratadi hamda tilshunoslik usullarini adabiy matn tahliliga tatbiq etish orqali asar strukturasini butun murakkabligida ochib berish imkonini beradi. Shuningdek, Yuriy Lotman o‘zining semiotik yondashuvida badiiy matnni “murakkab tuzilgan ma'no generatori” sifatida ta’riflab, uning oddiy kommunikativ tildan farqli o‘laroq, ikkilamchi modellashtiruvchi tizim ekanini ko‘rsatib berdi [4.65]. Adabiyotshunoslik asarning g‘oyaviy-badiiy olamini tadqiq qilsa, Lotman ilgari surgan struktural-lingvistik tahlil o‘sha olam qanday lisoniy elementlar va belgilar asosida bunyod etilganini aniqlashga xizmat qiladi, bu esa ikki fan chegarasidagi sinergiyaning naqadar zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

O‘zbek ilm-fanida ham badiiy matnni o‘rganishda adabiyotshunoslik va tilshunoslikning o‘zaro hamkorligiga alohida e'tibor qaratilib, bu borada salmoqli ilmiy maktablar va qarashlar shakllangan. Akademik Baxtiyor Nazarov, professorlar Matyoqub Qo‘shjonov, Ibrohim Haqqul kabi yetakchi adabiyotshunoslar asar tilining obrazliligi, muallif individual uslubining qirralarini ochishda lisoniy

tahlilning o‘rnini yuqori baholagan bo‘lsalar, tilshunos olimlar Abdukarim Mamajonov, Mahmud Saidxonov, Baxtiyor Mengliyev va boshqalar matn lingvopoetikasining nazariy asoslarini yanada boyitdilar [7.85]. O‘zbek lingvopoetika maktabi vakillari badiiy matndagi konnotativ ma'nolar, metaforik ko‘chishlar hamda milliy-estetik tafakkur ifodalarini tadqiq qilishda adabiyotshunoslikning estetik mezonlariga tayanadilar. O‘z navbatida, zamonaviy adabiyotshunoslik ham matnni baholashda lingvopoetik usullardan keng foydalanmoqda, chunki har qanday yuksak san'at asarining badiiy qiymati, avvalo, uning betakror lisoniy to‘qimasida va so‘z qo‘llash mahoratida yorqin namoyon bo‘ladi.

Lingvopoetika tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari tutashuvida shakllangan, badiiy asar tilini estetik vazifasi, mazmuniy chuqurligi va muallifning individual uslubi nuqtayi nazaridan o‘rganuvchi soha bo‘lib, u oddiy lisoniy birliklarning badiiy matnda qanday qilib yuksak estetik qimmat kasb etishini, muallifning so‘z tanlash va gap qurishdagi o‘ziga xos “lisoniy imzosi”ni tadqiq qiladi. Masalan, oddiygina tong otmoqda so‘z birikmasi kundalik nutqda shunchaki vaqtni bildirsa, Cho‘lpon poeziyasida “Tong sirlari”, “Tong yulduzi” yoki “oq tong” kabi lingvopoetik birliklarga aylanib, milliy uyg‘onish, ozodlik va ruh poklanishi kabi chuqur konnotativ ma'nolarni kasb etadi. Ushbu yo‘nalish matnning sirtqi qatlamidagi ma’no bilan kifoyalanmay, uning tubiga yashiringan konnotativ, emotsional-ekspressiv ma’nolar va psixologik holatlarni yuzaga chiqaradi masalan, Oybek romanlarida tabiat manzaralarini tasvirlashda ishlatilgan “g‘amgin shivir”, “titroq burglar” kabi so‘z birikmalari qahramonning ichki ruhiy olami va kechinmalarini ochib berishda kuchli estetik vazifa bajaradi. Shuningdek, u tilshunoslikning aniq ilmiy usullarini adabiyotshunoslikning estetik mezonlari bilan uyg‘unlashtirgan holda har bir so‘zning nega aynan shu o‘rinda qo‘llanilganligining estetik sabablarini ochib beradi; aytaylik, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi “Kumushning oppoq, mayin qo‘llari” yoki “Otabekning o‘ychan nigohi” kabi iboralardagi har bir so‘z tanlovi muallifning o‘sha davr ruhini va personajlar xarakterini gavdalantirishdagi yuksak mahoratini, ya'ni til birliklarining betakror badiiy-estetik qimmatini ta'minlaydi.

Lingvopoetik tadqiqotlar o‘zining ilmiy-metodologik asosi va tadqiqot obyektidan kelib chiqqan holda bir qator muhim tamoyillarga tayanadi va bu prinsiplar badiiy matnni har tomonlama ochib berishda yetakchi o‘rin tutadi. Jumladan, **antropotsentrik tamoyil** til va adabiyotni bevosita inson shaxsi, uning ichki olami, ruhiy kechinmalari hamda olamni estetik idrok etish xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganishni taqozo etadi [9.49]. Shuningdek, **matn va kontekst birligi tamoyili** har qanday lisoniy birlikning ma'nosini faqatgina alohida olingan holda emas, balki butun asarning g‘oyaviy-estetik muhiti, muallif niyati va umumiy

badiiy matn kontekstida ochib berish zaruriyatini belgilaydi. Bularga qo‘shimcha ravishda, **estetik vazifadorlik tamoyili** tilning oddiy kommunikativ xususiyatidan farqli o‘laroq, badiiy asarda har bir so‘z, metafora, epitet yoki sintaktik konstruksiyaning o‘quvchiga emotsional-ta'sir etish kuchi va badiiy go‘zallik yaratishdagi o‘rnini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu tamoyillarning uyg‘unligi lingvopoetika va adabiyotshunoslik integratsiyasini ta'minlab, muallifning individual uslubini hamda matn osti qatlamlarini xolis va chuqur tadqiq etish imkonini beradi.

Onam! Seni qutqarmoq uchun jonmi kerakdir?
Nomusmi, vijdon bila imonmi kerakdir?
Temur bila Chingiz qoni toshdi tomrimizdan,
Aytgil! Seni qutqarmoq uchun qonmi kerakdir?
Yov suqg’ali kelgach qilichini yuragingga,
Tush oldiga, ol ko’ksumi qalqonmi kerakdir? [2.35]

Fitratning mazkur otashin misralari o‘zbek jadidchilik adabiyotining eng ta’sirli, fojiali va milliy ruh bilan sug‘orilgan yuksak manifestlaridan biri bo‘lib, unda Vatan taqdiri, milliy g‘urur va cheksiz fidoiylik g‘oyalari favqulodda badiiy mahorat bilan tarannum etilgan. Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan qaraganda, she’rning markaziy o‘zagini Ona Vatan va uning sadoqatli farzandi o‘rtasidagi muqaddas burch masalasi egallaydi. Muallif millatning asrlar davomida mustamlakachilik zulmida qolgan og‘ir qismatini ochib berar ekan, lirik qahramon timsolida xalqining dardi bilan yonayotgan, uning ozodligi va yashab qolishi yo‘lida har qanday shaxsiy manfaatlardan kechishga tayyor bo‘lgan matonatli shaxs obrazini yaratadi. Xususan, asardagi tarixiy o‘tmishga murojaat qilib tomirdagi buyuk ajdodlar qonini esga olish motivi xalqning azaliy ma’naviy qudrati, botirligi va mustamlakachilikka qarshi bo‘ysunmaslik ruhini yorqin aks ettirib, asarning g‘oyaviy-estetik ta’sir doirasini yanada kengaytiradi.

Ushbu g‘oyaviy mazmun lisoniy shakl va lingvopoetik vositalar orqali favqulodda kuchaytirilgan bo‘lib, matnning emotsional ta’sir quvvatini va psixologik shiddatini ta’minlaydi. Misralardagi so‘roq ohangining ustun kelishi va ritorik so‘roqlarning izchil ravishda qo‘llanilishi lirik qahramonning ichki isyonini, ruhiy holatining keskinligini hamda qat’iyatini namoyon etadi. Shuningdek, jon, nomus, vijdon, imon va qon tushunchalarining ketma-ket keltirilishi gradatsiya usulini hosil qilib, fidoiylik chegarasining naqadar yuksak, muqaddas va cheksiz ekanini ko‘rsatadi. Dushman xavfini ifodalovchi obrazli iboralar hamda ko‘ksni qalqon qilishga da’vat etuvchi misralar o‘zaro kontrast asosida qurilib, til birliklarining badiiy-estetik qimmatini keskin oshiradi va o‘quvchiga kuchli hissiy ta’sir ko‘rsatib, uni chuqur o‘yga toldiradi.

Chaqmoq qulochlab urar osmon nog‘orasini,

O‘tloqda ming oyoqlab, yomg‘ir tushadi raqsga.
Havoning ilma-teshik ko‘rinmas tanasini
Dovul silkiy boshlaydi juda asabiy tarzda.
Qushlar g‘oyib bo‘ladi, sharaqlaydi darvoza,
Ajdarhoday uchadi antennalar tom osha.
Qarshingda beso‘z turgan muhabbat beovoza,
Ketmoqchi edi, axir! Bu qanaqa tomosha?

Usmon Azimning mazkur she'ri tabiatning shiddatli va vahimali manzarasi fonida inson ruhiyatining murakkab kechinmalarini ochib beruvchi yuksak estetik namunadir. Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan qaraganda, asarning markaziy o‘zagini tashqi olamdagi jadal bo‘ron (chaqmoq, yomg‘ir, dovul) bilan ichki olamdagi ruhiy tanglik hamda muhabbat dramasi o‘rtasidagi uyg‘unlik va kontrast tashkil etadi. Muallif tabiat unsurlarini jonlantirib, koinotdagi tartibsizlik va qo‘rquv muhitini yaratadi, bu esa qarshisida beso‘z turgan muhabbatning fojiali, mavhum va to‘satdan yuzaga kelgan holatini yanada keskinlashtiradi. Syujet va kompozitsiya jihatidan tabiatning shiddatli harakati (nog‘ora chalish, raqsga tushish, dovul silkishi) lirik qahramonning ketmoqchi bo‘lib turgan, ammo to‘xtab qolgan sevgilisi oldidagi shoshinch va hayratlanish tuyg‘usining emotsional fonini ta'minlab, asarga lirik-dramatik tus beradi.

Ushbu g‘oyaviy mazmun lisoniy shakl va lingvopoetik vositalar orqali favqulodda ta'sirchan ifodalangan bo‘lib, matnning emotsional quvvatini oshiradi. Xususan, «chaqmoq qulochlab urar osmon nog‘orasini», “ming oyoqlab yomg‘ir tushadi raqsga” hamda “dovul silkiy boshlaydi juda asabiy tarzda” kabi jonlantirish va metaforik ifodalar tabiat hodisalariga insoniy harakat hamda xarakterni ko‘chirib o‘tkazish orqali kuchli vizual obrazlarni hosil qiladi. « She'rning yakunida “qarshingda beso‘z turgan muhabbat beovoza” misrasidagi so‘zlarning ritmik-intonatsion o‘rni va ritorik so‘roq bilan tugashi (“Bu qanaqa tomosha?”) lisoniy birliklarning estetik vazifasini yuksaltirib, o‘quvchini chuqur o‘yga toldiradi.

Badiiy matnni o‘rganishda lingvopoetika va adabiyotshunoslik yondashuvlarining integratsiyasiga tayanish hamda ularni amalda uyg‘un holda qo‘llash bugungi zamonaviy filologiya fanining eng dolzarb talablaridan biri hisoblanadi. Birinchidan, ushbu qo‘shma yondashuv matnni faqat sirtqi syujet yoki umumiy g‘oya doirasida baholash bilan cheklanib qolmay, muallif qo‘llagan har bir lisoniy birlikning estetik vazifasini, konnotativ qatlamlarini va yashirin ma’nolarini ilmiy jihatdan xolis hamda chuqur ochib berish imkonini beradi. Ikkinchidan, adabiyotshunoslik asarning tarixiy-estetik qiymati va g‘oyaviy-tematik yo‘nalishini belgilab bersa, lingvopoetika o‘sha g‘oyaning qanday lisoniy vositalar va obrazli shakllar orqali kitobxon yuragiga yetib borish mexanizmini yuzaga chiqaradi. Bu esa o‘z navbatida badiiy asarni har tomonlama mukammal tadqiq etish, muallifning

individual uslubini aniqlash hamda milliy adabiyotimiz namunalari va mumtoz merosimizni bugungi zamonaviy ilm-fan talablari asosida yangicha talqin qilish uchun muhim nazariy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi [6.259].

Xulosa qilib aytganda, badiiy matnni tadqiq etishda adabiyotshunoslik va lingvopoetika fanlarining o‘zaro uzviy integratsiyasi zamonaviy filologiya ilm-fanining eng ustuvor, samarali va istiqbolli metodologik yo‘nalishlaridan biri ekanini yaqqol ko‘rsatadi. Adabiyotshunoslik asarning g‘oyaviy-tematik mazmuni, obrazlar tizimi, syujet va kompozitsiya tuzilishi, tarixiy-estetik konteksti hamda falsafiy-estetik mohiyatini keng qamrovda yoritib bersa, lingvopoetika ana shu ulkan ma'nolar qanday lisoniy vositalar, metaforalar, epitetlar, ritorik figuralar va konnotativ qatlamlar orqali shakllanganini aniq hamda puxta ilmiy usullar bilan ochib beradi. Fitrat va boshqa yozuvchilar ijodi misolida yaqqol ko‘rib chiqganimizdek, bu ikki yo‘nalish bir-birini mukammal to‘ldirgandagina badiiy asarning asl estetik go‘zalligi, muallifning betakror lisoniy imzosi va matn osti sirlari to‘laqonli yuzaga chiqadi. Demak, lingvopoetika va adabiyotshunoslik sintezi milliy adabiy merosni har tomonlama chuqur anglash, uning hissiy-ta'sir etish quvvatini ilmiy asoslash hamda kelgusidagi filologik tadqiqotlarning nazariy-amaliy ahamiyatini yangi, yuksak bosqichga ko‘tarish uchun mustahkam va o‘zgarmas poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Виноградов В.В. О художественной прозе. – Москва: Наука, 1980.
2. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006.
3. Haqqul I. Adabiyot – haqiqat va ruh jilosi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2013.
4. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – Санкт-Петербург: Издательство «Азбука», 2000.
5. Mamajonov A. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.
6. Mengliyev B. O‘zbek tilshunosligi va lingvopoetika masalalari. – Toshkent: Universitet, 2019.
7. Nazarov B. Adabiy jarayon va milliy tafakkur. – Toshkent: Akademnashr, 2011.
8. Qo‘shjonov M. O‘zbek romani va estetik tafakkur taraqqiyoti. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.
9. Saidxonov M. Badiiy asar tilining lingvopoetik xususiyatlari. – Toshkent: Tafakkur, 2015.
10. Якобсон Р. Лингвистика и поэтика // Поэтика перевода. – Москва: Прогресс, 1975.

“ZARBULMASAL” DA QUSH OBRAZI

Chinikulov Otabek Saydazimovich,
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi.
G-mail: otabekchin@gmail.com, tel.: +998913164404

Annotatsiya: Maqolada Muhammad Sharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridagi qush obrazlarining badiiy-funksional va mifopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Qush timsollarining ramziy ma’nolari, ijtimoiy-satirik vazifalari hamda Sharq allegorik adabiyoti va turkiy folklor bilan tipologik aloqalari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: qush obrazi, mifopoetika, ramz, allegoriya, satira, Sharq adabiyoti, tipologik tahlil.

Abstract: This article analyzes the artistic-functional and mythopoetic features of bird images in Muhammad Sharif Gulkhani’s *Zarbulmasal*. The symbolic meanings and socio-satirical functions of the bird figures, as well as their typological connections with Eastern allegorical literature and Turkic folklore, are examined.

Keywords: bird imagery, mythopoetics, symbol, allegory, satire, Eastern literature, typological analysis.

Аннотация: В статье анализируются художественно-функциональные и мифопоэтические особенности образов птиц в произведении Мухаммада Шарифа Гульхани “Зарбулмасал”. Раскрываются символические значения и социально-сатирические функции птичьих образов, а также их типологические связи с восточной аллегорической литературой и тюркским фольклором.

Ключевые слова: образ птицы, мифопоэтика, символ, аллегория, сатира, восточная литература, типологический анализ.

XVIII-XIX asrlar o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi Muhammad Sharif Gulxaniy ijodida ijtimoiy ziddiyatlar, axloqiy muammolar ramziy obrazlar orqali yuksak mahorat bilan ifodalangan. Adibning “Zarbulmasal” asari o‘zbek masalchiligi tarixida alohida o‘rin tutib, Sharq allegorik adabiyoti an’analarini milliy badiiy tafakkur bilan uyg‘unlashtirgan satirik yodgorlikdir [1: 45]. Asarda qush va hayvon obrazlari oddiy personaj bo‘lmay, muayyan ijtimoiy qatlamlar va siyosiy munosabatlarning allegorik ifodasidir.

Yapaloqqush, Ko‘rqush, Boyo‘g‘li kabi obrazlar vositasida muallif mansabparastlik, johillik va ijtimoiy adolatsizlikni fosh etadi. Ayniqsa, Yapaloqqushning xarobalarni boylik sifatida ulug‘lashi jamiyatdagi soxta qadriyatlar mohiyatini ochuvchi kuchli badiiy vositadir [2: 112].

“Zarbulmasal”dagi qush timsollari Sharq adabiyotidagi an’analarning mantiqiy davomidir. “Kalila va Dimna”da qushlar davlat boshqaruvi va hukmdor odobi bilan bog‘liq allegorik timsollar bo‘lsa [3: 78], Farididdin Attorning “Mantiq

ut-tayr” asarida ilohiy kamolot sari intilayotgan ruhiy sayohatchilardir [4: 210]. “Qissasi Rabg‘uziy”da esa ular ilohiy hikmat hamda payg‘ambarlik tarixining ishtirokchilari hisoblanadi [5: 142]. Gulxaniy ushbu an’analardan ijodiy foydalanib, qush obrazlarini diniy-tasavvufiy mezondan ijtimoiy-satirik talqin doirasiga ko‘chiradi.

O‘zbek adabiyotshunosligida “Zarbulmasal” asari janriy xususiyatlari va tili jihatidan keng tadqiq etilgan bo‘lsa-da [6: 88], undagi qush obrazlari mifopoetik tizim sifatida hamda manbalar bilan qiyosiy aspektda kompleks o‘rganilmagan. Mazkur tadqiqotning maqsadi asardagi qush obrazlarini mifopoetik va ramziy jihatdan tizimli tahlil qilish, ularning genezisini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, tarixiy-qiyosiy va semantik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Gulxaniy qushlarni biologik mavjudot sifatida emas, balki inson tabiatini, ijtimoiy tabaqalanishni ifodalovchi ramziy timsollar sifatida talqin etadi. Ularning badiiy funksiyasidan kelib chiqib, quyidagi tizimli tasnifni taklif etamiz:

Markaziy satirik qushlar – Yapaloqqush va Ko‘rqush;

Hokimiyat va ijtimoiy mavqe timsollari – Boyo‘g‘li va Kulonkir sulton;

Paremiologik qatlam qushlari (maqol va matallardagi) – qarg‘a, chumchuq, g‘oz, bulbul, kabutar, qumri;

Mifologik xotira bilan bog‘liq qush timsollari – xalq tasavvurlaridagi arxaik ramziy ma’nolarni saqlab qolgan obrazlar.



1-surat. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridagi qush obrazlari tizimli tasnifi.

Asar syujeti Yapaloqqush va Ko‘rqush o‘rtasidagi qudachilik voqealari asosida rivojlanadi. Oilaviy munosabat bo‘lib ko‘ringan ushbu kelishuv aslida

feodal jamiyatdagi manfaatlar to‘qnashuvi va hokimiyat uchun kurashning allegorik modelidir [1: 62].

Muallifning tun qushlarini markaziy personaj qilib tanlashi an’anaviy mifologiya bilan bog‘liq. Turkiy dunyoqarashda boyqushsimonlar ko‘pincha xarobalik va tanazzul belgisi sanalgan [7: 104]. Gulxaniy xaroba makonini jamiyatning ma’naviy yemirilishini ifodalovchi poetik makonga aylantiradi.

Ko‘rqush esa pragmatik personaj bo‘lib, uning nutqi xalq paremiologiyasining badiiy matnga tabiiy singdirilganini namoyish etadi. Paremiologik qatlamdagi chumchuq, qarg‘a kabilar dialoglarning ta’sirchanligini oshirib, personajlar xarakterini ochishga xizmat qiladi.

Yapaloqqush obrazi syujetning markaziy personaji va asarning g‘oyaviy-estetik tayanchidir. Muallif aynan shu obraz orqali jamiyatdagi soxta ulug‘vorlik va manfaatparastlikni keskin satirik tahlil qiladi.

Asarda Yapaloqqush xarobalarni ota-bobolaridan qolgan bebaho meros sifatida ta’riflaydi. Muallif ushbu badiiy paradoks orqali tanazzulni taraqqiyot deb hisoblovchi tabaqalar dunyoqarashini fosh etadi:

“Bu kulbalar ota-bobolarimizdan qolgan mulkdir... Ulug‘ podshohlarning imoratlari g‘ishtdin va toshdin bo‘lur. Bizning imoratimiz shundog‘ ulug‘durki... paxsadin va kesakdindur” [1: 71].

Turkiy mifologiyada boyqushsimon qushlarga munosabat dualistik xarakterga ega bo‘lsa-da (donolik va xarobalik), Gulxaniy aynan ikkinchi semantik qatlamni rivojlantirib, uni ijtimoiy illatlar ramziga aylantiradi [7: 115].

“Kalila va Dimna” qahramonlari davlat boshqaruvi mezonlarini ifodalasa [3: 92], Gulxaniyning Yapaloqqushi maqtanchoqlik va ma’naviy qashshoqlik muhitini aks ettiradi. Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asaridagi qushlar Simurg‘ni (ilohiy haqiqatni) izlab kamolot sari intilsa [4: 254], Yapaloqqush mavjud botqoqlikni tabiiy hol deb qabul qiladi. Bu esa bir xil ramzning turli estetik tizimlarda turlicha fundamental vazifa bajarishini ko‘rsatadi.

Yapaloqqushning badiiy mohiyati Ko‘rqush, Boyo‘g‘li va Kulonkir sulton kabi personajlar bilan munosabatda to‘liq ochiladi. Ko‘rqushning mahr talabiga oid so‘zlari feodal jamiyatdagi moddiy manfaatparastlikning yorqin ifodasidir:

“Siz andog‘ ulug‘ podshohsizki, Xorazm xarobasi va Buxoro vayronasi sizning hukmingizdadur. Ammo bizga mahr uchun uch yuz vayrona bino va ikki yuz xaroba kulba bermasangiz, qizimizni bermaymiz” [1: 73].

Ko‘rqush obrazi murosa va pragmatizm timsolidir. U Yapaloqqush kabi ochiq maqtanmaydi, balki shaxsiy manfaatini ko‘zlab amaliy fikrlaydi. Bu jihat “Kalila va Dimna”dagi dono maslahatchi tipidan farq qilib, mavjud tuzumga moslashgan amaldor tabiatini ko‘rsatadi [6: 124].

Boyo‘g‘li obrazi esa asossiz aristokratizm va nasabparastlik illatini ifodalaydi. U “Qissasi Rabg‘uziy”dagi qushlar kabi ilohiy hikmat tashuvchisi emas, balki dunyoviy tabaqalanish mezonidir [2: 145].

Voqealardan tashqarida turuvchi Kulonkir sulton obrazi oliy hokimiyat ramzi bo‘lib, uning nominal salobati bilan haqiqiy mohiyati o‘rtasidagi tafovut kinoyaviy aks ettirilgan. Attorning Simurg‘i mutlaq haqiqat bo‘lsa [4: 301], Kulonkir sulton dunyoviy ierarxiya belgisidir. Gulxaniy davlat boshqaruvi uchun aynan tun qushlarini tanlash orqali jamiyat boshqaruvining ma’naviy zulmatga botganiga ramziy ishora qiladi.

Asarning o‘ziga xosligi xalq paremiyalarining syujet yaratuvchi mexanizmga aylantirilganidadir. Qush nomlari ishtirokidagi maqollar ikki qatlamli semantik tuzilishga ega: nominal (tabiiy) va konnotativ (ijtimoiy-axloqiy) [8: 56].



2-surat. “Zarbulmasal” asari paremiologik qatlamida faol qo‘llanilgan ramziy qushlar (chumchuq, qarg‘a, g‘oz va bulbul)ning badiiy in’ikosi.

Chumchuq – imkoniyat va tabiiy me’yor timsoli. *“Chumchuq semursa ham botmon bo‘lmas”* maqoli o‘z salohiyatidan ortiq da’vo qilayotgan soxta obro‘ egalarini fosh etadi [8: 59].

Qarg‘a – ko‘r-ko‘rona taqlidchilik va o‘zlikni yo‘qotish ramzi. *“Qarg‘a kabutarning yurishini o‘rganaman deb, o‘zining ham yurishini unutibdi”* iqtibosi ma’naviy mimikriya oqibatlarini ko‘rsatadi [8: 62].

G‘oz – soddalik va voqelikni noto‘g‘ri baholash timsoli bo‘lib, matnda axloqiy o‘lchov vazifasini bajaradi.

Bulbul – mumtoz she’riyatda oshiq qalbi yoki Attorda tasavvufiy timsol bo‘lsa [4: 118], Gulxaniyda balandparvoz gap va xushomadgo‘ylik ramziga transformatsiya qilingan.

Gulxaniy maqollarni dialoglarning ichki elementiga aylantirib, intertekstual xotira yuklaydi [6: 152].

Qiyosiy tahlil Gulxaniyning an’anaviy ramzlarni XIX asr Turkiston ijtimoiy-siyosiy muhitiga moslashtirganini ko‘rsatadi. Quyidagi jadvalda qush obrazlarining manbalar bo‘yicha funksional transformatsiyasi umumlashtirilgan:

Manba / Kontekst	**Qush obrazlarining asosiy funksiyasi**	**“Zarbulmasal”dagi transformatsiyasi**
“Kalila va Dimna”	Siyosiy-didaktik, davlat boshqaruvi va hukmdor odobi allegoriyasi.	Ijtimoiy-satirik yo‘nalish, feodal tuzum tanqidi [1: 94].
“Mantiq ut-tayr”	Tasavvufiy-falsafiy, ilohiy kamolot yo‘lidagi ruhiy sayohat.	Ma’naviy inqirozni, ijtimoiy illatlarni fosh etuvchi satirik niqob.
“Qissasi Rabg‘uziy”	Sakral (muqaddas) semantika, ilohiy hikmat vositachilari.	Profan (dunyoviy) mazmun, xalq kinoyasi elementi.
Turkiy folklor	Arxaik qush kulti, osmon (ilohiy) va yer (inson) aloqasi.	Tun qushlari markazga chiqishi orqali ma’naviy zulmat ifodasi.

Gulxaniy an’anaviy ulug‘vor qushlar (burgut, lochin, humor) o‘rniga tun qushlarini tanlash orqali poetik tizimda funksional inqilob qiladi. Bu esa mifologik va adabiy an’analarning yagona badiiy maqsadga xizmat qildirilgan intertekstual modelidir.

Zamonaviy adabiyotshunoslik metodologiyalari (semiotika, mifopoetika, *animal studies*) asosida “Zarbulmasal” qushlar tizimining quyidagi yetakchi funksiyalarini aniqlash mumkin:

Satirik funksiya: Jamiyatdagi poraxo‘rlik, johillik va ma’naviy tanazzulni fosh etish.

Ramziy-estetik funksiya: Voqealarga chuqur ijtimoiy-falsafiy ko‘lam berish.

Intertekstual funksiya: Mumtoz adabiyot va folklor sintezini ta’minlash [6: 175].

Mifopoetik funksiya: Qadimgi mifologik semantikaning ijtimoiy kontekstda qayta jonlanishi.

Asardagi obrazlar o‘zaro oppozitsiya (qarama-qarshilik) tamoyiliga asoslangan. Yapaloqqush va Ko‘rqush kabi salbiy tiplarga qarshi o‘laroq bulbul, kabutar, qumri kabi paremiologik birliklar xalq estetik idealining ijobiy foni sifatida xizmat qiladi va ichki kompozitsion yaxlitlikni ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalari “Zarbulmasal” asaridagi qush obrazlari shunchaki allegorik personajlar emas, balki murakkab tizimli struktura ekanligini ko‘rsatdi. Gulxaniy qushlar olami vositasida feodal jamiyatning siyosiy-ijtimoiy va ma’naviy inqirozini umumlashtirgan.

Asarning ilmiy yangiligi qush timsollarining funksional va mifopoetik tasnifi ishlab chiqilganligi hamda ularning “Kalila va Dimna”, “Mantiq ut-tayr”, “Qissasi Rabg‘uziy” va turkiy folklor kontenti bilan tipologik aloqalari kompleks yoritilganligidadir. “Zarbulmasal” o‘zbek mumtoz adabiyotida allegorik tafakkurning va qush obrazlari poetikasining rivojlanish bosqichlarini belgilovchi eng mukammal badiiy modellardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gulxaniy. Zarbulmasal. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974. – 140 b.

2. Ishoqov Yo. O‘zbek adabiyotida allegoriya. – T.: Fan, 1984. – 164 b.

3. Kalila va Dimna (Fors tilidan ruschaga tarjima, o‘zbekcha nashri). – Toshkent: Sharq, 2008. – 280 b.

4. Fariduddin Attor. Mantiq ut-tayr. Nasriy bayon muallifi: J.Kamal. – Toshkent: Navro‘z, 2014. – 360 b.

5. Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy. Qissasi Rabg‘uziy. I kitob. – T.: Yozuvchi, 1990. – 256 b.

6. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1976. – 430 b.

7. Mifologik qomus va turkiy xalqlar mifologiyasi. – T.: O‘zME, 2005. – 320 b.

8. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: Mumtoz so‘z, 2010. – 204 b.

O‘ZBEKISTON MAHALLASINING TAOM DIALEKTLARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Munisa Shavkatova,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti, 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: dots.U.Rashidova

Annotatsiya: Mazkur maqolada Samarqand viloyati, Oqdaryo tumanining O‘zbekiston MFY aholisi orasida umumiste’molda bo‘lgan taom nomlari haqida bir qancha fikrlar namoyon bo‘ladi. Ushbu hududning taomlari o‘z navbatida maxsus guruhlarga bo‘linib, birma-bir sharh qilinadi.

Kalit so‘zlar: Sut va sut mahsulotlari bilan tayyorlanadigan taomlar, sabzavotlardan tayyorlanadigan taomlar, dukkakli mahsulotlardan tayyorlanadigan

taomlar, o‘t bilan tayyorlanadigan taomlar, go‘shtli mahsulotlardan tayyorlanadigan taomlar, ko‘klam kirishi bilan tayyorlanadigan taomlar, yoz kirishi bilan tayyorlanadigan taomlar, sovuq kirishi bilan tayyorlanadigan taomlar.

Ma’lumki, har bir hudud o‘z shevasiga egaligi bilan boshqa bir hududdan ajralib turadi. Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil qiladi, shunday ekan u ona tilimizning ruhiyatidan ulkan o‘rin olgan hisoblanadi. Aytib o‘tish joizki, shevalar dialektologiya fanida chuqur mushohada qilinadi. Ushbu fanda shevalararo munosabat, shevalarning tarixiy variantlari ya’ni etimologiyasi, va eng muhim xususiyatlari – fonetik, leksik, morfologik, va qisman sintaktik xususiyatlari, areal lingvistika haqida qimmatli ma’lumotlar o‘rganiladi.

Hayotimizda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar xalqimizning shevasi orqali o‘z aksini topadi, ichki va tashqi imkoniyatlari asosida boyiydi. Ma’lum voqea-hodisalar, madaniy aloqalar orqali milliy taomlar va ularning nomlari ham o‘zlashtiriladi. Bundan kelib chiqadiki, sheva tarkibida o‘z va o‘zlashgan onomastik qatlam yuzaga keladi. Bu kabi taom nomlari bilan, pazandachilik sirlari bilan chuqur shug‘ullangan olimlarimiz ham yo‘q emas. Misol qilib aytishimiz mumkinki, Baxtiyor Do‘stjonovning “Xorazm taomlari”[1994] nomli asarini keltirishimiz mumkin. Ushbu asarda Xorazmning taomlari yoritib berilgan, hamda har bir taomning turlariga alohida to‘xtab o‘tilgan. Oshpaz-u pazandalarning taomiga ko‘rk beruvchi choy haqida ham asar mavjud bo‘lib, ushbu asar Karim Mahmudov qalamiga mansub bo‘lgan “Choynoma”[1993] asaridir. Unda 40dan ortiq choy damlash usullari hamda ularning tarixiga ham birvarakay to‘xtab o‘tilgan. Ushbu olimning yana qator pazandalikka atalgan asarlari mavjud bo‘lib, bular:“O‘zbek tansiq taomlari”, “Qiziqarlarli pazandalik” va boshqalardir. Biz ham pazandalikka qiziqqan holda, Samarqand viloyati, Oqdaryo tumanining O‘zbekiston MFY aholisi orasida umumiste’molda bo‘lgan taom nomlari asosida ko‘rib chiqamiz.

Mazkur hududda turli xil taom nomlari mavjuddir. Dastlab, uni mahsulotlariga ko‘ra ajratamiz:

TAOMLAR

Sut va sut mah-sulotli ***Sabzavotli*** ***Dukkakli*** ***O‘tli*** ***Go‘shtli***

Sut va sut mahsulotlari bilan tayyorlanadigan taomlar – sutlosh, achchig‘osh, sirguruch, keskanosh, g‘ilmindi, qurtova, chalob, qurmoch va hk.

Sutlosh – ushbu taomga, avvalo, bir litr sut, yarim yoki bir piyola guruch, oz miqdorda tuz va xohishga ko‘ra shakar kerak bo‘ladi va guruch pishguncha qaynatildi, so‘ng dasturxonga tortiladi.

*Sirguruch*ning tayyorlanishi ham xuddi sutloshdek, biroq guruchi ozgina ko‘proq bo‘lib, sutloshga qaraganda ancha quyuq bo‘ladi, pishgandan so‘ng o‘rtasiga yog‘ quyilib, iste’mol qilinadi. Aytib o‘tish joizki, ushbu taom Qozoqxo‘ja qishlog‘ida *sirgurunch* nomi bilan ataladi. Adabiy tilda esa shirguruch hisoblanib, fors-tojik tilidan o‘zlashgan nomdir. Sh. Rahmatullayev “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati III” asarida ushbu nom quyidagicha izohlangan:

Shirguruch – bu ot sut ma’nosini anglatadigan tojikcha *shir* oti bilan “sholidan oqlab olinadigan oshlik don” ma’nosini anglatadigan, tojikcha “birinch” otidan tuzilgan bo‘lib, o‘zbek tiliga “birinch” oti tarkibidagi bi tovushlarini gu tovushlariga, *inch* tovushlarini *uch* tovushiga almashtirib olingan; “guruchi sutda pishirilib tayyorlanadigan quyuq taom” ma’nosini anglatadi [2,264]

Ma’lumki, Tog‘ay Murod so‘z ustasi hisoblanadi. ”Yulduzlar mangu yonadi” asarida shirguruch taomi ham qo‘llangan:

Tush vaqti ayollar bo‘g‘irsoq, qatlama, shirguruch ko‘tarib to‘yladi. [3,1]

Keskanosh – cho‘zilgan xamirni suvda pishirib, so‘ng ozgina sovitib suzma qo‘shiladi va aralashtiriladi, kosaga suzilganda ustiga qayla solib iste’mol qilinadi.

G‘ilmindi – dastlab, yupqa tayyorlanadi va ichiga atala surtilib, yog‘ surtiladi. Atala sof turkiycha so‘z hisoblanadi.

Qurtova – ushbu taom hozirda deyarli qilinmaydi, ushbu taomga asosiy mahsulot bo‘lgan qurt kerak bo‘ladi va yaxshilab ezilib, suv bilan qaynatiladi. Qaynagach tabga ko‘ra shakar solinadi. Tayyor bo‘lgan suyuqlik kosaga solinib, qizib turgan yog‘ tabga ko’ra quyiladi va iste’mol qilinadi. Ushbu taom bolajonlarning sevimli ovqati hisoblanar edi, afsuski, vaqtlar o‘tishi natijasida oila davrasida deyarli tayyorlanmay qo‘yildi.

Achchig‘osh uchun bir litr suv, yarim yoki bir piyola guruch, suzma[chakki], ta’bga ko‘ra tuz kerak bo‘ladi. Avvalo, suv bilan guruch pishirib olinadi, so‘ng u biroz sovitilib, suzma bilan aralashtirilib, tayyor holatga keltiriladi.

*Chalob*dan ichimlik sifatida yoz mavsumida foydalaniladi. Muzdek suv bilan kerakli suzma aralashtiriladi va unga tuz, bodring, rediska, pomidor, bulg‘or qalampiri solinib, iste’mol qilinadi.

Bundan tashqari, sutdan qatiq ham tayyorlanadi.

Qatiq – sof turkiycha bo‘lib, qaynatilgan iliq sutga qatiqdan tomizg‘i solib tayyorlanadigan mahsulot. Qadimgi turkiy tilda “qatiq” so‘zi ovqatga qo‘shib iste’mol qilinadigan masalliq ma’nosida ham qo‘llangan.[31]

Ayolimiz qatiq uyutdi: sutga bir qoshiq tomizg‘i qatiq soldi. Qaddini janda chopon bilan o‘rab-o‘rab qo‘ydi[32]*;*

Kenja jiyaniga qatiq yalatib o‘tirmish Oymomo yangasidan orlandi.[33]

Qurmoch – sutning qozonga yopishib pishgani. Ushbu so‘z turkiycha bo‘lib, adabiy tilda qirmoch nomi bilan ataladi. Ushbu so‘zga Sh. Rahmatullayev “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” da quyidagicha izoh bergan: Qirmoch – ovqatning pishirilayotganda qozon tagiga yopishib qolgan qoldig‘i [4,550]

Sabzavotlardan tayyorlanadigan taomlar – karam sho‘rva, borsh, sholg‘om qovurma, kartoshka qovurma, jarkob va hk.

Karam sho‘rva – avval, go‘sht, piyoz, sabzi, kartoshka va tuz bilan qovurilib, karam to‘g‘ralib suv solib qaynatiladigan suyuq taom. *Borsh* esa ushbu taomning quyuq turidir.

Sholg‘om qovurma – go‘sht, piyoz, qovurilib, so‘ng sholg‘om tozalanib ziravorlar bilan pishiriladigan taom. Kartoshka qovurma ham shu kabi tayyorlanib, faqat sholg‘om o‘rniga kartoshka solinadi.

Jarkob esa kartoshka bilan tayyorlanadi. Kartoshka xohishga ko‘ra to‘g‘ralib, tuz bilan aralashtiriladi va qizigan yog‘ga qovurilib, iste’mol qilinadi.

Dukkakli mahsulotlardan tayyorlanadigan taomlar – moshova, moshkichri, grechka osh, osh[palov], perlovka sho‘rva, go‘ja, makkoyi go‘ja, garoh sho‘rva, piyova, osh hk.

Moshova - avval, go‘sht, piyoz, sabzi, kartoshka va tuz bilan qovurib olinadi va mosh, ustidan suv solinadi, qaynatiladi. Ushbu taom suyuq ovqat hisoblanib, moshkichri esa moshovaning quyuq turi hisoblanadi. Ushbu taom fors-tojik tiliodan o‘zlashgan.

Grechka osh - go‘sht, piyoz, sabzi bilan qovuriladi va grechka solinib, ko‘mguncha suv quyilib, pishirib, iste’mol qilinadi.

Osh - go‘sht, piyoz, sabzi somoncha qilib to‘g‘ralib, qovuriladi va ko‘mguncha suv quyilib, pishirib, iste’mol qilinadi. Ba’zi vaqtlarda palov nomi bilan ham qo‘llaniladi. Ma’lum bo‘lishicha, avval osh nomi, keyin palov nomi paydo bo‘lgan. Ushbu taom turi badiiy asarlarda ham yozuvchilarimiz tomonidan keng qo‘llanilgan:

*Ana shunda qozonimiz guruch ko‘rganday bo‘ldi! Ana shunda qornimiz palov yeganday bo‘ldi![*5,46];

Palovdan keyin tarvuz so‘yildi [6,1];

---

1 Раҳматуллаев Ш. Узбек тилининг этимологик луғати(туркий сўзлар). – Т: Университет,2000, 532-б.

[32] T. Murod. Otamdan qolgan dalalar. – T: Sharq, 1994, 1-b.

[33] T. Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent, 4-b.

Darvozadan yelkalari, boshlarida dasturxon ko‘tarmish ayollar paydo bo‘ldi. Ayollar kelinnikidan o‘nta toboq olib keldi. Toboqlar birida palov, birida qovurma go‘sht, birida qaynatilgan tuxum, yana birida shirguruch... bo‘ldi [7,6];

Dasturxonda turfa noz-ne’matlar, palov, nisholda, holva... bo‘ldi [5,10-b.]

Perlovka sho‘rva - avval, go‘sht, piyoz, sabzi, kartoshka va tuz bilan qovurib olinadi va perlovka solib qaynatiladi.

Go‘ja – ushbu taom har qishloqda har xil tayyorlanadi. Ba’zilarda go‘ja alohida qaynatiladi, ba’zi bir qishloqlarda qaylaga qo‘shib tayyorlanadi.

O‘t bilan tayyorlanadigan taomlar – o‘t pichak, o‘t somsa, o‘t barak, o‘tli pishakquloq va hk.

O‘t pichak – dastlab, ushbu taomni tayyorlash uchun xamir qilinib, yupqa qilib yoyiladi va ma’lum bir shaklda qirqiladi. Ichiga solish uchun esa jag‘-jag‘ yoki otquloq, ismaloq kabi o‘tlar tozlanib, shu bilan birgalikda piyoz ham mayda qilib to‘g‘raladi va ta’bga ko‘ra tuz, ziravorlar solinadi. Tayyor bo‘lgan yupqa xamirga oz-ozdan to‘g‘ralgan massa solinib, to‘rtburchak yoki yarim oy shaklda bukiladi va pishirib olinadi. Eslatib o‘tish joizki, ba’zi bir hududlarda “pichak” “bichak” tarzida ham aytiladi va fors-tojikchadan o‘zlashgan. *O‘tli pishakquloq* ham xuddi shu tarzda tayyorlanadi, farqi ushbu taom qizib turgan yog‘ga qovurib olinadi. Xamir hozirgi tushunchamizda unisuv yoki sutga aralashtirib qorishdan hosil bo‘lgan yumshoq cho‘ziluvchan qorishma. Bu so‘z XI asr yodnomasi hisoblangan “Devonu lug‘otit turk”da *unug‘* shaklida *xamir* ma’nosida qo‘llanadi. [1,29] Muhammad Yoqub Chingiyning “Kelurnoma” asarida esa *yozlomoch* shaklida keladi[34]

O‘t somsa - dastlab, ushbu taomni tayyorlash uchun xamir qilinib, yupqa qilib yoyiladi va sariyog‘ surtilib, uzun qilib o‘raladi, va kichik-kichik qilib to‘g‘ralib, yana yoyiladi, so‘ng ichiga solish uchun esa jag‘-jag‘ yoki otquloq, ismaloq kabi o‘tlar tozlanib, shu bilan birgalikda piyoz ham mayda qilib to‘g‘raladi va ta’bga ko‘ra tuz, ziravorlar solinadi. Tayyor xamirga esa oz-ozdan to‘g‘ralgan massa solinib, xohishga ko‘ra bukiladi va pishirib olinadi.

O‘t barak – fors-tojikchadan o‘zlashgan. Ushbu taomni tayyorlash uchun xamir qilinib, yupqa qilib yoyiladi va kichik- kichik to‘rtburchak qilib qirqiladi, xuddi somsa, pichakniki kabi o‘tlardan massa tayyorlanib, barmoq ishtiroki bilan bukiladi. Qaynab turgan suvda yoki qizib turgan yog‘da qovurib olinadi.

Go‘shtli mahsulotlardan tayyorlanadigan taomlar: jiz-biz, kabob, somsa, shashlik, qaynatma sho‘rva.

Jiz-biz – hayvonning jigaridan tayyorlanadi. Ma’lum shaklda qirqilib, yog‘da qovurilib olinadi.

[34] Чингий. Келурнома. – Тошкент, 1982, 71-б.

Kabob – go‘sht va kartoshka qovurilib, dimlash orqali pishiriladi. Ushbu taom hind tilida ham qo‘llaniladi. Q. Mahmudov kabob termini “qovurmoq” fe’lidan ekanligini qayd qiladi[1, 29]

Shashlik - go‘sht dastlab, ziravorlar bilan aralashtirib, ma’lum vaqt muzlatgichga qo‘yiladi, so‘ng cho‘g‘da pishirib olinadi.

Qaynatma sho‘rva - go‘sht suv bilan birgalikda qaynatiladi, qaynash jarayonida birin-ketin piyoz, sabzi, kartoshka solinib pishirib olinadi. Ushbu taom suyuqligi bilan tez hazm bo‘lishi bilan ajralib turadi. Hududda turmush sharoiti og‘ir xonadonlarda go‘sht solinmaydigan masallig‘i kam *piyova* nomli suyuq ovqat tayyorlanadi.[9, 205] Ushbu taom fors-tojik tilidan o‘zlashgandir.

Ushbu taomlar quyidagicha qilib qaysi vaqt bilan tayyorlanishiga ko‘ra guruhlansa, maqsadga muvofiq ish bo‘ladi:

TAOMLAR

T.r	***Ko‘klam kirishi bilan tayyorlanadigan taomlar***	***Yoz kirishi bilan tayyorlanadigan taomlar***	***Sovuq kirishi bilan tayyorlanadigan taomlar***
1.	O‘t pichak	Chalob	Moshova
2.	O‘t somsa	Karam sho‘rva	Moshkichri
3.	O‘t barak	Borsh	Perlovka sho‘rva
4.	O‘tli pishakquloq	Kartoshka qovurma	Sut va sut mahsulotlari bilan tayyorlanadigan taomlar

Xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘zbek milliy taomlari birgina O‘zbekiston mahallasida emas, balki butun O’zbekiston va chet davlatlarda ham qilinadi. Qadimdan saqlanib kelayotgan ushbu nomlar keyinchalik ham atalishi siz-u bizning qo‘limizdadir. Chunki bu nomlar o‘zining boy tarixiga ega bo‘lib, boshqa tillarga tarjima qilinmas lakunalar hisoblanadi. Afsuski, hozirda o‘zbek milliy taomlarimizning o‘rniga chet elning ovqatlari bosib olmoqda. Buning oldini olish maqsadida yoshlar, kelajak avlodga milliy taomlarimizni tayyorlanish usulini o‘rgatishimiz zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Икромова Н. Ўзбек пазандачилик терминларининг этимологик таркиби//ЎТА, 1985, Н.6
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати I. – Т: Университет, 2000. –Б.599
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати II. - Т: Университет, 2003. – Б.599
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати III. - Т: Университет, 2009. – Б.282
5. Т. Мурод. Отамдан қолган далалар. – Т: Шарқ, 1994. –Б.168
6. Т. Мурод. Ойдинда юрган одамлар. – Тошкент, 2008. –Б. 87
7. Т. Мурод. Юлдузлар мангу ёнади. - Т: Шарқ, 1980. –Б. 59
8. Т. Мурод. Юлдузлар мангу ёнади. - Т: Шарқ, 1980. –Б. 59
9. Tillaboyeva Z. Samarqand shahar o‘zbek shevalarida qo‘llaniladigan taom nomlari to‘g‘risida//O‘ZBEK SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA VA YANGICHA YONDASHUV, Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022
10. Чингий. Келурнома. – Тошкент, 1982.

СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТАМИ «СЕРДЦЕ» И «ЮРАК» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Юлдашев Баходир Бекмуратович
ассистент преподаватель кафедры Узбекского и русского языков
Самаркандский кампус ЭПУ
bohodiryoldashev1970@gmail.com

Аннотация: В статье представлен сопоставительный анализ фразеологических единиц с соматическими компонентами «сердце» и «юрак» в русском и узбекском языках. Цель исследования — выявить их семантические, когнитивные, прагматические и лингвокультурологические особенности. Теоретико-методологическую основу составили труды У. М. Рашидовой, Ш. Рахматуллаева, Б. Юлдашева, В. В. Виноградова, А. В. Кунина, В. Н. Телии, Д. О. Добровольского, Дж. Лакоффа и М. Джонсона. Особое внимание уделено семантико-прагматическим и лингвокультурологическим характеристикам фразеологизмов с компонентом «юрак». Анализируются единицы, репрезентирующие любовь, страх, мужество, искренность, доброту,

сострадание и другие эмоциональные и нравственные состояния человека. Установлено, что компоненты «сердце» и «юрак» обладают высокой фразеологической продуктивностью и выступают средствами концептуализации внутреннего мира человека. Выявлены общие семантические и концептуальные модели, обусловленные универсальностью телесного опыта, а также национально-культурные различия русского и узбекского языков. Результаты исследования могут быть использованы в сопоставительной лингвистике, фразеологии, лингвокультурологии, когнитивной лингвистике, переводоведении и лексикографии.

Ключевые слова: фразеологическая единица, соматическая фразеология, сердце, юрак, русский язык, узбекский язык, семантика, прагматика, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, фразеологическая эквивалентность.

Введение

Фразеология является одним из наиболее значимых разделов современного языкознания, поскольку фразеологические единицы представляют собой не только устойчивые языковые образования, но и важный способ концептуализации окружающей действительности. В их семантической структуре закрепляются исторический опыт народа, национальные представления о человеке, его эмоциональном состоянии, нравственных качествах и характере взаимоотношений с окружающими. В связи с этим исследование фразеологического фонда приобретает особую значимость для сопоставительного языкознания, лингвокультурологии, когнитивной лингвистики и переводоведения.

Особый интерес представляют соматические фразеологические единицы, компонентами которых являются наименования частей человеческого тела. К наиболее продуктивным соматизмам относятся голова, глаз, рука, сердце, язык, нога и др. Их высокая фразеологическая активность объясняется тем, что телесный опыт человека является одним из важнейших источников формирования и осмысления абстрактных понятий. В результате физические характеристики, действия и состояния человеческого тела получают метафорическое переосмысление и начинают обозначать эмоции, интеллектуальные процессы, нравственные качества и социальное поведение.

В данном отношении особое место занимают лексемы **«сердце»** в русском и **«юрак»** в узбекском языках. В своем прямом значении они обозначают физиологический орган, однако в составе фразеологических единиц приобретают значительно более широкий семантический потенциал.

Они способны репрезентировать любовь, доброту, искренность, сострадание, страх, тревогу, душевную боль, мужество, решительность, внутреннее состояние человека и его нравственную характеристику.

Теоретические основы исследования русской фразеологии были заложены в трудах В. В. Виноградова. В работе «Об основных типах фразеологических единиц в русском языке» ученый предложил классификацию фразеологических сращений, единств и сочетаний, основываясь на степени семантической слитности компонентов и характере соотношения целостного значения фразеологизма со значениями входящих в него слов [1, с. 140–161]. Данный подход сохраняет свою значимость и при исследовании соматической фразеологии, поскольку позволяет определить степень идиоматичности единиц и характер взаимодействия прямого и переносного значений соматического компонента.

Дальнейшее развитие фразеологической теории связано с исследованиями А. В. Кунина, который рассматривал фразеологические единицы с учетом их устойчивости, воспроизводимости, структурно-семантических характеристик и функционального употребления [2]. Разработанные им положения имеют значение для определения природы устойчивых сочетаний и выявления их межъязыковых соответствий.

Особое направление современного изучения фразеологии связано с лингвокультурологическим подходом. В. Н. Телия рассматривает фразеологические единицы как особые культурные знаки, в которых отражаются образные, эмоциональные, оценочные и национально-культурные смыслы [3]. С этой точки зрения фразеологизм представляет собой не только единицу языка, но и своеобразный носитель культурной информации.

Для сопоставительного исследования русского и узбекского языков особую значимость имеют работы, посвященные соматической фразеологии узбекского языка. В исследованиях Б. Юлдашева рассматриваются вопросы функционирования фразеологических единиц, их стилистических характеристик и фразеографического описания [4]. Значительный вклад в изучение соматических фразеологизмов узбекского языка внесла У. М. Рашидова. В ее диссертационном исследовании фразеологические единицы с компонентами **кўз**, **қўл** и **юрак** рассматриваются с семантической, прагматической, когнитивной, лингвокультурологической, парадигматической и синтагматической точек зрения [5].

Актуальность настоящего исследования обусловлена необходимостью комплексного сопоставления русских и узбекских фразеологизмов с компонентами «сердце» и «юрак». Сопоставление данных единиц позволяет определить не только общие закономерности концептуализации внутреннего

мира человека, но и национально-культурную специфику их языкового выражения.

Цель исследования заключается в выявлении и сопоставлении семантических, прагматических и лингвокультурологических особенностей фразеологизмов с компонентами «сердце» и «юрак» в русском и узбекском языках.

Для достижения поставленной цели решаются следующие задачи:

- определить особенности функционирования соматических компонентов «сердце» и «юрак» во фразеологическом фонде двух языков;
- выявить основные семантические группы исследуемых фразеологических единиц;
- определить их эмоционально-оценочную и прагматическую специфику;
- установить общие и национально-специфические черты русских и узбекских фразеологизмов;
- определить характер межъязыковых соответствий между исследуемыми единицами;
- выявить лингвокультурные представления о сердце как центре эмоциональной и духовной жизни человека.

Объектом исследования являются фразеологические единицы русского и узбекского языков с компонентами «сердце» и «юрак».

Предмет исследования составляют их семантические, прагматические, эмоционально-оценочные и лингвокультурологические характеристики.

В работе используются сопоставительный, семантический, контекстуальный и лингвокультурологический методы анализа.

1. Семантическая специфика фразеологизмов с компонентами «сердце» и «юрак»

В русском языке лексема **сердце** обладает высокой фразеологической активностью. В составе устойчивых выражений она может обозначать не только физический орган, но и внутренний мир человека, его эмоциональное состояние, нравственные качества и способность испытывать определенные чувства.

Так, фразеологические единицы **от всего сердца**, **от чистого сердца** связаны с семантикой искренности, доброжелательности и эмоциональной открытости. Например, выражение *поздравить от всего сердца* указывает не просто на факт поздравления, а на его искренний и эмоционально значимый характер.

В свою очередь, выражения **сердце не лежит**, **сердце сжимается**, **сердце болит**, **сердце разрывается** репрезентируют различные отрицательные

эмоциональные состояния. При этом физическое состояние сердца становится основой для метафорической передачи психологического переживания.

Определенную семантическую группу образуют фразеологизмы, характеризующие нравственные качества человека: **доброе сердце**, **золотое сердце**, **каменное сердце**. В этих выражениях сердце выступает своеобразным вместилищем моральных качеств личности. Положительная характеристика основывается на образах добра и ценности, тогда как сочетание *каменное сердце* связано с отсутствием сострадания и эмоциональной отзывчивости.

Аналогичные процессы наблюдаются и в узбекском языке. Компонент **юрак** активно участвует в формировании фразеологических единиц, связанных с эмоциональным и психологическим состоянием человека. В узбекской языковой картине мира юрак также выступает как один из центральных образов внутреннего мира личности.

Семантическая близость русских и узбекских фразеологизмов особенно отчетливо проявляется в выражении таких универсальных категорий, как любовь, искренность, страх, тревога, мужество, душевная боль и доброта. Это позволяет говорить о наличии общих когнитивных оснований, связанных с универсальным человеческим телесным и эмоциональным опытом.

Однако общность концептуального основания не означает полного совпадения фразеологических систем. В каждом языке соматический компонент включается в специфические модели сочетаемости и получает дополнительные культурно обусловленные значения.

2. Прагматические особенности исследуемых фразеологизмов

Фразеологические единицы с компонентами «сердце» и «юрак» характеризуются значительным прагматическим потенциалом. Они способны не только передавать определенную информацию, но и выражать отношение говорящего к предмету речи.

Одной из наиболее характерных функций является **эмотивная функция**. Использование подобных фразеологизмов позволяет непосредственно передать эмоциональное состояние говорящего или персонажа. Например, выражения *сердце сжимается*, *сердце болит*, *от всего сердца* обладают большей эмоциональной выразительностью, чем нейтральные лексические обозначения соответствующих состояний.

Не менее значимой является **оценочная функция**. Фразеологизмы *доброе сердце*, *золотое сердце, каменное сердце* содержат положительную или отрицательную характеристику человека. Таким образом, соматический компонент участвует в формировании аксиологической модели личности.

В художественном дискурсе подобные фразеологизмы могут выполнять функцию психологической характеристики персонажа. Они позволяют автору

передавать эмоциональные переживания без развернутого описания внутреннего состояния героя.

В разговорной речи фразеологизмы с компонентами «сердце» и «юрак» способствуют непосредственной и экспрессивной передаче чувств. В публицистическом дискурсе они могут усиливать эмоционально-оценочную составляющую высказывания и воздействовать на адресата.

Следовательно, при сопоставительном исследовании необходимо учитывать не только словарное значение фразеологизма, но и его контекстуальную реализацию, коммуникативную ситуацию, сферу употребления и характер отношений между участниками коммуникации.

3. Лингвокультурологическая специфика

Лингвокультурологический анализ показывает, что образ сердца имеет одновременно универсальный и национально-специфический характер.

Универсальность определяется прежде всего общим для человека телесным опытом. Сердце связано с жизнью, движением, эмоциональным напряжением и изменением физического состояния. Поэтому во многих языках оно становится источником метафорического осмысления любви, страха, волнения, боли и других чувств.

Национальная специфика проявляется в способах языковой концептуализации этих состояний. Фразеологическая система каждого языка формируется под воздействием исторического опыта, традиций, ценностей и образного мышления его носителей. Поэтому даже при наличии семантически близких русских и узбекских единиц их внутренняя форма и прагматический потенциал могут различаться.

Важным показателем национальной специфики является также различие в образной мотивации. Один и тот же эмоциональный концепт может выражаться в двух языках посредством различных образов. Поэтому межъязыковая эквивалентность должна рассматриваться не только на уровне общего значения, но и с учетом образной структуры, коннотаций и коммуникативной функции.

В этом отношении фразеологизмы с компонентами «сердце» и «юрак» представляют значительный интерес для изучения русской и узбекской языковых картин мира. Они позволяют проследить, каким образом универсальные человеческие эмоции получают национально обусловленное языковое выражение.

4. Межъязыковые соответствия

Сопоставление русских и узбекских фразеологических единиц позволяет условно выделить несколько типов соответствий.

Первый тип составляют **полные или близкие фразеологические соответствия**, при которых совпадают основное значение, образная мотивация и коммуникативная функция.

Второй тип представлен **частичными соответствиями**, когда фразеологические единицы выражают близкое значение, но различаются структурой, компонентным составом или образной основой.

Третий тип составляют **фразеологические аналоги**, при которых одинаковое или сходное содержание передается посредством различных образов.

Наконец, существуют **безэквивалентные единицы**, национально-культурная специфика которых не позволяет подобрать в другом языке полностью соответствующий фразеологизм. В подобных случаях при переводе могут использоваться описательные конструкции, контекстуальные соответствия или иные способы передачи значения.

Таким образом, сопоставление компонентов «сердце» и «юрак» показывает, что межъязыковая эквивалентность является многоуровневым явлением. Она определяется не только совпадением словарного значения, но и степенью совпадения образной структуры, эмоциональной окраски, стилистики и прагматической функции.

Заключение

Проведенный анализ позволяет сделать вывод о высокой семантической, прагматической и лингвокультурологической значимости фразеологизмов с компонентами «сердце» и «юрак» в русском и узбекском языках.

Несмотря на то что лексемы «сердце» и «юрак» в прямом значении обозначают один и тот же физиологический орган, в составе фразеологических единиц они приобретают широкий спектр переносных значений. Сердце концептуализируется как центр эмоциональной, духовной и нравственной жизни человека. Посредством соответствующих фразеологизмов репрезентируются любовь, искренность, доброта, сострадание, страх, тревога, душевная боль, мужество и другие эмоционально-психологические состояния.

Сопоставительный анализ показывает наличие значительного числа семантически близких единиц в русском и узбекском языках. Это свидетельствует об универсальности ряда когнитивных моделей, основанных на общем телесном и эмоциональном опыте человека.

Вместе с тем универсальный характер образа сердца сочетается с национально-культурной спецификой его языковой репрезентации. Русские и узбекские фразеологизмы могут различаться по внутренней форме, компонентному составу, образной мотивации, эмоционально-оценочной

окраске, стилистической маркированности и прагматической функции. Поэтому совпадение соматического компонента «сердце» — «юрак» само по себе не является достаточным основанием для установления полной фразеологической эквивалентности.

Исследование также показывает, что семантическая интерпретация фразеологизмов непосредственно связана с контекстом их употребления. Одна и та же фразеологическая единица в зависимости от коммуникативной ситуации может выполнять эмотивную, оценочную, характеризующую или воздействующую функцию. Это подтверждает необходимость комплексного изучения соматической фразеологии с учетом взаимодействия семантических, прагматических и культурных факторов.

Таким образом, фразеологизмы с компонентами «сердце» и «юрак» являются значимым источником изучения взаимосвязи языка, мышления, культуры и телесного опыта человека. Их сопоставительное исследование имеет теоретическое значение для фразеологии, лингвокультурологии и когнитивной лингвистики, а также практическое значение для переводоведения, фразеографии и преподавания русского и узбекского языков.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Виноградов В. В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Избранные труды. Лексикология и лексикография. М.: Наука, 1977. С. 140–161.
2. Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. М.: Высшая школа, 1986.
3. Телия В. Н. Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М.: Школа «Языки русской культуры», 1996.
4. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. Самарқанд, 1993.
5. Rashidova U. M. O‘zbek tilida somatik frazeologik birliklarning semantik-pragmatik tadqiqi (ko‘z, qo‘l va yurak komponentli frazeologizmlar misolida): Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Samarqand, 2018.

ERKIN VOHIDOVNING TIL FALSAFASI VA XOTIRA

("So'z latofati" asarida til falsafasi, semantik tafakkur va milliy-madaniy xotira)

ATİLLA NAZİM o'g'li SULAYMONLİ

O'zbekiston Respublikasi Termiz davlat universiteti
adabiyot fakulteti (o'zbek adabiyoti) doktoranti
atillanaz@mail.ru | ORCID ID: 0009-0005-7230-5123
+994 773477959

Annotatsiya: Maqolada atoqli o'zbek shoiri va mutafakkiri Erkin Vohidovning "So'z latofati" asari til falsafasi, semantik tafakkur va milliy-madaniy xotira o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik kontekstida keng tadqiq etilgan. Tadqiqotda so'zning shunchaki oddiy muloqot vositasi emas, balki xalqning tarixiy tajribasi, ma'naviy qadriyatlari va milliy o'zligini saqlovchi hamda avloddan-avlodga uzatuvchi universal madaniy fenomen sifatida idrok etilishi asosiy muammo qilib olingan. Asarda so'zning etimologik kelib chiqishi, semantik taraqqiyoti, emotsional-estetik energiyasi va folklor bilan aloqasi nazariy-filologik jihatdan tahlil qilinadi. Natijada shoirning semantik tafakkur modeli so'z-til-milliy xotira-badiiy tafakkur aloqasi ustiga qurilgani va uning nazariy-estetik qarashlarining muhim ustunini tashkil etishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Erkin Vohidov, til falsafasi, semantik tafakkur, milliy xotira, ona tili, so'z madaniyati, etimologiya.

KIRISH

Erkin Vohidovning boy va ko'p qirrali adabiy merosida "So'z latofati" asari alohida strategik o'rin tutadi. Ushbu monumental asar muallifning shunchaki til hodisalariga doir publisistik mulohazalarining subyektiv majmuasi emas, balki uning so'zga, ona tilining ichki qonuniyatlariga, milliy madaniyat va badiiy ijodning ontologik asoslariga doir estetik-falsafiy qarashlarini o'zida mujassam etgan konseptual tadqiqot sifatida baholanishi lozim. Agar shoirning bevosita poetik asarlarida so'z badiiy obraz, ritm va intonasiya vositasida yashirin qatlamda yashasa, "So'z latofati" asarida o'sha so'zning ichki strukturaviy mohiyati, keng estetik imkoniyatlari va milliy-madaniy o'zini muhofaza qilish funksiyasi nazariy mustavida ilmiy tarzda sharhlanadi. Aynan shu jihatdan ushbu asar Erkin Vohidovning butun poetikasini, xususan, totalitarizm sharoitida tilga sig'inish strategiyasini anglash uchun asosiy nazariy kalit va metodologik platforma vazifasini o'taydi.

ASOSİY MATN

Tilning sosial-kompakt va madaniy mohiyati – Zamonaviy strukturaviy va qiyosiy adabiyotshunoslikda tilning nafaqat oddiy mexanik muloqot vositasi, balki milliy xotira, jamoaviy shuur va madaniy o'zlikning asosiy tashuvchisi ekani keng qabul qilingan ilmiy aksiomadir. Erkin Vohidov ham o'zining nazariy tafakkurida aynan shu zamonaviy ilmiy nuqtayi nazardan chiqish qilib, badiiy so'zni xalqning tarixiy tajribasi, ma'naviy qadriyatlar tizimi va milliy-estetik tafakkurini o'zida yashatuvchi jonli, dinamik madaniy hodisa sifatida taqdim etadi. Uning falsafiy yondashuviga ko'ra, har bir so'z uzoq va murakkab tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tib, ko'p bosqichli semantik qatlamlar kasb etadi va bu arxetipik qatlamlar bevosita xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi va ma'naviy tajribasi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Shu bois, har qanday so'zning estetik mohiyatini va poetik matndagi kuchini to'liq anglash uchun uning nafaqat lug'aviy-semantik ma'nosiga, balki mutloq tarzda u tashiyotgan tarixiy-madaniy xotira kodlariga ham alohida diqqat qaratish lozim. Taniqli o'zbek adabiyotshunosi, professor A.Nurmonov o'zining "So'z mulkiga sayr" nomli fundamental tadqiqotida ushbu masalalarga yuqori baho bergan. U "So'z latofati" asarini shunchaki tilshunoslikka oid kitob emas, balki milliy tilga va etnik-madaniy xotiraga bo'lgan cheksiz muhabbatning badiiy-nazariy ifodasi sifatida baholab, shunday yozadi: *"Umuman, mazkur kitob millatimizga, uning tiliga cheksiz muhabbatning ramzidir..."* [2, s.44].

Особое значение имеет интеграция коммуникативного и компетентностного подходов, ориентированных на практическое применение языковых знаний. Использование интерактивных методов обучения, информационно-коммуникационных технологий и самостоятельной работы студентов позволяет создать условия для формирования устойчивых навыков письменной речи. При этом регулярная обратная связь со стороны преподавателя, анализ ошибок и поэтапная коррекция текстов способствуют постепенному совершенствованию письменных умений.

Таким образом, развитие письменной речи студентов на занятиях по русскому языку представляет собой целенаправленный и многоаспектный процесс, требующий комплексного подхода. Эффективная организация учебной деятельности, применение современных методик и создание благоприятной образовательной среды позволяют достичь значительных результатов в формировании грамотной, логичной и стилистически правильной письменной речи. В дальнейшем целесообразно продолжать совершенствование методических подходов, направленных на повышение качества языковой подготовки студентов и их профессиональной компетентности.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Гозиев, Э. Г. (2010). *Общая психология*. Ташкент: O‘qituvchi.
2. Каримова, В. М. (2012). *Педагогика*. Ташкент: Fan va texnologiya.
3. Давлетшин, М. Г. (2008). *Возрастная и педагогическая психология*. Ташкент: O‘qituvchi.
4. Нишонова, З. Т. (2015). *Психология личности*. Ташкент: Издательство ТГПУ.
5. Саидахмедов, Н. (2019). *Педагогическое мастерство и инновационные технологии*. Ташкент: Fan.
6. Юлдашев, Ш. (2021). *Интерактивные методы в образовательном процессе*. Ташкент: Ilm ziyo.

7. Рахимов, А. (2018). *Методика преподавания родного языка*. Ташкент: O‘qituvchi.

8. Умаров, К. (2020). *Методика обучения языку*. Ташкент: Университет.

9. Мирзаева, Н. (2017). *Методика развития письменной речи*. Ташкент: Инновация.

10. Абдурахмонов, А. (2014). *Основы педагогической коммуникации*. Ташкент: Fan.

11. Собиров, Н. (2019). *Культура речи и стилистика*. Ташкент: Tafakkur.

12. Кодирова, Л. (2020). *Современные образовательные технологии*. Ташкент: Barkamol avlod.

13. Турсунова, М. (2018). *Педагогические технологии в обучении*. Ташкент: Университетское издательство.

14. Эргашев, Б. (2016). *Методика преподавания русского языка*. Ташкент: Fan va texnologiya.

15. Хасанов, И. (2022). *Развитие речевой компетенции студентов*. Ташкент: Ilm ziyo.

NOMILLIY GURUH TALABALARINING SO‘Z BOYLIGINI OSHIRISHDA “ SO‘ZLARNING SHAKL VA MA’NO- MUNOSABATIGA KO‘RA TURLARI” MAVZUSINING O‘RNI

B.Tuxtayeva
NDU

Annotatsiya: В данной статье рассматриваются широко используемые средства увеличения словарного запаса учащихся именной группы, виды слов по соотношению формы и значения, их значение в речевом процессе. При изучении типов слов по соотношению формы и значения особое внимание уделялось умениям учащихся увеличивать словарный запас, развивать способности к анализу, понимать богатство языка, развивать способность творчески мыслить.

This article discusses the widely used tools for increasing the vocabulary of students of the nominal group, the types of words according to the relationship of form and meaning, and their importance in the speech process. By studying the types of words according to the relation of form and meaning, special attention was paid to the skills of students to increase their vocabulary, develop the ability to analyze, understand the richness of the language, and develop the ability to think creatively.

Ta’lim sohasi barcha davlatda eng muhim soha sanaladi. Respublikamizda ham bu sohaga doim katta e’tibor berilgan va berilmoqda.

O‘zbek tilining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Davlat tili haqida”gi Qonuni tomonidan belgilangan davlat tili sifatidagi maqomi ona tili ta’limining ijtimoiy vazifalari va rasmiy-idoraviy muloqot yuritishdagi mavqeini yanada kengaytirishning mustahkam asosidir. Ta’lim jarayonida bilimlar, ko‘nikma va malakalarni kimga berish, ya’ni kimlar ta’lim subyektiv ekanligi nihoyatda muhim bo‘lib, til ta’limida tilni ona tili sifatida o‘qitish va chet tili (ikkinchi til) sifatida o‘qitish farqlanadi. Til o‘qitishda ta’lim mazmuniga ham, ta’lim metodlariga ham ta’sir qilmay qolmaydi.

Metodist olima G.Asilova darsligida har bir mavzvu doirasida talabalarning nutqiy mavzu bo‘yicha berilgan matnlarni o‘qish, mazmunini tinglab tushunish, to‘g‘ri yozish, mavzu doirasida gapirish malakalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, oddiydan murakkabga qarab rivojlantirib borilgan topshiriqlar kompleksi taqdim etilganini, shu bilan birga muayyan grammatik ma’lumotlar bo‘yicha ham talabalar ko‘nikma-malakalarini mustahkamlab borishga harakat qilganini ko‘rish mumkin [1. 28-b]

Ma’lumki, har bir tilning davlat miqyosidagi maqomi uning mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘rni, jug‘rofiy-siyosiy holati kabi qator omillardan kelib chiqadi. Respublikamiz ta’lim bosqichlarida o‘zbek tilini o‘qitishni takomillashtirish, buning uchun o‘zbek tili ta’limi mazmunini til ta’limining xalqaro standartlariga muvofiqlashtirish, o‘zbek tilini o‘qitishning ilmiy asoslangan yangi konseptual tamoyillarini belgilash, ta’lim jarayoniga o‘zbek tilini o‘qitishning o‘ziga xos jihatlaridan kelib chiqadigan samarali usullarini tatbiq etish zarur bo‘ladi. ta’lim o‘zga tillarda olib boriladigan maktablar va guruhlarda o‘zbek tilini o‘qitishdan asosiy maqsad o‘quvchilarga o‘zbek tilining izchil grammatikasini o‘rgatish emas, balki ularda o‘zbekcha nutqiy malakalarni shakllantirishdir.

Rusiyzabon talabalarning so‘z boyligini oshirishning amaliy maqsadini ilmiy asosda tuzish o‘zbek tilidagi so‘zlarning qo‘llanilish ko'lamiga ko‘ra fikrlash, tushunib yetish va amaliyotni ilmiy asoslarga bo‘ysundirishni talab etadi. So‘z – nutqning asosi.Talabani ma’nodosh, shakldosh, zid ma’noli, paronim so‘zlar bilan ta’minlashning asosiy mas’uliyati o‘zbek tili mashg`ulotlari zimmasiga tushadi. Shuning uchun so‘z ustida ishlash, talabalarni ularga notanish bo‘lgan so‘zlarolamiga olib kirish, nutq sharoitiga qarab ularni to‘g‘ri va o‘rinli ishlatishni ta’minlash o‘zbek tili mashg‘ulotlarining muhim tarkibiy qismiga va o‘zbek tilidan talaba bilimini baholashning asosiy omillaridan biriga aylanmog‘i lozim.

O‘zga tilli o‘quvchi-talabalarning o‘zbek tilidagi talaffuz ko‘nikmalarining shakllanganlik darajalari va o‘zbekcha nutqni qanchalik darajada tushunishlari baholash me’yorlarida o‘z aksini yetarli topgan deya hisoblab bo‘lmaydi.[2. 14-b]

Talabalarni benuqson gapirishga o‘rgatish va davr talabiga javob beradigan darajaga yetkazish muhim vazifalardan biridir. Talabalarning o‘zbekcha og‘zaki nutqini o‘stirishda ularni to‘g‘ri talaffuzga orgatish muhim.

Nomilliy guruhlarda “Amaliy o‘zbek tili” fani dasturida “So‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari” mavzusi berilgan.Bu mavzuni o‘rgatishda, avvalo, ma’lumot beriladi.

Ma’nodoshlar (синонимы- близкие позначению слова)

quyosh, kun, oftob, shams – солнце

katta, buyuk, ulkan, azim – большой, крупный, великий, огромный

chiroyli, go‘zal, zebo – красивый

Shakldoshlar (омонимы- слова одинаковые по форме)

O‘t – трава	to‘p - пушка	ot – имя
O‘t – огонь	to‘p - кучка	ot- конь
O‘t- переходи	to‘p - мяч	ot – брось, кинь

Zidma’noliso`zlar (антонимы- слова с противоположным значением)

Katta(большой) – kichik(маленький)

Do‘st(друг)- dushman(враг)

Qalin(толстый) – yupqa(тонкий)

Uzun(длинный) – qisqa(короткий)

Paronimlar (паронимы- близкие по форме слова)

Tana - тело	surat - картина	yondosh - рядом
Ta’na - упрёк	sur’at - темп	yondash - относись

Til hodisalarini o‘rganishga so‘z, uning ma’nodoshlari, shakldoshlari, uyadoshlari, har bir so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolari, talaffuzi, imlosi ustida izchillik bilan ishlash, o‘zbek tilidarsligidagi asosiy mashg‘ulotga aylantirish zarur. buning uchun talaba fikrni mustaqil va ijodiy shaklda, yozma va og‘zaki ko‘rinishlarda bayon etish ustida uzluksiz, bosqichma-bosqich shug‘ullanishi kerak.

Albatta, bu ishlarni bajarishda bizga juda zarur va qo‘l keladigan manba – imlo lug‘ati sanaladi. Berilgan misollarni lug‘atdan topib, yozilishiga va talaffuziga e’tibor qaratilsa, talabalarning nutq boyligi ham oshadi va ularni nutq jarayonida qo‘llashga imkon yaratiladi.

O‘zbek tilini o‘qitish metodikasining dolzarb masalalaridan biri – nutqiy materiallar va grammatik bilimlar uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash orqali o‘quv-biluv materiallarini o‘quvchilar ongiga oson va puxta singdirish orqali ularda amaliy nutq ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan mexanizmini ishlab chiqish, nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishning ixcham modellarini yaratishdek dolzarb masalalardandir.

Umuman, o‘zbek tili darslarida talabalarni o‘zbekcha to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish, ularning nutqidagi talaffuz xatolarini bartaraf etish, so‘z urg‘usi ustida ish olib borish, qo‘shimchalar talaffuziga e’tibor berish, ifoda bilan so‘zlashga odatlantirish, nutq madaniyatiga doir ayrim tadbirlarni amalga oshirish asosiy vazifa sanaladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Asilova G.A. O‘zbek tili (oliy ta’lim bakalavriat yo‘nalishi rus guruhi uchun darslik). –T.: Yosh kuch, 2010.

2.Yo‘ldoshev R.A. Ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. –T.: O‘zPFTI, 2015.

3. Muxitdinova X.S., Salisheva Z.I., Po‘latova X.S. O‘zbek tili (oliy o‘quv yurtlari rusiyzabon guruhlari uchun darslik). –T.: O‘qituvchi, 2012.

ТИПЫ ПОЛИСЕМИИ СОМАТИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ: СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АСПЕКТ

Суюнова Дилноза Хамидуллаевна
Самостоятельный соискатель,
Самаркандский государственный университет
имени Шарофа Рашидова

Аннотация: В статье рассматривается многозначность соматических фразеологических единиц узбекского и русского языков. На материале фразеологических словарей выделены три модели фразеологической полисемии: цепочечная, радиальная и смешанная. Показано, что при общих семантических моделях их реализация в каждом языке опирается на национально-специфические образы.

Ключевые слова: соматическая фразеология, полисемия, цепочечная полисемия, радиальная полисемия, смешанная полисемия, сопоставительное изучение, узбекский язык, русский язык.

Введение

Соматические фразеологизмы, то есть устойчивые единицы с компонентом-названием части тела, относятся к древнейшему и наиболее употребительному пласту фразеологии. Через образы головы, глаза, руки, языка, ноги человек осмысляет своё психическое состояние, речь, поступки и отношения с людьми. Высокая частотность таких единиц и их связь с повседневным опытом создают благоприятные условия для развития фразеологической полисемии.

Узбекский (тюркский, агглютинативный) и русский (славянский, флективный) языки различаются генеалогически и типологически, однако в их

соматической фразеологии обнаруживаются общие образные модели: ср. узб. *og‘zi qulog‘ida* и рус. *рот до ушей* «сильная радость». В других случаях одинаковое содержание передаётся разными образами: узб. *og‘zi qattiq* (букв. «рот крепкий») и рус. *держать язык за зубами* «уметь хранить тайну».

Теоретическая основа исследования

Полисемия определяется как наличие у одной единицы нескольких взаимосвязанных значений, развившихся из исходного; это проявление закона языковой экономии. Фразеологическая полисемия имеет свою специфику: значение ФЕ не равно сумме значений компонентов, новые значения возникают в результате расширения образной основы всей единицы, а каждое из них связано с определённым контекстом.

Теоретические основы изучения фразеологической многозначности заложены в трудах В.В. Виноградова, Н.М. Шанского, А.В. Кунина и В.Н. Телия. В.В. Виноградов связывал многозначность ФЕ с контекстуальной подвижностью устойчивых сочетаний [1]. Н.М. Шанский отмечал, что во фразеологии полисемия встречается реже, чем в лексике, но на базе первичного значения могут развиваться производные [5]. А.В. Кунин предложил описывать каждое значение многозначной ФЕ методом компонентного анализа [2], а В.Н. Телия связывала фразеологическую полисемию с системно-семантическими свойствами ФЕ [3].

Материалом послужили фразеологические словари русского языка (под ред. А.И. Молоткова и др.) и «O‘zbek tili frazeologik lug‘ati» [4; 6].

Основная часть

Цепочечная полисемия. Узбекская ФЕ *bosh suqmoq* развивает значения последовательно: 1) «просунув голову, заглянуть» (*derazadan bosh suqib, soatga qaradi*); 2) «зайти куда-либо» (*bir necha idoraga boshini suqib chiqdi*); 3) «вмешиваться в чужие дела» (*shunaqangi ishlarga bosh suqmasa edi*). Модель: *физическое пространство → пространство, занимаемое лицом → чужая сфера деятельности.*

В русском языке *ставить (поставить) на ноги* имеет значения «вылечить» → «вырастить, подготовить к самостоятельной жизни» → «привести в активное действие» → «взбудоражить» [4]. Сходная цепочка у *поднимать руку на кого-либо*: «ударить» → «посягнуть на жизнь» → «выступить против, осуждать» (ср. у Тургенева: *«Как смел я поднимать руку на её идола?»*). Модель: *физическое действие → агрессия → противостояние*.

Радиальная полисемия. Узб. *qo‘ltig‘iga kirmoq* имеет в словаре [6] значения: 1) «поддерживать, помогать» (*Qo‘ltig‘imga kim kiradi?*, А. Каххар); 2) «втереться в доверие» (*kattarog‘ini «aka» de, qo‘ltig‘iga kir*, П. Турсун). Оба значения развились не одно из другого, а из общего образа физической

близости к человеку: в одном случае она осмысляется как опора, в другом — как социальное сближение.

Рус. *длинный язык* имеет значения «болтливость, неумение сдерживаться в разговоре» и предикативное «очень болтлив» (*У меня длинный язык*); оба непосредственно восходят к центру «длинный язык → избыточная речь».

Смешанная полисемия. Узб. *bosh ko‘tarmoq* имеет в центре образ «поднять голову», от которого расходятся направления, продолжающиеся собственными цепочками: «прийти в себя → набраться сил»; «оказать сопротивление → взбунтоваться»; «выпрямиться → держаться свободно».

Сходную структуру имеет рус. *держать голову высоко*: «держаться уверенно → не падать духом»; «держаться с достоинством → проявлять гордость».

Заключение

Анализ показал, что многозначность соматических ФЕ в узбекском и русском языках развивается по трём моделям: цепочечной, радиальной и смешанной. Большинство многозначных соматических фразеологизмов двузначны (80,7%); на проанализированном материале преобладает цепочечный тип, что следует рассматривать как тенденцию выборки.

Общим для обоих языков является направление развития значений: от физического действия к психическому состоянию и далее к социальному действию, что обусловлено универсальным телесным опытом. Вместе с тем один и тот же смысл может выражаться разными соматическими образами, а грамматическое оформление ФЕ определяется строем каждого языка.

Литература

1. Виноградов В.В. Избранные труды. Лексикология и лексикография. — М.: Наука, 1977.

2. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. — М.: Высшая школа, 1996.

3. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. — М.: Языки русской культуры, 1996. — 288 с.

4. Фразеологический словарь русского языка / под ред. А.И. Молоткова. — М.: Советская энциклопедия, 1968.

5. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. — М.: Высшая школа, 1985.

6. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. — 636 b.

NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA SINONIMLARNING QIYOSIY TAHLILI

Turamurodova Sevinch Anvarovna
SamDCHTI Roman-german tillari fakulteti
3-bosqich 2402 guruh talabasi
sevinchturamurodova46@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada nemis va o‘zbek tillaridagi sinonimlarning lingvistik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda sinonimlarning semantik, uslubiy va funksional xususiyatlari, ularning nutq jarayonida qo‘llanish imkoniyatlari hamda shakllanish omillari o‘rganiladi. Nemis va o‘zbek tillaridagi sinonimik qatorlarning o‘xshash va farqli jihatlari misollar asosida tahlil qilinib, ikki tilning leksik-semantik tizimidagi o‘ziga xosliklar aniqlanadi. Shuningdek, sinonimlarning milliy-madaniy xususiyatlari va tarjima jarayonidagi ahamiyatiga e’tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari nemis va o‘zbek tillarini qiyosiy o‘rganish, tarjimashunoslik hamda chet tilini o‘qitish metodikasida foydalanish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: sinonim, sinonimiya, nemis tili, o‘zbek tili, qiyosiy tahlil, leksik-semantik tizim, sinonimik qator, semantika, uslubiy xususiyat, tarjima.

Аннотация: В данной статье проводится сопоставительный анализ синонимов в немецком и узбекском языках. Рассматриваются семантические, стилистические и функциональные особенности синонимов, возможности их употребления в речи, а также факторы их формирования. На основе конкретных языковых примеров выявляются сходства и различия синонимических рядов в немецком и узбекском языках, определяются особенности их лексико-семантических систем. Особое внимание уделяется национально-культурной специфике синонимов и их значению в процессе перевода. Результаты исследования могут быть использованы в сопоставительном языкознании, переводоведении и методике преподавания немецкого языка.

Ключевые слова: синоним, синонимия, немецкий язык, узбекский язык, сопоставительный анализ, лексико-семантическая система, синонимический ряд, семантика, стилистические особенности, перевод.

Abstract: This article presents a comparative analysis of synonyms in the German and Uzbek languages. The study examines the semantic, stylistic, and functional features of synonyms, their use in speech, and the factors contributing to their formation. Based on specific linguistic examples, the similarities and differences between synonymic groups in German and Uzbek are analyzed, and the distinctive features of their lexical-semantic systems are identified. Particular attention is paid to the national and cultural characteristics of synonyms and their

significance in the translation process. The findings of the study can be useful in comparative linguistics, translation studies, and the methodology of teaching German as a foreign language.

Keywords: synonym, synonymy, German language, Uzbek language, comparative analysis, lexical-semantic system, synonymic group, semantics, stylistic features, translation.

Til insonlar o‘rtasidagi muloqotni ta’minlovchi asosiy vosita bo‘lish bilan birga, xalqning tafakkuri, madaniyati va tarixiy tajribasini aks ettiruvchi murakkab ijtimoiy hodisadir. Tilning lug‘aviy tarkibi esa uning mazmuniy va ifodaviy imkoniyatlarini belgilovchi muhim tizimlardan biri hisoblanadi. Leksik birliklarning ma’no jihatdan o‘zaro munosabati, xususan, sinonimiya hodisasi tilning boyligi va rivojlanganlik darajasini namoyon etuvchi muhim omillardan biridir. Sinonimlar bir xil yoki bir-biriga yaqin ma’noni ifodalovchi, biroq shakli, qo‘llanish doirasi, uslubiy bo‘yoqdorligi yoki ma’no nozikliklari bilan farqlanuvchi til birliklaridir.

Sinonimiya masalasi umumiy tilshunoslikda leksik-semantik munosabatlarning muhim ko‘rinishlaridan biri sifatida o‘rganib kelinadi. Nemis tilining izohli va sinonimik lug‘atlarida ham sinonimlar ma’nosi bir xil yoki yaqin bo‘lgan so‘z va so‘z birikmalari sifatida tavsiflanadi. Shu bilan birga, mutlaq sinonimiya kam uchrashi, sinonim birliklar ko‘pincha ma’no, uslub yoki qo‘llanish jihatidan muayyan farqlarga ega bo‘lishi ta’kidlanadi [1]. Masalan, nemis tilidagi sinonimlar bir-biridan adabiy, so‘zlashuv, shevaga xos, kasbiy yoki tarixiy qo‘llanishiga ko‘ra farqlanishi mumkin. Duden sinonimlar lug‘atida sinonimlar aynan shu ma’no va uslubiy farqlar asosida guruhlanishi ko‘rsatilgan [1; 2].

O‘zbek tilshunosligida ham sinonimiya hodisasini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilgan. A. Hojiyevning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” o‘zbek tilidagi ma’nodosh so‘zlarni tizimli ravishda yorituvchi muhim manbalardan biridir. Mazkur lug‘atda hozirgi o‘zbek adabiy tiliga xos sinonimik qatorlar, jumladan, leksik va grammatik sinonimlar berilgan hamda birliklar sinonimik qatordagi bosh so‘z asosida tartiblangan [3].

Sh. Rahmatullayevning sinonimiya va leksik ma’no masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlari ham o‘zbek tilidagi sinonimik munosabatlarni semik jihatdan tahlil qilish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Olim “Semik tahlil va leksik sinonimiyani ta’riflash masalasi” nomli maqolasida sinonimlarni semantik tarkibiy qismlar asosida o‘rganish masalasiga e’tibor qaratgan [4].

Nemis va o‘zbek tillari genetik va tipologik jihatdan bir-biridan farq qiluvchi tillar hisoblanadi. Nemis tili hind-yevropa tillari oilasining german tillari guruhiga, o‘zbek tili esa turkiy tillar oilasiga mansub. Shu sababli mazkur ikki tildagi sinonimik munosabatlarni qiyoslash turli til tizimlarida ma’no yaqinligi qanday ifodalanishini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, sinonimlarning semantik tarkibi,

uslubiy bo‘yoqdorligi, qo‘llanish doirasi va kontekstual xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish ikki tilning leksik-semantik tizimidagi umumiy va o‘ziga xos jihatlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, nemis va o‘zbek tillaridagi sinonimlarni qiyosiy o‘rganish nafaqat nazariy tilshunoslik, balki tarjimashunoslik va nemis tilini chet tili sifatida o‘qitish jarayoni uchun ham muhimdir. Chunki bir tildagi sinonimik birlikning ikkinchi tildagi muqobilini tanlashda uning lug‘aviy ma’nosi bilan bir qatorda uslubiy xususiyati, kontekstda qo‘llanishi va ma’no nozikliklarini ham hisobga olish talab etiladi. Duden manbalarida ham sinonimlarni tanlashda kontekst va uslubiy xususiyatlarning muhimligi ko‘rsatiladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi nemis va o‘zbek tillaridagi sinonimlarning semantik, uslubiy va funksional xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish, ikki tildagi sinonimik qatorlarning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot doirasida sinonimlarning shakllanishi, ma’no munosabatlari, uslubiy bo‘yoqdorligi hamda nutq jarayonidagi qo‘llanish xususiyatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Ushbu yondashuv nemis va o‘zbek tillarining leksik-semantik tizimlarini chuqurroq anglash hamda tillararo tarjima jarayonida sinonimlardan to‘g‘ri foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dudenredaktion. *Duden – Das Synonymwörterbuch*. 8. Auflage. Berlin: Dudenverlag, 2024.
2. Duden. *Synonyme / Synonymie*. Duden Online.
3. Hojiyev, A. *O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati*. Toshkent: O‘qituvchi, 1974.
4. Rahmatullayev, Sh. “Semik tahlil va leksik sinonimiyani ta’riflash masalasi.” *O‘zbek tili va adabiyoti*, 1979, №5.
5. Ne’matov, H., Rasulov, R. *O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari*. Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
6. Yo‘ldoshev, M. *O‘zbek tili leksikologiyasi*. Toshkent: O‘zbekiston, 2004.
7. Turamurodova, S. A. *Tarjimashunoslikda nemis tilining leksik-semantik xususiyatlari va ularning tarjimadagi ifodasi* // Лучшие интеллектуальные исследования. – 2026.
8. Turamurodova, S. A. *Nemis tili grammatikasini o‘rganishda tarjima lug‘atlaridan samarali foydalanish* // Science Shine International Scientific Journal. – Issue 24(59), Vol. 1. – Farg‘ona, 2025. – B. 161–165.
9. Turamurodova, S. A. *Nemis tili frazeologizmlarining qo‘llanilish xususiyatlari va tarjima masalalari* // “Ilm-fan va ta’lim taraqqiyoti – talaba yoshlar

nigohida” mavzusidagi ilmiy-amaliy talabalar anjumani materiallari. – Samarqand, 2025. – B. 357–360.

10. Turamurodova, S. A., Sattorov, U. *Nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjimada yuzaga keladigan lingvistik va kommunikativ qiyinchiliklar* // Maktabgacha va maktab ta’limi. – 2026. – T. 4, № 2. – DOI: 10.5281/zenodo.18798020.

11. Azizova, Z. A., Turamurodova, S. A. *Changes of Agreements in German and Uzbekistan and Their Use in Textual Structure* // Образование, наука и инновационные идеи в мире. – 2025. – Vol. 61, № 3. – B. 17–21.

SHARQDA MATNSHUNOSLIKDA MA’NAVIY MANBALARNING O‘RGANILISHI

Feruza Quldosheva
SamDU Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada Sharqda matnshunoslikning o‘ziga xos o‘rganilishi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, matnshunoslik sohasida ma’naviy manbalarning muhim o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: matnshunoslik, manbashunoslik, manba, tarix, Sharq, kitob, xalqlar.

Аннотация: В статье рассматривается уникальное изучение текстологии на Востоке. Также анализируется важная роль духовных источников в области текстологии.

Ключевые слова: текстология, источниковедение, источник, история, Восток, книга, народы.

Abstract: The article examines the unique study of textual criticism in the East. The important role of spiritual sources in the field of textual criticism is also analyzed.

Keywords: textual studies, source studies, source, history, East, book, peoples.

Sharq xalqlari tarixida yozma manbalar, xususan, diniy-falsafiy, axloqiy-didaktik, tasavvufiy va adabiy asarlar alohida ma’naviy va ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ko‘p asrlar davomida Sharq olimlari, mutafakkirlari va kotiblari tomonidan yaratilgan qo‘lyozmalar xalqning dunyoqarashi, e’tiqodi, axloqiy qarashlari, ilmiy tafakkuri va estetik didini o‘zida mujassam etgan. Mazkur manbalarni saqlash, ko‘chirish, sharhlash va keyingi avlodlarga yetkazish jarayoni Sharq matnshunoslik an’analarining shakllanishida muhim omil bo‘lgan. “Tarixiy rekonstruksiya (inglizcha “reenactment”) - bu odamlar rejaga muvofiq tarixiy voqea yoki davrning

individual tomonlarini qayta tiklaydigan ta’lim yoki ko‘ngilochar faoliyatdir. Tarixiy rekonstruksiya, shuningdek, arxeologik, vizual va yozma manbalardan foydalangan holda ma’lum bir tarixiy davr va mintaqaning moddiy va ma’naviy madaniyatini qayta tiklash, deb ta’riflanadi” [2. 6]. Shu jihatdan, Sharqda matnshunoslik nafaqat matnni ko‘chirish yoki nashrga tayyorlash, balki ma’naviy merosni anglash va asrash vositasi sifatida ham rivojlangan. Sharqdagi matnshunoslik an’analarining ildizlari qadimgi yozma madaniyatga borib taqaladi. Islom madaniyati shakllanganidan keyingi davrda esa, yozma manbalarni aniq saqlash va yetkazish masalasiga alohida e’tibor berilgan.

“Tarixiy manba va adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish: Tarix fan sifatida qachon va qanday paydo bo‘lgan? - degan savolga javob topish tarixiy manba va adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilishdir. Bu savolga javob berish uchun qadimgi davr tarixnavisligiga (manbalarga) murojaat qilamiz. Tarixiy manba deganda nimani tushunamiz? Tarixiy manba deganda uzoq o‘tmishda qolgan, tabiat va jamiyatning ma’lum bosqichdagi kechmishini o‘zida aks ettirgan moddiy va ma’naviy yodgorliklarni tushunamiz. Moddiy yodgorliklarga - qadimiy obidalar, manzilgohlari va mozorlar, shaharlar, qasrlar va qal’alar xarobalari, uy-ro‘zg‘or buyumlari va boshqalar kiradi. Ma’naviy yodgorliklar deganda qadimgi yozuvlar, xalq og‘zaki ijodi namunalari, afsonalar, yozma yodgorliklar-bitik, qo‘lyozma kitob, hujjatlar va arxiv materiallari tushuniladi. Umuman, tarixiy manba inson ijtimoiy faoliyati natijasida paydo bo‘lgan va uning xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan moddiy va ma’naviy yodgorliklardan iboratdir” [3. 7].

Sharq qo‘lyozmachilik madaniyatida matnni ko‘chirish bilan shug‘ullanuvchi kotiblarning faoliyati ham alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Kotib nafaqat mavjud matnni boshqa nusxaga ko‘chirgan, balki ayrim hollarda unga izoh, sharh, lug‘aviy tushuntirish va tuzatishlar ham kiritgan. Shu sababli, bir asarning turli davrlarda yaratilgan qo‘lyozma nusxalari o‘rtasida farqlar yuzaga kelgan. Bugungi matnshunoslik uchun ana shu nusxalarni o‘zaro qiyoslash, matndagi o‘zgarishlarning sabablarini aniqlash va dastlabki matnga imkon qadar yaqin variantni tiklash muhim vazifa hisoblanadi.

Turkiy xalqlar, jumladan, Movarounnahr va Xuroson hududlarida yaratilgan yozma yodgorliklar Sharq matnshunosligining muhim qismini tashkil etadi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Husayn Voiz Koshifiy va boshqa ko‘plab ijodkorlarning asarlari turli qo‘lyozma fondlarida saqlanib kelmoqda. Ushbu asarlarning qo‘lyozma nusxalari o‘rtasidagi tafovutlarni o‘rganish orqali nafaqat matnning ishonchli variantini tiklash, balki, uning tarqalish geografiyasi, kitobat tarixi va o‘quvchilar orasidagi ta’sir doirasini ham aniqlash mumkin. “Turkiy xalqlarning ilm-fan, madaniyat va san’at sohalarida jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissalari Amir Temur asos solgan temuriylar davlati bilan

bevosita bog‘liq [4. 253]. Qolaversa, Alisher Navoiy merosini o‘rganish Sharq matnshunosligining alohida yo‘nalishlaridan biridir. Navoiy asarlarining turli davrlarda ko‘chirilgan ko‘plab qo‘lyozma nusxalari mavjud bo‘lib, ularni qiyosiy o‘rganish asarlarning ilmiy-tanqidiy matnlarini tayyorlash uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Sharhlar ko‘pincha asarning mazmunini tushuntirish bilan birga, uning til xususiyatlari, tarixiy sharoiti va g‘oyaviy mazmunini anglashga yordam beradi. Biroq, matnshunos uchun sharh bilan muallif matnini farqlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, keyingi davr izohlari ayrim hollarda qo‘lyozma tarkibiga singib ketishi mumkin.

“Buyuk Turon tuprog‘i jahon sivilizatsiyasi rivojlangan qadimiy o‘choqlardan biri bo‘lganligi tufayli ham bu yerda necha bor renessens-uyg‘onish jarayoni yuz berdi. Ammo, Mustaqillik davrigacha Turon tuprog‘ida rivojlangan madaniy va ilmiy jarayonlarni o‘rgangan g‘arb olimlari bu yuksak sivilizatsiyasining ildizlaridan bexabarligi uchun Turon sivilizatsiyasini Eron madaniyatining bir bo‘lagi deb, tahlil qilishar edi. Turonlik allomalarni, arab yoki fors allomalari, deb hisoblar edilar. Bu hol Turon tuprog‘ida saqlanib qolgan boy arxeologik yodgorliklarning va jahonning mashhur kutubxonalaridagi noyob qo‘lyozmalarining kam o‘rganilganligi tufayli yuz bergan edi. Bugungi kunga kelib, ahvol tubdan o‘zgardi. Endi shuni qat’iy ayta olamizki, Turonning yuksak sivilizatsiyasi ildizlari hech bir chekka o‘lkaga borib taqalmaydi, uning ildizlari shu yerdan o‘sib chiqqandir. Aksincha, Turon sivilizatsiyasining shu’lasi ko‘pgina sharq mamlakatlarida ham madaniyat, san’at va tarixshunoslik kabi, barcha fan tarmoqlarining rivojlanishiga turtki bo‘lgandi” [4. 257]. “Albatta tarix ilmining rivojini boshqa ilm-fanlar taraqqiyotisiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Bu davrda Movarounnahrda musavvirlik, xattotlik, musiqa san’ati, fiqh hamda ko‘pgina aniq fanlar: tibbiyot, mantiq, handasa (geometriya) va ilmi hay’at (astronomiya) sohalarida ham anchagina yutuqlar qo‘lga kiritildi” [4. 270].

Xulosa qilib aytganda, Sharqda matnshunoslikning shakllanishi va rivojlanishida ma’naviy manbalarni saqlash, ko‘paytirish, tekshirish, sharhlash va avloddan avlodga yetkazish an’analari muhim o‘rin egallagan. Diniy, falsafiy, tasavvufiy, tarixiy va adabiy manbalar ustida olib borilgan tadqiqotlar matnni tanqidiy o‘rganishning muhim tamoyillarini shakllantirgan. Bugungi matnshunoslik ushbu boy an’analarni zamonaviy ilmiy metodlar va raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirgan holda davom ettirmoqda. Natijada, Sharqning ko‘p asrlik ma’naviy merosini ilmiy jihatdan tiklash, saqlash va kelajak avlodlarga ishonchli yetkazish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.Ҳабибуллаев. Адабий манбашунослик ва матншунослик. Қўлланма. Т., 2000.
2. Ergashev B.E. Tarixiy rekonstruksiya masalalari // Darslik. – Samarqand:

SamDU nashriyoti, 2025. – 178 bet.

3. Ergashev B.E. Tarixshunoslik. O‘quv qo‘llanma. Samarqand – 2020. 220 bet.
4. Ergashev B. Manbashunoslik va tarixshunoslik. Darslik. – Samarqand: SamDU nashri, 2021. – 404 bet.

O‘ZBEK TILIDA MODAL SO‘ZLARNING DIALOGIK NUTQNI SHAKLLANTIRISHDAGI PRAGMATIK FUNKSIYALARI

Norova Shaxnoza Jamshidovna

O’zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Mustaqil Tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur tezisda o‘zbek tilidagi modal so‘zlarning dialogik nutq jarayonida bajaradigan pragmatik vazifalari tahlil qilinadi. Modal birliklar so‘zlovchining voqelikka, suhbatdosh fikriga va kommunikativ vaziyatga bo‘lgan munosabatini ifodalash bilan birga, dialogning mazmuniy, mantiqiy va emotsional yo‘nalishini belgilashda ham muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda **albatta, ehtimol, chamasi, shekilli, balki, afsuski, tabiiy, shubhasiz** kabi modal birliklarning tasdiqlash, taxmin, gumon, ishonch, emotsional munosabat bildirish, suhbatdosh fikrini qo‘llab-quvvatlash yoki unga nisbatan ehtiyotkor munosabatni ifodalash kabi pragmatik imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: modal so‘z, modal birlik, dialogik nutq, pragmatika, kommunikativ vazifa, so‘zlovchi munosabati, kontekst, nutq vaziyati.

Аннотация: В тезисе анализируются прагматические функции модальных слов узбекского языка в диалогической речи. Модальные единицы не только выражают отношение говорящего к действительности и высказыванию собеседника, но и участвуют в формировании смысловой, логической и эмоциональной направленности диалога. Рассматриваются такие модальные единицы, как albatta, ehtimol, chamasi, shekilli, balki, afsuski, tabiiy, shubhasiz, реализующие функции подтверждения, предположения, сомнения, уверенности, эмоциональной оценки, поддержки или осторожного отношения к мнению собеседника.

Ключевые слова: модальное слово, модальная единица, диалогическая речь, прагматика, коммуникативная функция, отношение говорящего, контекст, речевая ситуация.

Abstract:This thesis examines the pragmatic functions of modal words in Uzbek dialogic speech. Modal units not only express the speaker's attitude towards reality and the interlocutor's statement but also contribute to the semantic, logical, and emotional organization of dialogue. The study focuses on modal expressions such as albatta, ehtimol, chamasi, shekilli, balki, afsuski, tabiiy, shubhasiz, which perform functions including confirmation, supposition, doubt, certainty, emotional evaluation, support, and cautious response to the interlocutor's opinion.

Keywords: modal word, modal unit, dialogic speech, pragmatics, communicative function, speaker's attitude, context, communicative situation.

Kirish. Tilning kommunikativ imkoniyatlari faqat muayyan axborotni yetkazish bilangina cheklanmaydi. Nutq jarayonida so‘zlovchi o‘z fikriga bo‘lgan munosabatini, aytilayotgan xabarning qanchalik ishonchli yoki taxminiy ekanini, suhbatdoshining fikrini ma’qullashi yoki unga shubha bilan qarashini, shuningdek, muayyan voqeaga nisbatan ijobiy yoki salbiy emotsional munosabatini ham ifodalaydi. Bunday ma’nolarning yuzaga chiqishida modal birliklar alohida ahamiyat kasb etadi. Modal so‘zlar gapning asosiy mazmuniga qo‘shimcha ravishda so‘zlovchining voqelikka va bayon qilinayotgan fikrga munosabatini bildiradi. Biroq ularning kommunikativ imkoniyatlari faqat **ishonch, gumon, taxmin, shubha yoki tasdiq** kabi modal ma’nolarni ifodalash bilangina chegaralanmaydi. Ayniqsa, dialogik nutqda modal so‘zlar suhbatdoshlar o‘rtasidagi kommunikativ munosabatni tartibga solish, javobning mazmuniy yo‘nalishini belgilash, fikrni kuchaytirish yoki yumshatish, suhbatdoshning pozitsiyasini qo‘llab-quvvatlash va nutqning emotsional ta’sirchanligini oshirish kabi vazifalarni ham bajaradi. Shu jihatdan modal so‘zlarni faqat grammatik yoki leksik hodisa sifatida emas, balki **pragmatik birlik** sifatida o‘rganish, ularning real nutqdagi funksional imkoniyatlarini aniqlash muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Dialogik nutqda modal so‘zlarning pragmatik xususiyatlari, avvalo, ularning so‘zlovchining kommunikativ maqsadini ifodalashida ko‘rinadi. Bir modal birlik turli nutqiy vaziyatlarda turlicha kommunikativ yuklama olishi mumkin. Masalan, **albatta** modal so‘zi odatda qat’iy ishonch va tasdiq ma’nosini ifodalasa-da, dialog tarkibida u suhbatdoshni ishontirish, uning savoliga qat’iy javob berish yoki bildirilgan fikrni kuchaytirish vazifasini ham bajaradi: — *Ertaga majlisga kelasizmi? — Albatta, kelaman.* Ushbu dialogda *albatta* so‘zlovchining yuqori darajadagi ishonchini bildirishi bilan birga, javobning qat’iyligini kuchaytiradi va suhbatdoshda shubha qolmasligini ta’minlaydi. Demak, modal birlikning pragmatik funksiyasi uning lug‘aviy ma’nosidan kengroq bo‘lib, u

muloqot ishtirokchilarining o‘zaro munosabatini ham tartibga soladi. Xuddi shuningdek, **ehtimol, balki, chamasi, shekilli** kabi birliklar taxmin va noaniqlikni ifodalash orqali so‘zlovchining o‘z fikriga nisbatan ehtiyotkor pozitsiyasini ko‘rsatadi: — *U bugun keladimi? — Ehtimol, kelar.* Bu o‘rinda *ehtimol* so‘zlovchining ma’lumotga to‘liq ishonch bilan ega emasligini anglatadi, shu bilan birga, uning fikrini qat’iy hukm sifatida emas, taxmin sifatida taqdim etishiga imkon beradi. Natijada modal birlik so‘zlovchining kommunikativ mas’uliyat darajasini belgilovchi vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Modal so‘zlarning dialogik nutqdagi yana bir muhim pragmatik xususiyati ularning **suhbatdosh fikriga munosabat bildirish** imkoniyatidir. Muloqot jarayonida suhbatdosh tomonidan bildirilgan fikrni to‘liq qabul qilish, unga qo‘shilish, shubha bilan qarash yoki uni ehtiyotkorlik bilan rad etish zarurati tug‘iladi. Bunday vaziyatlarda modal birliklar fikrlar o‘rtasidagi munosabatni aniq ko‘rsatishga xizmat qiladi. Masalan: — *Menimcha, bu ishni bugun tugatamiz.* — *Balki, siz haqdirsiz.* Ushbu misolda *balki* so‘zi suhbatdoshning fikrini to‘liq va qat’iy tarzda tasdiqlamaydi, biroq uni rad ham etmaydi. Natijada suhbatdosh fikriga nisbatan ehtiyotkor, neytral munosabat yuzaga keladi. Bunday qo‘llanish muloqotdagi keskinlikni kamaytirib, suhbatning davomiyligini ta’minlaydi. **Tabiiy, shubhasiz, albatta** kabi birliklar esa aksincha, suhbatdosh fikrini qo‘llab-quvvatlash, ma’qullash va tasdiqlashga xizmat qiladi. Shu sababli modal birliklar dialogik nutqning interaktiv tabiatini ta’minlovchi, suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabatni ifodalovchi va kommunikativ aloqani boshqaruvchi vositalardan biri sifatida qaralishi mumkin.

Modal birliklarning pragmatik imkoniyatlari ularning **emotsional-baholovchi funksiyasi** orqali ham namoyon bo‘ladi. Xususan, **afsuski, xayriyatki, baxtimizga** kabi birliklar voqea-hodisa haqida oddiy axborot berish bilan cheklanmay, unga nisbatan so‘zlovchining hissiy munosabatini ham ifodalaydi. Masalan, — *Afsuski, u bugun yig‘ilishga kela olmadi* gapida *afsuski* modal birligi voqeaning faktik mazmunini o‘zgartirmaydi, ammo so‘zlovchining ushbu voqeaga nisbatan salbiy emotsional munosabatini yuzaga chiqaradi. Shunday qilib, oddiy xabar so‘zlovchining subyektiv bahosi bilan boyiydi. Bu jihatdan modal so‘zlar **propozitsional mazmun va so‘zlovchining subyektiv munosabati o‘rtasidagi bog‘lovchi vosita** vazifasini bajaradi. Ularning qo‘llanishi natijasida nutq nafaqat axborot yetkazuvchi, balki baholovchi va emotsional xarakterga ham ega bo‘ladi. Ayniqsa, badiiy dialoglarda bunday modal birliklar qahramonning ichki holatini, uning voqeaga munosabatini va suhbatdoshga bo‘lgan munosabatini ochib berishda katta imkoniyat yaratadi.

Modal so‘zlarning pragmatik mazmunini aniqlashda **kontekst va nutq vaziyati** alohida ahamiyatga ega. Bir modal birlik turli kommunikativ sharoitlarda

turlicha ma’no va ta’sir kuchiga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, *shekilli* birligi bir vaziyatda oddiy taxminni bildirsa, boshqa vaziyatda so‘zlovchining shubhasi, ehtiyotkorligi yoki aniq ma’lumotga ega emasligini ko‘rsatishi mumkin. Demak, modal birlikning pragmatik qiymatini faqat lug‘aviy izoh orqali aniqlash yetarli emas. Uning real kommunikativ mazmuni so‘zlovchining maqsadi, suhbatdoshning mavqei, nutq vaziyati, kontekst, intonatsiya va muloqotning umumiy yo‘nalishi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan modal so‘zlar **semantik, sintaktik va pragmatik omillarning o‘zaro ta’siri** natijasida shakllanadigan murakkab lingvistik birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, dialogik nutqda ularning ma’nosi suhbatning oldingi va keyingi replikalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, modal birlikni kontekstdan ajratgan holda tahlil qilish uning kommunikativ funksiyasini to‘liq ochib berishga imkon bermaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilidagi modal so‘zlar dialogik nutqning mazmuniy va kommunikativ tashkilida muhim o‘rin tutadi. Ular so‘zlovchining voqelikka va bayon qilinayotgan fikrga munosabatini ifodalash bilan birga, axborotning ishonchlilik darajasini belgilaydi, taxmin va gumonni ifodalaydi, suhbatdosh fikrini ma’qullash yoki unga ehtiyotkor munosabat bildirish imkonini beradi, shuningdek, nutqqa emotsional-baholovchi mazmun yuklaydi. Modal birliklarning bunday ko‘p qirrali funksiyasi ularni faqat grammatik hodisa sifatida emas, balki kommunikativ-pragmatik birlik sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, dialogik nutqda modal so‘zlarning funksional imkoniyatlari kontekst, intonatsiya, nutq vaziyati va suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabat bilan bevosita bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun modal birliklarni pragmatik nuqtayi nazardan tadqiq etish o‘zbek tilida so‘zlovchi pozitsiyasining, kommunikativ strategiyalarning hamda dialogik munosabatlarning lingvistik ifodalanish mexanizmlarini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳожиев А. **Ўзбек тилида модал сўзлар.** – Тошкент: Фан, 1977.
2. Ҳожиев А. **Ўзбек тили грамматик терминларининг изоҳли луғати.** – Тошкент: Ўқитувчи, 1985.
3. Сафаров Ш. **Прагмалингвистика.** – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
4. **Ўзбек тили грамматикаси. II том. Морфология.** – Тошкент: Фан, 1976.
5. Leech, G. N. **Principles of Pragmatics.** – London: Longman, 1983.
6. Yule, G. **Pragmatics.** – Oxford: Oxford University Press, 1996.

IV- SHO‘BA: DAVLAT TILI – BARQAROR IQTISODIY YUKSALISH OMILI.

OLIY TA’LIM TIZIMIDA DAVLAT TILIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Lola Xalikova Nazarovna
Samarqand iqtisodiyot va servis institute
Iqtisodiy fanlari doktori, professor
Ashurova Jasmina Jo‘ra qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Iqtisodiyot fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezisda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida davlat tilidan foydalanish samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Davlat tilining ta’lim jarayoni, ilmiy faoliyat, rasmiy ish yuritish, kasbiy muloqot hamda raqamli ta’lim muhitidagi o‘rni yoritiladi. Oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tilining ilm-fan va kasbiy kommunikatsiya tili sifatidagi imkoniyatlaridan samarali foydalanishga to‘sqinlik qilayotgan ayrim terminologik, metodik va tashkiliy muammolar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy ilmiy terminologiyani rivojlantirish, o‘zbek tilidagi sifatli o‘quv-uslubiy resurslar hajmini oshirish, professor-o‘qituvchilar va talabalarning nutqiy hamda kasbiy til kompetensiyasini takomillashtirish, elektron ta’lim platformalarida davlat tilining qo‘llanish doirasini kengaytirish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi. Davlat tilining oliy ta’limdagi mavqeini mustahkamlash nafaqat lingvistik, balki ilmiy, ma’naviy va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: davlat tili, oliy ta’lim, o‘zbek tili, ilmiy terminologiya, nutq madaniyati, raqamli ta’lim, ilm-fan tili, kasbiy kommunikatsiya.

Kirish

Davlat tili har qanday mamlakatning milliy davlatchiligi, ma’naviy qadriyatlari va ijtimoiy taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biridir. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi mamlakat tarixida milliy o‘zlikni anglash va tilning ijtimoiy mavqeini mustahkamlash yo‘lidagi muhim siyosiy va ma’naviy hodisa bo‘ldi. Bugungi kunda davlat tilining jamiyat hayotidagi o‘rni yanada kengayib, uning davlat boshqaruvi, ta’lim, fan, iqtisodiyot, madaniyat va axborot-kommunikatsiya sohalarida to‘laqonli qo‘llanishini ta’minlash dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Oliy ta’lim tizimi davlat tilining rivojlanishi va ilmiy salohiyatining oshishida alohida o‘rin tutadi [1]. Chunki aynan oliy ta’lim muassasalarida yangi avlod mutaxassislari, ilmiy tadqiqotchilar, pedagoglar va boshqaruv kadrlari shakllanadi. Ularning davlat tilida erkin, aniq va ilmiy asoslangan tarzda fikr bildira olishi kelgusida jamiyatning barcha sohalarida til madaniyatining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, globallashuv, raqamlashtirish va xalqaro ilmiy integratsiya sharoitida ingliz, rus va boshqa xorijiy tillardan foydalanishning kengayishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Biroq bu holat davlat tilining ilmiy va kasbiy sohalardagi imkoniyatlarini cheklamasligi lozim [2], [3]. Aksincha, ko‘p tillilik sharoitida o‘zbek tilining zamonaviy ilmiy terminologiyasini rivojlantirish, ilmiy matn yaratish salohiyatini oshirish hamda ta’lim va tadqiqot faoliyatida uning faol qo‘llanishiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tezisning asosiy maqsadi oliy ta’lim tizimida davlat tilidan foydalanish samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish hamda bu boradagi mavjud muammolarni bartaraf etishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashdan iborat [4].

Asosiy qism

Oliy ta’lim tizimida davlat tilidan foydalanish bir necha asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, o‘quv jarayonida ma’ruza, seminar, amaliy mashg‘ulotlar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, darsliklar va elektron resurslar orqali davlat tilidan foydalaniladi. Ikkinchidan, ilmiy faoliyatda maqolalar, tezislar, monografiyalar, dissertatsiyalar va ilmiy konferensiya materiallari davlat tilining ilm-fan tili sifatidagi imkoniyatlarini namoyon qiladi. Uchinchidan, oliy ta’lim muassasalarida buyruqlar, bayonnomalar, xizmat xatlari, hisobotlar va boshqa rasmiy hujjatlarni yuritishda davlat tilining adabiy me’yorlariga rioya etish muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida davlat tilidan foydalanish samaradorligini oshirishga to‘sqinlik qilayotgan asosiy muammolardan biri zamonaviy ilmiy terminologiyaning yetarlicha birxillashtirilmaganidir [5]. Ayniqsa, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, muhandislik, tibbiyot, moliya, sun’iy intellekt va boshqa tez rivojlanayotgan sohalarda yangi tushuncha va atamalar muntazam paydo bo‘lmoqda. Ularning ayrimlari o‘zbek tilida turlicha shakllarda qo‘llanadi. Natijada bir xil ilmiy tushuncha turli darslik, maqola yoki ta’lim resursida turlicha ifodalanishi mumkin.

Bu holat ilmiy kommunikatsiyada chalkashliklarga olib keladi. Shuning uchun zamonaviy sohalar bo‘yicha o‘zbekcha terminologik bazalarni muntazam yangilab borish, fan yo‘nalishlari kesimida elektron terminologik lug‘atlar yaratish va ularni oliy ta’lim jarayoniga integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Terminlarning umumiy standartga keltirilishi o‘zbek tilining ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi muhim masala — davlat tilidagi sifatli o‘quv va ilmiy adabiyotlar bazasini kengaytirishdir. Xorijiy tillarda chop etilayotgan yangi avlod darsliklari va ilmiy adabiyotlarning hajmi juda katta. O‘zbek tilida ham zamonaviy mazmundagi darslik, o‘quv qo‘llanma, elektron kurs, videoma’ruza va ilmiy-uslubiy materiallarni ko‘paytirish zarur. Bunda xorijiy manbalarni oddiy tarjima qilish bilangina cheklanib qolmasdan, mahalliy ilmiy maktablar, milliy tajriba va O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan original o‘quv kontentini yaratish muhimdir [6].

Davlat tilidan foydalanish samaradorligining yana bir ko‘rsatkichi professor-o‘qituvchilarning kasbiy nutq madaniyatidir. O‘qituvchining nutqi talaba uchun nafaqat axborot manbai, balki til madaniyati namunasi hamdir. Ma’ruza jarayonida ilmiy tushunchalarni sodda, aniq va mantiqiy ifodalash, o‘zbek adabiy tili me’yorlariga rioya qilish hamda xorijiy terminlardan o‘rinli foydalanish ta’lim sifatiga bevosita ta’sir qiladi.

Shu bois oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilar uchun “Kasbiy nutq madaniyati”, “Ilmiy matn yaratish”, “Davlat tilida rasmiy ish yuritish” kabi qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday treninglar ayniqsa nofilologik yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan pedagoglar uchun muhimdir.

Talabalarning davlat tilidagi ilmiy yozuv kompetensiyasini rivojlantirish ham alohida e’tibor talab qiladi. Talaba referat, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi yoki ilmiy maqola tayyorlash jarayonida fikrni ilmiy uslubda bayon qila olishi, tushunchalarni to‘g‘ri qo‘llashi va matnning mantiqiy yaxlitligini ta’minlashi zarur. Buning uchun oliy ta’lim dasturlarida akademik yozuv va ilmiy nutq madaniyatiga oid maxsus mashg‘ulotlarni kengaytirish foydali bo‘ladi.

Raqamli transformatsiya sharoitida davlat tilidan foydalanish masalasi yangi mazmun kasb etmoqda. Bugungi talaba va pedagog nafaqat bosma darslik, balki LMS platformalari, elektron kutubxonalar, sun’iy intellekt tizimlari, mobil ilovalar, onlayn kurslar va boshqa raqamli vositalardan muntazam foydalanadi. Shu sababli davlat tilining raqamli makonda mavjudligi uning real hayotdagi mavqeidan kam bo‘lmagan darajada muhimdir [7].

Universitetlarning rasmiy veb-saytlari, elektron ta’lim platformalari, talabalar axborot tizimlari va mobil ilovalarida o‘zbek tilidagi interfeys hamda kontent sifatini yaxshilash zarur. Shuningdek, avtomatik imlo tekshiruvi, nutqni matnga aylantirish, avtomatik tarjima va matn tahlili kabi sun’iy intellektga asoslangan texnologiyalarning o‘zbek tilidagi imkoniyatlarini kengaytirish davlat tilini zamonaviy ilmiy va raqamli muhitga integratsiya qilishga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim muassasalarida davlat tilidan foydalanish samaradorligini muntazam baholash ham muhimdir. Buning uchun universitet miqyosida bir qator ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin. Jumladan:

- o‘zbek tilida olib boriladigan fanlar ulushi;
- davlat tilidagi darslik va elektron resurslar miqdori;
- o‘zbek tilida tayyorlanayotgan ilmiy maqola va konferensiya materiallari soni;
- rasmiy hujjatlarda adabiy til me’yorlariga rioya etilish darajasi;
- universitetning raqamli platformalarida davlat tilining qo‘llanish darajasi;
- talabalar va professor-o‘qituvchilarning davlat tilidagi kasbiy kommunikativ kompetensiyasi.

Mazkur ko‘rsatkichlar asosida har bir oliy ta’lim muassasasida davlat tilidan foydalanish holatini monitoring qilib borish mumkin. Monitoring natijalariga ko‘ra aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim [8].

Bundan tashqari, davlat tilini rivojlantirish boshqa tillarning imkoniyatlarini cheklash sifatida qaralmasligi kerak. Zamonaviy oliy ta’lim tizimi ko‘p tillilik va xalqaro hamkorlik tamoyillariga asoslanadi. Talabalarning xorijiy tillarni bilishi ilmiy axborotlardan foydalanish, xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish va jahon ta’lim makoniga integratsiyalashish uchun zarur. Biroq xorijiy tillarni egallash bilan bir qatorda, o‘z mutaxassisligi doirasida davlat tilida mukammal ilmiy va kasbiy muloqot olib bora olish ham zamonaviy mutaxassisning muhim kompetensiyasi bo‘lishi kerak.

Xulosa

Oliy ta’lim tizimida davlat tilidan foydalanish samaradorligini oshirish O‘zbekistonning ilmiy, ma’naviy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Davlat tilining oliy ta’limdagi mavqeini mustahkamlash faqat huquqiy talablarni bajarish bilan cheklanmasligi, balki uning zamonaviy ilm-fan, kasbiy kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar tili sifatidagi imkoniyatlarini rivojlantirishni ham qamrab olishi zarur.

Tahlillar asosida oliy ta’lim tizimida davlat tilidan foydalanish samaradorligini oshirish uchun bir qator ustuvor yo‘nalishlarni ajratish mumkin. Avvalo, zamonaviy ilmiy terminologiyani tizimlashtirish va standartlashtirish, fan yo‘nalishlari bo‘yicha elektron terminologik bazalarni shakllantirish zarur. Ikkinchidan, davlat tilidagi sifatli darsliklar, ilmiy adabiyotlar va raqamli ta’lim resurslari sonini ko‘paytirish kerak. Uchinchidan, professor-o‘qituvchilarning kasbiy nutq va ilmiy yozuv kompetensiyalarini muntazam rivojlantirib borish lozim. To‘rtinchidan, talabalarda akademik yozuv va ilmiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish kerak. Beshinchidan, oliy ta’limning

raqamli platformalarida o‘zbek tilidan to‘laqonli foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish muhimdir.

Shunday qilib, davlat tilining oliy ta’lim tizimidagi nufuzini oshirish uning faqat muloqot vositasi sifatidagi mavqeini emas, balki ilmiy tafakkur, innovatsiya va zamonaviy bilimlarni ifodalash imkoniyatini ham kengaytiradi. Davlat tilining rivojlangan ilm-fan va ta’lim tiliga aylanishi mamlakatning milliy taraqqiyoti hamda intellektual salohiyatini mustahkamlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ–637, 2020-yil 23-sentabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5850-son Farmoni, 2019-yil 21-oktabr.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlari.
6. Mahmudov N. O‘zbek tilining taraqqiyoti va nutq madaniyati masalalari. – Toshkent.
7. Begmatov E. O‘zbek adabiy tili va uning rivojlanish masalalari. – Toshkent.
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЦВЕТОВОГО КОДА ПАРЕМИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ТИПОЛОГИЯ ТРУДНОСТЕЙ В ИНОСТРАННОЙ АУДИТОРИИ

Садыкова Илсояр Афтаховна,
доцент, к.филол.н, доцент
Казанский (Приволжский) федеральный университет, Россия
+79503225854
isadikova6767@mail.ru
Колосова Елена Ивановна,
доцент, к.филол.н, доцент
Казанский (Приволжский) федеральный университет, Россия
+79033871837
hkolosova@yandex.ru

Аннотация: В условиях глобализации и активизации межкультурных контактов особое значение приобретает способность иностранных учащихся адекватно интерпретировать национально-специфические смыслы языка. Настоящая статья посвящена исследованию лингвокультурных барьеров, возникающих при восприятии русских пословиц и поговорок, содержащих цветовой компонент. В работе представлена комплексная типология трудностей усвоения паремий китайскими студентами (уровень В1), дифференцированная на лексико-семантический, культурно-символический, грамматический и жанрово-стилистический уровни. Авторы обосновывают необходимость отхода от механического заучивания идиоматики в пользу системного лингвокультурологического комментирования, позволяющего минимизировать межъязыковую интерференцию в поликультурной образовательной среде.

***Ключевые слова*:** глобализация, паремиология, цветообозначения, лингвокультурный барьер, китайская аудитория, уровень В1.

Современная парадигма обучения русскому языку как иностранному (РКИ) ориентирована на формирование вторичной языковой личности, способной адекватно интерпретировать национально-культурные смыслы, закодированные в этнокультурных кодах. Одним из наиболее репрезентативных и трудных для дешифровки пластов лингвокультурного наследия выступает паремиологический фонд, где базовым является цветовой (колоративный) код. Цвет в пословицах редко выполняет чисто номинативную функцию, чаще наделяясь устойчивыми коннотациями и выступая маркером морально-этической и аксиологической оценки. В условиях поликультурного образовательного пространства китайские учащиеся уровня В1 регулярно

сталкиваются со специфическими лингвокультурными барьерами при интерпретации русских колоративных паремий, что провоцирует межъязыковую и социокультурную интерференцию.

Вопросы взаимосвязи языка, культуры и функционирования паремиологического пространства, включая символику колоративов как средств репрезентации ценностных смыслов, подробно рассматриваются в современных лингвокультурологических исследованиях [Самусенко, Шевченко, 2014; Мехтиханлы, Захраи, 2012; Садыкова, 2023; Колосова, 2016; Шестеркина, 2011; Щитова, Щитов, 2020]. Однако комплексная методическая типологизация когнитивных и языковых барьеров, с которыми сталкивается именно китайская аудитория уровня В1 при декодировании цветового кода паремий, до сих пор оставалась разработанной фрагментарно.

Цель исследования заключается в теоретическом обосновании, систематизации уровней трудностей интерпретации цветового кода русских паремий китайскими учащимися (уровень В1) и экспериментальной проверке эффективности лингводидактической модели по их преодолению.

Эмпирическая база исследования включает 150 единиц русских пословиц, содержащих колоративы, отобранных из авторитетных паремиологических словарей и учебных пособий по РКИ. В экспериментальном обучении на базе Казанского (Приволжского) федерального университета приняли участие 72 китайских студента, владеющих русским языком на уровне В1.

Лингводидактический анализ исследовательского корпуса позволил дифференцировать барьеры, возникающие у китайских учащихся уровня В1 при декодировании колоративных паремий, на четыре системных уровня.

1. Лексико-семантические трудности

Главным барьером данного уровня является тенденция учащихся к пословному, буквальному переводу метафорического изречения и деструкция его глубинного смысла. Студенты воспринимают колоратив исключительно в его прямом, денотативном значении как физический признак. Например, пословица «Чёрного кобеля не отмоешь добела» содержит лексику, полностью освоенную на уровне В1. Однако буквальное представление гигиенической процедуры с собакой блокирует понимание переносного смысла — неизменности порочной человеческой сущности. Ситуация усугубляется семантической амбивалентностью базовых колоронимов, реализующих разные векторы оценки в зависимости от контекста.

2. Культурно-символические трудности

Ошибки этого уровня обусловлены несовпадением национальных цветовых кодов, фоновых знаний и аксиологических систем в русской и

китайской традициях. Сводные данные сопоставительного анализа базовых колоронимов представлены в таблице 1.

Таблица 1.

Семантические функции цветообозначений в контексте интерференции

Цвет	Положительные коннотации в русской традиции	Отрицательные коннотации в русской традиции	Зона интерференции с китайской традицией	Рекомендуемый пример паремии для уровня В1
Красный	Красота, почет, значимость	Ложность, скрытый порок	В Китае – однозначный символ счастья; в России – амбиваленте н	«Не красна изба углами, а красна пирогами»
Белый	Чистота, благо, честный труд	Изнеженность, лень	В Китае связан с трауром; в России – знак света	«Работа черна, да денежка бела»
Чёрный	Земля-кормилица, основа жизни	Несчастье, горе, беда	Образ черной земли метафорически уникален для славян	«Черные дни переживать – белый свет увидеть»
Зелёный	Молодость, свежесть	Незрелость, неопытность	Несовпадение образа «зеленой» (незрелой) молодости	«Молодо – зелено»

При семантизации паремии «Не красна изба углами, а красна пирогами» необходим комментарий, преодолевающий стереотип китайской лингвокультуры, где красный цвет ассоциируется исключительно с праздником и богатством. Данный контекст смещает фокус на внутреннее содержание (гостеприимство), возвращая колоративу историческое значение «красивый, ценный» [Садыкова, 2023, с. 63]. В свою очередь, паремия «Работа

черна, да денежка бела» выстраивает прозрачную для студентов бинарную оппозицию «черный / белый»: тяжелый физический труд приводит к получению честно заработанной монеты [Шестеркина, 2011, с. 65], что позволяет эффективно преодолевать межъязыковую интерференцию [Колосова, 2016; Щитова, Щитов, 2020, с. 160]. Как видим, колоративы в славянской идиоматике способны выступать прямым средством репрезентации ключевых социальных и этических ценностей [Колосова, 2016, с. 438].

3. Грамматические и синтаксические трудности

Пословицы обладают специфической структурной организацией, вступающей в противоречие со стандартными синтаксическими стереотипами уровня В1. К ним относится регулярное использование кратких форм прилагательных («красна», «бела», «черна») в функции сказуемого.

Наиболее показателен пример эллипсиса и инверсии в паремии «Красна птица перьем, а человек – ученьем». Лексическая база пословицы полностью прозрачна, однако опущение глагольной связки во второй части требует дополнительных усилий для дешифровки. Благодаря строгому структурному параллелизму частей китайские студенты успешно реконструируют синтаксическую схему, одновременно осваивая сжатость живой русской речи [Самусенко, Шевченко, 2014, с. 128].

4. Жанрово-стилистические и контекстуальные трудности

При изолированном предъявлении материала учащиеся не всегда способны дифференцировать пословицы (законченные суждения) и фразеологические сочетания («черный день», «зеленая тоска»). Отсутствие контекстуальной опоры делает парадоксальный фольклорный сюжет алогичным, что порождает психологический барьер и страх использования паремий в спонтанной речи.

Проведенное исследование подтверждает, что паремиологическая компетенция – это сложный интегративный комплекс. Экспериментальная проверка трехэтапной лингводидактической модели (рецептивно-аналитический, условно-продуктивный и коммуникативно-деятельностный этапы) на базе КФУ доказала, что системная работа с внутренней формой цветовой метафоры позволяет значимо повысить показатели сформированности компетенции и минимизировать коммуникативные сбои.

Научно-методические предложения и рекомендации:

1. Обязательное лингвокультурологическое комментирование. Необходимо отказаться от механического заучивания паремий. Каждая единица уровня В1 должна снабжаться историко-бытовым и аксиологическим

комментарием (например, раскрытие связи «белых рук» с отсутствием тяжелого физического труда).

2. Контрастивный акцент. В китайской аудитории следует целенаправленно сопоставлять национальные коннотации цветов, превентивно снимая барьеры интерференции (особенно по линии амбивалентности «красного» и «белого» цветов).

3. Контекстуализация обучения. Введение колоративных паремий на уровне B1 должно происходить исключительно в рамках микротекстов, ситуативных диалогов и речевых упражнений, демонстрирующих прагматическую функцию пословицы в живой коммуникации.

Список литературы

Колосова Е.И. Колоративы как средство репрезентации концепта «Родина» в идиоматике русского и польского языков // Ашмаринские чтения: сб. материалов X Междунар. науч.-практ. конф. / сост. и отв. ред. О.Г. Владимирова. – Чебоксары: Изд-во Чуваш. ун-та, 2016. – С. 435-443.

Садыкова И.А. Лингводидактический потенциал колоративов в творчестве М.М. Пришвина / И.А. Садыкова // Филология и культура. Philology and Culture. – 2023. – № 3 (73). – С. 60-65.

Самусенко О. Н., Шевченко М. В. Формирование лингвокультурологической компетенции средствами фразеологии и паремиологии на уроках РКИ // Молодой ученый. – 2014. – № 12 (71). – С. 126-129.

Шестеркина Н. В. Концепт «Цвет» (белый): на материале русских и немецких паремий // Вестник Балтийского федерального университета им. И. Канта. – 2011. – Вып. 2. – С. 62-70.

Щитова О. Г., Щитов А. Г. Цветовая картина мира в зеркале контрастивной лингвистики // Вестник Томского государственного университета. – 2020. – № 453. – С. 157-164.

SUNIY INTILEKT VA AVTOMATLASHITIRILGAN TIZIMLAR INSON RESURSLARI BOSHQARUVIDA

F. E. Jomonqulova
Samarqand iqtisodiyot va servis
instituti dotsenti, t.f.n +998932959572
e-mail: fazilat_72@mail.ru

Annotatsiya: Zamonaviy inson resurslari boshqaruvi (IRB) sohasida sun'iy intellekt (SI) va avtomatlashtirilgan tizimlarning joriy etilishi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu texnologiyalar ishga qabul qilish, xodimlarni o'qitish, ish faoliyatini baholash va ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonlarini sezilarli darajada optimallashtirib, samaradorlikni oshirish va ob'ektiv qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Biroq, SI va avtomatlashtirishni joriy etishda axloqiy me'yorlar, ma'lumotlar xavfsizligi va inson omilining ahamiyatini saqlab qolish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratish lozim. Mazkur maqola inson resurslari boshqaruvida sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlarning hozirgi holati, afzalliklari, muammolari hamda kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: Inson Resurslari Boshqaruvi, Sun'iy Intellekt, Avtomatlashtirilgan Tizimlar, Raqamlashtirish, Ishga Qabul Qilish, Xodimlar Rivojlanishi, Ma'lumotlar Tahlili, HR Texnologiyalari

Zamonaviy biznes muhitida inson resurslarini boshqarish (IRB) tashkilotlarning strategik maqsadlariga erishishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. An'anaviy IRB usullari tobora murakkablashib borayotgan mehnat bozori talablariga javob berishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda, bu esa yangi, innovatsion yondashuvlarga ehtiyojni keltirib chiqarmoqda [3]. Sun'iy intellekt (SI) va avtomatlashtirilgan tizimlar (AT) ushbu ehtiyojga javoban, IRB jarayonlarini tubdan o'zgartiruvchi va samaradorlikni oshiruvchi asosiy vositalar sifatida maydonga chiqmoqda [1].

Ushbu tadqiqotning maqsadi inson resurslari boshqaruvida sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlarning joriy holatini, ularning afzalliklari va imkoniyatlarini, shuningdek, integratsiya jarayonida yuzaga keladigan muammolar, xavflar va etik jihatlarni atroflicha tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida SI va AT ning IRB ning turli yo'nalishlarida amaliy qo'llanilishi, ularni integratsiya qilishning afzalliklari, muammolari va kelajakdagi tendensiyalari o'rganiladi. Shuningdek, muvaffaqiyatli integratsiya strategiyalari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Inson resurslari boshqaruvi (IRB) zamonaviy tashkilotlarning strategik ustuvorliklari orasida markaziy o'rinni egallaydi, chunki u nafaqat xodimlarni boshqarish, balki tashkilotning umumiy muvaffaqiyatini ta'minlashga qaratilgan kompleks jarayon hisoblanadi. An'anaviy IRB yondashuvlari ko'pincha ma'muriy

vazifalarga haddan tashqari e'tibor qaratib, strategik ahamiyatga ega bo'lgan qarorlar qabul qilishda cheklangan imkoniyatlarga ega bo'lgan. Biroq, globallashuv, raqamlashtirish va mehnat bozorining dinamik o'zgarishlari sharoitida IRB funksiyasi transformatsiyaga uchrab, tashkilotning raqobatbardoshligini oshiruvchi strategik sherikka aylandi. Bu o'zgarish sun'iy intellekt (SI) va avtomatlashtirilgan tizimlar (AT) kabi innovatsion texnologiyalarning IRB ga integratsiyasini zarur qilib qo'ydi.

Sun'iy intellekt, keng ma'noda, inson intellektini talab qiladigan vazifalarni bajarishga qodir kompyuter tizimlarini anglatadi, jumladan, o'rganish, fikrlash, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish [2]. SI ning ikki asosiy turi mavjud: tor SI (Narrow AI) va umumiy SI (General AI). Tor SI ma'lum bir vazifani bajarish uchun mo'ljallangan bo'lib, masalan, shaxmat o'ynash, yuzni tanish yoki nutqni qayta ishlash kabi cheklangan sohalarda yuqori samaradorlikni namoyish etadi. Umumiy SI esa inson kabi fikrlash va ongga ega bo'lishi taxmin qilinadigan gipotetik tizim bo'lib, hozircha faqat nazariy darajada mavjud. SI ning asosiy elementlaridan biri bu mashinani o'rganish (Machine Learning) bo'lib, u kompyuterlarga aniq dasturlashsiz tajribadan o'rganish imkonini beradi. Chuqur o'rganish (Deep Learning) esa neyron tarmoqlardan foydalanib, katta ma'lumotlar to'plamidagi murakkab naqshlarni aniqlashga qaratilgan mashinani o'rganishning bir tarmog'idir [2]. Avtomatlashtirilgan tizimlar esa takrorlanuvchi va qoidaga asoslangan vazifalarni inson aralashuvisiz bajarish uchun mo'ljallangan texnologik yechimlardir. Ular SI bilan birgalikda IRB jarayonlarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, xodimlarga strategik ahamiyatga ega ishlarga e'tibor qaratishga imkon beradi [2, 3]. SI va AT ning IRB ga integratsiyasi ma'lumotlarga asoslangan va prognozli yondashuvlarga o'tishni ta'minlaydi, bu esa xarajatlarni tejash, xodimlarning sodiqligini oshirish va ichki aloqalarni yaxshilashga olib keladi [1, 3].

Ish faoliyatini boshqarish (Performance Management) ham SI va AT dan foydalanish orqali sezilarli darajada yaxshilanadi. An'anaviy baholash tizimlari ko'pincha subyektivlik va vaqtinchalik xususiyatga ega bo'lib, xodimlarning doimiy rivojlanishini ta'minlashda cheklangan edi. SI asosidagi tizimlar xodimlarning ish faoliyati haqidagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida to'plash, tahlil qilish va baholash imkonini beradi. Bu tizimlar xodimlarning maqsadlarga erishish darajasini, ko'nikmalarini va rivojlanish sohalarini aniqlashda yordam beradi. Masalan, SI xodimlarning elektron pochta xabarlari, loyiha boshqaruvi platformalaridagi faoliyati va boshqa raqamli izlarini tahlil qilib, ularning samaradorligi haqida ob'ektiv ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin. Bu esa menejerlarga xodimlarga aniq va konstruktiv fikr-mulohazalar berishga, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi. SI shuningdek, yuqori samarali xodimlarni aniqlash va ularni rag'batlantirish, shuningdek, past samarali xodimlarga yordam berish uchun

individual rivojlanish rejalarini taklif qilishda ham qo'llaniladi [1]. Avtomatlashtirilgan tizimlar esa baholash shakllarini boshqarish, fikr-mulohazalarni yig'ish va hisobotlarni shakllantirish kabi ma'muriy vazifalarni avtomatlashtiradi, bu esa HR mutaxassislariga strategik tahlil va rivojlanishga e'tibor qaratishga imkon beradi [3].

O'qitish va rivojlantirish (Training and Development) sohasida SI va AT xodimlarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv dasturlarini yaratishda muhim rol o'ynaydi. SI xodimlarning mavjud ko'nikmalarini, ish faoliyatini va kelajakdagi martaba maqsadlarini tahlil qilib, ularga eng mos keladigan o'quv materiallari va kurslarni tavsiya qiladi. Bu esa o'qitish samaradorligini oshiradi va xodimlarning motivatsiyasini kuchaytiradi. Masalan, SI asosidagi platformalar xodimlarning o'rganish uslublarini aniqlab, ularga interaktiv simulyatsiyalar, virtual reallik (VR) asosidagi treninglar yoki gamifikatsiya elementlarini taklif qilishi mumkin. AT esa o'quv materiallarini boshqarish, kurslarga ro'yxatdan o'tishni avtomatlashtirish va o'qitish natijalarini kuzatish kabi vazifalarni bajaradi [3]. Bu yondashuv nafaqat xodimlarning ko'nikmalarini oshiradi, balki tashkilotning umumiy bilim bazasini ham boyitadi.

IRB tahlili va ishchi kuchini rejalashtirish (HR Analytics and Workforce Planning) SI va AT ning eng kuchli qo'llanilish sohalaridan biridir. SI katta hajmdagi HR ma'lumotlarini tahlil qilib, inson ko'zi ilg'amaydigan naqshlar va tendensiyalarni aniqlaydi. Bu ma'lumotlarga asoslangan tahlillar tashkilotlarga ishchi kuchining kelajakdagi ehtiyojlarini aniqlash, iste'dodlarni boshqarish strategiyalarini optimallashtirish va samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi [1, 3]. Masalan, SI ishchi kuchining demografik tarkibi, ko'nikmalar to'plami va ish faoliyati haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, kelajakda qaysi ko'nikmalar talab qilinishini yoki qaysi bo'limlarda kadrlar tanqisligi yuzaga kelishini prognoz qilishi mumkin. AT esa ma'lumotlarni yig'ish, tozalash va hisobotlarni shakllantirish kabi vazifalarni avtomatlashtiradi, bu esa HR mutaxassislariga tahliliy ishlarga ko'proq vaqt ajratishga imkon beradi. Bu yondashuv tashkilotlarga ishchi kuchini strategik jihatdan rejalashtirish, iste'dodlarni rivojlantirish va raqobatbardosh ustunlikni saqlab qolish imkonini beradi.

SI va AT ni boshqaruvga tatbiq etishda bir qator muammolar, xavflar va etik jihatlar ham mavjud bo'lib, ularni e'tiborsiz qoldirmaslik kerak. Birinchi va eng muhim muammolardan biri bu ma'lumotlar maxfiyligi va xavfsizligidir. SI tizimlari xodimlarning shaxsiy ma'lumotlarini, ish faoliyati natijalarini va boshqa sezgir ma'lumotlarni qayta ishlagani sababli, ularning xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlash juda muhimdir. Ma'lumotlarning noto'g'ri ishlatilishi yoki buzilishi jiddiy huquqiy va etik oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ikkinchidan, algoritmlarning noto'g'ri ishlashi (bias) xavfi mavjud. Agar SI tizimlari noto'g'ri yoki noto'g'ri

ma'lumotlar asosida o'qitilgan bo'lsa, ular ishga qabul qilish, ish faoliyatini baholash yoki martaba o'sishida diskriminatsiyaga olib kelishi mumkin. Masalan, agar tarixiy ma'lumotlar ma'lum bir guruhga nisbatan noto'g'ri bo'lsa, SI tizimi ham shu noto'g'ri tendentsiyani takrorlashi mumkin, bu esa ishchi kuchining bir xil bo'lishiga olib kelishi mumkin [5]. Bu esa korporativ ijodkorlikni pasaytirish xavfini tug'diradi. Uchinchidan, ish o'rinlarining yo'qolishi va qayta malakalashga bo'lgan ehtiyoj. Avtomatlashtirish ba'zi takrorlanuvchi vazifalarni bajaradigan ish o'rinlarining yo'qolishiga olib kelishi mumkin, bu esa xodimlarning yangi ko'nikmalarni egallashlari va qayta malakalashdan o'tishlari zarurligini keltirib chiqaradi. To'rtinchidan, insoniy munosabatlarning kamayishi. SI va AT ga haddan tashqari bog'liqlik IRB jarayonlarini insoniylashtirishga olib kelishi mumkin, bu esa xodimlarning o'zlarini tushunilmagan yoki qadrlanmagan his qilishlariga sabab bo'lishi mumkin. Beshinchidan, integratsiya jarayonidagi qiyinchiliklar. SI va AT tizimlarini mavjud IRB tizimlari va tashkilot madaniyatiga integratsiya qilish murakkab va qimmat jarayon bo'lishi mumkin. Ba'zi kompaniyalar uchun, ayniqsa 50 dan kam xodimga ega bo'lgan kichik firmalar uchun, bu tizimlarni joriy etish maqsadga muvofiq bo'lmasligi mumkin [3]. Oltinchidan, etik dilemmalar. SI qarorlarining shaffofligi, javobgarlik va adolat kabi masalalar etik munozaralarga sabab bo'ladi. SI qanday qilib ma'lum bir qarorni qabul qilganini tushuntirish qiyin bo'lishi mumkin, bu esa ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Nihoyat, o'zgarishlarga qarshilik. Xodimlar va hatto HR mutaxassislari yangi texnologiyalarni qabul qilishda qarshilik ko'rsatishlari mumkin, bu esa integratsiya jarayonini sekinlashtiradi.

IRB da SI va AT ning kelajakdagi tendensiyalari va muvaffaqiyatli integratsiya strategiyalari tashkilotlarga ushbu texnologiyalardan maksimal darajada foydalanishga yordam beradi. Kelajakda SI va AT xodimlarning tajribasini yanada shaxsiylashtirishga qaratilgan bo'ladi. Bu, xodimlarning individual ehtiyojlari, istaklari va martaba maqsadlariga mos keladigan o'quv dasturlari, imtiyozlar paketlari va ish muhitini yaratishni o'z ichiga oladi. SI proaktiv IRB ga o'tishni ta'minlaydi, ya'ni xodimlarning ehtiyojlarini ular yuzaga kelmasdan oldin prognoz qilish va ularga javob berish. Masalan, SI xodimlarning stress darajasini yoki ishdan ketish xavfini aniqlab, HR mutaxassislariga tegishli choralar ko'rishga yordam beradi. SI asosidagi murabbiylik va mentorlik dasturlari ham keng tarqaladi, bu esa xodimlarga doimiy rivojlanish va o'sish imkoniyatlarini taqdim etadi. Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalari o'qitish va ishga moslashish jarayonlarida yanada faol qo'llaniladi, bu esa interaktiv va immersiv o'rganish tajribasini yaratadi. Blockchain texnologiyasi HR ma'lumotlarini xavfsiz boshqarish, malaka sertifikatlarini tasdiqlash va shaffoflikni oshirish uchun

ishlatilishi mumkin. Shuningdek, emotsional SI va sentiment tahlili xodimlarning farovonligini kuzatish va ularning kayfiyatini tushunishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot inson resurslari boshqaruvida sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlarning transformatsion ta'sirini atroflicha tahlil qildi. Ular IRB jarayonlarini optimallashtirib, samaradorlikni oshirish, ma'lumotlarga asoslangan strategik qarorlar qabul qilish va xodimlarning tajribasini sezilarli darajada yaxshilash imkoniyatlarini yaratmoqda. Biroq, bu integratsiya ma'lumotlar maxfiyligi, algoritmlarning noto'g'ri ishlashi, ish o'rinlarining o'zgarishi va etik dilemmalar kabi jiddiy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Kelajakda ushbu texnologiyalardan maksimal foydalanish uchun bosqichma-bosqich joriy etish, etik tamoyillarga rioya qilish va insoniy omilni SI bilan uyg'unlashtirgan gibrid yondashuvni qo'llash muhimdir. Bunday strategik yondashuv tashkilotlarga mehnat bozoridagi raqobatbardosh ustunlikni saqlab qolishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Stone, R. J., & Deadrick, D. L. Inson resurslari menejmentida sun'iy intellekt: Yangi paradigma. Abingdon: Routledge, 2022.

[2] Bondarouk, T., & Ruël, H. J. M. Raqamli transformatsiya va Inson resurslarining kelajagi bo'yicha tadqiqotlar qo'llanmasi. Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2021.

[3] Vrontis, D., et al. "Sun'iy intellekt inson resurslarini boshqarishda: Tizimli tahlil va tadqiqot kun tartibi." Inson Resurslarini Boshqarish Sharhi, vol. 32, no. 4, 2022, pp. 100871.

[4] Tambe, P., Cappelli, P., & Yakubovich, V. "Sun'iy intellekt inson resurslarida: Muammolar va kelajak yo'li." Menejment Akademiyasi Istiqbollari, vol. 35, no. 4, 2021, pp. 586-601.

[5] Malik, A., & Budhwar, P. "Yangi normalda HRM kelajagi: Sun'iy intellekt, analitika va avtomatizatsiya roli." Biznes Tadqiqotlari Jurnali, vol. 144, 2022, pp. 1001-1011.

[6] Upadhyay, S., & Khandelwal, K. "Inson resurslarini boshqarishda sun'iy intellekt: Sharh va tadqiqot dasturi." Xalqaro Mehnat Resurslari Jurnali, jild. 44, son. 1, 2023, bet. 1-20.

[7] Minbaeva, D. B. "HRM sun'iy intellekt davrida: Tizimli adabiyot sharhi va kelajakdagi tadqiqot kun tartibi." Inson Resurslarini Boshqarish Sharhi, vol. 33, no. 4, 2023, pp. 100947.

[8] Dwivedi, Y. K., et al. "Sun'iy intellekt (SI) ilovalari inson resurslarini boshqarishda: Tizimli ko'rib chiqish va kelajakdagi tadqiqotlar kun tartibi." Xalqaro Axborot Boshqaruvi Jurnali, vol. 57, 2021, pp. 102272.

QIZILTEPA TUMANI NEKRONIMLARINING NOMLANISH MOTIVLARI

Yuldashev Jo‘rabek Uralovich
NavDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti
yuldashev82jurabek@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda nekronimlar ta’rifi, o‘rganilishi hamda Quyi Zarafshon hududining bir qismi hisoblangan Qiziltepa tumani nekronimlarining atalish motivlari haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Antroponimik, nekronim, nominatsiya, motivatsiya, motivatsion belgi, nominativ tafakkur, lingvomadaniy, etnomadaniy, etnonimik, leksik-semantik, onomastik birlik, nominatsion-motivatsion tizim.

Toponimikada **nekronim** termini inson dafn etilgan joy, mozor, qabriston va shu kabi dafn maskanlarining atoqli nomlarini ifodalash uchun qo‘llanadi. Nekronimlar ham boshqa toponimik birliklar singari tasodifiy tarzda yuzaga kelmay, muayyan **nominatsion ehtiyoj va motivatsion asoslar** negizida shakllanadi. Til iste’molchilari tomonidan qabristonlarga nom berish jarayonida mazkur obyektning tabiiy-geografik, relyefiy, rang-tus, antroponimik, etnonimik, ijtimoiy-tarixiy, diniy-kultik hamda boshqa belgilaridan biri nominatsiya uchun asosiy motiv sifatida tanlanadi. Nekronimik nominatsiyaning shakllanishida **aholining lingvistik imkoniyatlari, hududiy dialekt va sheva xususiyatlari, shuningdek, til kontaktlari va bilingvizm hodisasining** muayyan darajada ta’sirini ham inkor etib bo‘lmaydi. Xususan, ko‘p tilli yoki ikki tilli lingvistik muhitda shakllangan nekronimlar tarkibida o‘zbek, fors-tojik va boshqa tillarga mansub leksik birliklarning o‘zaro ta’siri, fonetik va semantik moslashuvi kuzatilishi mumkin.

Qadimdan Quyi Zarafshon geografik hududida o‘zbek, tojik va boshqa etnik guruhlarining o‘zaro yaqin hududiy va ijtimoiy-madaniy munosabatlarda yashab kelishi mazkur hududning etnolingvistik qiyofasi shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Turli etnik guruhlarning uzoq tarixiy davrlar davomida bir hududda istiqomat qilishi, o‘zaro aloqa va madaniy integratsiya jarayonlarining kechishi, shuningdek, ikki va ko‘p tillilikning mavjudligi hududiy onomastik birliklar, xususan, toponim va nekronimlarning shakllanishida ham o‘z ifodasini topgan. Shu jihatdan Quyi Zarafshon nekronimlarini faqat geografik obyektning nomi sifatida emas, balki hudud aholisi etnik tarkibi, til muhiti, tarixiy-madaniy aloqalari va nominatsion an’analarini aks ettiruvchi lingvomadaniy birlik sifatida baholash mumkin. Mazkur holatni Qiziltepa tumani nekronimlari misolida ham yaqqol kuzatish mumkin. Tumanda mavjud qabristonlarning nomlanishida o‘zbek tili bilan bir qatorda tojik tili va uning mahalliy nutqiy ko‘rinishlariga xos leksik birliklarning qo‘llanganligi hududdagi etnolingvistik aloqalarning toponimik nominatsiyaga ta’sirini ko‘rsatadi. Jumladan, tumandagi 80ga yaqin qabriston nomlari orasida

tojikcha shakllangan yoki tojik tiliga xos leksik-komponentlar ishtirokidagi *Bibikabo‘tpo‘sh, Berishum Kusharte, Sarmozor* kabi nekronimlar uchraydi. Ushbu nomlar tarkibidagi ayrim birliklarning tojik tiliga mansubligi nekronimlarning shakllanishida muayyan etnik guruhlarning til tajribasi va nominatsion an’analari faol ishtirok etganidan dalolat beradi.

O‘zbek toponimikasida, xususan, nekronimlar tadqiqiga bag‘ishlangan qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Jumladan, “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining 1999-yil 4-sonida tadqiqotchi A. Aslonovning “Shofirkon nekronimlari” nomli maqolasi e’lon qilingan. Mazkur tadqiqot o‘zbek onomastikasida nekronimlarni alohida obyekt sifatida o‘rganishning dastlabki ilmiy namunalari sifatida ahamiyatlidir. Muallif qabr va qabriston nomlari, shuningdek, qabrtoshlardagi yozuvlarni til tarixiga oid muhim lisoniy manba sifatida baholab, ularning toponimik xususiyatiga e’tibor qaratadi va Shofirkon tumanidagi nekronim va ekklezionimlarni qadimiy mikrotoponimlar sirasiga kiritadi[1.63] Muallif Shofirkon tumani qabristonlari, asosan, komonim, genionim hamda o‘sha joylarning biror belgisi yoxud o‘ziga xos xususiyatlarini anglatuvchi leksemalar bilan, shuningdek, diniy motivlar asosida nomlanishini aytadi. Amudaryo tumani nekronimlarini tadqiq qilgan toponimist olim Ikrom Xolmurodov esa “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining 2009-yil 2-sonida “Amudaryo tumani nekronimlari haqida” deb nomlangan maqolasida tuman nekronimlarining atalish motivlarini quyidagicha izohlaydi:

1.Fitotoponim bilan bog‘liq bo‘lgan nekronimlar.

2.Agronim (qush nomi) sanaladigan nekronimlar.

3.Son bilan bog‘liq nekronimlar.

4.Etnonim bilan bog‘liq nekronimlar.

5.Kishilarning nomlari – antroponimlar bilan shakllangan nekronimlar.[2.82]

Nekronimlarni o‘rganish masalasida yana muhim tadqiqotlardan biri S.Yusupovning “Qoraqalpog‘iston nekronimlarining semantik, grammatik va milliy-madaniy xususiyatlari” nomli tadqiqoti hisoblanadi. Ishda tadqiqotchi hududdagi nekronimlarning yuzaga kelish asoslari, rivojlanish davrlari, tarkibi, yasalishi, grammatik strukturasi, nekronimik indikatorlarning tarqalish areallari, semantik xususiyatlari borasida muhim ma’lumotlar beradi va Qoraqalpog‘iston nekrotoponimlarining turli motivlar asosida yuzaga kelishini, ayniqsa, hudud nekrotoponimlarining ko‘pchiligi antroponimlar asosida shakllanganligini dalillar bilan asoslaydi.[3.5]

Qiziltepa tumani nekronimlari o‘rganilganda, ularning muayyan qismi ijtimoiy-siyosiy mavqeni ifodalovchi nomlash birliklari asosida shakllanganligi kuzatildi. Bunday nekronimlar tarkibida shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyi, diniy yoki ma’muriy maqomini bildiruvchi ***ota, qozi, xo‘ja*** kabi komponentlar faol

qo‘llangan. Jumladan, ***Cho‘ponota, Qozi Eshon Avliyo, Xo‘ja Sulton*** kabi nekronimlar mazkur motiv asosida shakllangan. Ushbu birliklarda shaxsga nisbatan qo‘llangan ijtimoiy-mavqe bildiruvchi nomlar keyinchalik qabriston yoki dafn maskanining nomlanishiga asos bo‘lgan. Demak, mazkur nekronimlarning shakllanishida shaxsning jamiyatdagi mavqeyi va ijtimoiy-diniy maqomini ifodalovchi leksik birliklar muhim nominatsion-motivatsion omil vazifasini bajargan.

Umuman, Qiziltepa tumani nekronimlarini nomlanish motivlariga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Antroponimik motiv asosida shakllangan nekronimlar: *Do‘stbekavliyo, Hazrati Muhammad Tirparon, Hazrati Xo‘ja Rushnoiy, Hazrati Imlo, Istamobod, Malikobod-Zokirmullo, Oxuna Mullo Qora Kamol, Qal’ayi Azizon , Qozi Eshon Avliyo, Xo‘jaqo‘rg‘on-Andoq, Xoja Hasan Andoqiy, Xo‘ja Bo‘ston, Xo‘ja Nurullo, Eshon Hoji, Xo‘ja Sulton, Xo‘ja Doniyor, Xo‘ja Savri, Xo‘ja Jalol, Xo‘ja Rushnoiy Hafqoriyon avliyosi, Xo‘ja Uzbor, G‘oyibota, Xo‘ja Kabo‘tpo‘sh, Yuqsun Ato.*

2.Fitonimik motiv asosida shakllangan nekronimlar: *Yakkatut, Tolcha, Gulihovuz.*

3.Son bilan bog‘liq nekronimlar: *Bouchto‘rtbobo, Childuxtaron, Chillaavliyo, Chorbog‘ Mahmud,*

4.Etnonimlar bilan bog‘liq nekronimlar: *Do‘rmontepa, Kenagas, Urganji, Qatag‘on.*

5. **Relyef va tabiiy-geografik belgi asosida nomlangan nekronimlar:** *Ko‘ktosh, Oqtosh, Toshmozor, Pastg‘ardiyon qa, Quyimozor, Obiyavg'on.*

6. Rang-tus motivi asosida shakllangan nekronimlar: *Oqrabot, Oqsoch, Oqburut.*

7. **Sotsial motiv asosida shakllangan nekronim: *Beklar,*** *Xattot Eshon Arablar.*

8. Diniy-e’tiqodiy motivi asosida shakllangan nekronimlar: *Go‘dakontepa, G‘oyibona, Bibikabo‘tpo‘sh, Makkai Madina,*

Xulosa qilib aytganda, Qiziltepa tumani nekronimlarining nomlanish motivlari tahlili ularning shakllanishida hududning tarixiy-madaniy muhiti, aholining ijtimoiy hayoti, diniy-e’tiqodiy qarashlari, etnik tarkibi hamda xalqning milliy an’analari muhim omil bo‘lganini ko‘rsatadi. Nekronimlar, asosan, **antroponimik, diniy-e’tiqodiy, etnonimik, ijtimoiy-tarixiy va tabiiy-geografik motivlar** asosida shakllangan. Ayniqsa, muayyan shaxslarning nomi, xalq orasidagi hurmat-e’tibori, avliyo va diniy arboblar bilan bog‘liq tasavvurlar nekronimlarning nominatsion asosini tashkil etishda faol ishtirok etgan. Ayrim nomlarda esa etnik guruhlar, tarixiy voqea-hodisalar va geografik belgilar aks etgan. Demak, Qiziltepa nekronimlari hudud aholisining tarixiy xotirasi, ijtimoiy tajribasi va ma’naviy-

madaniy qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan muhim onomastik birliklar bo‘lib, ularning motivatsion tahlili hududning tarixiy-etnografik hamda lingvomadaniy xususiyatlarini yoritishda muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Аслонов А. Шофиркон некронимлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1999. – №4. – Б. 63-65.

2. Холмуродов И. Амударё тумани некронимлари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2009. – №2. – Б. 82-84.

3. S.Yusupov. Qoraqalpog‘iston nekronimlarining semantik, grammatik va milliy-madaniy xususiyatlari: filol.fan.b.fals.dok. …avto. – Urganch – 2025, 5-b.

INGLIZ TILIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

Kuchiyev Malik Abdumannonovich
Samarqand Davlat Chet tillar instituti
dotsenti (PhD), +998933447531,
E-mail: kuchievmalik@gmail.com
Sobirov Xasan Zafarovich
Samarqand Davlat Chet tillar instituti magistranti, +998904741811
sobirovxasan978@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi frazeologik birliklarning sintaktik xususiyatlari, ularning gap tarkibida qo’llanish imkoniyatlari hamda turli sintaktik vazifalarni bajarish xususiyatlari tahlil qilinadi. Gapdagi o'rni, grammatik shakllanishi, sintaktik bog'lanishi va gap bo'laklari bilan frazeologik munosabati haqida gap boradi. Shuningdek, frazeologizmlarning ot, fe'l, sifat, ravish va boshqa grammatik birliklar bilan munosabati hamda gap tarkibida turli sintaktik funksiyalarda kelishi misollar asosida ko'rib chiqiladi. Maqolada ingliz tilidagi frazeologik birliklarning strukturaviy va funktsional xususiyatlari aniqlanib, ularning sintaktik jihatdan o'ziga xosligi ochib beriladi. Maqola ingliz frazeologiyasining sintaktik aspektini o'rganishda hamda ingliz tilini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etishda muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar: stilistika, frazeologik birlik, frazeologizm, sintaksis, sintaktik xususiyat, gap bo‘lagi, ingliz tili frazeologiyasi.

Аннотация: В данной статье анализируются синтаксические особенности фразеологических единиц английского языка, возможности их употребления в структуре предложения, а также их способность выполнять различные синтаксические функции. Рассматриваются положение фразеологических единиц в предложении, их грамматическое оформление,

синтаксические связи и взаимоотношения с членами предложения. Кроме того, на основе примеров исследуются особенности взаимодействия фразеологизмов с существительными, глаголами, прилагательными, наречиями и другими грамматическими единицами, а также их функционирование в различных синтаксических позициях в составе предложения. В статье выявляются структурные и функциональные особенности фразеологических единиц английского языка и раскрывается их синтаксическая специфика. Статья имеет важное значение для изучения синтаксического аспекта английской фразеологии, а также для теоретического и практического исследования английского языка.

Ключевые слова: стилистика, фразеологическая единица, фразеологизм, синтаксис, синтаксическая особенность, член предложения, фразеология английского языка.

Abstract: This article analyzes the syntactic features of phraseological units in the English language, their possibilities of use within sentence structures, and their ability to perform various syntactic functions. It examines their position within the sentence, grammatical formation, syntactic connections, and relationship with the parts of the sentence. In addition, the relationship of phraseological units with nouns, verbs, adjectives, adverbs, and other grammatical units, as well as their occurrence in various syntactic functions within sentence structures, is examined through examples. The article identifies the structural and functional characteristics of phraseological units in English and reveals their syntactic specificity. The study plays an important role in examining the syntactic aspect of English phraseology and contributes to the theoretical and practical study of the English language.

Keywords: stylistics, phraseological unit, phraseologism, syntax, syntactic feature, sentence member, English phraseology.

Stilistika —umumiy tilshunoslikning bir bo'limidir bo‘lib, ba'zan lingvostilistika deb ham ataladi. Stilistika asosan o'zaro bog'liq bo'lgan ikki vazifa bilan shug'ullanadi:

a)o'zining ontologik xususiyatlari orqali nutqning ko'zlangan ta'sirchanligini ta'minlaydigan maxsus til vositalari majmuasini tadqiq etish;

Masalan, “Time is a thief.” iborasida **time (vaqt)** o‘g‘riga qiyoslanmoqda. Vaqtning inson hayotini “olib ketishi” obrazli tarzda ifodalangan. Ikkinchi misolni ko‘radigan bo’lsak, “Never give up, never surrender, never lose hope.” gapida esa **never** so‘zining takrorlanishi gapga kuchli ma’no va emotsiyaviy ta’sirchanlik bermoqda.

b) til vositalarining tanlanishi va joylashtirilishi natijasida pragmatik jihati bilan ajralib turadigan matnlarning (diskurslarning) muayyan turlarini o'rganish.

Stilistikaning bu vazifasida asosiy urg‘u til vositalarining qanday joylashganligi matnning asosiy vazifasini aniqlashga yo‘naltiriladi.

Masalan, **“Could you please open the window?”** gapi biz kundalik hayotimizda biror kishiga **muloyimlik bilan iltimos qilayotganimizni** anglatish uchun qo‘llaniladi.

Yuqoridagi misoldan ko‘rinib turibdiki, stilistikaning bu ikki vazifasi og‘zaki yoki yozma nutqning ekspressiv ta’sirchanligi ta’minlash hamda nutqning asosiy maqsadini aniqlashdir.

Frazeologik birliklar deb "turg"un" ya’ni ajralmas so'z komplekslariga aytiladi. Ular "erkin" sintaktik so'z birikmalariga qarama-qarshi qo'yiladi, chunki frazeologik birliklar nutq jarayonida yaratilmaydi, balki tayyor til birliklari sifatida qayta qo'llanadi. Frazeologik birliklarning asosiy xususiyati shundan iboratki, bunday birliklarning tarkibidagi qismlar grammatik va semantik jihatdan ajralmaydi va ma’no kasb etmaydi.

Masalan, ingliz tilidagi **“kick the bucket”** iborasi o‘zbek tilidagi “chelakni tepmoq” degan tarjimaga mos keladi. Ammo bu ibora lug‘aviy jihatdan so‘zma-so‘z shunday tarjima qilingani bilan uning semantik shakli **“vafot etmoq”** degan ma’noni bildiradi. Bu birikmaning asl ma’nosi kick va bucket so‘zlarining tarjimalaridan kelib chiqmaydi, ya’ni alohida tarjimaga asoslanmaydi. Shuning uchun ham bu ibora umumiy ma’no va yaxlitlikka ega bo‘lgan ajralmas birikmadir.

Quyida bir nechta frazeologik birliklarni ko‘rishimiz mumkin:

1) *Spill the beans-sirni oshkor qilmoq.*
2) *Hit the nail on the head-masalaning asl mohiyatini aniqlamoq.*
3) *Once in a blue moon-juda kamdan-kam hollarda.*
4) *A piece of cake-oson*
5) *Let the cat out of the bag-sirni oshkor etmoq*

Yuqoridagi misollardan ko‘rish mumkinki, frazeogik birikmalarning

tarkibi ajralmas hamda ularning tarkibi birgalikda lug‘aviy tarjimaga yaqin bo‘lmagan yangi ko‘chma ma’no yasaydi.

Frazeologizmlar har bir tilning o‘ziga xosligini namoyon etuvchi, xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, dunyoqarashi va madaniy qarashlarini o‘zida aks ettiruvchi til birliklaridir.

Frazeologizmning eng muhim xususiyatlaridan biri uning barqarorligi hisoblanadi. Oddiy so‘z birikmasida so‘zlarning o‘rnini yoki shaklini bemalol o‘zgartirish mumkin. Frazeologik birliklarda esa bunday imkoniyat ancha cheklangan bo‘ladi. Frazeologizmlarning yana bir muhim belgisi — ko‘chma ma’nolilik va obrazlilikdir.

Quyidagi misollarda frazeologik birliklarni ko’rishimiz mukin:

1. “Break the ice”

O‘zbekcha talqini:

Noqulay yoki notanish vaziyatni yumshatish, odamlar o‘rtasida erkin va do‘stona muloqotni boshlash.

Misol:

The teacher told a funny story to break the ice before the lesson began.

Izoh:

“Break the ice” so‘zma-so‘z “muzni sindirmoq” degan ma’noni anglatadi. Ammo frazeologik ma’noda u odamlar o‘rtasidagi noqulaylikni kamaytirish va suhbatni erkinroq boshlash ma’nosida qo‘llanadi.

2. “Spill the beans” (Sirni yoki yashirin ma’lumotni oshkor qilmoq): Sarah accidentally spilled the beans about the surprise party. “Spill the beans” so‘zma-so‘z “loviya donalarini to‘kib yubormoq” degan ma’noni bildiradi. Lekin frazeologik birlik sifatida “sirni aytib qo‘ymoq” yoki “sirni oshkor qilmoq” ma’nosida ishlatiladi. Bu ibora ko‘pincha kimdir sirni tasodifan aytib qo‘ygan vaziyatlarda qo‘llanadi.

Sintaksis tilshunoslikning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, u til birliklarining o‘zaro aloqasini, ularning nutqda birikishini va gap tarkibida muayyan grammatik munosabatlar hosil qilish qonuniyatlarini tadqiq etadi. Sintaksisning asosiy vazifasi so‘zlarning qanday tartibda va qaysi grammatik vositalar yordamida bir-biri bilan munosabatga kirishishini, so‘z birikmalari va gaplarning tuzilish xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Misollar:

1)The students are reading a book. Ushbu gapda so‘zlar ma’lum sintaktik tartib asosida joylashgan. The students gapning egasi, are reading kesimi, a book esa to‘ldiruvchi vazifasini bajaradi. So‘zlarning o‘zaro grammatik bog‘lanishi gapning sintaktik tuzilishini hosil qiladi.

2)She gave her friend a present. Bu gapda She ega, gave kesim, her friend vositasiz bo‘lmagan to‘ldiruvchi, a present esa bevosita to‘ldiruvchi vazifasida kelgan. Gapdagi so‘zlar o‘zaro grammatik munosabat orqali bir butun sintaktik birlikni tashkil etadi.

3)Because it was raining, we stayed at home. Bu gap qo‘shma gap tuzilishiga ega. Because it was raining qismi sabab ma’nosini bildiruvchi ergash qism, we stayed at home esa bosh qism hisoblanadi. Ikki qism o‘rtasidagi grammatik va mazmuniy bog‘lanish gapning sintaktik tuzilishini yuzaga keltiradi.

Sintaktik xususiyat til birliklarining gap va matn tarkibida o‘zaro aloqaga kirishishi, gap bo‘laklari sifatida shakllanishi hamda muayyan grammatik vazifalarni bajarishi bilan bog‘liq muhim lingvistik hodisadir. Sintaksis tilshunoslikning gap qurilishi, so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi, so‘z birikmalari va

gaplar tuzilishini o‘rganadigan sohasidir. Shuning uchun sintaktik xususiyat tilning kommunikativ imkoniyatlarini, fikrning grammatik jihatdan shakllanishini va nutq izchilligini belgilashda muhim ahamiyatga ega:

1)The children are playing in the garden. Bu gapda the children ega, are playing kesim, in the garden esa hol vazifasida kelgan. Gapdagi so‘zlar o‘zaro sintaktik munosabat orqali bog‘langan.

2)She gave her brother a new book. Gapda she ega, gave kesim, her brother vositasiz to‘ldiruvchi, a new book esa ikkinchi to‘ldiruvchi vazifasini bajarmoqda. Bu gap ingliz tilidagi so‘zlarning sintaktik vazifalarini ko‘rsatadi.

Gap bo‘lagi sintaksisning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, u gap tarkibidagi so‘zlarning grammatik va mazmuniy jihatdan qanday vazifani bajarishini o‘rganishga xizmat qiladi. Gap bo‘laklari odatda **bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar**ga bo‘linadi. **Bosh bo‘laklar** gapning grammatik asosini tashkil qiladi. Ularga ega va kesim kiradi.

Ikkinchi darajali gap bo‘laklari esa bosh bo‘laklarning mazmunini to‘ldiradi, aniqlaydi yoki ularga turli jihatdan bog‘lanadi. Ularga to‘ldiruvchi, aniqlovchi va hol kiradi. Misollar:

1. The teacher explained the lesson to the students. Bu gapda **the teacher** — ega (subject), **explained** — kesim (predicate), **the lesson** — to‘ldiruvchi (object), **to the students** — bilvosita to‘ldiruvchi (indirect object) vazifasida kelgan.

2. The young boy opened the door slowly. The young boy — ega, **opened** — kesim, **the door** — to‘ldiruvchi, **slowly** — hol (adverbial modifier). “Young” esa **boy** so‘zini aniqlab kelgan aniqlovchidir.

3. My sister bought a new book yesterday. My sister — ega, **bought** — kesim, **a new book** — to‘ldiruvchi, **new** — aniqlovchi, **yesterday** — payt holi.

Ingliz frazeologiyasi (English phraseology) — ingliz tilida uchraydigan turg‘un, barqaror va ko‘pincha ko‘chma ma’noga ega so‘z birikmalarini tadqiq qiluvchi tilshunoslik yo‘nalishi. Frazeologiya so‘zlarning oddiy grammatik qo‘shilishidan farqli o‘laroq, ma’lum birikmaning tayyor shaklda ishlatilishi, ma’nosining yaxlitligi hamda nutqda takroran qo‘llanishini o‘rganadi:

1. Break the ice. *The teacher told a joke to break the ice before the lesson began (*Suhbatni boshlash, noqulay vaziyatni yumshatish). **Izoh:** Yangi yoki notanish odamlar o‘rtasidagi taranglikni kamaytirish va muloqotni oson boshlash ma’nosida ishlatiladi.

2. Once in a blue moon. *I go to the cinema once in a blue moon (*Juda kamdan-kam, onda-sonda). **Izoh:** Juda kam sodir bo‘ladigan voqea yoki harakatni ifodalaydi.

3. Spill the beans. *Tom accidentally spilled the beans about the surprise party (*Sirni oshkor qilmoq). **Izoh:** Biror kishining sir yoki yashirin ma’lumotni aytib qo‘yishini ifodalovchi idiomatik birlik.

4. Bite off more than you can chew. *She bit off more than she could chew by taking three difficult courses at once (*Kuchidan ortiq ishni zimmasiga olmoq). **Izoh:** Odam o‘z imkoniyatidan yoki qobiliyatidan ortiq darajada qiyin vazifani bajarishga uringan holatni bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Cowie, A. P. (ed.). (1998). Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. Oxford: Clarendon Press / Oxford University Press.

2. Skandera, Paul (ed.). (2007). Phraseology and Culture in English. Berlin/New York: Mouton de Gruyter.

3. Fiedler, Sabine. (2007). English Phraseology: A Coursebook. Tübingen: Narr.

4. Cowie, A. P. & Mackin, R. (1985). The Oxford Dictionary of Current Idiomatic English. Vol. 1. Oxford University Press.

5. Knappe, G. (2025). “Phraseology: From Phrasal Verbs to Proverbs.” The New Cambridge History of the English Language. Cambridge University Press. Cambridge University Press — Phraseology: From Phrasal Verbs to Proverbs.

6. Vetchinnikova, S. Phraseology and the Advanced Language Learner. Cambridge University Press. Cambridge University Press — Phraseology and the Advanced Language Learner.

7. Vandewerd, N. et al. “Comparing the longitudinal development of phraseological complexity across oral and written tasks.” Studies in Second Language Acquisition. Cambridge Core — Phraseological complexity study.

8. Crystal, D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. — 6th ed. Oxford: Blackwell Publishing, 2008.

9. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., Svartvik, J. A Comprehensive Grammar of the English Language. — London: Longman, 1985.

URBANIZATSIYA VA TIL VARIATIVLIGI

Sharopova Ra'no Jaxonovna
dotsent, f.f.f.d. (PhD)
Navoiy davlat universiteti
rrr.sharaf.74@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda til variativligi zamonaviy sotsiolingvistik tushuncha sifatida yoritiladi. Til birliklarining bir necha variantda qo'llanishi, variantlarning ijtimoiy va kommunikativ sharoitga ko'ra taqsimlanishi hamda variativlikning til o'zgarishi bilan munosabati tahlil qilinadi. Shuningdek, yosh, hudud, ijtimoiy guruh, kommunikativ vaziyat va nutq uslubi kabi omillarning variant tanlashdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Alohida e'tibor urbanizatsiya jarayonining til variativligiga ta'siriga qaratilib, shahar kommunikativ muhiti turli lingvistik tajribaga ega guruhlarning muntazam aloqasi natijasida variativlikning namoyon bo'lishi va ayrim variantlarning tarqalishi uchun qulay sharoit yaratishi asoslanadi. Mazkur yondashuv o'zbek tilining urbanizatsiya jarayonidagi o'zgarishlarini sotsiolingvistik jihatdan tadqiq etish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: til variativligi, lingvistik variant, sotsiolingvistika, til o'zgarishi, ijtimoiy guruh, shahar nutqi, urbanizatsiya, kommunikativ muhit.

Til bir xil shaklda va barcha kommunikativ vaziyatlarda bir xil tarzda qo'llanadigan yopiq tizim emas. Jamiyatdagi kishilarning yoshi, yashash hududi, ijtimoiy tajribasi, kasbi, ta'lim darajasi, muloqot muhiti va kommunikativ maqsadi turlicha bo'lgani kabi, ularning nutqida ham muayyan farqlar yuzaga keladi. Bir xil mazmun yoki kommunikativ vazifa turli shakllar orqali ifodalanishi mumkin. Ana shu holat tilning variativligi bilan bog'liq.

Til variativligi sotsiolingvistika uchun alohida ahamiyatga ega, chunki tilning variantlari faqat lingvistik tizim ichidagi shakliy farqlar emas. Ularning qo'llanishi ko'pincha muayyan ijtimoiy sharoit bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli sotsiolingvistik tadqiqotda "qaysi variant mavjud?" degan savol bilan bir qatorda "bu variantdan kim foydalanadi?", "qaysi vaziyatda?", "qanchalik tez-tez?" va "variant tanloviga qanday ijtimoiy omillar ta'sir qiladi?" kabi savollar ham muhimdir.

Bugungi sotsiolingvistik tadqiqotlarda variativlik tilning o'zgaruvchan tabiatini tushuntirishning muhim vositalaridan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa, ijtimoiy mobillik, migratsiya, ko'p tillilik va shaharlarning kommunikativ jihatdan murakkablashuvi til variantlarining tarqalishi va qayta taqsimlanishiga yangi sharoit yaratmoqda.

Til variativligi, avvalo, til birliklarining bir necha variantda mavjud bo‘lishi va qo‘llanishini anglatadi. Bunda variantlar bir xil ma’noni yoki yaqin kommunikativ vazifani turli shakllarda ifodalashi mumkin. Variativlik fonetik, leksik, grammatik, uslubiy va boshqa sathlarda namoyon bo‘ladi. Masalan, biror so‘zning turli talaffuz shakllari fonetik variativlikni, bir tushunchaning turli nomlar bilan ifodalanishi leksik variativlikni, bir mazmunning turli grammatik shakllar orqali berilishi esa grammatik variativlikni yuzaga keltirishi mumkin. Biroq sotsiolingvistika uchun variantlarning mavjudligidan ko‘ra**,** ularning ijtimoiy taqsimlanishi muhimroqdir. Shu nuqtayi nazardan, til variativligini “bir necha shaklning mavjudligi” bilan cheklash yetarli emas. Muhim jihat shundaki, turli variantlar turli ijtimoiy guruhlar yoki kommunikativ vaziyatlarda bir xil darajada qo‘llanmasligi mumkin. Masalan, bir variant yoshlar nutqida faolroq, boshqa variant esa katta avlod vakillari nutqida ko‘proq uchrashi mumkin. Shuningdek, norasmiy suhbatda faol qo‘llanadigan shakl rasmiy nutqda kamroq ishlatilishi ehtimol. Shu sababli sotsiolingvistik tadqiqot til birliklarini faqat “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” shakllarga ajratish bilan cheklanmaydi. Uning e’tibori real nutqda mavjud bo‘lgan variantlarning kim tomonidan, qachon va qanday sharoitda qo‘llanishiga qaratiladi. Bu yondashuv tilning amaliy qo‘llanishini jamiyat bilan bog‘liq holda tushunishga imkon beradi.

Variativlikning yana bir muhim jihati shundaki, u tilning hozirgi holati bilan uning kelajakdagi o‘zgarishlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuzatishga yordam beradi. Til o‘zgarishi ko‘pincha birdaniga sodir bo‘lmaydi. Avval eski va yangi shakllar ma’lum vaqt davomida yonma-yon qo‘llanishi mumkin. Keyinchalik ularning qo‘llanish chastotasi yoki ijtimoiy taqsimlanishi o‘zgaradi. Shu ma’noda variativlik til o‘zgarishining yuzaga kelish jarayonini kuzatish imkonini beradigan muhim hodisadir.

Bu jihat ayniqsa yoshlar nutqini o‘rganishda muhim. Yosh avlod nutqida faol qo‘llanayotgan ayrim variantlar keyinchalik kengroq ijtimoiy guruhlarga tarqalishi yoki aksincha, faqat ma’lum guruh doirasida qolishi mumkin. Shuning uchun muayyan variantning mavjudligini qayd etishning o‘zi yetarli emas; uning ijtimoiy tarqalishi va vaqt davomida qanday o‘zgarayotganini ham kuzatish zarur.

Urbanizatsiya sharoitida til variativligini o‘rganish yanada muhimlashadi. Chunki shahar oddiy geografik makon emas, balki turli ijtimoiy guruhlar, turli hududlardan kelgan aholi va turli kommunikativ tajribalar kesishadigan murakkab ijtimoiy muhitdir. Zamonaviy sotsiolingvistik yondashuvlarda makon ham o‘zgarmas hodisa sifatida emas, balki insonlarning harakati, ijtimoiy aloqalari va kommunikativ tajribasi bilan doimo qayta shakllanadigan muhit sifatida qaralmoqda.

Shahar aholisi tarkibining xilma-xillashuvi natijasida turli hududiy va ijtimoiy nutq xususiyatlari bir kommunikativ makonda uchrashadi. Bunday sharoit mavjud variantlarning bir-biriga ta’sir qilishi, ayrim variantlarning kengroq qo‘llanishi yoki yangi kommunikativ sharoitga moslashishi uchun imkoniyat yaratadi. Shu jihatdan urbanizatsiya til variativligini bevosita “yaratib qo‘yadigan” emas, balki uning namoyon bo‘lishi, tarqalishi va qayta taqsimlanishi uchun yangi ijtimoiy sharoit yaratadigan jarayon sifatida baholanishi mumkin.

Shahar muhitida variativlikning shakllanishida aholining geografik va ijtimoiy mobilligi ham muhimdir. Turli hududlardan shaharga kelgan kishilar o‘zlari bilan ma’lum nutq tajribalarini olib keladi. Shahar kommunikatsiyasida bu xususiyatlar boshqa nutq shakllari bilan uchrashadi. Natijada ayrim shakllar saqlanib qolishi, ayrimlari boshqa variantlar bilan raqobatga kirishishi, ayrimlari esa kengroq guruhlar tomonidan qabul qilinishi mumkin.

Bu jarayonni o‘zbek tilining urbanizatsiya sharoitidagi o‘zgarishlarini o‘rganishda ham hisobga olish zarur. Xususan, Navoiy shahri kabi urbanizatsiya jarayonlari faol kechayotgan hududlarda turli hududlardan kelgan aholining bir makonda yashashi va muntazam muloqot qilishi nutqdagi variantlarning ijtimoiy taqsimlanishini o‘rganish uchun muhim material beradi. Masalan, yoshlar nutqida kuzatiladigan *borar edim/borasdim; boryapman/borobman/boropman/boroppan* kabi shakllar grammatik variativlik nuqtayi nazaridan e’tiborga loyiqdir. Bunday shakllarning mavjudligi ularning darhol til o‘zgarishiga aylanganini anglatmaydi. Buning uchun ularning turli yosh guruhlari, kommunikativ vaziyatlar va ijtimoiy muhitlarda qanchalik faol qo‘llanishini aniqlash kerak. Biroq bunday kuzatuvlar urban nutqdagi variantlarni muntazam sotsiolingvistik tadqiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

Til variativligi tilning o‘zgaruvchan va ijtimoiy tabiatini namoyon etadigan muhim sotsiolingvistik hodisadir. U til birliklarining bir necha variantda mavjud bo‘lishi bilangina emas, balki ushbu variantlarning turli ijtimoiy va kommunikativ sharoitlarda turlicha qo‘llanishi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun variativlikni o‘rganish til tizimini jamiyatdan ajratib emas, balki real kommunikativ faoliyat bilan bog‘liq holda tahlil qilish imkonini beradi.

Variativlikning muhim ilmiy ahamiyati shundaki, u til o‘zgarishining dastlabki bosqichlarini kuzatish imkonini beradi. Variantlarning ijtimoiy guruhlar, yosh avlod, hudud yoki kommunikativ vaziyatlar bo‘yicha taqsimlanishini o‘rganish orqali tilning qanday yo‘nalishda o‘zgarayotganiga oid ilmiy farazlar ishlab chiqish mumkin.

Urbanizatsiya esa bunday tadqiqotlar uchun o‘ziga xos kommunikativ muhit yaratadi. Shaharda aholining geografik va ijtimoiy mobilligi kuchayishi, turli nutq tajribalarining bir makonda uchrashishi hamda kommunikativ aloqalarning

kengayishi til variantlarining qo‘llanishi va tarqalishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli o‘zbek tilining urbanizatsiya jarayonidagi o‘zgarishlarini o‘rganishda til variativligini alohida sotsiolingvistik omil sifatida tadqiq etish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmanova Sh., Bekmuxamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika. Toshkent: “Universitet”, 2014.
2. Wardhaugh, R., Fuller, J. M. An Introduction to Sociolinguistics. 8th ed. Wiley-Blackwell, 2021.
3. Labov, W. Sociolinguistic Patterns. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972.
4. Eckert, P. Linguistic Variation as Social Practice. Oxford: Blackwell, 2000.
5. Chambers, J. K., Trudgill, P., Schilling-Estes, N. The Handbook of Language Variation and Change. Oxford: Blackwell, 2002.

ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЯЗЫК И ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА

Хамракулова О.Д.
к.э.н., доц. кафедры «Экономическая теория»
Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация: Развитие экономики Узбекистана во многом связана с изменениями государственной политики в области дальнейшего совершенствования использования узбекского языка как специфической экономической инфраструктуры, которая активно влияет на развитие экономики. В работе рассмотрены проблемы дальнейшего совершенствования использования государственного языка как драйвера экономического развития.

Ключевые слова: язык, государственный язык, узбекский язык, языковая экономика, мировая экономика, глобализация мировой экономики, экономический рост, инвестиции, ускорение развития экономики, направления развития экономики инновации.

Annotatsiya: O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi ko‘p jihatdan iqtisodiy rivojlanishga faol ta’sir ko‘rsatuvchi o‘ziga xos iqtisodiy infratuzilma sifatida o‘zbek tilidan foydalanishni yanada yaxshilashga qaratilgan hukumat siyosatidagi

o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Ushbu maqolada davlat tilidan iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida foydalanishni yanada yaxshilash muammolari ko‘rib chiqiladi.

***Kalit so'zlar*:** davlat tili, o‘zbek tili, til iqtisodiyoti, jahon iqtisodiyoti, jahon iqtisodiyotining globallashuvi, iqtisodiy o‘sish, investitsiyalar, iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirish, iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlari, innovatsiyalar**.**

Abstract: The economic development of Uzbekistan is largely linked to shifts in state policy aimed at further enhancing the use of the Uzbek language—viewed as a specific form of economic infrastructure that actively influences economic growth. This paper examines the challenges associated with further improving the role of the state language as a driver of economic development.

Keywords: language, state language, Uzbek language, language economics, world economy, globalization of the world economy, economic growth, investments, acceleration of economic development, directions of economic development, innovation

Введение. Развитие любого общества тесно связано с таким феноментом как язык. Язык — это своеобразная совокупность звуков и символов, каждый из которых имеет определенное значение. Язык это важный инструмент человеческого взаимодействия и общения. Благодаря языку мы можем выражать свои мысли в материальной речевой форме. В этой связи, возникают самые различные проблемы, которые могут определить влияние языка, в частности, государственного языка на развитие экономики в Узбекистане . Актуальность и значимость данной проблемы определена рядом законодательных актов по данному вопросу. В Узбекистане принята Концепция развития узбекского языка и совершенствования языковой политики в 2020-2030 годах, в которой были определены приоритетные направления развития государственного языка, в частности, «достижение полноценного и правильного использования возможностей государственного языка во всех сферах общественно-политической жизни страны» [1]

Поэтому, мы считаем, что важную роль на сегодняшний день. играет такие вопросы: Как государственный язык, его возможности помогут решать проблемы экономического развития Узбекистана? Что сегодня не позволяет успешно решать проблемы экономического роста и т.д.?

Анализ использованной литературы. Использование языка в исследовании экономики нашло свое отражение в появления такой категории как “**Экономика языка»** — область исследований на стыке экономики и социолингвистики. Экономика языка в известной мере пересекается с социолингвистикой ввиду общности исследуемых объектов. Но, в отличие от

социолингвистики, экономика языка рассматривает язык и сопряженные с ним явления и закономерности не как самостоятельные и самоценные, но как частные проявления более общих экономических понятий и закономерностей. Так, языковые компетенции с экономической точки зрения являются, наряду с иными навыками, элементом человеческого капитала, обеспечивающим своему носителю доступ к разнообразным рынкам — рынку труда, рынку благ (в том числе информационных), позволяющим с выгодой для себя взаимодействовать с иными людьми и организациями.

На сегодняшний день **экономика языка** не представляет собой приоритетную область изучения экономики. Однако существует значительная база исследований в рамках данного направления. Одной из таких работ является труд Эндрю Джона *Динамические модели языковой эволюции: Экономическая перспектива* (2016). Данная статья выявляет связь между экономикой и языком путем разбора ряда статических и динамических экономических моделей и рассматривает влияние экономических сил на языковые изменения.[2]

Такой небольшой исторический аспект нам был необходим, чтобы определить влияние языковой экономики на изменение экономики. Язык — это базовый экономический ресурс и инструмент координации, определяющий скорость транзакций, инноваций и международной торговли.[3]

Экономика языка(Economics of Language) **находит своё проявление через** : Транзакционные издержки: Общий язык снижает затраты на поиск информации, заключение контрактов и юридическое сопровождение.

- Человеческий капитал: Владение языками (государственным и глобальными) повышает мобильность рабочей силы, производительность и доходы.
- Дисциплина на стыке наук: изучает влияние языковых навыков на рынок труда, миграцию и макроэкономическую динамику
- **Касаясь экономики языка, можно выделить его конкретные направления влияния на экономику :**
- Международная торговля: Общий язык или знание языка партнера увеличивает объем экспортно-импортных операций и приток прямых инвестиций.
- Инновации и знания: Трансфер технологий и научный обмен ускоряются при владении доминирующими языками науки (например, английским).
- Деловая коммуникация: Снижение уровня недопонимания в корпоративной среде и глобальных цепочках поставок.

- Туризм и экспорт услуг: Языковая доступность

Методология исследования. В работе использован абстрактный метод, а также математические и статистические методы.

А**нализ и результаты.** Экономика Узбекистана растет быстрыми темпами (рост ВВП за первое полугодие 2026 года составил **8,5%**), а развитие языка и коммуникационной инфраструктуры становится критическим фактором для бизнеса и инвестиций. [3]

Макроэкономические показатели: Темпы роста: ВВП показывает сильную динамику (около 8,5–8,7% в начале/полугодии 2026 года).;н**аселение и рынок:** население превышает **40 миллионов**, что расширяет внутренний рынок.; ст**руктура:** Доля услуг и промышленности растет, привлекаются миллиардные иностранные инвестиции.

Говоря о роли языка как экономической инфраструктуры, необходимо выделить проблемы :

- **Коммуникационные барьеры:** Недостаточная динамика развития деловой и технической базы государственного языка тормозит часть транзакций и интеграцию.
- **Лингвистическая адаптация:** Бизнесу требуется качественная локализация документов, IT-продуктов, интерфейсов и цифровых сервисов на узбекский язык.
- **Многоязычие как актив:** Сохранение позиций русского и распространение английского создают мост для внешней торговли, аутсорсинга и привлечения глобальных партнеров.
  - **Государственный статус:** Узбекский язык закреплен как государственный (статья 4 Конституции), при этом поддерживается уважение к языкам диаспор и регионов (каракалпакский).

Заключение и предложения: Языковая инфраструктура в экономике Узбекистана выступает фундаментальным драйвером роста, где язык рассматривается не просто как средство общения, а как критически важный экономический актив, снижающий транзакционные издержки и определяющий интеграцию страны в глобальные рынки.

Современная многоязычная модель Узбекистана выполняет четкие экономические функции, разделенные по ключевым языковым направлениям:

1. Узбекский язык — инфраструктура внутреннего рынка

Государственный язык является **главной точкой внутренней рыночной коммуникации:**

- локализация брендов и маркетинг**:** Без динамичного развития узбекского языка сохраняется коммуникационный барьер между бизнесом и потребителями. Качественный узбекский контент, цифровая терминология и

профессиональный копирайтинг формируют емкость внутреннего рынка e-commerce и финтеха.

- нормативно-правовая база**:** Проведение обязательной лингвистической экспертизы законов и актов обеспечивает прозрачность и правовую стандартизацию для национального бизнеса.

2. Английский язык — локомотив IT-экспорта и цифровизации

Английский язык стал основой для трансформации Узбекистана в международный цифровой хаб:

- режим «Enterprise Uzbekistan»**:** В рамках Международного центра цифровых технологий на базе IT Park внедряются принципы английского права и создается англоязычная инфраструктура «единого окна» для привлечения зарубежных технологических гигантов.
- аутсорсинг (BPO и KPO)**:** Резидентам IT Park официально разрешено вести деятельность по обучению сотрудников IT-английскому. Это позволяет молодежи работать в секторах BPO (аутсорсинг бизнес-процессов) и KPO (аутсорсинг процессов знаний), экспортируя технологические услуги на рынки США, Европы и Азии
- **3. Русский язык — мост региональной интеграции и логистики**

Русский язык сохраняет мощную экономическую функцию как язык межнационального общения и деловой интеграции в рамках СНГ:

- торговля и логистика**:** Внешнеэкономические связи, транспортные коридоры и цепочки поставок с ключевыми партнерами (Россия, Казахстан, Беларусь) администрируются преимущественно на русском языке.
- трудовая миграция**:** Поток денежных переводов от трудовых мигрантов остается важным фактором макроэкономической стабильности. Государство субсидирует и компенсирует до 50% расходов граждан на изучение языков и сдачу квалификационных экзаменов перед выездом за рубеж.

4. Восточные и европейские языки — инвестиции и туризм

Диверсификация экономики стимулирует спрос на новые языковые компетенции:]

- китайский язык**:** Обслуживает масштабные инфраструктурные проекты, энергетические контракты и инвестиции в рамках инициатив с КНР.
- арабский язык**:** Выступает финансово-дипломатическим мостом для привлечения капитала из суверенных фондов стран Персидского залива.
- немецкий, корейский, японский**:** Востребованы в сфере туризма, совместных промышленных предприятий и программ организованной внешней трудовой миграции.

- Такой подход к использованию узбекского языка, а также других языков еще раз подтверждает основную идею, что узбекский язык должен развиваться и совершенствоваться вместе с реальными условиями развития региональной и мировой экономики. Это игнорировать невозможно, т.к. языку сегодня является специфической экономической инфраструктурой**.[4-6]**

Список использованной литературы:

1. Концепция развития узбекского языка и совершенствования языковой политики в 2020-2030 годах,- www Lex uz

2Языковая экономика. –https // Wikipedia ord

3. goole. com

.4. Хамракулова О. Д. Проблемы инвестирования в ускорении развития экономики Узбекистана. - IJEFI: Journal of Economics, finance and innovation, 2024 , vo-11 ,issue- 2, p. 50-54- http ://www sbtsuejournals uz

.5. Хамракулова О.Д. Зеленая экономика и экологический туризм в Узбекистане..-жур. «Сервис», №3, 2024г., 143-147 стр.

6..Хамракулова О.Д. Инвестиции и становление инновационного пути развития экономики Узбекистана. жур. «Сервис», №3, 2025г., 192-195 стр.

DAVLAT TILI TA’LIMI VA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: BARQAROR IQTISODIY YUKSALISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

Norova Gulsanam Maxsutovna,
Filologiya fanlari dotsenti, falsafa doktori (PhD)
gulsanam1981ndpi@umail.uz
(+99890) 7304595
Azamova Gulruh Akbar qizi
Navoiy davlat universiteti doktaranti
gulruhazamova798@gmail.com
(+99893) 4379664
https://orcid.org/0009-0009-4802-3627

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi ijtimoiy-funksional imkoniyatlari zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot, inson kapitali, intellektual resurslar, raqamli transformatsiya va innovatsion rivojlanish jarayonlari bilan uzviy aloqadorlikda tadqiq etiladi. Davlat tilining iqtisodiy hayotdagi vazifasi faqat rasmiy hujjatchilik yoki boshqaruv kommunikatsiyasi bilan chegaralanmasligi, balki

iqtisodiy axborotni uzatish, bilim va kompetensiyalarni shakllantirish, tadbirkorlik subyektlari bilan davlat o‘rtasidagi kommunikativ munosabatlarni tartibga solish, raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda milliy intellektual kapitalni shakllantirish vositasi sifatida namoyon bo‘lishi asoslanadi. Maqolada o‘zbek tilining zamonaviy iqtisodiy terminologiyasi, raqamli kommunikatsiya, elektron hukumat, elektron tijorat, sun’iy intellekt va lingvistik texnologiyalar rivoji bilan bog‘liq masalalar tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat tilining iqtisodiy funksional imkoniyatlarini kengaytirish uchun terminologik standartlashtirish, raqamli lingvistik resurslarni rivojlantirish, o‘zbek tilidagi ilmiy-ta’limiy kontentni ko‘paytirish, sun’iy intellekt tizimlari uchun milliy til korpuslarini yaratish hamda tilshunoslik, iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fanlari integratsiyasini kuchaytirish zarurligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqot natijalari o‘zbek tilining milliy-madaniy qadriyat sifatidagi ahamiyati bilan bir qatorda, uni zamonaviy bilimlar iqtisodiyoti va raqamli taraqqiyotning faol kommunikativ resursiga aylantirish istiqbollarini belgilashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: davlat tili, o‘zbek tili, til siyosati, tilning ijtimoiy funksiyasi, iqtisodiy kommunikatsiya, lingvoiqtisodiyot, iqtisodiy diskurs, iqtisodiy terminologiya, terminologik standartlashtirish, inson kapitali, intellektual kapital, bilimlar iqtisodiyoti, raqamli transformatsiya, raqamli lingvistika, elektron hukumat, elektron tijorat, sun’iy intellekt, tabiiy tilni qayta ishlash, milliy til korpusi, lingvistik resurslar, til texnologiyalari, innovatsion rivojlanish, iqtisodiy savodxonlik, kommunikativ kompetensiya, barqaror taraqqiyot.

Tilning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni haqida so‘z borganda, uni faqat aloqa vositasi yoki milliy-madaniy hodisa sifatida baholash zamonaviy ijtimoiy jarayonlarning murakkabligini to‘liq aks ettirmaydi. Til - bilimni yaratish, saqlash, uzatish, avloddan avlodga yetkazish, ijtimoiy tajribani umumlashtirish va inson faoliyatini muvofiqlashtirishning universal mexanizmidir. Ayniqsa, davlat tili maqomiga ega bo‘lgan tilning jamiyat hayotidagi funksional doirasi keng bo‘lib, u siyosiy boshqaruv, huquqiy munosabatlar, ta’lim, fan, madaniyat bilan bir qatorda iqtisodiy jarayonlarda ham faol ishtirok etadi. Shu ma’noda, o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi taraqqiyotini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlaridan ajratib tasavvur qilish mumkin emas.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganidan buyon o‘tgan davr milliy til taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. Davlat boshqaruvi, qonunchilik, ta’lim, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy kommunikatsiyada o‘zbek tilining qo‘llanish doirasi kengaydi. Biroq XXI asrning yangi iqtisodiy va texnologik voqeligi til oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Globallashuv, raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, elektron tijorat, masofaviy ta’lim, raqamli bank xizmatlari, innovatsion tadbirkorlik va bilimlar iqtisodiyotining rivojlanishi

natijasida tilning funksional imkoniyatlariga qo‘yilayotgan talablar ham tubdan o‘zgarmoqda.

Bugungi kunda iqtisodiy taraqqiyotning asosiy resurslari qatorida bilim, axborot, innovatsiya va inson kapitali alohida o‘rin egallaydi. Mazkur resurslarning barchasi esa til orqali yaratiladi, tizimlashtiriladi va tarqatiladi. Shu nuqtayi nazardan, davlat tilining iqtisodiy funksiyasini chuqurroq o‘rganish zarur. Til iqtisodiyotga bevosita mahsulot ishlab chiqaruvchi omil sifatida emas, balki iqtisodiy faoliyatni ta’minlovchi axborot-kommunikativ infratuzilma sifatida ta’sir ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, iqtisodiy qarorlarning sifati ko‘p jihatdan tegishli axborotning qanchalik aniq, tushunarli va o‘z vaqtida yetkazilishiga bog‘liq.

Masalan, tadbirkor davlat tomonidan taqdim etilayotgan imtiyoz yoki moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmidan foydalanishi uchun avvalo uning shartlarini tushunishi, huquq va majburiyatlarini anglashi, tegishli hujjatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirishi kerak. Fuqaro davlat xizmatlaridan foydalanishda, bank operatsiyalarini amalga oshirishda, mehnat shartnomasini tuzishda yoki elektron platformada ro‘yxatdan o‘tishda ham axborotni qabul qilish va talqin qilish qobiliyatiga tayanadi. Demak, davlat tilidagi sifatli iqtisodiy kommunikatsiya aholining iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish darajasiga bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan omillardan biridir.

Shu jihatdan davlat tilining iqtisodiy funksiyasini “kommunikativ kapital” tushunchasi bilan bog‘lash mumkin. Kommunikativ kapital — shaxs yoki jamiyatning zarur axborotni anglash, undan foydalanish, boshqa subyektlar bilan samarali muloqot qilish va shu orqali ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish salohiyatidir. Davlat tilida yaratilgan sifatli huquqiy, iqtisodiy, ilmiy va ta’limiy kontent mazkur kommunikativ kapitalning shakllanishiga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida inson kapitalining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Inson kapitali esa bugungi bilimlar iqtisodiyotining markaziy kategoriyalaridan biridir. Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotda tabiiy resurslar bilan bir qatorda, bilimli, malakali, innovatsion fikrlaydigan va raqamli texnologiyalardan samarali foydalana oladigan inson omili hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, o‘zbek tilining ta’lim va ilm-fan tili sifatidagi imkoniyatlarini kengaytirish iqtisodiy taraqqiyotning ham muhim shartlaridan biridir. Zamonaviy kasblar bo‘yicha o‘zbek tilida sifatli darsliklar, elektron kurslar, videodarslar, ilmiy-ommabop materiallar va amaliy qo‘llanmalarning ko‘payishi bilimning ijtimoiy diffuziyasini tezlashtiradi.

Bunda iqtisodiy terminologiya alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Terminologiya - fan va kasbning konseptual tizimini ifodalovchi til qatlamidir. Iqtisodiyotning yangi yo‘nalishlari paydo bo‘lishi bilan tilga yangi tushunchalar kirib kelmoqda. “Raqamli iqtisodiyot”, “elektron tijorat”, “fintex”, “sun’iy

intellekt”, “startap”, “blokcheyn”, “raqamli marketing”, “platforma iqtisodiyoti”, “kiberxavfsizlik” kabi tushunchalar zamonaviy iqtisodiy diskursning faol birliklariga aylanmoqda.

Yangi terminlarning o‘zbek tilida shakllanishi oddiy leksik jarayon emas. U iqtisodiy tafakkurning milliy tilda ifodalanishi bilan bog‘liq murakkab lingvistik va ekstralingvistik jarayondir. Shu sababli yangi terminlarni yaratish yoki o‘zlashtirishda ilmiy aniqlik, milliy tilning ichki imkoniyatlari, xalqaro ilmiy kommunikatsiya, qo‘llanish qulayligi va terminning ommalashish darajasi birgalikda hisobga olinishi lozim. Aks holda, bir tushunchaning turli manbalarda turlicha nomlanishi iqtisodiy kommunikatsiyada terminologik nomuvofiqliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek tilining iqtisodiy terminologiyasini standartlashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Iqtisodiy terminlarning elektron bazasini yaratish, ularning izohli lug‘atlarini muntazam yangilash, yangi terminlarning ilmiy ekspertizasini yo‘lga qo‘yish, turli sohalarda bir xil terminning izchil qo‘llanishini ta’minlash davlat tilining ilmiy va iqtisodiy funksional imkoniyatlarini kuchaytiradi.

Davlat tilining iqtisodiy salohiyati, ayniqsa, raqamli transformatsiya sharoitida yanada yaqqol ko‘rinmoqda. Bugungi kunda iqtisodiy munosabatlarning katta qismi raqamli platformalar orqali amalga oshirilmoqda. Elektron hukumat, elektron tijorat, mobil bank xizmatlari, masofaviy ta’lim, onlayn maslahat, raqamli marketing va boshqa xizmatlarning rivojlanishi foydalanuvchidan yangi kommunikativ ko‘nikmalarni talab qilmoqda. Mazkur platformalarda o‘zbek tilining to‘liq, sifatli va foydalanuvchiga qulay tarzda mavjud bo‘lishi raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiruvchi omillardan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, o‘zbek tilining raqamli texnologiyalar uchun lingvistik resurs sifatidagi salohiyatini rivojlantirish masalasi ham muhimdir. Sun’iy intellekt, tabiiy tilni qayta ishlash, avtomatik tarjima, nutqni tanish, matnni avtomatik tahlil qilish va ovozli texnologiyalar sifatli lingvistik ma’lumotlar bazasini talab qiladi. Demak, o‘zbek tilining milliy korpuslarini kengaytirish, elektron lug‘atlarni rivojlantirish, terminologik ma’lumotlar bazalarini yaratish, og‘zaki va yozma nutq korpuslarini shakllantirish nafaqat filologik tadqiqotlar, balki zamonaviy texnologik rivojlanish uchun ham zarur.

Bu jarayonda tilshunoslikning boshqa fanlar bilan integratsiyasi alohida ahamiyatga ega. Tilshunos, iqtisodchi, dasturchi, ma’lumotlar muhandisi, pedagog va huquqshunoslarning hamkorligi orqali o‘zbek tilining zamonaviy raqamli resurslarini yaratish mumkin. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi o‘zbek tilshunosligi oldiga yangi ilmiy vazifalarni qo‘ymoqda. Endilikda tilni faqat an’anaviy metodlar asosida o‘rganish bilan birga, katta

hajmdagi matnlar bazasi, korpus lingvistikasi, kompyuter lingvistikasi va raqamli leksikografiya imkoniyatlaridan foydalanish talab etiladi.

O‘zbek tilining iqtisodiy kommunikatsiyadagi ahamiyati tadbirkorlik muhitida ham namoyon bo‘ladi. Tadbirkor davlat organlari, moliya institutlari, hamkorlar, xodimlar va iste’molchilar bilan muntazam kommunikatsiyada bo‘ladi. Shartnomalar, soliq va moliyaviy hujjatlar, kredit shartlari, davlat dasturlari, elektron xizmatlar va biznesga oid axborotlarning davlat tilida aniq va tushunarli taqdim etilishi tadbirkorlik subyektlarining axborotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ayniqsa, kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilish kabi yo‘nalishlarda o‘zbek tilidagi amaliy qo‘llanmalar, videoresurslar va raqamli ta’lim platformalarini rivojlantirish muhim. Chunki iqtisodiy savodxonlikning oshishi ko‘pincha murakkab iqtisodiy tushunchalarning foydalanuvchiga tushunarli shaklda yetkazilishiga bog‘liq. Shu ma’noda, davlat tilida sifatli iqtisodiy kontent yaratish ham til siyosati, ham iqtisodiy ma’rifat masalasidir

Tilning iqtisodiy taraqqiyotdagi o‘rni hududiy rivojlanish jarayonlarida ham namoyon bo‘ladi. Aholiga bandlik, kasb-hunar, tadbirkorlik, davlat dasturlari, moliyaviy savodxonlik va ijtimoiy xizmatlarga oid axborotlarning sodda va tushunarli o‘zbek tilida yetkazilishi iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish ko‘lamini kengaytirishi mumkin. Shu sababli davlat tilidagi iqtisodiy kommunikatsiya faqat markaziy davlat tashkilotlari faoliyati bilan chegaralanmasdan, hududiy darajada ham tizimli ravishda rivojlantirilishi lozim.

Bugungi globallashuv sharoitida o‘zbek tilining rivoji xalqaro kommunikatsiyadan uzilish hisobiga emas, balki xalqaro ilmiy va iqtisodiy makonda faol ishtirok etish bilan uyg‘unlashishi kerak. Buning uchun o‘zbek tilidagi terminologik tizim xalqaro ilmiy tushunchalarni aniq ifodalash imkoniyatiga ega bo‘lishi, o‘zbek tilidagi ilmiy tadqiqotlar raqamli platformalarda keng tarqalishi va milliy ilmiy resurslar xalqaro axborot makoniga integratsiyalashishi zarur.

Shu jihatdan, davlat tili siyosatining yangi bosqichida uch asosiy yo‘nalish o‘zaro uyg‘unlashishi kerak: tilning milliy-madaniy asoslarini saqlash, uning ilmiy-intellektual salohiyatini kengaytirish va raqamli texnologiyalardagi funksional imkoniyatlarini kuchaytirish. Ana shundagina davlat tili zamonaviy jamiyatning barcha asosiy kommunikativ ehtiyojlarini qamrab oluvchi to‘laqonli ijtimoiy institut sifatida rivojlanadi.

O‘zbek tilining iqtisodiy taraqqiyotdagi roli haqida gapirganda, “til iqtisodiyotni rivojlantiradi” degan biryoqlama xulosadan ko‘ra, til va iqtisodiyot o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirni hisobga olish muhim. Iqtisodiyot rivojlangan sari yangi tushunchalar va terminlar paydo bo‘ladi; til esa ularni nomlash, tizimlashtirish va jamiyatga yetkazish vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, tilning

axborot va ta’lim imkoniyatlari qanchalik rivojlangan bo‘lsa, yangi bilim va texnologiyalarning jamiyatga kirib borishi uchun kommunikativ sharoit ham shunchalik kengayadi.Demak, til va iqtisodiyot o‘rtasida ikki tomonlama munosabat mavjud: **iqtisodiy taraqqiyot tilning lug‘aviy, terminologik va kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi, rivojlangan til muhiti esa bilim, axborot va texnologiyalarning jamiyatda samarali tarqalishiga xizmat qiladi.**Bugun o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeini mustahkamlash uchun uning faqat rasmiy qo‘llanish doirasini kengaytirishning o‘zi yetarli emas. Tilning ilm-fan, iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, elektron tijorat va innovatsion faoliyatdagi real funksional imkoniyatlarini oshirish zarur. Bu esa yangi avlod lug‘atlarini yaratish, milliy til korpuslarini boyitish, iqtisodiy va texnologik terminologiyani standartlashtirish, raqamli lingvistik platformalarni rivojlantirish, o‘zbek tilidagi ilmiy kontentni ko‘paytirish va tilshunoslikning boshqa fanlar bilan integratsiyasini kuchaytirishni talab etadi.Shunday ekan, davlat tilining istiqboli uning faqat bugungi ijtimoiy mavqei bilan emas, balki ertangi kun ehtiyojlarini qanchalik ifodalay olishi bilan belgilanadi. O‘zbek tili yangi iqtisodiy kategoriyalarni nomlay oladigan, murakkab ilmiy g‘oyalarni aniq ifodalaydigan, raqamli texnologiyalar bilan samarali integratsiyalasha oladigan va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladigan zamonaviy til sifatida takomillashib borishi zarur.

Zero, davlat tili — faqat milliy o‘zlik belgisi emas. U **milliy bilimlar makoni, intellektual kapital, iqtisodiy kommunikatsiya, raqamli transformatsiya va innovatsion tafakkurning ham muhim tayanchidir.** Tilning taraqqiyoti inson tafakkurining imkoniyatlarini kengaytiradi, tafakkurning rivoji esa yangi bilim, innovatsiya va iqtisodiy qiymat yaratish imkoniyatlarini kuchaytiradi. Shu ma’noda, o‘zbek tilini zamonaviy iqtisodiyot va raqamli taraqqiyotning faol tiliga aylantirish davlat tilining nufuzini oshirishning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini oshirishga oid farmon va qarorlari.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
4. O‘zbek tilining milliy korpusi va zamonaviy o‘zbek tilining raqamli resurslariga oid ilmiy tadqiqotlar.
5. O‘zbek terminologiyasi va terminografiyasiga oid ilmiy tadqiqotlar.
6. Kompyuter lingvistikasi, raqamli lingvistika va tabiiy tilni qayta ishlashga oid ilmiy tadqiqotlar.

NAQSHBANDIYLIKNING MAVLONO MUHAMMAD QOZI TARMOG'I.

Alimov Mansur Narboevich
SamDVMCHBU academic lyceum teacher
SamDCHTI Independent Researcher
alimovmansur317@gmail.com

Annatatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda Naqshbandiya silsilasidagi Sharif va A'liya tariqatlarining piri murshidlari silsilasi keltirilgan.Shuningdek maqolada Silsilayi Sharifiyaning yirik nomayandasi Mavlono Muhammad Qozining naqishbandiya ta'limotining ijtimoylashuvidagi xizmatlariga keng o'rin ajratilgan.

Kalit so'zlar: Naqshbandiya, Sharif va A'liya tariqatlari, Xoja Ahror, Mahdumi A'zam, irshodnoma, Mavlono Muhammad Qozi, oltin zanjir, Kattaxonxo'ja Dahbediy, 29-halqa piri

Kirish. O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda faoliyat ko'rsatgan turli tasavvuf tariqatlari ichida Naqshbandiya, Yassaviya, Kubraviya, Suhraverdiya, Qodiriya, Chishtiya tariqatlari eng yirik silsilalar hisoblangan.Ular orasida Yassaviya tariqatining ulug' sulki bo'lgan Yassaviya-Sultoniya-Jahriya shoxasi o'z tariqatida ustuvor yo'nalishlarni egallab kelgan. Har silsila tarixida buyuk arboblar etishib chiqgan. Naqshbandiya-sharifda Xoja Naqshband, Xojai Ahror, Mahdumi A'zamdan tashqari yana Xoja Islom Jo'yboriy, Ofoqxo'ja, Muhammad Aminlar; Naqshbandiya-a'liya-mujaddiya yo'nalishida Ali Soniy,Musoxonxojai Dahbediylar, Kubraviyi sharifiya tariqatida Shayx Najimiddin Kubro, Shayx Majdiddin Bog'dodiy, Shayx Ali Lolo va Shayx Maxdumi Xorazimiy kabilarning eng buyuk xizmatlar qilishib, o'z tariqatlari orqali islom dunyosi tasavvuf ta'limoti rivojiga hissalar qo'shishgan.[1.34] Keyingi o'rta asrlarda Markaziy Osiyodagi barcha silsilalar Naqshbandiya tariqatiga qo'shilib ketgunga qadar, yuqoridagi arboblar boshqarishgan sulukshohlari yurtimizning ijtimoiy, siyosiy hayotida katta rol o'ynab kelishgan. Naqishbandiya silsilasi nafaqat Movaronnahr hududi, balki Xuroson,Iroq, Ozarbayjon, Rim va Misrgacha,Xitoy va Hindistongacha etib borganligi ma'lum. Nashbandiya silsilasidagi Sharif va A'liya tariqatlarining XX asr o'rtalaridagi bir davrda faoliyat ko'rsatishgan ikki yirik suluk-shoxasi murshidlari bo'lishgan Kattaxonxo'ja Dahbediy va Domla Kamollarning silsilasini keltiramiz (mutahassislar fikricha pirlar boshqarishgan ikki suluk yurtimizda qisqa oltin zanjir va keng tarqalgan tariqat bo'lgan):

Payg’ambar Muhammad Alayhisssalom.[2.]

↓

Abu Bakir Siddiq (r)
Solmon Forsiy (r)
Muhammad Qosim (r)
Imom Ja’fari Sodiq (r)
Boyazid Bastomiy (q.s.)
Abul Hasan Xarqoniy (q.s.)
Abu Ali Formadiy (q.s.)
Xoja Yusuf Hamadoniy (q.s.)
Xoja Abdulxoliq G’ijduvoniy (q.s.)
Xoja Orif Revgariy (q.s.)
Xoja Mahmud anjir Fag’naviy (q.s.)
Xoja Ali Romitaniy (q.s.)
Xoja Muhammad Bobo Sammosiy (q.s.)
Sayid Amir Kulol (q.s.)
Xoja Bahovaddin Naqshband (q.s.)
Mavlono Yoqib Charxiy (q.s.)
←←←← Xoja Ahrori Valiy (q.s.) →→→→

↓ ↓

Silsilai Sharifiya	Silsilayi A’liya
Mavlono Muhammad Qozi	Mavlono Muhammad Zohid
Maxdumi A’zam Dahbediy	Mavlono Muhammad Darvish
Muhammad Amin-Xoja Kalon	Mavlono Xojagiy Imkanagiy
Xoja Muhammad Yusuf	Xoja Muhammad Boqi Bolloh
Hidoyatullo Ofoqxoja	Alfi Soniy-Imomi Rabboniy
Bobo Xoqiy	Xoja Muhammad Sa’id
Odinaboy Sidiqiy	Xoja Abdulahad
Xojam Podshoh	Mavlono Obid
Sayiid Umarxon Hoji	Musoxonxoja Dahbediy
Sayiid Ahmadxon Hoji	Xalifa Muhammad Siddiq
Mullo Abdulkarim	Xalifa Husayin
Kattahonxo’ja Dahbediy,29-halqa piri	Xalifa Abdusattor
	Xalifa Eshmuhammad

	Xalifa Qori Ubaydulloh
	Domla Kamoliddin, 32-halqa piri

Ayniqsa bu ta’limot Xoja Ahror Valiy davrida o’z qudrat cho’qisiga chiqgan.Buning sababi naqishbandiya har jihatdan, Samarqand qozi kaloni tarixchi Abu Tohir xoja o’zining “Samariya” kitobida: “Xoja Axrorning o’ziga jalb qiluvchi ohangrabosi shu darajada kuchli ediki. Uning shirinsuhan suhbatlari umurbod esga qolardi”, deb aytgani ham dunyo tasavvuf ta’limotida uning ma’naviy mavqeyi yuqori bo’lganidan dalolat beradi. Manbalarda qayt etishicha Xo’ja Ahror (1404-1490) ning shogirdlari quydagicha keltirilgan:

1.Mavlono Sulton 2. Xoja Muhammad Yaxyo 3.Mavlono Burhoniddin Xatloniy

4.Xoja Muhammad Ubaydulloh 5.Mavlono Sayfiddin 6.Mavlono shayx 7.Mavlono Ismoil Hiraviy 8.Mavlono Ismoil Qamariy 9.Mavlono Nosriddin O’troriy 10.Mavlono Ja’far 11.Mavlono Lutfulloh 12.Mavlono Ahmad Kosoniy 13.Mavlono Xoja Ali Toshkandiy 14.Mavlono Nuriddin Toshkandiy 15.Mahmud Xoja Turkistoniy 16.Mavlono O’troriy 17.Shayx Habib Buxoriy 18.Mavlono Sayiid Hasan 19.**Mavlono Muhammad qozi** 20.Mavlono Qosim.

Xoja Ahrordan shogirdi **Mavlono Muhammad Qozi** orqali Maxdumi A’zam Dahbediydan boshlab“naqishbandiya-ahroriya-dahbediya” yoki shogirdi Mavlono Zohid Vaxshuvoriy orqali imom Ahmad Sirhindiydan(1564-1642) boshlab “naqshbandiya-ahroriya-mujaddidya” kabi silsilaning turli tarmoqlari shakllangan. Xoja Ubaydulloh Mahmud o’g’li – Ahror Valiy (806/1404-895/1490)naqishbandiya silsilasini Hisordan(Yaqub Charxiy orqali) Samarqandga olib keladi.Keyinchalik uning shogirdlaridan biri Mavlono Zohid Vaxshuvoriy silsilani hozirgi Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanidagi Vaxshuvorga olib borib, tariqatni vafoti 936/1529 yil)ga qadar yuritadi. Aholini tariqt sir-sinoatlaridan bahramand etadi. .[3.49] Ayniqsa naqishbandiyaning ishtimoyilashuvida Mavlono Muhammd Qozining hizmatlari katta bo’ldi. Chunki Muhammd Qozi ustozi Xoja Ubaydulloh Ahror tomonidan o’sha davrda xalq ommasi orasida e’tibor qozongan naqishbandiya - xojagon tariqatining asosiy yo’nalishini shunday belgilagan edi: “Xojagon tariqati darvishlarining udumi shundan iboratki, ular o’zlarining barcha himmatlarni biror ish bilan mashg’ul bo’lishga sarf qiladilar…Aytibdurlarkim, Haloyiqning xaq subhonahuga erishish vositasi uni eslash darajasiga bog’liq bo’lsa-da, ammo uning eng yaxshi yo’li bir musulmon ko’nglini xursand qilmoqdan iboratdir.[4.69]Xojai jahon Abdulxoliq G’ijduvoniyning tabbarruk so’zlaridan biri budir:

Dari xilvat bandu dari suhbatro kushoy,
Dari shayxiro bandi dari yoriro kushoy

Mazmuni :

Xivat eshigini yopgilu suhbat eshigin och

Shayxlik eshigin yopilu yorliq eshigin och” degan masnaviysini amalyotda qo’llab musulmon bo’lmoq – fuqoro manfaatlari uchun yashamoq ekanligini o’zi uchun kashf etdi.Mavlono Muhammad Qozi 885/1480- 895/1489 yillarda Xoja Ahror Valiy xizmatida bo’lib, o’zining “*Silsilat ul-orifin va tazkiratu –s-siddiqin*” asarni yozgan. Asarda Mavlono Muhammad Qozi ustoz shogirdlik(muridlik)ning o’nta shartni aytdi:

1.U o’z shayxi haqida bilmasligi.Barchasini dilida uyg’unlashtirib, yaxshilik va yomonliklarni engib, yuqorilashib boradi. Toki botiniy xabardor bo’lguncha. U iste’dodi bilan haqiqatni topadi yoki yomonliklarni. Foniyda bo’lib boqiylikni topadi.Uning mazojiga qarab ma’naviy muolaja qilish kerak.

2. Pirdan nima sodir bo’lsa-da, qabul qilib, e’tiroz bildirmaslik.Zohirida qancha urunmasin nima yaxshi-yu, nima yomonligini bilaydi. Qanchalik dono bo’lmasin, murshidsiz tadbirli bo’lolmaydi.Bunga Muso alayhissalom va Xizir alayhissalom o’rtalarida sodir bo’lgan voqeya misol bo’ladi.

3. Agar haqiqatan tolib sodiq bo’lsa, boshiga qilich aylansa ham ortiqcha harakatga e’tibor qilmasdan ilm olishdan to’xtamaydi. “Oshiq sobit qadam bo’lsang, do’stingni boshiga qilich tushsa ham yuz o’girma”. Shayxning nisbati va irodatiga qadam ranjida qilsang, uni qadrini baland tutib, hammadan afzal deb bil.

4. Shayxdan nima zuhur bo’lsa unga ergashmaslik, toki unga amr qilmaguncha. Shoyadki ba’zi ishlar Shayxning hasbi hol-maqomiga xosdir. Va bu xoslarning nisbat maqomi muridiga zahri qotil bo’lishi mumkin.

5. Agar u shayxning so’zlari va buyruqlarining zohiriy ma’nosida qo’llanilsa, albatta, uning Haq subhanahutaloga bo’lgan ixlos, e’tiqodi sabab,taqiq ma’nolar eshigi ochiladi.

6. Shayxning buyruq va ko’rsatmalariga qanoatmaslik, unga amal qilmaslikdir.Uning ma’nosi bo’ladimi yo’qmi ahamiyati yo’q.Shayx aytadiki, zikr, tavajjuh, muroqaba, robita va boshqa kabi amallardan boshqa ish bilan mashg’ul bo’lmaslik. Shayxning farosati anvori ilohiydur.

7. O’zini doim kamtar bilib, o’zini hech kimdan haqliroq deb bilmaydi. Doim o’zlarni haq deb bilish. Bu olamda Allohning haqqidan boshqa hech narsa yo’qligiga e’tiqod qilish. Naqil qiladilarki, Ismoyil ota aytadilar: “Biz tariqatda birodar bo’ldik. Mening bir maslahatimni qabul qiling. Bu dunyoni moviy gumbaz deb tasavvur qiling. Bu tavhid nurlarining g’alabasidir. Haqiqat qoladi va siz o’rta yo’ldan yuring ”

8. Shayxning amrlariga xiyonat qilmaslik. Butun vujudi bilan shayxga ehtirom ko’rsatish. Dilning imorati zikrdir. Dilni har doim ogoh bilib boshqa narsalardan saqlash va ularni dildan chiqarib tashlash. Bunda zikrga ruju qilib, u

bilan mashg’ullik bian erishiladi. Bir vaqtda ikkita amirni bajarib bo’lmaydi, qachonki har doim g’aflatda bo’lmaslik lozim. Zikrdan murod g’aflatdan yiroq bo’lishdir.

9.O’zi uni xohladi va shunday bo’ldi.U Allohni izlovchi tolibdir va murid emas. Aytishadiki, murid shayxning qo’lidadir, go’yoki “G’assolning qo’lida murda kabi”. Muridning umidi shayxining nisbatiga sazovar bo’lishdir. Bu eng oliy mukofatdir va boshqa narsani istamaslik lozim. Va shayxning gapini hech qanday tarzida rad etmang, garchi nohaq bo’lsa ham shayxning xatosi ham uning himmatlaridan deb biling.

10.O’zidan oldingi shayxlarni, ilmi o’zidan past bo’lsa ham tanqid qilmaslik. Bu yo’l eng to’g’ri ekanligiga e’tiqod qilish. Va uning shayxi hammadan akmaldir. Ko’ngil doim haqiqatga moyil bo’lmog’i lozim. Shayxning nisbatiga ulanib, chin e’tiqodda turmoqlik lozim.Qalbni turli chalg’ituvchi fikrlardan uzoqda tutish.[5]

.Bundan tashqari Mavlono Muhammad Qozining shogirdi Maxdumi A’zam o’z ustozi haqida shunday deydi: “… ul Hazrat (Mavlono Muhammad Qozi) Imom G’azzoliyning kitobi va “Tafsiri Qozi”ni afzal ko’rar edilar.Ul toifa so’zlari yozilgan kitoblarni(ya’ni musulmonlarni yo’ldan chalg’itadigan)ham tark etdilar.Hatto bu toifa so’zlari yozilgan kitoblarni o’z uylarida saqlamas edilar; chunki ushbu munkirlarning ta’siridan va ularga tayanishdan o’zlarni tutar edilar.

Bayt:

Be adab tanho na xudro dosht bad,
Balki otash dar hamma ofoq zad

Mazmuni:

Odabsiz faqat o’zini yomon otliq qilib qo’ymaydi,
Balki butun jahonni kuydirib yuboradi.

Yana ul zot aytar edilarkim, agar podshoh (Naqishbandiya) toifasidagi pirlarning e’tiqodlari va izdoshlari bo’lmasalar ularning nisbati sharifi rivoj topmaydi; shul tariqa ular munkirlar g’avg’osi ichida qolurlar.

Bayt:

Izzati in chunun kard iqtizo,
K-az dari mo dur boshad har gado .
Chun harimi izzi mo nur afkanad,
G’ofiloni xufmaro dur afkanad.

Mazmuni:

Bu eshikning izzati shuni taqozo qiladiki,
Bizning eshigimizdan gadolar uzoqda bo’lsalar.
Bizning izzatli makonimiz nur taratai
Va uyquda bo’lgan g’ofillarni chetga surib qo’ydi.

Pirlarning xodimlaridan bo’lgan bu ixtiyorsiz kaminayi kamtarinning (yani, muallif-Mahdumi A’zamning) ushbu sharif maskaniga kelishining sababi shu ediki, ul diyorda musulmonlar orasida fisqu-fujur va zulm vositasi ila ajralish va tashvishlar ko’p tarqalib ketgan edi.Shul jihatdan, bu nisbati sharifni ado etish va rivojlantirish mumkin bo’lmay qolgan edi. Zerokim, akobirlar aytibdurlar: “tariqat soliklariga sulukning xatarli yo’llaridan (omon) o’tishlari uchun uch narsa kerakdir: ixvon(birodarlik),zamon va makon”. [6]

Xulosa.

Keyingi avlod ya’ni naqshbandiyadagi Silsilai Sharifiyani davom etirgan Hazrati Kattaxonxojaning nasabi ma’naviylari irshodnomalarida keltirilgan bo’lib, uni qisqartirilgan holda aynan keltirdik: “Bidon, ey tolibi sodiqqi,… avvalo bar qalbi On Hazrat Muhammad Mustafo Sallallohu Alayhi Vassallam tajalliy farmud; va az on Hazrat bar qalbi Hazrati Siddiqi Akbar roziollohu anhu; va az on Hazrat bar qalbi Hazrat Solmoni Forsiy roziollohu anhu; va az on Hazrat bar qalbi Hazrati Imom Muhammad bin Qosim roziollohu anhu; va az on Hazrat bar qalbi Hazrati Imom Ja’fari Sodiq roziollohu anhu; va az on Hazrat bar qalbi Sulton Boyazid Bastomiy; va az on Hazrat bar qalbi Shayx Abul Hasan Xaraqoniy; va az on Hazrat bar qalbi Shayx Abu Ali Formadiy; va az on Hazrat bar qalbi Xoja Yusuf Hamodoniy; va az on Hazrat bar qalbi Xoja Abdulxoliq G’ijduvoniy tajalli farmuda, va az on Hazrat bar qalbi Xoja Orif Revgariy tajalli farmuda, va az on Hazrat bar qalbi Xoja Mahmud Anjir Fag’naviy tajalli farmuda, va az on Hazrat bar qalbi Xoja Ali Romitaniy taj.far. va az on Hazrat bar qalbi Xoja Muhammad Boboi Sammosiy taj. farmuda, va az on Hazrat bar qalbi Sayiid Amir Kulol taj.farm., va az on Hazrat bar qalb Hazrati Xojai Buzurg Naqshband taj. farmuda, va az on Hazrat bar qalbi Hazrati Mavlono Yaqub Charxiy taj. farmuda, va az on Hazrat bar qalbi Xoja Ubaydulloh Ahror tajalli farmuda, va az on Hazrat bar qalbi **Mavlono Muhammad Qozi** tajalli farmuda, va az on Hazrat bar qalbi jadduno va sayduno Mavlono Xojagi ahmad, ya’ni Hazrati Maxdumi A’zam podshoh tajalli farmuda, va az on Hazrat bar qalbi Xoja Muhammad Amin Xo’ja Kalon taj.far. va az on Hazrat bar qalbi Xoja Muhammad Yusuf taj. farmuda, va az on Hazrat bar qalbi Xoja Hidoyatullo-Ofoqxoja taj.farm., va az on Hazrat bar qalbi Hazrati Bobo Xoki taj. farmuda, va az on Hazrat bar qalbi Hazrati Odinaboy Sidqiy taj. farmuda, va az on Hazrat bar qalbi sarvari avliyo va sar halqayi“ sufiya” Hazrati Xoja Podshoh tajalli farmuda, va az on Hazrat bar qalbi Sayiid Umarxon Hoji tajalli farmuda, va az on Hazrat bar qalbi Sayiid Ahmadxon Hoji taj.farm., va az on bar qalbi murshidino va mavlono xalaf ulxulafo Mullo Abdulkarim alayirrahima taj.farm, va az on Hazrat bar qalbi in kaminai noloyiqi be kadru hol, ya’ni Kattaxonxojai Dahbediy tajalliy farmud”.[2.] Shunday qilib, Naqshbandiya tariqatini dunyoga ilk bora yoygan va birinchi o’ringa ko’targan alloma Xoja Ahror Valiy tufayli “Naqishbandiya-Ahroriya” Mavlono Muhammad

Qozi “Silsilai Sharifiya”deb atalgan; Alfi Soniy va Musoxonxoja tufayli“Silsilai Sharif” - “ Silsilai A’liya”ga aylanadi va “Naqshbandiya-Mujaddadiya”deb atala boshlanib, tarixchi Abu Toxirxo’ja aytganidek, “Musoxonxo’ja…“ Alfi Soniy” tariqatni yangiladiva sharif bobolarining silsilasini yangiladi va sharif bobolarining silsilasini davom ettirdi”.[7] Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki, Mavlono Muhammad Qozi naqshbandilikning Silsilari Sharifiya tariqatining rivojlanishida muhim o’rin tutgan.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Komilxon Kattaev.Jo’sh ota va Yassaviya silsilasi Tarxi. Toshkent. 2020. y. 34.b.
2. Komilxon Kattaev.“Domla Kamolning A’liya tariqatida o’rni hamda yurtimizning oxirgi mashhur murshidlari”.Toshkent.2020.y.B.48-115.
3. Mehrojiddin Omonov.Naqshbandiyalikning So’fi Ollayor tarmog’i. “Markaziy Osiyo Tasavvuf tariqatlarining ijtimoiy hayotdagi ro’limavzusidagi xalqaro onlayin konferensiya TO’PLAMI. Samarqand.2022y.49.b
4. Boturxon Valixo’jayev “Xo’ja Ahror tarixi” Toshkent Yozuvchi nashroyoti.1994 yil.B.69
5. Муҳаммад ибн Бурҳонуддин ибн Хожа Муҳаммад Ризо Муҳаммад ал-Қози. Силсилат ул-орифийн ва тазкирату-с-сиддиқийн .ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар хазинаси: № 11413.V.14-19
6. Komilxon Kattayev .Gulnoza Kattayeva “Qadimgi kitoblar”.Toshkent.2020. 417-bet
7. Abu Tohirxo’ja. “Samariya”.Toshkent.“Kamalak”,1991.B.56-57

BADIIY TASVIR VOSITALARINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Turaxanova Xosiyatxon Maxamadolimovna

Fil.f.f.d., PhD. Xorijiy tillar kafedrasi o’qituvchisi

Namangan davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy tasvir vositalarining nazariy tilshunoslik va lingvopoetika nuqtai nazaridan tutgan o’rni hamda ularning semantik-pragmatik xususiyatlari tadqiq etiladi. Badiiy matnda metafora, metonimiya va sifatlash kabi tasvir vositalarining konnotativ ma’no hosil qilish mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari badiiy tasvir vositalari shunchaki

bezak unsuri emas, balki til egalarining kognitiv va uslubiy tafakkurini aks ettiruvchi muhim lingvistik kategoriyalar ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: badiiy tasvir vositalari, kognitiv, metafora, sinekdoxa.

Adabiyotshunoslikda badiiy tasvir vositalari troplar va poetik figuralar asarning emotsional-ta'sirchanligini oshiruvchi "bezak unsuri" sifatida baholanib kelingan. Biroq zamonaviy nazariy tilshunoslik ushbu qarashni tubdan o'zgartirdi: troplar – shunchaki uslubiy usul emas, balki inson tafakkurining kognitiv modeli, ma'no hosil bo'lishining lisoniy mexanizmi va matn yaxlitligini ta'minlovchi semantik-pragmatik kategoriyadir.

Nazariy tilshunoslik nuqtai nazaridan, har qanday tasvir vositasi qo'llanilganda so me'yoriy lug'aviy (denotativ) ma'no bilan matniy (konnotativ) ma'no o'rtasida munosabat o'zgaradi.

Denotativ ma'no: So'zning neytral, lug'atda qayd etilgan, borliqdagi obyektni dog'ma ravishda nomlovchi birinchi ma'nosi.

Konnotativ ma'no: So'zga kontekst doirasida yuklanadigan emotsional, stilistik, baholovchi va ekspressiv qo'shimcha ma'no qatlami.

Misol:

Lug'atda *"muz"* – bu suvning qattiq holati (denotatsiya).

"Uning yuragi muz" birikmasida esa *"muz"* so'zi o'zining birlamchi jismoniy xossasini yo'qotib, "sovuqqonlik, beparvolik, shafqatsizlik" kabi konnotativ semalarni o'ziga qabul qiladi. Lingvistik nuqtai nazardan bu joyda so'z sememasida semantik qayta guruhlanish yuz beradi.

Metafora – An'anaviy tilshunoslikda metafora o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishi deyiladi. Zamonaviy kognitiv tilshunoslikda (J. Lakoff va M. Jonson nazariyasi) metafora "konseptual metafora" sifatida qaraladi:

Lingvopoetik mexanizmi: Jismoniy borliqdagi aniq tushunchalar orqali abstrak, ruhiy-emotsional holatlarni ifodalash.

Tahlil: *"Umid chirog'i o'chdi"* iborasida:

Olov/chiroq va uning o'chishi (aniq fizik hodisa).

Ruhiy tushkunlik, umidsizlik (mavhum tushuncha).

Til egalari abstrakt tushunchalarni aynan konkret narsalar vositasida idrok etadilar va shakllantiradilar.

Metonimiya va Sinekdoxa – Metonimiya o'xshashlikka emas, borliqdagi ob'ektlarning mantiqiy va fazoviy/vaqtinchalik tutashligiga tayanadi.

Sinekdoxa: *"Eshikdan ikki juft qora ko'z mo'raladi"*. Lingvistik nuqtai nazardan, bu o'rinda butun shaxs o'rnida uning eng ekspressiv qismi (*ko'z*) qo'llanishi orqali diqqat markazini (fokus) toraytirish va emotsionallikni oshirish vazifasi bajarilmoqda.

Lisoniy tejamkorlik**:** “*Auditoriya qarsak chaldi”* – binoning o'zi emas, undagi odamlar nazarda tutiladi. Bitta so'z bilan butun bir gap yoki vaziyat sintaktik jihatdan ixchamlashtiriladi.

Sifatlash (Epitet) – Oddiy sifatlovchi so'z ob'ektiv belgi-xususiyatni bildirsa (masalan, *qizil olma*), epitet subyektiv-baholovchi xarakterga ega bo'ladi (masalan, *makkor tabassum, g’amgin kuz*).

Epitet matnda muallifning individual-uslubiy va pragma-stilistik pozitsiyasini namoyon etuvchi lingvistik birlikdir.

Badiiy tasvir vositalari matnda faqat alohida so’z darajasida emas, balki butun bir matnning yaxlitligi uchun xizmat qiladi:

1. Pragmatik ta’sir o’tkazish: Tasvir vositalari kitobxonda estetik zavq bag'ishlash bilan birga, uning emotsional holatiga va voqelikni qabul qilishiga bevosita ta’sir ko'rsatadi (implitsit axborot uzatadi).

2. Matn kognitsiyasi va semantik kodlash: Muallif o'z dunyoqarashini va milliylikni tasvir vositalariga yashirin semantika sifatida kodlaydi. Kitobxon matnni o'qish jarayonida ushbu kodlarni dekodlash (yechish) orqali chuqur ostmatn ma'nolarini anglaydi.

3. Ekspressiv-stilistik gradient: Birgina mazmunni neytral, rasmiy yoki lirik uslubda berish aynan tasvir vositalarini tanlash darajasiga bog'liq.

Shunday qilib, nazariy tilshunoslikda badiiy tasvir vositalari shunchaki adabiyotshunoslik kategoriyasi emas. Ular lingvokognitologiya (tafakkur va til munosabati), lingvopragmatika (so'zlovchi va tinglovchi munosabati) va lingvopoetikaning (matnning estetik qurilishi) tutashgan nuqtasida turuvchi murakkab lisoniy hodisalardir.

Badiiy tasvir vositalari tilning nominativ (nomlash) funksiyasidan tashqari, uning pragmatik va estetik imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi. Mazkur tadqiqotning maqsadi badiiy tasvir vositalarini nazariy tilshunoslik prizmasi orqali tahlil qilish, ularning ma'no ko'chish prinsiplari va matn shakllanishidagi lingvokognitiv rolini belgilashdan iborat.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-lingvistik metodlardan foydalanildi:

1. Lingvostilistik va lingvopoetik tahlil: Badiiy matnlardagi tasvir vositalarining stilistik va estetik funksiyalarini aniqlash uchun;

2. Kognitiv-semantik tahlil: Metafora va metonimiya hodisalarini konseptual darajada o'rganish, ma'no ko'chish mexanizmlarini yoritish uchun;

3. Qiyosiy-kontekstual usul: So'zlarning lug'aviy (denotativ) va matniy (konnotativ) ma'nolari o'rtasidagi tafovutni ko'rsatish uchun.

Tadqiqot materiali sifatida o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyoti vakillari (Cho’lpon, Abdulla Qodiriy, Erkin Vahidov va b.) asarlaridan olingan badiiy tasvir vositalari tanlab olindi.

O’tkazilgan tahlillar natijasida badiiy tasvir vositalarining nazariy tilshunoslikdagi o'rni bo’yicha quyidagi asosiyliklar aniqlandi:

Metafora kognitiv hodisa sifatida**:** Metafora nafaqat so’z o’yini, balki bir konseptual sohadan boshqasiga ma’no ko’chirish vositasi hisoblanadi. Masalan, *“yurak muzladi”* birikmasida biologik a’zo bilan jismoniy holat (muzlash) o'rtasida emotsional-psixologik o'xshashlik o'rnatilgan.

Metonimiya va semantik bog’liqlik: Metonimik ko’chimlar mantiqiy tutashlik (vaqt, makan, qism va butun) asosida shakllanadi va matnda ixchamlik hamda aniqlikni ta'minlaydi.

Konnotatsiyaning ustuvorligi: Badiiy tasvir vositalari qo’llanilganda so’zning denotativ (lug’aviy) ma'nosi ikkinchi darajaga o’tib, emotsional-baholovchi va ekspressiv ma'nolari (konnotatsiya) birinchi o’ringa chiqadi.

Olingan natijalar shuni ko’rsatadiki, badiiy tasvir vositalari nazariy tilshunoslikning sematika, pragmatika va kognitiv lingvistika doiralarida markaziy o'rin tutadi. An’anaviy grammatikada troplar lisoniy me’yordan og’ish sifatida baholangan bo’lsa, zamonaviy lingvistik paradigma ularni tilning estetik potensialini yuzaga chiqaruvchi va tafakkurni shakllantiruvchi asosiy mexanizm sifatida e'tirof etadi. Tasvir vositalari orqali muallif va kitobxon o’rtasida pragmatik muloqot o'rnatiladi. Matndagi tasviriy vositalar kitobxondan ma’lum bir lingvokulturologik bilim va kontekstni tushunishni talab qiladi. Bu esa badiiy tasvir vositalarining nafaqat matn doirasida, balki madaniyat va muloqot kontekstida ham muhim o'ringa ega ekanligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. Yo'ldoshev, B. (2008). *Badiiy tasvir vositalarining lingvistik tahlili va lingvopoetika masalalari*. Samarqand: SamDU nashri.
2. Mamajonov, A. (1994). *Badiiy matn lingvistikasi*. Toshkent: Fan.
3. Qilichev, E. (1992). *Badiiy tasvir vositalari*. Toshkent: O'qituvchi.
4. Umurqulov, B. (1990). *Poetik nutq leksikasi*. Toshkent: Fan.
5. Yo'ldoshev, M. (2019). *Badiiy matnning lingvopoetik tahlili asoslari*. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.
6. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago: The University of Chicago Press. *(Kognitiv metafora nazariyasi bo'yicha asosiy xalqaro manba).*
7. Leech, G. N. (1969). *A Linguistic Guide to English Poetry*. London: Longman. *(Poetik stilistika va lingvopoetika bo'yicha klassik tadqiqot).*
8. Niyazmetova, R. (2018). Badiiy matnda metonimiya va uning lingvokognitiv xususiyatlari. *O'zbek tili va adabiyoti*, (3), 45-50.
9. Mahmudov, N. (2012). Tilning mukammal tadqiq usullari va lingvokulturoloziya. *O'zbek tili va adabiyoti*, (3), 3-12.

LINGVISTIK EKSPERTIZALARNI GURUHLASH TAMOYILARI

Saidahmadov Shuhrat Baxtiyor o‘g‘li
Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada lingvistik ekspertizalarni tasniflash tamoyillari xususida so‘z yuritiladi. Ekspertiza tadqiqotlarini tasniflash bo‘yicha rus tilshunosligida, xorijiy tilshunoslikda va o‘zbek tilshunosligida izlanishlar olib borgan ilmiy ishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, muallif tomonidan lingvistik ekspertiza tadqiqotlarini tasniflash tamoyillari tavsiya qilnadi. Tasniflash tamoyillari bo‘yicha tadqiqot turlari belgilab beriladi.

Kalit so‘zlar: lingvistik ekspertiza, lingvistik ekspertologiya, lingvistik ekspertizalarni tasniflash tamoyillari, huquqiy maqsadlarga yo‘naltirilgan **lingvistik ekspertizalar, hujjatlarning lingvistik ekspertizasi,** sof lingvistik ekspertizalar.

Abstract: This article discusses the principles of classifying linguistic expert analyses. It analyzes scholarly works from Russian, foreign, and Uzbek linguistics that have addressed the classification of such expert studies. Additionally, the author proposes specific principles for classifying linguistic expert analyses and defines the types of research based on these classification principles.

Key words: linguistic expertise, linguistic expertology, principles of classifying linguistic expert examinations, legally oriented linguistic expert examinations, linguistic examination of documents, purely linguistic expert examinations.

Lingvistik ekspertiza tadqiqotlari taqdim etilgan material turi, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqotning obyekti va predmeti kabi jihatlariga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linishi mumkin. Bunday tasniflar jahon tilshunosligida ham, rus tilshunosligida ham, o‘zbek tilshunosligida ham uchraydi.

Mazkur soha bo‘yicha xorijda, xususan, rus tilshunosligida ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Rus tilshunosligida A.N. Baranov[35], K.I. Brinev[36], E.I. Galyashina[37] kabi olimlarning, xorijda M.Coulthard[38], L.M. Solan[39], H.Huylmans[40] kabi ko‘plab tadqiqotchilarning ishlari e’lon qilingan. Ushbu olimlarning izlanishlarida lingvistik ekspertiza tadqiqotlarini tasniflash masalalariga ham muayyan darajada e’tibor qaratilgan.

Lingvistik ekspertizalarni turlarga ajratish, tasniflash masalalari lingvistik ekspertologiyada tortishuvli va yagona to‘xtamga kelinmagan muammodir. Rus

[35] Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика: Учебное пособие. — М.: Флинта: Наука, 2007. - 592 с.
[36] Бринев К. И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза. – Барнаул, 2009. – 162 с.
[37] Галяшина Е.И. Основы судебного речеведения: монография – М.: СТЭНСИ, 2003. – 236 с.
[38] Coulthard M. Author identification, ideolect, and linguistic uniqueness // Appl. linguistics. – 2004. – Vol. 25, N 4. – P. 431-447. – Bibliogr.: p. 446-447
[39] Solan L.M. Author identification in American courts / L.M. Solan, P.M. Tiersma // Appl. linguistics. – 2004. – Vol. 25, N 4. – P. 448-465. – Bibliogr.: p. 464-465.
[40] Huylmans H. ForensischeLinguistik – aus der Praxis fur die Praxis // Polizei. – Koln etc., 1991. – Jg. 82, N 4. – S. 99-101.

tilshunosligida lingvistik ekspertizaga sud ekspertizalarining bir turi sifatida qarash ustuvorlik kasb etadi. Bu qarashni ko‘plab olimlar qo‘llab-quvvatlaydi. “Lingvistik ekspertiza - sud ekspertizasining mustaqil turi, dalil qiymatiga ega bo‘lgan nutq ma’lumotlarini (har qanday moddiy vositada qayd etilgan) lingvistik tadqiq qilish bo‘yicha samarali (va shuning uchun o‘ta mas’uliyatli) protsessual faoliyat”[41]. Biroq barcha olimlar ham bu qarashlarga qo‘shilmaydi. A.N.Baranov lingvistik ekspertizani ikki turga ajratadi: “1) rasmiy ekspertiza (sudning talabiga binoan amalga oshiriladi va u yuridik maqomga ega); 2) tashabbus ekspertizasi (har qanday manfaatdorning talabiga binoan amalga oshiriladi (jismoniy yoki yuridik shaxs)”[42]. A.N. Baranov sud lingvistik ekspertizalarini rasmiy ekspertiza, boshqa turdagi barcha lingvistik ekspertizalarni tashabbusli ekspertiza deb atashni taklif etadi. I.K. Brinyev fikriga ko‘ra, yuridik tilshunoslikda lingvistik ekspertizani turlarga ajratish muhim ahamiyat kasb etmaydi. Eng muhimi sohaga doir yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlashdan iborat[43]. Olim lingvistik ekspertiza tadqiqotlarini tasniflash masalasiga keraksiz ish sifatida qaraydi. Ukrainalik tilshunos olima L.V. Ajnyuk lingvistik ekspertizaning maxsus bilimlar talab qilinadigan quyidagi ikki asosiy turini ko‘rsatadi: birinchidan, OAV materiallari, dasturlar, og‘zaki taqdimotlar, reklama matnlari, tovarlarda iste’molchilar uchun beriladigan ma’lumot va xizmatlar, firma nomlari va boshqalarni til nuqtayi nazaridan huquqiy jihatdan tartibga solish vositasi sifatida; ikkinchidan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi lingvokriminalistik tadqiqot sifatida namoyon bo‘ladi[44]. L.V. Ajnyuk tasnifini mohiyatan A.N. Baranov tasnifiga o‘xshab ketadi.

Lingvistik ekspertizani tasniflash va turlarga ajratishda turli xil yondashuvlar, turlicha tamoyillarga tayanishlar ko‘zga tashlanadi. O‘zbek tilshunosligida mazkur muammoga qaratilgan ishlarda ham fikrlar xilma-xilligini kuzatish mumkin. Lingvistik ekspertiza maqsadiga, taqdim etilgan materialning shakl va mazmuniga, qo‘yilgan masalaning mohiyatiga va boshqa omillarga qarab bir qancha tarkibiy qismlarga bo‘linadi. K.X. Musulmonova tadqiqotlarida o‘zbek yozma matnlari bo‘yicha lingvistik ekspertizani quyidagicha tarkibiy qismlarga ajratish taklif qilinadi: shaxsni obro‘sizlantirish mazmunli matnlar lingvistik ekspertizasi; muallifi noma’lum matnlar lingvistik ekspertizasi; plagiatlik holatlarini aniqlash lingvistik ekspertizasi; reklama matnlari lingvistik ekspertizasi; normativ hujjatlar matnlari lingvistik ekspertizasi; savdo belgilari, domen nomlari, kompaniya nomlari va nutq

[41] Лингвистическая экспертиза: учебное пособие / И.А. Ярощук, Н.А. Жукова, Н.И. Долженко. – Белгород: ИД«БелГУ»НИУ «БелГУ», 2020. – 96 с.
[42] Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика: Учебное пособие. — М.: Флинта: Наука, 2007. 5-bet.
[43] Бринев К.И. Лингвистическая экспертиза: типы экспертных задач и методические презумпции. [Elektron manba] URL: https://cyberleninka.ru/article/n/lingvisticheskaya-ekspertiza-tipy-ekspertnyh-zadach-i-metodicheskie-prezumptsii-1/viewer (Murojaat sanasi: 23.06.2025).
[44] Ажнюк Л.В. Типологія об’єктів лінгвістичної експертизи і методика їх дослідження / Л.В. Ажнюк // Мовознавство. - 2016. - № 3.

faoliyatining boshqa mahsulotlari lingvistik ekspertizasi; ekstremistik materiallar lingvistik ekspertizasi[45].

K.Musulmonova tasnifi yozma matnlari bo‘yicha lingvistik ekspertizalarni deyarli to‘liq qamrab olgan, og‘zaki matnlar obyektga olinmaganligi uchun tasnifga kiritilmagan. Mazkur tasnifni tarkibiy qismlar o‘xshashligiga, maqsadi va vazifalariga ko‘ra guruhlashtirib berilganda ancha tizimlashgan bo‘lar edi.

Lingvokriminalistika sohasida tadqiqotlar olib borgan J.N. O‘rozov: “Lingvokriminalistik ekspertiza, sud lingvistik ekspertizasi lingvistik ekspertizaning tarkibiy qismlari”[46] – deya ta’kidlaydi. Demak, J.O‘rozovning fikricha, barcha turdagi lingvistik ekspertizalar ikki turga: lingvokriminalistik ekspertizalar va sud lingvistik ekspertizalariga ajratiladi.

Bizning nazarimizda, mazkur faoliyat turi nafaqat sud jarayonida, balki boshqa sohalarda ham qo‘llaniladi. Masalan, normativ-huquqiy hujjat matnlari, siyosiy arboblarning nutqi, darsliklar, ijtimoiy tarmoq yozishmalari turli maqsadlarda tadqiq etilishi mumkin. Aynan shunday lingvistik ekspertiza turlari yuqoridagi tasniflarda e’tibordan chetda qolgan. Shu bois lingvistik ekspertizani umumiy tarzda amaliy tilshunoslikning ilmiy-amaliy tadqiqot turi sifatida baholash to‘g‘riroq hisoblanadi. Haqiqatan ham, lingvistik ekspertiza jarayonini baholashda, uning qaysi sohaga tegishliligini belgilashda olimlar orasida yakdillik kuzatilmaydi. Mazkur soha bilan tilshunos olimlar shug‘ullanishini, uning tadqiq usullari asosan lingvistik aspektda olib borilishini hamda lingvistik ekspertizaning sud ekspertizasidan, huquqshunoslikdan tashqari boshqa sohalarda ham qo‘llanilishini hisobga olib, uni amaliy tilshunoslikning bir tarmog‘i sifatida baholash to‘g‘riroq hisoblanadi. Lingvistik ekspertizaning tasniflash tamoyillarini belgilashda mazkur sohaning xususiyatlarini hisobga olish lozim.

Lingvistik ekspertiza tadqiqotlarini bir necha tamoyillar asosida tasniflanishi mumkin. Tamoyillarni belgilashda ekspertiza tadqiqotlarining barcha qirralarini qamrab olishga harakat qildik. Biz mazkur masala bo‘yicha Иванашко Ю. П., Процукович Е. А., Аблин М.[47] hamda yuqorida sanab o‘tilgan olimlarning tadqiqotlariga tayangan holda lingvistik ekspertizalarni tasniflash bo‘yich quyidagi tamoyillarni belgiladik:

1. Tadqiqot obyektiga ko‘ra. Mazkur tamoyil obyektga olingan materialning turiga qarab belgilanadi:

yozma matn ekspertizasi;

og‘zaki nutq ekspertizasi;

[45] Musulmonova K.X. O‘zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertiza qilish jarayoni, bosqichlari va metodlari: Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) ...diss. – Qo‘qon, 2022. 11-b.

[46] O‘rozov J.N. O‘zbek tili lingvokriminalistikasi: monografiya. – Toshkent: “Bookmany print” nashriyoti, 2023. 12-b.

[47] Иванашко Ю. П., Процукович Е. А. Лингвистическая экспертиза звучащей речи и письменного текста. Учебное пособие для студентов направлению подготовки 45.04.03 «Фундаментальная и прикладная лингвистика». – Благовещенск: Амурский гос. ун-т, 202; Аблин М. Теоретико-методологическое обоснование лингвистической экспертизы по делам об экстремизме. Уфа, 2016.

audio va video materiallar ekspertizasi;

internet va ijtimoiy tarmoq matnlari ekspertizasi;

reklama va ommaviy axborot vositalari matnlari ekspertizasi;

darslilar ekspertizasi;

noverbal nutq mahsuli ekspertizasi kabilar.

2. Tadqiqot predmetiga ko‘ra. Mazkur tamoyilga ko‘ra o‘tkaziladigan tadqiqotning mazmuniga va yondoshuv usuliga qarab turlarga ajratiladi:

imloviy-texnik tuzatishlar ekspertizasi (matn shaklini tuzatish);

leksik-semantik ekspertiza (matn mazmunini izohlash);

grammatik ekspertiza (matn qurilishini aniqlash);

stilistik ekspertiza (matn uslubini belgilash);

pragmatik ekspertiza (matn yaratilgan vaziyat, holatni tahlil qilish);

diskursiv ekspertiza (nutq ishtirokchilarining munosabatiga qarab baholash);

jestologik ekspertiza (imo-ishoralarning mazmunini ochib berish).

3. Ekspertizaning maqsadi va vazifasiga ko‘ra. Ushbu ekspertiza tamoyila ekspertiza maqsadidan kelib chiqib turlarga ajratiladi:

matnni tahrirlash ekspertizasi;

matnning yoshga muvofiqligini belgilsh ekspertizasi;

matnnining qaysi davrga yoki qaysi muallifga tegishliligini ekspertizasi;

matn muallifining ijtimoiy belgilarini (yoshi, jinsi, kasbi, ma’lumoti kabi) aniqlash ekspertizasi;

lug‘aviy birliklarning qo‘llanilish chastotasini aniqlash ekspertizasi;

plagiatni (ko‘chirmachilikni) aniqlash ekspertizasi;

tarjima yoki originallikni belgilash ekspertizasi;

matn mazmunini izohlash ekspertizasi;

haqorat, tahdid va obro‘sizlantirishni aniqlash ekspertizasi;

ekstremistik mazmunni aniqlash ekspertizasi;

noverbal (mimika, jestlar) shaklda ifodalangan ma’noni ochiqlash ekspertizasi;

reklama, brendlar va savdo belgilarining lingvistik ekspertizasi kabilar. Maqsadi va vazifasiga ko‘ra lingvistik ekspertizalarni tasniflash tamoyili juda keng tarqalgan bo‘lib, bu tamoyil asosida ekspertiza turlarini yanada ko‘paytirish mumkin. Biroq mazkur masalada olimlarning qarashlarida va ilmiy-amaliy manbalarda yakdillik yo‘q.

4. Qo‘llaniladigan metodlarga ko‘ra. Tadqiqotda qo‘llanilgan metod va usullarni ham lingvistik ekspertizalarni tasniflash tamoyili sifatida belgilash mumkin:

orfografik va punktuatsion tahlilga asoslangan ekspertiza;

semantik tahlilga asoslangan ekspertiza;

grammatik tahlilga asoslangan ekspertiza;
stilistik tahlilga asoslangan ekspertiza;
pragmatik tahlilga asoslangan ekspertiza;
lingvostatistik tahlilga asoslangan ekspertiza;
psixolingvistik tahlilga asoslangan ekspertiza;
lingvokriminalistik tahlilga asoslangan ekspertiza kabilar.

5. Ekspertlar tarkibiga ko‘ra. Ekspertiza tadqiqotlari yakka shaxs yoki ekspertlar jamoasi tomonidan o‘tkazilishiga qarab ikki turga ajratiladi:

yakka tartibda o‘tkaziladigan (individual) ekspertiza;
jamoa bo‘lib o‘tkaziladigan (kollegial) ekspertiza;

6. O‘tkazsish davriyligiga ko‘ra. Ekspertiza tadqiqotlari bir marotaba yoki bir necha marotaba o‘tkazilishi mumkin. Sud jarayonida ekspertiza xulosasidan tomonlar norozi bo‘lsa yoki boshqa sabablar keltirilsa takroiy ekspertiza o‘tkazilishi mumkin. Shu bois ekspertiza tadqiqotlari davriyligiga ko‘ra ikki guruhga ajratiladi:

dastlabki ekspertiza;
takroriy ekspertiza.

7. Protsessual maqomiga ko‘ra. Ekspertiza tadqiqotlari ko‘pchilik holatda sud jarayonida qo‘llaniladi. Biroq suddan tashqari holatlarda ham lingvistik ekspertiza tadqiqotlari o‘tkazilishi mumkin. Sud-tergov organlarining rasmiy murojaati yoki sudga aloqasi bo‘lmagan yuridik va jismoniy shaxslarning tashabbusi lingvistik ekspertiza o‘tkazish uchun asos bo‘lishi mumkin. Shularni hisobga olib protsessual maqomiga ko‘ra lingvistik ekspertiza tadqiqotlarini ikkiga ajratish mumkin:

sud lingvistik ekspertizasi (rasmiy);
suddan tashqari (mustaqil) lingvistik ekspertiza (tashabbusli).

8. Maqomi va mohiyatiga ko‘ra. Biz yuqoridagi tamoyillarni umumlashtirgan holda lingvistik ekspertiza tadqiqotlarini 3 ta tamoyil asosida tasniflashni ma’qul ko‘rdik:

huquqiy maqsadlarga yo‘naltirilgan lingvistik ekspertizalar;
hujjatlarning lingvistik ekspertizasi;
sof lingvistik ekspertizalar.

Mazkur tamoyilga asoslangan tasniflash tamoyillari lingvistik ekspertiza tadqiqotlarini to‘liq qamrab olishga hamda ularning maqomi va mohiyatini guruhlagan holda ochib berishga xizmat qiladi. Biz lingvistik ekspertiza tadqiqotlarini maqomiga va mohiyatiga ko‘ra tasniflash tamoyili asosida guruhlarga ajratgan holda tahlillar o‘tkazdik.

Demak, lingvistik ekspertizalarni yuqoridagi tamoyilga asoslangan holda muayyan guruhlarga birlashtirish maqsadga muvofiq. Guruhlar shaklan yoki mazmunan o‘xshash lingvistik ekspertiza turlarini o‘zida aks ettiradi. Bizning

nazarimizda, barcha lingvistik ekspertiza turlarini yuqoridagi uch guruhga birlashtirish mumkin. Mazkur guruhlar bir necha ekspertiza turlarini o‘z ichiga oladi. Har bir guruh mavzusi, tadqiqot usullari, mutaxassis ixtisosligi bo‘yicha o‘xshash ekspertiza turlarini o‘zida birlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Coulthard M. Author identification, ideolect, and linguistic uniqueness // Appl. linguistics. – 2004. – Vol. 25, N 4. – P. 431-447.
2. Huylmans H. ForensischeLinguistik – aus der Praxis fur die Praxis // Polizei. – Koln etc., 1991. – Jg. 82, N 4. – S. 99-101.
3. Musulmonova K.X. O‘zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertiza qilish jarayoni, bosqichlari va metodlari: Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) ...diss. – Qo‘qon, 2022.
4. O‘rozov J.N. O‘zbek tili lingvokriminalistikasi: monografiya. – Toshkent: “Bookmany print” nashriyoti, 2023.
5. Solan L.M. Author identification in American courts / L.M. Solan, P.M. Tiersma // Appl. linguistics. – 2004. – Vol. 25, N 4. – P. 448-465.
6. Аблин М. Теоретико-методологическое обоснование лингвистической экспертизы по делам об экстремизме. Уфа, 2016.
7. Ажнюк Л.В. Типологія об’єктів лінгвістичної експертизи і методика їх дослідження / Л.В. Ажнюк // Мовознавство. - 2016. - № 3.
8. Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика: Учебное пособие. — М.: Флинта: Наука, 2007.
9. Бринев К. И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза. – Барнаул, 2009.
10. Бринев К.И. Лингвистическая экспертиза: типы экспертных задач и методические презумпции. [Elektron manba] URL: https://cyberleninka.ru/article/n/lingvisticheskaya-ekspertiza-tipy-ekspertnyh-zadach-i-metodicheskie-prezumptsii-1/viewer
11. Галяшина Е.И. Основы судебного речеведения: монография – М.: СТЭНСИ, 2003.
12. Иванашко Ю. П., Процукович Е. А. Лингвистическая экспертиза звучащей речи и письменного текста. Учебное пособие для студентов направлению подготовки 45.04.03 «Фундаментальная и прикладная лингвистика». – Благовещенск: Амурский гос. ун-т, 202;
13. Лингвистическая экспертиза: учебное пособие / И.А. Ярощук, Н.А. Жукова, Н.И. Долженко. – Белгород: ИД«БелГУ»НИУ «БелГУ», 2020. – 96 с.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ ТЕРМИНОВ ПСИХОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ

Норбоева Дилафруза Джумакуловна
старший преподаватель
кафедры «Узбекский язык и литература»
Самаркандского института экономики и сервиса.
norboyeva.dilafruz73@gmail.com
ORCID 0009-0003-5113-4797

Annotatsiya: Mazkur maqola zamonaviy boshqaruv psixologiyasi terminlarini, ikki xalqning dunyoqarashini, psixologik xususiyatlarini hamda ko‘plab xalqaro terminlarni o‘zbek tilida ifodalash imkoniyatlarini qiyosiy tahlil qilishga asoslangan. Boshqaruv psixologiyasiga oid rus va o‘zbek terminlarining leksik-semantik xususiyatlaridagi farqlar, boshqaruv psixologiyasiga oid terminlarning rang-barangligi, boshqa sohaviy terminlardan tortib, o‘ziga xos terminlar va qisqartmalargacha bo‘lgan birliklarning qo‘llanilishi, so‘zlarning an’anaviy tarzda ishlatilishi hamda ayrim sintaktik birikmalarning nisbatan keng qo‘llanilishi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: boshqaruv psixologiyasi, terminologiya, leksika, semantika, sintaktik ifoda, qiyoslash, belgi, soha.

Аннотация: Данная статья основана на сравнительном анализе терминов современной психологии управления, мировоззрения двух народов, специфики психологии, возможности приведения многих интернациональных терминов на узбекском языке. Различия в лексико-семантических особенностях русских и узбекских терминов, относящихся к психологии управления, богатство терминов, относящихся к психологии управления, от других отраслевых терминов до специфических терминов (и аббревиатур), традиционное использование слов и относительно большее использование некоторых синтаксических выражений.

Ключевые слова: психология управления, терминология, лексика, семантика, синтаксическое выражение, сравнение, признак, отрасль.

Annotation: This article is based on a comparative analysis of the terms of modern management psychology, the worldview of the two peoples, the specifics of psychology, the possibility of bringing many international terms in the Uzbek language. Differences in the lexico-semantic features of Russian and Uzbek terms related to management psychology, a wealth of terms related to management psychology, from other industry terms to specific terms (and abbreviations), traditional use of words and relatively greater use of some syntactic expressions.

Keywords: management psychology, terminology, vocabulary, semantics, syntactic expression, comparison, feature, industry, study.

В мировой науке одним из основных факторов развития сравнительного языкознания является достижение определённых результатов в классификации и описании терминов, относящихся к различным сферам, в том числе к психологии управления. На сегодняшний день масштаб научных исследований расширился, и особое значение приобретают работы, посвящённые сравнительному изучению интерференции языковых единиц, сопоставительному исследованию лексико-семантических категорий, а также вопросам перевода терминов.

В области психологии управления существует традиция изучения вопросов психологической оценки руководящих кадров, разработки комплекса необходимых для них качеств, а также правильного отбора кандидатов. Серьёзность и актуальность научных исследований, проводимых в данной сфере, стали причиной формирования самостоятельного направления, получившего название “психология управления” [1, с.11].

Если рассматривать на примере Узбекистана, то, не утрачивая самобытные и уникальные особенности наших традиций общения, национальных ценностей и менталитета, формирование слоя управленцев, не изолированных от влияния мировой цивилизации и общечеловеческих ценностей, а также внедрение через их деятельность в сознание людей основ справедливости, гуманизма и демократии — является требованием времени [2, с.21]. Данное обстоятельство требует также проведения реформ в сфере человеческих отношений, выбора тонких и специфических методов общения с людьми с высоким уровнем интеллекта и оказания на них эффективного воздействия. В связи с этим на сегодняшний день существует необходимость широкого исследования терминологии, связанной с психологией управления.

При этом на основе сопоставительного анализа терминов психологии управления важное значение приобретает выявление особенностей мировоззрения и психологии двух народов, а также демонстрация возможностей передачи многочисленных международных терминов на узбекском языке.

Калькирование характерен для всех терминологических систем узбекского языка и осуществляется, как правило, двумя способами: структурным (словообразовательным) и семантическим. В этой системе, без сомнения, ведущую роль играют структурные кальки. К структурным (словообразовательным) калькам относятся термины, созданные с помощью средств узбекского литературного языка на основе моделей других языков путём перевода их морфологических частей. Структурные кальки,

образованные на основе лексико-словообразовательного материала конкретного языка, в прямом смысле не считаются заимствованием [3, с. 100].

В современной системе узбекской терминологии имеется определённое количество элементов, характерных для иностранных языков, и для их калькирования нет никакой необходимости. Например, термины международного характера, заимствованные из русского языка, такие как психология, менеджмент, менеджер, аффект, аттракция, агрегация, алгоритм, акмеология, аттестация, аффиляция, гений, индивид, интеллект, иллюзия, инсайт, конформизм, оптация, оптимизм, персонал, панелог, психодиагностика, психоанализ, психотехника, референт, предикат, симпатия, стереотип, антипатия, эмпатия, талант, характер, идеал, инновация, акселерация, мотивация и многие другие — обладают очень разнообразным составом и охватывают все области техники, науки, культуры и искусства. Слой терминов, возникший таким образом и непрерывно развивающийся, стал достоянием узбекского языка. В настоящее время процесс заимствования готовых терминов продолжает оставаться активным.

Основной причиной различий в лексико-семантических характеристиках терминов психологии управления в русском и узбекском языках являются национальный менталитет, религия, исторические корни, обычаи, а также недостаточно развитое состояние самой области психологии. При составлении словаря терминов психологии на узбекском языке всё это необходимо учитывать. Наблюдения показывают, что в узбекской терминологии психологии управления до сих пор используются термины, заимствованные ещё в начале XX века. Например, на основе «Психологии. Краткого пояснительного словаря» можно высказать определённые суждения о заимствованных терминах.

Термины усвоены следующими путями: а) прямое заимствование; б) полная калька; в) частичная калька. Прямое заимствование включает термины, принятые из русского (европейских) языков: акмеология, гендер, мотив, имидж и др. [4, с. 128]. В узбекской терминологии психологии управления многие термины образованы с помощью полной кальки: boshqaruv (управление), jamoa (коллектив), martaba, mavqe (карьера), kasb (профессия) и др. Также были созданы термины как с использованием частичной кальки, так и составные термины: kommunikativ kompetensiya (коммуникативная компетенция), kadrlarni boshqarish (управление кадрами), labillik (лабильность), kasbiy karyera (профессиональная карьера), rahbar psixologiyasi (управленческая психология).

Вместе с тем, при заимствовании терминов, образованных от глаголов, наблюдается влияние узбекского языка: суффиксы, образующие

существительные от глаголов, без труда заменяются активными узбекскими аффиксами. Обратимся к некоторым материалам: a) –ni (e): akkreditlash (аккредитование), kodlash (кодирование) и др. Заимствованные термины, такие как торможение, кооперирование, изолирование, планирование, прогнозирование, деформирование, в узбекском языке сами по себе не выражают самостоятельного значения. В таких случаях основа заимствования восстанавливается в узбекском языке и к ней добавляется узбекский аффикс. Например: tormozlash (торможение), abstraktlash (абстрагирование), modellashtirish (моделирование) и др.

Терминология психологии управления формировалась и развивалась как на основе внутренних возможностей языков, так и на основе внешних возможностей, то есть заимствований. При формировании терминов на основе внутренних возможностей характерна терминологизация слов общего литературного языка для обоих языков.

Таким образом, термины представляют собой лексический слой, принципиально отличающийся от общеупотребительных слов. Это различие проявляется в следующих основных характеристиках:

семиотическая — в терминах возникает симметричная взаимосвязь между знаком и обозначаемым смыслом;

функциональная — термины характеризуются не только номинативной, но и дефинитивной функцией;

семантическая — термины обозначают только специальные понятия, и каждое из них уникально по своему значению;

распространение и обобщение — включение лишь части терминов научного языка в общеупотребительный язык не мешает их принадлежности к другой системе;

пути и средства формирования — в терминологии средства словообразования общеупотребительного языка подчиняются разработке специальных, стандартных и стабильных моделей [5, с. 21].

В заключение можно отметить, что узбекская терминология психологии управления характеризуется высоким уровнем заимствований из других языков. Многообразие терминологических исследований и многогранность самих терминов привели к появлению множества подходов для их изучения. Анализ существующих понятий в терминологии показывает, что теоретические подходы различных исследователей могут искажать истинную сущность термина. Чтобы термин был точным и осмысленным, его следует разрабатывать с помощью логического определения.

Список литературы:

1.О.Э.Хайитов, С.М. Джалалова Психология управления: Учебное пособие. Ташкент: ТГУЭ, 2008. – 184 с.

2.Г.Саломов Язык и перевод: Учебное пособие. Ташкент: Издательство «Фан», 1996. – С. 108–115.

3. А.Реформатский О некоторых явлениях словообразования в русской терминологии // Труды МИФЛИ. Т.У. 1999. - 165с.

4. Д.Ж. Норбоева Лексико-семантические особенности терминов психологии управления. Информационный бюллетень Каракалпакского государственного университета им. Бердака, № 4 (63), 2023. – С. 266–268.

5. Эргашева Г. К. «Лексико-семантические особенности терминов психологии русского и узбекского языков»: диссертация на соискание учёной степени доктора философии (PhD) по филологическим наукам. — Ташкент, 2018. — 145 с.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA “IDEAL SHAXS” KONSEPTINING MADANIY STEREOTIPLAR ORQALI IFODALANISHI

Muhiddinova Nilufar Sadriddin qizi

Navoiy davlat universiteti

1-kurs tayanch doktoranti.

Annotatsiya: Ushbu tezisda o‘zbek va ingliz tillarida “ideal shaxs” konseptining madaniy stereotiplar orqali ifodalanishi qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ideal shaxs, madaniy stereotip, konsept, lingvomadaniyat,.

Аннотация: В тезисе сопоставляются способы репрезентации концепта «идеальная личность» посредством культурных стереотипов в узбекском и английском языках.

Ключевые слова: идеальная личность, культурный стереотип, концепт, лингвокультура,.

Abstract: This thesis compares the representation of the “ideal person” concept through cultural stereotypes in Uzbek and English.

Keywords: ideal person, cultural stereotype, concept, cultural linguistics.

“Ideal shaxs” konseptini madaniy stereotiplar bilan bog‘liq holda o‘rganishda, avvalo, stereotipning til tizimida qanday shakllanishiga e’tibor qaratish lozim. Lingvistik jihatdan stereotiplar bir necha sathlarda namoyon bo‘ladi. Leksik sathda ular shaxsning axloqiy va ijtimoiy sifatlarini bildiruvchi birliklar orqali yuzaga chiqadi. O‘zbek tilidagi **halol, odobli, oriyatli, mas’uliyatli** kabi birliklar shaxsga nisbatan ijobiy bahoni ifodalasa, ingliz tilidagi **honest, decent, fair, reliable** birliklari shunga yaqin baholash maydonini hosil qiladi. Biroq mazkur

birliklarning real kommunikativ mazmuni ularning qo‘llanish muhiti va madaniy kontekstiga bog‘liq. Stereotiplarning keyingi muhim ko‘rinishi frazeologik birliklarda kuzatiladi. Frazeologizmlar mavhum axloqiy xususiyatlarni obrazli shaklda ifodalash imkonini beradi. Masalan, o‘zbek tilidagi **“ko‘ngli toza”, “dili pok”, “yuzi yorug‘”, “qo‘li ochiq”** kabi birliklarda insonning axloqiy fazilatlari tana a’zolari va fazoviy-obrazli tasavvurlar orqali beriladi. Ingliz tilida esa **warm-hearted, open-minded, upright person, clean conscience** kabi birliklar insonning ichki dunyosi, fikrlash tarzi yoki axloqiy prinsiplarini obrazli tarzda ifodalashi mumkin. Bunday birliklarda metaforik ko‘chish mavhum qadriyatni konkret va kommunikativ jihatdan tez anglashiladigan obrazga aylantiradi.

Paremiologik birliklarda esa individual fazilat umumlashtirilgan hayotiy tajriba sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, **“Sabr tagi sariq oltin”** maqoli sabrni qadrlanadigan insoniy fazilat sifatida mustahkamlasa, **“Honesty is the best policy”** maqoli halollikni ijtimoiy va amaliy muvaffaqiyat bilan bog‘laydi. Demak, maqol va matallar faqat axloqiy fikrni bildirmaydi, balki jamiyat tomonidan ma’qullangan xulq-atvor modelini ham takror ishlab chiqaradi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, “ideal shaxs” konseptining stereotipik mazmunida **umumiy yadro** va **madaniy jihatdan xos periferik belgilar**ni ajratish mumkin. Umumiy qatlamda halollik, yaxshilik, mas’uliyat, rostgo‘ylik kabi insoniy qadriyatlar mavjud. Ular turli madaniyatlarda uchrashi mumkin bo‘lsa-da, mazkur qadriyatlarning qaysi ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘lanishi va qanday baholanishida farqlar yuzaga keladi.

O‘zbek tilidagi stereotipik modellarda shaxsning oilaviy va ijtimoiy munosabatlardagi o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. **“Yaxshi farzand”, “ota-onasini rozi qilgan kishi”, “elga manzur inson”, “elga xizmat”** kabi birikmalar shaxsning fazilatini uning atrofidagi ijtimoiy munosabatlar orqali baholashga imkon beradi. Ingliz tilida esa **good citizen, independent adult, self-made person, responsible citizen** kabi birliklar shaxsning mustaqilligi, o‘z qarori, fuqarolik mas’uliyati va shaxsiy faoliyatiga urg‘u beruvchi stereotipik modellarni faollashtiradi. Biroq bunday farqlarni qat’iy milliy xarakter sifatida emas, balki tillarda muntazam uchraydigan madaniy baholash shakllari sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Stereotiplarning mazmuni diskurs turiga qarab ham o‘zgaradi. Ta’limiy diskursda ideal shaxs bilimli, intizomli, ma’naviy yetuk va jamiyat uchun foydali shaxs sifatida tasvirlanishi mumkin. Diniy-ma’rifiy diskursda poklik, sabr, saxovat va halollik kabi belgilar kuchayadi. Zamonaviy ommaviy axborot vositalari va motivatsion diskursda esa liderlik, tashabbuskorlik, kreativlik va muvaffaqiyat kabi sifatlar ko‘proq faollashadi. Ingliz tilidagi biznes va motivatsion diskurslarda **achiever, leader, resilient, self-motivated, goal-oriented** birliklari, fuqarolik

diskursida esa **fair, inclusive, respectful, responsible citizen** kabi birliklar ideal shaxsning turli modellarini yuzaga chiqaradi. Shu jihatdan stereotiplarni o‘zgarmas va yagona model sifatida tasavvur qilish to‘g‘ri emas. Bir shaxsning “ideal” sifatida baholanishi muayyan kommunikativ vaziyat, ijtimoiy rol va diskurs maqsadiga qarab turlicha mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fillmore C. J. Frame Semantics // *Linguistics in the Morning Calm*. Seoul: Hanshin, 1982. P. 111–137.
2. Mieder W. *Proverbs: A Handbook*. Westport: Greenwood Press, 2004.
3. Sharifian F. *Cultural Linguistics*. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins, 2017.
4. Taylor J. R. *Linguistic Categorization*. 3rd ed. Oxford: Oxford University Press, 2003.
5. Triandis H. C. *Individualism and Collectivism*. Boulder: Westview Press, 1995.
6. *Encyclopaedia Britannica*. “Stereotype”.
7. *APA Dictionary of Psychology*. “Stereotype”.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РУССКОГО ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ОБЩЕСТВА В ТУРКЕСТАНЕ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Мулладжанова Хосият Яздоновна
Старший преподаватель
кафедры Социальных дисциплин
Самаркандского института
экономики и сервиса

Annotatsiya: Ushbu maqolada Rossiya Geografiya jamiyatining Turkiston bo‘limi faoliyatining asosiy va istiqbolli yo‘nalishlari, shuningdek, uning keng ko‘lamli ekspeditsiyalari, tizimli kuzatuvlari va nashrlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Rossiya Geografiya jamiyatining Turkiston bo‘limi, Markaziy Osiyo, Rossiya Geografiya jamiyatining Turkiston bo‘limi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, ilmiy tadqiqotlar.

Аннотация: В данной статье указаны об основных и перспективных направлениях Туркестанского отдела русско-географического общества и масштабных экспедиций, систематических наблюдений и публикаций.

Ключевые слова: Туркестанский отдел Русско-географического

общества, Средняя Азия, основные направления Туркестанского отдела русского географического общества:, научные исследования.

Abstract: This article outlines the primary and prospective areas of activity of the Turkestan Branch of the Russian Geographical Society, as well as its large-scale expeditions, systematic observations, and publications.

Keywords: Turkestan Branch of the Russian Geographical Society, Central Asia, key areas of activity of the Turkestan Branch of the Russian Geographical Society, scientific research.

Во второй половине XIX века исходя из активности Русского географического общества проявляется большой интерес Туркестану. Туркестан становится ареной масштабных экспедиций, систематических наблюдений и публикаций. В Туркестанском крае первым из таких научных сообществ являлось Среднеазиатское ученое общество, основанное в 1869 г. по инициативе генерал-губернатора Константина Петровича фон Кауфмана (1). Деятельность Среднеазиатского ученого общества исходило из «собирании, обработке и распространении всех сведений, касающихся естественных богатств, торговли и промышленности, а также географии и истории Средней Азии» (2). Определяя мощный потенциал во всех аспектах Туркестанского края, члены Среднеазиатского общества в 1871 г. в обращении к К.П. фон Кауфману подчеркивали важную роль в организации более авторитетного научного учреждения. Среднеазиатское общество функционировало до конца 1872 г. и было закрыто за недостатком научных кадров и финансирования. В то время когда функционировало Среднеазиатское ученое общество члены общества видели исключительную роль в учреждении единой научной организации в Туркестанском крае и единогласно утверждали о благотворном влиянии на политико-экономического и культурного развитии Российской империи в Средней Азии.

Предвидя дальнейшую перспективу общества в 1870 г. К.П. фон Кауфман обращается в Совет ИРГО с просьбой открыть региональный отдел в Туркестанском крае. В письме к графу Ф.П. Литке, К.П. фон Кауфман просит оказать содействие «... к осуществлению моей мысли по открытию Ташкентского отдела Императорского Русского географического общества,

присовокупляя, что, в случае утверждения Советом Общества моего предложения, я обязуюсь изыскать средства для покрытия расходов которые могут встретиться на первое время существования Отдела» (3).

Следует отметить что Ф.П. Литке не видел необходимости открывать региональный отдел ИРГО в Туркестанском крае, потому что в Ташкенте постепенно создавались и функционировали достаточно региональных научных обществ. В конце 90-х годов вопрос об организации научной школы

в Туркестанском крае поднимает Туркестанский генерал-губернатор генерал от инфантерии Александр Борисович Вревский. С 1880 г., являясь членом ИРГО и будучи знаком с направлением работы географического общества, начал воплощать свои идеи в Средней Азии. В конце 1895 г. по его инициативе в открытии Туркестанского отдела РГО в Ташкенте, А.Б. Вревский ходатайствовал перед ИРГО (4). В своем обращении председателю ИРГО П.П. Семенову Тян-Шаньскому, А.Б. Вревский отметил необходимость в исследовании областей, входивших в состав Туркестанского генерал-губернаторства, в том числе Бухарского и Хивинского ханств, и предлагал учредить региональный отдел ИРГО по примеру существующих отделений на Кавказе, Приаралье и Омске (5).

Председатель ИРГО П.П. Семенов Тян – Шанский как ученый и как исследователь Туркестанского края поддержал инициативу А.Б. Вревского по вопросу об учреждении отдела ИРГО в Туркестанском крае. Решив организационные вопросы и получив согласие от императора Николая II, Туркестанский отдел русского географического общества начинает свою работу в 1897 г. в городе Ташкент.

На первом заседании Туркестанского отдела русского географического общества состоявшемся 28 февраля 1897 г., были определены основные и перспективные направления Туркестанского отдела русского географического общества: собирать и обрабатывать полученные сведения о Туркестанском крае, Бухаре и Хиве, кроме того, систематизировать имеющиеся данные о соседних областях края - Китае и Афганистане. Главной задачей Общества было исследование края в географическом и статистическом отношении, сбор географических, климатических и биологических материалов. а также пропаганда научных знаний.

Результаты представлялись на заседаниях РГО в Ташкенте и Петербурге, а затем публиковались в специализированных изданиях. Нужно отметить что активную роль в деятельности Туркестанского отдела русского географического общества с первых дней его создания играли ряд ученых и исследователей такие как энтомолог и путешественник В.Ф. Ошанин, историк и географ Н.Г. Малицкий, археолог И.И. Пославский, классик русской географии Л.С. Берг. Экспедиции Н. А. Северцова (1860–1870-е гг.), А. П. Федченко (1868–1871 гг.), а также исследования И. В. Мушкетова, Д. Л. Иванова и др. заложили научную основу для географического изучения Туркестана. Следовательно первым председателем Туркестанского отдела русского географического общества был избран сам же туркестанский генерал-губернатор А.Б. Вревский.

По предложению А.Б. Вревского было основан управленческий сектор Туркестанского отдела русского географического общества в составе, которого был председатель Туркестанского отдела русского географического общества- Туркестанский генерал-губернатор, при вступлении в обязанности которого получал почетное звание - Всеподданнейшего покровителя Туркестанского отдела русского географического общества. Председатель руководил деятельностью отдела, созывал и вел заседания. Под его председательством проводились общие и годовые собрания Туркестанского отдела русского географического общества. В полномочия председателя Туркестанского отдела русского географического общества входили такие обязанности как содействие в организации экспедиций, предоставление помещений, покупку оборудования, в случае необходимости назначение сопровождающих лиц. Далее заместитель председателя т.е. помощник, который исполнял обязанности председателя при его отсутствии, а также помогал в организации заседаний и научной работы, и еще в состав входили секретарь, казначей. Кроме этого были и почетные члены распорядительного комитета, которые избирались из числа действительных членов отдела и участвовали в принятии решений по научной и организационной деятельности. Они также рассматривали вопросы организации экспедиций, публикации трудов, приема членов и расходования средств. Членами Туркестанского отдела русского географического общества стали многие военные и административные деятели, ученые, инженеры и путешественники.

Перед Туркестанским отделом Русского географического общества стояли такие задачи как изучение местности т.е. административно-территориальное деление, географические особенности, пути сообщения, климат, сейсмологические характеристики, а также народонаселение и этнографические особенности. Конечно же изучалась и духовная и материальная жизнь народов, проживавших в том регионе и сфера деятельности населения и т.д. Также важно отметить и изучение геологии, растительного, животного мира и водные пути региона. Следует отметить что также решались вопросы гидрологических, статистических исследований Средней Азии. Таким образом можно считать, что Туркестанский отдел стал центром наук таких как география, этнография, геология, зоология и т.д. Как отмечает Б.В. Лунин «Научная работа, проводимая РГО и его Туркестанским отделом, не только расширила знания о регионе, но и способствовала интеграции Средней Азии в общее культурно-научное пространство империи.»

С началом деятельности Туркестанского отдела русского географического общества началась научно-исследовательская

деятельность, результаты которой публиковались в периодическом издании Известий Туркестанского отдела русского географического общества который был издан первый выпуск в 1898 г. по инициативе А.Б. Вревского.

Нужно отметить что деятельность Туркестанского отдела русского географического общества имела два наиболее важных направления. Первое - научно-исследовательская и издательская работа. Второе – организация и проведение научных экспедиций. Один из важных вопросов являлся создание структуры которая слаженно должна регулировать и направлять работу Туркестанского отдела русского географического общества в административной, финансовой и хозяйственной сферах. Следовательно вся научно-исследовательская деятельность Туркестанского отдела русского географического общества осуществлялась от лица туркестанского генерал-губернатора.

Используемая литература:

1. Отчет о деятельности Средне-Азиатского отдела Государственного РГО за время с 1897 по 1927 гг. // Отчеты за 1926-1927 гг. и за время с 1897 по 1927 гг. Средне-Азиатского отдела Государственного РГО. Ташкент: Типо-лит., 1927. С. 17.

2. Лунин Б.В. Научные общества Туркестана и их прогрессивная деятельность (конец XIX - начало XX в.) Указ. соч. С. 71.

3. Письмо Ф.П. Литке от К.П. фон Кауфмана 9.12.1870 г. РГВИА. Ф. 1396. Оп. 2. Д. 161. Л. 1об.

4. Отчет правления ТО ИРГО за 1897 г // Известия ТО ИРГО. 1898. Т. 1. Вып. 1. С. 109-117.

5. Письмо на имя вице-председателя РГО П.П. Семенова. НА РГО. Ф. 1-1895. Оп. 1. Д. 11. Л. 1.

ПОЭТИКА МЕЖКУЛЬТУРНОГО ДИАЛОГА В РУССКОЯЗЫЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ УЗБЕКИСТАНА. ТВОРЧЕСТВО АЛЕКСАНДРА ФАЙНБЕРГА

Чернова Татьяна Алексеевна
старший преподаватель СамИЭС,
chernovatatiyana@sies.uz
tatyha.1990.1103@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1232-0007

Аннотация: Статья посвящена исследованию феномена диалога культур в творчестве Александра Аркадьевича Файнберга — одного из наиболее известных русскоязычных поэтов Узбекистана XX–XXI веков.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью осмысления русскоязычной литературы Узбекистана как особого художественного пространства, в котором взаимодействуют различные национальные традиции, языковые системы, историко-культурные представления и модели мировосприятия. На материале поэзии и переводческой деятельности А. Файнберга рассматриваются основные формы художественного взаимодействия русской и узбекской культур. Особое внимание уделяется образу Ташкента, национально-культурным реалиям, мотивам исторической памяти, традициям, восточной образности и переводам произведений узбекских авторов на русский язык.

Ключевые слова: Русскоязычная литература Узбекистана, диалог культур, межкультурная коммуникация, узбекская культура, русская поэзия, художественный перевод, Ташкент, национальная идентичность, культурная память.

Annotatsiya: Maqola O‘zbekistonning XX–XXI asrlaridagi eng taniqli ruszabon shoirlaridan biri Aleksandr Arkadyevich Faynberg ijodida madaniyatlar dialogi fenomenini tadqiq etishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning dolzarbligi O‘zbekiston ruszabon adabiyotini turli milliy an’analar, til tizimlari, tarixiy-madaniy tasavvurlar va dunyoni idrok etish modellarining o‘zaro ta’siri namoyon bo‘ladigan o‘ziga xos badiiy makon sifatida anglash zarurati bilan belgilanadi. A. Faynbergning she’riyati va tarjimonlik faoliyati materiallari asosida rus va o‘zbek madaniyatlarining badiiy o‘zaro ta’sirining asosiy shakllari ko‘rib chiqiladi. Toshkent obrazi, milliy-madaniy voqeliklar, tarixiy xotira motivlari, an’analar, Sharqona obrazlilik hamda o‘zbek mualliflari asarlarining rus tiliga tarjimalariga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston rusiyzabon adabiyoti, madaniyatlar dialogi, madaniyatlararo kommunikatsiya, o‘zbek madaniyati, rus she’riyati, badiiy tarjima, Toshkent, milliy identifikatsiya, madaniy xotira.

Abstract: The article is devoted to the study of the phenomenon of cultural dialogue in the works of Alexander Arkadievich Feinberg, one of the most prominent Russian-language poets of Uzbekistan in the 20th and 21st centuries. The relevance of the study is determined by the need to understand Russian-language literature of Uzbekistan as a distinctive artistic space in which different national traditions, language systems, historical and cultural ideas, and models of worldview interact. Based on Feinberg’s poetry and translation activities, the article examines the main forms of artistic interaction between Russian and Uzbek cultures. Particular attention is paid to the image of Tashkent, national and cultural realities, motifs of historical memory, traditions, Oriental imagery, and translations of works by Uzbek authors into Russian.

Keywords: Russian-language literature of Uzbekistan, cultural dialogue, intercultural communication, Uzbek culture, Russian poetry, literary translation, Tashkent, national identity, cultural memory.

Проблема взаимодействия культур занимает значительное место в современном литературоведении. Особую актуальность она приобретает при изучении литературы, создаваемой в многонациональном и многокультурном пространстве. В этом отношении русскоязычная литература Узбекистана представляет собой важный объект исследования, поскольку её развитие связано с постоянным взаимодействием русского литературного языка с национальными языками, традициями, исторической памятью и культурным опытом народов Центральной Азии.

Понятие «диалог культур» предполагает не только непосредственное соприкосновение представителей различных культур, но и процесс взаимного понимания, интерпретации и художественного освоения чужого культурного опыта. В литературном произведении такой диалог может проявляться через систему образов, мотивов, топонимов, реалий национального быта, фольклорных элементов, исторических ассоциаций, языковых особенностей и интертекстуальных связей. Теоретическое осмысление диалога культур связано, прежде всего, с трудами М. М. Бахтина и Ю. М. Лотмана. Бахтин рассматривал культуру как пространство взаимодействия различных голосов и точек зрения, подчёркивая продуктивность встречи разных культурных сознаний [1]. Для Лотмана культура также является сложной знаковой системой, способной воспринимать, перерабатывать и трансформировать информацию, поступающую из другого культурного пространства [2].

Особый интерес в данном контексте представляет творчество Александра Аркадьевича Файнберга. Поэт родился в Ташкенте в 1939 году, окончил факультет журналистики Ташкентского государственного университета, публиковался с 1962 года и был автором многочисленных поэтических сборников, сценариев и переводов [3]. Его литературная судьба непосредственно связана с культурной жизнью Узбекистана. Исследователи отмечают значительную роль Файнберга в развитии русскоязычной литературы Узбекистана и в популяризации узбекской поэзии среди русскоязычных читателей [4]. Его переводческая деятельность охватывала творчество Алишера Навои, Абдуллы Арипова, Эркина Вахидова и других узбекских поэтов [3; 5].

Русскоязычная литература Узбекистана занимает особое место в литературном процессе Центральной Азии. Её своеобразие определяется тем, что русский язык в художественном тексте становится не только средством коммуникации, но и инструментом осмысления местной действительности.

При этом русскоязычный автор может обращаться к узбекским национальным образам и традициям, не отказываясь от собственной литературной традиции.

Именно такая модель культурного взаимодействия характерна для творчества Александра Файнберга. Его принадлежность к русской поэтической традиции сочетается с глубоким знанием и художественным освоением культурного пространства Узбекистана. Показательно, что Файнберг воспринимал Ташкент не просто как место проживания, а как важнейшую часть собственной художественной картины мира. Город становится в его творчестве своеобразным культурным текстом, в котором соединяются историческое прошлое, современность, повседневная жизнь, национальные традиции и личная память.

В данном случае особенно важна категория «своего» и «чужого». В традиционном понимании другая культура может восприниматься как внешняя по отношению к автору. Однако в творчестве Файнберга культурное «чужое» постепенно становится частью личного художественного опыта. Узбекская культура не изображается исключительно как объект наблюдения. Она включается в систему авторского мировосприятия.

Поэтому определение Файнберга исключительно как русского поэта, жившего в Узбекистане, оказывается недостаточным для понимания его литературного наследия. Его художественный мир сформирован взаимодействием нескольких культурных традиций. Русский язык является языком его поэзии, однако предметом художественного осмысления часто становятся реалии и культурные коды Узбекистана.

Одним из центральных элементов художественного мира Файнберга является Ташкент. Для анализа диалога культур это особенно важно, поскольку город в его творчестве может рассматриваться как своеобразное пространство встречи различных культурных традиций. Ташкент предстаёт не только географическим объектом, но и культурным феноменом. В городском пространстве сосуществуют различные языки, обычаи, архитектурные традиции, исторические пласты и формы повседневной жизни. Такое многообразие непосредственно отражается в художественном сознании поэта.

Образ города у Файнберга тесно связан с памятью. В его произведениях Ташкент воспринимается как пространство личного опыта и одновременно как носитель коллективной истории. Именно поэтому городские мотивы приобретают культурно-историческое значение. В поэзии Файнберга можно увидеть характерную особенность: национальная специфика не превращается в этнографическую декорацию. Узбекские реалии существуют в естественной связи с жизнью лирического героя. Они становятся частью его повседневного мира.

В этом отношении творчество Файнберга можно рассматривать в связи с концепцией «текста города». В литературоведении город часто понимается как сложная знаковая система, в которой архитектура, история, социальная среда и человеческая память образуют единое культурное пространство. Ташкент Файнберга существует именно в таком качестве. Он становится не фоном событий, а активным компонентом художественного мира.

Особое значение для изучения диалога культур имеет использование национально-культурных реалий. В поэзии Файнберга встречаются образы, связанные с узбекским бытом, национальной кухней, традициями, музыкой, природой и историей. Примечательна поэма «Струна рубаята», в которой изображение узбекской чайханы и плова получает ярко выраженное художественное воплощение [3]. В данном случае национальная реалия приобретает одновременно бытовое, культурное и эстетическое значение.

Обращение к чайхане важно потому, что чайхана в традиционном культурном пространстве Средней Азии связана не только с приёмом пищи. Это место общения, встреч, обмена новостями и формирования социальных связей. Поэтому её присутствие в художественном мире Файнберга позволяет говорить о включении национальной культурной модели в русскоязычную поэтическую систему.

Такое изображение культуры особенно важно для диалога. Автор не противопоставляет культуры друг другу, а показывает их в процессе естественного сосуществования. Музыкальные мотивы также играют существенную роль. Особенное значение в данном отношении приобретает образ рубаба — традиционного музыкального инструмента, который становится культурным знаком и элементом поэтической символики.

Одной из наиболее значимых особенностей творчества Файнберга является взаимодействие восточной и русской литературных традиций. Файнберг писал на русском языке и находился в пространстве русской поэзии, однако его художественное мышление формировалось в узбекской культурной среде. Поэтому в его произведениях возникает особый синтез.

Существенную роль в этом процессе играет обращение к наследию Алишера Навои. Для узбекской культуры Навои является центральной фигурой классической литературы, а его поэтическое наследие связано с глубокими философскими, нравственными и эстетическими представлениями. Работа Файнберга с произведениями Навои имеет принципиальное значение именно потому, что перевод предполагает встречу двух языковых и культурных систем.

Перевод классической восточной поэзии на русский язык невозможно свести к механической замене слов. Переводчик сталкивается с

необходимостью передать культурные ассоциации, образную систему, ритмическую организацию и философское содержание произведения. Поэтому переводческая деятельность Файнберга является самостоятельной формой художественного диалога.

Поэт пишет на русском языке, однако его художественное пространство не ограничивается русской культурой. Узбекистан становится важнейшей частью его литературной идентичности. При этом нельзя утверждать, что Файнберг просто «перешёл» от одной культуры к другой. Более точным является представление о синтетическом культурном сознании, в котором различные традиции взаимодействуют.

Именно поэтому понятие диалога культур оказывается продуктивнее понятия простого культурного влияния. Влияние предполагает преимущественно однонаправленное движение: одна культура воздействует на другую. Диалог предполагает взаимность. В творчестве Файнберга русская литературная традиция взаимодействует с узбекским культурным материалом, а узбекская поэзия, в свою очередь, получает новое звучание в русскоязычном художественном пространстве.

В творчестве Файнберга культурная память связана прежде всего с Ташкентом и Узбекистаном. Городская память включает в себя не только официальную историю, но и личные воспоминания, человеческие отношения, повседневные события. Именно соединение индивидуальной и коллективной памяти придаёт его поэзии особую культурную значимость.

Особенно значим принцип, сформулированный в теории диалога культур: культура становится понятнее не тогда, когда полностью растворяется в другой культуре, а тогда, когда сохраняет собственную специфику и вступает в контакт с другим культурным сознанием [1; 2]. Творчество Файнберга демонстрирует именно такой тип взаимодействия.

Таким образом, творчество Александра Аркадьевича Файнберга представляет собой значимый материал для исследования диалога культур в русскоязычной литературе Узбекистана.

В-четвёртых, особое значение имеет переводческая деятельность Файнберга. Перевод произведений узбекских поэтов на русский язык становится формой непосредственного межкультурного общения. Сборник «Лебединая стая» является показательным примером подобной деятельности [5].

В результате творчество Файнберга может рассматриваться как важная часть литературного наследия Узбекистана и как пример продуктивного взаимодействия русской и узбекской культур. Его поэзия и переводы демонстрируют, что литература способна выполнять функцию

культурного посредника, обеспечивая сохранение национальной специфики и одновременно создавая пространство взаимного понимания. Его наследие позволяет по-новому осмыслить понятие русскоязычной литературы Узбекистана, рассматривая её не как периферийное явление, а как самостоятельное пространство культурного взаимодействия, в котором формируются новые формы художественного выражения, культурной памяти и идентичности.

Список использованной литературы:

1. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. — М.: Искусство, 1986. — 445 с.
2. Лотман Ю. М. Культура и взрыв. — М.: Гнозис; Издательская группа «Прогресс», 1992. — 272 с.
3. Файнберг А. А. Стихотворения и поэмы. — Ташкент: Издательство литературы и искусства им. Гафура Гуляма, различные издания.
4. Чернова Т. А., Отакулов Ғ. Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века // Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. — 2026. — Т. 4. — № 6.
5. Лебединая стая. Стихи поэтов Узбекистана в переводах Александра Файнберга. — Ташкент: Нихол, 2008. — 112 с.
6. Mamatsoliyeva S. Kh. A. Alexander Feinberg's Poetry and Translation Status // Modern Education and Development. — 2025. — Vol. 22. — No. 2. — P. 224–231.
7. Келдиёрова С. Ж. Переводческая деятельность Александра Файнберга и адаптация стихотворения Абдуллы Орипова «Слушая муножот» // Journal of IQRO. — 2025. — Vol. 14. — Issue 01. — P. 59–64.
8. Зокиржонова М. Писательский и переводческий труд Александра Файнберга // Научный информационный бюллетень. — 2025. — С. 208–210.
9. Ешниязова Э. Н. Особенности творчества А. Файнберга // Наука и общество. — 2025. — № 4.
10. Норбоева З. Роль творчества Александра Файнберга в узбекской литературе // Modern Education and Development. — 2025. — Вып. 22. — Ч. 2. — С. 121–125.

TABIAT HODISALARI VA TAQVIM LEKSIKASI ISHTIROK ETGAN MAQOLLARDAGI O‘XSHATISHLAR TAHLILI

Fattoyeva Ruxsora Bahodir qizi
Buxoro davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq maqollaridagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy va struktural xususiyatlari Abdurauf Fitratning to‘rt unsur qolipi asosida tahlil qilingan. Tabiat hodisalari bilan bog‘liq paremalardagi an’anaviy va noana’naviy o‘xshatishlar aniqlanib, ularning xalq mentaliteti hamda hayotiy tajribasi bilan bog‘liqligi lisoniy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: lingvomadaniyat, o‘xshatish, o‘xshagan, o‘xshatilgan, o‘xshatish qaydi,o‘xshash, an’anaviy va noana’naviy o‘xshatish.

Xalqning madaniyati va mentaliteti haqidagi ma’lumotlarning eng qimmatli manbasi frazeologizmlar, metaforalar, ramzlar vas shu kabilardir, ularda asotirlar, afsonalar, urf-odatlar go‘yoki konservatsiyalangan holatda saqlangan bo‘ladi[48]. Millatning beqiyos tarixiy-madaniy, etnik-ma’naviy tajribalari, ya’ni uning o‘zigagina xos bo‘lgan “olamning lisoniy manzarasi’’ til vositasida shakllangani singari ushbu tajribalarning barchasi o‘sha xalqning tilida o‘z ifodasini topadi, shu tilda yashaydi va muntazam ravishda ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelishda davom etadi. Inson tafakkuri mahsuli bo‘lgan, ma’lum xalqning madaniyatini o‘zida yaqqol ifodalagan va badiiy san’atlar tizimida eng faol hisoblangan o‘xshatishlarning mazmun-mohiyati, estetik qiymati, shakliy xususiyatlari kabilarni tilshunoslikning turli aspektlarida o‘rganish jahon tilshunoslari uchun doimo dolzarblik kasb etadi. Shunga ko‘ra badiiy asarlar tilidagi o‘xshatishlarning struktural jihatlarini aniqlash, poetik qiymatini baholash bilan birga lingvomadaniy qirralarini ochib berish ahamiyatlidir.

Ma’lumki, o‘xshatishlar undagi uzvlarning ishtirokiga ko‘ra **to‘liq o‘xshatishlar** va **to‘liqsiz yoki qisqa o‘xshatishlar**ga ajratiladi. Tashbeh to‘rt unsurdan tashkil topgan bo‘lib, bu unsurlarni Fitrat qarashlari asosida ***o‘xshagan-A***, ***o‘xshatilgan-B*** , ***o‘xshatish qaydi-D***, ***o‘xshash-E***[49] tarzida izohlanadi. Quyida xalq maqollarida ishtirok etgan o‘xshatishlarni shu qolip asosida tahlil qilamiz.

Kun qizarib botsa- ***xotining o‘g‘il tuqqandek,***

Kun qizarib chiqsa - ***uyingga yov kirgandek.***

Bu - xalqimizning eng qadimiy maqollaridan biri. Kishilar ko‘p yillik kuzatishlar natijasida shunday xulosaga kelganlarki, agar ertalab kun qizarib

[48] . Маслова В. А. Лингвокультурология. –М.: «Академия», 2001, 3-b.

[49] Фитрат. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. V жилдлик. –Т.: Маънавият, 2006. -IV жилд. –Б. 50-52.

chiqsa, shu kuni havo bulutli bo‘ladi yoxud qor-yomg‘ir yog‘adi. Agar kun qizarib botsa, ya’ni quyosh botayotganida ufq alvon tusga kirsa, ertasiga havo ochiq bo‘ladi, yog‘ingarchilik bo‘lmaydi. Odatda kun ochiq bo‘lib tursa, kishining ko‘ngli ham ochilib, vaqti chog‘ bo‘lib yuradi, bu holat maqolda “xotining o‘g‘il tuqqandek” jumlasi orqali ifodalangan va aksincha, havo bulutli bo‘lib tursa, kishining ko‘ngli yorishmay, ta’bi xira bo`lib yuradi, bu o‘rinda maqolda “uyingga yov kirgandek” jumlasi qo‘llanilgan. *Kun qizarib botsa, kun qizarib chiqsa -* ***o‘xshagan – A,*** *xotining o‘g‘il tuqqan, uyingga yov kirgandek-* ***o‘xshatilgan- B,*** *-dek-* ***o‘xshatish qaydi-D***. Demak uning formulasi ***A B D*** dir **.** Ushbu o‘xshatishlar noyob va o‘ziga xos, ularni ko‘p uchratmaganimiz sababli **noana’naviy o‘xshatishlar** sirasiga kiritamiz**.** Maqol xalqimizning topqirlik bilan ob-havoni ta’bir etgani hamda kundalik turmushdagi yuksak madaniyatidan dalolat beradi. Maqolning quyidagi varianti ham mavjud.: “Kun qizarib botsa, qizingni uzat, Tong qizarib otsa, tomingni tuzat”.

Yoz yomg‘iri ilon bilan chayondek.

Maqolda *yoz yomg‘iri –* ***o‘xshagan A****, ilon va chayon –* ***o‘xshatilgan B****,* ***o‘xshatish qaydi – “dek”-D, o‘xshash*** uzvi mavjud emas. Uning ***A B D*** shaklli o‘xshatish deya olamiz. Qadimdan xalqimiz yozda yog‘gan yomg‘irni yaxshilik alomati emas, deb baholaganlar. Qish, bahor va kuzdagi yog‘ingarchilik dehqonchilik va chorvachilik uchun foydali sanalgan bir paytda, yoz yomg‘iri ijobiy baholanmagan hamda iliq kutib olinmagan. Aslida, yozda yomgir yog‘ishi ham foydali bo‘lishi mumkin, lekin ko‘plab hollarda xalqimiz bunga salbiy qarashgan. Sabablari quyidagilar: 1)dehqonchilik va hosil xavfi – yoz yomg‘irlari ko‘pincha meva va don ekinlari uchun muammo bo‘lgan. Masalan, bug‘doy, makkajo‘xori yoki boshqa ekinlar quruq iqlimni talab qiladi; yozda yog‘gan yomgir hosilning chirishiga, hosil sifatining pasayishiga olib kelgan. Shu sababli dehqonlar buni salbiy deb hisoblagan; 2)uy-joy ishlariga to‘sqinlik – yozda yomg‘ir ko‘p yog‘sa, qurilish ishlari, yo‘l ishlari va boshqa uy-joy ishlariga xalaqt bergan; 3)sog‘liq bilan bog‘liq xavotir – yoz yomg‘irlari bilan bog‘liq shamollashlar va kasalliklarning ko‘payishi ham xalqni ogohlantirgan. Maqolda yoz yomg‘iri ilon va chayonga o‘xshatilgan. Bu o‘xshatish yomg‘irning tez va kutilmagan tushishini, ba’zan xavfli yoki ehtiyotkorlikni talab qiladigan tabiiy hodisa ekanligini ifodalaydi. Shu tariqa, maqolning asosiy ma’nosi yomg‘irni tabiiy hodisa sifatida emas, balki jonli, hushyorlikni talab qiladigan narsa sifatida tasvirlashdir. Shu tufayli bu yerda noan’anaviy o‘xshatish ishtirok etgan, deyish mumkin. Xalqimizda yuqoridagiga yaqin mazmunni aks attiruvchi yana bir parema mavjud.

Javzodagi yomg‘irdan ilon yog‘sa yaxshi.

Javzo – Shamsiy oy hisobining uchinchi oyi nomi bo‘lib, 22-maydan 22-iyungacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Demak, yuqoridagi maqolga o‘xshab

bunda ham yoz yomg‘iri to‘g‘risida so‘z boradi. Javzo davrida arpa, bug‘doy hamda o‘rik, gilos, olma kabi ertapishar mevalar , pomidor, bodring kabi sabzavotlar yetishtirib boriladi. Bu paytda ko‘p yoki kuchli yomg‘ir zararli bo‘lishi mumkin, chunki g‘alla yotib qoladi yoki chiriydi; pishgan mevalar yorilib ketadi; hosil sifati pasayadi. Javzo davrida yomg‘ir ba’zi pishib turgan hosilga zarar yetkazishi mumkin. Ammo umumiy ma’noda suv - hayot manbai, qurg‘oqchilikdan ko‘ra yomg‘ir afzal, deb qaralgan. Ota-bobolarimiz shu fikrni kuchli mubolag‘a orqali ifodalaganlar. Yuqoridagi g‘oyani **“Yomg‘ir – ekinning joni”** maqolida ham ko‘rishimiz mumkin.

Qor yog‘di, go‘yo zar yog‘di.

Yuqoridagi maqolda qor dehqonchilik uchun foydaliligi jihatdan tillo-yu zarga o‘xshatilmoqda. *Qor yog‘di* - ***o‘xshagan A***, *don yog‘di*- ***o‘xshatilgan B***, ***o‘xshatish qaydi – “go‘yo”-D, o‘xshash*** uzvi mavjud emas. Uning ***A B D*** shaklli o‘xshatish deya olamiz. Qorning zarga, tillaga o‘xshatish ko‘p hollarda qo‘llanilgani bois uni an’anaviy o‘xshatishlar sirasiga kiritamiz. Bir turkum maqollarda ota-bobolar yog‘ingarchilikka o‘z munosabatlarini bildirib, vaqtida yoqqan qor-yomg‘irning foydali, bevaqt yoqqan qor-yomg‘irning esa zararli ekanligini qayd etganlar: “Qor yog‘di - non yog‘di”, “Qor – yerning ko‘rpasi, Yomg‘ir – yerning sho‘rvasi” maqollarida ham yog‘ingarchilikning naqadar muhimligi ta’kidlangan.

Xalq maqollaridagi o‘xshatishlarni lingvomadaniy va struktural jihatdan o‘rganish millat tafakkuri va uning asriy hayotiy tajribasini anglashda beqiyos ahamiyatga ega. Abdurauf Fitratning tashbeh tarkibiy qismlari haqidagi nazariy qarashlariga tayanib o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tabiat hodisalari va ob-havo ta’rifiga bag‘ishlangan ko‘plab o‘zbek xalq maqollarida o‘xshatishlar to‘liqsiz shaklda, ya’ni A B D (o‘xshagan, o‘xshatilgan, o‘xshatish qaydi) formulasi asosida yuzaga kelgan. Maqolada xalq ijodida tabiat hodisalariga shunchaki estetik element emas, balki hayotiy va madaniy yondashuv asosida baho berilishi aniqlandi. Xususan, qorning zarga o‘xshatilishi dehqonchilikdagi baraka ramzi sifatida an’anaviy xarakterga ega bo‘lsa, yoz yomg‘irining ilon va chayonga qiyoslanishi xalqning xo‘jalik hayoti, hosilni asrash tashvishlari bilan bog‘liq bo‘lgan noan’anaviy, o‘ziga xos lisoniy tafakkur mahsulidir. Umuman olganda, maqollardagi o‘xshatishlar ajdodlarimizning yuksak topqirligi, tabiat qonuniyatlarini kundalik turmush bilan bog‘lay olish qobiliyati hamda milliy madaniyatimizning tildagi barhayot muhridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2019. - B. 139.

2.Маслова В. А. Лингвокультурология. –М.: «Академия», 2001, 3-b.

3.Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Маънавият, 2013. -В. 6.

4.Усмонов Ф. Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: фил. фан. фалсафа доктори(PhD)... дисс.- Тошкент, 2020. . –162 б.

5.Фитрат. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. V жилдлик. –Т.: Маънавият, 2006. -IV жилд. –Б. 50-52.

6.Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. (2001).Маънолар махзани (ўзбек мақолларининг изоҳли луғати). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти.

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI O‘QITISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Abdusattarova Mahliyo Muzaffar qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi
Jo‘ranazarova Nigora Qurbonboy qizi
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning zamonaviy tendensiyalari tahlil qilinadi. Unda kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, interfaol va fanlararo yondashuvlar, raqamli texnologiyalar, mustaqil ta’lim hamda sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, talabalarda tanqidiy fikrlash, media savodxonlik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish masalalariga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-gumanitar fanlar, zamonaviy ta’lim, raqamli pedagogika, interfaol metodlar, kompetensiyaviy yondashuv, tanqidiy fikrlash, fanlararo integratsiya, sun’iy intellekt.

Аннотация: В статье рассматриваются современные тенденции преподавания социально-гуманитарных дисциплин. Анализируются компетентностный, личностно-ориентированный, интерактивный и междисциплинарный подходы, цифровые технологии, самостоятельное обучение и возможности использования искусственного интеллекта. Особое внимание уделяется развитию критического мышления, медиаграмотности и коммуникативных компетенций студентов.

Ключевые слова: социально-гуманитарные дисциплины, современное образование, цифровая педагогика, интерактивные методы, компетентностный подход, критическое мышление, междисциплинарная интеграция, искусственный интеллект.

Abstract: The article examines modern trends in teaching social sciences and humanities. It focuses on competency-based, learner-centered, interactive and

interdisciplinary approaches, digital technologies, independent learning, and the use of artificial intelligence. Particular attention is paid to developing students' critical thinking, media literacy, and communication skills.

Keywords: social sciences and humanities, modern education, digital pedagogy, interactive methods, competency-based approach, critical thinking, interdisciplinary integration, artificial intelligence.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimida yuz berayotgan globallashuv va raqamli transformatsiya ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish mazmuni va metodlarini yangilashni talab qilmoqda. Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, siyosatshunoslik, psixologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar shaxsning dunyoqarashi, mustaqil fikrlashi va jamiyatdagi faol ishtirokini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

An'anaviy ta'limda asosiy e'tibor tayyor bilimlarni yetkazish va ularni o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy pedagogikada talabaning mustaqil fikrlashi, muammolarni tahlil qilishi, axborotni baholashi va amaliy vaziyatlarda bilimlaridan foydalanishi ustuvor hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalarning ta'limga kirib kelishi ham ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. UNESCO ma'lumotlariga ko‘ra, raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining mazmuni va tashkil etilishiga sezilarli ta'sir ko‘rsatmoqda.[1]

Shu sababli zamonaviy o‘qituvchi o‘z fanini yaxshi bilish bilan bir qatorda, innovatsion pedagogik metodlar, raqamli ta'lim vositalari va zamonaviy baholash usullaridan samarali foydalanishi zarur.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning asosiy zamonaviy tendensiyalari

Kompetensiyaviy yondashuv

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishdagi muhim tendensiyalardan biri kompetensiyaviy yondashuvning kuchayishidir. Bunda ta'lim natijasi faqat talabaning qancha ma'lumotni bilishi bilan emas, balki mazkur bilimlardan amaliy faoliyatda qanday foydalana olishi bilan belgilanadi.

Masalan, tarix fanida talaba tarixiy sanalarni yodlash bilan cheklanmasdan, tarixiy manbalarni tahlil qilishi, voqealarning sabab va oqibatlarini aniqlashi hamda turli qarashlarni taqqoslashi kerak. Falsafa fanida esa tayyor ta'riflarni yodlashdan ko‘ra, muammoli masalalar yuzasidan mustaqil fikr yuritish muhimdir.

Bunday yondashuv talabalarda tanqidiy, analitik, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Interfaol va innovatsion metodlardan foydalanish. Zamonaviy dars jarayonida o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki ta'lim jarayonini tashkil

etuvchi va yo‘naltiruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Talaba esa darsning faol ishtirokchisiga aylanadi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarda debat, munozara, “aqliy hujum”, keys-stadi, rolli o‘yin, loyiha metodi, muammoli ta’lim va guruhli ishlardan samarali foydalanish mumkin.Masalan, huquq fanida real hayotdagi huquqiy vaziyatni keys sifatida berish orqali talabalar qonun normalarini amaliy holatga tatbiq etishni o‘rganadilar. Tarix fanida esa turli tarixiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish orqali talabalarning mustaqil fikrlashi rivojlantiriladi.

Interfaol metodlarning asosiy afzalligi shundaki, ular talabani passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi.[2]

Raqamli texnologiyalardan foydalanish. Raqamli texnologiyalar ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Elektron darsliklar, taqdimotlar, videodarslar, virtual muzeylar, elektron kutubxonalar, onlayn testlar va ta’lim platformalaridan foydalanish dars samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Tarix fanida raqamli xaritalar va virtual muzeylardan, sotsiologiyada elektron so‘rovnomalardan, huquq fanida elektron qonunchilik bazalaridan, falsafada esa ilmiy elektron ma’lumotlar bazalaridan foydalanish mumkin.

Raqamli vositalar talabaning mustaqil ishlashi uchun ham keng imkoniyat yaratadi. Biroq texnologiyadan foydalanishning o‘zi ta’lim sifatini kafolatlamaydi. Uning samarasi pedagogik maqsad va to‘g‘ri metodik yondashuv bilan belgilanadi.[3]

Tanqidiy fikrlash va media savodxonlik. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida inson juda katta miqdordagi axborotga ega bo‘lmoqda. Shu sababli talabaning axborotni izlash bilan bir qatorda uning ishonchliligini aniqlay olishi ham muhim.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarda talabalarga turli manbalarni qiyoslash, muallif pozitsiyasini aniqlash, dalillarning ishonchliligini baholash va xulosa chiqarish topshiriqlarini berish samarali hisoblanadi.

Media savodxonlik tarixiy, siyosiy va ijtimoiy mavzularda ayniqsa muhim. Talaba internetdagi ma’lumotni tanqidiy tahlil qilish, ishonchli va ishonchsiz manbalarni farqlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak. UNESCO ham raqamli muhitda axborotdan mas’uliyatli foydalanish va raqamli fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratadi.[4]

Fanlararo integratsiya. Zamonaviy ijtimoiy muammolarni faqat bitta fan doirasida o‘rganish ko‘pincha yetarli emas. Shu sababli fanlararo integratsiya ijtimoiy-gumanitar ta’limning muhim tendensiyalaridan biri hisoblanadi.

Masalan, migratsiya muammosini o‘rganishda tarix, sotsiologiya, iqtisodiyot, huquq va siyosatshunoslik bilimlaridan foydalanish mumkin. Ekologik

muammolarni o‘rganishda esa iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va falsafiy yondashuvlar birlashtiriladi.

Fanlararo yondashuv talabaning muammolarga kompleks qarashini shakllantiradi hamda turli fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglashiga yordam beradi.

Mustaqil ta’lim va tadqiqotchilik faoliyati. Zamonaviy ta’limda talabaning mustaqil faoliyatiga alohida e’tibor berilmoqda. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda mustaqil ta’limni referat yoki konspekt yozish bilan cheklamaslik lozim.

Talabalarga ilmiy maqolalarni tahlil qilish, tarixiy manbalar bilan ishlash, so‘rovnoma va intervyular o‘tkazish, kichik ilmiy loyihalar tayyorlash, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish kabi topshiriqlar berilishi maqsadga muvofiq.

Bunday faoliyat talabaning izlanish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va o‘z fikrini ilmiy asoslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.[5]

Sun’iy intellektdan foydalanish. Sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim jarayoniga ham yangi imkoniyatlarni olib kirmoqda. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda sun’iy intellektdan mavzu bo‘yicha savollar yaratish, o‘quv materiallarini tayyorlash, turli fikrlarni taqqoslash va individual topshiriqlar ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Shu bilan birga, sun’iy intellektdan foydalanishda akademik halollik va axborotning ishonchliligi masalalariga alohida e’tibor berish zarur. Sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan ma’lumotlar har doim ham to‘g‘ri bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun talaba olingan ma’lumotni ishonchli ilmiy manbalar bilan tekshirishi lozim.

UNESCO sun’iy intellektdan ta’limda foydalanishda inson manfaatlari, axloqiylik, tenglik va tanqidiy fikrlash tamoyillarini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi.[6]

Zamonaviy baholash tizimi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda baholash jarayoni ham zamonaviy talablar asosida takomillashmoqda. Faqat yakuniy imtihon natijasiga asoslangan baholash o‘rniga talabaning butun o‘quv jarayonidagi faoliyatini hisobga olish muhim.

Esse, loyiha, taqdimot, portfolio, munozaradagi ishtirok, mustaqil tadqiqot va amaliy topshiriqlar talabaning bilim va kompetensiyalarini baholash imkonini beradi.

Bunday baholash tizimi talabaning nafaqat bilimini, balki uning mustaqil fikrlashi, muammoni hal qilishi, axborot bilan ishlashi va o‘z fikrini asoslay olish qobiliyatini ham aniqlashga yordam beradi.

Muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bilan bir qatorda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, texnik imkoniyatlarning yetarli emasligi, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi

turlicha bo‘lishi, internetdagi axborotlarning ishonchliligini aniqlash va akademik halollikni ta’minlash masalalari dolzarbdir.

